

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Durmenov Sh.N.**



**HARBIY TARIX**

5111500 – Chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun o‘quv qo‘llanma

Toshkent – 2020

## **Annotatsiya**

Mazkur o'quv qo'llanmada insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan biri bo'lgan quldorlik jamiyati urushlaridan tortib, hozirgi kunda dunyoda yuz berayotgan kichik ko'lamdagi urushlargacha bo'lgan tarixiy voqelik , bu urushlarda harbiy san'atning qay tarzda rivojlanib kelganligi bayon qilingan.

## **Аннотация**

В данном учебном пособии отражены этапы развития военного искусства, описываются исторические события с войн первоначальной ступени рабовладельческого строя до маломасштабных войн настоящего времени.

## **Annotation**

The manual explain historical events from slavery society, which is the development of humanity, to current global conflicts of small scale and it gives clear understanding of how martial arts have been developed through these events.

O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020 yil 14 avgustdagi 418 – sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **So‘z boshi**

O‘quv qo‘llanmada urushlarning mazmuni, sabablari, xarakterlarini, ularni olib borish usul va vositalarini jamiyat xayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moddiy-texnikaviy sharoitlari o‘zgarishi bilan bog‘liqlikda o‘rganadigan fan.

Insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiy san‘atning mazmuni va xarakterini va ular rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ochib beradi. Halq qo‘shinlarining harbiy tayyorgarligi jahon harbiy san‘atining rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Jalolidin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur Zaxiriddin Muhammad Bobur hazratlarining harbiy taktika va strategiyasi, insoniyat tarixidagi eng katta va mudhish urushlardan biri bo‘lgan Ikkinchi Jahon urushi voqealari, unda qo‘llanilgan qurol-aslahalar va harbiy texnikalar, strategiya va taktika keng o‘rin egallagan.

Mamlakatimiz Qurolli kuchlarining mustaqillik yillarida tashkil topganligi, qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar tarixi ham mazkur to‘plamda alohida mavzu sifatida kiritilgan.

Mazkur o‘quv qo‘llanma oliy o‘quv yurti chaqiriqqacha harbiy ta‘lim yo‘nalishi talabalari uchun yaratilgan. O‘quv qo‘llanmani tayyorlashda I.Ikramov., M. Sa‘dullaev, A.Kuchkarov, A.Sotivoldiev<sup>1</sup> Sh.Akramovalarning o‘quv qo‘llanmalari, ilmiy-nazariy maqolalaridan foydalanildi. Shu sababdan ularga o‘z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

**Taqrizchilar:**    **L.Davirov**    Nizomiy nomidagi TDPU chaqiriqqacha harbiy ta‘lim fakulteti dekani

**I. Saidov**    Toshkent avtomobil yo‘llari loyihalash, qurish va ekspluatatsiya instituti harbiy kafedra boshlig‘i

## **ATAMALARNI QISQARTMALARI**

OBQ- Oliy Bosh Qo‘mondonlik

HT- Harbiy tayorgarlik

TQTP- Tankka qarshi tayanch punktlari

QQ - Quruqlikdagi Qo‘shinlari

HHK- Harbiy Havо Kuchlari

MQQ-Muxandis-Quruvchi Qo‘shinlardan

MQ-Maxsus qo‘shinlardan

RQKA-Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi

HXMQ-Havo xujumidan mudofaa qo‘shinlari

URM - Umumrivojlantiruvchi mashqlar

## **KIRISH**

Dunyoda agressiv urushlar, harbiy ziddiyatlarning o'sish xavfi mavjud ekan O'zbekiston Respublikasi mudofaa qudratini kuchaytirish, mamlakat xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi Milliy armiyasi har qanday tajavuzkor kuchlarni tor-mor qilishga jangovor tayyorgarligiga bir zum bo'lsa ham susaytirib bo'lmaydigan e'tiborni qaratishini talab etadi.

O'zbekiston Respublikasi Milliy armiyasi hozirgi paytda harbiy xizmatchilar malakasi sifatini oshirishda ularni jangovar haqqoniylik sharoitiga nisbatan maksimal yaqinlashtirilgan ta'lim va tarbiyani amalga oshirish bo'yicha sezilarli ishlar olib borilmoqda. Harbiy xizmatchilar axloqiy-jangovar sifatlarini rivojlantirish, tartib va harbiy intizomni mustahkamlash, jismoniy chiniqishlarni kuchaytirish, zamonaviy urushlar uchun xarakterli bo'lgan qiyinchiliklarga bardosh bera olish qobiliyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Harbiy xizmatchilar, talabalar tarbiyasini samarali tashkil etish maqsadida ko'pgina fanlarning, xususan harbiy xizmatni psixologik, pedagogik jihatlari, eng avvalo shaxsiy tarkibni jangovar va siyosiy tayyorgarligini o'rganuvchi harbiy tarixning yutuqlaridan foydalanilmoqda.

Harbiy tarix fani harbiy-pedagogik jarayon rivojlanishining mazmuni va dialektikasi, harbiy xizmatchilar ruhiyati va harbiy jamoalarning psixo-pedagogik qonuniyatlarini aniqlagan va tatqiq qilgan holda harbiy qism, harbiy ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiyaviy ishlarning sharoitlari, tamoyillari, metodlari va tashkiliy shakllarini, shuningdek, harbiylarning xizmat faoliyati va munosabatini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalarni asoslab beradi. Ushbu orqali ular fanning nazariy qoidalarini amaliyotga joriy qilish yo'llarini ishlab chiqadilar, komandirlar, pedagoglar, boshliqlarni samarali va ta'sir ko'rsatadigan pedagogik, psixologik vositalar va usullar bilan qurollantiradi, ularda kursantlar, qo'l ostidagilarni o'qitish va tarbiyalay olish, ularni tinchlik payti bilan bir qatorda jang vaqtida boshqara olish qobiliyatlarini shakllantiradi. Demakki, harbiy tarix nafaqat nazariy, bilishga oid vazifani bajaradi, balki bolajak pedagog, komandirlar va

boshliqlar kursantlar va qo'l ostidagilari bilan muvaffaqiyatli ishlashga yordam beruvchi va o'tmishdan hozirgi kungacha bolgan davrlargacha amaliy fanlar sifatida oldinga chiqadi.

Ushbu qollanma oliy harbiy ta'lim muassasalariga mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak harbiy pedagoglar harbiy xizmatchilarni harbiy tayyorgarligini ilmiy pedagogik, psixologik bilim, ko'nikma va malakalar tizimiga ega bo'lishi, ularda o'z kasbiga nisbatan qiziqish va muhabbatni shakllantirish, bo'lajak Vatan himoyachisini mohirona bilim berib, tarbiyalay olishga qodir pedagogik madaniyat va mahoratni rivojlantirishiga undaydi. Ushbu o'quv qollanma pedagogika universitetlari oliy harbiy ta'lim muassasalari o'qituvchilari, talabalar uchun ham katta yordam beradi. Harbiy tarix fani imkoniyatlaridan foydalanishda deyarli barcha mavzularda talabalarni harbiy tayyorgarlik va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi samaradorligini oshirish inobatga olingan. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti – Qurolli kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Shavkat Mirziyoev Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi bayonotida “Yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish alohida muhim ahamiyatga ega. Shuni hisobga olib, mamlakatimizda o'rta maktabdan boshlab oliy o'quv yurtlarigacha qamrab oladigan uzluksiz harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratilmoqda”<sup>1</sup>, deya harbiy tarix fani oldiga dolzarb vazifalar qo'yganlar.

Ushbu o'quv qollanma haqidagi asoslantirilgan fikr va mulohazalarni muallif mamnuniyat bilan qabul qiladi.

---

<sup>1</sup>Mirziyoev Sh. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi – Elektron resurs: [http://uza.uz/oz/politics/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-bar-arorligi-va-tara-iyetini-11-01-2018?sphrase\\_id=4108356](http://uza.uz/oz/politics/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-bar-arorligi-va-tara-iyetini-11-01-2018?sphrase_id=4108356). Murojaat qilingan sana: 12.01.2018.

## I BOB HARBIY TARIX O'QUV FAN SIFATIDA

### 1.1. Insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiysan'atning mazmuni va xarakteri.

Armiyaning yuzaga kelishi bilan jangovar faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan shaxsiy tarkibning ta'lim va tarbiyasi maxsus ijtimoiy hodisa sifatida bo'lgan va shunday bo'lib qoladi. Ushbu tarkibiy qism o'z mazmuni bo'yicha amaliy harbiy tarix hisoblanib, harbiylarni har tomonlama jangovor xatti-harakatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirishiga zaruriy, majburiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Uzoq vaqt harbiy-pedagogik tavsiyalar ajdodlardan avlodlarga rivoyat, o'git, maqol, matallar asosida o'tib kelgan.

Harbiy ish murakkablashib borgan sari, ayniqsa, milliy davlatlar vujudga kelishi davrida qiyosiy ko'p sonli muntazaam armiyalarni tashkil topishi bilan harbiy-pedagogik, buyuk gumfnistlar fikrlar ham kelgusidagi rivojlanishga yuz tutdi.

Bu davrga kelib umumlashgan harbiy-tarix tajribalar ko'rsatma, jang san'ati pand-nasihat, ustav, buyruq va boshqa yozma manbalarda o'z aksini topdi. Harbiy tarix va uning rivojlanish jarayoni mazmuniga mamlakatning tarixiy rivojlanish shart-sharoitlari, ko'p vaqt davomida u yoki bu mamlakat armiyasining hal qiluvchi vazifalari, shaxsiy tarkibning milliy xususiyatlari va boshqalar o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Eng qadimgi harbiy tarbiyalash haqidagi yodgorliklar bizgacha bevosita yetib kelmagan. Turkiy va forsiyzabon xalqlarning hayot kechirish san'ati, donolik majmuasi sifatida yuzaga kelib, borliqqa amaliy munosabatda bo'lishning namunasi tarzida e'tirof etilgan ma'naviy madaniyat yodgorliklari qadimgi grek tarixchisi Gerodotning "Tarix", Strabonning "Geografiya" hamda Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" kabi asarlari, shuningdek, Urxun-Yenisey bitiklari kabi adabiy-tarixiy manbalarda saqlangan va ular orqali bizgacha yetib kelgan. Ushbu yodgorliklar mohiyatini o'rganish insonning shakllanishida moddiy va ma'naviy madaniyat qay darajada katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi. Xususan, tarbiya insonning aqliy va axloqiy jihatdan tarkib topa borishiga ta'sir etgan bo'lsa, insonning shakllana borishi ham o'z navbatida kishilik jamiyatining qaror topa borishiga yordam bergan. Xullas, tafakkur yurita olish qobiliyatiga ega bo'lgan inson kamolotining ta'minlanish jarayoni hamda jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti o'zaro uzviy aloqada shakllangan. Mazkur tarixiy jarayon mohiyatini bilish bizga inson

tafakkurining juda uzoq davr va murakkab sharoitlarda shakllana borganligidan dalolat beradi.

Urug'chilik jamoasi bosqichida esa bolalar mehnatining ko'lami kengayib, kasb-hunar faoliyatining turlari ko'payib boradi. Tajribali kishilar bolalarni tarbiyalash bilan birga ularni yozishga ham o'rgata boshlaydilar. Asta-sekin harbiy tarbiyaning boshlang'ich ko'rinishlari yuzaga kela boshlaydi. Bolalarga harbiy san'at sirlarini o'rgatish ancha murakkab ish bo'lib, ushbu tarbiyani tashkil etish maxsus bilim hamda tayyorgarlikka ega bo'lishni taqozo etar edi. Shu bois maxsus harbiy bilim va tayyorgarlikka ega bo'lgan kishilar bolalarga bu boradagi bilimlarni berish jarayoniga jalb etila boshladilar.

Miloddan oldin taxminan 484(480)—431(425) yillarda yashagan yunon tarixchisi Gerodotning "Tarix" kitobida qadimgi forslar, saklar, massagetlarning ta'lim-tarbiya tarziga oid muhim ma'lumotlar berilgan. "Forslarning eng sharaflaydigan narsasi jasurlikdir", - deydi olim. Shunga ko'ra ular ko'proq o'g'il bolalardan faxrlanganlar. Podshoh ham kimning o'g'li ko'p bo'lsa, unga har yili sovg'a-salomlar yuborgan. Bundan tashqari bolalarning yoshiga ham e'tibor berishgan. O'g'il bolalarni besh yoshdan yigirma yoshigacha faqat uch narsaga: otda yurish, kamondan otish, to'g'ri so'zlikka o'rgatilgan. Bolani besh yoshgacha otasiga ko'rsatmaganlar, u ayollar tarbiyasida bo'lgan. Mabodo o'g'il bola vafot etsa, otasining qayg'urmasligi uchun shunday qilganlar.

O'g'illar hech qachon ota-onasiga nisbatan hurmatsizlik qilmaganlar. Ular bunday holatni faqat nikohsiz tug'ilgan yoki tashlandiq bolalardangina kutish mumkin, deb hisoblaganlar.

Bundan tashqari, Gerodot forslar uchun yolg'onchilik va qarzdor bo'lish sharmandalik hisoblangan, deydi. Ular daryolarni muqaddas sanaganlar. Shu bois daryo suviga tupurmaganlar, hatto qo'l yuvmaganlar.<sup>2</sup>

Gerodotning ushbu ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bizning ajdodlarimiz o'g'il farzandlarini jasoratli, o'z Vatanining haqiqiy himoyachisi, kuchli va botir inson etib tarbiyalashga katta e'tibor berganlar. Yigitlar va erkaklargina emas, hatto ayollarning ham jasorat ko'rsatganlari borasidagi fikrlar yunon faylasuflari tomonidan yozib qoldirilgan.

---

<sup>2</sup> Sh.Akramova. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: O'zR MG HTI, 2018 y. - 27 b.



Masalan, Plutarx fors ayollari haqida gapirib, shunday voqeani keltiradi: podshoh Kir forslarni shoh Astiag boshliq midiyaliklarga qarshi kurashga otlantirganda, ular jangda mag'lub bo'ladilar. Fors jangchilari shaharga qarab qocha boshlaydilar. Dushman ularni quvib, shaharga bostirib kirishiga yaqin qolganda, darvozadan ularga qarshi ayollar chiqib keladilar va yoqavayron holda shovqin ko'taradilar: "Ey, noinsof bandalar, qayoqqa qochmoqchisizlar? Endi siz dunyoga kelgan joyingizga qaytib yashirina olmaysizlar-ku!" Forslar ayollarning bu xatti-harakatiga dosh bera olmay, qaytib jangga tashlanadilar va dushmanni orqaga chekinishga majbur etadilar.

Bu voqeaga xotira sifatida Kir shunday qonun ta'sis etadi: "Bu shaharga qaysi shoh qadam qo'ysa, har bir ayolga bittadan oltin sovg'a qilsin".

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, mavjud holatlar hamda shart-sharoitning o'zi Yoshlarga otda yurish, kamondan otish borasidagi bilimlarni o'rgatish, shuningdek, ularda jasurlik, to'g'rilik va botirlik xislatlarini tarbiyalash lozimligini taqozo etgan. Shu bois qadimgi ajdodlarimiz bolalarni o'z xalqining erki va yurt mustaqilligining himoyachilari etib tarbiyalaganlar.

Plutarxning yana bir o'rinda qayd etishicha, Aleksandr Makedonskiy yerli xalqlarga yaqinlashish maqsadida makedoniyaliklar bilan mahalliy xalqlarning urf-odatlarini o'zaro uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Shu maqsadda u o'ttiz ming bolani ajratib olib, yunon tili va makedoniyaliklarga xos bo'lgan harbiy san'at sirlarini o'rgatishga buyruq bergan. Ana shu maqsadni amalga oshirishga juda ko'p murabbiylar tayinlangan. Yunon alifbosining keyinchalik bu yurtda qabul qilinishi o'sha davrda ko'plab maktablar ochilgani hamda unda yerli aholi farzandlari ham o'qitilganidan dalolat beradi.

So'g'd yozma yodgorliklari orasida V.B.Xen tomonidan aniqlangan va "Eski xatlar" nomi bilan yuritiladigan qimmatli manbalar eramizning boshlarida shakllangan so'g'd yozuvi haqida ma'lumot beradi. Ushbu manbalarni Dunxuan shahri (Sharqiy Turkiston) yaqinidagi savdo qishlog'ida yashagan so'g'dlik tijoratchi (savdogar)larning o'z ona yurtlari Samarqandga yozgan va shaxsiy xarakterga ega bo'lgan xatlar tashkil qiladi.

Imperator Yan Li (615-617)ning elchisi Vey Tszi hisobotlarida ham Samarqand shahrida yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiya haqidagi ma'lumotlar mavjud. Samarqandning mohir savdogarlari o'g'il bola besh yoshga to'lar ekan, unga savdoni o'rgata boshlaydilar. O'qishni o'rganishi bilan savdo ishlari ham o'rgatilgan. Sun-Tszi nomli boshqa bir Xitoy

tarixchisi esa Samarqand aholisining axloq va xulq-odob qoidalariga rioya etishi boshqalarga o'rnak bo'lganligini aytib o'tgan. Bularning barchasi qadimgi davrlarda bolalarning besh Yoshidan o'qitilgani, ta'lim jarayonida ularni amaliy hayotga tayyorlash asosiy maqsad qilib belgiligi to'grisidagi ma'lumotlarni beradi.

Bu ma'lumotlar qadimda bolalar o'qitiladigan savod maktablari bo'lganligi va maktablardan tashqari bolalar maxsus murabbiylar tomonidan harbiy-jismoniy mashqlarni bajara olish va muayyan hunar sirlarini o'zlashtirish ishiga jalb etilganligidan darak beradi.

Eng qadimgi davrlarda yo'lga qo'yilgan ta'lim-tarbiyaga oid qimmatli ma'lumotlarni biz yana xalq og'zaki ijodi namunalari: afsonalar, qahramonlik eposlari, qo'shiqlar, maqol va iboralarda ilgari surilgan g'oyalardan ham olishimiz mumkin. Chunki xalq donishmandligining yorqin namunasi bo'lgan xalq og'zaki ijodida xalq pedagogikasiga xos bo'lgan tarbiya tajribalari umumlashgan.

Miflar asosida yaratilgan qahramonlar tomonidan olib borilgan harakatlar qahramonlik eposlarining yaratilishi uchun zamin hozirlagan. Qahramonlik eposlarida Vatanga bo'lgan muhabbat, erk va ozodlik uchun kurash, yurtining har bir qarich yerini asrash, qadrdon qabilasining farovonligi, to'kin-sochinligini ta'minlash yo'lida jonini fido etish, qabilaning sha'ni, sharafi, ori va nomusi uchun kurashish tuyg'ulari tarannum etilgan. Zarina, Sparetra, To'maris hamda Shiroq (Siroq)lar tomonidan ko'rsatilgan yuksak vatanparvarlik namunalari, Zarina va Striangey, Zariadr va Odatida muhabbatlari, mardlik va qahramonlik timsollari bo'lgan Rustam va Siyovush (Xorazm-Qang' eposi)larning jasoratlari to'g'risida hikoya qiluvchi epopeyalar shular jumlasidandir. Bizgacha etib kelgan epik asar (afsona va rivoyat)larda asosan ajdodlarimizning yurt ozodligi, vatan ravnaqi va qabila farovonligi yo'lida olib borgan kurashlari o'z ifodasini topgan. Qahramonlar Vatanni va xalqni sevishi, or-nomusni muqaddas deb bilish, do'st va safdoshlarga sadoqat, burchni yuksak darajada anglash, unga sodiqlik, vatan va xalqi uchun o'z jonini qurbon etish, har qanday mashaqqatga bardosh berish, o'z sevgi-muhabbati yo'lida aziyat kechishga tayyorlik kabi insoniy tuyg'ular ularning asosiy xususiyatlaridir. Qahramonlik eposlarida ulug'langan eng asosiy axloqiy xislatlari - jasurlik va mardlikdir.

Jasurlik, kuchlilik va mardlik – qadimiy kishilarda tarkib topishi zarur bo'lgan eng muhim fazilatlar sanalgan. Tarixiy shaxslarning hayoti va qahramonliklari borasida ma'lumotlar beruvchi rivoyatlar fikrimizning yorqin dalilidir. Ularda muayyan shaxs

faoliyati, donishmandligi, qahramonliklari, tarixiy shaxs ega bo'lgan axloqiy fazilatlar: nazokat, kamtarlik, aql-idrok, o'zgalarga muhabbat, yorga vafo, sadoqat, baxt, odillik, odamiylik, oliy himmatlilik va mehnatsevarlik kabilar ulug'langan.

Eposlar mazmunida bayon etilishicha, xotin-qizlar turli sharoitlarda erkaklar bilan teng sharoitda faoliyat ko'rsatganlar. Ular xo'jalik ishlari bilan chegaralanib qolmay, urushlarda ham jasorat ko'rsatganlar.

Tarixdan ma'lumki, dastlab Amudaryoning asosiy tarmog'i O'zboy Kaspiy dengiziga quyilgan. Uning o'ng qirg'og'i Turon, chap qirg'og'i Eron deb yuritilgan. Eramizdan oldin Ahmoniylar sak va massaget qabilalariga ketma-ket hujum qilib turgan. Ana shu tarixiy voqealar sak va massagetlar tomonidan yaratilgan eposlarda o'z ifodasini topgan.

Eron shohi Kir ko'chmanchi sak va massaget qabilalariga qarshi urushib mag'lubiyatga uchraydi va 529 yilda halok bo'ladi. Tarixchilar Kir va uning qo'shinlarini avval o'z hududlarining ancha ichkarisiga bostirib kirishlariga imkon berib, keyin qo'shinning katta qismini qirqib tashlagan qahramonlar haqida ma'lumotlar beradi.

Poliening "Harbiy hiylalar" asarida keltirilgan rivoyatlarda Shiroq (Siroq) obrazi vatanparvarlik va qahramonlik timsoli sifatida hali hanuz Yoshlarni tarbiyalab keladi. Gerodotning "Tarix" kitobida keltirilgan massagetlar hukmdori To'marisga uylanish bahonasida Eron shohi Kirning Turon o'lkasiga uyushtirgan hujumi haqidagi ma'lumotlar ham muhim ahamiyatga egadir. Demak, xalqimizning ta'lim-tarbiyaga oid qarashlari, xulq-atvoriga oid xislatlari eng qadimgi epik yodgorliklar - "Avesto", "Shohnoma" kabi asarlar, mif va afsonalar orqali bizgacha etib kelgan.

Qadimgi ajdodlarimiz insonga xos jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlarni qadrlaganlar. Bu xislatlar insonda o'z-o'zidan shakllanmagan. Tabiat va jamiyat hayotida ro'y bergan o'zgarishlar, ibtidoiy urug'chilik davrida qaror topgan turmush tarzi insonda ana shunday xislatlarning shakllanishini taqozo etgan.

Ikki katta kuch - yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi ayovsiz kurash insonda yuqorida qayd etilgan xislatlarning bevosita tarkib topishiga turtki bo'lgan.

Eng qadimgi qo'shiq va lirik she'rlarda jasurlik, adolat, sadoqat va insoniylik kabi xislatlar tarannum etilgan. Bunday qo'shiq va lirik she'rlar XI asrda yashagan ulug' olim Mahmud Qoshg'ariy tomonidan yaratilgan "Devonu-lug'atit-turk" asari orqali bizgacha etib kelgan.

Turkiy xalqlarning tarixini yorituvchi qadimgi manbalarda pand-nasihat va o'gitlar etilgan asarlar ham ko'plab uchraydi. Ana shunday asarlar jumlasiga Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari ham kiradi. Alloma mazkur asarni 1076-1077 yillarda yozgan. Geograf olim H.Hasanov shunday misol keltiradi: 1914 yil Turkiyaning Diyorbakir shahrida bir beva xotin pulga muhtoj bo'lib, kitob do'koniga eski qo'lyozmani keltiradi va 30 liraga sotishini aytadi. Ammo bu narxga kitobni hech kim olmaydi. Bir kun do'konga keksa kitob muxlislaridan Ali Amiriy kirib qoladi va bir do'stidan qarz olib, kitobni sotib oladi (Ali Amiriy 1857-1924 yillarda yashagan, o'z shaxsiy kutubxonasida 15 mingga yaqin kitob yig'ib, Xammasini Shayx Fayzulloh madrasasiga hadya etgan. Keyinchalik bu kitoblar Fotih kutubxonasi - milliy kutubxonaga o'tkazilgan).

Bu kitob Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asari edi. Mazkur qo'lyozma asl nusxasidan hattot Muhammad bin Abu Bakr ibn Abdul Fotih as-Soviy al-Damashqiy tomonidan devon yozilgandan 200 yil o'tgach (1266 yilda) ko'chirilgan edi. Qo'lyozma 219 varaqli jilddan iborat bo'lib, sahifalar raqamlanmagan, fikrlarning boshi va oxiri noma'lum edi. Hozir bu qo'lyozma Istambulda Fotih kutubxonasining Ali Amiriy fondida saqlanadi.

"Devonu lug'atit-turk" asarida qadimgi turkiy so'zlarning arabcha izohli tarjimasi ham berilgan. Ushbu asarni qadimiy turkiy tilning izohli lug'ati ham deyish mumkin.

"Devonu lug'atit-turk" 1928 yilda nemis olimi Brokelman tomonidan nemis tiliga tarjima qilingan. 1939 yilda esa Bosim Atalay uni usmonli turk tiliga tarjima qilgan va mazkur tarjima Anqarada chop etilgan. O'zbekistonda asar Solih Muttalibov tomonidan tarjima qilinib, 1960-1963 yillarda uch jilddan iborat "Turkiy so'zlar lug'ati" nomi bilan nashr qilingan. 1967 yilda indeks lug'at ko'rsatkichi ham chop etilgan.

"Devonu lug'atit-turk" asarining she'riy parchalari ham nemis tiliga tarjima qilinib, 1914 yilda nashr etilgan.

Turk olimi Fuad Kuprilzoda, rus turkologlari V.Radlov hamda S.F.Malovlar ham "Devonu-lug'atit-turk" asari yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar. Abdurauf Fitrat ham she'riy parchalarni tarjima qilib, ularning lug'atini tuzgan va 1930 yilda Samarqandda nashr ettirgan. N.M.Mallaev "O'zbek adabiyoti tarixi" darsligiga "Devonu lug'atit turk"dagi qo'shiq va maqollarni kiritib, ularni tahlil etadi. A.Qayumov esa noyob qadimgi

yodgorliklarimiz - qo'shiqlar (she'riy parchalar)ni birinchi marta nasrdan nazmga o'girib, "Qadimiyat obidalari" nomli asariga kiritgan.

Aziz Qayumovning "Qadimiyat obidalari" nomli asaridagi pand-nasihatga oid o'gitlar bilan sug'orilgan she'riy parchalar tarjimasi mazmuni orqali ularda ilgari surilgan ma'rifiy g'oyalar asosida o'sha davrda olib borilgan tarbiya mazmuni haqida ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Asarning mohiyatini yoritishga xizmat qiluvchi manbalarning aksariyatida Mahmud Qoshg'ariyning qo'shiqlarni xalq orasidan yiqqanligi ta'kidlanadi. Aziz Qayumov esa bu she'r parchalarining asl nusxasida o'sha davrda mavjud bo'lgan badiiy ijodga nisbatan yuksak talabchanlik aniq sezilib turishi, she'rlarni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli ekani, chuqur bilim va nafis badiiy didga ega ekani xususidagi fikrlarni qayd etadi va pand-nasihatga oid qo'shiqlarni alohida guruhga ajratib, ularni tarjima qilib, mazmunini tahlil etadi.

She'rlarda ilm olishning qadri, bilimli va donishmand kishilarni hurmat qilish, mehmondo'stlik, xushxulqlik, mardlik, jasurlikni targ'ib etuvchi, o'z manfaatini ko'zlagan molparast, baxil, ochko'z, do'sti va xalqiga hiyonat kabi xislatlarni qoralaydigan she'rlar ko'p uchraydi. Bunday she'rlar turkiy xalqlar qadim-qadimdan boshlab inson shaxsini shakllantirishda ta'lim-tarbiyaga katta e'tibor berganligidan darak beradi.

Pand-nasihat janridagi asarlarning mazmunida asosiy o'rinni ilm olishga undash, uning foydalari, ilm ahlini hurmat etish to'g'risidagi fikrlar egallaydi. Yoshlarga ilmi kishilarga yaqinlashish, ulardan o'gitlar olish maslahat beriladi:

O'g'lim, senga qoldirdim o'git,

Unga amal qil.

Olimlarga yaqinlash, bahra olgil,

Tutib dil.

Demak, o'g'ilga nasihat qilgan ota bilimli kishilardan yaxshilik kelishiga ishonadi, ammo ularning fikrini eshitibgina qolmay, amalda unga rioya etish lozimligini ham uqtiradi.

Insoniyat tarixining barcha davrlarida davlat qo'shinlari uning tayanchi, xalqning tinchligi va osoyishtaligi garovi bo'lib kelgan.

Qo'shirlarning holati, ta'minoti, harbiylarni burchni bajarishda mas'uliyat, mardlik va sadoqat ruhida hamda ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash masalalari mamlakatlar taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Bu borada Sharq allomalarining qo'shin, xususan lashkarboshi va askarlarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarni shakllantirish borasidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

O'rta asr Sharqining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy lashkarboshi va uning fazilatlari xususida ilg'or fikrlarni ilgari suradi. Uning fikricha, lashkarboshi foydali va go'zal hisoblangan fikriy qobiliyati bilan birga, barcha askarlar uchun umumiy axloqiy sifatlarga ham ega bo'lishi kerak. Agar u mazkur harakatlarni oxiriga yetkazishni xohlasa, askarlarga xos bo'lgan sifatlardan foydalanadi. Uning jasurligi harbiylarning alohida xatti-harakatlarida namoyon bo'ladigan jasurlikka mos bo'lishi kerak. Farobiyning ta'kidlashicha, qo'shinga xos bo'lgan fazilatlarga donolik, mulohazakorlik, ishontira olishlik, jismonan baquvvatlilik, ruhan tetiklik, ma'naviy yetuklik, vatanparvarlik, jasurlik kabi yuksak insoniy fazilatlar kiradi. Chunki ushbu fazilatlarsiz qo'shin mukammal va g'olib bo'la olmaydi. Allomaning bu fikrlari keyingi davr mutafakkirlari tomonidan rivojlantirildi.

XIV-XV asr Sharq allomalari esa hukmdorlarning harbiy faoliyati, qo'shinlar tarbiyasi, askarlar kuchi va qudratiga katta ahamiyat berganlar, ularning jasurligi va shijoatini ulug'laganlar. Ularning fikricha, hukmdorlar qo'shinlarsiz, ularning ko'magi va qo'llab-quvvatlashisiz mavjud bo'lolmaydi. Bunga javoban hukmdor va davlat doimo o'z qo'shinlarini qo'llab-quvvatlashi, ularga moddiy yordam berishi, imkon qadar soliqlardan ozod qilishi, maoshini kamaytirmasligi kerak. «Askarlar maosh olmasalar, ular xizmatdan bosh tortadilar, yordamga kelmaydilar. Shu tariqa podsholik qo'ldan ketadi», - degan edi Koshifiy.

Shuningdek, mutafakkirlarning hisoblashicha, dushmanga qarshi urushda hukmdor va qo'shinlar adolat qoidalariga rioya qilishlari kerak. Agar hukmdor va qo'shinlar adolat qoidalariga rioya qilsalar, ular dushman ustidan muqarrar g'alaba qozonadilar, buning uchun hukmdor qobiliyatli, uzoqni ko'ruvchi, ma'lum ma'noda josuslik san'atiga ega bo'lishi kerak.

Xususan, Davoniy askarlarda 3 fazilat mujassam bo'lmog'i lozimligini, ya'ni ularning jasur, zukko va jang qilishda mohir bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Jangda o'zini

ko'rsatgan askarlarni munosib baholash va rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega. Podshoh hatto, dushman ustidan g'alaba qozonganidan so'ng ham hushyorligini yo'qotishi yaramaydi. U mamlakatning harbiy qudratini dushmandan maxfiy saqlashi lozim. Davoniyning fikricha, askarlar eng shijoatli kishilardir, chunki ular davlat chegarasi va qal'alarini qo'riqlaydilar. Shuning uchun ular davlatning eng hurmatli kishilari hisoblanadilar. Davlat boshlig'i ularga doim moddiy yordam ko'rsatib, har bir askarni e'zozlashi lozim.

Qo'shin uchun zarur bo'lgan fazilatlar to'g'risida buyuk davlat arbobi va sarkarda Zahiriddin Bobur ham ilg'or fikrlarni bildirgan. Chunonchi, uning sarkarda sifatidagi muvaffaqiyatlari kaliti – bu cherikni, ya'ni qo'shinning ko'nglini olmoqligida bo'lgan. Bobur askar ko'nglini olmoqning bosh mezoni qilib kishining qaerdanligi, millati va nasabini emas, balki shohiga sadoqat, mardligi, fidoyiligi, vafodorligi, davlat himoyasiga qo'shgan hissasini belgilangan.

Boburning qo'shin ko'nglini olishi uni faqat moddiy jihatdan ta'minlashdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki ma'naviy jihatdan qo'shinni qo'llab-quvvatlash, uning o'ziga xayrixohligiga erishishiga ham muyassar bo'lardi. Shuningdek, u insonga xos buyuk fazilatlardan biri mardlikni ulug'laydi. Allomaning fikricha, mardlikning oliy darajada namoyon bo'lishi deb, Vatan uchun dushman bilan jang qilish, zarur bo'lsa, jonini ham qurbon qila olishdir.

Ma'rifatparvar Ahmad Donish davlat faoliyatida qo'shinning naqadar katta rol o'ynashini alohida e'tirof etadi. Ayniqsa, uning askar boshlig'i, ularning fazilatlarini va qo'l ostidagilarga munosabati to'g'risidagi g'oyalari qimmatlidir. Alloma askar boshlig'i quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Bu sifatlarga shijoatlilik, fahm-farosatlilik, tajribalilik, jasurlik, ziyraklik, donishmandlilik, dovyuraklik kabilar kiradi. Donishning e'tirof etishicha, shunday sifatlarga ega bo'lgan kishi askar boshlig'i bo'lar ekan, shundagina askarni saqlab, ziyon va zahmatga qoldirmay, dushmanni engib shon va sharafga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, Sharq mutafakkirlari asosiy e'tiborlarini bir tomondan, qo'shinlar kuch-qudratini oshirish, ularning harbiy mahoratini yuksaltirish, mamlakat yaxlitligi va xavfsizligini saqlashga, ikkinchi tomondan, qo'shinda ma'naviy-axloqiy va g'oyaviy fazilatlarni tarbiyalashga qaratdilar. Allomalarimizning bu fikr-mulohazalari

bugungi kunda mamlakatimiz harbiy salohiyatini mustahkamlash, harbiy xizmatchilarning jangovar shayligini oshirish va ularda yuksak insoniy fazilatlarni tarbiyalashda muhim manba bo'lishi shubhasiz.

XX asr boshiga kelib harbiy pedagogika ko'pgina omillarni ifodalovchi mustaqil ilmiy soha sifatida rasmiylashishni boshladi. Bu vaqtga kelib qo'shin tashkil topishining yangi tamoyillari, ta'lim va tarbiyaning yangi usullarini joriy qilishni talab etuvchi qurolning yangi turlari paydo bo'ldi, qurolli urushlarning usullari va shakllari o'zgardi. XX asrning 50-60 yillariga kelib harbiy ishda sifatli tub o'zgarishlar, armiyaning yangi jangovor texnika va qurollar bilan ta'minlanishi, jangovor faoliyat xarakterining o'zgarishi, unga bo'lgan talablarning kuchayishi, shaxsiy tarkibning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining jiddiy o'zgarishlari natijasida ko'pgina yangi harbiy-pedagogik masalalarni qayta ishlab chiqishga zaruriyatini yuzaga keltirdi. Bu esa o'z navbatida rahbar kadrlar e'tiborini harbiy pedagogikaga qaratishni kuchaytirib, uning muammolarini ishlab chiqish bo'yicha qator markazlar tuzilishiga olib keldi.

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida bir necha yillardan buyon chaqiriqqacha harbiy ta'lim kafedrasini tashkil etildi, shuningdek, hozirgi kundagi harbiy tarix O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining yangi tashkil topish sharoitlarida o'zining dinamik rivojlanish bosqichiga ko'tarildi. Zamonaviy sharoit O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda ta'lim va tarbiya faoliyatiga strategik kurs bilan muvofiqlikda tubdan qayta qurish vazifalarini oldinga qo'ydi. .

Harbiy tarix fundamental nazariy muammolarni hal qilish bilan birga kundalik amaliyotga ilg'or harbiylar tajribani o'rganish, umumlashtirish va joriy qilinishiga o'ziga xos e'tiborni qaratishga chaqiradi, shuningdek, komandir, siyosiy xodim, jamoat tashkilotlari bo'linmalari va qismlari, shaxsiy tarkibning jangavor tayyorgarligi, harbiy mahorati, intizomi va uyushqoqligining yuqori darajasi uchun keskin tayyorgarligida faol yordam beradigan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishni nazarda tutadi.

**Harbiy tarix** - bu, urushlarning mazmuni, sabablari, xarakterlarini, ularni olib borish usul va vositalarini jamiyat xayotining ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va moddiy-texnikaviy sharoitlari o'zgarishi bilan bog'liqlikda o'rganadigan fan.



**«Harbiy san'at va urushlar tarixi»** - insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiy san'atning mazmuni va xarakterini va ular rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ochib beradi.

Davlatlararo, milliy va irqchilik to'qnashuvlarini xalq etishda qurolning kuchi bosh argument bo'lib qoldi. Olimlarning ta'kidlashlaricha, oxirgi besh yarim ming yil ichida sayyoramizda 14 mingdan ortiq urushlar bo'lib o'tgan, ularda 4 milliarddan ortiq kishi xalok bo'lgan. Faqat XX asrning birinchi yarmida bo'lib o'tgan ikkita jaxon urushida 60 milliondan ortiq kishi qurbon bo'ldi, katta moddiy va ma'naviy boyliklar vayronaga aylandi.

Urushning ilmiy ta'rifi birinchi bo'lib nemis harbiy nazariyachisi Karl fon Klauzevits (1780-1831 y.) tomonidan berilgan. O'zining «Urush xaqida» asarida, «Urush nafaqat siyosiy akt, balki siyosatning xaqiqiy quroli xamdir, u siyosiy munosabatlarning davomi, bu munosabatlarni boshqa vositalar bilan olib borishdir»-deb yozgan edi u.

**Urush** - bu murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy hodisadir; davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning to'satdan o'zgarishi bilan bog'liq murakkab xolat xamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish uchun rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan qurolli kuch vositalarini qo'llashga o'tishdir.

Siyosat davlatni urushga tayyorlashning yo'nalishi va xarakteriga, ittifoqchilar urushlari ishtirokiga ta'sir ko'rsatadi, maqsadlarni aniqlaydi, urushning boshlanishini nazorat qiladi va uning borishini diqqat bilan kuzatadi va strategiya orqali qurolli kurashning shakllari va usullariga, ularni harbiy-siyosiy moxiyatga bo'ysundirgan xolda ta'sir ko'rsatadi. Urush davrida siyosiy va harbiy faoliyatning mustaxkam yakdilligi, odatda davlat siyosiy raxbariyatining oliy harbiy raxbariyatini xam gavdalantirishida o'z mazmunini topadi.

Xozirgi zamonda urushlar jaxon, yirik masshtabli, mintaqaviy va maxalliy urushlarga bo'linadi. Tarix insoniyat xayotining turli davrlarida davlatlar o'rtasida bo'lib o'tgan ko'plab urushlarni biladi va bu erda u yoki bu davlat ichida ijtimoiy va siyosiy kuchlar o'rtasida bo'lib o'tgan urushlar xaqida eslamasdan bo'lmaydi. Bunday urushlar fuqarolar urushi deb ataladi.

**Urushlar va harbiy san'at tarixida** urushlar va voqealarning ketma-ket sodir bo'lishiga asoslangan barcha aniqliklar yoritiladi, ya'ni urushlarning maqsadlari va

xarakterlari, kuchlar va tomonlar rejaları ochib beriladi, kompaniyalar, operatsiyalar, janglar taxlil qilinadi. Unda siyosiy, iqtisodiy va harbiy yakunlar yoritilib, g'alabalar va mag'lubiyatlar sabablari ochib beriladi, urushlarning jamiyat taraqqiyotiga ta'siri aniqlanadi va nixoyat urushlar tajribalaridan kerakli xulosalar va ta'lim chiqarib olinadi.

**Harbiy san'at**-harbiy xarakatlarni tayyorlash va ularni quruqlikda, xavoda va dengizda olib borish nazariyasi va amaliyotidir.

Harbiy san'at o'z ichiga strategiyani, operativ san'at va taktikani oladi. «Harbiy san'at» tuShunchasi bir muncha tor ma'noda xam qo'llanib, u kam kuchlar va dushmanga nisbatan kam talofatlar bilan g'alabaga erishishni ta'minlovchi harbiy boshliq, sarkardaning yuqori darajadagi maxoratini ifodalaydi. Bu erda so'z moxirona o'tkazilgan operatsiyalar, janglar, to'qnaShuvlarda jang qilayotgan tomonlardan birining harbiy san'at ustunligini qanday namoyish etganligi xususida bormoqda.<sup>3</sup>

Sarkardaning harbiy san'ati ma'lum tarixiy sharoitda, yuzaga kelgan murakkab vaziyatda o'z kuch va vositalarini yuqori samaradorlik bilan ishga solishida namoyon bo'ladi. Xususan Amir Temurning buyuk harbiy san'ati uning ko'plab yurishlarida, janglarida va kuchli dushman xisoblangan To'xtamish, Sulton Boyazidlarning ustidan qozonilgan g'alabalarida ko'rinadi.

Urushlar va harbiy san'at tarixi, u yoki bu harbiy-tarixiy voqealar qaysi shaklda kechgan va ularning oqibatiga nimalar ta'sir o'tkazgan, degan savollarga javob beradi. Bu fanning o'z oldiga qo'ygan vazifasi orttirilgan tajribalarni umumlashtirish, ularning rivojlanishini odilona mantiqda ko'rsatib berishdir.

Urushlar va harbiy san'atning rivojlanishi, urushlarning borishi va taqdiri - g'alabalar va mag'lubiyatlarda namoyon bo'ladigan o'zining va faqat o'ziga tegishli xususiyatlarga, qonuniyatlarga egadir. Bu qonuniyatlarni ochib berish ma'lum amaliy ahamiyatga ega. O'tmish tajribalarini xisobga olish, xozirgi zamon urushlarini anglash va kelajakda urushlar oqibatlarini ko'ra bilish, ma'lum bir sharoitlarda harbiy faoliyatni mazmuni va yo'nalishini aniqlash uchun kerak. Tarix bir xil aniqlikda takrorlanmaydi: xech bir zamonaviy harbiy voqea, o'tmishda bo'lib o'tgan voqealarga o'xshamaydi. Lekin Shunga qaramasdan u yoki

---

<sup>3</sup> M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005. 44 bet.

bu vaziyatlarning takrorlanishi bo‘lib turadiki, biz ulardan amaliyotda qo‘llash uchun kerakli ta‘limni ajratib olishimiz kerak.

Tarixiy tajribalarning ko‘rsatishicha, urushlar boshqa ijtimoiy xodisalar singari o‘z-o‘zidan sodir bo‘lmaydi, aksincha ular jamiyat xayotining xar xil bosqichlarida bo‘ladigan o‘zgarishlar bilan bog‘liq xolda yuzaga chiqadi. Urushlar, operatsiyalar va janglarni tayyorlash va olib borish usullari va shakllari uzluksiz o‘zgarib va murakkablashib boradi, qurolli kurash olib borishning keng ko‘lamlilik oshib boradi. Bu o‘zgarishlarning moddiy va ijtimoiy omillarini va rivojlanishining asosiy tendensiyalarini aniqlash katta ahamiyatga ega, chunki ular harbiy ishning keyingi takomillanish yo‘nalishlarini oldindan ko‘rib bilish imkoniyatini beradi. Bunday omillarga iqtisodiy sharoitlarni, yangi qurol-yarog‘ va jangovar texnika namunalari va jang olib borayotgan tomonlarning odamlar zaxiralarini yaratishlarini kiritish mumkin. Shu munosabat bilan, turli davrlarda harbiy san‘at rivojlanishining mazmunini tashkil etuvchi jangovar xarakterlarning yangi usullari va shakllari vujudga keladi.

Harbiy san‘atda qurolli kurashning yangi usullari va shakllarini xamma davlatlar armiyalari bir vaqtda o‘zlashtira olmaydi. Misol uchun, g‘ildirakli dala artilleriyasining birinchi namunalari ancha oldin yaratilganligiga qaramasdan u jangda faqatgina XVIII asrning o‘rtalarida o‘z ahamiyatiga ega bo‘ldi. XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida, ya‘ni Evropaga porox kirib kelganidan keyin besh yuz yil o‘tgach o‘q otar qurollar kurashning xal qiluvchi vositasiga aylandi. XIX-asrning o‘rtalarida o‘q otar qurollarning engil namunalari, kurtik stvolli artilleriya va yoriluvchi snaryadlar keng qo‘llanila boshlandi.

Shunday qilib, ertami kechmi yangi qurol-yarog‘lar va jangovar texnikaning ko‘plab ishlab chiqarish marasiga etib kelinish muqarrar bo‘lib, unda harbiy xarakterlari olib borishning sifat bo‘yicha yangicha san‘ati o‘z so‘zini o‘tkazishi aniq edi.

**Strategiya**-(grekchadan stratos-qo‘shin va ago-boshlab boraman) bu harbiy san‘atning tarkibiy qismi va yuqori pog‘onasi bo‘lib, u davlat va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini, strategik operatsiyalarni va umuman urushlarni rejalashtirishni qamrab oladi. Strategiya urush olib borish usullari va shakllarini ishlab chiqadi, unga xabarlik qiladi xamda urush xarakterlarini moddiy vositalar bilan ta‘minlash masalalari bilan shug‘ullanadi. Harbiy strategiya urush rejasini ishlab chiqadi, bu urushda qurolli kuchlar va qo‘shin turlarining rolini belgilaydi, urush davrida ularning o‘rtasidagi

yaqin o‘zaro xamkorlikni tashkil etadi, aloxida harbiy xarakatlar maydonlarida qurolli kuchlar xarakatlarini va koalitsiya urushlarida ittifoqchilar qurolli kuchlari xarakatlarini muvofiqlashtiradi. Ushbu vazifalardan davlat oliy harbiy idorasining roli va ahamiyati kelib chiqadi. Moxirona strategik raxbarlik qurolli kurashda xamma imkoniyatlardan, birinchi navbatda qurolli kuchlardan to‘lihg‘icha foydalanishni ta‘minlaydi.

Xarakatdagi armiya qachon kuchli bo‘ladi, qachonki qurolli kuchlarning xamma qo‘shin turlari, birlashmalari va qo‘shilmalarining o‘zaro bog‘liqligi joriy etilgan bo‘lsa, qachonki jangovar texnika, urush olib borish usullari va qo‘shinlarni tashkil etilishi o‘rtasida o‘zaro muvofiqlik bo‘lsa. Strategik raxbarlikning vazifasi mana shu o‘zaro xamkorlikni va qurolli kuchlar va qo‘shin turlarining birdamligini ta‘minlashdan iborat. Bunda qurolli kuchlarning xar bir turi umumiy yaxlitlikning bir bo‘lagi xisoblanadi. Agar bu yaxlitlikdan qandaydir bir qo‘shin turini ajratib olib, uning oldiga kuchi etmaydigan, uddasidan chiqa olmaydigan vazifa qo‘yilsa, uning muvaffaqiyatli bajarilishi xech qachon ta‘minlanmaydi. Urushda g‘alabaga erishish, qurolli kuchlar turlarining uyg‘unlik bilan rivojlanishiga, ularning o‘rtasida o‘zaro xamkorlikni ustalik bilan tashkil etishga bog‘liqdir.<sup>4</sup>

Harbiy strategiya davlat siyosatiga bog‘liq va bevosita unga tobedir. Siyosat urushning xarakteri va maqsadini aniqlaydi va strategiyaga vazifalar qo‘yadi, davlatni urushga tayyorlash uchun kerakli vositalarni belgilaydi va butun urush davomida qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun yo‘naltiruvchi raxbarlikni amalga oshiradi. O‘z navbatida, strategiya siyosatga teskari ta‘sir o‘tkazadi - uning imkoniyatlarini kengaytiradi yoki cheklab qo‘yadi. Bundan urushda g‘alabaga erishishning muxim sharti -siyosat va strategiya o‘rtasida xamkorlikni to‘g‘ri tashkil qilish kerakligi to‘g‘risidagi xulosa kelib chiqadi.

Harbiy san‘atning muxim tashkil qiluvchi elementlaridan biri operativ san‘at xisoblanadi. Operativ san‘at harbiy san‘atning nazariy va amaliy tarmog‘i xisoblanib, qurolli kuchlar turlarining operativ birlashmalari uchun birgalikdagi va mustaqil operatsiyalarni tayyorlash va olib borish usullari va shakllarini ishlab chiqadi. Operativ

---

<sup>4</sup> Kochkarov.A.K., Sotvoldiev. A.Yu., Durmenov.SH.N. Harbiy tarix O‘quv qo‘llanma –T 2017 45b

san'atning umumiy nazariyasi bilan birgalikda qurolli kuchlarning turlari xam o'z operativ san'atlarini ishlab chiqadi.

Operativ san'atning asosiy vazifalari zamonaviy operatsiyalar va jangovar xarakatlarning qonuniyatlarini, mazmuni va xarakterlarini tadqiq etish, birlashmalar va qo'shilmalarni jangovar qo'llash, operatsiyalarni (jangovar xarakatlarni) tayyorlash va olib borish usullarini, kuch va vositalarning uzluksiz o'zaro xamkorliklarini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash usullarini ishlab chiqish, qo'shinni xar tomonlama ta'minotini tashkil etish va ularni boshqarish, jangovar xarakatlar rayonini operativ jixozlash bo'yicha ko'rsatmalarni ishlab chiqish, extimoliy dushmanning operativ masshtabda harbiy xarakatlarni olib borish rejalarini o'rganishdan iboratdir. Operativ san'at strategiya bilan taktika o'rtasidagi bo'g'in bo'lib xisoblanadi.

**Taktika** (grekcha tasso-qo'shinni saflayman so'zidan olingan, taktika-qo'shinni saflash san'ati), harbiy san'atning tarkibiy qismlaridan bo'lib, qo'shin turlarining bo'linmalari, birlashmalari va maxsus qo'shinlarning janglarni tayyorlash va olib borish nazariyasi va amaliyotini o'z ichiga oladi. Taktika nazariyasi jangning xarakteri, mazmuni va qonuniyatlarini tadqiq etib, uni tayyorlash va olib borish usullarini ishlab chiqadi.

Taktika rivojlanishiga qurol-yarog' va jangovar texnikaning o'zgarishi va qo'shin shaxsiy tarkibining sifati katta ta'sir ko'rsatadi. Taktika operativ san'at, harbiy strategiya bilan doimiy xamkorlikda bo'lib, ularning ko'rsatmalari bilan faoliyat yuritadi. Xozirgi zamonda taktika umumiy taktikaga, qo'shin turlari taktikasiga, qo'shinlar (kuchlar) va maxsus qo'shinlar taktikasiga bo'linadi.

Shunday qilib, «Urushlar va harbiy san'at tarixi» fani o'tmishdagi urushlar tajribalarini o'rganishni va harbiy san'at rivojlanishi qonuniyatlarini, uning tamoyillarini o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Urushlar tarixi va harbiy san'atni bilish, ofitserlarda urushlar va harbiy san'at masalalari bo'yicha nazariy fikrlashlarining shakllanishi uchun katta ahamiyatga ega.

Davlat mudofaa qobiliyatining muxim omillaridan biri uning qurolli kuchlari, ularning jangovar qudrati va Vatanni ximoya qilish uchun vazifalarni bajarishda tayyorgarlik darajalaridir. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» kitobida jangovar qudratning va qurolli kuchlar jangovar qobiliyatining tashkil etuvchi

qismlarining asosiylari sifatida, professionallikni, ruxiy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik va intizomlilik darajalarini aniqlovchi shaxsiy tarkibning soni va sifatini ta'kidlab o'tgan edi.

Bu vazifalarni xal etish ko'p jixatdan nafaqat maxsus bilimlarga ega bo'lgan, balki urushlar tarixi va harbiy san'atni yaxshi bilgan yuqori darajada tayyorlangan ofitserlarning borligi bilan aniqlanadi. Harbiy tarixni o'rganish kursantlarda harbiy-ilmiy fikrlarni shakllantirish, harbiy muammolar bo'yicha bilimlarini oshirish, shaxsiy tarkibni tarbiyalash masalalarini amaliy xal etishda muxim ahamiyatga ega. Urushlar va harbiy san'at tarixini o'rganish bevosita amaliy ahamiyatga egadir. Birinchidan, kursantlar va tinglovchilar urushlar, operatsiyalar va janglarni olib borishning turli shakllarini o'rganadilar, xamda qo'shinni o'rgatish va tarbiyalash usullari bo'yicha bilimlarga ega bo'ladilar. Ikkinchidan, harbiy san'at tarixini o'rganish jangovar xarakatlarni olib borishning xozirgi zamondagi shart-sharoitlarini chuqurroq tushinib etadilar. Harbiy-tarixiy asoslarni bilmaslik qo'mondonlik safining taktik tayyorgarligini ma'lum bir shablon bilan chegaralantirib qo'yadi.

Urushlar va harbiy san'at tarixi kursantlarda Vatanni ximoya qilishdek muqaddas kasbga faxrlarini oshirish bo'yicha tarbiyalashda, ko'pgina xalqlarning urushlari tajribalarini, avvalom bor, o'zbek xalqining milliy mustaqillik uchun kurashlari tarixini, uning markazlashgan davlatni barpo etishdagi urushlardagi an'analarini chuqur o'rganish uchun xizmat qiladi.

Tarix, mustaqil davlat o'z xalqini tashqi dushmanlardan ximoya qila bilish kerakligini o'rgatadi. «Buning uchun, mustaqilligimizni, davlatimizning xududiy yaxlitligini, xalqimizning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash qobiliyatiga ega bo'lgan, mobil, xavfsizlikni ta'minlay olish uchun etarli kuchlarga ega bo'lgan, zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan jixozlangan, yaxshi tayyorlangan qurolli kuchlarga ega bo'lish kerak. Bu bizning harbiy qurilishimizning bosh chizig'idir», -deb ta'kidlagan edi, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A Karimov Oliy Majlis IX sessiyasining ikkinchi chaqirig'ida so'zlagan nutqida (2002 yil 29 avgust).

Tarixning qadimgi davrida ibtidoiy jamoa tuzumining emirilish bosqichida, urushlar olib borish uchun qabilalar uyushmasi yaratilib, ularni yo'l boshchilar tomonidan tayinlangan harbiy boshliqlar boshqarganlar. Ular shaxsiy drujinalarini tashkil etganlar va

ularning mashg'ulotlari yo'l boshchini qo'riqlash, undan keyin urushlar, zo'ravonlik va talon-taroj bo'lgan. O'lja harbiy boshliqlar va uning drujinasi o'rtasida taqsimlangan.

Ibtidoiy jamoa tuzumining emirilish davrida «o'zi xarakatlanuvchi» harbiy tashkilotdan asta-sekin qurollangan otryadlar ajralib chiqib boshladi. Mana shu negizda keyinchalik qadimgi davlatlarning armiyalari va harbiy san'ati paydo bo'la boshladi.

Qadimgi armiyalarning jang olib borish qobiliyati ishlab chiqarishning rivojlanish darajasiga, xamda qo'shinni butlash tamoyiliga, ta'minlanish darajasiga va ularning harbiy san'atlariga bog'liq bo'lgan.

Tarixning qadimgi davrida insonlar temirni kovlab olish va unga ishlov berishga o'rganganlar, dexqonchilik va chorvadorlikni ancha takomillashtirganlar, fan, madaniyat va falsafaning rivojlanish asoslarini yaratganlar. Xunarmandchilikni qishloq xo'jaligidan, shaxarni qishloqdan, aqliy mexnatni jismoniy mexnatdan ajralishi boshlandi, mulk munosabatlari shakllanib, u ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishiga olib keldi.

Harbiy sanoat iqtisodiyotning o'ta rivojlangan tarmoqlaridan biri bo'ldi. Texnika ishlab chiqarish xajmi va darajasi bo'yicha u etakchi soxaga aylandi.

Ammo amaldagi ishlab chiqarishning imkoniyatlari juda xam cheklangan edi. Milodiy asrimizning boshlarida ishlab chiqarish kuchlarining imkoniyatlari tugab bo'lgan vaqtda, qadimgi antik jamiyat zaiflanish va inqirozga yuz tutdi.

Qadimgi dunyo tarixi ikkita yirik davrga bo'linadi: Qadimgi Sharq davlatlarining mavjudlik davri (Miloddan avvalgi 5 ming yillikning o'rtalaridan-Miloddan avvalgi 6 asrning boshlari-Misr, Ossuriya, Vavilon, Xitoy, Xindiston va boshqalar) va antik davlatlar mavjud bo'lgan davr (Qadimgi Yunoniston va Rim-Miloddan avvalgi. 6 asr milodiy 5 asr). Shuning uchun qadimgi dunyo urushlari va harbiy san'ati tarixini yoritishda xuddi shunday davrlarga bo'lish qabul qilingan.

Qadimgi dunyoda harbiy ish katta rivojlanishga ega bo'ldi. Asrlar davomida qurolli kuchlarni butlash va tashkil etish usullari o'zgarib keldi, kurash olib borish vositalari va harbiy san'at takomillashdi.

Qadimgi Sharqdagi birinchi davlatlarning armiyalari sovuq qurollar va ximoya anjomlari bilan qurollanganlar va xarakatlanish vositalari xam qo'llanilgan. Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi bilan Vavilon va Ossuriya armiyalarida qurol-yarog' va ximoya anjomlari takomillashdi. Qadimgi Misr armiyasida qo'shinning xarakatchanligi oshdi,

qal'alarni shturm va qamal qilish texnikasi takomillashdi, xamda harbiy kemalar qurila boshlandi. Qadimgi Xitoy armiyasida birinchi bo'lib yangi uloqtiruvchi sovuq qurol - arbalet joriy etildi, porox kashf etildi va qo'llanila boshlandi.

Antik davlatlarda yunonlar va rimliklar og'ir qurol-yarog'lar va anjomlarni qo'llashni ma'qul ko'rganlar.

Qadimgi Sharq davlatlari armiyalarida uzoqdan janglarni olib borish uchun uloqtiruvchi qurollar yaratildi, ammo greklar yaqin jangni (qo'l jangini) ma'qul ko'rganlar. Rim armiyasida uzoqdan jang olib borish yaqin jang bilan birgalikda olib borilgan.

Qurol-yarog'ning takomillashishi bilan qadimgi dunyo harbiy san'atida jang ikki davrga bo'lina boshlandi: jangni tayyorlash va qo'l jangi.

Qadimgi dunyoda armiyani to'ldirish usullari va uning tashkiliy tizimi bir necha marotaba o'zgardi. Qadimgi davlatlarda (Misr, Vavilon, Eron, Xitoy, Xindiston va boshqa davlatlarda) armiya xalq lashkarlaridan, keyinchalik professional jangchilardan (jangchi kastalardan) tashkil topgan, ular avloddan-avlodga o'tib xizmatni olib borganlar. Ayrim armiyalarda xatto o'sha davrlarda yollangan jangchilarni olish boshlangan.<sup>5</sup>

O'sha davr iqtisodiy imkoniyatlarining cheklanganligi va axolining kam sonliligi yirik armiyalarni yaratishga to'sqinlik qildi. Xatto o'sha zamonning eng yirik bosqinchilik janglarida 20-30 mingdan oshmagan jangchilar ishtirok etganlar, Qadimgi Eron va Xitoy armiyalari bundan istisno.

Urushlar uzoq davom etish xarakteriga ega bo'lib borishi bilan armiyalarda xizmat qilish ishtiyoqi bo'lgan yollanadiganlarning soni kamayib bordi. Shuning uchun Rimda armiyani to'ldirishning rekrut tizimi joriy etildi. Armiyani to'ldirishning bunday usuli qadimgi davlatlar armiyalarining jangovar qobiliyatiga va harbiy san'atining darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Tarixning qadimgi davrida qurolli kuchlar tashkiliy tarkibining asoslari yaratildi. Quruqlikdagi armiya (piyodalar, otliqlar, sapyorlar otryadlari va front orti ta'minoti xizmati) va harbiy flot yaratildi. Tashkiliy jixatdan ko'pgina Qadimgi Sharq davlatlari armiyalari asosiy jang olib borish birliklari xisoblangan o'nliklar, yuzliklar, mingliklarga bo'lingan.

---

<sup>5</sup> И.Икрамов. Военная история. – Т.: «ТГПУ», 2001, 23с.



Qadimgi Yunoniston davlatlarida armiya tashkil etilishi, jangni qanotlar va otryadlar bilan olib borishga qaratilgan. Rim armiyasining asosiy tashkiliy-taktik birligi legion bo'lib, u keyinchalik ancha murakkablashtirildi.

O'sha qadimgi davrlardayoq strategiya va taktika harbiy san'atga ma'lum edi. Strategiya rivojlanishining boshlanishi (urushlarni rejalashtirishdagi muammolar, armiya va flot xarakatlarini boshqarish, qo'shinni moddiy ta'minotini tashkil etish va boshqalar) Qadimgi Sharq davlatlarining harbiy yurishlari vaqtlariga borib taqaladi.

Janglarni tayyorlash va olib borish masalalarini taktik bo'g'indagi harbiy boshliqlar xal etganlar. Ular safar, jangovar qo'riqlov va razvedkani tashkil etish bilan Shug'ullanganlar, jang o'tkaziladigan maydonni, u yoki bu jangovar tartibni tanlaganlar va qo'shinni boshqarganlar. Bunda strategiya va taktika o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa bog'langan.

Harbiy strategiya adimgi davrning buyuk sarkarlari - makedoniyalik Iskandar, Gannibal va Yuliy Sezarlarning maydonga chiqishlari bilan o'zining eng yuqori rivojiga erishdi.

Harbiy nazariyaviy fikrlash qadimgi dunyo harbiy san'atining rivojlanishi natijasida paydo bo'ldi. Sun-Szi, U-Szi (Xitoy), Gerodot, Fukidid, Ksenofont (Yunoniston), Polibiy, Yuliy Sezar va Vegetsiy (Rim) kabi harbiy boshliqlar va mutafakkirlarning asarlari qadimgi dunyoning harbiy nazariyaviy fikrlash asoslarini yaratdi va uning rivojlanishini boshlab berdi.

O'rta asrlar davrida G'arbiy Rim imperiyasining emirilishidan (Miloddan avvalgi V asrning oxiridan) Evropada O'ttiz yillik urushning tugaganigacha (1648 y.) bo'lgan davr xisoblanadi.

O'rta asrlar harbiy san'ati sovuq va o'q otar qurollarning birinchi namunalari qo'llanishiga asoslangan. Ushbu davrning ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari erga egalikni tashkil etgan. Yirik er egalari kichik er egalari erlarni bo'lib berganlar va ular katta er egasiga qaram, vassal bo'lib, o'z xo'jayinlarining harbiy yurishlarida ishtirok etishga majbur bo'lganlar. Er egalari qaram bo'lgan dexqonlar o'rta asrlar armiyalarini to'ldirishning asosiy negizi bo'lganlar.

Ilk o'rta asrlarda aloxida knyazliklar yaratildi, ritsarlik qo'shinlari shakllandi. Siyosiy tarqoqlik xukm surganligi uchun, ilk o'rta asrlar davlatlari markaziy xokimiyatni

mustaxkamlashga va uni qo'llab-quvvatlashga qodir bo'lgan yagona qudratli harbiy tashkilot yaratish uchun etarli vositalarga ega bo'lmaganlar.

Siyosiy va iqtisodiy tarqoqlik harbiy tarqoqlikni keltirib chiqardi. Qo'shin er egalarning lashkarlari ko'rinishida, ya'ni vaqtinchalik, nomustaxkam birlashma ko'rinishida bo'lgan. Ritsarlar o'z drujinalariga raxbarlik qilganlar.

Iqtisodiy munosabatlarning keyingi rivojlanishi va ichki bozorning yaratilishi kichik tarqoq knyazliklarning siyosiy birlashuviga imkon yaratdi.

Siyosiy tarqoqlik o'z o'rnini kuchli monarxlik xokimiyatiga ega bo'lgan markazlashgan davlatga bo'shatib berdi.

O'rta asrlar jamiyati ishlab chiqaruvchi kuchlari, o'zining past sur'atli rivojiga qaramasdan xar qalay qadimgi dunyodagiga nisbatan ancha yuqori darajaga erishdi. Shaxarlarning o'sishi kuzatildi, xunarmandchilik sanoati rivojlandi, qishloq xo'jaligini yuritishda bir-muncha taraqqiyot ko'zga tashlana boshladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan omillar fan va texnikani rivojlanishini boshlab berdi, bu o'z navbatida harbiy ishda poroxdan foydalanishga va o'q otar qurollar yaratilishiga olib keldi.

O'rta asrlar davlatlari armiyalarining texnik ta'minlanganligi (aslaxalari), o'q otar qurollar joriy etilgungacha qadimgi davlatlar armiyalari qurol-yarog'laridan farqi kam bo'lgan.

XIV asrgacha asosiy zarbdor kuch sanchiluvchi va zarbdor qurollardan sovutlar bilan ximoya qilingan otliq jangchilar-ritsarliklar bo'lgan.

O'q otar qurollarning birinchi namunalari Evropada XIV asrda paydo bo'lgan. O'q otar qurollarning takomillashuvi juda sekin kechgan. Asta-sekin to'plar takomillashdi, mushketlar yaratildi. Ulardan otish uzoqligi 250 metrga etgan. Mushketning o'qi ritsarlarning qalin sovutlarini teshib o'tgan, bu xol jang maydonlaridan ritsarlarning siqib chiqarilishini va piyodalarni joriy etilishining sabablaridan biri bo'lgan. XVII asrning boshida engil mushketlar (miltiqlar) yaratildi, qog'ozdan yasalgan gilzali o'qlar kiritildi. Bu xol miltiqdan otishning takomillashishiga omil yaratgan va uning otish sur'atini oshirgan. Shu bilan birga artilleriya takomillashib bordi. Artilleriya zarbasining samarasi qal'alarni qamal qilishda xam, jang maydonlarida xam ancha oshdi.

XVI asrning oxirida Evropada artilleriya va o'q otar qurollarsiz armiyalar qolmadi. Biroq bu qurol-yarog'lar xali harbiy san'atga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi.

O'rta asrlar armiyalarini butlash tamoyillari bir-biridan turli-tumanligi bilan farq qilgan. Ayrim davlatlar armiyalarida qo'shinni to'ldirish yollash tizimida bo'lsa, boshqalarida xalq lashkarlarini chiqarish usuli bilan olib borildi. Harbiy boshliqlar (knyazlar, qirollar) atroflarida vassallar - ritsar jangchilar to'planganlar, ulardan armiyaning asosi - otliq harbiy drujinalar yaratilgan. Keyinchalik G'arbiy Evropada armiyani to'ldirishning asosiy usuli ritsarlik lashkarlarini chavarish bo'lgan. Ritsarlar va ularning qurolbardorlari faqat otlarda xarakatlanganlar va jang qilganlar. Xizmatkorlar va safar uchun yig'ilgan dexqonlar otlarga ega bo'lmaganlar. Armiyani bunday to'ldirish tamoyili piyodalarning jangovar axamiyatlarini pasaytirgan.

O'rta asrlar oxirlarida ritsarlik lashkarlari o'zlarining past intizomlari va yaxshi tashkil etilmagan tashkiliy tarkiblari bilan markazlashgan xokimiyatning ishonchli tayanchi bo'la olmadilar. Shuning uchun G'arbiy Evropa davlatlarida XIV asrdan boshlab umumdavlat armiyalari yaratila boshlandi. Ularni to'ldirish yollash va majburan askarlarni chaqirish yo'li bilan amalga oshirilgan.

Doimiy armiyalarning paydo bo'lishi bilan ularning shaxsiy tarkibi jangovar ko'nikmalari yaxshilandi. Ayrim armiyalarda nizomlar joriy etildi.

O'rta asrlar davlatlari qurolli kuchlarining tashkiliy tarkibi ko'p qirrali bo'lgan. Dastavval ular o'nlik tizimida (o'nlik, yuzlik, minglik) saflangan aloxida otryadlar edi. Keyin doimiy safdagi polklar yaratildi.

O'rta asrlar armiyalarining birinchi tashkiliy birligi nayza bo'lgan. Bir necha o'nlab nayzalardan bayroq tuzilgan, bir nechta bayroqlar - ritsarlik qo'shinlarini tashkil etgan.

G'arbiy Evropaning birinchi yollanma armiyalarida tashkiliy tarkib murakkab bo'lmagan. Asosiy birlik, bir necha yuz askarlardan iborat bo'lgan rotalarga bo'lingan polk bo'lgan. Keyin rotalar batalonlarga birlasha boshlaganlar.

Qo'shinning asosiy turi qayta tiklangan piyodalar bo'lgan. Qo'shinning ikkinchi turi engil kavaleriya xisoblangan.

O'rta asrlar urushlarining o'ziga xos xususiyati, sust harbiy xarakatlarni olib borish barobarida ularning uzoq davom etishi bo'lgan.

O'rta asrlar davrida strategiya sezilarli olg'a siljimadi. Strategik maqsadlar asosan qal'alarni bosib olish bilan chegaralangan, ularni egallashning asosiy usuli esa uzoq qamal qilish bo'lgan. Chingizxonning saxroyi mo'g'ul qo'shinlari va uning davomchilarining

strategiyasi va Amir Temurning strategiyasi butunlay boshqacha bo'lgan. Chingizxon va Amir Temurning strategiyasi qat'iy xarakterga ega bo'lib, o'z oldiga dushmanni kuchsizlantirib, uni tarqatib yuborish va to'satdan zarba berish elementidan foydalanib qaqshatqich zarba berish yoki uni bo'laklarga bo'lib tashlab tor-mor etish maqsadini qo'ygan.

O'rta asrlarning oxirida G'arbiy Evropada kordon strategiyasi o'rnatildi.

O'rta asrlar davrida taktika qurol-yarog'larning imkoniyatlari va shaxsiy tarkibning sifatlarini o'zgarishiga asoslanib shakllandi va rivojlandi. Jangning taqdiri jipslashgan otryadlarning ro'paradan beradigan zarbalari va qo'l jangi bilan xal etilgan. Arab qo'shinlarining jangovar tartibi otliqlardan va bir nechta piyodalar chiziqlaridan tashkil topgan bo'lib, u manyovrni, ichkaridan zarba qudratini oshirishni va dushmanni ta'qib etishni ta'minlagan.

O'rta asrning birinchi davrida G'arbda piyodalar taktikasi katta rivojlanishga ega bo'lmadi, chunki bu qo'shinlar tezlik bilan ritsarlarning og'ir otliqlari tomonidan siqib chiqarib tashlandi.

Ko'chmanchilik an'alariga ko'ra qurilib, yopirilib xujumga o'tadigan mo'g'ullar qo'shinining taktikasi va Amir Temur qo'shinining taktikasi o'ziga xos tarzda rivojlandi. Amir Temur o'z qo'shinining jangovar tartibini dushman kuchlari miqdoridan kelib chiqqan xolda qurdi va ularni bosh yo'nalishda jamlab, dushman qismlariga zarba berdi.

XVII asrning boshida Evropada qo'shinni chiziqqa saflash joriy etildi (chiziqli taktika). Bunday taktika piyodalar va artilleriyaning zarbasidan to'liq foydalanishga imkon berdi.

XVII asrning o'rtasidan (Evropada O'ttiz yillik urush tugaganidan keyin) birinchi jaxon urushi tugaguncha bo'lgan yangi tarix davridagi harbiy san'at yoritiladi. Ushbu davr mobaynida harbiy san'at tarixida xaqiqiy yirik voqealar ro'y berdi. Harbiy san'at operativ san'at bilan to'ldirildi (ikkita boshqa tur - strategiya va taktika qadimgi davrlardayoq aniqlangan edi). Shu vaqtdan beri harbiy san'atda sezilarli o'zgarishlar bo'lmadi.

Shunday qilib, aynan yangi tarix davrida harbiy san'at oxirigacha shakllandi va hozirgi zamonga mos xolga keldi. Strategiya va taktikaning xam mazmuni birmuncha o'zgardi.

Harbiy san'atning o'zgarishi va takomillashishi jamiyatning ishlab chiqarish imkoniyatlarining oshishiga asoslandi. Sanoatning tezlik bilan o'sishi va iqtisodiyotning umumiy ko'tarilishi sanoat ishlab chiqarish davrida qurol-yarog' ishlab chiqarish moddiy-texnik bazasining kengayishini va xar tomonlama qurolli kuchlarning rivojlanishini ta'minladi. Iqtisodiy imkoniyatlarning o'sishi va jamiyat ijtimoiy tarkibining o'zgarishi bilan armiyaning shaxsiy tarkibi soni o'zgardi.

Kapitalistik tizimning o'rnatilishi sharoitlarida kichik, vaqtinchalik yollaniladigan qurolli otryadlar urushlarni olib borishga etarli bo'lmay qoldi. G'arbiy Evropa davlatlarida katta doimiy armiyalarga extiyojlar o'sa boshladi va ular XVII asrning o'rtalaridan yaratila boshlandi.

Lekin vaqt o'tishi bilan bunday armiyalar xam o'z vazifalarini to'lig'icha bajara olmaydigan darajaga etib qoldilar. Keyinchalik doimiy yollangan armiyalar o'rniga, umumharbiy majburiyat asosida to'ldiriladigan ommaviy armiyalar kirib keldi. Birinchi bunday armiya XVIII asrning oxirida inqilobdan keyin Fransiyada, keyin esa Prussiya va boshqa davlatlarda yaratildi. XIX asrning boshlaridanoq umumharbiy majburiyat Angliyadan tashqari, Evropaning qariyb barcha davlatlarida kiritildi.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlari sanoat ishlab chiqarishi, fan va texnikaning gurkirab rivojlangan davri bo'ldi. Qudratli industriya yaratildi, cho'yan va po'lat eritish oshdi, ichki yonuv dvigatellari, elektrodvigatellar, telegraf, telefon, radio, samolyotlar yaratildi. Armiyaning davlat iqtisodiy potensialiga bog'likligi ancha oshdi. Urushda g'alabaga qurolli kuchlarni etarli miqdordagi zamonaviy qurol-yarog'lar, o'q-dorilar, kiyim-kechak va oziq-ovqatlar bilan ta'minlay olishga qodir yirik moddiy zaxiralar va rivojlangan sanoatga ega bo'lgandagina erishish mumkin.

Ayniqsa bu, yirik davlatlar o'rtasida yangi bozorlarni va xom ashyo manbalarini zabt etish, bo'lingan dunyoni qayta bo'lish uchun siyosiy va iqtisodiy kurashlarning keskinlashuvi natijasida kelib chiqqan birinchi jaxon urushida (1914-1918 y.) yaqqol namoyon bo'ldi. Birinchi jaxon urushida ikkala qarama-qarshi tomonlar Antanta va Markaziy ittifoq davlatlari, g'alabaga erishish uchun o'zlarining odamlar zaxiralari va katta moddiy vositalarini safarbar qildilar.

Harbiy san'atning qadimgi tarkibiy qismlari - taktika va strategiyaning mazmunida xam katta o'zgarishlar ro'y berdi.

Qurol-yarog‘ sifatining yaxshilanishi, uning jangovar samaradorligining oshishi, harbiy texnika va boshqaruv vositalarining yangi namunalari yaratilishi qurolli kuchlarning tarkibiy tizimini doimo murakkablashtirishni, uning tashkiliy formalarini rivojlantirishni, qurolli kuchlarning yangi turlarini joriy qilishni, xamda jangovar xarakatlarni olib borishning usullarini takomillashtirishni talab qildi. XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida yangi - chiziqli taktikaga o‘tish belgilandi. Uning farq qiluvchi belgisi, qo‘shinni etakchi Evropa davlatlari armiyalaridagidek kvadrat-kolonna emas, balki chiziq bo‘ylab ro‘paradan to‘qnaShuvlarga olib kelish uchun front bo‘ylab tekis saflashdir. Qo‘shinni bunday saflash o‘q otar qurollaridan keng foydalanish sharoitini yaratar edi. Bu xammasi harbiy xarakatlarning xarakterini o‘zgarishiga va harbiy san’atning rivojlanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir ko‘rsatishiga olib keldi.

Chiziqli taktikaning keyingi rivojlanishi Buyuk Fridrixning Prussiya qo‘shinida qiya jangovar tartibning joriy etilishiga olib keldi.

Ommaviy xalq armiyalarini keltirib chiqargan XVIII asrning oxirlaridagi inqiloblar, ayniqsa Buyuk Fransiya inqilobi yoyiq saf taktikasining joriy etilishiga va kirib kelishiga omil yaratdi. Fransiya inqilobi davrida armiyaga ommaviy chaqiruv davomida qo‘shinlar uzoq saf tayyorgarligini talab etmaydigan nomurakkab taktikani egalladilar.

Vaqt o‘tishi bilan yoyiq saf taktikasini, Napoleon qo‘shinidan ko‘plab mag‘lubiyatga uchragan Evropaning barcha etakchi armiyalari o‘zlariga qabul qildilar.

Evropa armiyalarining qurol-yarog‘lari, silliq stvolli vintovkalar va to‘pponchalardan kertik stvolli qurollarga o‘tishi piyodalarning zarba qudratini oshishiga imkon yaratib berdi. O‘t ochib zarba berish uzoqligi ancha oshdi. Jiplashgan jangovar tartiblar endi nayza-pichoq bilan dushmanga zarba bera olmadilar, ularning yo‘llari kertik stvolli qurollarning o‘t zarbalari bilan to‘sib qo‘yildi. Jiplashgan safda jang olib borish taktikasi o‘qchilar zanjirlari taktikasi bilan almashtirildi. Birinchi jaxon urushida o‘t zarbasi qudrati yanayam oshdi, pulemyotlar va otish sur’ati oshirilgan artilleriyaning qo‘llanilishi piyodalarga katta talofatlar etkaza boshladi. Bunday zich o‘t ochishdan omon qolish uchun piyodalar okoplarda yashirinadigan bo‘ldilar. Urush pozitsiyaviy xarakterga ega bo‘la boshladi.

Urush olib borish stretegiyasi xam anchagina o‘zgardi. XVII asr o‘rtalarida harbiy san’atda xali xam kordon strategiyasi xukmron edi, unga ko‘ra tomonlarning harbiy

xarakterlari dushman kommunikatsiyalarini egallash uchun manyovrlarni amalga oshirish xarakteriga ega bo'ldi.

Buyuk Fransiya inqilobi asosiy kuchlarni bosh yo'nalishda jamlashga asoslangan bosh jang strategiyasini etishtirib chiqardi.

XX asr boshlaridagi birinchi jaxon urushi, bu strategiyaning eskirganini va zamonaviy talablarga javob bermasligini ko'rsatdi. Germaniya armiyasining yashindek tez g'alabaga erishish rejasi barbod bo'ldi. Urush xarakterlarini to'rt yildan ortiqroq, bir nechta frontlarda olib borishga to'g'ri keldi.

Urush olib borish maydonida millionli armiyalarning ishtirok etishi keng maydonda xarakter qilish imkoniyatini yaratdi. Agar avval jangning natijasi kurashayotgan tomonlarning bir necha kilometrlargacha bo'lgan tor frontda qarama-qarshi to'qnashuvlarida xal qilingan bo'lsa, endi keng front bo'ylab xarakterlanish dushmani keng qamrab olish uchun imkon yaratdi. Qanotlar uchun kurash oldingiga nisbatan katta ahamiyat kasb eta boshladi. Qarama-qarshi tomonlarning to'qnashuv frontlari bir necha yuz va undan ortiq kilometrni tashkil etdi.

Harbiy xarakterlar maydonining kengayishi, operatsiyalarda (jangovar xarakterlarda) xamma birlashmalarni boshqarish maxoratini o'z ichiga olgan, harbiy san'atning uchinchi tarkibiy qismi - operativ san'atning paydo bo'lishiga negiz yaratdi.

Ushbu davrda armiyaning tashkiliy shtat tizimida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Fransiya inqilobi davrida, jangovar xarakterlarni mustaqil ravishda olib borishga qodir bo'lgan qo'shinning diviziya tizimi o'rnatildi. Napoleon urushlari davrida korpus tizimi joriy etildi. Birinchi jaxon urushi davrida bir nechta armiyalarni o'z ichiga olgan armiya (front) guruxlarini birlashtirish tizimi shakllandi.

Piyodalar, kavaleriya, artilleriya va muxandislik qo'shinlari keyingi rivojlanishlariga ega bo'ldilar. Ularning qurol-yarog'lari tashkiliy shtat tizimlari va taktik xarakterlari takomillashdi.

XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida, ayniqsa birinchi jaxon urushi davrida, fan, texnika rivojlanishi va qurol-yarog' ishlab chiqarish sanoatining rivojlanishi natijasida Evropaning etakchi armiyalarida zamonaviy texnik vositalar-pulemyotlar, minomyotlar, otish sur'ati oshirilgan artilleriya, samolyotlar, tanklar joriy etildi. Texnik yangiliklar yangi qo'shin turlarining yaratilishiga turtki bo'ldi: aviatsiya, tank, avtomobil va kimyo

qo‘shinlari. Aynan mana Shu davrda harbiy-nazariy fikrlashning rivojlanishi harbiy san’atni fan darajasiga ko‘tardi. Klauzevits, Delbryuk, Jomini, Lloyd, fon Byulov va ersgersog Karldek tadqiqotchilarning asarlari uning barpo etilishiga katta xissa qo‘shdi.

Ishlab chiqarish foliyatida bu aslida tabiat ehson qilgan narsalarni yig‘ish davri edi. Yovvoyi hayvon ovi Xalq tasodifi harakterga ega edi. Bu davrda jismoniy madaniyatning biron nisbatni mustaqil elementlarining borligi haqida ishi ham bo‘lishi mumkin emas edi. Qiskilar uchun kerakli jismoniy sifatlar, malaka va qobilyatlar ularning bevosita mehnat foliyati jarayonida xosil qilinar edi. Faqat Yoshlar o‘sha vaqtlarda mavjud bo‘lgan oddiy mehnat quollarini qanday yasash va ishlashni hamda yovvoyi hayvonlardan qanday saqlash kerakligini katta Yoshdagi qiskilardan ma’lum darajada o‘rganar edilar.

Ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi keyinchalik irg‘itiladigan turli quollarning takomillaShuviga olib keldi. Turli mustahkam va o‘tkir uchli yengil nayzalarning, so‘ngra esa o‘q va yoyning paydo bo‘lishi ovchiliq kishini ng asosiy kasbiga aylantirdi. Buning natijasida ovqat topish uchun sarflanadigan vaqt ancha qisqardi. O‘sha davrdagi kishilarning qazilmalar davrida topilgan manzilgoxlari odamning ancha yaxshiroq hayot kechira boshlaganidan va o‘z extiyojlarini qondirish uchun ancha katta imqonyatlarga ega bo‘lganidan dalolat beradi. Chunonchi, o‘sha davrdagi odamda Yosh avlodning madaniyatlash imqoniyati tug‘ildi; bunda jismoniy madaniyat asosiy rol o‘ynadi. Odamlarining bir yerga yig‘ilish va tasodifiy ov yo‘li bilan ovqat topish hamda birlashgan dastlabki jamoasi ham mustahkam ijtimoiy tuzum emas edi. Shuning uchun ham qiskilar jamoasining boshlang‘ich, ijtimoiy shaklini “ijtimoiy poda” deb atalardi.( 1-rasm)

1-rasm



**Mamont ovida jismoniy sifatlarni rivojlanishi.**



## **1.2. Materiarxat (onalik) urug‘chilik davrida ilk harbiy tayorgarlikni rivojlanish xususiyatlari.**

Xo‘jalikning idrok qilishining yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan qiskiliq jamiyatini uyushtirish ishlari ancha mustahkamlana bordi. Onalik urug‘chilik jamoasi paydo bo‘ldi, uning a‘zolari birgalikda qilinadigan doimiy jamoa mehnat va qon-qarindoshlik bilan boshlangan edi. Jamoalarining paydo bo‘lishi va taraqqiyot etishi bilan asta-sekin madaniyat sohasida ham o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Endi odam o‘ziga doimiy turar joy quradi, kiyim-kechak paydo bo‘ladi, tasviriy san‘at bunyod etiladi. Qo‘shiq, o‘yin va raqslar ijro etiladigan turli bayramlar keng tarqaldi. Harbiy madaniyat elementlarining paydo bo‘lishi ham xuddi Shu davrga to‘g‘ri keladi. Bevosita mehnat bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘pgina musobaqa o‘yinlari mustaqil tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi va ulardan urug‘ jamoaning turli Yoshdagi guruhlarini foydalana boshlaydi. Mehnatning jins va Yoshga qarab tibbiy ravishda bo‘linishi endigina tug‘ilib kelayotgan ibtidoiy jismoniy madaniyatda ham o‘z ifodasini topdi. Harbiy tayorgarlikning yanada rivojlanishida ibtidoiy san‘at ham katta rol o‘ynaydi. San‘at kishilarning fikr va to‘yg‘ularini boyitdi, ularning ma‘naviy do‘nyosini taqomilashtirdi. O‘yin va raqslarda taqdirlanadigan mehnat va mudofa harakteridagi ko‘pgina harakatlar endi bevosita mehnat predmetiga yo‘naltirilgan edi. Bu harakatlar jismoniy mashqlar sifatida nisbatan mustaqillik kasb etdi. Jismoniy mashqlarning musobaqa o‘yinlari shaklida vujudga kelishi ibtidoiy jamiyat kishini tarbiyalashda tubdan o‘zgarish yasadi. Odamlar hayotiga, ayniqsa mehnat foydasiga tayyorlashining yangi vositasiga ega bo‘ladilar.

Jahonga mashhur rus etnografi va sayohatchisi N. Mikluxa-Maqalay, masalan, papuaslarning ota-onalari o‘z bolalarini mehnatga juda barvaqt o‘rgatganliklarini Shu maqsadda o‘yinlaridan ham foydalanganlarini hikoya qiladi. “O‘g‘il bolalarning o‘yini” deb yozgan edi. Mikluxa-Maqalay – tayoqlarni nayzaga o‘xshatib irg‘itishdan, kamalak otishdan iborat edi; ular bu o‘yinlarda salgina yutuqqa erishishlari bilan ularni amaliyotga etadilar. Men soatlab dengiz bo‘yida, o‘tirib, yoy o‘qini biror baliqqa tegizishga harakat qilgan juda kichkina o‘g‘il bolalarni ko‘rganman. Qiz bolalar bilan ham huddi shunday hol yuz beradi, chunki ular xo‘jalik ishlari bilan juda erta Shug‘ullana boshlaydilar va o‘z onalarning noibalariga aylanadilar. Quyidagi misol, fakt ham ibtidoiy musobaqa o‘yinlarining mehnatni ifodalab, qisqlarni mehnatga tayyorlaydigan eng muhim vositalaridan biri

bo'lganini ko'rsatadi. Etnogarflarning ta'kidlashicha, XIX asrning va 60-yillardayoq Avstraliyaning bir qancha qabilalarida ovga chiqish oldidan yirtqich hayvonning shaklini qumga chizib, o'nga nayza otish rasm bo'lgan; bunda har bir ovchi o'z nayzasini mumkin qadar aniqroq va kuchliroq otishiga harakat qilgan. Bu yerda mashq va musobaqaning ayrim elementlari qo'shilgan. Shunday qilib, odamlar nayza otishni mashq qilish bilan o'zlarining mehnat malakalari va mahoratlarini takomilashtirib borganlar. O'sha vaqtda mehnat va o'yin bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan va diniy aqidalar bilan bog'langan. Kishilik o'yinlari odamlarning dahshatli tabiat kuchlariga qarshi kurashda birgalikda harakat qilishga bo'lgan hayotiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan.<sup>1</sup>

Urug'lik tuzumi, onalik urug'chilik tuzumi (matriarxat) va otalik urug'chilik tuzumi (patriaraxat)ga bo'lingan. Bu urug'chilik tuzumining har bir o'ziga xos taraqqiyot va jismoniy madaniyat hususiyatlariga ega bo'lgan.

Onalik urug'chilik tuzumining gullab-yashnagan davrida o'yin uchun mahsus tayyorlangan narsalar (jundan qilingan koptok, shar, nayzabozlik tayoqlari, uchi tuntoq nayzalar, o'yinchoq, paloxmon, o'yinchoq yoy, bosh egri, hassa va boshqa narsalar) paydo bo'lgan. Yoshlarni, masalan, nayza, tayoq, suyil irg'itishga yoydan otishga o'rgatish ibtidoiy jismoniy madaniyat tarkibiga kirib, uning eng muhim tarkibiy qismini tashkil etgan. Yoy otishga va bumerang irg'itishga o'rgatish ayniqsa murakkab bo'lgan.

Onalik urug'chilik davrida bir qancha o'yin asboblari ham ixtiro etilgan edi. Masalan: indeeslarda otalik urug'chiligi davriga (ularni yevropaliklar kashf etgan davrda) o'tish bosqichidayoq ichi kovak va yaxlit kauchoqli koptoklar, mahsus chana ("taboggan") lar bor edi; ular bu koptok va chanalardan faqat xojaliklardagina emas, balki musobaqalarda ham foydalanganlar. Kolumb davridayoq yevropaliklar indeeslarning koptoklari – Kostilyaliklari (Ispaniya) ning koptoklaridan yaxshi ekanligini tan olishga majbur bo'lgan edilar. Indeeslar tomonidan rezina koptokni kashf etilishi ko'pgina boshqa Yevropa xalqlarida ham koptok o'yinning yanada ravnoq topishida muhim rol o'ynadi. Ibtidoiy odamlarga suyakdan qilingan changilar, qongilar koptok bilan o'ynashga mo'ljalangan raketkalar ma'lum bo'lgan. (2 -rasm)

2- rasm



### Urug'chilik jamoasi

Onalik urug'chiligi sharoitida asl mehnat va mudofaa faoliyatida ayollar erkaklar bilan bab-baravar qatnashar edi. Mavjud etnografik materallardan ma'lum bo'lishicha o'sha vaqtlarda mushtlashish, kurashish, yugurish, tayoqbozlik, nayza irg'itish, yoy otish yuzasida va boshqa Shu kabi sohalarda ayollarning maxsus musobaqasi, ayollar bilan erkaklar musobaqasi o'tqazilar edi. Ba'zi bir ma'lumolarga qaraganda, ayollarning bunday mashqlari masalan; skiflarda, o'zbek xalqining qadimiy ajdodlarida, shuningdek patriarxat tuzumi sharoitidagi ayrim boshqa uruglar orasida saqlanib qolgan.

Ibtidoiy jamoa jismoniy tabiya sohasida o'z a'zolari zimmasiga ma'lum majburiyatlar yukladi. Yosh qiz va yigitlar xayotda kerak bo'ladigan epchilik, chidamlilik, chaqqonlik, jasurlik va qatiyatlik kabi qobilyatlarga ega bo'lishi lozim edi. Ba'zi qabilalarda masalan, baroro va qonella (Sharqiy Brazilya)larda yigitlar ma'lum sinovlardan o'tmagunlaricha hatto uylanishlari ham mumkin emas edilar. Kurash va yugurish eng asosiy sinovlardan edi. Brazilya tadqiqotchilaridan bari Bo'shan, bu badan mashqlarining qiyinligi Shundaki, yugurayotgan kishi yelkasida og'ir bir yog'och bo'lagini ko'tarib borishi va yugurib borib, nishonga tegizishi lozim, deb yozgan edi. Meksikalik indeeslarda yugurish musobaqasi 20 kmlik masofani aylanib o'tishdan iborat edi. Etnograf Sobel indeeslarning qaragumar qabilasidagi ayollardan ba'zilarining ancha katta masofani erkaqlar bilan aniq bir vaqtda yugurib o'tganligini ko'zatgan. Sharqiy Afrikadagi ko'pgina ibtidoiy qabilalarda langar cho'p bilan sakrash va yugurib kelib balandlikka sakrash musobaqalari ham bo'lganligi ma'lum. Chunonchi vatusi qabilasida yugurib kelib

balandlikka sakrash va langarcho‘p bilan sakrash turli bayramlar vaqtidagi oddiy xodisa bo‘lgan.

Ibtidoiy jamoa sharoitlaridayoq suzishning turli usullari, elementlari (masalan; krol usuli bilan suzish) ma‘lum bo‘lgan, kanoe va baydarka - xilidagi yengil uzunchoq qayiqda eshkak eshish qo‘llanilgan. Etnografik materiallar Janubiy Amerikadagi ba‘zi bir qabilalarda (Evropaning mustamlaka qilib olishgacha bo‘lgan davrda) turida mashq qilish elementlari mavjud bo‘lganligi to‘g‘risida dalolat beradi. Shimoliy Amerika indeeslarining ayrim qabilalarida (bu qabilalar kashf etilgan vaqtida onalik huquqi asosida urug‘a birlashtirilgan edi) katta rezina koptok, chovg‘anlardan foydalanib o‘ynaladigan xokkey to‘pidagi yozgi va kishi o‘yinlar rasm bo‘lgan.

Ba‘zi bir manbalar ibtidoiy jamoa odamlarida disk uloqtirish mashqi ham bo‘lganligi ko‘rsatadi. To‘g‘ri, hali bu musobaqa turi har tomonlama mustaqil bo‘lmagan balki kompleks harakterdagi o‘yinlar tarkibiga kirgan.

“Disk” kaktus o‘simligidan tayyorlangan va yumaloq shakilda bo‘lgan. Oldin kaktusdan tikanlar tozalangan. Disk ham o‘ng, ham chap qo‘l bilan uloqtirilgan. O‘ynovchilar ikki to‘daga bo‘lingan. Birinchi to‘dadagi o‘yinchilar navbat bilan diskni uloqtiradigan paytda ikkinchi to‘dadagi o‘yinchilar (navbat bilan) uchib kelayotgan diskga yoy o‘qi bilan teqizishga harakat qilganlar. O‘qi nishonga tegmagan o‘yinchilar o‘yindan chiqarilgan.

Yuqorida aytilgan gaplar hozirgi zamon sporti va jismoniy mashqlarning qator elementlari onalik urug‘chiligi sharoitidayoq paydo bo‘lganligidan dalolat beradi.

### **1.3.Patriarxat ( otalik urugchilik) davrida harbiy tayyorgarlikni rivojlanish xususiyatlari.**

Temir plug va boltaning paydo bo‘lishi, plug bilan ishlash dehqonchiligi va chorvachilikning rivojlanishi ovning ho‘jalik ahamiyatini barbod qildi. Chorva mollari tutish va dehqonchilik qilish uyda erkak kishini ng hukumron bo‘lishini ta‘minladi. Oila katta patriarxat oilaga aylana boshlaydi. Monogamiyaga-yagona nikohlikka o‘tila boshlanadi. Patriarxat oilalar yig‘indisi patriarxal, urug‘ini yoki urug‘chilik jamoasini tashkil etadi, urug‘lar yig‘indisi va umum qabila yerlariga ega bo‘lish qabilalarni hosil qiladi.

Qabilalararo munosabatlarning rivojlanishi bilan o‘zaro tarbiya madaniyat ta’siri kuchayadi, jismoniy madaniyat tajribasi ham boyib boradi. Ko‘pgina qabila o‘yinlari va jismoniy mashqlardan endi bir qancha qabilalar bahramand bo‘ldi. Onalik urug‘chiligi sharoitida ma’lum bo‘lmagan, jangovar musobaqa o‘yinlari paydo bo‘ladi. Jangovar shon-shavkat va shuhrat tushunchalari tug‘uladi.

Patriarxat taraqqiyotining ilk bosqichida qabilalar o‘rtasida tug‘iladigan janjallar ko‘pincha bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan qabila sakillarining kurashi (yakkama-yakka kurashi) bilan xal etilar edi. Ba’zan janjallar birgalikda shodiyona mehmondorchiliklar tashkil etish, bir-biriga sovg‘alar berish, aka-o‘qa tutinish va hokazolar bilan tugar edi.

Harbiy mashqlar qabilalar o‘rtasidagi do‘stlik munosabatlarining rivojlanishi va mustahkamlanishida katta rol o‘ynar edi. Qabilalar o‘rtasida o‘tqaziladigan musobaqalar jarayonida jamoa shon-sharaf, o‘zaro bir-birini quvvatlash ancha zaif raqibga rioyagarchilik qilish tushunchalari va boshqa tushunchalar rivojlanib borar edi. Kelishmovchiliklarni musobaqa yo‘li bilan hal etish patriarxat sharoitida yashagan ko‘pgina qabila va elatlarda ko‘rilgan. Masalan, eskimoslarda (XIX asrning boshlarida) turli guruhlarining to‘qnashuvi vaqtida har bir guruhdan jangchilar tanlab olishgan. Ular tayoqbozlikda musobaqalashib, ulardan biri yengildim, demago‘ncha musobaqa davom etgan. Qoryaklar, tonguslar va chuqchilar orasida kurashi shaklidagi yakkama-yakka olishuv keng tarqalgan edi. Yangi Gvineyadagi ko‘pgina Gharbiy Yevropa tadqiqotchilari musobaqa o‘yinlarining bolalar va kattalar o‘rtasidagi o‘zaro musobaqalarni doimiy urushlar shaklida, musobaqa o‘yinlarini esa “bu urushlarning nushasi” shaklida tasvirlashga harakat qilgan burjua olimlarining uydirmalarini rad etadi.(3- rasm)



## **Patriarxat ( otalik) urug‘chilik davrida qurol aslohalor orqali harbiy va jismoniy tayorgarlikni rivojlanishi.**

Ishlab chiqarish va ijtimoiy hayot sohasidagi o‘zgarishlar oqibati-natijada harbiy sohasida ham bir qancha yangi xodisalarning sodir bo‘lishligi sabab bo‘ldi. Eski o‘yinlar ko‘pincha ilgargi ovchilik atamalarini saqlagan holda harakatlar harakteriga ko‘ra, jamoa ovchilik mashqlarining ilgargi usullari va uslubiyatlariga endi bevosita munosabatda bo‘lmas edi. Masalan; ilgari, odatda, jamoa ovchilik o‘yinlari majmuasiga kirgan mushtlashish, kurashish, og‘irlik ko‘tarish va hakozalear asta-sekin erkaqlarning shaxsiy mustaqil musobaqa turiga aylandi. Ovchilik o‘yinlari ovchilar turmush an‘analarini aks etirib kelgan eski mazmunini yo‘qotdi. Ayni vaqtda dehqonlar va chorvadorlarning mehnati va turmushini aks etiradigan yangi musobaqa o‘yinlari paydo bo‘ldi. “Zoghar”, “Tariq”, “Sichqon va mushik”, “Kalxat” va boshqa Shu singari halq o‘yinlari aftidan, o‘z ildizlari bilan ibtidoiy jamoa tuzumi davridagi musobaqa o‘yinlariga borib taqalsa kerak. Bu o‘yinlarda XIX asrdayoq ibtidoiy dehqonlar va chorvadorlarning o‘yinlari uchun harakterli bo‘lgan marosim va musobaqa elementlari ancha aniq saqlangan edi. Ko‘pgina halqlarda ho‘qiz bilan olishuv o‘yini keng tarqalgan edi. Bu o‘yinlarga yovvoyi hayvonlarni qo‘lga o‘rgatish hamda usullarini aks ettiruvchi jismoniy mashqlar kirar edi.

Patriarxat davrida ibtidoiy jamoa odamlarining o‘yin ijodini tarkibiy elementlariga ajratish, ixtisoslashtirish jarayoni kuchayadi. Masalan, bo‘g‘uchilik bilan shug‘ulanadigan qabilalarda bo‘g‘u bilan olishuv o‘yini asosan bolalar o‘rtasida saqlanib qolgan. Qatnashganlar o‘rtasida esa bu o‘yinlardan faqat ayrim mashqqlargina foydalanilgan: bu mashqlar sportning mustaqil elementlari sifatida tarkib topdi (bu usullarda tezlikda kim o‘zarcha poyga qilish, katta yuklarni tashishda poyga qilish, yugurib kelayotgan bo‘g‘uning shohiga arqon tashlab, bir joyda turgan buyumga va havoda aylanib turgan buyumga arqon tashlash, keng chang‘ilarda kim o‘zarcha poyga qilish va hakozalear). Kurash singari musobaqa turi ham shaklan o‘zgardi. Agar ilgari hayvon terisiga o‘ralib raqs harakatlari va sakrashlari bilan kurashga tushilgan bo‘lsa, endu raqs mustaqil mashq sifatida ajralib chiqdi, kurash esa sport harakteriga ega bo‘ldi. Hayvon terisiga o‘ralib sakrash musobaqaning mustaqil turi sifatida bajarila boshlandi.

O‘yinlar va jismoniy mashqlarning bunday evollyuatsiyasi kamchatkadagi bir qancha qabilalar va boshqa xalqlarda ko‘zatlardi.



Harbiy madaniyat mehnat ehtiyoji tufayli vujudga kelgan. Harbiy san`at dastlab mehnat jarayonida taqlid qiladigan va o`nga tayyorlaydigan mashq hamda o`yinlardan iborat bo`lgan. Jamiyat urug`chilik tashkilotlarining tushimini va rivojlanishi bilan o`ynovchilarning o`yinlari va harakatlari asta-sekin takomilashtirib brogan o`yin uchun sun`iy buyumlar, koptoklar, sharlar, chovg`onlar, raketkalar, qiziqchalar va hakoza paydo bo`lgan

Bu hol kishilar ijtimoiy foydali faoliyatining nisbatan mustaqil sohasi bo`lgan madaniyat elementlari tartib topish bosqichining boshlanganligidan dalolat beradi.

Harbiy mashqlar, raqslar, jamoa musobaqa o`yinlari va yakkama-yakka kurashlar diniy marosim bayramlaridagi urf-odatlarining ajralmas qismi bo`lib qolgan. Ibtidoiy jismoniy madaniyat barcha urug` a`zolarining erkin jamoa mehnati negizida paydo bo`ldi va ibtidoiy jamoa tuzumining ishlab chiqarish usuliga batomom muvofiq keladi. Ibtidoiy madaniyat barcha urug` a`zolari boyligi bo`lib, urug`- qabila mehnat turmushi bilan chambarchas bog`langan edi. Ibtidoiy jamoa tuzumining yemirilishi davrida harbiy madaniyat urug`-qabila aslzodalari tomonidan o`zini va o`z drujinalarini harbiy jihatdan tayyorlash uchun foydalanildi, bu drujinalar boshqa qabilalarni har biri yo`l bilan tanlash uchun mo`ljallangan edi. Harbiy tayorgarlikni oshirishda turli buyumlar bilan mashq bajarishni qollab kelishgan.

harbiy madaniyat urug`-qabila aslzodalari tomonidan o`zini va o`z drujinalarini harbiy jihatdan tayyorlash uchun foydalanildi, bu drujinalar boshqa qabilalarni har biri yo`l bilan tanlash uchun mo`ljallangan edi. Harbiy tayorgarlikni oshirishda turli buyumlar bilan mashq bajarishni qollab kelishgan.

### **Tayanch iboralar**

Harbiy tayorgarlik, texnika, strategiya, taktika, mashq, o`yin, xarakter , ibtidoiy jamoa tuzum, jismoniy sifatlar, nayza, madaniyat, xarakter faolligi, bellashuv, ov, uloqtirish, nishon, temir plug, qabila.

## GLOSSARIY

### Atamalar uch tilda yoritiladi va izohlab beriladi

№	Atamaning O'zbek tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma'nosi
1	Harbiy tarix	Военная история	Military history	bu, urushlarning mazmuni, sabablari, xarakterlarini, ularni olib borish usul va vositalarini jamiyat xayotining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va moddiy-texnikaviy sharoitlari o'zgarishi bilan bog'liqlikda o'rganadigan fan.
2	Urush	Война	war	bu murakkab, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy xodisadir; davlatlar va xalqlar o'rtasidagi munosabatlarning to'satdan o'zgarishi bilan bog'liq murakkab xolat xamda siyosiy, iqtisodiy va boshqa maqsadlarga erishish uchun rejalashtirilgan va tashkillashtirilgan qurolli kuch vositalarini qo'llashga o'tishdir.
4	Harbiy san'at	Военное искусство	Military art	harbiy xarakatlarni tayyorlash va ularni quruqlikda, xavoda va dengizda olib borish nazariyasi va amaliyotidir.
5	mashq	Упражнения	exercises	Harakatlar, harakat faoliyatlari, Shuningdek harakat faoliyatining murakkab turlari, bo'lib ular jismoniy tarbiya vazifalarini hal etish uchun vositada tanlab olingan. "Mashq" atamasini harakat faoliyatini bir necha bor takrorlash jarayonini ifodalash ma'nosida ham qo'llaniladi.
6	Harakat faoliyati	Двигательное активность	activity	Harakatni bajara olish uni takomillashtirish va ko'nikmani vujudga keltirishga aytiladi
7	strategiya	стратегия	strategith	<b>Strategiya</b> -(grekchadan stratos-qo'shin va ago-boshlab boraman) bu harbiy san'atning tarkibiy qismi va yuqori



				pogʻonasi boʻlib, u davlat va qurolli kuchlarni urushga tayyorlash nazariyasi va amaliyotini, strategik operatsiyalarni va umuman urushlarni rejalashtirishni qamrab oladi.
9	Harbiy tayyorgarlik	Военное подготовка	Military art trainihg	U aniq kasb xususiyatiga koʻra oʻtkaziladigan jismoniy mashqlarning vazifalari, vositalari, oʻkazish metodikasining oʻziga xosligi bilan xarakterlanadi.

### **Mavzuni oʻzlashtirish uchun savollar**

1. Harbiy tarix faniga umumiy tavsif?
2. Fanning maqsad vazifalari toʻgʻrisida nimalar bilasiz?
3. Harbiy mashqlarni paydo boʻlish xususiyati haqida fikringiz?
4. Insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiy sanʼatning mazmuni va xarakteri

### **Talabalarni mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar**

**Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va oʻz fikr-mulohazalaringizni bildiring, “Mustaqil ish” yozing:**

1. Texnikaga umumiy tavsif
2. Ibtidoiy jamoa tuzimida harbiy tarbiyaning rivojlanishi.
3. Insoniyatning vujudga kelishi jamiyat taraqqiyotida mehnat va harbiy sanʼatning mohiyati.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari**

#### **1. Harbiy tarix nechta davrga boʻlinadi?**

- A. 2 davrga
- B. 3 davrga
- V. 4 davrga
- G. 5 davrga
- D. 6 davrga

**2. Quldorlik jamiyati sinfini kimlar tashkil qilgan?**

A.Armiya

B.Qullar

V.Davlatlar

G.Hukmron sinflar

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**3. Quldorlik jamiyati armiyasini tuzishda qanday sistemadan foydalangan?**

A.Doimiy bo`linmalardan

B.Ko`ngililardan

V.Qullardan

G.Xamma javob to`g`ri

D.Hamma javoblar tÿg`ri

**4. Quldorlik jamiyati kimlar tashkil qilgan?**

A.Nasl-nasabli urug`lar

B.Doimiy otryadlar

V.Nasl-nasabli urug`ning vakillari

G.Hamma javob to`g`ri

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**5. Quldorlik jamiyati davrida tabaqalardan tashkil topgan armiyalar qaerda rivojlangan?**

A.Vavilon va Xindiston

B.Angliya va Frantsiya

V.Ispaniya va Italiya

G.Misr va Arabiston

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**6. Militsion sistemali quldorlik tizimida davlatining har bir fuqorasi armiya safida necha yil xizmat qilgan?**

A.18 dan 60 Yoshgacha

B.17 dan 50 Yoshgacha

V.19 dan 55 Yoshgacha

G.Yoshligidan - qariguncha

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**7. Yollanma turdagi armiya qaysi mamlakatda birinchilardan bo`lib tashkil etilgan?**

A.Gretsiya

B.Italiya

V.Misr

G.Vavilon

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**8. Yollanma armiya qismini kimlar tashkil qigan?**

A.Kambag`allar

B.Boshqa xalqlar

V.Zadagonlar

G.A va B javob to`g`ri

D. Hamma javoblar tÿg`ri

**9. Quldorlik jamiyatida qanday qurollardan foydalanilgan?**

A.Nayza, qilich;

B.Bolta, xanjar;

V.Otish nayzasi;

G. Kamon.

D.Hamma javoblar tÿg`ri

## 10. Himoya vositasida nimalardan foydalangan?

A.Taxta

B.Charm

V.Metall

G.Hamma javob to'g'ri

D.Hamma javoblar t'yg'ri

### Adabiyotlar:

1.Kochkarov.A.K., Sotvoldiev. A.YU., Durmenov.SH.N. Harbiy tarix-T 2017 yil

2.M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005. 118 bet.

3. SH.Akramova. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: O'zR MG HTI, 2018 y. - 44 b.

3. David C. Watt Sports management and administration © 1998 David C. Watt

4. Abdumalikov R., Eshnazarov J.E., Ajdodlar jismoniy madaniyati tarixini o'rganish masalalari, o'quv qo'l., T., O'zJTI, 1993 yil.

5.M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2006. 190 bet.

## II- BOB QADIMGI DUNYO HALQLARINING HARBIY SAN'ATI TARIXI QULDORLIK VA FEODALIZM JAMIYATI URUHLARI.

### 2.1. Qadimgi Sharq davlatlarining harbiy san'ati

Urug'chilik tuzumining yemirilishi jarayonida yangi ishlab chiqarish munosabatlarining asoslari qurila bordi, bu yangi ishlab chiqarish munosabati bilan vujudga kelgan yangi mulkchilik shakllarining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Quldorchilik jamiyatining paydo bo'lishi yoki vujudga kelishi bu jarayonining oqibat natijasi bo'ladi.

Qadimgi Sharq quldorlik davlatlari: Misr, Suriya, Eron, Xindiston va Xitoy kishilik tarixidagi eng qadimgi sinfiy jamiyatlari edi. Qadimgi Sharq davlatlarida, qadimgi dunyo davlatlari Gresiya va Rim quldorlari davlatlaridan farqli ularoq, quldorchilik ham oila qulchiligi doirasidan tashqarisiga chiqmagan bo'lib, ko'pgina jamoa hayotiy shakli

saqlangan holda davom etdi. Bu davlatlarda quldorlar va qullar sinfi bilan birga ozod jamoatchilar ommasi dehqonlar ko'plab saqlangan edi. Quldorlar sinfi o'z iqtisodiy va siyosiy qudratini mustahkamlash maqsadida xalqlar tomonidan tarixning oldingi davrlarida yaratilgan madaniyatdan keng foydalaniladi.

Ibtidoiy jamoa tuzumi sharoitlaridayoq vujudga kelgan din va kohinlar toifasi hukumron sinf xokiimyatini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan va ko'pincha sehrgarlik harakatlari harakteriga ega bo'lgan turli-tuman o'yinlar, raqslar, xorovadlar va musobaqalar barcha. Qadimgi Sharq davlatlarining ozod aholisi o'rtasida tarqalgan edi. Xalq orasidagi harbiy mashqlarning ko'pgina turlari ham ko'p qo'llanar edi, chunki ozod jamoachilar hali ham Sharqiy dispotiya ko'shinlarining asosini tashkil etar edi. Qadimgi Misrning ko'p sonli yodgorliklari Misr falloqlari o'rtasida kurashga, qilichboslikka doir mashqlar, ko'p sonli akrobatika mashqlari, raqs mashqlar, koptok o'ynash mashqlari va xakazolarning tarqalganligidan dalolat beradi. Suriya, Vavilion, Qadimgi Eron yodgorliklari ham xalq orasida mavjud bo'lgan ko'pgina o'yinlar va musobaqalar to'g'risida xabar beradi.<sup>6</sup>

Qadimgi Xitoy kurashi va qilichbozlikning, oyoq to'pi o'ynashining o'ziga xos usullari bo'lgan. Xitoyda saqlanib qolgan "Ushu" harbiy tizimi juda qadimgi zamonda tugilgan va bu tizimning ba'zi bir mashqlari quldorchilik jamiyati sharoitlarida vujudga kelgan, deb taxmin qilishga asos bor.

Huqumdor quldor boshliqlar xokimiyatning kuchayib borishi bilan xalqning jismoniy madaniyat elementlaridan borgan sari ko'proq darajada xokimiyatning sinfiy maqsadlari yo'lida foydalaniladi. Armiyadagi rahbarlik roliga mansub bo'lgan aslzoda quldorlar mashqlarning xalq orasidagi turlaridan o'zlariga jangchi uchun zarur bo'ladigan sifatlarni kamol topshirish uchun foydalanilganlar. Ular maxsus uyushtirilgan jismoniy madaniyat oddiy xalq ommasidan ajratib ko'rsatadigan va bu bilan o'zlarini yuqori to'tadigan jismoniy fazilatlarni kamol topshirishga intilar edilar.

Qadimgi Eronda maxsus tashkil qilingan maktablarda zadogon Yoshlari tarbiyash tizimi mavjud edi; bu maktablarda otda yurish va kamalak otishga o'rgatishga alohida e'tibor berar edi. Qadimgi Misrda harbiy zodagon doiralarning maxsus harbiy jismoniy

---

<sup>6</sup> Xoldorv T., Nurmatov F.A. Yunusova D.S. jismoniy tarbiya tarixi va sport harakati"-T 2013 y

jihatdan tayyorlash, nayza irgitishga doir mashqlardangina foydalanganligi haqida ba'zi bir ma'lumotlar bor. Jamiyatning toifalarga ajralishi rasm bo'lgan. Qadimgi Xindistonda hukumron sinflar o'rtasida jangchilarning alohida toifasi paydo bo'lgan. Bu toifa a'zolari Yoshlik chog'laridanoq o'zlarining barcha vaqtini va o'zini harbiy mashqlarda kamol topshirishga sarflab, jangchi bo'lishga o'rgatilgan.

Ayni bir vaqtda qadimgi Sharqning mustabid quldor boshliqalari o'zlarining halq ommasiga bo'lgan huqumdorligi va ta'sirini kengaytirishga intilib, ko'pgina halq bayramlari an'analaridan keng foydalanilganlar; ko'p sonli musobaqa o'yinlari, raqslar va xor bolib kyulash bu halq bayramlarining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Qadimgi Sharq davlatlarning ko'plarida kohinlar toifasi bu ham an'anaviy xalq bayramlarning dastlabki kunlaridanoq quldorlarning sinfiy hukumronligini mustahkamlash quroli bo'lib qolgan. Yangi rasmiy dinga mohirlik bilan muvofiqlashtira bordilar. Bu hol qadimgi Misrda ayniqsa yaqqol ko'zga tashlanadi. Qadimgi Misrda rasmiy dinni ko'p sonli xudolarni urf-odatiga bag'ishlangan ko'pgina, bayramlar, an'anaviy xalq musobaqalar o'yinlari va raqslari bilan birga qo'shib yulib boriladi. Jismoniy madaniyatning xalq elementlari asta-sekin yangi diniy marosimlarining tarkibiy qismi bo'la borib, bu urf-odatlar yordamida xalq ommasi borgan sari ko'proq ideologik asoratga solinar edi.

Hukumron quldorlar doirasi xalq mashqlari turlaridan o'z kamoloti va ko'ngil ochishi yo'lidan ham keng foydalangan. Quldorlar, bir tomonidan, o'zlarining bo'sh vaqtini ko'pincha o'yin, ov turli mashqlar bilan o'tkazar, ikkinchi tomonidan o'zlari uchun tomoshalar tashkil qilib, ulardan ancha chaqqon, kuchli va epchil ozod jamoachilarni ishtirok ettirar edilar. Qadimgi Misr, Eron, Xindiston va Xitoy yodg'orliklari o'sha vaqtlarda aslzodalarga qarashli saroylarda tomosha ko'rsatgan darbozlar, jangchilar, o'yinchi va raqqosalar bo'lganligidan dalolat beradi.

Shunday qilib, Qadimgi Sharq quldorlik davlatlarida jismoniy madaniyat elementlarining rivojlanishidagi harakterli xususiyati Shundan iboratki, ozod dehqonlar orasida rasm bo'lib kelishgan xalq jismoniy madaniyati shakillari va xalq mashqlarning turlari bilan birga, quldor boshqalarning bu jismoniy madaniyat eelementlarini o'z obro'yi va hukumronligini kuchaytirish uchun o'zlashtirish va foydalanishga bo'lgan intilishi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ibtidoiy jamoaning mehnat faoliyatida tug‘ilgan xalq jismoniy madaniyati elementlarining quldorlarning ehtiyojlari sinfiy maqsadlariga moslashib borish jarayonini Qadimgi Gresiya misolida ayniqsa yaxshi ko‘rish mumkin.

## **2.2.Urug‘chiliq tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining tug‘ilib kelishida qadimgi Gresiyada harbiy san’at.**

Uruchiliq tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining tug‘ilib kelishi Gresiya tarixining Gomer davri deb ataladigan eng qadimgi davriga to‘g‘ri keladi; bu davr Miloddan avvalgi XII-VIII asrlarini o‘z ichiga oladi. Bu sinfiy quldorlik jamiyatiga o‘tiladigan davrni harbiy demokratiya deb atalgan. Urug‘chiliq tuzumida hukumronlik movqeni egallashga harakat qilgan urug‘-zadagonlarining ajralishi va yuqori darajaga ko‘tarilishi bu davr uchun harakterlidir.

Odatda, aslzodalar muhitidan urug‘ oqsoqollari-bosileylar ajralib chiqar edi. Shu bilan birga, urug‘ aslzodalarini xalq ommasi bilan xisoblashishga majbur qiladigan eski urug‘chiliq muassasalari ham saqlanib qolgan edi. Bu davrda ibtidoiy urug‘chiliq jamoasi uchun harakterli bo‘lgan tartiblar hali-ham saqlanib qolgan, bu tartiblarga ko‘ra, har bir katta Yoshdagi erkak ayolni bir vaqtda jangchi ham bular edi. Lekin bu davrga kelib, xalq ichida chiqqan jangchi bilan urug‘ zadagonlari ichidan chiqqan jangchi orasida farq mavjud bo‘ladi. Zadagon jangchilar o‘z quollarining zebi-ziynatlari va o‘zining yaxshi tayyorgarlik darajasi bilan farq qilib turar edi. Ular qo‘shinda rahbarlik rolini o‘ynashga harakat qilar va harbiy o‘ljaning katta ulushini o‘zlashtirib olar edilar.


Gomerning “Iliada” va “Odissey” poemalarida o‘sha davrdagi yunon hayotining yorqin manzaralari aks ettiriladi, qahramonlar deb ataladigan zadagon jangchilar obrazi chizilib, ularni oddiy xalqdan ajratuvchi jismoniy fazilatlar ta’kidlanadi. Gomer poemalarining qahramonlari halok bo‘lgan, qahramonlar sharafiga yoki qabila hayotidagi biror muhim vaqtni nishonlash sharafiga tashkil etiladigan ko‘pdan-ko‘p musobaqa o‘yinlarida o‘zlarining jismoniy fazilatlarini va harbiy hislatlarini namoyish etadilar. Bu o‘yinlarda yugurish, nayza, disk uloqtirish, sakrash, kurashish va boshqa mashqlar yuzasidan musobaqalar o‘tqazilar edi.

Shubha, yo‘qki, bu o‘yinlar o‘z ildizlari bilan o‘zoq o‘tishishga borib taqaladi, an’anaviy urug‘chiliq yoki qabilachilik bayramlari bilan bog‘langan. Urugchilik tuzumini yemirilishi sharoitlarida bu o‘yinlar asta-sekin o‘zining umumurug‘chilik yoki

umumqabilachilik ahamiyatini yo‘qota borib, ulug‘ zadagonlarning bayramiga aylana borgan. Musobaqalarda faqat zadagon jangchilar ishtirok eta boshladi.

Musobaqa o‘yinlarida ko‘rsatiladigan tomoshalar zadagon jangchilarni jismoniy kuchayshi fazilatlarini tekshirish va namoyish qilishining o‘ziga xos bir usuli bo‘lib, bu tomoshalar ularni goya xalqdan yuqori darajaga ko‘targanday bular edi. “Odisseya” poemasi talqin etilishiga, “antlyot” so‘zi o‘sha vaqtda “olijanob qahramon izidan” tusho‘nchalari bilan bog‘langan va “xalq ichida chiqqan odam”, tusho‘nchaligi qarama-qarashi qo‘yilgan. Gomer poemalarida qabilaning oddiy a‘zolari zadagon jangchilarning o‘yinchilarida ishtirok etilmaydilar, ular faqat tomoshabin bo‘lib ko‘rinadilar.

Miloddan avvalgi IX-VIII asrlarga kelib Gresiya hududida urug‘chilik tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining rivojlanishi jarayoni dastlabki davlatlarning to‘zilishiga olib keladi. Kuchayib borayotgan quldorlar sinfining hukumronligini mustahkamlashga qaratilgan birinchi davlatlar paydo bo‘la boshladi. (4-rasm)



**Polestradaning rivojlanishida qol jangi san`ati**

### **2.3. Sparta tizimida harbiy tayorgarlikni rivojlanishi**

Doriyliklarning Lakoniyani bosib olish natijasida Miloddan avvalgi IX asrning o‘rtalarida vujudga kelgan. Sparta davlati dastlab harbiy jihatdan uyushgan urug‘chilik ittifoqi harakterga ega edi. Sparta bu ittifoqning ko‘pgina xususiyatlarini deyarli butun tarixi davomida saqlab kelgan. Bosib olingan mahalliy aholi bosqinchilar-doriyliklar tomonidan juda qattiq ekspluatsiya qilish obektiga aylanadi. Mahalliy aholi bosqichlarini barcha qishloq xo‘jaligi va xunarmandchilik maxsulotlari bilan ta‘minlashga majbur edi; harbiy jamoalarga uyushgan bosqichlarning o‘zlari esa faqat harbiy ish bilan band edilar. O‘z zamonlariga qarshi tez-tez qo‘zgon ko‘tarib turadigan pedonomlar va iloatlar ommasi ustidan hokimlikni qo‘llab-quvvatlash zarurligi spartaliklarni doim jangovar holatda turishga majbur qiladi va jamoaning sho‘nga muvofiq harbiy lagerv uyushmasining yuzagi



kelishiga sabab bo'ladi. Spartaning 20 Yoshidan 60 Yoshigacha bo'lgan har bir fuqarosi armiya safida bular, buning ustiga ko'p vaqtning oilasidan o'zoqda, har kuni biror ma'lum bo'linmaning jangchilari yigiladigan jamoat oshxonalarida (sissitiyalarda) o'tqazishiga majbur bular edi. Harbiylar lager hayoti shariotlarida o'ziga xos madaniyat tizimi ham rivojlanib borar edi.<sup>1</sup>

Spartaliklar tarbiya sohasida o'z e'tiborini asosan kuchlik chidamlilik va epchillikning o'sishiga qaratadilar, chunki spartaliklarning qurollanishi harakteri va taktikasi Shuni talab qiladi. Tarbiya maqsadi bo'lajak jangchilar hamjihatligini, kuchini va chidamliligini ta'minlaydigan jismoniy fazilatlarini kamol toptirishdan iboratdir. Spartada madaniyat masalalariga katta e'tibor beriladi. Godakning tug'ilgan kunidan boshlab uning hayoti davlat nazorat ostida bular edi. Plotarxning aytishiga qaraganda, biror jismoniy kamchilik bilan tug'ilgan barcha bolalarni o'ldirganlar, so'ngra esa maxsus tashkil qilingan ijtimoiy internat uylarida o'qitganlar. 7 Yoshdan 14 Yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar jamoat uylarida yashab ular asosan jismoniy madaniyat olar edilar. Ular jismoniy mashqlar (yugurish, kurashish, irg'itish, sakrash va boshqalar) yordamida har qanday qiyinchiliklarni yengishga o'rgatadi, o'z kuchlari va chidamliliklarini o'stiradi. Ularning murabbiylari va rahbarlari davlat tomonidan belgilanadigan pedonomlar edi. Har yili Shu Yoshdagi guruhga turuvchi bolalar uchun sinov (uy) lar tashkil etilib, bu sinovlarda o'g'il bolalar o'zlarining jismoniy fazilatlarini rivojlantirish borasida bir yil ichida erishgan natijalarni namoyish qiladilar. 14 Yoshga yetgan o'smirlar uchun sinov yili deb ataluvchi alohida yil belgilanadi; bu o'smirlar qurol oladi, maxsus otryadlarga guruhlashtiriladi va o'z murabbiylari rahbarligida politsiya hizmati va harbiy xizmatni o'taradilar. Bu sinov yili davomida ular to'ngi yugurishlar uyushtiradilar, bunday to'ngi yugurishlar vaqtida ularga yo'lda uchragan har bir ilotni o'ldirishga, ilotlarni qishloqlariga xujum qilishga bu qishloqlarni vayron qilib tashlashga huquq berilgan edi. Bu yurishlar ilotlarni qo'rqitish va Yosh spartaliklarni yurish vaqtidagi jangovor holatiga, ilotlarning qo'zg'olonlarini bostirishga o'rgatish maqsadida uyushtiriladi.

Sinov yilni tugashi bilan o'smirlar eyrenlar toifalariiga o'tqaziladi.

Eyrenlar (15 Yoshdan 20Yoshgacha bo'lgan yigitlar) tizimli harbiy tayyorgarlik bilan shug'illanadi va ayni bir vaqtda kichik Yoshdagi sinfdagi o'g'il bolalarni tarbiyalashda pedonomlarga amaliy yordam ko'rsatadilar. Yosh spartalik 20 Yoshga to'lishi bilan yana

sinovdan o'tar va ediblar toifalariiga o'tqazilib, ular qatorida 30 Yoshgacha bular edi. Ediblar qo'yishlar sostaviga kiritirar, yugurishlarda qatnashar edilar. Ular muntazam ravishda jismoniy mashqlar bilan shugulanar o'zlarida aska uchun zarur bo'lgan fazilatlarini tarkib toptirar edilar.

Sparta Yoshlarning erlar jinsi jismoniy va harbiy mashqlarning qattiqligi spartalik qizlarning ham qattiq tabiyasiga muvofiq kelar edi. Qizlar yigitlar bilan bir qatorda jamoat bayramlarida ishtirok etib, musobaqa va raqslarga qatnashar edilar: yugurish, sakrash, irg'itish va hatto kurashishga doir mashqlar ko'proq shug'ullanar edilar. Qadimga ma'nbalarning ko'rsatishicha, qizlarni bunday tabiyalashdan maqsad "bu qizlardan tug'iladigan bolalardan baquvvat va kuchli bo'lishi uchun ularning tanasini kuchli baquvvat qilishidan iboratdir".

Quldorlarning Afinada vujudga kelgan madaniyat tizimi Spartadagi qattiq, bir tamonlama madaniyat tizimi dan (bu yerda aqliy ta'limga e'tibor berishar edi) farq qiladi.

#### **2.4. Afina tizimida harbiy quldorlik polislari**

Afinani davlatlari ham, huddi Sparta singari, harbiy quldorlik polislari harakterida edi. Shu bilan bir vaqtda bu davlatlar konservativ - dehqonchilik. Spartasidan savdo – sotiq va xunarmandchilik taraqqiyotining yuksak darajasi hamda qullar mehnatining uyushganligi bilan farq qilar edi. Qullar mehnatining o'sishi Afina davlatlaridan erkin fuqarolar (quldorlar)ning mulkiy tabaqalanishiga sabab bo'ladi, bu hol Solonning (Miloddan avvalgi 594 yil) Afina jamiyatining sinflarga ajralishi to'g'risidagi qono'nlarda o'z ifodasini topdi. Harbiy quldorlik polisining harakteriga muvofiq, quldorlik jamoasining barcha a'zolari harbiy xizmat o'tishi lozim bo'lgan. Solon qonuniga ko'ra, tamomila mulkka ega bo'lmay, turtinchi sinfga ajratilgan fuqoralarga harbiy xizmatdan ozod qilingan. Erkin bo'lib tug'ilgan askar qiskilar ommasining armiyaga jalb etilishi sababni davlat to'zilishining o'ziga xosligi bo'lib, bu davlat tuzilishida harbiy majburiyatni o'taydigan demosning barcha tabaqalari garajdan huquqlaridan foydalanar edilar.

Afina iqtisodiy qudratining o'sishi sharoitida madaniyatning barcha sohalari ravnaq topdi, buning natijasida Afina davlatlari Gresiyaning madaniy hayotidan asosiy mavqeni egalladi. Afina davlatining bu xususiyatlari bu yerda tarkib topgan madaniyat tizimi da ham o'z ifodasini topdi. Afina madaniyatining maqsadi ham, huddi Spartadagi singari qullar jangchini tayyorlashdan iborat edi. Biroq, Afina qo'shinlari spartaliklardan farq qilib og'ir

qurolaslaha bilan qurollangan piyoda askarlardangina emas, balki falinga safidan tashqarida harakat qiladigan yengil qurollangan piyoda askarlardan ham iborat edi.<sup>7</sup>

Afinaning yuksak iqtisodiy va madaniy rivojlanishi sharoitlarida jangchini tayyorlash maqsadiga jismoniy madaniyatdangina emas, balki ham aqlan. Ham estetik madaniyatdan keng foydalanish yo‘li bilan erishgan edi, afinaliklarini o‘zlari guvoxlik berishga, jangchini tayyorlash “tashqi va ichki go‘zallikka” erishishdan dalolat edi. Bu o‘rinda ichki go‘zallik tusho‘nchasi quldorlik davlati fuqarosi zimasiga yuklanadigan majburiyatlarni bajarish mahorati va qobilyati anglanadi.

Afinadagi o‘g‘il bolalar 7 Yoshgacha uyda tarbiyalanar edi. Uy tarbiyaningning asosiy vazifasi turli o‘yinlar yordamida bolani jismoniy jihatidan chiniqtirishdan iborat edi. Bolalar 7 Yoshdan 14-16 Yoshgacha hususiy maktablarda o‘qitilar edi. Musiqiy maktablarda bolalarga savod, musiqa va aShula, gimnastika maktablarida (polestrada) jismoniy mashqlar o‘rganar edi. Polestrada jismoniy tarbiyaning asosiy vositasi sifatida yunonlarning besh kurash musobaqasi; yugurish, sakrash, disk va nayza uloqtirish hamda kurashishdan foydalanar edi. Polestralarning asosiy maqsadi jismoniy jihatdan tayyorlashdan, jangchiga zarur bo‘lgan, mardlik va qa‘tiy irodani tarbiyalashdan iboratdir; Shu bilan ayni bir vaqtda polestralar o‘z oldiga hushbichim gavidani tarkib toptirish, epchil va chiroyli harakatlarni hosil qilish vazifasini ham quyar edi.

Lunianning so‘ziga ko‘ra, gimnastika mashqlari natijasida “yigitlar o‘z bilimlarini jangda qo‘llashga majbur bo‘lganlarida, kutilmaganda zarur bo‘ladigan ko‘nikmalarni xosil qiladilar”, polestralar esa Shu maqsadda “eng yaxshi mashqlardan foydalanshib, yalong‘och a‘zoyu badanlarini chiniqtirar uni sog‘lom, baquvvat, chaqqon, hushbichim va dushman zarbiga chidamli qilar” edilar.

Polestralarda pedotriblar ta‘lim berar edi; ular mashqlarning barcha turlari yuzasidan mashg‘ulotlar o‘tkazar edilar; lekin har bir pedotrib unchalik ko‘p bo‘lmagan o‘quvchilar bilan mashg‘ulot o‘tkazar edi.

Quldor yigitlar 14-16 Yoshidan 18 Yoshgacha gimnaziyalarda ta‘lim olar edi. Bu masalalar birinchi navbatda Yohlarni gimnastika sohasida kamol toptirishga mo‘ljalangan edi. Bu yerda ta‘lim oluvchilarga ancha malakali rahbarlar boshchiliq qilar edi. Har bir

---

<sup>7</sup> Xo‘jayev P. Meliyev M., Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish-T., 2016 y.

pedotrib mashqlarning barcha turlari yuzasidan mashg'ulotlar o'tkazadigan polestralardan farqli ravishda gimnasiyalardagi pedotriblar mashqlarning ayrim turlari yuzasidan mo'taxasislar edi. Pedotriblarning ishiga tibbiyotga doir ayrim bilimlardan xabardor bo'lgan gimnastikachilar rahbarlik qilardilar. Aristotelning so'ziga ko'ra, gimnastikachilar o'g'il bolalar organizmini tegishli holatga keltirishlari, pedotriblar esa ularni gimnastika mashg'ulotlari bilan rivojlantirishi lozim bo'lgan.

Afinadagi quldorlar Yoshlarni madaniyatlashning oxirgi bosqichi efebiya-o'ziga xos harbiy tashkilot bo'lib, bu tashkilotga birinchi (ancha badavlat) uch sinflardan ikki yil muddat bilan (18 Yoshdan-20Yoshgacha) yigitlar kiritilar edi. Efebiyada qilichbozlikka, yoydan otishga, nayzabozlikni, nayza va disk uloqtirishiga va manjaniqdan otishga o'rgatadigan o'qituvchilar ta'lim berar edi. Birinchi yil davomida efeblar gimnasiya bilan aloqasini uzmaguncha qatnashib turar va o'zining umumiy jismoniy tayyorgarligining takomillashtirib borar edi. Shu bilan aynan bir vaqtda ular odatda yurishni, qo'sh g'ildirarli aravada yurishni, suvda suzishni va xakozolarni mashq qilar edilar. Efebiyada ta'lim olishning ikkinchi yilni boshlarida Yosh jangchilar o'zlarining bir yillik harbiy tayyorgarlik sohasida olgan bilimlarini xalq oldida namoyish qilar edilar; Shundan keyin ularga qalqon va nayza berib, harbiy xizmatini o'tish uchun chegaradosh gornizonlarga jonashar edilar. Yosh afinalikni tarbiyalash Shu bilan tugalanar edi. Lekin keyinchalik ham, katta Yoshga kirib qolgan chog'larida ham afinaliklar o'z jismoniy tayyorgarligining saqlanib turishi va rivojlanib borishi to'g'risida g'amxo'rlik qilganlar. Ular odatda ertalabdan kechgacha ochiq bo'lgan gimnaziyalarga tez-tez kelib turishar va bu yerda Yoshlarning mashg'ulotlarini tomosha qilib qolmasdan, mashqlarda o'zlari ham qatnashar edi.

## **2.5. Qadimgi Yunoniston harbiy tayyorgarlikni rivojlanishi**

Qadimgi Yunoniston qadimgi greklar (ellinlar) Bulqon yarim orolining janubiy qismida, Egey daryosi orollarida, kichik Osiyoning qirg'oqbo'yi chiziqlarida, qisman janubiy Italiya va Sitsiliyada yashaganlar. Harbiy san'at rivojidadagi asosiy tarixiy rol Bulqon yarim oroli xududidagi grek davlatlariga tegishlidir.

Yunonistonni odatda, Shimoliy, O'rta va Janubiy qismlarga bo'lishadi. Shimoliy Yunonistonda dexqonchilik va chorvachilik uchun qulay sharoitga ega bo'lgan Fessaliya tekisligi katta joyni egallaydi. O'rta Yunonistonda, asosiy shaxarlari Afina va Beotiya xisoblangan Attika joylashgan bo'lib, uning markazi Fiva edi. Janubiy Yunonistonda yoki

Peloponnesda ikkita asosiy viloyat ajralib turadi: asosiy shaxri Sparta bo'lgan Lakoniya va asosiy shaxri Messena xisoblangan Messeniyadir.

Yunoniston uch tomondan dengizlar bilan o'ralgan bo'lib, bu kemasozlik va dengiz savdo-sotig'ining rivojlanishiga imkoniyat yaratgan.

Siyosiy munosabatda qadimgi Yunoniston beshta katta shaxar-davlatlarga (*polislar*) bo'lingan. Ularning o'rtasida ayniqsa Afina va Sparta ajralib turgan, ular qadimgi Yunonistonning siyosiy xayotida etakchi rol o'ynaganlar.

Qadimgi Yunonistonning ko'pchilik erkin axolisi asosan qullarning mexnatlari xisobidan yashaganlar va bo'sh vaqtlarini harbiy ishni o'rganishga sarflaganlar. Qullarga armiyada xizmat qilishga ruxsat berilmagan va ularga qurol berilmagan. Grek polislarining barcha harbiy tashkiloti, avvalambor, qullarni nazoratda ushlab turishga yo'naltirilgan edi. Bundan tashqari ko'zga ko'ringan boylar va yirik quldorlarning o'rtalarida kurashlar bo'lib turar edi.

Polislarning ko'pchiligi respublika bo'lgan. Ularning fuqarolari faqat quldorlar bo'lgan. Qadimgi Yunonistonning harbiy tashkiloti polis *militsiyasi* bo'lgan, ularning asosiy vazifalari qullar o'rtasidagi noroziliklarni bostirish va qo'shni davlatlarga bosqinchiliklar uyushtirishdan iborat bo'lgan.

Sparta va uning armiyasi. Sparta - qadimgi Yunonistonning yirik polis markazlaridan biridir. Ko'plab urushlar natijasida Sparta Janubiy Peloponnesning bir nechta viloyatlarini o'ziga buysundirdi. Spartada to'laqonli fuqarolar, faqat «teng xuquqlilar jamoasi» a'zolari - spartaliklar bo'lganlar. Spartaliklar o'z jamiyatlarini harbiy lagerga aylantirdilar. Ularning xar biri o'smirligidan to umrining oxirigacha jangchi bo'lgan. Sparta davlatini ikkita podsho boshqargan, podsholik merosdan-merosga o'tib borgan, ularning xarakatlari oqsoqollar kengashining qarorlari bilan chegaralangan.5-rasm



Spartaliklarning tarbiya tizimi xar bir o'smirdan jangchini etishtirib chiqarishga yo'naltirilgan. Spartaliklar asosiy e'tiborni o'zlarida jismoniy kuchni, chidamlilikni va botirlikni rivojlantirishga qaratganlar. Jismoniy kuch, qo'rqmaslik va chaqqonlik Spartada yuqori baxolangan. Madaniy ko'nikmalarni o'ziga mujassamlashtirishga kam e'tibor qaratilgan, lekin xar bir spartalik o'qish va yozishni bilishi kerak bo'lgan.

Jangchidan katta boshliqlarga so'zsiz bo'ysunish talab qilingan. Kattalarning buyruqlari so'zsiz bajarilgan. Harbiy intizom ko'nikmalari bo'lajak jangchining ongiga maktabdanoq kiritilgan. Spartalik jangovar postni tashlab ketishdan ko'ra o'limni afzal ko'rgan. O'smirlar murakkab sharoitlarda tarbiya qilinganlar: ularni ko'p xollarda ochlikka maxkum etganlar, harbiy ishning eng mashaqqatli turlari bilan Shug'ullantirganlar va tez-tez jazolab turganlar. Vaqtning ko'p qismi yugurish, kurash, nayza va disk uloqtirish mashqlariga ajratilgan. Harbiy o'yinlarga xam ko'p e'tibor berilgan. Armiyaga qabul qilinganlar xizmatga o'z qurollari va oziq-ovqatlari bilan kelishlari kerak bo'lgan.


Spartaliklarning qurollari asosan og'ir qurollar bo'lgan. Ular nayzalar, kalta qilichlar va ximoya anjomlari: dumaloq qalqon, boshni ximoya qilish uchun dubulg'a, ko'krakka sovut, oyoqni ximoya etish uchun maxsus sovutlarga ega bo'lganlar. Ximoya anjomlarining og'irligi 30 kg ga etgan. Bunday og'ir qurollangan jangchi - *goplit* deb atalgan. Xar bir *goplit* o'z xizmatkori -*ilotaga* ega bo'lgan, xizmatkor safarda ximoya anjomlarini olib yurgan. Engil qurollangan jangchilar engil nayzalar, drotik yoki o'q-yoylarga ega bo'lganlar. Ularda ximoya anjomlari bo'lmagan. Engil qurollanganlar jangovar tartibning qanotlarini yopib turganlar.

Sparta armiyasining asosini piyodalar - *goplitlar* tashkil etgan bo'lib, uning safi 2-6 ming kishi atrofida bo'lgan.

Xamma *goplitlar* bitta falangaga kirganlar. Falanga - bu *goplitlar*ning yaqin jiplashib joylashgan saf chizig'i bo'lib, uning teranligi jang olib borish uchun bir nechta sherengadan iborat bo'lgan. Sparta falangasi teranlik bo'ylab 8 sherengada qurilgan. Odam soni 8 ming kishi bo'lganda falanganing uzunligi front bo'ylab 1 kilometr ga etgan. Shuning uchun falanga o'z safini buzmasdan turib katta masofalarga, joyning baland-pastliklarida xarakatlana olmagan, chekinayotgan dushmanni uzoq ta'qib eta olmagan.

Falanga - bu nafaqat saf, balki Yunoniston armiyasining jangovar tartibi xamdir. U xar doim yaxlitlikda xarakatlangan.

Falanganing kuchli tomoni, uning qisqa masofadan bergan zarbasidir. Mudofaada xam jipslashgan safda u kuchli bo'lgan.6- rasm



### Qadimgi Yunoniston davlatlari

Xujum ro'paradandan zarba berish bilan xarakterlangan. Jangning natijasini jangchining botirligi, chidamliligi, jismonan baquvvatlik sifatлари, harbiy intizom va jangovar ko'nikmalar asosidagi falanganing yakdilligi xal qilgan.

Armiyaning Oliy qo'mondonligini podsholardan biri amalga oshirgan, uning ixtiyorida saralangan tansoqchilar otryadi va ko'zga ko'ringan 300 o'smir bo'lgan. Podsho jangovar tartibning o'ng tomonida joylashgan, uning buyruqlari aniq va tez bajarilgan.

Umuman Sparta armiyasi militsiya asosida bo'lib, davlat tomonidan doim ushlab turilmagan, faqatgina urush davrida yig'ilgan. Tinchlik zamonida jangchilarni qisqa muddatli harbiy o'rgatuv mashqlariga yig'ib turganlar.

Sparta siyosiy ta'sirni o'z qo'li ostida Miloddan avvalgi V asrning o'rtalarigacha, ya'ni uning boshqa bir kuchli Yunoniston polisi Afina bilan to'qnashgungacha ushlab turdi.

Afina davlati va uning armiyasi. Afina, O'rta Yunonistonning Sharqiy qismida joylashgan tog' viloyati -Attikaning eng katta shaxri bo'lgan.

Afinaning xamma erkin axolisi mulki bo'yicha to'rt guruxga bo'lingan. Birinchi gurux fuqarolari davlatni o'z xisoblaridan ta'minlaganlar. Ikkinchi guruxga kiruvchilar otlarda jang qilganlar. Uchinchi gurux asosiy qo'shin turi - og'ir qurollangan piyodalar (goplitlar) sifatida jang olib borgan. To'rtinchi, axolining eng qashshoq guruxi (*fetlar*) engil qurollangan piyodalarni tashkil etgan yoki flotda xizmat qilgan.



Harbiy xizmatga faqat erkin axoli jalb qilingan, qullarga qurol berilmagan.

18 Yoshga to'lgan xar bir o'smir bir yil davomida Afinada harbiy san'at sirlariga o'rgatilgan, keyin jangovar qurol olgan va qasamyod qabul qilgan. Xizmatning ikkinchi yilida u chegarabo'yi otryadlari safiga kiritilgan va u erda dala mashqlariga o'rgatilgan. Ushbu xizmatdan keyin afinalik 60 Yoshigacha harbiy xizmatga majbur bo'lgan. Urush davrida xalq yig'ini xizmatga chaqirilishi kerak bo'lgan odamlar sonini belgilagan. Bu militsiya tizimi edi, lekin ko'psonli kichik va katta urushlar natijasida va tinchlik davridagi tayyorgarlik tizimi asta-sekin afinalikni professional jangchiga aylantirdi.<sup>8</sup>

Afinada butun armiya va flotning qo'mondonligini 10 nafar strategdan iborat kollegiya amalga oshirgan. Urush davrida strateglar qo'shinga navbatma-navbat qo'mondonlik qilganlar.

Dengiz floti Afinada birinchi asosiy harbiy kuch bo'lgan. Flot yordamida afinaliklar forslarning xujumlarini muvaffaqiyatli qaytardilar va Yunonistonda xukmronlik qilish uchun Sparta bilan baxs yuritish imkoniyatini oldilar.

Miloddan avvalgi V–IV asrlarda Afina flotining asosiy bazasi yaxshi mustaxkamlangan va mukammal jixozlangan Pirey gavani (dengiz bo'yida kemalar turadigan joy) bo'lgan, u Afina bilan baland ximoya devorlariga ega bo'lgan yo'l orqali bog'langan.

Afina qurolli kuchlarining ikkinchi asosiy bo'lagi quruqlikdagi armiya bo'lib, uning bosh kuchlari *goplitlardan* tashkil topgan. Afina goplitlarining qurol-yarog'lari uzunligi 2 metr bo'lgan nayzalardan, kalta qilichlar va spartaliklarnikidan engil bo'lgan ximoya qurolidan iborat bo'lgan. Engil qurollanganlar drotiklar va o'q-yoylarga ega bo'lganlar.

Otliqlar nayzalar bilan qurollanib, engil qalqonlarga ega bo'lganlar. Jangchilar o'z xisoblaridan qurol-yarog' sotib olishlari va o'zlarini ta'minlashlari kerak bo'lgan. Xar bir goplitning bitta qul xizmatkori bo'lgan.

Afina piyodalarining jangovar tartibi spartaliklardagidek falanga bo'lgan.

Miloddan avvalgi V asrning birinchi yarmidan boshlab afinaliklar qal'alarni buzuvchi va tosh uloqtiruvchi qurollar qo'llay boshladilar.


---

<sup>8</sup> 6. M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005. 122 bet.



Yunonlarning jismonan baquvvat bo'lishlarida *olimpiada o'yinlari* katta ahamiyat kasb etdi, ular xar to'rt yilda muntazam o'tkazilib kelindi. Bizga ma'lum bo'lgan birinchi olimpiada o'yinlari Miloddan avvalgi 776 yilda o'tkazilgan. Olimpiada o'yinlari katta bayramga aylanib ketgan. Xatto uning o'tkazilish jarayonida Yunonistondagi xamma ichki urushlar to'xtatilgan. Afinaliklar harbiy intizomga fuqarolik burchlarini bajarish deb qaraganlar.

(7-rasm)



### **Afina falangasi**

Jangchilarini urib jazolagan spartaliklar qo'mondonligidan farqli o'laroq afinalik strateglar cheklangan xuquqqa ega bo'lganlar. Safarlardan qaytib kelgandan keyin ular gunox qilgan jangchining ustidan xalq kengashiga shikoyat yozganlar, xalq kengashi ushbu jangchiga nisbatan u yoki bu jazoni qo'llagan.

Yunon-Fors urushlaridagi harbiy san'at. (4-karta). Miloddan avvalgi V asrning boshlarida grek davlatlari yirik qadimgi Fors davlati bilan kurash olib borishiga to'g'ri keldi.

Miloddan avvalgi 490 yilda Fors podshosi Doro I o'z armiyasini Datis va Artaferna boshchiligida Yunonistonga qarshi yo'naltirdi. Fors armiyasi katta flot bilan Egey dengizidan kechib o'tdi, Evbadagi Eretriya shaxarchasini egalladi va ularni yakson qildi va qo'shinni Afinadan taxminan 40 km uzoqlikdagi Marafon tekisligiga tushirdi.

Forslar o'z armiyalari safida 10 minglik nomuntazam otliqlar otryadiga va ko'p sonli kamonchilarga, xammasi bo'lib 20 ming kishiga ega edilar. Yunonlarlar armiyasi 10 ming afinalik goplitlar va 1000 nafar Beotiyaning Plateya shaxri goplitlariga ega bo'ldi. Son jixatdan ustunlik forslar tomonida edi.

Bundan tashqari forslar otliqlarga ega bo'lgan bo'lsalar, greklarda ular yo'q edi.

Greklar armiyasiga 10 nafar strateg qo‘mondonlik qildi: ulardan biri Miltiad bo‘lib, u forslar armiyasining tashkiliy tizimining xususiyatlari va xarakatlanish usullarini juda yaxshi bilar edi. Jang kuni greklar armiyasi qo‘mondonligini Miltiad o‘z qo‘liga oldi. Afinalik strateg greklar falangasini Fran vodiysida, Marafon tekisligiga o‘tish joyida safladi. Fran vodiysi Afina bilan bevosita bog‘lanar edi.

O‘z qo‘shinlarini dushman tomonidan aylanib o‘tishini oldini olish maqsadida Miltiad qanotlarni mustaxkamladi, falangadagi sherengalar sonini qisqartirdi, uni Shunday cho‘zdiki, qanotlar tog‘largacha etib bordilar. Falanganing front bo‘ylab umumiy uzunligi taxminan 1 kilometrga etdi.

Bundan tashqari, qulatilgan daraxtlar bilan g‘ovlar yaratilib dushmanning yo‘li to‘stildi. Marafon jangi Miloddan avvalgi 490 yilning 13 sentyabrida bo‘lib o‘tdi.

Forslarning jangovar tartibi markazda joylashgan piyoda kamonchilardan va qanotlarda joylashgan otliqlardan tashkil topdi. Xujumni forslar boshladilar. Greklar eronliklarni, Eron o‘qchilari kamon o‘qlari uchib kelib talofat etkazish marrasigacha yaqinlashib kelishiga imkon berdilar. Xujum qilayotgan forslarning yaqinlashuvi bilan goplitlar falangasi o‘ta qudratli zarbani berish va tezkorlik bilan dushman kamonchilari zarba bera oladigan oradagi bo‘shliqni bartaraf etish maqsadida yugurishga o‘tdi.

Fors kamonchilari greklarga qarshi xujumga o‘tdilar, Afina falangasining kuchsiz markazini yorib o‘tdilar va afinaliklarni vodiy ichkarisiga ta‘qib qila boshladilar. Forslarning otliq otryadlari tor tog‘li joyda xarakatlana olmadi. Greklar falangasining kuchli qanotlari forslarning otliq otryadlarini qulatib tashladi. Keyin Miltiad qanotlarning o‘rtaga jiplashishiga va greklar markazini yorib o‘tgan forslarga qarshi xujumga o‘tishga buyruq berdi.

Qanotlardan qurshab olingan fors jangchilari pala-partish qocha boshladilar. Greklar qochayotgan forslarning yo‘llarini to‘smaganliklari va ularni to‘lig‘icha tor-mor etish uchun ta‘qib etmaganliklari uchun ko‘pchilik forslar dengizga tushib, kemalarga o‘tirib qochishga ulgurdilar.

## **2.6.Marafon jangi**

Ushbu jangda greklar 192 odamni qurbon berdilar. Gerodotning yozishicha, forslarning yo‘qotishlari 6400 atrofida kishini tashkil etgan.

Marafon jangi - greklarning forslar ustidan qozonilgan birinchi yirik gʻalabasi edi, u Afinada demokratik kuchlarni keyingi jipslashishlari va grek polislarining siyosiy va harbiy ittifoqlarini mustaxkamlanishi uchun muxim rol oʻynadi.


Marafon vodiysida ikkita turli xildagi armiya toʻqnashdi. Bu jangda Yunoniston harbiy tashkiloti va harbiy intizomining kuchi yaqqol koʻzga tashlandi. Marafon jangi, safda xarakatlanib jang qilayotgan chidamli, yaxshi intizomga ega boʻlgan piyodalar oldida nomuntazam otliq otryadlar ojiz ekanligini koʻrsatdi. Miltiad bu jangda oʻsha zamon sarkardalari uchun kerakli boʻlgan yaxshi shaxsiy sifatlarni koʻrsatdi. U falangani saflash uchun joyni toʻgʻri tanladi, qanotlarni kuchaytirdi, xujum usulini aniqladi va shaxsan jangda falanganing xarakatlarini boshqardi.

Toʻxtovsiz taʼqibning amalga oshirilmaganligi uchun forslarning kemalarga oʻtirib qochib ketganliklari, Afina falangasining taʼqibni olib borishga qodir emasligi bilan tuShuntiriladi.

Marafon jangidan keyin xukm surgan 10 yillik osoyishtalik davomida afinaliklar forslar bilan urushga faol tayyorgarlik koʻrdilar.

Afinalik sarkarda va siyosatchi Femistokl dengiz mudofaasi gʻoyasini ilgari surdi, uni tashkil etish uchun qudratli flot yaratish va qirgʻoqboʻyini mustaxkamlash kerak edi. U oʻz xalqini flot yaratishga ilxomlantirdi. Flot qurish uchun koʻp miqdorda pul ajratildi. Ikki yil ichida flotdagi uch qavatli jangovar *trieralar* soni 300 taga etkazildi. Shu bilan bir vaqtda afinadagi Pirey gavanini mustaxkamlash boʻyicha ishlar keng yoʻlga qoʻyildi. (8-rasm)

8-rasm



## Yunonlar trierasi

Fors podshosi Doro I ning o'limidan keyin, uning o'g'li Kserks II xukmronligi davrida Yunonistonga yurishni amalga oshirish uchun katta qo'shin va kuchli flot yig'ildi.

Miloddan avvalgi 480 yilda forslar Yunonistonga qarshi yangi yurish boshladilar. Gerodotning guvovlik berishicha, fors floti 1200 tadan ortiqroq kemaga ega bo'lgan. Quruqlik va dengiz yurishi vaqtida fors qo'shinlari Sardaga (hozirgi Turkiyaning g'arbiy qismi) jamlandi, Gellespontda (Dardanell bo'g'oz) forslar ko'priq qurib, undan o'z qo'shinlarini olib o'tdilar.

Yunonlar quruqlikda va dengizda o'z mudofaalarini yaratdilar. Quruqlikdagi birinchi jang Fermopil yo'lagida bo'lib o'tdi. Bu yo'lak orqali forslar O'rta Yunonistonga o'tishlari mumkin edi. Fermopilni ximoya qilish uchun Sparta podsho Leonid qo'mondonligida 300 spartalikdan tashkil topgan otryadni va 1000 perieklarni (spartaliklarning ittifoqchilarini) ajratdi. Boshqa otryadlar bilan birga Leonid qo'l ostida 3000 jangchi to'plandi. Greklar ikki kun mobaynida, oralaridan chiqqan josus, forslarga mudofaalanayotganlarning front ortiga o'tadigan yo'lni ko'rsatib bergungacha dushmanning xujumlarini qaytarib turdilar. Dushmanning aylanib o'tishini payqagan podsho Leonid ittifoqchilarning xamma kuchlarini qaytarib yubordi, ular Afinaga chekindilar, uning o'zi esa 300 spartalik bilan joyida qoldi. Forslar Leonidning otryadini qurshab oldilar va tengsiz jangda uni qirib tashladilar.

Shu bilan birga Artemisiya burnida uch kunlik dengiz jangi xam bo'lib o'tdi. Leonidning otryadi yakson etilganligi ma'lum bo'lganidan keyin greklar floti janubga, Attikaga chekindi. Forslar O'rta Yunonistonga bostirib kirdilar, Afinani bosib oldilar va uni vayronaga aylantirdilar. SHaxar axolisi forslar bostirib kirishidan oldin Salamin, Egin orollariga va Peloponnes yarim oroliga olib chiqildi.

Salamin jangi Miloddan avvalgi 480 yilning 28 sentyabrida Egey dengizida Salamin oroli yaqinida, greklar va forslarning flotlari o'rtasida bo'lib o'tdi. Kemalarning umumiy soni quyidagicha edi: greklarda (qo'mondon Evribiad) 380 ta, forslarda (podsho Kserks) 1000 tagacha kema. Grek kemalarining yuqori sifatlilikini va fors flotining o'ta muvaffaqiyatsiz konfiguratsiyasini xisobga olib, tor bo'g'ozda greklar ustunlikni qo'lga kiritdilar (forslarning 200 ta kemasiga qarshi 378 ta jangovar kema). Dushmanni tor bo'g'ozga kiritish uchun greklar ayyorona manyovr qo'lladilar. Grek kemalarining bir

qismi «o'lja» (aldab qopqonga tushirish) sifatida xarakatlandi. Xujum qilayotgan fors kemalari tor bo'g'ozga xarakatlanganda, greklarning galerlari ortga o'tdi. Grek kemalarining ortga o'tishi natijasida dushmanning asosiy kuchlari bo'sh joyga zarba berdi. Greklarga etib olish uchun forslarning galerlari xarakat tezligini oshirdi va to'dalanib qolib, greklar tomonidan yaratilgan qopqonga tushdi. Grek galerlari fors flotining qanotiga zarba berdi, bu zarba jangning taqdirini greklarning foydasiga xal qildi.

Yunonlarning Salaminda forslarning kuch jixatdan ustun bo'lgan floti ustidan qozongan g'alabasi, butun urush natijasining o'zgarishiga olib keldi. Kserks kuchlarning katta qismini sarkarda Mardoniya qo'mondonligiga qoldirib, qo'shinning kichik bir qismi bilan Yunonistondan ketdi.

Flot yordamida Yunoniston qo'shinlari forslarning asosiy kuchlarini tor-mor etdilar. Dengizda forslarning ustidan qozonilgan bu g'alaba, grek polislarining jiplashishlariga sharoit yaratdi.

Miloddan avalgi 479 yilda fors qo'shinlari yana Attikaga bostirib kirdilar. Bu safar greklar uchun qarshi xujumga o'tishga qulay sharoit yaratildi. Greklar tomonidan qabul qilingan strategik reja, forslarga quruqlikda va dengizda zarba berishdan iborat edi. Bu vazifalarni xal etish uchun greklar armiyasi Platey shaxri yaqinida jamlandi, flot esa Kichik Osiyo qirg'oqlariga xarakatlandi.

Bir kunning o'zida ikkita jang bo'lib o'tdi: Plateya yaqinidagi Beotiya jangi va kichik Osiyo qirg'oqbo'ylaridagi Mikale burnidagi dengiz jangi. Bu janglar urush natijasini greklar foydasiga xal etdi.

Plateya yaqinidagi jangda greklar falangasi forslarning piyodalari va otliqlari ustidan o'zining ustun ekanligini yana bir marta ko'rsatdi.<sup>9</sup>

Spartaliklar falangasi fors kamonchilari o'q yomg'irlari ostida katta talofatlar ko'rib o'z marralarini mustaxkam ushlab turdi, keyin qarshi zarba bilan forslarni uloqtirib tashladi, dushman pala-partish qocha boshladi. Marafon jangidan farqli o'laroq greklar bu erda forslarni lagerlarigacha ta'qib qilib bordilar.

Yunon-fors urushlari, ayniqsa grek strategik raxbarligining muxim yo'nalishlarini yaqqol ko'rsatdi: urushga tayyorgarlikning xarakterini aniqlash (quruqlikdagi qo'shinlar

---

<sup>9</sup> Икрамов. Военная история. – Т.: «ТГПУ», 2001, 54 с.

yoki flotni qo'llash), xal qiluvchi harbiy xarakterli maydonini aniqlash (quruqlik yoki dengiz), kuchlar nisbati va vaziyatdan kelib chiqib kurashning asosiy usulini belgilash (mudofaa yoki qarshi xujum); urushning konkret davri uchun xar bir zarba yo'nalishini to'g'ri tanlash; armiya va flotning o'zaro strategik xamkorligi.


## **2.7. Peloponnes urushida harbiy san'atning rivojlanishi**

**(Miloddan avvalgi 431-404 y.).**

Yunonistonda harbiy san'at rivojlanishining muxim davri grek davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan o'zaro urushlar bilan bog'liq. Bu vaqtga kelib Yunonistonning ikki qudratli davlati-Afina va Sparta ikkita harbiy-siyosiy ittifoqning boshida turgan edi. Afina va Spartaning Yunonistonga xukmronlik uchun kurashlari Peloponnes urushiga olib keldi.

Urush davrida Yunoniston armiyalarida tubdan o'zgarish bo'lib o'tdi, erkin fuqarolardan tashkil topgan xalq lashkarlaridan yollangan armiyaga o'tish amalga oshirildi. Mana Shu urushdan keyin armiyani yollanganlar bilan to'ldirish odatiy tus oldi. Bosib olingan ko'plab mustamlakalarni xalq lashkarlari bilan idora qilishning imkoniyati bo'lmay qoldi, chunki ular faqat urush vaqtida xizmatga chaqirilar edilar. Yollangan armiyaga o'tish, qullarning ozodlik uchun kurashlarining avj olishiga xam olib keldi. Zodagonlar qullarni bo'ysunuvda ushlab turishda va ularning qo'zg'olonlarini bostirishda faqat doimiy, yaxshi ta'limga ega armiyaga tayanishlari mumkin edi.

Harbiy kuchlarning ashaddiy qarama-qarshiligi 27 yilga cho'zildi. Peloponnes urushi davrida Yunoniston armiyalarida o'rta piyodalar - *peltastlar* (pelte-qalqon) vujudga keldi. U engil va og'ir piyodalar vazifalarini xal qilishga qodir edi, ya'ni qo'l jangi va uloqtirish taktikasini qo'llay olar edi. 9-rasm



Yoyiq va jiplashgan saflarda jang qilishga o'rgatilgan peltastlar xam tekisliklarda, xam baland-pastliklarda xarakterlanishga qodir bo'lib, dushmanning qanotiga va front ortiga muvaffaqiyatli xujum qila olar edilar. Miloddan avvalgi 425 yilda Sfakteriya yaqinidagi jangda Afina goplitlari va engil qurollangan peltastlari Sparta goplitlariga mag'lubiyat



etkazdilar. Bu jang eng yaxshi goplitlarning, kamonchilar va qo‘l jangini olib borish uchun mo‘ljallangan og‘ir qurollangan piyodalarning xamjixatlikda bergan zarbalaridan tor-mor etilishi mumkin ekanligini ko‘rsatdi.

Peltastlarning kiritilishi bilan jangovar tartib murakkablashdi, unga endi goplitlar falangasi, peltastlar, engil piyodalar va otiqlar kiritildi. Lekin falanga jangovar tartibning asosi bo‘lib qolaverdi.


Urush jarayonida qal’alarni qamal qilish texnikasi takomillashdi. Greklar sun’iy suv bosqinini, yong‘inlarni, laxmlarni, taranlarni, voronlarni, «toshbaqa» va *kontrvalitsion chiziq*, ya’ni dushman qal’asi atrofida mustaxkamlangan qamal chizig‘ini qo‘llay boshladilar. Birinchi uloqtiruvchi mashinalar-*katapultalar* va tosh yadrolarini uloqtiruvchi qurol-*ballistlar* yaratildi.

Peloponnes urushlarida Afina mag‘lubiyatga uchradi, uning dengiz floti tarqatib yuborildi.

Shartnomaga asosan Afina o‘z mustaqilligini saqlab qoldi, lekin Attikadan tashqari, endi ularda faqat to‘rtta orol qoldi.

Ular butun flotlarini Spartaga berdilar. Afinaning istexkomlari er bilan yakson qilindi. Yunonistonda xukmronlik Spartaning qo‘liga o‘tdi. Ko‘p yillik urushlar, xam Afinani, xam Spartani kuchsizlantirdi.(10-rasm)

(10-rasm)



### «Toshbaqa»


Levktra jangi (Miloddan avvalgi 371 y.). Epaminond. Peloponnes jangida Afina mag‘lubiyatga uchradi va bosh rol Yunonistonda Spartaning qo‘liga o‘tdi. Lekin spartaliklarning bosqinchilik siyosati, vaxshiyliги va talonchiligi Yunoniston davlatlarida

norozilik alomatlarini keltirib chiqardi. Fiva (Beotiya) raxbarligi ostida, Sparta saltanatidan norozi bo'lgan Beotiya shaxarlari ittifoqi yaratildi.

Miloddan avvalgi 371 yilda Sparta Fivaga qarshi o'z armiyasini yo'naltirdi. Levktra shaxri yaqinida, podsho Kleombrot boshchiligidagi spartaliklar va Epaminond boshchiligidagi fivaliklar o'rtasida jang bo'lib o'tdi. Kuch va vositalar nisbati quyidagicha edi. Spartaliklar 11 ming kishi, fivaliklar 7,5 ming kishi atrofida. Kleombrot o'z qo'shinlarini teranligi 12 sherenga bo'lgan falangada safladi, eng yaxshi piyodalarni o'ng qanotga joylashtirdi.

Epaminondning oldida kuch jixatdan ustun bo'lgan dushmanni tor-mor etish vazifasi turar edi. Bu vazifani xal etish uchun Epaminond yangicha jang olib borish usulini qo'lladi. U, front bo'ylab tekis joylashtirilgan kuchlar bilan ro'paradan zarba berish taktikasidan voz kechadi va yangi jangovar tartib qo'llaydi. Bosh zarba berish yo'nalishi bo'lgan o'zining chap qanotida sarkarda kuch jixatdan ustunlik yaratdi, ya'ni *jangning xal qiluvchi uchastkasida kuchliroq bo'ldi*. Odatda jangovar tartibning o'ng qanoti va markazi 8 sherengadan iborat bo'lar edi, bu erda esa chap qanotda 50 sherenga teranlikdagi kolonna - zarbdor musht yaratildi. Epaminondning rejasi, yaratilgan qudratli taran bilan spartaliklarning jangovar chizig'ini eng kuchli uchastkasi - o'ng qanotida yorib o'tishdan iborat edi. (11-rasm)

11-rasm



### **Epaminond qo'shinining jangovar tartibi**

Jangovar tartibning oldida joylashgan dushmanning otliq otryadlari jangni boshladilar. Spartaliklar otliq otryadlarining xarakatlari muvaffaqiyatsiz bo'ldi va uloqtirib tashlandi, chekinish davomida ular o'z piyodalari safini sarosimaga tushirib qo'ydilar. Epaminondning zardor kolonnasi o'zining kuchli xujumi bilan dushman falangasini yorib o'tdi va ko'rsatgan mardonavor qarshiliklariga qaramasdan spartaliklar butkul



magʻlubiyatga uchradilar. Spartaliklarning talofatlari 1000 kishiga etdi, mardonavor jang qilgan podsho Kleombrot xam xalok boʻldi.

Levktra jangida Epaminond avvaldan joriy qilingan eski taktika - kuchlar teng joylashtirilgan oddiy frontal xujumdan voz kechdi va harbiy sanʼat tarixida birinchi boʻlib yangi taktik tamoyil - *front boʻylab kuchlarni notekis joylashtirish, xujum yoʻnalishida kuch jixatdan ustunlik yaratish* usulini qoʻlladi. Kuchlarni front boʻylab notekis joylashtirishning yangi taktik tamoyili bizning kunlarimizda xam muxim tamoyil boʻlib qolmoqda.

Epaminond tomonidan qoʻllanilgan taktik qoidalar keyingi taktik rivojlanishga ega boʻldi va yangi taktikaning asosini tashkil etdi.

## **2.8. Levktra jangi**

Qadimgi Yunonistondagi harbiy-nazariy fikrlash. Greklar nafaqat harbiy ishning amaliyotchisi boʻlganlar, balki ular harbiy sanʼatning nazariy asoslarini xam ishlab chiqqanlar, chunki jangovar tajriba tizimlashtirish va umumlashtirishni talab qilgan, harbiy fanni rivojlanish darajasi esa ushbu vazifani xal qilishga kirishishga imkoniyat bergan. Yunonistonlik faylasuflar harbiy fanni oʻquv tizimi fanlaridan biriga aylantirdilar.

Qadimgi Yunonistonda harbiy tarix paydo boʻldi. Avval greklar harbiy voqealarni yozish bilan cheklanganlar, ularni umumlashtirishga jiddiy urunmaganlar xam.

Qadimgi Yunonistonlik tarixchi Gerodot greklarning forslar bilan kurashini yozib qoldirgan.

Boshqa Yunonistonlik tarixchi Fukidid Miloddan avvalgi 431 yildan 411 yilgacha davom etgan Peloponnes urushini yozib qoldirgan. U birinchi boʻlib tarixiy izlanishlarga nisbatan tanqidiy usul qoʻlladi. Uning oʻzi bu urushning ishtirokchisi boʻlgan va Shuning uchun uning yozuvlari oʻzining aniqligi bilan farq qiladi.

Qadimgi Yunonistonning yirik harbiy nazariyotchilaridan biri Ksenofont (Miloddan avvalgi 430 yilda tugʻilgan) boʻlgan. U oʻz zamonasining asosiy harbiy masalalarini yoritib berishga xarakat qilgan birinchi nazariyotchilardandir.

Harbiy sanʼat masalalarini Ksenofont oʻzining quyidagi harbiy-tarixiy asarlarida ifodalagan: «Oʻng minglik qoʻshinning chekinishi» («Anabazis») va «Yunoniston tarixi» (Miloddan avvalgi 410-362 yillar). Ulardan tashqari, Ksenofont «Kiropediya» deb nomlangan yirik asar yozib, unda qoʻshinni butlashning tamyiliy asoslarini, tashkiliy tizimini, qurollanishini, uni taʼlim va tarbiyasini xamda taktikaning aloxida xolatlarini

ifodalagan. Ksenofont jangovar tayyorgarlik va otliq otryadlarning xarakatlari bo'yicha ikkita kichik asar yozib, ularni «Kavaleriya boshlig'i to'g'risida», «Otda yurish to'g'risida» deb nomladi.

Ksenofont taktika va strategiyaning o'rtasidagi farqni aniqlashga urindi. «Taktika - strategiyaning faqat arziyas qismidir»-deb yozgan edi u, bu bilan Ksenofont strategiya va taktikaning o'rtasida bog'liklikka ishora qiladi. Strategiya deganda u jang olib borish san'atini tushungan, taktikani esa jangovar tartibni tuzish san'ati deb tushuntirdi. Ksenofont strategiya va taktika xaqida emas, balki strategiya va taktikaning *vazifalari* to'g'risida so'z yuritgan. Ksenofontning asarlarida jangovar tartibni saflash xam muxim o'rin egallaydi. Frontning uzunligi va qanotlarning teranligi avvalom bor uni o'ziga jalb etgan.

Ksenofont, Epaminond tomonidan yaratilgan yangi taktika asoslaridagi mazmuni anglab etdi. «Epaminond g'anim frontini qiyinchiliksiz va tezkorlik bilan yorib o'tish uchun qo'shinni ixcham qismlarga bo'lib oldinga xarakatlantirdi, dushmanning fronti yorib o'tilgan joydan u g'animning butun qo'shinini uzil-kesil mag'lubiyatga uchratishni ko'zda tutdi. U o'zining eng qudratli kuchlarini jangga kiritib, kuchsizroqlarini ortga o'tkazdi, chunki qo'shinning qaysidir bir qismining engilishi, butun qo'shin kayfiyatini tushirib yuborardi va dushmanning ruxi ko'tarilishiga olib kelar edi»-deb yozgan edi u, Mantengem yaqinidagi jangni ifodalab. Levktra yaqinidagi jangda xam xuddi Shunday bo'ldi.

Ksenofontning ta'kidlashicha, zarba vaqtini to'g'ri tanlash-harbiy san'atning muxim talabidir. Ksenofont asarlarining tasdig'i Miloddan avvalgi IV asr jangovar amaliyotida o'z tasdig'ini topdi va qadimgi greklarning harbiy-nazariy fikrlashlarining rivojlanishida muxim rol o'ynadi.

## **2.9.Qadimgi Misrning harbiy san'ati**

Qadimgi Misrning harbiy san'ati (1-karta). Qadimgi Misr davlati tarixi besh davrga bo'linadi: Ilk qadimgi, qadimgi, o'rta, Yangi va so'nggi podsholiklar davri. Xar bir davrning harbiy tashkiloti o'z xususiyatlariga ega.

Ilk qadimgi davrning boshlanishi ichki Misr urushlariga chek qo'ygan, quyi va yuqori podsholiklarning birlashtirgan davr xisoblanadi. Qadimgi podsholik Miloddan avvalgi XXVIII asrning boshlaridan to Miloddan avvalgi XXIII asrning o'rtalarigacha xukm surdi. Markazlashuv - dexqonchilikning rivojlanishini ta'minlagan sug'orish tizimining kengayishi va takomillaShuvidek muxim xodisalarga olib keldi.

Xunarmandchilik rivojlandi, butun boshli xunarmandchilik ustaxonalari ochilib, ularda qurol-yarog‘lar xam tayyorlana boshlandi. Savdo-sotiq kengaydi, bu o‘z navbatida kemasozlikning rivojlanishiga olib keldi.

Yuqori xokimiyat fir‘avnlarga tegishli bo‘lib, u qo‘shin va otryadlarning boshliqlarini tayinlagan. Qadimgi podsholik davri xujjatlarida «qurol uyi» - o‘ziga xos harbiy tashkilot esga olinib, u qurol-yarog‘ tayyorlash, kemalar qurish, qo‘shin ta‘minoti va mudofaa inshootlarini qurish bilan Shug‘ullangan.

Jangchilar fir‘avn, okruglar va ibodatxonalar xo‘jayinlarining xizmatida bo‘lganlar. O‘z xizmatlari uchun ularga er berilib, bu erlarda qullar ishlatilgan. Qo‘shin **harbiy joylashuv** shaklida tashkil etilgan bo‘lib, davlatning markazida va dushman bostirib kelishi xavfi bor yo‘nalishlarda joylashtirilgan.

Qadimgi podsholiklarning jangchilari quyidagi qurol-yarog‘larga ega bo‘lganlar: toshdan yasalgan to‘qmoqlar, kamon, misdan tayyorlangan jangovar boltalar, uchlari toshdan yasalgan nayzalar, toshdan yoki misdan yasalgan jangovar xanjarlar. Ximoya quroli sifatida jangchilar teri bilan qoplangan yog‘och qalqonlardan foydalanganlar.

Qo‘shin otryadlardan tashkil topgan. Jangchilar jangovar tayyorgarlik bilan Shug‘ullanganlar, bu mashg‘ulotlarni harbiy ta‘limning maxsus boshlig‘i olib borgan. Qadimgi podsholik davridayoq misrliklar sherenga tartibini qo‘llaganlar. Safdagi xamma jangchilar bir xil qurollarga ega bo‘lganlar.

Qadimgi podsholik davridagi qal‘alar turli xil shaklda qurilgan (aylana, oval, to‘rtburchak). Ayrim xollarda qal‘a devorlari, ustida maydonchaga ega bo‘lgan kesik konus shaklidagi aylana minoralar bilan mustaxkamlangan.


Qal‘alarni shturm qilishda misrliklar **shturmchi narvonlardan** foydalanganlar. Qal‘a devorlarini buzib, u erda raxna xosil qilish katta lomlar yordamida amalga oshirilgan. Shunday qilib, keyinchalik qal‘alarni shturm qilish texnikasi va usuli joriy qilindi.

Misrliklarning kemalari eshkakli bo‘lgan, ammo elkanlar bilan jixozlangan. Xar bir kemada boshliqning qo‘l ostida doimiy komanda bo‘lgan. Kema otryadlarini flot boshlig‘i boshqargan.

O‘rta podsholik (Miloddan avvalgi XXI asrning o‘rtalaridan Miloddan avvalgi XVIII asrlargacha) - Qadimgi Misrning gullab yashnagan davri bo‘lgan. Xunarmandchilikning

rivojlanishi bilan ish qurollarini ishlab chiqarish ko‘paydi, qurol-yarog‘lar takomillashdi. Ichki va tashqi savdo rivojlandi.

O‘rta podsholik davrida misrlik jangchilarning qurol-yarog‘lari takomillashdi chunki bu vaqtda temirga ishlov berish progressiv rivojlanib ketdi. Nayzalar va kamon o‘qlarining uchlari bronzadan tayyorlana boshlandi. Zarba beruvchi qurol avvalgidek qolaverdi. Uloqtiriladigan qurol sifatida nayzalar, bumerang, tosh uloqtiradigan palaxmonlar, kamonlar qo‘llanilgan. Yangi namunadagi murakkablashgan kamon joriy qilinib, uning otish uzoqligi va nishonga urish aniqligi oshdi. Kamondan nishonni aniq urish uzoqligi 150-180 m ga etdi.12-rasm



### Misr jangchilarining ikkita otryadi

Qo‘shinni tashkil etish xam takomillashdi. Bo‘linmalarda jangchilarning soni belgilandi, ular 6, 40, 60, 100, 400, 600 jangchini tashkil etdi. Otryadlarda jangchilarning soni 2, 3, 10 minggacha etkazildi. Bir xil qurollar bilan qurollangan **-nayzachilar va kamonchilar** bo‘linmalari joriy qilinib, ular kolonnalarda xarakatlanish uchun front bo‘ylab (eniga) to‘rt qator va uzunligi bo‘yicha (bo‘yiga) o‘n sherengali tartibda saflanganlar.

Miloddan avvalgi XVIII asrda Misrga Osiyolik qabilalar - **giksoslar** xujum qildilar, ular davlatni Miloddan avvalgi XVI asrgacha o‘z qo‘l ostilarida ushlab turdilar. Misrliklar ulardan **jangovar aravalarni** yasash va qo‘llashni o‘rgandilar.


Yangi podsholik davri (Miloddan avvalgi XVI-XI asrlar) Misr davlatining gullab yashnagan davri bo‘lib xarakterlandi. Bu vaqtda bronza keng qo‘llanila boshlandi, temirdan yasalgan birinchi buyumlar joriy qilindi, to‘quv stanogi va omochlarning tuzilishi takomillashdi, g‘ildirakli aravalar keng qo‘llanildi, shishasozlik rivojlandi.

Bu davrda Misrda kasta tuzumi uzil-kesil shakllandi. Harbiy kasta xizmatga chaqirilgan kishining Yoshi va xizmatni olib borishi bo'yicha ikki guruxga bo'lindi va ular kiyim boshlari bilan farq qilganlar.

Jangchilarning katta qismi qilichlar bilan qurollandi, jangda kamonlar katta rol o'ynadi. Ximoya qurollari yaxshilandi: jangchi qalqondan tashqari, bronza plastinkalar qotirilgan, teridan yasalgan sovutlarga ega bo'ldi. Armiyada jangovar aravalar muxim rol o'ynadi.

Misr armiyasida ma'lum tartiblarda qurilgan piyodalar bosh kuchni tashkil etdi. Bir xil turdagi qurollar joriy qilinganidan keyin piyodalar kamonchilardan, palaxmonchilardan, nayzachilardan va qilichlar bilan qurollangan jangchilardan tashkil topdi.

Yurishlar davomida misrlik jangchilar bir nechta otryadlarga bo'linib, kolonna-kolonna bo'lib xarakatlanganlar. Doimo qo'shindan oldinga razvedka jo'natilgan. To'xtash joylarida misrliklar qalqonlardan *mustaxkamlangan lager* yaratganlar, shaxarlarni shturm qilishda ular *toshbaqa* nomini olgan tartib (jangchini tepadan ximoya qiluvchi qalqonlardan yaratilgan ayvoncha), taranlar va shturmchi narvonlarni qo'llaganlar.(12-rasm)



### Misrliklarning jangovar aravasi

Qo'shinning ta'minoti uchun maxsus ma'muriyat mas'ul bo'lgan. Oziq-ovqatlar omborlardan ma'lum me'yorlar bo'yicha berilgan. Qurol-yarog'larni yasash va ta'mirlash ustaxonalari joriy qilingan.

Yangi podsholik davrida qudratli Misr davlatining tashkilotchisi bo'lib, Falastin va Suriyaga bosqinchilik yurishlarini amalga oshirgan va Dajlagacha etib borgan fir'avn Tutmos I xisoblanadi (Miloddan avvalgi XVI asrning ikkinchi yarmi). Misrning bosqinchiligi fir'avn Tutmos III (Miloddan avvalgi 1525-1491 y.) davrida keng quloch yoydi, u Falastin va Suriyaga 19 yil davomida 17 ta yurishni amalga oshirdi. Bu yurishlar davomida misrliklar 100 ta shaxarni egalladilar, Falastin va Suriyani o'zlariga biriktirdilar va Old Osiyoning markaziy qismlariga yorib kirdilar

Tutmos III avvaldan rejalar tuzib, keyin o'sha reja bo'yicha xujumlarni amalga oshirgan tarixdagi birinchi sarkadadir. U maqsadga erishish uchun qat'iylik va shijoat bilan xarakat qilgan, o'z kuchlarining tarqalib ketishiga yo'l qo'ymagan, dushmanning asosiy ob'ektlariga markazlashgan zarbalar bergan.

Safar tartibi xam, jangovar tartiblar xam uch qismga bo'linib, ular o'zlarining ma'lum vazifalariga ega bo'lganlar.

Misr fir'avnlarning keyingi harbiy yurishlari, kichik Osiyoning markaziy qismida jangari tog' qabilalarining birlashishi natijasida Miloddan avvalgi XVIII asrda tashkil topgan *Xett davlatining* qattiq qarshiligiga uchradi. Misrliklarning xetlar bilan kurashlari uzoq davom etish tusini oldi.

Ramses II (Miloddan avvalgi 1317-1251 y.) xukmronligi davrining boshlanish vaqtida misrliklar Suriyadan xetlar tomonidan siqib chiqarib tashlandi.

Misr bilan urush xarakatlarini olib borish uchun xetlar podshosi Mutavalli o'sha vaqtning yirik 20 minglik armiyasini yig'di, uning asosini 2,5 minglik jangovar aravalar otryadi tashkil etdi. Jangda ishtirok etgan bunday ko'p jangovar aravalar sonini xali tarix bilmagan edi.


Xetlar bilan urush uchun Ramses II xam katta kuch to'pladi. Misr qo'shinlari safiga Nubiyadan og'dirib olingan yollanganlar va xatto Sardiniyaliklar (shardenlar) kiritildi. Butun qo'shinni u xudolarning nomlarini olgan to'rtta otryadga bo'ldi: Amon, Ra, Ptax, va Sutex. Xetlar bilan qat'iy jang Suriyaning Kadesh shaxri yaqinida Miloddan avvalgi 1312 yilda bo'lib o'tdi. SHiddatli jang natijasida maydonda misrliklarning qo'llari baland keldi, lekin Kadesh egallanmadi.

Ptax otryadining jangovar tartibi bizgacha saqlanib kelgan, u uchta chiziqqa ega bo'lgan: birinchi va uchinchi chiziqlar jangovar aravalardan tashkil topdi, ikkinchi chiziq 10 sherengada saflangan piyodalar tomonidan egallangan, jangovar tartibning o'ng qanoti jangovar aravalar otryadi bilan ta'minlangan. Bu harbiy san'at tarixida ma'lum bo'lgan, piyodalar va jangovar aravalarning tartib bilan joylashtirilgan birinchi jangovar tartibi edi.

Ramses III (Miloddan avvalgi 1204-1173 y.) xukmronligi davrida misr qo'shinlari qayta tashkil etildi. Piyodalar va jangovar aravalar otryadlarida xizmatni olib borish belgilab berildi va chet elliklardan yollanganlar otryadlari tashkil etildi. Intizom

mustaxkamlandi, boshliqlar safining talabchanligi oshdi va Shu bilan birga jangchilarni urib jazolash bekor qilindi.

13-rasm



### **Misrliklarning Ptax jangovar otryadi jangda**

«Dengiz xalqlari» bilan kurashish uchun misrliklar kuchli flot yaratdilar, flot jangda quruqlikdagi qo‘shinlar otryadlari bilan xamkorlik qildi va katta yurishlar davomida dengiz kommunikatsiyalari mudofaasini ishonchli ta’minladi.

Keyingi podsholik davrida (Miloddan avvalgi XI-VIII asrlar) Misr chet elliklar sulolasi zulmi ostida bo‘ldi, keyinchalik esa Sais sulolasi maydonga keldi (Miloddan avvalgi VII-VI asrlar). Bu vaqtda davlatning mudofaa qudrati ancha mustaxkamlandi.

Umuman Shuni ta’kidlash kerakki, qadimgi Misr urushlarida harbiy san’at joriy etildi, uning yutuqlari bilan Misr fir’avnlarida yollanib xizmat qilgan greklar Miloddan avvalgi VII asrdayoq tanishdilar. Bu urushlarda piyodalarning bir nechta turlari paydo bo‘ldi - kamonchilar, nayzachilar, palaxmonchilar va boshqalar, xamda yangi qo‘shin turi - otliqlardan keyin joriy qilingan jangovar aravalar maydonga kirib keldi.

Misrliklar aloxida qal’alar yoki istexkomlar tizimi ko‘rinishidagi mudofaa inshootlarini qurishni bilganlar. Qal’alar shturm yoki o‘rab olish yo‘li bilan ishg‘ol etilgan.

Qadimgi Mesopotamiyaning harbiy san’ati (2,3 kartalar). Miloddan avvalgi uchinchi ming yillikning birinchi choragida janubiy Mesopotamiyada (Frot va Dajla daryolari oralig‘i) tarixda Shumer nomi bilan ma’lum bo‘lgan bir nechta qadimgi shaxar-davlatlar bo‘lgan. Shumerlik jangchilarning qurol-yarog‘lari uchi misdan yasalgan kalta nayzalar va uzun sopli mis boltachalardan iborat bo‘lgan. Bundan tashqari mis xanjarlar va tosh to‘qmoqlar xam bo‘lgan. Ximoya quroli sifatida Shumerlik jangchi mis qalpoqqa, mis plastinkalar bilan qoplangan jundan to‘qilgan kiyim va teridan yasalib mis bilan qoplangan

qalqonga ega bo'lgan. Shumer harbiy bo'linmalariga jangovar tartib ma'lum bo'lgan. Safning birinchi sherengasidagi jangchilar katta qalqonlarni olib yurgan, xar bir qalqon bir nechta odamni to'sib turgan.

Jang olib borish uchun to'rtta yovvoyi eshak (qo'lga o'rgatilgan yovvoyi xachir) qo'shilgan to'rt g'ildirakli jangovar aravalar qo'llanilgan. Jangovar aravalar ekipaji uloqtiriluvchi nayzalar bilan qurollangan ikki kishidan-aravakash va jangchidan tashkil topgan, zaxira nayzalar jangovar aravaning old qismiga o'rnatilgan nayzadonning ichida bo'lgan.

Miloddan avvalgi XIX asrda Mesopotamiyada yangi iqtisodiy va siyosiy markaz - Vavilon barpo etildi va u davlatning poytaxtiga aylandi. U podsho Xammurapi (Miloddan avvalgi 1792-1750 y.) davrida qudratli davlatga aylanib, Mesopotamiyaning butun xududini o'z qo'l ostiga o'tkazdi. Vavilon davlati katta doimiy qo'shinga ega bo'ldi. Jangchilarga o'z xizmatlari uchun er, uy va mol berilgan, jangchilar ularni sotish xuquqiga ega bo'lmaganlar, ammo o'g'illari otalari o'rnida xizmatni davom ettirsa, mol-mulklarini meros qilib ularga qoldirganlar.


Xammurapi o'sha vaqtning ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlarini nazorat qiluvchi qonunlar kodeksini kiritdi. Xammurapi kodeksida jangchining majburiyatlari va xuquqlarini aniqlab beruvchi bo'limlar bo'lib, u erda asir tushgan jangchining xuquqlari ko'rsatib o'tilgan. Ular davlat xisobidan pul sarflab qaytarib olinganlar.

Jangchining mulkini egallash o'lim jazosi bilan jazolangan. Bu xujjatda biz jangchining majburiyatlari va xuquqlarini belgilab berilishiga bo'lgan birinchi intilishni kuzatamiz.

Miloddan avvalgi XIV asrdan boshlab Frot daryosining yuqori oqimi bo'ylarida Vavilonning shimolida poytaxti AshShur shaxri bo'lgan (keyinchalik poytaxt Nineviya shaxri bo'ldi) davlat shakllana boshlandi, u Miloddan avvalgi XIII asrda buyuk davlat Ossuriyaga aylandi. U o'sha zamonning eng takomillashgan armiyasiga ega bo'lib, qattiq bosqinchilik siyosatini olib bordi.

Dastavval Ossuriya armiyasi ko'ngilli dexqonlardan tashkil topdi. Bosqinchilik miqyoslarining kengayishi bilan professional jangchilar shakllana boshlandi, uning safiga zabt etilgan davlatlar xalqlari xam majburan kiritila boshlandi. Shu bilan doimiy qo'shinga asos solindi. Ossuriyaliklar Miloddan avvalgi VII asrdan boshlab butun O'rta Sharqni o'z nazoratlari ostida ushlab turdilar.14-rasm





### Ossuriya piyodalari

Ossuriya armiyasi tezlik va uzoqqa zarba beradigan qurollar soni bo'yicha ustunlikni qo'lga kiritdi. Jangovar aravalar va kichik kavaleriya otryadlari bilan birga asosiy zarbdor kuch sifatida ular ikkinchi va qo'shimcha zarbani berish uchun piyodalarni qo'llaganlar. Armiyaning asosini piyoda kamanchilar va nayzachilar tashkil etgan. Ular xammalari dubulg'alar va sovutlar kiyib jangga kirganlar, piyodalarning ximoya vositalari odamning bo'yidan baland bo'lgan qalqonlar bo'lib, ularni maxsus qalqon ko'tarib yuruvchilar olib yurganlar. Keyinchalik piyodalar kichkina dumaloq qalqonlar va og'ir sovutlardan foydalanganlar.

Ossuriya piyodalari og'ir va engil piyodalarga bo'lingan. Og'ir piyodalar nayzalar, qilichlar bilan qurollangan va ximoya quroli-sovut va dubulg'alarga ega bo'lgan. Engil piyodalar kamanchilar va palaxmonchilardan tashkil topgan.

Jangda og'ir va engil piyodalar yaqindan turib o'zaro xamkorlik qilganlar. Kamanchilar og'ir piyodalar va ularning katta qalqonlari to'suvida jang olib borganlar, bu xujum qilayotgan qalqonlar devori edi.

Asosiy tashkiliy birlik *kisir* (otryad) bo'lib, unda 500-2000 jangchi bo'lgan. Kisir ellikliklarga bo'lingan, elliklik o'nliklarga ajratilgan.


Ossuriya qo'shinlarida yangi qo'shin turi - otliq qo'shin tug'ildi, u keyinchalik jangovar aravalarni siqib chiqardi. Ko'p sonli otliqlar birinchi bor Ossuriya qo'shinlarida Miloddan avvalgi IX asrda paydo bo'ldi. Dastavval chavandoz egarsiz otga minib xarakatlangan, keyinchalik esa uzangisiz baland egar o'ylab topildi. Otliqlar juft-juft bo'lib jang olib borganlar: bittasi kamon bilan, ikkinchisi - nayza va qalqon bilan qurollangan.

Xar xil turdagi er kovlash, yo‘l ishlari, ko‘priklar qurish va boshqa ishlar uchun, Ossuriya armiyasi muxandislik qo‘shinlarini rivojlanishini boshlab bergan maxsus otryadlarga ega bo‘lgan. Qo‘shinlar o‘z qurollanishida qal’a devorlarini buzib tashlash uchun taranlar, qamal qilish minoralari va shturmchi narvonlarga, xamda *kechuv vositalari* - meshlarga ega bo‘lganlar (meshlarda aloxida jangchilar daryolardan kechib o‘tganlar, bundan tashqari ularning ustiga sollar va suzuvchi ko‘priklar o‘rnatilgan).

Dengiz bo‘yi xalqlari Ossuriyaliklar uchun *galer* tipidagi, dushman kemalariga taran zarbasini berish uchun uchli old qismga ega bo‘lgan kemalar qurganlar. Eshkakchilar unda ikki qavatda joylashganlar. Kemalar Dajla va Frotida qurilgan va Fors ko‘rfazida suvga tushirilgan.

Ossuriya armiyasining jangovar tartibi kamonchilar, nayzachilar, jangovar aravalar va otliqlardan tashkil topgan. Jangovar tartibning asosi jangovar aravalar bo‘lgan, ularning ortida otliqlar joylashganlar. Piyodalar odatda uch sherengada tuzilgan. Kamonchilar qalqonchilar to‘suvida oldinda yoki orqadagi sherenga safida jang qilganlar. Bu xolda birinchi ikki sherengadagi nayzachilar, kamonchilar ularning boshlari uzra otishlari uchun egilganlar yoki tizzaga o‘tirganlar. Taktik jixatdan to‘satdan zarba berish uchun Ossuriya qo‘shinlarining xamma boshliqlari tungi xujumni keng qo‘llaganlar.

Ossuriyaliklar qal’alarni moxirlik bilan qamal va shturm qilganlar. Devorlarni buzish va ularda bo‘shliqlarni ochish uchun taranlar - yo‘g‘on daraxtning tanasidan uchini keng yoki uchli qilib yasalgan moslamalar qo‘llanilgan. Taran 4 yoki 6 g‘ildirakli aravada zanjirlar bilan yog‘och moslamaga osilgan. Yog‘och moslama ichida joylashgan jangchilarni ximoya qilish uchun qamishlardan yasalgan qalqonlar bo‘lgan yoki ular teri bilan qoplangan. Moslamaning old qismida minoracha yasalgan, unda taranni ximoya qiluvchi kamonchilar joylashgan. Bundan tashqari, ossuriyaliklar qal’alarni qamal qilishda xarakatlanuvchi *minoralar* va *laxmlarni* keng qo‘llaganlar xamda zabt etilgan shaxar devorlarida xukmronlik qilish va qurshovdagilarga mash’alalar va yonuvchi kamon o‘qlarni otish uchun tuproqdan balanliklar xosil qilganlar.15-rasm



### Suriya jangovar aravasi

Qal'alarni qamal qilgan Ossuriya qo'shinlari tuproq uyumi bilan o'ralgan lagerda joylashganlar. Lager ichida bir-biri bilan kesib o'tuvchi ko'chalar bo'lgan, lagerdan chiqish uchun darvozalar o'rnatilgan. Rim lagerlari xam keyinchalik Shunday qurilgan.

Dushmanni qo'rqitish uchun ossuriyaliklar asirlarning terilarini shilib olganlar va ularni taslim bo'lmagan shaxarlarning darvozalarida osib qo'yganlar.

Miloddan avvalgi VII asrda bosqinchilik yurishlaridan xoldan toygan Ossuriya davlati, vavilonliklar va yangitdan tashkil topgan Eron davlati - **Midiyaning** zarbasidan keyin chil parchin bo'ldi va tarqalib ketdi.

Qadimgi Misr bilan taqqoslaganda harbiy san'atdagi yangilik - Ossuriya podshosi ixtiyorida murakkab tarkibga va ancha takomillashgan tashkiliy shaklga ega va Shubxasiz taktikaning rivojlanishiga sharoit yaratgan bir necha o'n minglik yirik doimiy qo'shinning bo'lganligidir.

Ossuriya otliqlari Shu vaqtga kelib jangda katta rol o'ynay boshladi, u asta-sekin jangovar aravalarni jangovar safdan siqib chiqara boshladi. Texnikaning rivojlanishi qamal qilish mashinalarini, kechuv vositalarini ixtiro qilinishiga va yo'l qurilishi texnikasini yaxshilanishiga olib keldi. Ossuriya davlatida rivojlangan harbiy yo'llar va aloqa tarmog'i birinchi marotaba esga olinadi, birinchi marta qo'shinni qurol-yarog' va anjomlar bilan markazlashgan ta'minoti amalga oshirildi.

Qadimgi Eronning harbiy san'ati. Kaspiy dengizi va Fors ko'rfazi o'rtasidagi yassi tog'likda yashagan Eron qabilalari to'g'risidagi birinchi ma'lumotlarni biz Miloddan avvalgi IX asrga tegishli Ossuriya xujjatlarida uchratamiz.

Miloddan avvalgi 550 yilda Axomaniylar avlodidan chiqib, Pars viloyatida yashagan podsho Kir II Midiyani bosib oldi va Axomaniylar davlatining asoschisi bo'ldi. Midiyaning poytaxti Ekbatana (hozirgi Xamadon) ushbu fors davlatining poytaxtiga aylandi. U katta harbiy qudratga ega bo'ldi.

Kir II xukmronlik qilgan davrda katta fors armiyasi tashkil etilib, unda asosiy qo'shin turi otliqlar bo'lgan. Jangovar aravalari endi qurollanishdan olib tashlangan edi, ular podsholarni olib yurish uchun xizmat qila boshladilar. Miloddan avvalgi VI asrning o'rtalarida forslar o'zlariga Lidiya va Vavilonni bo'ysundirdilar. Misrga yurish qilishdan oldin forslar O'rta Osiyoga - saklar va massagetlarga qarshi yurish boshladilar.

Miloddan avvalgi 529 yilda Kir II massagetlar tomonidan o'ldirildi, o'sha paytda massagetlarni malika To'maris boshqarar edi.

Miloddan avvalgi 525 yilda Kir II ning o'g'li Kambiz II qo'mondonligida forslar Misrga yurishni amalga oshirdilar. Shu yili forslar misrliklarning katta qo'shinini tor-mor etdilar. Misr Axomaniylar davlati tarkibiga kirib, uning xududi judayam kengaydi. Kambiz II ning o'limidan keyin qadimgi Misr davlati parchalanib keta boshladi.

Miloddan avvalgi 522 yilda Axomaniylar sulolasi kichik avlodining vakili Doro I xokimiyat tepasiga keldi, u tez orada imperiyaning oldingi chegaralarini tiklashga muvaffaq bo'ldi. Forsning harbiy-ma'muriy tuzimi izga tushirildi. Davlat 20 ta ma'muriy o'lja yig'uvchi okruglar - satraplarga bo'lindi. Satraplar xam fuqarolik, xam harbiy ishlar bilan Shug'ullanganlar. Armiya qayta tashkil etilib, uning asosini piyodalar va otliqlar tashkil etdi. Qo'shinni tezlik bilan bir joydan ikkinchi joyga ko'chirib keltirish uchun yo'l tarmoqlari rivojiga katta e'tibor berildi, Shu jumladan podsho yo'li qurilib, uning xar 20 kilometrda garnizonlarga ega bo'lgan istexkomlar qurilgan, xar 5 kilometrda otliq otryadlar turib, ular xukumat pochtaga xizmat qilganlar. Ko'plab yo'l tarmoqlarining borligi yirik davlatning xar qanday punktiga kichik va katta qo'shin otryadlarini tezkorlik bilan olib borishni ta'minladi. Bir nechta satrapliklar garnizoni bitta harbiy okrug qo'mondoniga bo'ysungan, davlatda xammasi bo'lib 5 ta harbiy okrug mavjud bo'lgan.

Fors qo'shinining asosini podshoning tansoqchilari tashkil etgan: 10 minglik saralangan piyodalar-«*o'lmashlar*» («*o'lmashlar*» nomini ular otryaddagi yo'qotishlarni tezlik bilan yaxshi piyoda jangchilar xisobidan to'ldirishlari odatidan olganlar), 1000 nafar

*alebardachilar* (alebarda - uzun sopli oybolta), 1000 otliq tansoqchilar va jangovar aravalar.

16-rasm




Forslarning asosiy qurollari kamon bo'lgan. Qilichlar va kalta nayzalar ikkinchi darajali qurol edi. To'qilgan qalqonlar va tangachali sovutlar ximoya anjomlari bo'lib xizmat qilgan. Forslar jangovar aravalarning g'ildiraklariga pichoqlar va o'roqlar o'rnatib uni takomillashtirdilar.

Eron qo'shini mingliklarga, yuzliklarga, o'nliklarga bo'lingan. Jangovar tartib qanotlardan tashkil topgan, ularga podsho oilasining a'zolari qo'mondonlik qilgan.

Doro I podsholik qilgan vaqt Axmoniylar davlatining qudrati eng yuqori cho'qqiga chiqqan davr bo'ldi.

Qadimgi Eron davlatlari urushlarida qo'shinning yangicha tarkibi joriy qilindi: jangovar aravalar o'zining avvalgi axamiyatini yo'qotdi, manyovr vositasi, muntazam otliq otryadlarning o'rniga kirib kelgan-nomuntazam otliq otryadlar bo'ldi.(17-rasm)



**Eronliklar jangovar aravasi**



Yangilik qo‘shinni tashkil etishda xam ta’kidlanadi, endi ularga harbiy okruglarning maxsus boshliqlari qo‘mondonlik qilar edilar. Shunday qilib, harbiy boshliqning vazifalari satraplarning vazifalaridan ajratildi.18-rasm



### **Eron piyoda qo‘shinlari va otliq kamonchilari**

Qadimgi Xindistonning harbiy san’ati. Xindiston subqit’asida birinchi davlat Miloddan avvalgi III asrning o‘rtalarida Xind daryosi vodiysida tashkil topdi. Xind yoki Xarapp taraqqiyoti rivojlangan qudratli ximoya devorlari bilan mustaxkamlangan shaxarlarni qurishga imkoniyat yaratdi.

Xind taraqqiyoti Misr va Mesopotamiyaning rivojlanayotgan madaniyati bilan bir vaqtda kechdi. Miloddan avvalgi XX–XIX asrlarda u asta-sekin inqirozga yuz tutdi. Uning inqirozini ko‘p xollarda Xindistonning keyingi butun tarixiga ta’sir ko‘rsatgan oriylarning kelishi bilan bog‘lashadi. Miloddan avvalgi I-ming yillikning birinchi yarmidan milodiy davrgacha SHimoliy Xindistonda, aynan Gang vodiysida yangi davlatlar shakllanib, ularning tarixi qadimgi Xind diniy yodgorligi adabiyoti «Vedalar»da aks ettirilgan. Ushbu davrning o‘zi vedachilik davri deb yuritilgan. Davlat tepasida «roja» - podsho turgan, u nafaqat davlatni boshqargan va diniy boshliq bo‘lgan, balki qo‘shinga xam qo‘mondonlik qilgan. Roja xokimiyati merosiy bo‘lgan va qabila demokratiyasi qoldig‘i xisoblangan xalq majlisi bilan kam chegaralangan.

Qadimgi Xindistonning ijtimoiy tuzumi, ibtidoiy jamoa tuzumining emirilishi natijasida Miloddan avvalgi I ming yillikning boshida paydo bo‘lgan kasta bo‘linishi bilan xarakterlanadi. Kasta tuzumi Xindiston jamiyatining o‘ziga xos belgisi bo‘ldi.


Qadimgi Xindiston davlati qo‘shinining tuzilishi o‘zining xususiyatiga ega bo‘ldi. Qo‘shin safiga piyodalar, jangovar aravalar, otliqlar va *jangovar fillar* kirgan. Fillarning ustida minoracha o‘rnatilib, unda kamonlar va drotiklar (uloqtiriluvchi nayzalar) bilan qurollangan kamonchilar joylashgan.

Xindiston piyodalari odam bo‘yi bilan barobar katta kamonlar va uzun kamon o‘qlari bilan qurollanganlar. Kamonning bir uchi erga tekkizilgan; kamonchi uni chap oyog‘i bilan bosib turgan va kamon ipini oxirigacha tortgan. Bunday kamon o‘qlari qalqon va sovutlarni teshib o‘tgan.

Piyodalar odam bo‘yi bilan teng bo‘lgan terili qalqonga ega bo‘lganlar. Piyodalar qurollanishida o‘q-yoylardan tashqari keng qilichlar xam bo‘lgan. Otliqlar uloqtirish uchun ikkitadan nayzaga va kichik qalqonlarga ega bo‘lganlar: ularning otlari egarsiz bo‘lgan, lekin yuganlar tortilgan.

Xindiston shaxarlari minorali devorlar, xamda chuqur va keng xandaqlar bilan ximoya qilingan.

Bizning zamonamizgacha Xindiston harbiy san‘atining o‘ziga xos belgisini umumlashtiruvchi xujjat-«Manu qonunlari» etib kelgan. Ularda ko‘pgina quyidagi masalalar keng yoritilgan: urush va tinchlik to‘g‘risida, mustaxkamlangan punktlarning axamiyati to‘g‘risida, urushlarning ma‘naviy asoslari to‘g‘risida, podshoning majburiyatlari to‘g‘risida, vaziyatni to‘g‘ri baxolash va xarakatni boshlash vaqtini tanlashning axamiyati to‘g‘risida, yurishlarga tayyorgarlik va xarakatni ta‘minlashga qo‘yilgan talablar to‘g‘risida, jangni olib borish va qal‘alarni bosib olish usullari to‘g‘risida va boshqalar.19-rasm



**Jangovar fil**

Qadimgi Xindistonda to‘liq davlat ta‘minotida turgan *doimiy kasta qo‘shinlari* bo‘lgan. Uning asosiy zarbdor kuchi jangovar fillar xisoblangan.

Xammurapi qonunlaridan farqli o‘laroq, Xindiston qonunlari asosiy e‘tiborni, Vavilon qonunlarida bo‘lgani kabi jangchining xuquqlari va majburiyatlarini bayon qilish bilan chegaralanmasdan, harbiy san‘atning aniq masalalariga qaratgan. Qurol ishlatish xuquqiga faqat xar to‘rtta varnlarning(kastalar) biri - kshatralar ega bo‘lib, bu xolat qolgan kshatrlarni dushman oldida ojiz qilib qo‘ygan.

Qadimgi Xitoyning harbiy san‘ati. Miloddan avvalgi II ming yillikda Osiyoning janubi-Sharqiy qismida qadimgi Xitoy davlatlari tashkil topdi. Ushbu davrda turli xil qabilalar o‘rtasida doimo urushlar bo‘lib turgan edi.

Xitoy xukmdorlari birinchi galda o‘z xududlarini shimoldan ko‘chmanchi qabilalar syunnalar (keyinchalik *gunnar* nomi bilan atalgan) va keyinchalik o‘rta asrlarda mo‘g‘ullar xujumlaridan ximoya qilishlari kerak edi. Xitoyda birinchi mashxur sulola (Miloddan avvalgi XVIII asrdan) armiyaga tayanadigan kuchli demokratik davlat yaratdi, bu davlat o‘zining g‘arbdagi zamondoshlaridan ko‘p farq qilmas edi.



## 2.10.Qadimgi Xitoy va uning birlashuvi

Shuni ta‘kidlash lozimki, qadimgi Xitoyning qurol-yarog‘i va harbiy san‘atining rivojlanish jarayoni, qadimgi Misr, qadimgi Eron, qadimgi Xindiston davlatlari bilan xech qanday bog‘lanmagan xolda, mustaqil rivishda kechdi. Xitoyda jangovar aravalarga, Misr va Kichik Osiyoga qaraganda ancha kechroq (m.a.XIII-XI asrlar) qo‘llanila boshlandi.

Ilk qadimiy Xitoy davlatida (In podsholigida) qo‘shin piyodalarga, otliqlarga va jangovar aravalarga bo‘lingan. Qo‘shinning soni o‘sha vaqtlarda 5000 kishidan oshmagan. Otliq otryadlar odatda 300 kishidan tashkil topgan. Jangchilarning asosiy qurollari o‘q-yoylar




bo'lgan. Undan tashqari jangchilar jangovar boltalar, sekirlar (sopi uzun oyboltalar), qilichlar, uchlari bronzadan yasalgan nayzalar va drotiklar bilan qurollanganlar. Jangchilar qalqonlar va bronzadan yasalgan dubulg'alarga ega bo'lganlar. Jangovar tartib piyodalardan, otliqlardan va jangovar aravalardan iborat bo'lgan.

Xitoy qo'shinlarida bu davrda asosiy kuchni jangovar aravalar va otliqlar tashkil etdi. «Jangovar aravalar va otliqlar - bu armiyaning qudrati. 10 ta jangovar arava dushmanning 1000 jangchisini yanchib tashlaydi, 100 ta jangovar arava dushmanning 10000 jangchisini yanchib tashlaydi, 100 ta otliq 1000 kishini quvg'in qiladi»-deb yozilgan edi o'gitlarning birida.

Milldan avvalgi V asrgacha Xitoy armiyasining asosiy zarbdor kuchi jangovar aravalar bo'lgan. Jangovar aravalar ikki turga bo'lgan: ikkita ot qo'shilgan, keyinchalik to'rtta ot qo'shilgan jangovar aravalar, xamda transport aravalari yaratildi; 12 ta xachirlar qo'shilgan aravalar yaratilib, ular nafaqat harbiy yuklarni tashib yurish uchun, balki mudofaa inshootlarini qurish uchun xam ishlatilgan. Xar bir jangovar arava bilan 75 jangchi xarakatlangan, ulardan uch nafar og'ir qurollanganlar jangovar arava ustida turib jang qilgan, qolganlari esa uchta bo'linmaga bo'lingan: bittasi jangovar aravaning oldida, qolgan ikkitasi esa qanotlarda joylashgan.

Miloddan avvalgi VI-V asrlarda Xitoy qo'shini aniq tashkiliy tizimga ega bo'lgan edi. Kichik qo'shin «U» (beshlik) bo'lgan, beshta «U» «lyan» (25 jangchi)ni tashkil etgan, to'rtta «lyan»-«szu»ni (100 jangchi), beshta «szu»-«lyuy»ni (500 jangchi), beshta «lyuy»-«si»ni (2500 jangchi), beshta «si»-«szyun» (12500 jangchi)ni tashkil etgan. Oliy birlashma uchta «szyun» (37500 jangchi) bo'lgan, xar bir «szyun» o'zining ma'lum taktik belgisiga ega bo'lgan: avangard, markaz, va arergard. CHjou vani (CHjou davlati xukmdori) oltita «szyun»ga ega bo'lgan.

Otliqlarda qo'shinni tashkil etilishining asosiga o'nlik tizimi yotadi: beshlik-quyi bo'linma, navbatdagilar ikkita beshlik (10 otliq), undan keyin 100 va 200 otliqli bo'linmalar bo'lgan. Jangovar aravalar boshqacha tashkil etilgan: quyi bo'linmalarda beshta jangovar aravalar bo'lgan, ikkita beshlik keyingi bo'linmani tashkil etgan, undan keyin 50 ta va 100 ta jangovar aravalarga ega bo'lgan bo'linmalar xarakatlangan.20-rasm



### **Xitoy otryadining jangovar aravalar bilan saflanishi**

Qadimgi xitoyliklarda qo‘shinni boshqarish tizimi ishlab chiqilgan edi. Bo‘linmalar tovush bilan, birlashmalar-barabanlar, bonglar, bayroqlar va belgilar yordamida boshqarilgan. Qadimgi tuzuklarlarning birida ta’kidlanishicha barabanlarning bongi bilan jangovar aravalarga, otliqlarga, piyodalarga «qurolni boshga va oyoqqa olish» signallari berilgan.

Miloddan avvalgi V asrda Buyuk Xitoy tekisliklarida ettita mustaqil podsholiklar shakllanib, ular «kurashayotgan podsholiklar» davri (Miloddan avvalgi V-III asrlar) nomi bilan mashxur bo‘lib, o‘zaro doimiy urushlarni olib borganlar. Miloddan avvalgi IV asr davomida piyodalar soni oshdi, jang olib borish amaliyotida arbaletlar keng qo‘llanildi.

9-rasm



**Buyuk Xitoy devori**

Xitoyliklar ko'pgina urushlarni Xitoyning shimoliy xududlarida joylashgan ko'chmanchi-xunlar bilan olib borganlar. Miloddan avvalgi 214 yilda xitoyliklar xunlarning xujumlaridan ximoyalanish uchun, keyinchalik *Buyuk Xitoy Devori* nomini olgan chegarabo'yi devorini qurishni boshladilar. Xozirgi kunda uning uzunligi Sharqdan g'arbga tomon 2500 kilometrni tashkil etadi. Uni qurish ishlari uzoq vaqt, XV-XVI asrlargacha davom etdi. Devorning balandligi 16 m gacha, qalinligi pastda 8 m gacha, yuqorida 5 m gacha etdi. Xar 100 m da, dushman devor bo'sag'alariga yaqinlashganda uni kesib o'tuvchi zarbalar bilan o'qqa tutish uchun bo'rtib chiqqan joylar bo'lgan.

Ko'psonli darvozalar yarim aylana shaklidagi devorchalar bilan ximoya qilingan. Devorda to'rt burchakli, ichki zinapoyaga ega bo'lgan ikki qavatli minoralar qurilgan. Devorni qo'riqlayotgan qo'shin 145 kishidan iborat bo'lgan va o'z qo'mondonlariga ega bo'lgan otryadlardan tashkil topgan, ular qo'riqlov minoralar guruxining butligi uchun javobgar bo'lganlar. Xar bir otryad bir nechta otliq choparlarga ega bo'lgan.

Chegarabo'yi birlashmalari askarlariga devor yaqinidan erlar berilgan, ular ushbu erlarda oilalari bilan yashab, xo'jalik ishlari bilan xam Shug'ullanganlar.

Xitoyliklar aloqa xizmatini tashkil etishga katta e'tibor berganlar. Buyuk Xitoy devori bo'ylab bir-biridan 4 kilometrgacha uzoqlikda *kuzatuv postlari* joylashgan. Xar bir postning yaqinida quruq shox-shabbalar bo'lib, ular dushmanning yaqinlashishi bilan yoqilgan. YAqinlashib kelayotgan dushmanning soni to'g'risidagi ma'lumot yorug'lik signallarini shartli takrorlash yo'li bilan etkazilgan. Signallar sifatida *raketalar (petardalar)* keng qo'llanilgan. Xar bir post qabul qilingan signalni keyingi postga etkazishga majbur bo'lgan.

Buyuk devorning qurilishi qadimgi Xitoyda harbiy-muxandislik ishlarining yuqori darajada bo'lganligidan xabar beradi. Undan tashqari strategik yo'llar va katta suv kanallari qurilgan. Miloddan avvalgi III asrda xitoyliklar poroxni kashf etdilar, lekin harbiy maqsadlarda u XIV asrgacha foydalanilmadi. Porox Miloddan avvalgi VIII-XIII asrlarda juda kam jangovar qo'llanilganligi to'g'risida ma'lumotlar bor. Uzoq vaqt porox mushakbozlik uchun qo'llanilgan.

Ko'chmanchilar bilan kurashish kerakligi xitoyliklarni yirik otliq armiyani tashkil etishga majbur etdi. Miloddan avvalgi I asrda xunlar to'lig'icha tor-mor etildi va Xitoy xududidan siqib chiqarildi. Xunlarning yakson etilishida xal qiluvchi rolni, yaratilganligi

xunlar uchun kutilmagan xol bo'lgan otliqlar o'ynadi. Bu davr qadimgi Xitoy davlatining gullab yashnagan davri edi.

Qadimgi Xitoydagi harbiy-nazariy fikrlash. Sun-Szi. Qadimgi Xitoy harbiy san'atining, xamda uning umumiy va harbiy madaniyatining yuqori rivojlanish darajasi Xitoyda harbiy-nazariyacha fikrlashning rivojlanishiga turtki bo'ldi. Xitoyning asosiy harbiy fani «etti kitob»-harbiy san'at bo'yicha xar xil vaqtlarda yozilgan ettita tuzuklar xisoblanadi. Ularning eng qadimgisi-Sun-Szi (Miloddan avvalgi VI asrning oxiri va V asrning boshi) va U-Szi (m.a.IV asrning boshi) tuzuklaridir. Sun-Szi tuzuklari hozirgi zamonda harbiy san'at bo'yicha ma'lum bo'lgan asarlarning eng qadimgisidir. U qadimgi Xitoy harbiy san'atining muxim tamoyillari mazmunini ochib beradi.

Sun-Szi Miloddan avvalgi VI va V asrlarda Xitoy podsholigida sarkarda edi. U ushbu podsholik qo'shinlarini moxirona boshqargan.

Sun-Szining tarixiy va shaxsiy tajribasini umumlashtirgan «Harbiy san'at to'g'risida» tuzuklari 13 bobdan tashkil topgan. Ular xammasi qisqacha nizomlar ko'rinishida yozilgan va Shu bilan birga tasvirlari xam keltirilgan. Sun-Szi o'z zamonasi uchun g'alabaga erishish sharoitlari va mag'lubiyat sabablarini aniqlashga xarakat qilgan.

Sun-Szi o'z tuzuklarini urushning axamiyatini aniqlash bilan boshlaydi, uning fikricha bu axamiyat davlatning xayot mamoti xisoblanadi. Bu o'sha davrdagi Xitoyning xolatiga mos kelar edi. Sun-Szi urushlarni uch turga bo'ladi. «Urushning oliy san'ati-bu dushman rejasini buzish; keyin uning ittifoqchilarini safdan chiqarish, keyingi o'rinda uning qo'shinlarini tor-mor etish va eng og'iri - qal'alarni qamal qilish» - deb yozadi u o'z tuzuklarida.

Sun-Szi sarkardaning roliga katta axamiyat beradi. «Qachonki sarkarda irodasiz va notalabchan bo'lsa, unda jangchining o'rgatilishida noaniqliklar bo'ladi, unda komandirlar va jangchilarning o'rtalarida xech qanday doimiy bog'liqlik yo'q, unda qo'shinning jangovar tartibi yagona tizimga ega bo'lmaydi - bu qo'shinning parokandaligi demakdir», - deb yozadi u o'z tuzuklarining X bobida. U yana yozadi: «Qachonki sarkarda dushmanni baxolashga ojiz bo'lsa, qachonki u o'zining kam sonli kuchlari bilan dushmanning ko'p sonli kuchiga xujum qilsa, qachonki u o'zi kuchsiz bo'lgan xolda kuchli dushmanga xujum qilsa, qachonki qo'shin tarkibida zarbdor otryadlar bo'lmasa - demak qo'shinning

magʻlubiyati muqarrardir. Bu xamma oltita qoida magʻlubiyat toʻgʻrisidagi saboqdir. Sarkardaning asosiy majburiyati bu qoidalarni mukammal bilish».

Ushbu bobda u sarkardaning shaxsiy sifatlarini koʻrsatib oʻtadi. «Qachonki sarkarda xujum qilayotib Shuxrat ortidan quvmasa, chekina turib uyatdan qochmasa, qachonki u faqat xalqi va davlati ximoyasi toʻgʻrisida oʻylasa, bunday sarkarda-mamlakat uchun javoxirdir».

Qachonki jangchilarga oʻzingning suyukli oʻgʻillaringga qaragandek qarasang ular bilan xatto eng chuqur daralarga xam kirib borishing mumkin. Qachonki ularga raxmdillik qilsang, sen ularni boshqara olmaysan; qachonki ularni sevsang, ularga buyruq bera olmaysan; qachonki tartibsizlik yuzaga kelsa, sen tartib oʻrnata olmaysan-bu xolda ular oʻzboshimcha oʻgʻillarga aylanadi; ulardan foydalanishning imkoniyati boʻlmaydi».

Sun-Szi joyni baxolashga xam muxim eʻtibor qaratadi. Joyni u olti turga boʻladi: oʻtish uchun qulay, qiyaliklar, oʻtish qiyin boʻlgan, vodiqli, togʻli, uzoq joylar.

«Qachonki men oʻta olsam, u (dushman) oʻta oladi, bunday joy oʻtish uchun qulay deyiladi. Oʻtish uchun qulay joyda birinchi navbatda balandliklarning quYoshli tomonini egalla va taʻminlash yoʻllarini qoʻriqlashni tashkil et, unda jang paytida qulaylikka ega boʻlasan».

Toʻsatdan zarba berish va tezkorlikni qoʻllash kerakligi xaqida Sun-Szi quyidagilarni taʻkidlaydi: «Urushda eng asosiysi - tezkorlik. U (dushman) etib borib ulgurmagan joylarni bosib ol. Uning xayoliga xam kelmagan yoʻllardan xarakatlan. Dushman kutmagan yoʻnalishlardan xujum qil».

Razvedkachilardan foydalanishning muximligi xaqida Sun-Szi XII bobda Shunday taʻkidlaydi: «Qoʻshinlarda razvedkachilarga nisbatan munosabatdan muximroq munosabat yoʻq; razvedkachilar taqdirlanadigan mukofotdan yaxshiroq mukofot yoʻq; razvedkachilarning maxfiy ishlaridan maxfiyroq ish yoʻq. Razvedkachilar, ayniqsa urushda kerakdirlar. Ular Shunday tayanchdirlarki, ularning yordamlari bilan butun qoʻshin xarakatlanadi».

Sun-Szi intizomga xam katta eʻtibor beradi, uni mustaxkamlash usullarini tavsiya etadi. «Qachonki askarlar kuchli boʻlsa, komandirlar esa kuchsiz boʻlsa-bu qoʻshinda parokandalik boʻladi»-deb yozadi u IX bobda. «Qachonki komandirlar kuchli boʻlsayu, askarlar kuchsiz boʻlsa, bu qoʻshinni dushman qoʻliga tushishi aniqdir. Qachonki

komandirlar o‘zlarining boshliqlariga bo‘ysunmasalar va mustaqil jangga kirsalar, qo‘shin tarqalib ketadi».

U yana Shunday yozadi: «Qachonki sarkarda jangchilar bilan uzoq, erkalab muloqotda bo‘lsa—demak u ommaning ishonchini yo‘qotgan. Qachonki u qo‘shinni tez-tez mukofotlasa, demak qo‘shin qiyin axvolda. Qachonki u qo‘shinni tez-tez jazolasa, demak, intizom tushib ketgan. Qachonki u qo‘pol bo‘lsa, keyin esa ommadan qo‘rqsa, bu harbiy san’atni tuShunmaslikning yuqori darajasidir».

Umuman Sun-Szi tuzuklarida qadimgi Xitoy harbiy san’atining xolati to‘liq va chuqur yoritilgan. Sun-Szining xizmatlari Shundan iboratki, u birinchilardan bo‘lib jangovar xarakterli usullarini nazariya jixatidan ifodalab berishga xarakter qildi va harbiy san’at ulardan, ya’ni jangovar xarakterli usullaridan dushmani tor-mor etish uchun foydalana bilish kerakligini ko‘rsatdi.

Qadimgi Sharqda harbiy san’at rivojining xulosalari. Sharqda qadimgi davlatlarning barpo etilishi bilan davlat xokimiyati organi sifatida armiyalar paydo bo‘ldi, ularning vazifalari qo‘shni xalqlar bilan urushlar olib borish va davlat ichkarisida xokimiyatni mustaxkamlashdan iborat bo‘ldi.

Misr va Xindistonda harbiy kasta yaratilib, u xukumat tepasida turganlarning qo‘llarida qudratli qurol bo‘lib, xukumatning ichki va tashqi siyosatini amalga oshirdi. Harbiy kasta ishonchli tayanchga aylangan vaqtda, harbiy ishga yollanish paydo bo‘ldi, uning natijasida harbiy kasbga asos solindi.

Qadimgi Sharq armiyalarining qurol-yarog‘lari takomillasha boshladi va uning turli xillari yaratildi. Armiya qo‘shin turlari bo‘yicha qurolli otryadlarga bo‘lina boshladi (kamonchilar, nayzachilar va boshqalar), bu o‘z navbatida armiyalarda birinchi tashkiliy shakllanishni belgilab berdi. Avval piyodalar yagona qo‘shin turi edi. Keyinchalik jangovar aravalar yaratilib, ular jang maydonida xukmronlikni qo‘lga kiritdilar. Nomuntazam otliq bo‘linmalari xam yaratila boshlandi. Shunday qilib, qo‘shin turlariga asos solindi.

Qadimgi Sharqning ko‘psonli urushlarida armiya taktik bo‘linishining birinchi elementlari joriy etildi. Birinchi galda safar tartibidan avangard va aregard ajratib chiqarildi. Qo‘riqlov va razvedkaning vazifalari xali xam uyg‘unlikda edi. Manyovrlashtirish va jangni oldindan ko‘ra bilish to‘satdan zarba berishga erishishning maqsadi edi. Jangovar tartib jang maydonida xar xil qurollangan otryadlarni

joylashtirishdan iboratdir: piyodalar, jangovar aravalar, otliq otryadlar. Piyodalar taktikasi sherenga bo'lib saflanishda va ularning to'g'ri xarakatlanishlarida ifodalangan. Jang ro'paradan to'qnaShuvlar shakliga ega bo'ldi, qanotlar jangovar tartibning kuchsiz joyi ekanligi ko'rinib qoldi.

Sharqda muxandislik san'ati joriy etilib, u kuchli istexkomlar yaratishni va ularni murakkab texnika yordamida egallash usullarini ishlab chiqishni o'z ichiga oldi. Laxmlar keng qo'llanildi, qal'a devorlari devor buzuvchi mashinalar bilan buzib tashlangan yoki xarakatlanuvchi minoralar va shturmchi narvonlar yordamida egallangan.

Osiyoning Sharqiy qismida ushbu qadimgi davrda YAqin Sharq davlatlariga bog'liq bo'lmagan xolda Xitoy harbiy san'ati rivojlandi.

Qadimgi Sharq xalqlarining harbiy san'ati qadimgi greklar harbiy san'atiga ta'sir o'tkazdi, ular nafaqat savdo-sotiq bilan Shug'ullandilar va Qadimgi Sharq davlatlari bilan jang olib bordilar, balki ularga yollanib xizmat xam qildilar.

### **2.11.Makedoniya armiyasining tarkibi**

Otliq otryadlar og'ir (*katafraktarlar*), o'rtacha (*dimaxlar*) va engil otliqlarga bo'lingan. Og'ir otliqlar asosiy zarbani bergan. O'rtacha otliq otryadlar otda turib va piyoda safda yurib jang qilishga tayyorlangan. Engil otliq otryadlar ximoya quroliga ega bo'lmagan, u jangni boshlagan, keyin qanotlar va front orti xavfsizligini ta'minlagan.

Otliq otryadlar muntazam qo'shin turi sifatida birinchi bo'lib Makedoniyada yaratilgan. U jangda bosh zarba berish vositasidek va dushman piyodalarini aksariyat qanotlari tomoniga xujum qilishdek muxim rolni o'ynagan.

Og'ir piyodalar nayzalar - *sarisalar* bilan qurollanganlar, uning uzunligi asta-sekin 2 m dan 6 m gacha oshirilgan. Bunday sarisalar bilan birinchi olti sherenga qurollangan, Shu bilan falanga tikanli, nayzali devor bilan to'sib qo'yilgan. Sarisa olib yuruvchi jangchilar qilichlar va to'rtburchak shakldagi qalqonlar bilan xam qurollanganlar. Engil piyodalar kamon, palaxmon va drotiklar bilan qurollanganlar.


Engil chavandozlarda kamon, kalta nayzalar va drotiklar bo'lgan. Og'ir otliq otryadlar sarisalar va qilichlar bilan qurollanganlar. CHavandozlar ot ustiga o'ziga xos uzangsiz egarlar, to'qimlar yoki yostiqlarda o'tirganlar.

Armiyaning bosh qismini baxaybat, og'ir Makedoniya falangasi tashkil etgan. Makedoniyalik Iskandar davrida og'ir piyodalar falangasi 16384 kishidan iborat bo'lgan. U



teranlik bo‘ylab 16 sherengada (Yunonistonning 8-12 sherengasi o‘rniga) qurilgan, xar bir sherengada 1024 kishi bo‘lgan. Falanganing fronti 1 kilometrغا teng bo‘lgan.

Falanga aniq tashkiliy tizimga ega bo‘lgan. Falangani xar bir bo‘linmasining tepasida komandiri bo‘lgan. Quyi bo‘linma «lox» -front bo‘ylab 1 kishi, teranlik bo‘ylab esa 16 kishi bo‘lgan. Keyingi bo‘linmalar 2, 4, 8 va 16 «lox»lardan tashkil topgan. Front bo‘ylab 16 kishi va teranlik bo‘ylab 16 kishidan tashkil topgan (256 kishi) kolonna *santagma* deb atalgan va kichik saf bo‘linmasi bo‘lgan; 16 santagma kichik falangani tashkil etgan, 4 ta kichik falanga katta falangani tashkil etgan.22-rasm



### Makedoniya falangasi

Makedoniya falangasi agar saf munosabatida bo‘lingan bo‘lsa, taktik munosabatda yagona xolda bo‘lgan. Jangda bo‘linmalar o‘rtasida xech qanday oraliqlar bo‘lishiga yo‘l qo‘yilmagan. Falanganing ichida jangchilar bir-birlariga juda yaqin turganlar. Falanganing na qo‘llab-quvvatlovi, na zaxirasi bo‘lgan, lekin qudratli zarbdor kuchga ega bo‘lgan.

Makedoniya armiyasi o‘ng qanotga moyil xolda xujum qilgan. Iskandarning shaxsiy qo‘mondonligidagi og‘ir otliqlar, og‘ir piyodalarga tayangan xolda bosh zarbani bergan, dushmanning yorib o‘tilgan frontiga gipaspistlar (o‘rta piyodalar) kiritilgan va ular muvaffaqiyatni rivojlantirganlar. Og‘ir piyodalar dushmanni tor-mor etishni oxiriga etkazgan. Engil otliqlar dushmanni ta‘qib etgan. Shunday qilib, jangovar tartibning xar bir bo‘g‘ining o‘z taktik vazifasi bo‘lgan.

Epaminondning g‘oyasi Makedoniya armiyasida piyodalar va otliqlarning, ya‘ni ikki qo‘shin turining xarakatlarini uyg‘unlashtirish darajasigacha rivojlandi. Lekin buning uchun



armiyadagi askarlar va qo‘mondonlik saflarining jangovar ko‘nikmalari, bo‘linmalarning yuqori saf tayyorgarligi talab qilingan.

Forslar bilan urushga tayyorgarlik ko‘rish davrida Makedoniya armiyasida qal’alarni qamal qilish texnikasini yaratishga katta e’tibor qaratildi.

Makedoniyaning Forslar bilan urushi davrida harbiy san’atning rivojlanishi. Katta va yaxshi o‘rgatilgan armiyaga ega bo‘lgan Makedoniyalik Iskandar Sharqqa tomon yurishni boshladi. Bu yurishda birinchi bo‘lib, ushbu davrda emirilish arafasida turgan yirik imperiya - Eronni tor-mor etish maqsad qilib qo‘yildi.

Eron tor-mor etilishi bilan makedoniyalik zodaganlar O‘rta Er dengizi xavzasining Sharqiy qirg‘oq bo‘ylarida o‘z xukmronliklarini mustaxkamladilar.

Miloddan avvalgi 334 yil baxorda Iskandar qo‘mondonligidagi Makedoniya armiyasi Gellespontni (Dardanell bo‘g‘ozini) kechib o‘tdi va Kichik Osiyoga bostirib kirdi. Forslar bilan birinchi jang va forslarning birinchi mag‘lubiyati Granik daryosi bo‘yida sodir bo‘ldi.

Granik daryosi bo‘yidagi jangda Makedoniya armiyasi 30 ming piyodalarga va 5 ming otliqqa ega edi. Forslarda 35 minggacha piyodalar, Shu jumladan Yunonistonlik yollanganlar va piyoda kamonchilar otryadi, xamda 5 ming otliqlar bor edi.

Forslar Granik daryosining baland o‘ng qirg‘og‘ini egalladilar. Oldinda forslarning otliqlari va piyoda kamonchilari saf tortdi: markazda piyodalar, qanotlarda otliqlar joylashtirildi. Ortdagi tepalikda yollanganlar falangasi qo‘yildi. Forslarning otliqlari suvni kechib o‘tayotgan makedoniyaliklarni daryoga uloqtirishi kerak edi. Yunonistonlik yollanganlarning vazifalari daryodan sog‘-omon kechib o‘tishga muvaffaq bo‘lgan dushmanning piyodalariga xujum qilishdan iborat edi. Shunday qilib, fors qo‘mondonligi tabiiy to‘siqdan o‘z qo‘shinlarining mudofaa kuchlarini oshirish uchun foydalanishga qaror qildi. Joydan taktik maqsadlarda foydalanish harbiy san’atning rivojlanishidagi yangilik bo‘ldi.

## **2.12.Miloddan avvalgi 334 yildagi Granik daryosi buyidagi jang**

Makedoniya armiyasining jangovar tartibi uchta asosiy qismdan tashkil topdi: nayzachilar va kamonchilar yordamida kuchaytirilgan og‘ir otliqlar (getayralar) otryadi joylashgan-o‘ng qanot, og‘ir piyodalar joylashgan - markaz va fessaliyaliklar va ittifoqchilar otliq otryadlaridan iborat bo‘lgan - chap qanot. Engil piyodalar oldinda

joylashib, butun jangovar tartibni to'sib turdi. O'ng qanotga Iskandarning o'zi, chap qanotga Parmenion qo'mondonlik qildi. Bosh zarba o'ng qanot bilan beriladigan bo'ldi.

Jang makedoniyaliklar jangovar tartibining o'ng qanotida otliq razvedkachilar va piyodalar otryadi bilan kuchaytirilgan avangardning daryoni kechib o'tishi bilan boshlandi.

Avangardning daryoni kechib o'tish uchun qilgan xarakati muvaffaqiyatsiz bo'lganidan keyin, Iskandarning shaxsan o'zi qo'shinning o'ng qanotini jangga boshladi. Makedoniyaliklar forslarning otliqlarini siquvga olishni boshlashlari bilan, piyodalar falangasi va Makedoniya armiyasining chap qanoti daryoni kechib o'ta boshladi. Forslar katta talofatlar ko'rib chekina boshladilar.

Balandlikda, ikkinchi chiziqda turgan forslarning yollangan piyodalari birinchi chiziqni qo'llab-quvvatlamadi, bu xol forslar qo'shinlarini bo'laklarga bo'lib tor-mor etish uchun Iskandarga imkoniyat yaratdi.

Forslarning birinchi chiziqlari tor-mor etilganidan keyin, Iskandar falangaga Yunonistonlik yollanganlarni front tomonidan xujum qilishga, otliq otryadlarga esa qanotlardan va front ortidan xujum qilishga buyruq berdi. 20 ming yollanganlardan faqat 2 minggi asir olindi, qolganlari qirib tashlandi.

Shunday qilib, Makedoniya armiyasi forslar bilan birinchi to'qnashuvda yirik muvaffaqiyatga erishdi. Granik daryosi bo'yidagi g'alaba makedoniyaliklarga Frot va Dajla vodiylariga xarakatlanish uchun to'g'ri yo'l ochib berdi.

Bu jangda Iskandar qo'shin turlari va falangani tashkiliy qismlarining o'zaro xamkorligini yaxshi tashkil etdi, joyning xususiyatlarini va dushmanning jangovar tartibini xisobga olib xarakat qildi.

Makedoniya armiyasining jangovar tartibi manyovrni amalga oshirishni xisobga olib qurildi. Bu harbiy san'atning rivojlanishida yangilik bo'ldi. Granik daryosi bo'yidagi jang muntazam otliqlar otryadi xal qiluvchi rol o'ynagan harbiy tarixdagi birinchi misol bo'ldi. Bu g'alabadan keyin Kichik Osiyoning shaxarlari makedoniyaliklarga hech qanday qarshiliksiz tobe bo'la boshladi. Makedoniya armiyasi O'rta Er dengizi qirg'oqbo'yidan ichkariga 400 km xarakatlandi, Milet va Galikarnas shaxarlarini egalladi. Miloddan avvalgi 334-333 yillarda Makedoniya armiyasi Kichik Osiyoda forslarning mulklarini zabt etishni oxiriga etkazdi.

Kichik Osiyoda o'z xukmronligini mustaxkamlash uchun Iskandar quyidagi tabdirlarni amalga oshirdi: muxim strategik punktlarni (shaxarlar va portlarni) o'zining yaqin strategik zaxirasi xisoblangan kuchli garnizonlar bilan kuchaytirdi; bosib olingan o'lkalarning raxbarlari etib o'zining lashkarboshlarini tayinladi, ular oziq-ovqat, qurol-yarog' va anjomlar zaxiralari to'ldirilgan omborlarni yaratishlari kerak edi; zabt etilgan o'lkalarning maxalliy boshqaruvi daxlsiz bo'ldi, to'lanadigan soliqlarning miqdori forslarga to'langan soliqlarning miqdoridan oshirilishi ta'qiqlandi.

Keyingi yirik jangni Iskandar Miloddan avvalgi 333 yilning kuzida O'rta Er dengizining shimoli-Sharqiy qirg'og'idagi Issa degan joyda amalga oshirdi.

Makedoniyalik Iskandarning armiyasi 30-40 minggacha kishini o'z ichiga oldi, Fors podshosi Doro III ning qo'shini 120-130 minggacha jangchilarni tashkil etdi.

Forslar, Granik daryosi bo'yidagi jangdagidek, o'z jangovar tartibini Pinar daryosining ortida ikki chiziqda yaratdi.

### **2.13.Miloddan avvalgi 333 yildagi Issa yaqinidagi jang**

Iskandar murakkab vazifani xal qilishi kerak edi, u buning uddasidan chiqdi. Uning falangasi daryoni kechib o'tdi va dushmanga frontal zarba berdi, o'zi xam katta talofatlar ko'rdi. Shu bilan bir vaqtning o'zida makedoniyaliklarning otliq otryadlari o'ng qanoti forslarning qanotlariga va front ortiga zarba berdi. Forslarning piyodalari va otliq otryadlarining beso'naqayligi xamda ularning jangovar tartiblari teran qilib yaratilganligi bois forslar son jixatdan ustunliklaridan foydalana olmagan bir vaqtda, makedoniyaliklar otliq otryadlari o'tkazgan manyovrlar jangning muvaffaqiyatini ta'minladi. Jangning taqdirini, makedon armiyasining o'ng qanotidagi Pinar daryosidagi kechuvni egallagan kamonchilar va engil piyodalarning muvaffaqiyatlaridan foydalangan makedoniyalik og'ir otliqlarning qanotlardan bergan zarbalari xal qildi.

Iskandar jangovar tartibning xamma tarkibiy qismlari o'rtasida o'zaro xamkorlikni moxirlik bilan tashkil etdi. Og'ir otliq otryadlarning zarbalarini falanganing ikki bo'linmasi qo'llab-quvvatladi. Og'ir otliq otryadlar va engil piyodalarga ega bo'lishlik, tor-mor etilgan forslarni taktik ta'qib etish imkonini berdi.

Iskandar yurishlarining navbatdagi davri oroldagi Finikiya qal'asi Tirni qamal qilish bo'ldi, uning davomida makedoniyaliklar qamal qilish mashinalarini muvaffaqiyatli qo'lladilar va qirg'oqdan qal'agacha bo'lgan masofani qum bilan to'ldirdilar, bundan

tashqarii Iskandar Misrga muvaffaqiyatli yurishni amalga oshirdi, uning davomida u o‘zining siyosiy xolatini mustaxkamladi va O‘rta Er dengizida o‘z xukmronligini o‘rnatdi. Miloddan avvalgi 331 yilning baxorida Makedoniya armiyasi Misrdan chiqib ketdi. Bu vaqtda forslar yana katta armiya tuzdilar va makedoniyaliklarni Gavgemala qishlog‘i yaqinida qarshi oldilar (Vavilondan 400 km shimolroqda) va Shu erda ular o‘rtasida yirik xal qiluvchi jang bo‘lib o‘tdi.

Makedoniya armiyasi taktikasining o‘ziga xos belgilari Miloddan avvalgi 331 yilning 1 oktyabrida aynan Gavgamela yaqinidagi jangda namoyon bo‘ldi. Forslar o‘z armiyalari safida 60-80 minglik piyodalarga, 12 minggacha otliqlarga, 100 ta jangovar aravalarga va 15 ta jangovar fillarga ega bo‘ldi. Forslarning jangovar tartiblari ikki chiziqda qurildi: birinchi chiziqda piyodalar joylashdi, ikkinchi chiziqda esa yordamchi qo‘shinlar. Birinchi chiziqning qanotlariga otliqlar qo‘yildi, frontning oldida jangovar aravalalar va fillar joylashtirildi.

#### **2.14. Miloddan avvalgi 331 yildagi Gavgamela jangi**

Makedoniya armiyasining safi 40 ming piyodalar va 7 ming otliqlarni tashkil etdi. Jangovar tartibning asosini, markazda saflangan og‘ir piyodalar falangasi tashkil etdi. Qanotlarni otliqlar va engil qurollangan piyoda jangchilar to‘sdi. Ikkinchi chiziqda o‘rta piyodalar joylashdi, ularning vazifalari fors otliqlarining qanotdan bergan zarbalarini qaytarishdan iborat edi. Falanga frontining oldida saflangan kamonchilar dushmanning jangovar aravalari bilan jang olib borishlari kerak edi. O‘ng qanotda og‘ir qurollangan otliqlar joylashib, ular zarbdor kuch-«xujum qiluvchi qanot» xisoblandilar.

Boshqa janglardan farqli o‘laroq, bu jangda Iskandar jangovar tartibning teranligini ikki martaga oshirdi va dushman makedoniyaliklar front ortiga xujum qilgan vaqtda ortda turgan otryadlarga orqaga burilishga buyruq berdi. Shu bilan birga u fors otliqlarining qanotdan beradigan zarbalaridan o‘z qo‘shinlarini ximoya qilishni xam ko‘zda tutdi.

Makedoniyalik Iskandarning rejasi quyidagilardan iborat bo‘ldi: saralangan otliqlarining o‘ng qanoti bilan bosh zarbani berish, bu o‘z navbatida falanganing frontdan beradigan zarbasi bilan birgalikda dushmanni tor-mor etilishiga olib kelishi kerak edi.

Jangni forslarning chap qanot otliqlari boshladi. Lekin uning xarakatlari va fillardagi xamda jangovar aravalardagi jangchilarning xujumlari muvaffaqiyatli bo‘lmadi. Forslarning jangovar aravalarni muvaffaqiyatli qo‘llashga bo‘lgan umidlari barbod bo‘ldi. Jangovar

aravalarga qarshi Iskandar otliq kamonchilarni yubordi, ular zanjirga yoyilib jangovar aravalarni ekipajlarini yakson qildilar, yoki ulardan o'zib ketib jangovar aravadagilarni joyidan uloqtirib tashlay boshladilar, agar aravalarni falangaga yorib kirsalar jangchilarni chekkaga o'tib ularga yil berib o'tkazib yuborganlar. Shundan keyin Doro asosiy kuchlar bilan butun front bo'ylab makedoniyaliklarga qarshi xujumga o'tdi. Shu bilan bir vaqtda makedoniyalik Iskandar o'zining og'ir qurollangan otliqlari bilan dushmanning chap qanotiga qaqshatqich zarba berdi.

Forslarning chap qanot otliqlari uloqtirib tashlandi va pala-partish qocha boshladi. Qanotdan berilgan zarbaning muvaffaqiyati falanganing ro'paradan bergan zarbasi bilan rivojlantirildi. Qanotdan berilgan muvaffaqiyatli zarba, ro'paradan berilgan zarba bilan uyg'unlikda jangning natijasini aniqladi. G'alaba qozonilganidan keyin makedoniyalik otliqlar jang maydonida Doroning qo'shinlarini bir necha o'n kilometrta ta'qib qilib bordilar. Bu dushmanni to'lig'icha tor-mor etish uchun olib borilgan strategik ta'qib qilish xisoblanib, u harbiy san'atdagi yangilik edi. Yirik kuchli otliqlarga ega bo'lishlik ta'qibni amalga oshirish uchun imkoniyat yaratdi.

Jangda g'alabaga, xujum qilayotgan zarbdor qanotning qat'iy xarakatlari, piyodalar, otliqlar va jangovar tartibning xamma tarkibiy qismlari o'rtasida tartibli o'zaro xamkorlikni tashkil etish bilan xamda og'ir otliqlarning qanotdan zarbalarini og'ir piyodalarning frontdan moxirona bergan zarbalari bilan muvofiqlashtirish natijasida erishildi. Ikkinchi chiziq jangovar tartibda jangovar safning teranligini oshirdi, bu xol joriy qilingan zaxira yaratish g'oyasini amalga oshirilganligidan guvoxlik beradi va bu xam harbiy san'atning rivojlanishidagi yangi bosqich bo'ldi.

Gavgamela jangida forslar armiyasi uzul-kesil mag'lubiyatga uchradi. Forslar davlatining butun g'arbiy qismi, uning iqtisodiy markazlari xisoblangan Vavilon, Persepol, keyinchalik esa Ekbatana makedoniyaliklar xukmronligi ostiga o'tdi.

### **2.15.Makedoniyalik Iskandarning O'rta Osiyo va Xindistonga qilgan yurishi.**

Doro III ning mag'lubiyatidan keyin uyushtirilgan fitna natijasida u o'ldirildi. Makedoniya armiyasi oldida Fors davlatining O'rta Osiyo satraplari - Baqtriya va So'g'diyonani zabt etish masalasi turar edi.

Iskandarning O'rta Osiyoga qilgan yurishi juda og'ir bo'ldi, chunki bu erda u qattiq qarshilikka duch keldi. Baqtriya va So'g'diyonada yunon-makedon bosqinchilariga qarshi

xalq qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olonga botir jangchi va moxir sarkarda Spitamen xamda baqtriyaliklarning yo'l boshchilari Avstan va Katanlar raxbarlik qildilar. Bosqinchilarning ochiq jangda qo'llari baland kelishini xisobga olgan Spitamen, partizanlik urushi olib borish taktikasini tanladi. Spitamenning otliq otryadlari yunon-makedon qo'shinlarining garnizonlariga va front ortiga to'satdan, sezilarli zarbalar berdilar. Iskandar faqatgina maxalliy zodagonlarni sotib olibgina qo'zg'olonni bostirishga muvaffaq bo'ldi. Spitamen o'zinikilar tomonidan xoinlarcha o'ldirildi. Baqtriya va So'g'diyonani zabt etish uchun yunon - makedon qo'shinlari uch yil sarfladilar, oxirida Avstan va Katanlar raxbarligida xarakatlangan xalq lashkarlari Paretakenda tor-mor etildi. Faqat O'rta Osiyoning bir qismini zabt etgandan keyingina Iskandar Xindistonga yurish boshladi. Yunon-makedon qo'shinlarining bir qismi So'g'diyonada xujum Baqtriya shaxarlari va qal'alarida garnizon xizmatini o'tash uchun qoldirildi.

Miloddan avvalgi 327 yilda Makedoniya armiyasi Xindistonga yo'l oldi. Mashaqqatli safar va O'rta Osiyo qabilalarining ko'rsatgan qattiq qarshiliklari armiyaning axvolini og'irlashtirib yuborgan edi. Shu vaqtga kelib armiyaning ichida oppozitsiya guruxi shakllanib, u Iskandarning bosqinchilik rejalariga qarshilik ko'rsata boshladi. Bu armiyani ayanchli xolatga solib qo'ydi va intizomga putur etkazdi. Shunga qaramay Xindistonga qilingan yurishning birinchi davri Makedoniya armiyasiga oz bo'lsa-da muvaffaqiyat keltirdi. Birinchi navbatda bu xol Xindiston podsholari Taksil va Porning o'zaro dushmanliklari bilan bog'liq bo'ldi.

Makedoniya armiyasi Qobuldan Xind daryosiga ikkita kolonnada xarakatlandi. Baqtriyadan chiqqandan keyin 16 sutka o'tgach Makedoniya armiyasi Xind daryosining o'ng qirg'og'ida jamlandi. Iskandarga ittifoqchi bo'lib olgan Taksilning ko'magida Makedoniya armiyasi Xind daryosidan o'tdi, uning safiga 5 ming xindistonlik jangchi qo'shildi.

Xindiston podshosi Por qarshilik ko'rsatishga xozirlik ko'ra boshladi. U Gidasp daryosi bo'yiga qudratli armiyani, 30 ming atrofida piyodalarni, 3-4 ming chavandozni, 300 ta jangovar arava va 200 ta fillarni to'pladi. Makedoniya armiyasi o'zining ittifoqchilari bilan birga 30 ming kishiga ega bo'lib, ulardan 6 minggi og'ir piyodalarni va 5 minggi otliqlarni tashkil etdi.

Por armiyasi Gidasp daryosining chap qirg'og'ida, o'z lagerining to'g'risida turgan Makedoniya armiyasining yo'lini to'sdi.

O'z xarakatlarini dushmandan yashirib, tunda kuchli yomg'ir paytida Makedoniya armiyasi kemalarda va meshlarda Gidasp daryosini quyi oqimi bo'ylab 14 kilometrda kechib o'ta boshladi. Tongda katta qiyinchiliklar bilan kechib o'tish uchun qulay joy topishga muvaffaq bo'lindi va u erdan 5 ming makedoniyaliklarning otliqlari va 6 ming piyodalari kechib o'tdilar.

Makedoniyaliklarning yaqinlashuviga ishonch xosil qilgan Por, o'z qo'shinlarini ularga qarama-qarshi qo'ydi. Xindlarning jangovar tartiblari ikkita chiziqdan iborat bo'ldi: birinchi chiziqda jangovar fillar, ikkinchi chiziqda piyodalar joylashtirildi; piyodalarning bir qismi fillarning oraliqlaridagi intervallarda joylashtirilib, ular jangovar tartibning tayanchi xisoblandi. Piyodalarning ikki yon tomonlarida otliqlar turdi, ularning old tomonlarida, ikkala tomonda-jangovar aravalar o'rin oldi

### **2.16. Miloddan avvalgi 326 yildagi Gidasp daryosi bo'yidagi jang**

Iskandar dushmanning jangovar tartibining markazi kuchaytirilganini ko'rganidan keyin, o'zining otliqlar bo'yicha ustunligidan foydalanishga qaror qildi. Bosh zarbani u xindlarning chap qanotiga berishni ko'zladi, buning uchun otliqlarning bir qismini o'z qo'mondonligi ostida dushmanning chap qanoti ro'parasida jamladi. Qolgan otliqlar xindlarning jangovar tartibining o'ng qanotiga qarshi yo'naltirildi. Makedoniyaning og'ir piyodalar falangasi faqat dushmanning jangovar tartibi to'zib ketgandagina unga qarshi xujum boshlash buyrug'ini oldi.

Jangni Iskandarning otliqlari boshladi. Xindlarning chap qanoti front tomondan otliq kamonchilarning zarbalaridan katta talofatlar ko'rdi va ularga qanotdan otliq getayralar xujum qildi. Xindlar uloqtirib tashlandi va fillar joylashgan chiziqqa pala-partish chekina boshladi. Jangga Makedoniya falangasi kiritildi.

Makedoniya piyodalari va otliqlari dushmanning jangovar tartibini buzib yuborishga muvaffaq bo'ldilar.

«Makedoniya falangasi fillarga qarshi xarakatni boshladi, fil boshqaruvchilarga drotiklar uloqtira boshladi va xamma tomondan otlar va fillarga kamondan ota boshladilar»-deb yozib qoldirgan edi Arrian.

Xindlarning fillari xurkib vaximaga tushib qoldi va xam makedoniyaliklarni, xam xindlarni bosib, er bilan yakson qilib tashladi, ko'pgina fillar ortga burilib qocha boshladi. Shu bilan bir vaqtning o'zida Iskandarning otliqlari butun jangovar chiziqni qurshab oldi, u piyodalarga imkoni boricha qalqonlarni jipslashtirib, xujumni davom ettirish buyrug'ini berdi. Xindlarning armiyasi mag'lubiyatga uchradi. Dushmanni ta'qib qilish boshlandi, Por asirga olindi va jang tugadi. Bu g'alabaning natijasida Por bilan ittifoq tuzildi. Lekin Makedoniya armiyasi Xindistonning ichkarisiga yurishni davom ettirishdan bosh tortdi va Iskandar ortga qaytishga majbur bo'ldi.

Xind daryosi bo'ylab kemalarda to'qqiz oy suzib, uning quyilish joyiga kelgan va safi ozayib ketgan Iskandar armiyasi ikki qismga bo'lindi: birinchisi dengizdan Dajlaning quyilish joyi tomon suzib ketdi, ikkinchisini esa Iskandarning o'zi Gedroziya (Janubiy Pokistonning xududi) cho'li orqali boshlab ketdi, bu erlarda armiyaning bir qismi qirilib ketdi.

Miloddan avvalgi 325 yilda, Makedoniya armiyasining qolgan-qutganlari, bosib olingan xududlarning poytaxti xisoblangan Vavilonga qaytib keldi. Bu erda Iskandar Miloddan avvalgi 323 yilda olamdan o'tdi.

O'n yil davom etgan makedoniyalik Iskandarning harbiy yurishlari qadimgi Yunoniston va Makedoniya harbiy san'ati rivojining yuqori cho'qqiga chiqqan davri bo'ldi. Iskandar harbiy san'atning ijodchisi bo'ldi: falanganing taktik zichligini oshirdi, uning zarba berish qudratini kuchaytirdi; kavaleriyani armiyaning xal qiluvchi zarbdor va manyovrchan kuchiga aylantirdi; otda va piyodalar safida jang qila olish qobiliyatiga ega bo'lgan yangi turdagi otliq otryadlarni joriy qildi; jangovar tartibning tarkibiy qismlarini manyovr qilish va o'zaro xamkorlik qilish asoslarini o'rnatdi.

Vaziyatdan kelib chiqib, Iskandar jamlangan kuchlar bilan xarakat qildi yoki armiyani bir nechta mustaqil kolonnalarga bo'ldi.

Iskandar tomonidan urushlarni rejalashtirish asosida dushmanni sinchiklab o'rganish, o'z imkoniyatlarini xisobga olish va vaziyatni to'g'ri baxolash, armiya va flotning kommunikatsiyalari va ta'minot bazalarini to'g'ri yo'lga qo'yish yotadi.

Makedoniyalik Iskandar Epaminondning g'oyalarini rivojlantirdi. U jangda muvaffaqiyatga, xujum qiluvchi qanotlarning birida (odatda o'ng qanotda) og'ir kavaleriya va o'rtacha piyodalardan iborat zarbdor guruxni tashkil etib erishdi.



Makedoniyalik Iskandar kavaleriya taktikasi asoslarini ishlab chiqdi. Og‘ir otliqlar dushman jangovar tartibining qanotlariga va front ortiga zarba bergan, og‘ir piyodalar falangasi esa frontdan xujum qilib jangni oxiriga etkazgan.

Makedoniyalik Iskandar birinchi bo‘lib armiyasining jangovar tartibida zaxira yaratdi, u xujum qilayotgan dushman frontni yorib o‘tgan vaqtda yoki qanotlarni qurshab olishga kirishgan xollarda jangga kiritilgan.

Nemis harbiy nazariyotchisi Gans Delbryuk (1848-1929) o‘z asarlarida, Iskandar nafaqat buyuk sarkarda, balki katta uslubdagi sarkarda bo‘lgan deb ta’kidlagan edi.

### **Tayanch iboralar**

Jang, harbiy nazariyotchi, dushman, , oyin, sarkarda, xujum, , nayza, zaxira, front, bellashuv, ov, uloqtirish, nishon, temir plug, qabila. harbiy san’at.

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar**

1. Peloponnes urushida harbiy san’atning rivojlanishi haqida tushuncha bering
2. Miloddan avvalgi 327 yilda Makedoniya armiyasi to‘g‘risida nimalar bilasiz?
3. Miloddan avvalgi 331 yildagi Gavgamela jangi haqida fikringiz?
4. Makedoniyalik Iskandar kavaleriya taktikasi

### **Talabalarni mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar**

**Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o‘z fikr-mulohazalaringizni bildiring, “Mustaqil ish” yozing:**

1. Texnikaga umumiy tavsif
2. Ibtidoiy jamoa tuzimida harbiy tarbiyaning rivojlanishi.
3. Insoniyatning vujudga kelishi jamiyat taraqqiyotida mehnat va harbiy san`atning moxiyati.

### **Bilimlarni mustahkamlash uchun test savollari**

**1. Qurshovga olishda quldorchilik tizimida qanday qurollardan foydalangan?**

A. Kamon

B. Taran

V.Nayza

G.Sopqon

D. Hamma javoblar tyag`ri

**2. Shaharni dushmandan himoya qilishda quldorlik tizimida qanday to'siqdan foydanilgan?**

A.Xandak qazilgan

B.Uyum bilan to'silgan

V.CHuqur qazilgan

G.Xamla ishlatilgan

D. Hamma javob to'g`ri

**3. Quldorlik davrida qaysi davlat mustahkam himoyaga ega bo'lgan?**

A.Misrliklar

B.Greklar

V.Makedonlar

G.Rimliklar

D.Hamma javob to'g`ri

**4. Quldorlik tizimi davrida Rimlik ritsarlar yorib o'tishda qanday taktikadan foydalangan?**

A.Taran

B.Ballist

V.Toshbaqa

G.Katapulta

D.Hamma javob to'g`ri

**5. Quldorlik tizimida greklar armiyasining asosiy birligi qanday ko'rinishda bo'lgan?**

A.Toshbaqa

B.O'rgimchak

V.CHayon

G.Ilon

D.Hamma javob to'g'ri

**6. Quldorlik tizimida armiyada nechta turdagi qo'shinlar bo'lgan?**

A.2 turdagi

B.3 turdagi

V.4 turdagi

G.5 turdagi

**7. Qadimgi Gretsiyada nayzaning uzunligi necha metr bo'lgan?**

A.2 metr

B.4 metr

V.6 metr

G. 5 metr

D. Hamma javob to'g'ri

**8. Qadimgi Gretsiyada o'rgimchak qo'shini nechta lashkardan iborat edi?**

A.6000 lashkardan

B.7000 lashkardan

V.8000 lashkardan

G. 9000 lashkardan

D.Hamma javoblar to'g'ri

### **Adabiyotlar:**

1.Kochkarov.A.K., Sotvoldiev. A.YU., Durmenov.SH.N. Harbiy tarix-T 2017 yil

2.M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005. 118 bet.

3. Sh.Akramova. Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: O'zR MG HTI, 2018 y. - 44 b.

4.M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2006. 190 bet.

### III BOB. QADIMGI RIMDA HARBIY TAYORGARLIK

#### 3.1. Qadimgi Rimning harbiy san'atini rivojlanishi

Rimning vujudga kelishi Miloddan avvalgi 754 yilga (yoki 753 yilga) to'g'ri keladi. Rim davlati o'zining dastlabki uch asri (Miloddan avvalgi VIII-VI asrlar), shohlar davri deb ataladigan davr mobaynida Rim jamiyati urug'chilik tuzimining chirib borishi va patriarxat quldorlik munosabatlarining rivojlanish bosqichini boshidan kechirdi.

Shohlar davrida harbiy demokratiya sharoitida harbiy ish bilan bog'langan va o'z ildizlari bilan urug'chilik tuzumi taraqqiyoti davridagi an'anaviy xalq o'yinlari va bayramlariga borib taqaladigan ko'pgina jismoniy madaniyat elementlari keng rivoj topdi. Qadimgi Rim yodg'orliklari, rimliklar o'rtasida harbiy yo'nalish yaqqol ifodalangan ko'psonli bayramlar, o'yinlar va raqslarning tarqalganligi tog'risida ko'pgina dalillar bo'ldi. Suvorilarning kelib chiqishi chalkashib ketgan (labirent) yo'llarida musobaqa o'tqazishidan iborat bo'lgan bu oyinlar troyan o'yinlari deb atalar edi. Troyan o'yinlari qadimgi Rim uchun harakterli bo'lgan o'yinlardan biriga aylangan. Bu o'yin urush vaqtida odatda otliqlar otryadli tashkil etadigan. Rim urug'chilik zadogonlari (partitsiyalar) uchun ayniqsa harakteri edi. Qo'sh g'ildirqli aravada yurish ko'psonli harbiy raqslar, nayza uloqtirish, mushtlashish, kurash va boshqa mashqlar ham keng tarqalgan edi. Jismoniy madaniyatning qadimgi elementlari quldorlik Rimdagi harbiy jismoniy madaniyatning o'ziga xos tuzimining asosini tashkil etar edi.

Rimda harbiy tizimi quldorlar armiyasi qudratini mustahkamlash vazifalariga muvofiq ravishda qaror topdi. Rim Respublika davrida qaror topgan siyosiy tuzimida, ijtimoiy xokimiyat harbiy xukumatini o'tishiga majbur bo'lgan fuqoralar qo'lida bo'lgan bir shariotda har bir erkin va teng huquqli rimlik o'zini askarlik faoliyatiga tayyorlash kerak edi. Bu vazifalarining xal etilishi uchun maxsus madaniyat muassasalari tashkil etilgan. Qadimgi Gresiyadan farqli ravishda Rimda madaniyat ishi uyda beriladigan madaniyatviy harakterga ega edi. Rimlik yigitlar armiya safiga kirgo'ncha oilada, o'z tengdoshlari orasida bular edi. Ko'psonli eski xalq o'yinlari va mashqlari ularni jismoniy jihatidan madaniyatlash vositalari edi. Katta Yoshdagi bolalar asosan yugurish, irg'itish, kurash, qilichbozlikdan mashq qilar edilar. Patriitsiyalar oilasidan chiqqan bolalar otda yurishini mashq qilishga ko'p vaqt ajratar edilar.

Rimlik yigitlar oilada dastlabki jismoniy tayyorgarchilikni yetarli darajada olganliklarida keyin 16-17 Yoshlarda armiya safiga kirar edilar. Armiya safida ular o‘zoq yillar davomida qa‘ttiy paxodlagerlar sharoitida uyushtirilgan va maxsus maqsadga yo‘naltirilgan harbiy va jismoniy maktabni o‘tar edilar.

### **3.2.Mariya isloxati davrida harbiy va jismoniy tayorgarlik**

**Mariya isloxati.** Bunday madaniyat sisteamsi Rimda Miloddan avvalgi II asrgacha Mariya islohati bilan porefssional armiyaga asos solingan davrgacha saqlanib qoldi. Jismoniy mashqlar o‘yinlar musobaqalar qadimgi rimliklarning butun hayotiga singib ketgan edi. To‘p bilan o‘yinaladigan turli o‘yinlar g‘oyat darajada ommalashgan edi. Unday o‘yinlar ham patritsian –aslzodalar orasida ham plebslar orasida tarqalgan edi.

Rimliklar hayotida rim tarixining mashxur sanalariga va turli diniy bayramlariga moslab o‘tqazilgan ko‘p sonli jamoat o‘yinlari katta o‘rin to‘tar edi. Rimda jamoat o‘yinlarini o‘tqazish uchun Miloddan avvalgi IV asrdayoq podsho Trakvini Prisk tamonidan katta sirk qurilgan edi. Keyinroq Miloddan avvalgi Sh asrda ikkinchi sirk Flaminitlar sirki qurilgan edi.

Rim o‘yinlari patritsiin aslzodalarning bayram xisoblangan eng qadimgi o‘yinlar eng ommalashgan sirk o‘yinlari qatoriga kirar edi. Miloddan avvalgi VI asrdan boshlab Respublika o‘rnatilganligidan keyin plebey o‘yinlari keng tarqaldi. Miloddan avvalgi V asrdan boshlab uch kechayu uch ko‘nduz davom etgan, yuz ellik o‘yinlar zo‘r dabdaba bilan o‘tqazila boshlandi. Bu o‘yinlarni Valeriy Noplikoloyu yaratgan bo‘lib yuz yilda bir marta uyushtirilar edi.



**Qo‘shg‘ildirakli aravada mashqlar bajarish.**

Bu o'yinlar dasturiga musobaqalarning ko'pgina turlari kirar edi. O'tliqlar musobaqalari va qo'l g'ildiraqli aravada chopish eng sevimli o'yinlaridan biri edi. Ko'pgina o'yinlar dasturiga kurashchilar, yuguruvchilar, mushtlaShuvchilarning musobaqalari ham kiritdilar.

Vaqt o'tishi bilan, Gresiya bilan ancha mustahkam aloqalar o'rantishshi sari Rimga yunon ta'sirlari kirib kelaboshladi. Bu ta'sirlar ma'lum darajada harbiy jismoniy madaniyatga ham aloqador edi. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Rimdagi bir qator siyosiy va jamoat arboblari yunon atletika musobaqalarning rimliklar sharoitiga ko'chirishga harakat qilib ko'rdilar. Lekin ularning bu harakatlari muvoffaqiyatga erishmadi. Miloddan avvalgi 80 – yillarda, Gresiyaning Rim tamonidan bosib olinishi bilanoq qonsul Sulli yunon olimpiya o'yinlarini Rimga ko'chirishga o'rinib ko'rdi. Uning bo'yrug'iga muvofiq, 175-olimpiya o'yinlari Rimda o'tqazilishi kerak edi. Lekin bu o'rinish ham rimliklar taomnidan quvvatlanmadi, Shuning uchun navbatdagi olimpiya o'yinlari (Miloddan avvalgi 76-yilda) qaytadan olimpiyada o'tqazildi.

Davrlar o'tishi bilan ayniqsa Miloddan avvalgi II-I asrlarga kelib, ko'pgina jamoat bayramlarida qadimgi Rim an'anaviy o'yinlari bilan birgalikda asta-sekin o'zlarining dastlabki ahamiyatini yo'qotib, hukumron aslzodalar to'dasi tamonidan o'zining sinfiy maqsadlari yo'lida keng foydalanadigan tamoshalariga aylanib ketdi. Traditsion jamoat bayramlari va o'yinlarining bunday tamoshaga aylanib ketish jarayoni Respublika davridagi Rimning ijtimoiy –siyosiy hayotida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'liqdir. Butun Rim tarixi, patritsiylar va plebeylar o'rtasidagi lavozimlarda o'tirish va davlat yerlarini egalash uchun olib borgan kurash bilan to'lib toshgan edi. Bu kurash natijasida patritsiy aslzodalar harbiy xizmat tufayli qashshoqlashib ketgan plebey-dehqonlarning barcha yerlarini asta-sekin egallab olgan yangi yirik yer egalari borgan sari ko'proq, kirib borar edi.

Mayda yer egalari ommasi yil sayin ko'payib borayotgan lyupen-proletarlarga aylanardi. Miloddan avvalgi II asrdayoq proletariotga aylangan kishilarning katta olomoni Rim shaharlarining to'ldirib yuborgan edi. Hokimiyat uchun kurash olib borayotgan hukumron aslzodalarning turli guruhleri proletarlashgan, o'z sinfidan tamomila aloqasini uzgan, bu ommadan o'z maqsadlariga erishish yo'lida foydalanishga harakat qiladilar. Ular sadaqa berish va hushomadgo'ylik qilish yo'li bilan siyosiy kurashda o'zlariga jalb etishga

erishar edilar. Eski an'anaviy jamoa bayramlari asosida ommaga tantanali tamoshalar tashkil etish ommasiga hushomadgo'ylik etish shakillaridan biri edi.

Tomoshani tashkil etuvchilar tomoshalarni uyushtirish vaqtida an'anali qadimgi rim o'yinlari dasturi bilangina cheklanib qolmasdan, tomoshalarning yangi, ancha o'tkir elementlarini, bebosh olomonning diqqatiga jalb etadigan elementlarni topishga harakat qilar edilar. Miloddan avvalgi II asrda vujudga kelgan ancha yaqqol yangi o'yinlardan biri gladqatorlar jangi bo'lib, keyinchalik u Rim tomoshalarining asosiy elementlaridan biriga aylanib qoldi. Datlabki vaqtlarda bayram kunlari ayrim gladqatorlar (qullar) sirk maydonlarida chiqar edi; so'ngra ularning musobaqalar ommaviy harakter kasb etdi. Agar qadimgi Rim sirk o'yinlarida otliqlarning musobaqalarida, qo'sh g'ildiraqli aravalarda, yugurishlarda va hokazolarda quldorlarning o'zlari qatnashgan bo'lsa, qonlik gladqatorlik janglarida esa o'yinlarni tashkil etuvchilar qilichbozlik sa'natini yaxshi egallagan qullardan foydalanar edilar.

### **3.3.Gladqatorlar maktablarining tashkil etilishi**

**Gladqatorlar maktabi.** Miloddan avvalgi I asr Rimda gladqatorlarni tayyorlash uchun maxsus maktablar tashkil etila boshlandi. Bu maktablar ham xususan shaxslar, ham davlat tamonidan tashkil qilinardi. Bu maktablarga odatda biror qonuhi uchun huqum qilingan qullar tanlab olinardi. Bu maktablarda qullar tajribali yuriqchilar rahbarligida qurollarning turli shakillaridan qilichbozlik qilishni o'rganardi edilar. Epchiliqning o'sishiga va chiroyli harakatlarning rivojlanishiga katta e'tibor berilardi edi. Zarurligiga qarab, tomoshalarining tashkilotchilari maktab egalaridan ma'lum to'lov badaliga gladqatorlarni olardi edi. Sirk maydonida yoki amfiteatrlarda olishuvda omon qolgan gladqatorlar yana maktab ixtiyoriga qaytib borardi edi.

Gladqatorlarning maktablarda qullarni ekspulatsiya (ezizh) qilishining nihoyat darajada qattiq shakillari mavjud edi. Lekin bu maktablarda qo'llarni birlashtirish uchun eng yaxshi sharoit ham bor edi. Shuning uchun gladqatorlarning maktablari ko'pincha qullar qo'zg'olonning o'chog'i xisoblanardi edi. Rim tarixidagi qullarning gladqator Spartak boshchiligida ko'tarilgan eng yirik qo'g'olon Kapus shahridagi maktab gladqatorlarning qo'zg'oloni bilan (Miloddan avvalgi 73 yilda) boshlangan edi. Bu qo'zg'olon juda katta qullar ommasini harakatga keltirdi. Rim quldorlik davlati qullarga qarshi kurashish uchun o'zining barcha kuchlarini safarbod etishga majbur bo'ldi. Qo'zg'olon shafqatsizlik bilan

bostirildi, lekin u quldorlik tuzimi asoslarini larzaga keltirishda imkon bergan qullar inqilobining boshlanishiga sabab bo'ldi.

Quldorlar tuzumining chirish jarayoni Rim imperatorligida davom etidi. Yemirish alomatlari Rim ijtimoiy va madaniy holatining barcha sohalarida, Shujumladan, jismoniy madaniyat sohasida ham borgan sari ko'proq darajada namoyon bo'la boshladi.

Professional armiyaga o'tilishi, xuddi Gresiyadagi singari, quldorlarning ilgari qaror topgan harbiy – jismoniy madaniyati qattiq tizimining tushkunligiga sabab bo'ladi. Mol-ko'lhiliq noz-ne'matlariga ko'milib qolgan quldor aslzodalar jismoniy tarbiya vositalari xazinasida o'zlari uchun faqat nozik badan ehtiyojlarining qondiradigan elementlarigina saqlab qoldilar. Maxsus qurilgan xashamatli termlardan (cho'miladigan joylarda)gi iliq suvda cho'milish eng sevimli mashg'ulot bo'lib qoldi; termlar joylashgan binolarda uqalash qiladilar, yengil gimnastika mashqlari bajaradilar va to'p o'yinlari o'ynar edi.


Tomoshalarning yanada rivojlanishi imperiya davrida Rim jismoniy madaniyati uchun ayniqsa harakterli edi. Tomoshalarning yanada rivojlanishi tomoshalar soni va ko'laming oshishi yo'li bilangina emas, balki ular harakterlarining o'zgarishi bilan ham-olomonning yaramas niyatlarini qo'zgotadigan dastlabki ovonchoqqlariga aylanishi yo'li bilan ham bordi.

### **3.4. Imperatorlik davri**

**Imperatorlik davri.** Imperatorlik davrining boshlariga kelib (Miloddan avvalgi I asrning dastlabki yillarida) tomoshalar jami bo'lib yiliga 66 kun o'tqazilar edi. Eramizning II asri o'rtalarida ular uchun endi 135 ko'n, IV-asr yarmida 175 kun ajratilar edi.

Sirk o'yinlari ko'laming yanada kengayib borishi bilan bir qatorda (asosan qo'sh g'ildiraqli aravalarda chopish) gladqatorlik janglari ham goyat katta ko'lamda rivojlandi. Gladqatorlik o'yinlarini o'tqazish uchun maxsus inshoyatlar-amfiteatrlar qurilgan edi. Bu inshoyatlardan kattasi eramizning I asrida qurilgan Kolizey amfiteatri edi; bu amfiteatrining vayronalari Rimda hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan.





### **Qadimgi Rimdagi katta amfiteatr Kolizey**

Amfiteatr maydonlarida olomonning vaqtichog‘ligi uchun yuzlab gladqator jang qilar edi. Maydonda chinakam jang bo‘lib, ularda faqat piyoda gladqatorlarga emas, balki otliq gladqatorlar ham qatnashar edi. Uddaburon o‘yin tashkilotchilari bu o‘yinchilarga qanoat qilmasdan, gladqatorlarning yirtqich hayvonlar bilan jang qildirar edi. Tomoshaning bu turi Rimda birinchi marta Miloddan avvalgi II asrlardayoq paydo bo‘lgan edi, lekin imperiya davrida juda keng ko‘lamda tarqalgan edi. Maxsus kavlangan katta qullarda o‘tqaziladigan dengiz janglari qonli gladqatorlik janglarining alohida turi edi. Avgust tamonidan tashkil etilgan ana Shunday janglardan birida 19 ming gladqator qatnashgan edi.

Tomoshalarning barcha bu turlari “mag‘rur Rim” tashqi go‘zalligining va shu bilan birga, Rim quldorlik jamiyati eng chuqur ichki tushko‘nligi, xo‘no‘q chirishining yorqin yoki yaqqol ifodasi bo‘lib, ularda qatnaShuvchilar o‘z xo‘jayinlarini ixtiyorlari bilan qonli oliShuvlarda bir-biriga qarshi chiqish uchun maxsus jismoniy tayyorgarlikni o‘tashlari lozim edi.

Shu bilan birga ayni bir vaqtda Rim hukumron doiralari yunon namo‘nalari zaminidagi atletika musobaqalaridan Rim sharoitida mustahkamlab qolishiga erishish uchun ozmo‘ncha harakat qilmadilar. Imperator Avgust Rim Aksaum g‘alabasi sharafiga har turt yilda bir marta o‘tqaziladigan “aktineya” atlantika o‘yinlarining ta’sir etishiga o‘rinib ko‘rdi. Lekin bu o‘rinishi muvoffaqiyat qozanmadi. Neron eramizning 60-yilida qo‘sh g‘ildiraqli aravalarning chopishidan va atletlarning musobaqalaridan iborat bo‘lgan “neroniya” bayramini tashkil qildi. 86-yilda kapitoliy o‘yinlarini ta’sis etgan imperator.

Domikaning urinishi ancha o‘rinli bo‘lib chiqdi; bu o‘yinlar Rim imperiyasi tugatilgo‘ncha yashab keldi. Atletika musobaqalaridan kurash va mushtlashish musobaqalari ancha keng ommalashgan edi.

IV asrda Rimda xristian diniy davlat tamonidan quvvatlana boshlandi. Chernov ta’siri asta-sekin davlat va jamoa hayotining barcha sohalariga tarqaldi. Cherkov o‘z hukumronlik ahvolini mustahkamlashga halaqit beradigan. Rim an’analariga qarashi aktiv kurash olib bordi. Cherkov Rim tomoshalariga ayniqsa qonlik gladqatorlik janrlariga qarshi chiqdi. Tomoshalarning qiskiliq ahloqiy meyorlari elementlariga zid kelganligi uchungina emas, balki ularning ommaning o‘ziga jalb etib, cherkov ta’sirining yanada tarqalishi va mustahkamlashishiga to‘siq bo‘lganligi uchun ham tomoshalarga qarshi kurash olib bordi.

Buning natijasida IV asrdayoq gladqatorlar o‘yinlarining ko‘lami va soni kamaya boshladi, 404 yilda esa ular tomomila ta’qiqlandi.

Lekin cherkov rimliklar hayotiga mustahkam kirib qolgan tomoshalarni darhol tugatishga qadur emas edi. Rim olomoni Rim davlatining yemirilishiga qadar tomoshalar ko‘rsatilishini talab qilib keldi va ular ko‘rishga muvofiq bo‘ldi. Biroq bu tomoshalar endi asosan qo‘sh g‘ildiraqli aravalarning sirkda chopishi va professional kurashga hamda mushtlaShuvchilarning chiqishlari bilan cheklangan edi.

Qachonlardir qudratli bo‘lgan Rim quldorlik davlati ichki ziddiyatlar tufayli ichidan zil ketib, har jihatdan bosib kelayotgan varvar qabilalarning hujumiga bardosh bera olmadi. 476 yilda Gharbiy Rim imperiyasining hukumronligi tugatildi. Bu tuzum o‘rniga yangi ijtimoiy to‘zum, quldorlik mo‘nosabatlariga nisbatan yangi, ancha progressiv feodal ishlab chiqarish mo‘nosabatlari vujudga keldi.

Qadimgi Rim armiyasining tashkil etilishi. Rim davlati qadimgi dunyo davlatlari ichida eng qudratlisi xisoblangan. Rim armiyasining harbiy san’ati xam qadimgi dunyoning harbiy san’ati ichida yuqori darajadagi rivojlanish ko‘rinishida edi. To‘xtovsiz bosqinchilik urushlari ko‘p sonli qullarni yig‘ishga olib keldi. Rim quldorlari qullarga qarshi kurashish va tashqi urushlarni olib borish uchun doimo shay bo‘lgan kuchli va ko‘psonli armiya yaratdilar.

Ma’lumotlarga qaraganda Rimga Miloddan avvalgi 753 yilda asos solingan va o‘z mavjudligining birinchi asrlarida kichik bir shaxar ko‘rinishida edi. Rim Appenen yarim orolining markazida joylashgan bo‘lib, muxim strategik mavqeni egallagan.

Miloddan avvalgi VI asrda Yunonistonda bo‘lgani kabi Rimda xam xamma fuqarolarni mulklarining qiymatiga qarab besh toifali mulkdor guruxlarga bo‘luvchi isloxotlar o‘tkazilgan. Axolining eng boy qatlami armiyaga chavandozlarni va og‘ir qurollangan piyodalarni (*legionerlarni*) etkazib bergan. Kambag‘allar (beshinchi toifa) - engil qurollangan piyodalar bilan armiyani ta‘minlagan. Beshinchi toifaga xam kiritilmagan fuqarolar proletariya deb atalgan. U xizmatga jalb qilinmagan, agar davlatga qarshi xavf kuchayib ketsagina xalq lashkarlari safiga chaqirilgan va davlat tomonidan qurol-yarog‘ va oziq-ovqat bilan ta‘minlanganlar.

Beshta toifaga kiruvchi xamma fuqarolar 17 Yoshdan 45 Yoshgacha dala qo‘shinlarida xizmat qilishga majbur bo‘lganlar. Ulardan katta Yoshdagi fuqarolar garnizon xizmatini o‘taganlar. Qullarga armiyada xizmat qilishga ruxsat etilmagan.

Miloddan avvalgi VI asrning oxirida podsho xukmdorligi bekor qilindi va Rim respublika bo‘ldi. Podsho bir xil xuquqqa ega bo‘lgan ikkita *konsulga* almashtirildi, ular bir yil muddatga saylanadigan bo‘ldilar.



**Legioner**

Miloddan avvalgi IV asrda Rim dala armiyasi to‘rtta legiondan iborat bo‘lgan, ular ikkita konsul armiyasini tashkil etgan. Xar bir konsul ikkita legionga qo‘mondonlik qilgan, qachonki ikkita armiya birlashsa konsullar Generallik armiyalarga navbatma-navbat qo‘mondonlik qilganlar: birinchi kun birinchi konsul, ikkinchi kun ikkinchi konsul armiyani boshqargan.

*Legion* 4200 piyodalar va 300 otliqni o‘z ichiga olgan. Eng Yosh va kambag‘al jangchilar engil piyodalarni (*velitlar*) tashkil etganlar va ularning qurollari kalta

qilichlar, xar birining uzunligi 2 m bo'lgan 6 tadan drotiklarni tashkil etgan.

Undan tashqari, kamonlari, zaxira o'qlari va toshlarni uloqtirish uchun esa palaxmonlari bo'lgan. Velitlarning soni 1200 jangchini tashkil etgan, ular legionning saf xisobiga kirmaganlar.

Yoshi va mulkiy xolati bo'yicha keyingi jangchilar guruxi *gastatlar* (hastatinayzachilar) deb atalgan va kalta qilichlar, og'ir va engil uloqtiriladigan nayzalar (pilum) va to'liq ximoya qurollar bilan qurollanganlar. Gastatlar qalqonlarga, temir dubulg'alarga ega bo'lganlar, tanani ximoya qilish uchun teridan tayyorlanib, temir parchalari tikilgan sovut xizmat qilgan. Legionerlar oyoqlariga uch qismi ochiq bo'lgan teri etiklar kiyib yurganlar, barmoqlari ochiq bo'lgan. Ularning xam soni 1200 kishini tashkil etgan.

Uchinchi gurux - *prinsiplar* (prihicipes) xuddi gastatlardek qurollanganlar. Ularning xam 1200 kishini tashkil etgan.

Eng Yoshi katta va tajribali jangchilar triariyalar (triarii) deb atalgan. Legionda triariyalarning soni 600 kishini tashkil etgan.

Xar bir jangchi qurol-yarog'ni o'z xisobidan sotib olgan. Rimliklarda harbiy intizom jangchi o'zining fuqarolik burchini anglashiga emas, balki majburlashga asoslangan. Bo'ysunmaslik qattiq jazolangan, xatto buning uchun jangchi qatl etilgan. Mukofot sifatida faxriylarga o'ljalardan tashqari er berilgan.

Piyodalar safida yigirmata harbiy yurishda yoki otliq otryadlar safida o'nta harbiy yurishda qatnashgan shaxslar harbiy xizmatdan ozod qilinganlar.

O'sha davrdagi Rim armiyasida qo'shinni to'ldirish militsiya usuli bo'yicha amalga oshirilgan, u urush olib borish uchun yig'ilgan, urushning tugashi bilan tarqatib yuborilgan va faqat jangchilarni harbiy ishga o'rgatish uchun yaratilgan.

Rim jangchisining asosiy quroli, o'ng sonining ustida taqib yuriladigan pilum va qilich bo'lgan. Ikki tomoni xam o'tkirlangan qilichning uzunligi 0,5 m atrofida, kengligi 4-7 sm ni tashkil etgan va krestsimon dastasi bo'lgan. U bilan sanchish va chopish mumkin bo'lgan. Pilum - kalta (uzunligi 2 m atrofida) va og'ir (4-5 kg) nayzadir.

Tashkiliy tarkib jixatidan legion avval *senturiyalarga* bo'lingan, jangda senturiyalar taktik mustaqillikka ega bo'lmagan. Senturiya odatda 60 kishini o'z safiga olgan, triariyalar senturiyalari 30 kishidan iborat bo'lgan.

Senturiyaga senturion qo‘mondonlik qilgan, u janglarda o‘zini ko‘rsatgan jangchilardan tayinlangan. Senturion intizomiy xuquqqa va katta obro‘ga ega bo‘lgan.

Miloddan avvalgi IV asrda Rim O‘rta Italiyani egalladi, Miloddan avvalgi III asrning boshlarida esa Janubiy Italiyani bosib oldi. Armiyada isloxotlar o‘tkazildi. Jangchilarga maoshlar tayinlandi, uning xisobidan kiyim-bosh, qurol-yarog‘ va oziq-ovqatlar berilgan. Bu xol mulkdorlar va mulksizlarning axvollarini tenglashtirib qo‘ygan, bu bir xil namunadagi qurollarni kiritish uchun muxim axamiyatga ega bo‘ldi.



### **Triariyalar va prinsiplar**

Harbiy isloxotlarni o‘tkazish legionlarni qayta tuzish va uning tarkibini yaxshilashni talab etdi. Xar bir legion 10 ta *manipulaga* (lotinchadan *mahis* - inson qo‘lini tasvirlash - komandirning belgisi, mahipulis - nayzaga ildirilgan bir bog‘ beda tepaga ko‘tarilgan va shaxsiy tarkibning yig‘ilish joyini bildirgan) bo‘lingan. Manipula og‘ir qurollangan 120 legionerlardan tashkil topgan (front bo‘ylab 12 kishi, teranlik bo‘yicha 10 kishi). Manipulalarning birinchi chizig‘ini Yosh jangchilar (gastatlar), ikkinchi chizig‘ini esa tajribali jangchilar (prinsiplar) tashkil etgan. Manipulalarning uchinchi chizig‘ini 60 kishidan iborat bo‘lgan faxriy jangchilar tashkil etgan.

Manipula ikkita senturiyaga bo‘lingan. Birinchi senturiyaning komandiri manipulaning komandiri xisoblangan. Manipulalar oralig‘idagi intervallar uning front bo‘yicha uzunligiga teng bo‘lgan.

Manipulalarning joriy etilish manipulyar taktikani boshlab berib, harbiy san‘at rivojining muxim bosqichi bo‘ldi. Legionni taktik birliklarga (manipulalarga) bo‘linishi uni ancha xarakatchan, boshqariluvchan, jangni xar qanday joylarda (tekisliklar va baland-pastliklarda) olib borish qobiliyatiga ega qilib, manyovrni amalga oshirish va zarbani ichkaridan kuchaytirish imkoniyatini oshirdi.




Miloddan avvalgi III asrda olib borilgan keyingi isloxotlar natijasida manipulalarni bir xil namunadagi qurol-yarog‘ bilan to‘ldirishni ta‘minlash joriy qilindi. Legionda manipulalarning soni 10 tadan 30 tagacha oshirildi. Undan tashqari, xar bir legion 10 ta otiqlar «*turm*»lariga ega bo‘lgan, xar bir turmda 30 chavandoz bo‘lgan. Legionda xammasi bo‘lib 4500 jangchi, Shu jumladan 1200 engil qurollangan velitlar va 300 chavandozlar bo‘lgan.

Legionning jangovar tartibi, xar biri 10 tadan manipulaga ega bo‘lgan uchta chiziqdan tashkil topgan. Manipula 10 sherengada, 12 qatorda qurilgan. Ikkinchi chiziq manipulalari birinchi chiziq intervallarining orqasiga joylashgan (shaxmat tartibida). Manipulalarning chiziqlari o‘rtasidagi oraliq masofa 15 m dan 25 metrgacha bo‘lgan.

Xar bir manipula o‘z belgisiga ega bo‘lgan - kumush bilan bezatilgan uzun yog‘och dasta, ayrim xollarda material bo‘lakchasi bo‘lgan. Legionning belgisi uzun yog‘och dastaga qotirilgan kumush burgut bo‘lgan. Xamma qo‘shinlar qo‘mondonining qizil bayrog‘i bo‘lgan.

Birinchi chiziq manipulalari dushmanning jangovar tartibiga suqulib kirishga xarakat qilgan, ikkinchi chiziq manipulalari ularning xarakatlarini qo‘llab-quvvatlab turgan va front orti xavfsizligini ta‘minlagan; uchinchi chiziq manipulalari zaxira vazifasini bajargan, kerakli vaqtda jangga kiritilgan va g‘alabaga erishishda xal qiluvchi axamiyat kasb etgan.



### **Millidan avvalgi III asrdagi Rim legionining jangovar tartibi**

Jangda bu saflarning bir joydan ikkinchi joyga qayta saflash mukammal tayyorgarlikni talab etgan. Shuning uchun rimliklar legionerlarning jismoniy tayyorgarligiga va saf ko‘nikmalariga katta e‘tibor berganlar, ularni sapyorlik ishiga va otiqlar bilan kurashish qoidalariga o‘rgatganlar. Legionerlarni jismonan chiniqtirish va

ular da chidamlilikni tarbiyalash maqsadida o'quv anjomlari va qurollari jangovar anjomlar va xaqiqiy qurollardan og'irroq qilib yasalgan. Legionerlarning mashq safarlari to'liq anjomlar va qurollar bilan bir sutkada 30-35 km masofaga amalga oshirilgan. Tayyorgarlikni tugatish va tekshirib ko'rish maqsadida ikki tomonlama manyovrlar o'tkazilgan.

Rimliklar mustaxkam ximoyalangan lagerlar qurishga katta e'tibor berganlar. Rim qo'shinlari xar bir kunduzgi safardan keyin mustaxkam lagerlar yaratganlar. Qo'shından oldinga jo'natilgan setrionlar lager qurish uchun joy tanlaganlar va uni jixozlaganlar. Mudofaa uchun yaxshi pozitsiya, qo'riqlash uchun qulay, suv, o'tin va otlar uchun emishning yaqin bo'lishi - bular rimliklar lageri uchun joy tanlashdagi asosiy talablardir.

Lagerning xamma tomonida katta darvozalar o'rnatilgan. Uning atrofida keng va chuqur xandaq qazilgan va tuproqdan devor yaratilgan. Bular xammasi rimlik jangchidan katta jismoniy va ruxiy qat'iylikni talab qilgan. Qadimgi Rim sarkardasi Komill, Shuxrat, mexnat va qurol rimliklarning dushman ustidan qozonadigan g'alabalarining vositasidir, degan edi.

To'xtovsiz mashqlar natijasida Rim legionerlari tezlik bilan lager yaratganlar va tezkorlik bilan undan chiqqanlar. Ertalab birinchi signaldan keyin jangchilar chodirlarni yig'ishtirganlar, ikkinchi signal bo'yicha xamma anjomlari va narsalarini tugib qo'yanlar, uchinchi signal berilishi bilan tashkiliy ravishda safarga yoki jang uchun safga yig'ilganlar.

### **3.5.Rim lagerining rejasi**

Armiyada intizomni qo'llab-quvvatlab turish uchun jazolash va rag'batlantirish tizimi ishlab chiqilgan edi. Qo'rzoqlar va betamizlarni jazolaganlar, botirlik uchun mukofotlaganlar. Urrib jazolash keng qo'llanilgan. Buyruqni bajarmaslik, qo'rzoqlik va o'zboshimchalik uchun o'lim jazosi berilgan. Butun boshli bo'linma tomonidan shunday harbiy jinoyatlar sodir etilsa qur'a tashlash yo'li bilan xar o'nta jangchidan bittasi o'ldirilgan (*detsimatsiya*).

Rim armiyasi to'g'risida so'z borganda, G.Delbryuk Shunday ta'kidlagan edi, qattiq ma'muriy xokimiyat intizomning ildizi bo'ldi, intizom daraxtida - manipulyar taktika va lagerlarni doimiy, rejaga asosan mustaxkamlashdek mevalar unib chiqdi.

Rim legionining manupulyar safi Yunoniston falangasining to'liq aksi bo'ldi. Legion safining tarkibiy qismlari yuqori xarakatchanlikka ega bo'ldi, bu bilan u beso'naqay falangadan ustun bo'ldi. Legion xarkatlanish va manyovrni tezlik bilan amalga oshira olardi. Rim legionining asosiy ustunlik tomoni - uning bir nechta chiziqqa saflanishidir. Legion jangovar tartibining ikkinchi va uchinchi chiziqlari odatda qo'llab-quvvatlash va ko'p xollarda zaxira uchun qo'llanilgan. Makedoniya armiyasi faqat ayrim xollarda qo'llagan jangovar tartibning ikki chizig'i, Rim armiyasida tashkiliy jixatdan mustaxkamlandi va rivojlantirildi. Endi jangni borishini boshqarish sarkardalarning qo'llarida edi.

Rimliklarda qal'alarni qamal qilish texnikasi keng rivojlandi. Qal'alarni qamal qilishda *ballistalar*, *katapultalar* (manjaniqlar) va taranlar (qo'rg'on va qal'a devorlarini buzish uchun ishlatiladigan qurol-ko'chma minoraga uchi o'tkirlab osilgan yog'och) qo'llanilgan.

Qal'alarni shturm qilishda piyodalar odatda «toshbaqa» va ko'chma minoralarni qo'llaganlar.

Puni urushlarida harbiy san'atning rivojlanishi. Miloddan avvalgi III asrning birinchi yarmida Karfagen qudratli davlatga aylandi. Karfagen shaxri Afrikaning shimoliy qirg'oqbo'yida, Tunis ko'rfazi yarim orolida joylashgan. Ma'lumotlarga qaraganda, Karfagenga Miloddan avvalgi 814 yilda qirg'oqbo'yini finikiyaliklar tomonidan mustamlakaga aylantirilishi vaqtida asos solingan. Shimoliy Afrikaning qirg'oqbo'yi chizig'ida katta er mulkiga ega bo'lgan Karfagen davlati, Sitsiliya va Pireney yarim orolining katta qismida o'z mavqeini o'rnatishga muvaffaq bo'ldi va O'rta Er dengizining g'arbiy qismida o'z xukmronligini ta'minlashga erishdi. Rim respublikasi uchun jiddiy dushman paydo bo'ldi.

Karfagenliklar qudratli flot yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Karfagen qo'shinlari yollanganlardan iborat bo'lib, piyodalardan, otliqlardan tashkil topgan xamda armiya safida jangovar aravalar va fillar bo'lgan. Afrika qabilalari yaxshi tayyorlangan engil otliqlarni (Numidiya otliqlari) etkazib berganlar.

Karfagen qo'shinlarining jangovar tartibi odatda uch qismdan tashkil topgan: o'ng va so'l qanotlar (Numidiya otliqlari) va markazni tashkil etuvchi asosiy kuchlar (qolgan xamma qo'shinlar).



Rim va Karfagen xukmdorlarining bosqinchilik siyosati Sitsiliyada, keyin esa butun g'arbiy O'rta Er dengizi xavzasida xukmronlik qilish uchun kurashga olib keldi.

Rimliklar karfagenliklarni *punilar* deb ataganlar, shundan keyin Karfagen bilan xamma urushlar Puni urushlari deb yuritila boshlandi.

Birinchi Puni urushi (Miloddan avvalgi 265-242 y.) o'zgaruvchan muvaffaqiyat bilan o'tdi va mag'lubiyatga uchragan Karfagenning Rim bilan sulx tuzishi asosida yakunlandi. Birinchi Puni urushlari strategiyasining xususiyati O'rta yer dengizining g'arbiy qismida xukmronlik qilish uchun kurash bo'ldi. Bu urushning oqibatini rimliklarning dengizdagi g'alabasi xal qildi.

Karfagen o'sha zamonning eng takomillashgan kemalariga va tajribali ekipajlarga ega bo'lgan obro'-e'tiborli davlat bo'ldi. Lekin Rim kemasozlari abordaj ilmoqlarini va dushman kemalarini ildirib ularga o'tish uchun narvonlarni o'ylab topdilar va ular yordamida legionerlar g'aninning kemalariga desantlandilar.

Uchta dengiz jangida, (Miloddan avvalgi 260 y.) Milda, (Miloddan avvalgi 256 y.) Eknom burnida, va (Miloddan avvalgi 241 y.) Egat orollarida Karfagen floti qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi.

Miloddan avvalgi 218-201 yillarda Ikkinchi Puni urushlari katta qiziqish uyg'otadi. Ikkinchi Puni urushlarida Gannibalning sarkardalik talanti yaqqol namoyon bo'ldi. 25 yoshli Gannibal Karfagen armiyasining qo'mondoni etib tayinlandi. U xamma tomonlama etuk va yaxshi siyosatchi bo'lgan. Rim tarixchisi Tit Liviyning yozishicha Gannibal bo'ysundirishni bilar edi, o'zi xam bo'ysuna olar edi. Bundan avvalgi jangda karfagenliklarning oldingi sarkardasi - Gamilkar Barka xalok bo'ldi. Ikkinchi Puni urushlarining boshida Iberiyada (janubi-Sharqiy Ispaniya) Karfagenning mustaxkam bazasi - Yangi Karfagen shaxrining, yaxshi tayyorlangan, rimliklarga qarshi bo'lgan keltlar va boshqa qabilalardan yollangan armiyasi bo'lgan edi.


### **3.6. Miloddan avvalgi 218-201 yillardagi Ikkinchi Puni urushi**

Miloddan avvalgi 218 yilning baxorida katta Karfagen armiyasi yurish boshladi. Karfagenni ximoya qilish uchun 20 ming kishi ajratildi. Strategik zaxira sifatida Gasdrubal (Gannibalning ukasi) qo'mondonligida 15 ming kishi Iberiyada qoldirildi. Miloddan avvalgi 218 yilning kuzida Karfagen armiyasi 200 km xarakatlanib qor bilan qoplangan Alp

tog'larining o'tish qiyin bo'lgan joylaridan oshdi va Padus (Po daryosining tarixiy nomi) daryosi vodiysiga chiqdi.

Karfagen armiyasining shimoliy Italiyada paydo bo'lishi rimliklarni sarosimaga soldi. Besh yarim oy ichida Karfagen armiyasi jiddiy tabiiy to'siqlardan oshib 1600 km yo'l bosdi. Bunday mashaqqatli safardan keyin Gannibalda 80 ming piyodalar va 10 ming otliqdan, 20 ming piyodalar, 6 ming otliq va 37 ta fildan bir nechta fil qoldi, lekin jang olib borish qobiliyati yuqori bo'lgan bu armiya, o'zining uyushqoqligi bilan kuchli qo'shin bo'lib, bular xammasi jangda muvaffaqiyatni ta'minlar edi.

Shu yilning o'zida Gannibal Trebbiya daryosini kechib o'tayotgan Rim armiyasini tor-mor etdi. Trebbiya daryosi bo'yida karfagenliklarning g'alabasini jangovar tartibning qanotlarida joylashgan, ko'psonli va qudratli otliqlar ta'minladilar. Rim otliqlari past jangovar sifatini ko'rsatdi. Bu Gannibalning rimliklar ustidan qozongan birinchi g'alabasi edi. Miloddan avvalgi 217 yilda Trazimen ko'li yaqinida Gannibal erishgan ikkinchi g'alaba, butun boshli armiyani joyning qulay sharoitlaridan foydalanganligining yaqqol namunasi bo'lib xisoblanadi.



**Gannibal**

Gannibal, Flaminiy qo'mondonligidagi Rim armiyasining front ortiga chiqish uchun o'z armiyasini rimliklar tomonidan kuzatuvsiz qoldirilgan, o'tish qiyin bo'lgan joydan olib o'tdi. Uch kun ichida Karfagen armiyasi yopishqoq botqoqdan yurdi. O'lgan xayvonlarning jasadlari ustida dam olishga to'g'ri keldi. Lekin bu mashaqqatli yo'l karfagenliklarni (40 ming kishi atrofida) Etruriya vodiysiga olib chiqdi, natijada Gannibal o'z armiyasi bilan Flaminiyga qaraganda Rimga yaqinlashib qoldi.

Flaminiy qo‘mondonligidagi Rim armiyasi, Trazimen ko‘liga chiqib kelgan Karfagen armiyasining ortidan shoshilinch xarakatlandi.

Karfagenliklar pistirmani tashkil etish uchun qulay joydan foydalandilar. Rimliklar xarakatlanayotgan Rimga eltuvchi yo‘l, Trazimen ko‘lining qirg‘og‘i bilan tog‘ orasidagi tor defiledan o‘tar edi. Aynan mana shu erda Gannibal pistirma o‘rnatdi. Quyuq tumanli tong pistirma uchun qulay sharoit yaratdi. Tumanda Rim armiyasi pistirmani sezmasdan uning yonidan o‘ta boshladi.

### **3.7. Miloddan avvalgi 217 yildagi Trazimen ko‘li bo‘yidagi jang**

Karfagen armiyasining Rim armiyasi kolonnasining chap qanotiga bergan zarbasi to‘satdan bo‘ldi, Rim legionlari sarosimaga tushib qoldi - tor defileda ular o‘zlarining jangovar tartiblariga saflana olmas edilar. Uch tomonlama berilayotgan zarba ta‘sirida rimliklar jiddiy qarshilik ko‘rsata olmadilar. Jangda Flaminiy o‘ldirildi. Shundan keyin rimliklar chekina boshladilar, lekin karfagenliklar tomonidan ular qurshovga olindilar va taslim bo‘ldilar.

Rimliklar xalok bo‘lganlar va ko‘lda cho‘kib ketganlar bilan 15 ming kishini yo‘qotdilar va 15 ming kishi asir olindi. Karfagen armiyasi 1500 kishisidan ayrildi.

Razvedka va qo‘riqlovning qo‘yilmaganligi Flaminiyning katta xatosi bo‘ldi, undan Gannibal yaxshi foydalandi.

Miloddan avvalgi 216 yilda Rimda ikkita konsul - Lutsiy Emiliy va Gay Terensiy Varron saylanib, ular Rim armiyasiga boshchilik qildilar.

Miloddan avvalgi 216 yildagi Kanna jangi. Rimliklarning nafaqat kuchsiz tomonlarini balki kuchli tomonlarini, ayniqsa Rim piyodalarining tashkiliy tartibi va jangovar ko‘nikmalarini e‘tiborga olib, Gannibal o‘z piyodalarini rimliklar namunasida qayta qurishga qaror qildi.

Karfagen armiyasida legionlar tashkil etildi, uning piyodalari esa, birinchi janglar davomida ko‘plab qo‘lga tushirilgan o‘lja qurollar bilan qurollandi. Bir oy davomida Karfagen armiyasi yangi jangovar tartiblarda jang olib borishga o‘rgandi. Muxim e‘tibor piyodalar va otliqlarning o‘zaro xamkorliklariga, qat‘iy xujumni olib borishga, jangovar tartiblarni takomillashtirishga qaratildi. Shunday qilib, Karfagen armiyasi Rim respublikasining markazida turib nafaqat dam oldi, balki orttirilgan jangovar tajribalardan kelib chiqib to‘lig‘icha qayta qurildi va yangicha tartibda o‘rgatildi.

Miloddan avvalgi 216 yilda Kannada qadimgi dunyo tarixida muxim axamiyatga ega bo'lgan eng katta janglardan biri bo'lib o'tdi. Ikkita Rim armiyasi safida 16 ta legion bo'lib, ularda 63 ming piyodalar va 6 ming otliq mavjud edi. Karfagen armiyasi 40 ming piyodalar va 10 ming otliqqa ega bo'ldi.

Rimliklar kuch jixatdan karfagenliklardan ikki marta ustun bo'ldilar, lekin Karfagen armiyasi muxim ustunlikka ega edi-ularning otliqlari son va ayniqsa sifat jixatidan rimliklarning otliqliklaridan ustunlikka erishdilar, bu otliqlarni jangda qo'llash uchun ochiq yalanglik qulay imkon yaratdi.

Rim konsuli Emiliy Pavel, Kanna yaqinida jangga kirmaslik, chekinib dushmanni ortdan ergashtirish va Rim piyodalarining xarakatlanishlari uchun qulay bo'lgan pozitsiyadan jangga o'tish kerak deb xisobladi. Konsul Varron qarama-qarshi fikrni ilgari surdi va Kanna yaqinidagi yalanglikda jangni boshlashni talab qildi.

Armiyaga qo'mondonlik qilish navbati Varronga kelgan vaqtda u legionlarga lagerlardan chiqishga va dushman tomon xarakatlanishga buyruq berdi.

Rimliklarga qarshi Gannibal otliqlarini va engil qurollangan piyodalarini tashladi va kutilmaganda Rim legionlariga xarakatlanish mobaynida xujum qildi. Rimliklar, drotik uloqtiruvchilar va otliqlar bilan kuchaytirilgan og'ir qurollangan piyodalarini oldinga tashladi. Karfagenliklarning xujumlari qaytarildi va ular chekinishga majbur bo'ldilar. Bu muvaffaqiyat Varronni va uning xal qiluvchi jangga bo'lgan intilishini yanada mustaxkamladi.

Keyingi kun Emiliy Pavel, dushman bilan bevosita to'qnashuv sharoitida legionni xavfsiz joyga olib o'ta olmadi. Shuning uchun u kuchlarining uchdan ikki qismini Aufid daryosining birinchi qirg'og'iga lager qurib joylashtirdi, kuchlarning uchdan bir qismini esa-ikkinchi qirg'oqqa, birinchi lagerdan ikki kilometr uzoqlikda joylashtirdi. Karfagen armiyasi rimliklarning asosiy kuchlari joylashgan qirg'oqqa lager qurib joylashdi.

Rim qo'shinlari Miloddan avvalgi 216 yilning 2 avgustida Varronning buyrug'iga binoan jangovar tartibga saflana boshladilar. Varron karfagenliklarni jiplashgan kuchlarning qudratli zarbalari bilan qirib tashlashga qaror qildi, buning uchun u jangovar tartibni yaratishda uning frontini toraytirish va teranligini oshirishga, legionlar va manipulalarni qisqartirilgan intervallar va oraliq masofalarda joylashtirishga buyruq berdi. Rimliklar jangovar tartibining markazidan piyodalar, qanotlaridan otliqlar o'rin oldi.

Bunday saflanish natijasida Rim armiyasi, jang maydonida manyovrni amalga oshira olmaydigan yirik falanga tusini oldi. Rimliklarning jangovar tartiblari front bo'ylab 2 kilometr atrofida bo'ldi. Qo'shin uchta chiziqda xar birida 12 sherengada saf tortdi, ya'ni uning bo'y lama uzunligi 36 sherengani tashkil etdi.

### **3.8. Miloddan avvalgi 216 yildagi Kanna jangi**

Gannibal o'z armiyasini dushmanni markazga tortib chiqarish, bosh zarbani qanotlardagi guruxlarning kuchlari bilan berishga qulay qilib safladi. Bunday maqsadni amalga oshirish uchun markazda jang olib borish qobiliyati past bo'lgan qo'shinlar bir oz oldinga chiqarilgan xolda joylashtirildi, qanotlardan esa teran kolonna bo'lib eng yaxshi jangchilar va otliqlar o'rin oldi, o'ng qanotda - engil, chap qanotda - Gannibalning ukasi Gasdrubal qo'mondonligidagi og'ir otliqlar joylashtirildi. Front bo'ylab bo'laklangan karfagenliklarning jangovar tartibi, o'zining shakli bo'yicha qavariq tomoni rimliklarga qaratilgan taqani eslatardi.

Bu bilan dushmandan jangning moxiyatini yashirishga va asosiy kuchlarni qanotlarga to'plashga erishildi.

Ikkila tomon xam qariyb bir vaqtning o'zida jangni boshladi. Rimliklar dushmanning kuchsiz markazini siqib keldilar, lekin tezda ularning ochilib qolgan qanotlari karfagenliklarning qaqshatqich zarbalari ostida qoldi. Gannibalning otliqlari dushman otliqlarini tor-mor etdi va Rim armiyasining front ortiga xujum qildi.

Karfagenliklarning jangovar tartibi chuqur bukik shaklga ega bo'ldi. Rimliklar unga suqulib kirdilar, bu xol Karfagen piyodalariga dushmanni ikki tomonlama qurshab olishni engillashtirdi. Karfagen armiyasi rimliklarni qurshab olishni oxiriga etkazdi. Rimliklarning orqadagi sherengalari Karfagen armiyasining otliqlari bilan kurashish uchun ortga qaytishga majbur bo'ldi. Legionning zich saflari ularni manyovr qilishdan maxrum etdi. Rimliklar bitta to'daga siqib qo'yildilar, ularning legionlari boshqaruvni yo'qotgan ommaga aylanib qoldi. Jangni faqat tashqi sherengadagi jangchilar olib borishlari mumkin edi. Rim armiyasining son jixatdan ustunligi o'z axamiyatini yo'qotdi. Bu ulkan ommaning ichida bir-birini surish, itarish, tiqilinch boshlanib ketdi, rimliklarni ayovsiz kaltaklash boshlandi.

12 soat davom etgan jangda rimliklardan 48 ming kishini xalok bo'ldi, 10 ming kishi yarador bo'ldi. Karfagenliklarning talofatlari xalok bo'lganlar bilan 6 ming kishini tashkil etdi.

Kannadagi jang harbiy san'at tarixiga kam sonli qo'shin bilan ko'p sonli qo'shinni qurshab olish va to'lig'icha tor-mor etish timsoli bo'lib kirdi. Gannibal rimliklar jangovar tartibining eng kuchsiz joyi xisoblangan qanotlardan aylanib o'tish va qurshab olishni maxorat bilan qo'lladi.

Dushmanning qanotlarini qamrab olish uchun karfagenliklar saralangan otliqlaridan va eng yaxshi piyodalaridan foydalandilar, bu asosiy zarbani berish yo'nalishlarida dushman ustidan son va sifat jixatdan ustunlik yaratishga olib keldi.

Kannadagi jangdan keyin janubiy Italiya va Sitsiliyaning bir nechta shaxarlari Gannibal tomoniga o'tdi. Lekin Gannibal g'alaba natijalaridan oxirigacha foydalanmadi. O'zining taktik muvaffaqiyatini u strategik muvaffaqiyatga aylantirishga urunmadi.

Rimning iqtisodiy va harbiy qudrati sindirilmadi. Karfagen armiyasi rimliklarni ruxan tushkunlikka tushira olmadi va ularni qarshilik ko'rsatishga bo'lgan qobiliyatlarini so'ndira olmadi. Miloddan avvalgi 212 yildan boshlab rimliklar tashabbusni qo'lga kiritdilar. Miloddan avvalgi 210 yilda Publiy Korneliy Ssipion qo'mondonligidagi yangi legionlar Iberiyada Yangi Karfagenga bostirib kirdilar va Karfagen armiyasining asosiy bazasini bosib oldilar. Miloddan avvalgi 207 yilda Metavr daryosi bo'yidagi jangda rimliklar Gasdrubal qo'mondonligidagi karfagenliklar armiyasini mag'lubiyatga uchratdilar. Gasdrubalning o'zi Shu jangda xalok bo'ldi.

Puni urushlarining keyingi borishi Rimning harbiy qudratini oshishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda Rim sarkardasi Publiy Korneliy Ssipion maydonga chiqdi, u Miloddan avvalgi 202 yildagi Zam jangida (Karfagenning janubida) Gannibal armiyasini tor-mor etdi. Bu g'alabasidan keyin u «afrikalik» laqabini oldi. Kanna jangida bo'lgani kabi bu jangda xam Nubiya otliqlari xal qiluvchi rol o'ynadilar, lekin muvaffaqiyat bu safar rimliklar tomonida edi.

Miloddan avvalgi 201 yilda Karfagen o'zi uchun qiyin sharoitda rimliklar bilan sulx tuzdi, unga ko'ra o'zining xamma dengiz orti er-mulklaridan ajraldi, faqat unga Afrikada Karfagen shaxri yaqinida kichik bir xudud qoldirildi. Butun Karfagen floti Rimga o'tdi (500 ta kema). Gannibal Miloddan avvalgi 183 yilda olamdan o'tdi.

Miloddan avvalgi 146 yilda Karfagen uchinchi Puni urushi davrida batamom mag'lubiyatga uchradi. SHaxar butunlay vayronaga aylantirildi.


Rim bilan Karfagen o'rtasidagi urush 118 yil davom etdi. Puni urushlari natijasida Rim davlati Janubiy Galliyani, Janubiy Iberiyani va Karfagenning SHimoliy Afrikadagi xududlarini egalladi. Rimning safiga Makedoniya va Yunoniston kiritildi, Kichik Osiyoda va Suriyada rimliklar o'zlarining siyosiy mavqelarini o'rnatdilar. Yuliy Sezar tomonidan harbiy san'atning rivojlantirilishi. Rim-parfiyaliklar urushidagi harbiy san'at. Miloddan avvalgi II asrda Rimda o'tkazilgan keyingi harbiy islohotlar konsul Gay Mariyaning faoliyati bilan bog'liqdir.

Mariyaning taklifiga binoan bir nechta tashkiliy tadbirlar o'tkazildi. Qadimgi Rimning qurolli kuchlari militsiya tizimidan professional, yollangan armiyaga o'tdi. Legionlarning safi o'zgardi: xar uchta manipulalar bitta *kogortaga* (600 jangchi) birlashtirilib, ular xar biri beshta kogortaga ega bo'lgan ikki chiziqda joylashtirilgan. Taktik birlik kogorta bo'lgan. O'nta kogorta bitta legionga birlashtirilgan.

Kogortaga *tribun* qo'mondonlik qilgan. Manipulalarning kogortalarga birlashtirilishi legionning mustaqilligini va aloxida birlashmalarning zarbdor kuchini oshirdi, ularni boshqarishni yaxshiladi, yangi kogorta taktikasining rivojlanishini boshlab berdi. Legionning kogortalar bo'yicha tashkil etilishi II asrning oxirigacha saqlanib qolindi.

Qadimgi Rim harbiy san'atining rivojlanishiga Gay YUliy Sezar (m.a.100-44 y.) katta rol o'ynadi. Miloddan avvalgi 60 yilda Sezar Rim legionlariga qo'mondonlik qildi, Ispaniyada g'alabalarni qo'lga kiritdi va Rimda juda mashxur bo'ldi. Shu yili Sezar o'sha davrning katta ta'sirga ega bo'lgan siyosiy va harbiy arboblari Gnem Pompey va Mark Krasslar bilan ittifoq tuzdi. Shunday qilib, birinchi triumvirat (Sezar, Pompey, Krass) paydo bo'ldi. Tez orada u Rimning xaqiqiy xukmdoriga aylandi va uning faoliyati respublika senatiga qarshi yo'naltirildi.

Miloddan avvalgi 59 yilda Sezar konsul etib saylanganidan keyin davlat tizimini mustaxkamlash va armiya faxriylarini ijtimoiy muammolarini xal qilish maqsadida bir nechta qonunlarni yaratdi. *Galliyaga yurishlari* chog'ida (Miloddan avvalgi 58-51 y.) u butun Alp orti Galliyasini egalladi. Galliyadagi g'alaba Sezarning Shuxratini yanada oshirdi.



### **Legionning kogortalar bo'yicha saflanishi**

Sezar yiqqan legionlarini yangi tamoyil bo'yicha tashkil etdi. Legiondagi jangchilarning soni 3000 dan 4500 gacha kishi atrofida edi. Xar bir legionning safiga og'ir yoy o'qlarini otuvchi 55 *karabalchilar*, 10 ta *yovvoyi eshak* va og'ir toshlarni uloqtiradigan katapultalar kiritilgan, ayniqsa qal'alarni qamal qiladigan texnika o'z rivojlanishiga ega bo'ldi. Piyoda yordamchi qo'shinlar - kamonchilar va palaxmonchilar katta rol o'ynay boshladilar. Sezar armiyasida xar bir legionda 300 chavandozdan tashqari, do'stona Galliya qabilalaridan kelgan 4-5 ming chavandoz xam bo'lgan.

Vaziyatdan kelib chiqib legionning jangovar tartibi uch chiziqdan iborat bo'lgan. Birinchi chiziqda 4 ta kogorta, ikkinchi va uchinchi chiziqlarda uchtadan kogorta bo'lgan. Ikkinchi chiziq asosan qo'llab-quvvatlovchi chiziq bo'lgan, legionning uchinchi chizig'i umumiy zaxirani tashkil etgan, undan dushmanning fronti va qanotiga qarshi qat'iy manyovrni amalga oshirish yoki uning zarbasini qaytarish uchun foydalanilgan.

Legionning jangovar tartibi endi juda barqaror bo'ldi. Avval faqat qal'alarni shturm qilish uchun qo'llanilgan «Toshbaqa» usulidan, dushman o'tliqlarining to'satdan bergan zarbalaridan ximoyalalanish uchun foydalanila boshlandi.

Avangardga o'tliqlar va engil qurollangan piyodalar ajratila boshlandi. Avangard ilg'or otryadlarni oldinga yo'naltirgan va ularning safidan aloxida razvedkachilar yuborilgan. Arergardga muntazam piyodalarning uchdan bir qismigacha ajratilgan, ularning aksariyatini Yosh legionerlar tashkil etgan. Legionlar bosh kuchlarni tashkil etgan. Sezar davrida legionlar juda xarakatchan bo'ldi. Kunduzgi oddiy bir kunlik yurib o'tish 25 kilometr dan oshmagan, tezlik bilan yurish-30 kilometr dan ortiq, o'ta tezlik bilan xarakatlanish 45 kilometr ga etgan. Dushman xujum qilish extimoli bor vaziyatda jangovar tartibga yoyilib safar amalga oshirilganlar.



Rim armiyasida shtab va muxandislik xizmatlari asoslarini yaratishda Sezarning katta xissasi bor. Sarkardaning shtabi yaratilib, u harbiy boshliqlarni tayyorlash maktabi bo'ldi. Shtab *legatlar va tribunlardan* tashkil topgan. Legatlar - senat tomonidan tayinlangan sarkardalarning yordamchilari bo'lib, ular yirik qo'shin otryadlariga yoki jangovar tartibning bir qismiga qo'mondonlik qilganlar. Legionda 6 nafardan harbiy tribunlar bo'lgan. Ular sarkardalar va legatlarning buyrug'larini bajarganlar, kichik otryadlarga qo'mondonlik qilganlar va harbiy kengashlarda qatnashganlar. SHtablarga *ad'yutantlar* majburiyatlarini bajaruvchi Yosh ko'ngillilar birlashtirilganlar.

Birinchi senturiya komandiri manipulaga qo'mondonlik qilgan. Kogortaga triariyalar senturiyasi senturioni qo'mondonlik qilgan. Xar bir legionni birinchi kogortasining oltita senturioni harbiy kengashning majlisida qatnasha olgan.


Kogorta taktikasi, Rimdagi fuqarolar urushi vaqtida Yunonistonning Farsal (Miloddan avvalgi 48 y.) shaxri yaqinida Sezar bilan Pompey o'rtasida xokimiyat uchun bo'lgan jangda o'z ifodasini topdi.

Pompeyning 30 ming piyodalari va 4 ming otliqlari, Sezarning 30 ming piyodalari va 1-2 ming otliqlari bo'lgan.

Qo'shinning jangovar tartibi xar birida 10 tadan sherengaga ega bo'lgan uch chiziqdan tashkil topdi. Sezar armiyasining chap qanoti va Pompey armiyasining o'ng qanoti irmoqning egilgan qirg'og'iga borib taqalgan edi, Shuning uchun xar ikkala tomonning otliqlari irmoqning qarama-qarshi tomonlaridagi qanotlarda joylashdi. Pompey otliqlarini asosiy zarba berish extimoli bor yo'nalishini oldindan bilgan Sezar, uchinchi chiziqdan 10-legionning saralangan oltita kogortasini oldi va ularni aloxida zaxira sifatida o'zining o'ng qanoti ortiga joylashtirdi, uchinchi chiziqning qolgan kogortalari umumiy zaxirani tashkil etdi.

Jangning boshida Pompey otliqlari Sezarning chavandozlarini siqib keldilar, lekin ularga aloxida zaxira bilan qarshi zarba berildi, keyin esa Sezar otliqlarining qarshi xujumga o'tishi bilan ular qocha boshladilar. Pompey otliqlarini ta'qib qilishni boshlagan Sezarning piyodalari va uning otliqlari dushmanning asosiy kuchlarining qanoti tomoniga chiqdilar. Shu vaqt Sezar umumiy zaxirani jangga kiritdi. Bu xol jangning natijasini xal qildi. Bir vaqtning o'zida xam frontdan xam qanotdan berilgan zarbalarga dosh bera olmagan Pompey qo'shinlari pala-partish chekindi va tor-mor etildi.

Otliqlari tor-mor etilganini ko'rgan Pompey, legionini taqdirning taqozosiga tashlab lagerga yo'l oldi. Lagerdan kemaga o'tirib Misrga suzib ketdi.



### Miloddan avvalgi 48 yil 6 iyundagi Farsal yaqinidagi jang

Farsaldagi to'qnaShuvda jangning natijasini Sezar armiyasining umumiy zaxirasi tomonidan to'satdan berilgan zarba xal qildi. Shunday qilib, zaxira avvalgidek nafaqat tasodifiy muvaffaqiyatlarni rivojlantirish vositasi, balki g'alabaga erishish vositasi xam bo'ldi.

Misrda Pompey o'ldirildi. Uning o'limidan keyin uch kun o'tgach Aleksandriyaga Sezarning legionlari tushirildi. Misrda rimliklar Ptolemeyning qo'shinlarini, keyinchalik esa Kichik Osiyoda Farnakning qo'shinlarini tor-mor etdilar, bu haqda Sezar Rimga bergan xabarida «Keldim, ko'rdim, g'alaba qildim» deb yozgan edi.

Miloddan avvalgi 44 yilda senat Sezarga «mangu» unvonini, ya'ni umrining oxirigacha diktatorlik qilish xuquqini berdi, lekin senatorlar orasida unga qarshi fitna tashkil etildi va Miloddan avvalgi 44 yilning 15 martidagi senat majlisida YUliy Sezar o'ldirildi.

Avval, Miloddan avvalgi 53 yilda Rim-Parfiya urushi paytida Mark Krass xam o'ldirilgan edi. Miloddan avvalgi 56 yilda triumvirlar keliShuviga binoan Krass Suriyaning xukmdori bo'lgan edi, Shu erdan u Rimning Parfiya bilan urushini boshladi.

Parfiyaliklar (parmlar) YAqin Sharqni bosib olgan skif xalqlari edilar. Ular armiyasining asosini otliq kamonchilar tashkil etgan, ularning otda turib ortga burilib bexato va maxorat bilan ota olishlari «Parfiya o‘qchilari» iborasining paydo bo‘lishiga olib keldi. Kamonchilarning o‘qlari dushmanga sezilarli talofat etkazgan paytda va uning jangovar tartibida parokandalik boshlanganda, ortda og‘ir qurollangan otliqlar (katafraktariyalar) nayzalari bilan xujum qilishga tayyor turganlar.

Miloddan avvalgi 53 yilda Krass qo‘mondonligidagi Rim legionlari Dajlani kechib o‘tdilar va daryoning chap qirg‘og‘i bo‘ylab janubi-Sharq tomonga xarakatlanib ketdilar. Krassning armiyasi etti legiondan iborat bo‘ldi, ularda 4 ming atrofida otliqlar va Shuncha engil qurollangan piyodalar (xammasi bo‘lib 35-40 ming kishi) mavjud edi. Rimliklarga qarshi Surena qo‘mondonligidagi Parfiya qo‘shini jo‘natildi. Parfiya armiyasi o‘z safida 10 ming jangchiga ega bo‘ldi.

### **3.9.Parfiya Miloddan avvalgi III asrdan-milodiy III asrgacha**


Parfiya qo‘shini xal qiluvchi jangdan qochib, maxsus ajratilgan otryadlar bilan manyovr qilib, rimliklarni xoldan toydirdi va ularni xiyla bilan cho‘lga chiqishga majbur etdi, bu erda ular o‘zlarining otliq kamonchilarini qo‘llashlari mumkin edi. Rim armiyasi suvsiz cho‘lda uzoq safar bilan xoldan toyganidan keyin, Surena faol jang xarakatlariga o‘tdi. Parfiyaliklar Krassning o‘g‘li Publiya qo‘mondonligidagi rimliklarning 1300 otliqlarini, 500 kamonchilarini va 8 piyodalar kogortasini (5 minggacha piyodalar) pistirmaga kiritishga va ularni qirib tashlashga muvaffaq bo‘ldilar. Parfiyaliklar Publiya otryadini tor-mor qilayotgan vaqtlarida, Krass qo‘mondonligidagi rimliklarning asosiy kuchlari tepalikda mudofaani egalladi, Krass o‘g‘lining qaytishini kutdi, Rim legionlari uning raxbarligida vaqtni kutish bilan o‘tkazib, xech qanday jang xarakatlarini olib bormadi. Qirning yon bag‘rida bir-birlarining tepalarida qator-qator bo‘lib joylashgan rimliklar Parfiya kamonchilari uchun yaxshi nishon bo‘ldilar.

Surena qo‘shinlari rimliklarni otliqlar bilan qurshab olishni boshladi va dushmanning zich jangovar tartibiga kamon o‘qlarini yog‘dirib, katta talofatlar etkazdi. Rimliklarning parfiyaliklarni yaqin masofadagi jangga kiritish uchun qilgan urinishlari muvaffaqiyat keltirmadi. Parfiyaliklar jangga kirmasdan dushmanga kamonlardan o‘q yog‘dirib chekindilar.

Kech tushishi bilan parfiyaliklar ortga chekindilar. Krassning xarakatsizligini ko‘rgan rimlik ikki legat senturionlar va manipulalar komandirlarini kengashga yig‘di. Tunda yashirincha chekinishga qaror qilindi. Chekinish uyushmagan xolda kechdi. Bosh kuchlardan ajrab ketgan bitta legat to‘rtta kogortasi bilan yo‘ldan adashib ketdi. Ertalab parfiyaliklar bu otryadni qurshab oldilar va qirib tashladilar. Keyin ular rimliklarning lagerini bosib oldilar va u erda bo‘lgan 4 mingtacha rimliklarni yakson qildilar.

Shundan keyin Surena rimliklarning qolgan kuchlarini ta‘qib qilishni tashkillashtirdi. Krass Rim legionining (7 ming kishidan ortiq) qolganlari bilan Karri qal‘asiga yashirinishga muvaffaq bo‘ldi. Ruxlari tushib ketgan legionerlarning qistovi bilan u qal‘adan chiqdi va rimliklar shimol tomonga chekinishni davom ettirdilar. Qal‘adan chiqishda ular yo‘ldan adashdilar va keyingi kun parfiyaliklar tomonidan qurshab olindilar.

Miloddan avvalgi 53 yilning 12 iyunida Sinnaki qal‘asi yaqinida Surena Rim sarkardasiga sulx tuzish to‘g‘risidagi muzokaralarni boshlashni taklif etdi, Krass tepalikdan tushishi bilan pastda uni kutib turgan Surena boshchiligidagi otryad Krassni o‘ldirdi. Omon qolgan rimliklarning bir qismi tarqalib ketdi, ikkinchi qismi asir tushdi. Bu yurishdan faqat 10 ming atrofida kishi qaytib keldi.



### **Rimliklarning ilg‘or otryadlariga qarshi parfiyaliklarning xujumi.**

Rimliklarning talofatlari o‘lganlar bilan 20 ming kishini va asir tushganlar bilan 10 ming kishini tashkil etdi.

Parfiyaliklarning strategiyasi katta qiziqish uygʻotadi. Bu birinchi bor moxirona tashkil etilgan qarshi xujum oʻtkazishning tarixiy misolidir, bunda chekinish, agar faol kurash uchun kuchlar etarli boʻlmasa mudofaa usuli sifatida qoʻllanilgan. Parfiyaliklarning taktikasi xam eʼtiborga molikdir. Birinchidan, Parfiya otliqlari, otliq kamonchilar bilan kurashishga va ularning qudratli kamonlari oldida ojiz boʻlgan rimliklarning muntazam piyodalari bilan muvaffaqiyatli kurashni olib borganliklari. Ikkinchidan, parfiyaliklar dushmanni kichik-kichik xujumlar bilan xoldan toydirdilar va uni otliq kamonchilarning xarakatlari bilan qirib tashladilar. Uchinchidan, ataylab chekinish bilan ular rimliklarning aloxida otryadlarini bosh kuchlaridan ajratib qoʻydilar, keyin esa qarshi xujumlar natijasida ularni qirib tashladilar.

Bundan tashqari, zirx bilan ximoyalangan parfiyalik otliqlarga Krassning kam sonli engil piyoda kamonchilarining oʻqlari taʼsir qilmas edi. Lekin Parfiya, sulolalari oʻrtasidagi urushlar natijasida harbiy

### **3.10.Mark Krassning Parfiyaga yurishi va Miloddan avvalgi 53 yildagi Karri jangi**

Mark Krassning Parfiyaga yurishi va Miloddan avvalgi 53 yildagi Karri jangi muvaffaqiyatni rivojlantira olmadi, ularning birida Surena oʻldirildi. Rimliklar Sharqiy viloyatlar ustidan xukmronlikni tikladilar. Oxir-oqibat tinimsiz taʼqib etishlar natijasida parfiyaliklar Rim legionlarining ruxini tushirib yubordilar, keyin esa tor-mor etdilar.

Rimning yangi davrdagi harbiy sanʼati. Germaniya qabilalarining bostirib kirishi. Milodiy I-II asrlarda Rim davlati oʻzining maksimal chegaralariga etdi. Rim respublikadan imperiyaga oʻtishni amalga oshirdi.

Imperator Adrian xukmdorligi davrida legionlarni toʻldirish tartibi oʻzgartirildi. Harbiy xizmatga koʻngillilarni yollash tartibi bilan 17-20 Yoshli erkaklar qabul qilina boshlandi. Legioner imperatorga qasamyod keltirgan va 25-30 yil xizmat qilish majburiyatini olgan, Shu tariqa professional jangchiga aylanib borgan. Armiyadagi xizmati uchun legionerga muntazam ravishda oylik maosh toʻlangan.

Rim armiyasi endi doimiy armiya boʻldi, uning legionlari respublika davridagidek harbiy yurishdan keyin tarqatib yuborilmagan. Armiyada fuqarolik urushlari davrida boʻshashib ketgan qattiq harbiy intizom tiklandi. Rim armiyasi tom maʼnodagi muntazam armiya boʻldi.



Armiya tarqoq xolda joylashtirildi, lekin uni boshqarish markazlashtirildi. Reynda 8 ta legion bo‘lib, u Rim armiyasining asosiy kuchini tashkil etdi; Dunay davlatlarida 6 ta legion, Suriya va Kichik Osiyoda 4 ta legion, Ispaniyada 3 ta, Afrika va Misrda 2 tadan legion joylashtirildi.

Legiondagi jangchilarning soni oshirildi (piyodalar 6100 gacha va otliqlar 726 gacha chavandozga). Legionga *prefekt*, kogortalarga - tribunlar qo‘mondonlik qilgan, senturionlar endi kichik qo‘mondonlik safi bo‘lib xisoblandilar.

Piyodalar va otliqlarning jangovar tayyorgarliklari anchagina yaxshilandi. Yirik birlashmalar birgalikdagi o‘quv safarlarini amalga oshirganlar.




### **Adrian devori**

Rim imperiyasining chegaralarida yirik mudofaa inshootlari qad ko‘tardi. Bu inshootlar uzun qoziqlar o‘rnatilgan, tuproq devorlardan va chuqur xandaqlardan iborat edi. Balandliklarning ustida kuzatuv minoralari va qo‘riqlov postlari o‘rnatilgan. Tuproq bilan ko‘tarilgan balandliklarning orqasida harbiy yo‘l qurilgan, bu yo‘ldan chegara bo‘ylab qo‘shin bir joydan ikkinchi joyga ko‘chgan.

Shunday istexkom chiziqlari bilan Rimning chegaralari, Britaniyaning shimolida-Adrian devori, Dnestr va Prut oralig‘idagi Bessarabiyada (g‘arbiy Moldaviya)-Troyan devori, va Afrikada-Tripoli devorlari bilan to‘silgan edi.

Milodiy I asrda rimliklar Iudeyaga yurishni amalga oshirdilar. Miloddan avvalgi 63 yildagi Iudeya urushida rimliklar Quddusni egallagan edilar. Iudeya Rimning viloyati bo‘lgan Suriyaning tarkibiga kirdi.




Rim armiyasining Britaniya urushlari davridagi (77-78 y.) harbiy yurishlari natijasida, Rimning Britaniyadagi viloyatiga orolning shimolidan yangi xudud qo'shildi.

Lekin milodiy II asrning oxirida Rim tez-tez strategik mudofaaga o'ta boshladi. U katta imperiyani samarali nazoratda ushlab tura olmadi. Rim imperiyasi siyosiy tashkilotining kuchsizlanishi va varvarlarning bosqini viloyatlar xukmron doiralari, o'z xokimiyatlari va chegaralar mudofaasini ta'minlashga qodir mustaqil davlatlarni tashkil etishga majbur qildi. Rim viloyatlari axolisi Rim fuqaroligini olish xuquqiga ega bo'ldi. Bu, nafaqat imperiya chegaralarida joylashgan legionlarga tegishli bo'ldi. Legionerlarga erlar berildi, ular oila qurib o'z xo'jaliklariga ega bo'ldilar. Viloyatlar axolisini legionlarga qo'shilishi, legionlarning jangovar tayyorgarligini juda pasaytirib yubordi. Askarlar faoliyatining yarmini dexqonchilik tashkil etdi. Avval bosqinchilar oldida rimliklarning ustunliklaridan biri xisoblangan temir intizom o'tmishda qolib ketdi.

Ushbu davr piyodalarining o'ziga xos tomoni, dushman bilan qo'l jangiga kirishishni umumiy xoxlamaslik bo'ldi. Kamon va drotiklar nafaqat yoyma safda ishlatildi, balki piyodalar tomonidan jiplashgan jangovar safda xam qo'llanila boshlandi. Og'ir sovutlar tashlab yuborildi. Og'ir nayzalar engillari bilan almashtirildi.

Rim armiyasining jangovar tartibi falangaga qaytdi, lekin bu saf endilikda xujumdan ko'ra ko'proq mudofaa uchun yaroqli bo'lib qoldi. Birinchi beshta kogorta-to'rtta oldingi sherengani, so'nggi beshta kogorta-to'rtta orqa sherengani tashkil etdi. Butun legion sakkizta sherengada saflangan, ulardan birinchi to'rttasi engil pilumlar bilan, qolganlari esa nayzalar bilan qurollanganlar. Eng yaxshi og'ir qurollangan jangchilar zaxiraga ajratilganlar. Kogortalar taktik mustaqillikni yo'qotdilar va jangda manyovr qila olmadilar.



## Miloddan avvalgi II asrda Rim legionining saflanishi

Milodiy III asrda Rim imperiyasiga tez-tez Germaniya qabilalari xujum qila boshladilar, Shu jumladan gotlar xam.

Imperiyaning inqirozi, avvalom bor, qullar va *kolonlarning* qo‘zg‘olonlarida namoyon bo‘la boshladi. Qo‘zg‘olonlar Italiyada, Galliyada, Sitsiliyada, Afrikada bo‘lib o‘tdi.

Reyn va Vislaning o‘rtasida yashovchi qabilalar Rim imperiyasi xududiga bostirib kirib, chegarabo‘yi rayonlarini talay boshladilar. Bu qabilalar qullarning qo‘llab-quvvatlashlariga tayanar edilar. Imperatorlar bir-birlarini almashtiraverdilar, ularning ko‘pchiligi 2-3 yil, ayrim xollarda 5 yildan ortiq xukmdorlik qildilar.

Delbryukning aytishicha, siyosiy xukumatning inqirozi o‘zini yaqqol ko‘rsata boshladi: «Shunday zamon keldiki, bosqin ustiga bosqin bo‘la boshladi. Askarlar imperatorga bog‘liq ekanliklarini unutib qo‘ydilar, imperatorlar esa askarlarga bog‘liq bo‘lib qoldilar. To‘xtovsiz imperatorlarning saylanishlari va ularni o‘ldirilishlari, doimiy fuqarolar urushi va birinchi xukmdordan ikkinchi xukmdorga o‘tish- legionlarning jangovar baxosini tashkil etgan va Shu paytgacha Rim armiyasining poydevori xisoblangan intizomni qulatdi. Lekin fuqarolar urushi, Rimning harbiy ishini o‘z girdobiga tortgan va oxir oqibat uni yutib yuborgan xo‘jalik xalokatini boshlab keldi».

330 yilda imperator Konstantin imperiya poytaxtini Vizantiya shaxriga ko‘chirdi, bu shaxar Bosforning Evropa qirg‘og‘iga joylashgan bo‘lib yangi Kanstantinopol nomini oldi (hozirgi Istanbul), uni «ikkinchi Rim» deb atay boshladilar.

Imperator Valentning (364-378 y.) xukmdorlik davrida g‘arbiy qabilalarning yangi xujumlari boshlandi, hozirgi Qozog‘iston cho‘llaridan esa gun ko‘chmanchi turk qabilalari



kelishdi va o'zlariga Qora dengiz bo'yi cho'llarida joylashgan ostgotlar (Sharqiy gotlar) va sarmatlar (alanlar) qabilalarini bo'ysundirdilar. Dnestrning g'arbidagi xududlarda boshqa qabila-vestgotlar joylashgan edilar, ular xam gunlarning bosqinchiliklari natijasida Dunayga chekindilar va imperatorning ruxsati bilan Frakiyaga joylashdilar.

Keyinchalik Generallik gotlar bir necha marotaba Rim imperiyasi ichkarisiga bostirib kirdilar.

Varvarlar (gotlar, vandallar va boshqa Germaniya qabilalari) nayzalar va qalqonlar xamda uloqtiriladigan boltalar va drotiklar bilan qurollangan edilar. Qilichlar va kamonlar taqchil bo'lib, sovutlarni faqat *tanlar* (qabila boshliqlari) olib yurganlar. Varvarlarda na qurollar bilan ta'minlanish imkoniyati, na sifatli qurollarni yasovchi ustalari bo'lgan. Otliqlar varvarlarning asosiy jangovar kuchlari bo'lgan. Ularda kavaleriyaning barcha turi - uzun nayzalar bilan qurollangan og'ir otliqlardan, to oddiy razvedkachilargacha xammasi bo'lgan. Asosiy kuchlar bilan umumiy xujumga o'tish ularning asosiy taktik qoidalari bo'lgan. Ushbu davrda rimliklardan o'rganib keyin o'zlariga joriy qilib olingan qurol-kamon bo'ldi. Rim legionlari ko'plab kamonchilar bilan to'ldirila boshlandi. Rimliklar tomonidan ko'plab asrlar davomida kamonni pisand qilmasdan, undan foydalanilmaganligi tarixchilar uchun jumboq bo'lib kelmoqda.

Adrianopol jangigacha rimliklarning kuchsizlanib qolganliklarini sezib qolgan gotlar va vandallar, kichik-kichik bosqinchilik xarakatlarini muvaffaqiyatli amalga oshira boshladilar. 378 yilda imperator Valent Frakiyani talon-taroj qilganliklari uchun vestgotlardan shafqatsizlarcha o'ch olishni xoxlab, g'arbiy viloyatlardan armiyalarning kelishini kutmasdan Sharqiy Rim imperiyasi armiyasini jangga boshladi. Valent gotlar lagerini shturm qilishga tayyorgarlik ko'rayotgan paytda, u erda gotlarning otliqlari yo'q edi. Lekin ko'p o'tmay gotlarning otliqlari qaytib kelib rimliklarning qanotlari va front ortidan xujum boshladilar. Imperator Valent xalok bo'ldi, rimliklar qattiq mag'lubiyatga uchradilar.

«Rimlik yoki grek» bo'lmaganlarning xammasi varvarlar deb atalgan 378 yildagi Adrianopol jangida Valentning gotlar tomonidan mag'lub etilishi Rim imperiyasi qudratiga batamom putur etkazdi. Gotlarning g'alabasi tarixchilar uchun «kavaleriya davri» boshlanishining belgi sanasi bo'ldi. Kavaleriya «urush maydonining shaxzodasi» bo'lib qoldi. 395 yilda Rim imperatori Feodosiy o'z imperiyasini ikki o'g'liga bo'lib berdi:

bittasiga Sharqiy qismi, ikkinchisiga g'arbiy qismi tegdi. Rim imperiyasi G'arbiy va Sharqiy qismlarga bo'lindi.

Sharqiy Rim imperiyasini mustaqil davlatga ajratilishi Rim imperiyasining emirilishini anglatdi.

V asrning boshida Alarix xabarligidagi vestgotlar Italiyaga bostirib kirdilar va 410 yilda rimlik qullar yordamida Rimni bosib oldilar. «Varvarlar» zarbasi ostida Rim quladi. Imperiyaning chegaralari ochilib qoldi; *franklar* va *burgundlar* Reyn daryosidan o'tdilar va Galliyaga bostirib kirdilar, *vandallar* Ispaniyani egalladilar. 476 yilda G'arbiy Rim imperiyasining xukmronligi batamom tugatildi. Sharqiy Rim imperiyasi yana 1000 yil atrofida o'z xukmronligini saqlab turdi.

Qadimgi Rimdagi harbiy-nazariy fikrlash. Qadimgi Rimda harbiy-nazariy fikrlashning rivojlanishi xususiyatlari Miloddan avvalgi II asrdan milodiy IV asrgacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Ushbu davrning ko'plab urushlari qadimgi tarixchilarning asarlarida o'z ifodasini topdi.

Miloddan avvalgi II asr Qadimgi dunyosining yirik tarixchisi Polibiy xisoblanadi (Miloddan avvalgi 210-128 y.).

Polibiyning «Umumiy tarix» asari Ikkinchi Puni urushidan (Miloddan avvalgi 218 y.) Yunonistonni rimliklar tomonidan bosib olgan davrgacha bo'lgan urushlarni o'z ichiga oladi. Uning qirqta kitobidan bizgacha birinchi beshtasining xammasi, qolganlarining esa parchalari etib kelgan. Ulardan biz Rim armiyasining taktikasi va strategiyasi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lamiz. Polibiy voqealarni oddiy qilib yozish bilan cheklanmasdan, ularni chuqur taxlil qilgan. U urushlarning bir-biri bilan bog'liq xolda o'rganishni, ularni bir-biridan ajratmaslikni va umumiy tarixiy voqelikdan aloxida janglarni ajratib olmaslikni talab qilgan.

O'zining «Umumiy tarix» asarida Polibiy asosiy e'tiborni urushlarga qaratgan, bu harbiy tarixchilarga ushbu asarni «Harbiy tarix» deb atashlariga asos bo'ldi. Harbiy ishning bilimdoni sifatida u, nafaqat urushlar va janglarni yozib qoldirgan, balki g'alabalar va mag'lubiyatlar sabablarini, jangovar tartiblarning yutuqlari va kamchiliklarini, taktik qoidalarni, strategik usullarni tadqiq etgan.

Rim sarkardasi Gay Yuliy Sezar xam yirik Rim yozuvchisi bo'lgan. Uning «Gal urushlari to'g'risidagi yozuvlar» asari qadimgi harbiy adabiyotning klassikasi bo'lib xisoblanadi.

IV asrning harbiy nazariyotchisi Vegetsiyning asarlari aloxida e'tiborga sazovordir. U bo'lib o'tgan urushlar va janglarning jangovar tajribasi va harbiy nazariyasini mukammal o'rgandi va rimliklar tomonidan erishilgan harbiy san'atning rivojlanish darajasi yoritilgan «Harbiy ish asoslarining qisqacha ta'rifi» asarini yozdi. O'z asarida u armiyani to'ldirish, o'rgatish va uni tashkil etish masalalarini keng yoritgan, jangovar tartiblar va taktik qoidalarini yozib qoldirgan, urush va janglarni olib borish qoidalarini, mudofaa va qal'alarni qamal qilish usullarini yozgan.

Vegetsiyning butun asarlari 4 ta uncha katta bo'lmagan kitobdan (bobdan) tashkil topgan, ular qisqa va aniq qilib yozilgan va o'zining mazmuni bo'yicha qadimgi Rim armiyasining nizomi bo'lib xisoblangan.

Vegetsiyning aytishicha, armiyani to'ldirishda shaxarliklardan ko'ra qishloq xalqidan ko'proq olish kerak, ularning harbiy ishga uquvlari yaxshi bo'ladi. Armiyaga Yoshlarni ko'plab jalb etish kerak. Yosh jangchi harbiy ishni yaxshi o'zlashtiradi, u xarakatchanligi va chaqqonligi bilan ajralib turadi. Yoshlarni tanlash jarayonida uning yuz ifodasiga, qarashlariga va butun tanasining tuzilishiga e'tibor berish kerak. «Davlatning xavfsizligi tom ma'noda armiyaga chaqirilayotgan Yoshlarning sog'lom tani bilan birga uning sog'lom ruxiga xam bog'liq».

Armiyani o'rgatish to'g'risida gap yuritilganda, Vegetsiy Shunday yozadi: «Kim tinchlikni xoxlasa, urushga tayyorgarlik ko'rsin; kim g'alaba qozonishni xoxlasa, jangchilarni mukammal o'rgatsin; kim yaxshi natijalarni qo'lga kiritmoqchi bo'lsa, tasodiflarga emas, balki harbiy san'atga va bilimlarga tayanib urush xarakatlarini olib borsin. Yaxshi o'rgatilgan jangchilarga ega bo'lgan davlatdan kuchliroq, baxtliroq va Shuxratliroq davlat bo'lmaydi». Vegetsiy, avvalombor jangchilarni mexnatga o'rgatish kerak deb xisoblagan. «Tez-tez jangchilarga o'rmon kestirish kerak, og'ir yuklarni olib yurishga, chuqurliklardan sakrab o'tishga, o'z yuklari va qurol-yarog'lari bilan tez yurishga yoki yugurishga majbur qilish kerak, toki bu odat bo'lib qolsin va xar kunlik og'ir mexnat urush chog'ida og'ir tuyulmasin. Mexnat tufayli qo'shin chiniqadi, dangasalikdan tez qariydi va kuchsizlanadi»-deb yozgan edi u. Jangchilarni o'rgatishning umumiy

yoʻnalishini Vegetsiy shunday ifodalaydi: «Jang paytida qilinishi kerak boʻlgan barcha ishlarni tinchlik paytida qilib, ularni mukammal egallash kerak».

Vegetsiy armiyaga yangi chaqirilganlarning jangovar tayyorgarligi mazmunini aniqlab bergan. Jangchini otda yurishga, toʻsiqlardan oshib oʻtishga va suvda suzishga oʻrgatganlar. Vegetsiy jangchini moxirlik bilan qurolni ishlatishiga katta eʼtibor bergan. Legioner nayza bilan xarakatlanishga, kamondan otishga va palaxmon bilan toshlarni 200 m ga uloqtirishga oʻrgatilgan. Xar bir jangchi yaxshi chavandoz boʻlishi talab qilingan. Armiyaga chaqirilgan Yoshlarga uzun sherengalarda yurish, bir qatordan ikki qotorga oʻtish, *kara* (kvadrat saf) shaklidagi safga tizilish, *pona* (uchburchak saf) va dumaloq shaklida saflanish oʻrgatilgan.

Bir oyda uch marta chavandozlar va piyodalar toʻliq qurol-yarogʻlari va anjomlari bilan dala safariga chiqishlari va faqat bir tomoniga 10 mildan kam boʻlmagan masofada shaxdam qadam bilan xarakatlanishlari kerak boʻlgan. Bunday mashqlar, xam tekis joylarda, xam baland-pastliklarda oʻtkazilgan. Va nixoyat, yosh jangchi mustaxkamlangan lager qurish sanʼatini egallashi kerak boʻlgan. U xandaqlar qaziy olishi, qoziqlarni qoqa olishi va olgan barcha ishlarni bajara olishi lozim boʻlgan. «Mana Shularning xammasini puxta oʻzlashtirgan jangchi uchun safda jangni olib borish qoʻrqoqlik emas, balki baxra olishdir» - deb yozgan edi Vegetsiy.

Toʻrt oy va undan ortiq tayyorgarlik va oʻrgatishlardan keyin yoshlar roʻyxatga kiritilganlar va qasamyod qabul qilganlar. «Jangchilar imperator topshirgan xamma ishlarni tirishqoqlik bilan bajarishga, harbiy xizmatni xech qachon tashlab ketmaslikka, Rim davlati uchun oʻlimga xam tayyorlikka qasamyod qilganlar».

Keyin Vegetsiy qoʻshin turlari flot, otiqlar va piyodalarning vazifalarini aniqlagan. Piyodalar legionlarga va yordamchi otryadlarga boʻlingan. «Legion» soʻzining mazmuni Ligio – soʻzidan kelib chiqqan boʻlib – tanlab olish (tanlab olingan) degan maʼnoni bildiradi. «Xamma tomonlama but boʻlgan, chetdan xech qanday yordamga muxtoj boʻlmagan legion odatda xar qanday dushman toʻdasi ustidan gʻalaba qozonishi mumkin»- deb yozgan edi Vegetsiy.


Vegetsiy qoʻmondonlik safining xizmatni olib borishiga katta eʼtibor bergan. YUqori lavozimlarni komandir, faqat barcha boshlangʻich lavozimlardan xizmat davomida

ketma-ket o‘tib borib egallashi kerak. Xar bir tribun (kogorta komandiri) o‘z kogortasining xolati uchun mas’ul bo‘lgan.

«Tribun qo‘l ostidagilarga nisbatan g‘amxo‘rligi, bilimdonligi, jangchisining toza kiyim-boshi, yaxshi, yarqiragan qurol-yarog‘i, uni harbiy ishning nazariyasi va amaliyoti mashqlarini bajarishga o‘rgatilganligi uchun maqtovg‘a sazovordir».

Yorib o‘tilishi oson cho‘ziq frontdan ko‘ra, jangovar tartibning bo‘yiga uzunligini oshirgan yaxshiroqdir, deb ta’kidlagan edi Vegetsiy. Bu erda u falangaga qaytish tarafdori bo‘lib chiqadi. Vegetsiyning jangovar tartibi–yangi va eski taktik usullarni birlashtirishdir.

Jangda Vegetsiy turli xildagi jangovar tartiblarni qo‘llashni tavsiya etgan. Dushmanning qanotlari o‘rab olinganda uni qayirib aylantirib olish kerak. Undan keyin vaziyatdan kelib chiqib «pona», «arra» va «dumaloq»ni qo‘llash kerak. «Pona»ga qarshi Vegetsiy V-xarfi shaklidagi «qaychi» jangovar tartibini qo‘llashni tavsiya etgan. Shunday qilib, Vegetsiy jangovar tartibni murakkablashtirish va turlarini oshirishni taklif etgan.



### **Vegetsiy ta’limoti bo‘yicha jangovar tartibning saflanishi:**

**a) «pona»; b) «qaychi»; v) «dumaloq»; g) «arra»**

Jangda qo‘shinni boshqarish masalalariga Vegetsiy katta e’tibor bergan va kundalik xayotda u bilan Shug‘ullanishni talab qilgan. «Xamma narsalar orasida, beriladigan signallarni aniq bajarish g‘alabaga erishishning asosiy omilidir». Rim armiyasida uch turdagi signallar belgilangan: so‘zlar (inson ovozi), tovush (karnay, surnay, burg‘u) va gung signallar (burgutlar, belgilar, bayroqchalar, qo‘l xarakatlari, ot yollari, qush patlari, olov, tutun, xarakat davomida ko‘tarilgan chang).

G'alabaga erishishning asosiy sharti, o'z rejalari va maqsadlarini sir saqlashdir, deb xisoblagan Vegetsiy. «Nima qilish kerakligini ko'pchilik bilan muxokama qil; lekin nima qilishingni juda kam, eng sodiq kishilar bilan muxokama qil, yaxshisi o'zing xal et. Xali bajarmagan rejangni dushman bilmaganidan yaxshiroq reja yo'q».

«Armiya ta'minotini tashkil etish muxim e'tiborga ega» deb ta'kidlagan edi Vegetsiy. «Xar bir yurishda sening g'alabang—senda oziq-ovqatning serob bo'lishi – dushmaningning esa ochlikdan qiynalishidir».

Vegetsiy jang maydonini tanlashga xam muxim e'tibor qaratgan. Vegetsiyning fikricha uchta omilga e'tiborni qaratish kerak: quYoshga, changga va shamolga. Bularning xammasi qo'shinning front ortida bo'lishi va dushmanning ko'zini qamashtirishi kerak. CHekinayotgan dushmanni ta'qib qilish, uning pistirmasiga tushib qolmaslik uchun extiyotkorlik bilan olib borilishi kerak. Vegetsiyning asarlarida mudofaa va qal'alarni qamal qilishga muxim o'rin ajratilgan. Vegetsiy qal'alarni shturm bilan qamal qilib olishga ishora qiladi, barcha qamal qilish texnikasini keng qo'llashni tavsiya qiladi.

Umuman harbiy san'atga baxo berib, Vegetsiy Shunday yozadi: «Harbiy san'at xamma narsadan yuksak ekanligiga kim Shubxa qilishi mumkin: axir u tufayli davlatning shoni va erkinligi qo'riqlanadi, viloyatlar ximoyalanaadi, imperiyaning butligi ta'minlanadi». Vegetsiyning bu asari katta axamiyatga ega ekanligini, uni o'qiganliklari va o'rta asrlar mobaynida urushlarni olib borishning yagona qo'llanmasi xisoblaganliklari omili tasdiqlab turibdi. X asrdan XV asrgacha ushbu asarning 150 taga yaqin ro'yxati bo'lgan, Uyg'onish davrida u bir necha marotaba bosib chiqarilgan. Qadimgi dunyo harbiy san'atining rivojlanishi bo'yicha asosiy xulosalar.

Qadimgi dunyo harbiy san'ati tarixini o'rgana turib, quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Butun qadimgi dunyo harbiy san'ati ikkita yirik davrga bo'linadi. Birinchi davr - Qadimgi Sharq davlatlari bilan, ikkinchi davr esa - qadimgi Yunoniston va Rim bilan bog'liqdir.

Janglar qo'l qurollari va uloqtiriluvchi qurollar bilan olib borilgan. Taktikaning rivojlanishi frontdan to'qnaShuvlardan iborat bo'lgan kurashning odiy shakllaridan, qo'shin bilan jang maydonida manyovr qilishdek murakkab shakllargacha etdi.

Harbiy san'atning rivojlanishi buyuk sarkardalarning nomlari bilan bog'liqdir: Epaminond kuchlarni front bo'ylab tekis joylashtirishdan voz kechdi va zarbdor kuchlarni

jangovar tartibning xal qiluvchi uchastkasida joylashtirdi; makedoniyalik Iskandar qo‘shin turlari va jangovar tartibning aloxida qismi bilan muvofiqlashgan o‘zaro taktik xamkorlikka erishdi xamda otliqlarni dushmanni tor-mor etishning zarbdor vositasiga aylantirdi; Gannibal taktikaning eng yuqori shakli-qurshab olishni qo‘lladi; Yuliy Sezar qo‘shin bilan jang maydonida manyovr qilishni mukammallashtirdi va zaxirani dushmanni tor-mor etishning xal qiluvchi vositasiga aylantirdi.

## IV BOB. QADIMGI O`RTA OSIYO XALQLARINING HARBIY TARIXI

### 4.1. Qadimgi O`rta Osiyo xalqlarining qurol-yarog`lari va jang olib borish taktikasi

Miloddan avvalgi VII-IV asrlarda O`rta Osiyoda, kanallar va ariqlar orqali yerlarni sug`orib kelgan, o`troq-dexqonchilik bilan Shug`ullangan xalqlar va cho`llar, tog` yon bag`irlari va dexqonchilik voxalari chekkalarida joylashgan ko`chmanchi chorvadorlar qabilalari yashaganlar.

Yozma manbalar baqtriyaliklar, so`g`dlar, parfiyaliklar, xorazmiylar va marg`iyonaliklarni o`troq-dexqon xalqlari sirasiga kiritadi. Ular O`rta Osiyoning asosiy daryolari vodiysidagi yirik viloyatlarga nomlar berganlar: Amudaryoning (Oks) o`rta oqimi bo`ylarini - *Baqtriya*, Zarafshon va Qashqadaryo vodiylarini - *So`g`diyona*, Amudaryo deltasini - *Xorazm*, Murg`ab vodiysini - *Marg`iyona* deb nomlaganlar.

Evroosiyoning bepoyon cho`l zonalarida *saklar*, *massagetlar*, *daxlar* qabilalari joylashganlar.

O`rta dexqonchilik viloyatlarida shaxarlar erta qad ko`tara boshladi. Miloddan avvalgi VII asrning oxirida Baqtriya, Marg`iyona, So`g`diyona erta qad ko`targan shaxarlar ma`lum. Aynan Shu erlarda birinchi bo`lib O`rta Osiyo xalqlarining davlatchiligi shakllana boshladi. Miloddan avvalgi VIII asrda poytaxti Baqtra bo`lgan qadimgi Baqtriya podsholigi to`g`risidagi ilk ma`lumotlar bizgacha etib kelgan. Bu davlatning qo`l ostiga Marg`iyona va So`g`diyona kirgan.

Miloddan avvalgi VI asrning boshlarida birinchi shaxarlar chap soxil Xorazmda paydo bo`la boshladi, bu erda taxminlarga qaraganda janubdan Baqtriya va Kopetdog` tog` yon bag`irlaridan ko`chib kelgan qabilalarning madaniyatlari shakllana boshladi. Baqtriyaliklar va boshqa xalqlar maxalliy davlatchiliklarining rivojlanishi, Miloddan avvalgi VI asrning o`rtalarida Axmoniylarning bosqinchiliklari tufayli to`xtab qoldi. Konfederatsiya va qabilalar uyushmasiga Generallik ko`chmanchi xalqlar, saylangan o`z yo`lboshchilari raxbarligida bosqinchilarga ancha qattiq va muvaffaqiyatli qarshilik ko`rsatdilar.


Qadimgi Yunoniston tarixchisi Gerodot o`zining mashxur «Tarix» kitobida Amudaryoning o`ng qirg`og`idan Sirdaryoning quyi oqimi bo`ylarigacha bo`lgan xududda



yashagan massagetlar qabilalari to'g'risida yozgan. Ularni Gerodot piyoda va ot jangining moxir ustalari, ko'psonli jangchilar deb tavsiflagan, saklarning otliqlarini esa eng yaxshi jangchi chavandozlar deb yozgan. Yunonistonlik sayoxatchi Dionisiy Pereegit oradan ko'p asrlar o'tganidan keyin Gerodotning fikrlarini tasdiqlagan, YAKsartning (Sirdaryoning) quyi oqimi bo'ylarida yashagan saklar qabilalarini tavsiflab, ularni eng yaxshi mergan kamonchilar xisoblagan, ularning kamon o'qlari doimo nishonni bexato urgan, deb yozgan.

Qadimgi Baqtriya podsholigi xalqlarining harbiy anjomlari qadimgi sharq davlatlari harbiy san'atining erishgan yutuqlari xisobidan ancha takomillashdi.

Miloddan avvalgi IV asrda O'rta Osiyoning qurolsozlik ishi o'zining yuqori rivojlanishiga erishdi. Jangchilar xujum qurollarini moxirlik bilan ishlatganlar va dastasi qimmatbaxo qilib bezatilgan temirdan yasalgan (ayrim xollarda bronzadan) xanjarlar va qilichlarni keng qo'llaganlar. Qo'l jangida O'rta Osiyolik jangchilar *akinak* nomi bilan mashxur bo'lgan kalta qilichlardan foydalanganlar. Akinakni *o'ng tomonga* taqib yurganlar. Ularda uzun (1,2 m gacha) qilichlar xam bo'lgan. Jangda ko'p xollarda jangovar boltalar-*sigarislar* qo'llanilgan. Bunday ikkala tomoni xam keskir jangovar boltalar qablarni qazish chog'ida ko'plab topilgan. Gerodot va Strabonning ma'lumot berishicha, massagetlarning sekirlari (sopi uzun oybolta) misdan yasalgan bo'lgan. Bronza va temir uchli uzun nayzalar katta ahamiyatga ega bo'lgan. To'qmoqlarning roli ancha past bo'lgan. Gerodot massagetlarni «nayzachilar» deb atagan.



### Massaget nayzachilari


Uzoqqa zarba beruvchi qurol sifatida, avvalom bor, kamon qo'llanilgan. Miloddan avvalgi V asrdan O'rta Osiyoda skiflar namunasidagi murakkablashtirilgan kamon qo'llanilgan. U otish uzoqligi oshirilganligi va samadorligi bilan ajralib turgan. Bunday kamonlarning bir nechta turi ma'lum: baqtriyaliklar xamda so'g'diyonaliklar, parfiyaliklar

va xorazmliklar kamonlarni yasash uchun qamishdan foydalan-ganlar. Kamon o'qlarining uchlari temirdan (yoki misdan) yasalgan. Gerodot, Ksenofont, Arrianning manbalarida sak va massagetlarning «kamonchilari», «otliq kamonchilari» esga olinadi. Murakkab «skif» kamonlari yaxshi jangovar si-fatlarga ega bo'lgan. Kamonning o'qdoni teridan va yupqa yog'ochdan yasalgan. O'rta Osiyolik jang-chilar palaxmonni moxirlik bilan ishlata olganlar.

Jangchilar mudofaa sovutlari bilan ximoyalanganlar. Kvint Kursiy Rufning (makedoniyalik Iskandarning yurishlari tarixchisi) yozishicha, O'rta Osiyoning cho'llik jangchilari «temir plastinkalardan» iborat bo'lgan sovutlarga ega bo'lganlar. Arrianning ma'lumot berishicha jangchilar jangda temir sovutlar bilan «yaxshilab yopilgan» bo'lganlar. Temir dubulg'alardan xamda xar xil shakl va o'lchamdagi qalqonlardan xam foydalanilgan. Gerodotning yozishicha, massagetlarning otlari ko'krak sovutlari bilan ximoya qilingan. Arxeologiya ma'lumotlariga ko'ra O'rta Osiyo, otlarni ximoya anjomlari bilan birinchi bo'lib jixozlash joriy qilingan joy bo'lgan. O'rta Osiyoda kashf etilgan bu muxim yangilik g'arbga-Forsga, janubga-Xindistonga, Sharqqa-Xitoyga tarqalgan.

So'g'diyona, Baqtriya, Xorazm jangchilari botir, qo'rqmas va ajoyib chavandozlar bo'lganlar.

O'troq va cho'lning ko'chmanchi xalqlarining chavandozlari uzangisiz engil egardan yoki to'qimdan foydalanganlar, etiklarining yonboshida otni niqtash uchun tig'lar bo'lgan. Ko'p xollarda egarlar oltin bilan bezatilgan.



**Saklar boshlig'ining kiyim-boshi va jangchining anjomlari**

Ko'chmanchi qo'shinlar otliq jangchilardan tashkil topgan. Xatto ayollardan maxsus otryadlar tuzilgan. Yunonistonlik tarixchi Klavdiya Ellanning ma'lumotlariga qaraganda kuyov uylanishidan oldin qiz bilan kurash tushishi kerak bo'lgan. Agar u yutib chiqsa qizga uylangan, agar engilsa u qizning asiriga aylangan. Bunday an'ana faqat erkak jangchilarni emas, balki ayol jangchilarning xam tarbiyalariga o'z xissasini qo'shgan. Ayollarning erkaklar bilan birga turib jang qilishlari muqaddas burch xisoblangan.


Ko'rib chiqilayotgan davrda xar bir xukmdor yaxshi qurollangan yollangan jangchilar otryadiga ega bo'lgan. Bundan tashqari, qabilalar yoki to'dalar boshliqlari, o'q-yoy, nayza va qilichlar bilan jangni olib borgan o'z qabiladoshlari yoki urug'lariga raxbarlik qilganlar. Qabilaning xar bir jangchisi o'zi bilan safarlarda oziq-ovqatlari (tolqon, qurut), yarim qaynatilgan go'sht, suv idishlarini olib yurgan.

Bronza asridayoq O'rta Osiyoda fortifikatsiya inshootlarini qurish san'ati joriy etilgan. Yunon-makedonlar bosqiniga O'rta Osiyo, iste'qomlar bilan kuchli mudofaa qilingan shaxarlarga ega bo'lgan davlatga aylandi. Umumshaxar istexkomlaridan tashqari, yirik shaxarlar qo'rg'on ko'rinishidagi qudratli fortifikatsiya tarmoqlariga ega bo'lgan.

Qadimgi shaxarlar va qal'alar baland devorlar bilan o'rab olingan. Devorlar mustaxkam g'ishtlardan qurilgan bo'lib, minoralari xam bo'lgan. Minoralarda maxsus tuynuklar yasalgan, ulardan shaxar ximoyachilari dushmanga kamondan o'q yog'dirganlar. Mudofaa devorlari suv to'ldirilgan chuqur xandaqlar bilan o'ralgan. Shunday qal'alar qadimgi Baqtriya, So'g'diyona, Marg'iyona, Xorazm, Farg'ona, Chochda qad ko'targan. So'g'diyonaning yirik shaxri *Smaraqanda* xisoblangan (hozirgi Samarqand), greklar uni *Maraqanda* deb atashgan. Makedoniyaliklar bosqinchiligi davrida shaxar ikki qismdan iborat bo'lgan: devorlar va chuqurliklar bilan o'ralgan qo'rg'on va devorlarining uzunligi 70 stadiyaga, ya'ni 12-12,5 kilometr ga teng bo'lgan. (Kvint Kursiy Rufning ma'lumotiga ko'ra).

Xorazm davlatining rivojlanishi bilan xam yangi shaxarlar va qal'alar qad ko'tara boshladi. Misol tariqasida Jonbosqal'ani keltirish mumkin, u to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan bo'lib, ikki qator mustaxkam devor bilan o'ralgan. Uning kirish joyiga katta e'tibor berilgan, beshta burilishli oraliqlar qurilgan va ichki devorlari otish uchun qo'shimcha tuynuklar bilan jixozlangan. Minoralarning bo'lmaganligi uchun otish uchun maxsus tuynuklar burchaklar bo'ylab, o'ng burchak, chap burchak va to'g'riga otish uchun

qulay qilib joylashtirilgan, devorlarda esa devorlar bo‘ylab otish uchun uchta otish tuynugiga ega bo‘lgan yarim aylana ravoqlar bo‘lgan. Dushmanga qarshi kamondan yaxshi otish uchun otish tuynuklari chuqurlashtirilgan va ulardan pastga tomon bo‘rttirib qiya qilingan jo‘yaksimon devorlar qurilgan. Shuning uchun devorlar yarim ustunlar bilan to‘silgan degan tasavvur paydo bo‘ladi.



### **Qadimgi Xorazm Miloddan avvalgi III-II asrlar Jonbosqal'a.**

Qal'a devorlaridagi ko'psonli otish tuynuklarining borligi, mudofaa uchun axolining xammasi jalb qilingan degan xulosaga kelishga majbur etadi. SHaxarning butun fortifikatsiya tizimi ko'chmanchilarning bosqinchiliklaridan ximoyalani uchun yagona mudofaa tizimi yaratilganidan dalolat beradi.

Xorazmliklar, baqtriyaliklar, saklar Axmoniyar davlati armiyasining harbiy kontingentining ko'pchiligini tashkil etgan. Misol uchun, Yunoniston-Fors urushi paytida, Marafon jangida Fors piyodalari bilan birga afinaliklar jangovar tartibining markazini chekinishga majbur qilgan saklarning *otliqlari o'z qaxramonliklari bilan ajralib turganlar*. Saklar Plateya va Fermopil janglarida xam qaxramonlik va matonat namunalarini ko'rsatdilar. Fors sarkardasi Mardoniy Yunonistonni zabt etish uchun o'zining saralangan otryadiga forslar va midiyaliklar bilan bir qatorda baqtriyaliklar va saklarni xam kiritgan. Sak jangchilari kema ekipajlari saflariga kiritilgan. Sak jangchilari ifodalangan terrakotlar va plastinalar Axmoniyar davlati xududidan topilgan.

O'rta Osiyo qo'shinlari aloxida qo'shin turlariga bo'linishni bilganlar: bo'linma-bo'linma bo'lib jangovar safga tizilish qo'llanilgan, xujum ayrim xollarda bo'yiga chuqur eshelonlashtirilgan ixcham bo'linmalar bilan olib borilgan. Shu bilan birga boshqa taktik qoida-strategik chekinish xam ma'lum bo'lgan, unda otliq qo'shinlar to xujum qilgan,

to boshqa yoʻnalishdan shiddatli zarbani berish uchun ortga chekingan. Umuman odatda, xujumkor jang «yopirilib» bostirib borish bilan boshlangan, bunda otda shiddat bilan xarakatlanib ximoyalananayotganlarning ustiga kamon oʻqlari va nayzalar yogʻdirilgan, gʻanim bilan yaqinlashib qolinganda qatʻiy xujumga oʻtilgan, keyin qoʻl jangi boshlangan va chekinayotgan dushmanni taʻqib qilish bilan xujum nixoyasiga etkazilgan. Xal qiluvchi davrda jangga zaxira kiritilgan.

Oʻrta Osiyolik jangchilar oʻzaro xamkorlikni moxirlik bilan amalga oshirganlar. Koʻp xollarda otliqlar va engil piyodalarning birgalikdagi xarakatlari variantlari ishlab chiqilgan: otda ikki kishi boʻlib oʻtirgan chavandoz-daxlar dushman bilan yaqinlashishda xam otliqlar, xam piyodalar sifatida xarakatlanganlar-ulardan biri otda, ikkinchisi esa otdan tushib piyoda safda jangni davom ettirgan.

Qadimgi tarixchilar sak jangchilarining fazilatlarini yuqori baxolaganlar, bunga greklar Yunoniston-Fors urushi paytidayoq amin boʻlganlar. Bunga keyinchalik makedoniyalik Iskandarning xam bir necha marotaba tan berishiga toʻgʻri keldi-birinchi marta Gavgamela jangining boshida sak-baqtriya otliqlari Iskandarning avangardini chekinishga majbur qilgandi (Arrianning bergan maʼlumoti).

Oʻrta Osiyo xalqlarining harbiy ishlarini tadqiq etuvchilar quyidagi xulosalarga kelganlar:

Oʻrta Osiyoliklarning qurol-yarogʻlari oʻsha davrning eng takomillashgan qurollaridan boʻlib, xatto ayrim koʻrsatkichlar boʻyicha yunon-makedon qoʻshinlarining qurol-yarogʻlaridan xam ustun boʻlgan.

Oʻrta Osiyoda xujum va mudofaaning turli taktik qoidalari ishlab chiqilgan va qoʻllanilgan.

Axmoniyalar davlatining greklar bilan urushida, Shu jumladan makedoniyalik Iskandarga qarshi janglarda (Oʻrta Osiyodan tashqarida) ishtirok etganligi tufayli, Axmoniyalar va yunon-makedon armiyalari singari, Oʻrta Osiyo xalqlari jangchilari qurol-yarogʻ va jang olib borishning taktik qoidalari bilan yaxshi tanish ekanliklarini koʻrsatdilar.

Miloddan avvalgi VI-IV asrlarda Oʻrta Osiyo xalqlarining harbiy potensiali juda yuqori boʻlgan, bu oʻz navbatida chet ellik bosqinchilarga qarshi kurashda muxim omil yaratgan.

Koʻp xollarda bizning oʻtmish ajdodlarimiz dushman ustidan nafaqat kuch bilan, balki harbiy xiyla bilan gʻalaba qozonganlar. Bunda ular koʻplab pistirmalar va dushmanni

taktik chalgʻitishni qoʻllaganlar. Qadimgi saklar, massagetlar va soʻgʻdlarning asosiy ustunliklari xarakatchanlik va moxirlik bilan manyovrni amalga oshirish boʻlgan. Ularning harbiy tayyorgarliklarining kuchsiz tomoni-yaxshi ximoyalangan qalʼalarni xujum bilan zabt eta olmaganliklaridir. Oʻrta Osiyo xalqlarining Axmoniylarga qarshi kurashi. Toʻmaris, SHiroq.

Oʻrta Osiyo xalqlari chet ellik bosqinchilar tomonidan oʻzlarini qul qilinishlariga qarshi qattiq kurashganlar. Miloddan avvalgi 530 yilda Fors podshosi Kir II massagetlarga qarshi yurishida koʻrsatilgan qattiq qarshilikni toʻligʻicha bostira olmadi. Gerodotning taʼkidlashicha, Kir II shimol tomonga qancha koʻp xarakatlangan sari, Shuncha koʻp qiyinchiliklarga duch kelgan.

Qariyb butun Kichik Osiyoni va Vavilonni bosib olgan Kir II, koʻchmanchi-massagatlarni qul qilish va boyliklarini egallash maqsadida oʻz qoʻshinlarini Oʻrta Osiyoga boshladi. Massagetlar oʻz xukmdorlari malika Toʻmaris raxbarligida qudratli dushmanga qarshi chiqishga axd qildilar. Massagetlar qudratli kuchga ega edilar. Ularning qoʻshinlari tezkorlik bilan xarakatlanadigan va manyovrlarni moxirlik bilan bajara oladigan jangchilar boʻlganlar. Ularning asosiy ustunliklari-oʻz vatanlari tuprogʻida janglarni olib borishlari edi.



### **Togʻli sak jangchisi**

Fors qoʻshini Miloddan avvalgi 529 yilda Oksni (Amudaryo) kechib oʻtdi va massagatlarning ilgʻor otryadlaridan birini tor-mor etdi. Toʻmaris oʻz qoʻshiniga, dushmanni oʻz xududining ichkarisiga boshlab kirish va qirib tashlash uchun chekinishga buyruq berdi. Bu muvaffaqiyatdan ruxlangan forslar massagatlarni taʼqib qila boshladilar va avvaldan togʻlar orasidagi darada tayyorlangan tuzoqqa tushdilar. Bu darada butun fors qoʻshinlari qirib tashlandi va Kir II ning oʻzi xam xalok boʻldi.

Gerodotning maʼlumot berishicha, bu jang varvarlar (grek boʻlmagan axoli) ishtirok etgan eng shiddatli jang boʻlgan. Dastavval ikkala tomon xam bir-birlarini kamon oʻqlari bilan yakson qila boshladilar. Kamon oʻqlari tugaganidan keyin ular otlarda qilichlar bilan jangni davom ettirdilar. Jang uzoq davom etdi, xech kim yon berishni istamas edi. Oxir-oqibat massagetlar gʻalaba qozondilar.



Rivoyatlarga qaraganda malika, Kirning kesilgan boshini qonga to'ldirilgan meshga tashlashga buyruq berdi va uning shafqatsizligini qoralab Shunday deydi: «sen xech qachon qonga to'ymading, mana endi to'yguningcha ich».

Miloddan avvalgi 519-518 yillarda Doro I O'rta Osiyoning sak qabilalariga qarshi yurishni amalga oshirdi.

Bu urushda saklar fors qo'shinlaridan mag'lubiyatga uchradilar va ko'plab jangchilar xalok bo'ldilar va asir olindilar. Lekin saklar va dushman tomonidan bosib olingan boshqa xalqlar Fors bosqinchilariga qarshi qaxramonona jang qildilar. Bu xaqda SHiroq to'g'risidagi rivoyat guvohlik beradi.

Kunlarning birida forslarning lageriga sak cho'poni SHiroq keldi. Uning quloqlari va burni kesilgan, yuzlarida xam yaradorlik izlari ko'rinib turar edi. SHiroq, uni qabiladoshlari Shu ko'yga solganligi va ulardan qasdini olishi kerakligini aytdi. U Fors qo'shinlarini, uning yolg'iz o'ziga ma'lum bo'lgan qisqa yo'ldan saklar qo'shini ortiga olib chiqishini aytdi. CHo'lma-cho'l etti kun yo'l yurilganidan keyin forslar aldanganliklarini sezdilar. O'ziga o'lim taxdid solib turganiga qaramay SHiroq, Shunday dedi: «Men g'alaba qildim, o'z yurtdoshlarim, saklarni o'limdan saqlab qoldim, forslarni suvsizlikka va ochlikka duchor qildim». Forslar bu matonatli cho'ponni qatl qildilar, Doro I ning qo'shinlari katta talofat ko'rdi.

O'rta Osiyoning erksevar qabilalari va xalqlari doimo Axmoniyalar podsholarining zulmlariga qarshi turib kelganlar. Mustaqillik uchun kurashlar natijasida xorazmlilar Miloddan avvalgi IV asrda Axmoniyalardan mustaqil ravishda o'z davlatlarini tashkil etdilar. Shu vaqtdan boshlab saklar Axmoniyalarga qaram bo'lmadilar.


So'g'dlar, saklar va massagetlarning yunon-makedon bosqinchilariga qarshi kurashi. Spitamen. Doro III ning o'limidan keyin makedoniyalik Iskandar, Axmoniyalarning vorisi xisoblangan Baqtriya va So'g'diyonaning noibi - satrapi Bessni (Doroning qotili) ta'qib qila boshladi. Iskandar O'rta Osiyoga yurishining rasmiy sababi Bessni jazolash, deb e'lon qildi. Miloddan avvalgi 329 yilda Makedoniya armiyasi Baqtriya va So'g'diyonaga bostirib kirdi. Bu armiya besh kun ichida Oksni (Amudaryoni) kechib o'tdi. Maxalliy xukmdorlar Makedoniya podshosining niyatini bilib, Bessni qo'lga olib unga etkazdilar. Iskandar Bessni jazoladi, lekin yurishni to'xtatmadi.

Iskandarning qo‘shini *Nautaki* (hozirgi Kitob xududi) orqali o‘tdi va Maroqandani (Samarqandni) egalladi. Undan keyin Makedoniya armiyasi YAKsart (Sirdaryo) daryosi bo‘ylariga chiqdi, uning qirg‘og‘ida kuchli mudofaalangan *CHekka Aleksandriya* shaxri barpo etildi, lekin So‘g‘diyona mustaxkamlanish maqsadida, o‘z mustaqilligi uchun kurashgan shaxarlar va qabilalar bilan uch yil qattiq kurashishiga to‘g‘ri keldi.

So‘g‘diyona makedoniyalik bosqinchilarga qarshi kurashga, sak qabilalari bilan ittifoqchilikka tayangan iste‘dodli sarkarda -Spitamen raxbarlik qildi. Dushmanning kichik otryadlariga va uncha katta bo‘lmagan garnizonlariga xujum qilgan So‘g‘diyona axolisi matonatli qarshilik ko‘rsatdi.

Yaksart daryosi vodiylarida joylashgan, bosqinchilarga qarshi bosh ko‘targan ettita shaxar axolisi makedoniyaliklar garnizonlarini tor-mor etdi. Iskandarning yana boshdan bu shaxarlarni qamal qilishiga to‘g‘ri keldi. Spitamen qo‘mondonligi ostidagi otryad Maroqandada makedoniyaliklar garnizonini qamal qildi. Saklar Yaksartning o‘ng qirg‘og‘ida jamlandilar. Makedoniya armiyasi qiyin axvolda qoldi. Yaksartning o‘ng qirg‘og‘idagi shiddatli janglardan keyin saklar o‘z davlatlarining ichkarisiga chekindilar. Cho‘l bo‘ylab ularni ta‘qib qilishga Iskandarning yuragi dov bermadi.

Bosqinchilar Maroqandaga xarakatni davom ettirdilar. Spitamen vaziyatni to‘g‘ri baxoladi, jangga kirishmadi, Maroqanda qamalini echib, saklar bilan birlashish uchun chekindi. Unga makedoniyaliklarning kichik bir otryadi etib olishga xarakat qilib ko‘rdi.



### **Miloddan avvalgi 329 yildagi Politimet daryosi bo‘yidagi jang.**

Spitamen jiddiy jangga kirishmay vaqti-vaqti bilan makedoniyaliklarga xujumni amalga oshira boshladi. Bu xol makedoniyaliklarni chekinishni boshlashga majbur etdi. Dushmanning kamon o‘qlaridan kam talofat ko‘rish uchun Makedoniya otryadi Politimet (Zarafshon) daryosi bo‘ylaridagi butazorlarda to‘xtadi va Shu erdan jang boshlandi.



Makedoniyaliklar daryoni kechib o'ta boshladilar. Spitamenning kamonchilari daryoni kechib o'tayotgan dushmanni ro'paradan kamonlar yordamida qirib tashlay boshladilar. Shu bilan bir vaqtda Spitamenning otliqlari daryoga tashlandilar va daryoning o'rtasidagi orollarning birida yashirinishga xarakat qilgan dushmanning qanotlariga xujum qildilar.

Spitamen otryadi makedoniyaliklarni tom ma'noda kamonlardan tor-mor etdi. Makedoniyaliklarning bir qismi saklar tomonidan yaratilgan pistirmaga tushdi. Bunda makedoniyaliklarning xamma harbiy boshliqlari o'ldirildi, faqatgina 40 otliq va 300 piyoda jangchilar qochishga ulgurdilar.

Spitamenning xarakatchan otliq otryadi, jangga kirishmasdan, dushmanni tuzoqlarga kirishga majbur qilib, pistirmalar uyushtirib, Makedoniya armiyasining yirik otryadini tor-mor etdi.

Iskandar o'z otryadiga yordam ko'rsatish uchun katta kuch tashladi, bu kuchlar uch kun mobaynida 280 km yo'l bosib kelganiga qaramay ancha kechikdi.

Makedoniya qo'shinlari xalok bo'lganlarni dafn etdi va saklar xududiga ichkarilab ketishdan xayiqib Baqtriyaga qaytdi. Butun qish davomida Makedoniya armiyasi yangi kampaniyaga tayyorgarlik ko'rdi va Shu bilan birga, Baqtriya va So'g'diyonaning qo'zg'olon ko'targan xalqlari bilan kurashni davom ettirdi.

Iskandar Sharqqa yurishni boshlaganida, u xali xam o'zining ustozlari Arastuning (Arestotelning), «varvar va qul tabiatan ikkalasi bir xil» -degan o'gitlariga ishonar edi. Lekin, Iskandarning o'ziga noma'lum bo'lgan uzoq yurtda ko'rganlari, uning «varvarlar» to'g'risidagi tushunchasini tubdan o'zgartirib yubordi. Bu erda u qullarcha ta'zim va erksizlikni emas, varvarlik va nodonlikni emas, balki matonat va yuqori insoniy qadr-qimmatni ko'rdi.

Spitamen bir kun xam dushmanni tinch qo'ymadi Uning uchqur otliq otryadlari bosqinchilarga xujum qilib, unga sezilarli talofatlar etkazdilar.

Miloddan avvalgi 328 yilning baxorida Iskandar o'z armiyasini besh qismga bo'ldi, So'g'dning u chekkasidan bu chekkasigacha xarakatlanib, 120 ming kishini qirib tashladi. Shu yilning kuzida Spitamenning Iskandar bilan Maroqanda uchun oxirgi jangi bo'lib o'tdi. Bu jangda ikkala tomon xam katta talofatlar ko'rdi. Spitamen yana cho'lga chekindi. Bu erda ko'chmanchi qabilalarning raxbarlari sotqinlarcha unga xujum qildilar va

Arrianning yozishicha, -«uning boshini tanasidan judo qilib Iskandarga yubordilar, Shu bilan o‘zlariga taxdid solib turgan xavfni bartaraf etdilar».

Axmoniyalar dunyosini zabt etgan Iskandar So‘g‘diyonda xalq qo‘zg‘olonini oxirigacha bostira olmadi. Faqatgina maxalliy zodagonlarning xoinligi va yunon-makedon armiyasining harbiy ustunligi tufayli so‘g‘dlarning qaxramonona qarshiligi bostirildi. O‘rta Osiyo erlarini zabt etish uchun Iskandarning qariyb uch yil vaqti ketdi, lekin Shunga qaramay u o‘ziga uncha katta bo‘lmagan xududni: So‘g‘d, Baqtriya va tog‘ viloyatlarining kichik qismini bo‘ysundira oldi. Xorazm va ko‘chmanchi qabilalar o‘z mustaqilliklarini saqlab qoldilar.

Maxalliy zodagonlarni o‘z tomoniga og‘dirib olish uchun Iskandar, So‘g‘dning tog‘ viloyatlaridan birining xukmdori Vaxshuvarning (Oksiartning) qizi Roxshanakka (Roksanaga) uylandi.

Spitamening qo‘zg‘oloni qiyinchilik bilan bostirildi, lekin xali xam Paretakena (paretaklar mamlakati-Surxondaryoning shimoliy xududidagi tarixiy viloyat) qarshilik ko‘rsatayotgan edi, bu erda qabila boshliqlari Avstan va Katan rahbarligida baqtriyaliklar qaxramonona jang qilayotgan edilar. Bu qo‘zg‘olon qonga botirildi. Makedoniyalik Iskandar uchun g‘alaba qimmatga tushdi va mag‘lubiyat bilan teng bo‘ldi. Sirdaryoga etib kelib u saklar bilan xujumni davom ettirishga botina olmadi.

Spitamen, Avstan, Katan singari iste‘dodli sarkardalari, jang olib borish qobiliyati yuqori bo‘lgan otliq otryadlari bo‘lgan ajdodlarimizning matonatlari, makedoniyaliklarni Baqtriya va So‘g‘diyoni bosib olish uchun ko‘p kuch va vaqt sarflashga majbur etdi. Makedoniya armiyasi katta talofatlar ko‘rdi. Iskandarning o‘zi bir necha marta yarador bo‘ldi.

Miloddan avvalgi 327 yilda uning armiyasi Xindistonga yurishni boshladi. O‘rta Osiyo davlatlarining antik davr va ilk O‘rta asrlardagi harbiy tarixi. Miloddan avvalgi IV asrda Xorazm mustaqil davlat bo‘ldi. Xorazmliklar xatto Fors davlatiga bog‘liqlikdan rasman ozod bo‘ldilar. Xorazm xukmdori Farasman (Xvarazman) Miloddan avvalgi 329 yilda 1500 otliq qo‘shin bilan Iskandarning xuzuriga kelib, kolxlar va amazonkaliklarga (SHimoliy Kavkaz xalqi) qarshi ittifoq tuzishni taklif etdi. Spitamenga qarshi kurash bilan band bo‘lgan Iskandar taklifni qabul qilmadi, lekin Farasman bilan do‘stona ittifoq tuzdi. Shu bilan Xorazmning mustaqilligi saqlanib qolindi.

Iskandarning davlati tarqalib ketganidan keyin Parfiya, Areyva, Baqtriya va So'g'diyona Selevkiylar davlati safiga kirdi, Xorazm esa o'zining maxalliy sulolasi xukmdorligi saqlanib qolindi.

Miloddan avvalgi III asrdan O'rta Osiyo o'lkasiga birin-ketin Evroosiyo ko'chmanchilari bosqinchilik xarakatlarini boshladilar. Natijada ushbu xududda podsholik qiluvchi sulola, ko'chmanchilardan etishib chiqqan bir nechta podsholiklar shakllandi. Parlar qabilasidan bo'lgan Arshakiylar boshchiligidagi bu Parfiya podsholigi, Orolbo'yidagi daxlar qabilalari ittifoqining bir qismi edi. Miloddan avvalgi II asrdan Xorazmda podsholik qilgan oldingi sulola, bir necha asrlar davomida xukmronlik qilgan boshqa sulolaga o'zgardi.

Xorazm xukmdori o'z tangasini chiqardi, uning orqa tomonida otliq jangchi tasvirlangan.

Qabilalarning eng yirik konfederatsiyasi Qang'yuy yoki Kandzyuy (Xitoy manbalariga qaraganda) davlatlari xisoblanib, ular Fors yozma manbalariga (Avestoda) Kangxi nomi bilan mashxur.


Manbalar, Sharqda Farg'onadan, shimoli-g'arbda Orol bo'ylarigacha ulkan xududni egallagan bu davlatlarning yarim ko'chmanchi xarakterini ta'kidlaydi. Xitoy manbalarining guvoxlik berishicha Volgadan Uralgacha bo'lgan xududda yashagan cho'l va cho'l o'rmon qabilalari xam Qang'yuyga bo'ysungan.

Qang'yuy safiga beshta kichik mulklar kirgan. Xitoyliklarning ko'rsatishlaricha ularning safiga Xorazm, CHoch (Toshkent o'lkasi) va So'g'dning g'arbiy, markaziy va janubiy erlari to Boysun tog'larigacha va Qo'xiton kirgan. Davlat milodiy V asrgacha mavjud bo'lgan, keyin bir nechta kichik mulklarga bo'linib ketgan va ularning ko'pchiligi eftaliylar davlati tarkibiga kirgan. Qang'yuy katta armiyaga ega bo'lgan, manbalarga qaraganda uning safi 125 ming kishiga etgan, armiyaning asosini og'ir va engil otliqlar tashkil etgan. Qadimgi grek tarixchisi Strabon «ular kamonlar, qilichlar, sovutlar, mis boltalar bilan qurollangan yaxshi jangchi bo'lganlar, jangda ular oltin kamarlar va oltin belbog'lar taqqanlar»-deb yozgan edi.

Qang'yuy jangchilari butun tanani ximoya qilib turgan plastinali yoki tangachali zirx (katta xajmdagi temir plastinalar tikilgan teri pocha-po'stin) kiyib ustidan oltin kamar taqib

yurganlar va uzunligi to'piqlarigacha keladigan yaktag kiyganlar. Plastinali zirx bilan otning xam butun tanasi ximoya qilingan.

Katafraktar-chavandozlar boshlariga tepa qismi bo'rttirilgan aylana yoki konussimon dubulg'a kiyganlar. Dubulg'aning old qismi o'rtasidan uchburchak shaklda peshanaga tushib turgan. Dubulg'aning orqa tomonida boshning orqa tomonini ximoya qilib turish uchun tangachali to'r osilib turgan. Ko'p xollarda bo'yinni baland zirxlangan yoqalar ximoya qilgan.



**Qang'yuy katafraktarlarining jangi. Jangchining qabridan topilgan suyak plastina.**

#### **4.2. Miloddan avvalgi I asr Orlat, Samarqand viloyati**

Jangchilar uncha katta bo'lmagan aylana qalqon olib yurganlar. Qilichlari uzun va to'g'ri bo'lib, dastasi krestsimon bo'lgan, uni chap yonga taqib yurganlar. Ayrim jangchilar gurzilar bilan qurollanganlar, ularni uloqtirish quroli sifatida xam ishlatganlar.

Qang'yuyning xamma jangchilari o'q-yoylar bilan qurollanganlar. Kamon o'qlari xam o'qdonlarda, xam *goritalarda* (kamon bilan birga olib yuriladigan maxsus o'qdonda) saqlangan.

Chavandozlar nayzalar bilan qurollanganlar, bu nayzalardan uloqtirish uchun xamda qo'l jangida foydalanilgan va jangovar boltalar-chekanlar, uzun qilich xam (sarmatlar qilichi) qo'llanilgan. Ular otning ustiga og'ir qurollangan chavandozlar uchun qulay qilib yasalgan egarlarda o'tirganlar. Xujum qurolining maxsus turi sarisa turidagi, *kantos* deb yuritilgan uzun nayzalar (6 m gacha) bo'lgan, ularni chavandozlar ikki qo'llab ushlab jangga kirganlar.

Ximoya vositalari bilan o‘ralgan og‘ir qurollangan otiqlar, xudi Shunday ximoyalangan otlarda jipslashgan safda jang qilganlar. Dushmanga yopirilib kamonlardan o‘q otganlar. Dushmanning jangovar tartibi buzilgandan keyin katafraktar-chavandozlar uni ikkinchi tomondan o‘rab olganlar va kamon o‘qlarini yog‘dirishni davom ettirganlar.

Dushmanning qarshi zarbasi, ataylab chekinish va undan keyin dushmanning qanotlariga va front ortiga qat‘iy zarbalarni berish bilan bartaraf etilgan. Kuchli o‘q yomg‘irlari, gurzilarni uloqtirish va uzun nayzalarni qo‘llash bilan jangchilar dushmanni o‘z saflariga yaqinlashishiga yo‘l qo‘ymaganlar.

Bunday taktika cho‘lning o‘rtasida joylashgan o‘lkani ximoya qilish uchun qulay bo‘lgan. Bunday taktikani mukammal egallagan parfiyaliklar xam qudratli Rim armiyasiga qarshi uni muvaffaqiyatli qo‘llaganlar. Shuni ta‘kidlash lozimki, ko‘pgina xalqlar og‘ir qurollangan otiqlar bilan jang olib borish taktikasini bizning ajdodlarimizdan olganlar.

Qadimgi Farg‘ona aloxida davlat bo‘lib, Xitoy manbalarida «Davan» (Tayyuan) nomi bilan yuritilgan. U g‘arbda Qang‘yuy bilan chegaradosh bo‘lgan.

Qadimgi Davanda qishloq xo‘jaligi, xunarmandchilik va qurilish juda rivojlangan. Qadimgi Farg‘ona ayniqsa o‘zining argamaklari-otlari bilan mashxur bo‘lgan, ularni xitoyliklar «osmon tulporlari» deb ataganlar.

Qadimgi Davan qo‘shinlari xitoyliklarning ma‘lumotlariga qaraganda 60 ming kishini tashkil etgan va ular kamonlar va nayzalar bilan qurollanganlar. Ayniqsa qadimgi Farg‘ona jangchilari otda turib kamon otishning moxir ustasi bo‘lganlar. Qo‘shinning asosiy qismini chavandozlar tashkil etganlar. Farg‘onalik jangchilar Qang‘yuylik jangchilar singari ximoya kiyimlarini kiyganlar, otlariga xam sovutlar kiygizganlar. Balki xitoyliklar bu qurolni qadimgi farg‘onaliklardan o‘rgangandirlar.

O‘z davlatlarini mudofaa qilish uchun farg‘onaliklar qal‘alar qurganlar. Qadimgi Davanning poytaxti Ershi shaxri (hozirgi Andijon viloyatining Marxamat shaxri) ikki qator (ichki va tashqi) devor bilan o‘ralgan. SHaxarning ichida omborlar va oziq-ovqatlarni, qurol-yarog‘lar va boshqa kerakli anjomlarni saqlash uchun binolar qurilgan.

Qadimgi farg‘onaliklar o‘z otlarini ayab-asraganlar. Farg‘ona xukmdorining Xitoy elchisiga otlarni sotishdan bosh tortganligi, Xitoy qo‘shinlarini Davanga bostirib kirishiga sabab bo‘ldi. Miloddan avvalgi 104-101 yillarda Xitoyning 60 minglik otliq va piyoda jangchi qo‘shinlari Davanga bostirib kirdi.

Birinchi yurish mustaxkamlangan axoli punktlarining qarshiliklarini sindira olmagan xitoyliklarning tor-mor etilishi bilan tugadi.

Miloddan avvalgi 101 yildagi ikkinchi yurishda xitoyliklar Ershi shaxrini qamal qildilar. Xitoyliklar shaxarni egallay olmaganliklaridan keyin, shaxarning suv ta'minotini buzib tashladilar, lekin shaxar ximoyachilari quduqlar qazib suv ola boshladilar. Bir necha ming otlarni olgan xitoyliklar urushni to'xtatdilar, shaxarning ichkarisiga kira olmadilar va ortga qaytdilar.

O'rta Osiyoning ushbu davrdagi uchinchi davlati o'z ichiga janubiy O'zbekistonni, hozirgi Tojikistonning katta qismini xamda Afg'onistonning qo'shni rayonlarini olgan bo'lib, uni *yuechjilar* barpo etgan, yuechjilarni qadimgi mualliflar *toxirlar* deb nomlaganlar.

Grek-baqtriya xukmdorlari ustidan qozonilgan g'alabadan keyin yuechjilar Amudaryoning o'ng qirg'og'i bo'ylariga joylashdilar. Yuechjilar Sharqiy Turkistondan siqib chiqarilgan ko'chmanchi qabilalar bo'lgan. Taxminan Miloddan avvalgi 140 yilda yuechjilar So'g'diyona va Baqtriyaga bostirib kirdilar. Xitoyliklarning ma'lumotlariga qaraganda, yuechja qo'shinlari 100 mingdan 200 mingtagacha bo'lgan. Qo'shinning asosini chavandozlar tashkil etgan.

Miloddan avvalgi 124-123 yillarda toxirlar o'zlarining qo'shnilari parfiyaliklar bilan urush qildilar. Bo'lib o'tgan jangda Parfiya xukmdori Artaban og'ir yarador bo'ldi. Faqat Parfiyaning keyingi podshosi Mitriadatning tezkor xarakatlari tufayli ular toxirlarni (yuechjilarni) to'xtatib qoldilar.

Milodiy I asrda beshta yuechjilar qabilasidan biri davlatda xukmdorlikni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Bu qabilaning nomi gushun (kushon) bo'lganligi uchun davlat xam Kushon davlati deb atala boshlandi.



**Kushon podsholari jangovar anjomlarda**

(Kanishka va Vasudevlar tangasidan)

Keyinchalik Kushon xukmdorlari o'z davlatlari safiga butun Baqtriyani va Xindistonning shimoli-Sharqiy qismini kiritdilar.

Kushon davlatining eng qudratli podshosi Kanishka bo'lgan (taxminan Miloddan avvalgi I asrning oxiri, Miloddan avvalgi II asrning birinchi choragi). Uning xukmdorlik paytida Kushon davlatining chegaralari Markaziy Xindistongacha etdi. Bundan tashqari Kushon xukmdorlari xokimiyati Farg'ona va Sharqiy Turkiston axolisini tan oldi.

Kushon davlatining tayanchi ko'psonli va yaxshi qurollangan qo'shin bo'lgan. Kushon podsholigi qo'shini 150-200 ming kishiga teng bo'lgan degan taxminlar bor.

Sharqiy Turkistonda Xitoy qo'shinlariga qarshi urush vaqtida 70 minglik Kushon davlati qo'shini xarakat qilgan. Qo'shin otliq va piyoda jangchilardan iborat bo'lgan, kavaleriya sovutlarda jangga kirgan.

Jangchilar maxalliy qurolsozlik ustaxonalarining maxsulotlaridan foydalanganlar. Uzoqqa zarba beruvchi qurol -kamon bu davrda ancha takomillashgan.

Suyak va shox plastinalardan yasalgan, beshta butlovchi qismlardan tashkil topgan kamoning murakkab maxsus turi rivojlandi. Bunday qudratli qurolning vatani O'rta Osiyo bo'lgan, keyinchalik u Eronga keng tarqaldi.

Keyinchalik kamoning bu turi O'rta Osiyodan sarmatlargacha, ulardan g'arbda Shotlandiyagacha, janubda Eron va Xindistongacha, Sharqda Xitoygacha keng tarqaldi. O'rta Osiyoda yodgorliklarni kovlash ishlari olib borilganda kamonni yasashda ishlatilgan suyak va shox plastinkalar topilgan, ayrim xollarda ishlov berilishi mumkin bo'lgan kamoning butun boshli konstruksiyasi topilgan.

Kamon o'qlari yog'ochdan yoki qamishdan tayyorlangan, ularning uchlari bir necha turli bo'lib temirdan yasalgan. Ayniqsa uchi o'tkir va uchta kaftchali uchli o'qlar keng tarqalgan. Ushbu davrning oxirida murakkab profilga ega bo'lgan bosh qismli o'tkir uchli o'qlar yaratildi.

Jangchilar xanjarlar va qilichlar bilan qurollanganlar. O'rta Osiyoda milodiy birinchi asrlarda saklar, massagetlar, xorazmliklar va baqtriyaliklarning kalta qilichlari o'rniga temirdan yasalgan ikki tomoni xam kesadigan uzun shtangasimon dastali qilichlar (uzunligi 1,2 m) paydo bo'ldi.

Boshqa qurol turlariga nayza, bolta, palaxmonni misol qilib keltirish mumkin. O'rta Osiyolik muxandis-fortifikatsiyachilar katta yutuqlarga erishdilar. Bo'rttirib yasalgan



minoralar bilan kuchaytirilgan qal'alarning qudratli devorlari, murakkab darvozalar inshootlari, ko'plab muxsus tuynuklar-bular xammasi o'z zamonasining eng yaxshi yutuqlari darajasida bo'lgan. Qal'alar odatda baland va qalin tashqi devorlar bilan to'silgan. Tashqi devorlardan tashqari shaxar xukmdorining qo'rg'onini ximoya qilib turgan ichki devorlar xam bo'lgan.

Kushon davlatining inqirozi ko'p tomonlari bilan grek-baqtriya va Rim davlatining tarixiy taqdiriga o'xshash. Bu davlatlarning xammasi tarqalib ketishidan oldin cheksiz urushlar olib borishga majbur bo'lganlar. Tashqi to'qnashuvlar va ichki nizolar tufayli kuchsizlanib qolgan bu davlatlar, yangi tashqi dushman bilan kurashish uchun kuch topa olmadilar. Milodiy IV asrda Kushon davlati asosiy xududlaridan maxrum bo'ldi va bir nechta kichik mulklarga bo'linib ketdi.



**Kushon jangchilari**

Milodiy IV asrda siyosiy saxnaga eftaliylar qabilasi chiqdi. Ular VI asrning o'rtalarida mintaqa xayotida xal qiluvchi rol o'ynadilar.

Eftaliylarning kelib chiqishlari to'g'risida yagona fikr yo'q. Manbalarda ularning kelib chiqishlari to'g'risida turli xil rivoyatlar keltirilgan. Ayrim olimlar ularning kelib chiqishlarini turk xalqlari bilan, ayrimlari yuechjilar bilan bog'laydilar, yana birlari ularni boshqa qabilalar bilan ittifoqdagi Baqtriya-Toxiristonning maxalliy axolisi deb yuritadilar.

Eftaliylar qo'shinlari katta kuchga ega bo'lganlar. Jangchilar gurzilar, kamonlar bilan qurollanganlar, lekin ularning asosiy qurollari o'tkir qilichlar bo'lgan. Jang paytida otliqlar xal qiluvchi rol o'ynaganlar. Eftaliylar jamiyatida harbiy-qabilaviy demokratiya an'analari saqlanib qolingan. Xukmdorlar o'z atroflariga yaqinlarini-«birga o'lishga tayyor»larni yiqqanlar. Agar jangda xukmdor xalok bo'lsa, uni qo'riqlab turgan atrofdagilar xam xalok bo'lishlari kerak bo'lgan.

Milodiy IV asrda eftaliylar davlati tomonidan yig'ilgan kuchlar Eron qo'shinlari bilan to'qnashdi. Bu qarama-qarshilikning aloxida voqealari Daqiqiy va Firdavsiyning «SHoxnoma» poemasida yozilgan.



Eftaliylar katta xududni bosib olishga muvaffaq bo'ldilar. O'rta Osiyoning katta qismi, Sharqiy Turkiston va Shimoliy Xindistonning aloxida viloyatlari ushbu davlatning safiga kirdi.

Eftaliylar Eronning Sharqqa xujumini to'xtatib qolishga muvaffaq bo'ldilar. 453-454 yillarda ular Eron shoxi Ezdigerd II ning qo'shinini tor-mor etdilar. 457 yilda eftaliylar podshosi Vaxshunvar Chog'aniyon, Toxiriston va Badaxshonni bosib oldi.


Eron shoxi Peroz (459-484 y.) eftaliylarga qarshi kurashda o'z tomoniga xatto vizantiyaliklarni og'dirib oldi. Lekin u mag'lubiyatga uchrab, eftaliylarning qo'liga asirga tushdi. Katta to'lovlar evaziga ozod qilingan Peroz eftaliylarga qarshi yana urush boshladi. 484 yilda eftaliylar yana forslarni tor-mor qildilar. Ayrim mualliflarning guvohlik berishlariga qaraganda eftaliylar jangdan oldin yaxshi niqoblangan chuqur xandaq (ayrim tarixchilarning fikricha u suv bilan to'ldirilgan)-bo'ri jari (qopqon-chuqurlik) qaziganlar. Peroz Eron qo'shinlarining katta qismi bilan birga mana Shu bo'ri jarida xalok bo'ldi.

Eftaliylar harbiy qudratining isboti sifatida ularning eronliklarga qarshi muvaffaqiyatli olib borgan urushlari xizmat qiladi. Bir necha marotaba Rim qo'shinlarini tor-mor etgan Eron, O'rta Osiyolik ko'chmanchi eftaliylarning qarshisida qo'rquvdan titrar edi. Lekin keyinchalik eftaliylar davlati shimoldan turklar tomonidan va janubdan eronliklar tomonidan bir vaqtning o'zida berilgan zarbalarga bardosh bera olmadi va ularning erlari g'alaba qozonganlarning qo'liga o'tdi.

### **4.3. Turk xoqonligi va ilk o'rta asrlar davridagi O'rta Osiyo davlatlarining harbiy ishlarida o'tkazilgan islohotlar.**

Turk xoqonligining boshlanishi (551-744 y.) 545-547 yillarda Bumin raxbarligidagi qabilalar ittifoqi bilan boshlandi. Yirik davlat - turk xoqonligi g'arbda Dneprdan boshlab, Sharqda Amudaryogacha va shimolda Eniseydan to Tibet tog' tizmalarigacha bo'lgan yirik xududda yashagan xalqlarni birlashtirgan.

**Og'ir qurollar bilan qurollangan turk jangchisi**



552 yilda Bumin, Jo‘jan podsholigiga qaqshatqich zarba berdi va turklarning jo‘janlarga qaramlikliklariga barxam berdi. Uning o‘g‘li Muxan-xoqon (553-572) turk birlashmasini imperiyaga aylantirdi. To‘xtovsiz urushlar va ichki nizolar natijasida xoqonlik ikki qismga-Sharqiy va G‘arbiy turk xoqonligiga bo‘lindi.

G‘arbiy turk xoqonligi ko‘ch-manchilar cho‘llarini va O‘rta Osiyo shaxarlarining dexqonchilik taraqqiy etgan o‘lkalarini mustaxkam birlashtirdi.

Istami-xoqon (553-576) Markaziy Qozog‘iston, Ettisuv va Xorazmni bo‘ysundirib, Orol daryosigacha borib etdi. 558 yilda turklar Volgagacha etib bordilar.

Keyinchalik ular eronliklar bilan sulx tuzdilar va birlashib 565 yilda eftaliylarni tor-mor etdilar. Eron bilan turk mulklari o‘rtasidagi chegara Amudaryo bo‘ylab o‘tdi. VI va VII asrning boshlarida O‘rta Osiyoning So‘g‘diyona, Toxiriston (Baqtriya), Farg‘ona xududlarida bir nechta yarim qaram bo‘lgan davlatlar vujudga keldi, Xorazm va CHoch davlatlari mavjud edi. Bu mulklarning ko‘pchiligi G‘arbiy turk xoqonligining ixtiyoriga o‘tdi. Turk xoqonligining yaratilishi va rivojlanishi bilan kavaleriyadagi yangi isloxotlar chambarchas bog‘liq, yangi isloxotlarning o‘tkazilishi barobarida Evroosiyo cho‘llarida qattiq egar-jabduqlar, uzangilar va yangi turdagi chopish quollarining (uzun to‘g‘ri shoplar va qilichlar) tarqalishi boshlandi.

Turklarning asosiy mashg‘ulotlari ko‘chmanchi-chorvadorlik bo‘lgan. Ko‘chmanchilar jangda o‘zlari bilan kamida 2-3 otni olib kelganlar, bu ularning xar birlariga o‘zlarining otlari bo‘lishini ta‘minlagan.

Turklar engilmas jangchi Shuxratiga ega bo‘lganlar. Turklar armiyasida metin intizom o‘rnatilgan, komandirlarning buyruqlari muxokama qilinmagan, qattiq tashkiliy tizim xamma qo‘shinda mavjud bo‘lgan. Armiya o‘n, yuz, ming, o‘n minglik bo‘linmalardan tashkil topgan, ularning eng yirigi tuman deb atalgan, u o‘ng ming degan ma‘noni bildirgan va o‘zining bayrog‘iga ega bo‘lgan: bo‘rining bosh suyagi yoki boshqa xayvonning tasviriga ega bo‘lgan va oltin bilan bezatilgan yog‘och dastaga o‘rnatilgan ot yoki yovvoyi xo‘kizning dumi.

Turk armiyasining asosini a‘lo darajada tayyorlangan otliqlar tashkil etgan, ammo uning safida piyodalar xam bo‘lgan. Turklarning ekipirovkalari va qurol-yarog‘lari

quyidagicha bo‘lgan: otning tanasi sovut bilan, boshi esa bronza plastina bilan ximoya qilingan. Jangchi plastinali sovut va kolchuga (temir xalqachalardan bir-biriga o‘tkazib to‘qilgan ximoya kiyimi) kiygan, qo‘lida qalqoni va oddiy sovuq qurol xisoblangan uzun va ingichka nayzasi, jangovar bolta va qilichi xamda kamoni bo‘lgan.



### VI-VIII asrlardagi so‘g‘d jangchilari

Turklar armiyasining taktikasi xujumkor xarakterga yo‘naltirildi. U to‘satdan berilajak zarbani qaytarishga doimo shay bo‘lgan va o‘zi xam ko‘p xollarda to‘satdan zarba berish omilini qo‘llagan. Agar turk jangchilari devorlarning panasida yashirinsalar, xar doim ko‘p sonli dozor tayinlaganlar. Turklar qal‘alarni qamal qilish texnikasiga ega bo‘lmaganlar, lekin Shunga qaramasdan shaxarlarni osonlik bilan bosib olganlar. Daryolarni ular kechuv joylaridan suzib o‘tganlar yoki sollarda o‘tganlar. Ular uxlab yotgan dushmanga tunda yoki tongda xujum qilganlar. Turklar dushman tomonga katta tezlikda ot solishni xush ko‘rganlar, dushmanning jangovar tartiblariga yaqinlashishlari bilan orqalariga osilgan o‘qdonlardan kamon o‘qlarini olib shiddat bilan otishni boshlaganlar.

Tarixchilar turk chavandozlarining yuqori manyovrchanliklarini ta‘kidlab, Shunday yozganlar: «Qarshilikka duch kelgach ular tomonlarga tarqalganlar, lekin Shunday tezlik bilan yana jiplashganlar, oldinga eldek uchib yana tarqalganlar». Turklar manyovrni amalga oshira turib, ayrim xollarda qochganlar va dushmanni uzoq masofada ushlab turishga xarakter qilganlar, keyinchalik ularni kamon o‘qlari bilan qirib tashlaganlar.

#### **4.4. So‘g‘d jangchilarining yakkama-yakka kurashi.**

##### **Kulagish qishlog‘idan topilgan kumush lagan, VII asr.**

Bunda ular ortga qolib ketgan dushman otryadlariga va uning arergardiga «asalarilar to‘dasi singari» xujum qilib, asosiy kuchlaridan ajratib qo‘yganlar, ularni yakson qilib, zaxiralarini egallaganlar. G‘animning xujumini qaytarib ular yoppasiga mudofaani egallaganlar yoki o‘zlarining kapalari ortiga yashiringanlar.

Ushbu davrda O‘rta Osiyo jamiyati tizimida er zodagonlari tabaqasi - *dexqonlar* ajralib chiqdi, ularni xaqli ravishda Evropa ritsarlari bilan taqqoslash mumkin. Ular erga, suvga egalik qilganlar va axolining asosiy qismi - jamoachilar dexqonlarga qaram bo‘lganlar. Dexqon qal‘alari qishloq joyining o‘ziga xos elementi bo‘ldi. YAxshi mustaxkamlangan, zabt etib bo‘lmaydigan bu inshootlar o‘zining mudofaa imkoniyatlari bilan erta o‘rta asrlar davrining yuqori rivojlangan fortifikatsiyasi darajasini namoyish etadi. Jamiyatda ritsarlik qonun-qoidalari va harbiy shon-Shuxrat masalalari ishlab chiqildi: xalq og‘zaki ijodining markazida engilmas qaxramon namunasi paydo bo‘ldi, janglar, musobaqalar, ov ularning kundalik mashg‘ulotlari sifatida mashxur bo‘la boshladi.

Bu davrda qurol-yarog‘lar majmuasi va jang olib borish taktikasi ishlab chiqildi, uning markazidan sovutlar bilan ximoya qilingan dexqon jangchilarning og‘ir otliqlari o‘rin egalladi. Dastavval turklarning cho‘lli axolisida joriy qilgan murakkab tuzilishdagi kamonlar takomillashtirildi. Kamon o‘qlarining uzunligi 90 smgacha bo‘lgan, ularning uchlari og‘irlashtirilgan bo‘lib, tom ma’noda ular sovutlar bilan ximoya qilingan otliqlarga qarshi qo‘llanilgan. Bu o‘qlarni o‘qdonlarga solib uchlarini tepaga qilib olib yurganlar. O‘qdon endi kamondondan (*sadoqdan*) ajratildi va o‘ng yonga osib yuriladigan bo‘ldi. Kamondonning ichiga iplari bo‘shatilgan ikkita zaxira kamonlarni solib chap yonga tasmaga taqib yurganlar. Qurol-yarog‘ namunasida saqlanib qolingan kavaleriya nayzalari - piklar zirxni teshib o‘tish uchun og‘irlashtirildi.

Turklar zamonida sanchuvchi-chopuvchi qurollarni tanlashda katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Ikki tomoni o‘tkirlangan qilichlar saqlanib qolindi, Shu bilan birga bir tomoni o‘tkirlangan uzun to‘g‘ri qilichlarga o‘tish rejalashtirildi. VII asrga kelib keskir joyi egri qilib yasalgan shamshirlar joriy qilindi.

Jangchilarning ximoya kiyim-boshlarida xam o‘zgarishlar bo‘ldi, an’anaviy plastinkali sovutlar bilan bir qatorda kolchugali kamzullar joriy qilindi. Bu majmua, boshga

kiyish uchun temir plastinalardan yasalgan dubulg'alar bilan to'ldirildi. Qo'shin tarkibiga engil otliq kamonchilar va xalq lashkarlari piyodalari xam kiritildi.

O'rta Osiyo xalqlari harbiy san'atining rivojlanishiga xulosa yasab quyidagilarni ta'kidlash lozim: qo'shinning asosini otliq jangchilar tashkil etgan, ular g'animga qarshi o'ziga xos xarakat taktikasini ishlab chiqqanlar va undan foydalanganlar: «yopirilib» jangga o'tish; strategik chekinish; dushmanni chalg'itib «qopqonga» tushirish va pistirmalar yaratish; masofadan turib dushmanga birvarakayiga kamon o'qlarini yog'dirish; qanotlar va front ortini o'rab olish. Mudofaada asosiy e'tibor, fortifikatsiya inshootlari xisoblangan qal'alar va qo'rg'onlar qurishga qaratilgan.

## **V BOB. OʻRTA ASRLARDA HARBIY MADANIYATNI RIVOJLANISHI.**

(Xitoy, Gharbiy Yevropa, Shveysariya, Arab,)

### **5.1. Ilk taraqqiy etgan feodalizm davrida harbiy madaniyatni rivojlanishi.**

Oʻrat asrlar Osiyo, Yevropa mamlakatlari va Afrikaning bir qancha mamlakatlarining asosiy koʻpchiligida feodal ishlab chiqarish usuli hukumronlik qilgan davr edi. Tarix maydonida yangi-yangi xalqlar paydo boʻlgan va Gharbiy Sharqiy Yevropaning, Xindi-Xitoyning koʻpgina davlatlari, Turkiya, Yaponiya va boshqalar qaror topdi. Xitoy, Xindiston, Eron va Oʻrta Osiyo territoriyalarida ilgari paydo boʻlgan davlatlar ham rivojlana bordi.

Xitoy eramizning IV-asrlarida Xindiston va Oʻrta Osiyo mamlakatlarida, Shimoliy Afrikada va Yevropa eramizning VII asrlarida feodal munosabatlar vujudga keldi. Baʼzi bir xalqlar quldorlik tuzumini chetlab, toʻgʻridan-toʻgʻri ibtidoiy jamoa tuzumidan feodal moʻnosabatlarga oʻtdilar.

Feodalizm darvi yer feodallarning mulki xisoblanar edi. Yer oqsuyak feodallarga va chernov feodallariga qarashli boʻlgan vaqtdagina emas, balki, baʼzi bir Sharqiy mamlakatlarda boʻlganidoyok, feodal davlatiga qarashli boʻlgan vaqtda ham feodalning mulki hisoblanar edi. Mehnat qurollari, mollar, hoʻjalik imoratlar va urugʻchiliqlar feodallarda ham bevosita ishlab chiqaruvchilar, dehqonlarda ham Shuningdek hoʻnarmandlarda ham bor edi.

Ekspluatatorlar sinfi-oqsuyak feodallar va cherkov feodallari hamda ekspluatotsiya qilinuvchi sinf-krepostnoy dehqonlar feodal jamiyatning asosiy sinflari edi. Ular oʻrtasida butun oʻrta asrlar davomida qattiq sinfiy kurash olib bordi. Bu kurash oʻsha davrdagi ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalariga, Shu jumladan, feodal va xalq ommasining jismoniy madaniyatI ham xal qiluvchi taʼsir qilar edi. <sup>10</sup>

Cherkov feodal jamiyatning gʻoyat reaksiyon kuch edi. U anitak madaniyat qoldiqlarini yoʻq qilishiga harakat qildi, xalq ijodiga, fanga qarashli kurash olib bordi. Cherkov xalqining jismoniy kamolotga tomoshalarga intilishini majusiylilikning, antak diniy

---

<sup>10</sup> Xojaev P. Meliev M., Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish-T., 2016 y.222b

– urf-odatlarining ko‘rinishi deb biladi. Cherkov sergo‘nohlikka qarshi kurash niqobi ostida xalq hayotidan jismoniy mashqlar va o‘yinlarini zo‘r berib chiqarib tashlay boshladi. Cherkov, xuddi oqsuyak feodal kabi dehqonlar va shaharliklar jismoniy mashqlar yordamida o‘z jismoniy tayyorgarligini yaxshilay olishlari va o‘ndan feodallarga qarshi kurashishlari uchun foydalanishlari mumkin deb xavfsiradi.<sup>1</sup>

Ilk o‘rta asr davrida chernov feodallarning jismoniy madaniyatiga ham salbiy munosabatda bo‘ldi. U salb yurish davridagina rahbarlarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga bo‘lgan o‘z mo‘nosabatini o‘zgartirdi. Bu vaqtlarda cherkov oq suyak feodal aslzodalarning jismoniy madaniyati qoramadi va hatto bu madaniyatni ruhoniylar hamda monahlar jamiyatiga olib kirdi. Cherkov xudoga va feodal tartiblarning mustahkamligiga bo‘lgan e‘tiqodni faqat butlar yordamida emas, balki qilich yordamida ham quvvatlar edi.

## **5.2. Ilk feodalizm davrida harbiy va jismoniy tayorgarlik.**

Eramizning XI asrlari orasidagi davrda feodal ishlab chiqarish usulining qaror topishi va yirik yer egalari tomonidan erkin-jamoatgi dehqonlarning asta-sekin krepostnoylikka aylanishi davom etdi. Bu davrda sinfiy kurash dehqonlarning krepostnoylikka aylantirilishiga qarshi kurash sifatida rivojlanadi. Bu kurash jarayonida keng dehqonlar ommasini bostirish organlari sifatida feodal davlatlari qaror topa boshladi.

Bu davrda (taxminan V asrda) Gharbiy Yevropada davlatlar tarikib topib, ular asta-sekin feodal munosabatlar o‘rnatila boshladi. Birmo‘ncha keyinroq Markaziy va Sharqiy Yevropada slavyan davlatlari paydo bo‘ldi. Shimoliy Afrikaning katta teritoriyasida arablar vujudga keldi.

Dastlabki vaqtlarda bu davlatlarda barcha mehnatkashlar harbiy xizmatni o‘tashga majbur bo‘lgan erkin yer egalari iborat edi. Ular qurol yoki harbiy boshliq chaqirig‘i bilan qurollangan holda yetib kelishlari va harbiy yurishlarda qatnashish uchun tayyor bo‘lishlari kerak edi. Lekin harbiy ta‘lim yaxshi tashkil etilmagan edi. Aholini harbiy va jismoniy jihatidan tayyorlashning o‘ziga xos xalq shakillarining jadal suratda rivojlanishiga sabab ham ehtimol, uyushgan, harbiy ta‘limining yo‘qligi bo‘lsa kerak. Dehqonlar uchun harbiy va jismoniy madaniyat faqat jangovar faoliyat uchungina emas, balki mehnat faoliyati uchun ham zarur edi.

Bu davrda harbiy tayorgarlikning sinfiy harakteri birinchi navbatda jismoniy mashqlardan foydalanish maqsadlarida namoyon bo'ldi. Dehqonlar harbiy mashqlaridan mehnat va jangovor faoliyatiga tayyorlash va yuqori martabaga erishgan feodal aslzodalar esa o'z qudratini mustahkamlash vositasi sifatida foydalandilar. Feodal aslzodalari faqat o'z movqey, hokimligi bilangina emas, balki jismoniy kuch bilan ham halqdan ajarlib turishga harakat qilar edi. Buning uchun aslzodalarda halqqa nisbatan beqiyos darajada katta imkoniyatlar bor edi. Feodal aslzodalar o'zlarining harbiy jismoniy madaniyat tizimlarini yaratishida xalqning jismoniy mashqlar va o'yinlar sohasidagi ijodidan keng foydalandilar.

O'sha davrdagi Gharbiy Yevropa davlatlarning eng yirigi Franklar davlati edi. Franklar qo'shni davlatlar bilan olib borgan juda ko'p urushlarda juda kuchli qo'shin vujudga keltirgan edilar. Bu qo'shndan drujnikalardan va dehqonlar lashqaridan iborat edi. Dehqonlar lashkarlarida barcha dehqonlar qatnashar edi, Shuning uchun franklar xalqni harbiy jihatdan tayyorlashga katta e'tibor berdilar. Har yili harbiy ko'riklar tashkil etilib, ularda harbiy manervlar o'tqazilar edi. Franklar og'ir qurollar – qilichlar, nayzalar, katta yoylar, palaxmonlar va oyboltalar bilan qurollanar edilar. Bu qurollarni ishlatish juda katta jismoniy kuch, chidamlilikni va epchillikni talab qilar edi. Urug'chilik tuzumining yemirilishi davridan boshlab xalq hayotida saqlanib kelayotgan jismoniy mashq va o'yinlar bu fazilatlarining takomillaShuviga yordam berar edi.

Asta-sekin feodal munosabatlarning taraqqiy etib borishi bilan feodallar xalqni harbiy ishdan chetlashtirib bordi. O'tliq ritsarlar asosiy harbiy kuch bo'lib qoldi. IX asrda franklarda o'tliq ritsarlar qo'shinnining asosiy negiziga aylangan edi. Yirik yer egalari qirol chaqirig'iga muvofiq, yaxshi qurollari va aslahallarini olib, o'tliqlar guruhi hamqorligida yurishga otga minib chiqishi lozim edi. Qirollar ritsarlarning jangovor tayyorgarligini tekshirish uchun maxsus ko'riklar tashkil etar edi. Dastlabki vaqtda bu ko'riklar harbiy namoyish harakterida edi. Keyinroq ular turnirlar nomini olib yakkama-yakka oliShuvlarga aylandi; bu ko'rik qatnashchilari to'mtoq nayzalar, gurzilar va qo'lichlar bilan harakat qilishar edi.

VII-IX asrlarda davlati vujudga kelgan Markaziy va Sharqiy Yevropaning qadimgi slavyanlari ham mehnat va jangovar faoliyati bilan bog'langan juda ko'p mehnat va jangovar faoliyati bilan bog'liqligin juda ko'p jismoniy mashqlarni talbiq etganlar. Qadimgi slavyanlar jangovar, kuchli va jasur xalq bo'lgan. Slavyanlar Boltiq dengizining Sharqiy



qirg'oqlarida turib yengil kemalarda hozirgi Domiya va xatto Buyuk Britaniya qirg'oqlariga harbiy yurishlar uyushtirganlar. Ular Kiev Rusidan xuddi Shunday kemalarda Dneper bo'ylab quyda oqimga tushib kelganlar va Vizontiyaga hujum qilib, Qora dengizda ko'chib o'tganlar. Ular qurollarni yaxshi ishlata olishlari natijasida qo'ljangida alohida mahoratiga ega bo'lganlar. Slavyanlarda yugurish, to'siqlardan sakrash, mushtlashish, kurash, og'irlik ko'tarishiga doir mashqlar va ovchilik juda ommalashgan edi. Slavyanlarning azaliy omil aslida jismoniy kuchga, chaqqonlikka, jasurlikka va harbiy mahoratga doir musobaqalardan iborat bular edi.

Chehlar juda o'zoq muddat davomida o'z mustaqilligi uchun nemis ritsarlarining tajavo'ziga qarshi kurash olib borishga majbur bo'ldilar. Bu kurash davomida chehlar jang qilish shakl va metodlari tarkib topdi. Bu kurashda chehlar qurolarning har xil turlarigina emas, balki mehnat qurollarini ham (chalg'ilarni, g'alla yanchish zanjirlarini va xakozalarni) ishlatdilar. Cheh dehqonlarining erksevarligi, yuksak ahloqiy va jismoniy tayyorgarligi yuz yillar davomida nemis ritsarlari otryadlariga qarashilik ko'rsatishga imqoniyat berdi.



### **Arablar davlatini tarkib topishi.**

VII asrda arablar davlati tarkib topdi. Arab aslzodalari Yoshlarning harbiy –jismoniy tayyorgarligiga katta e'tibor berdilar. Shuning natijasida yengil qurollangan arab otliq askarlari jangda yaxshi monevr qilar olar edilar. Ular tezlik bilan chopib ketayotgan otning

ustidan yoydan moxirona otar, yengil nayzalarni uloqtirar, qilich va uzo‘n nayzalarni moxirlik bilan ishlatar, epchillik bilan egardan sakrab tushar va o‘nga sakrab chiqar edilar. Bo‘ndan tashqari, otliq askarlar turli qurollarda qilichbozlik qilishni va suzishni yaxshi bilar edilar.

Arablar Vizontiya va Gharbiy Yevropa davlatlarining jismoniy Madaniyatiga bir mo‘ncha ta’sir ko‘rsatdilar. Otda yurish va yoydan o‘q otish usullarining ko‘plarini gharbiy yevropaliklar arablardan o‘zlashtirgan edilar. O‘yinlar to‘g‘risida ham, masalan; ilgari Gharbiy Yevropada ma’lum bo‘lmagan “chovg‘on” o‘yini haqida ham huddi Shunday deyishi mumkin. XII-XIII asrlarda bu o‘yinlar Vizaontiyadagi saroy alzodalarning sevikli tomoshalaridan biriga aylandi. Gharbiy Yevropada (Fransiyada) bu o‘yin “chiqane” nomi bilan taraqqiy etdi va keyingi vaqtlarda ot ustidagi to‘p o‘yini sifatida tarkib topgan.

### **5.3.Taraqqiy etgan feodalizm davrida harbiy jangler.**

VII-XI asrlada feodal ishlab chiqarish usuli taraqqiy etdi. Mehnatining ijtimoiy taqsimot va ho‘narmandchilikning qishloq ho‘jaligidan ajralishi, shaharlarning vujudga kelishi feodalizm taraqqiyot davrining harakterli hususiyatlari edi.

Taraqqiy etgan feodal jamiyatlarida krepostnoy va qaram dehqonni ekspluatsiya qilish ancha kuchaydi. Bu hol xalq ommasining feodallarga qarshi sinfiy kurashishni keskinlashtirishga olib keldi. Taraqqiy etgan feodalizm davrining oxirlariga kelib, bu kurash g‘oyat keskinlashib qoldi va bir qancha yirik dehqon qo‘zg‘olonlarining ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. Shaharlarning o‘z mustaqilligi uchun feodallarga qarshi kurash ham o‘sha vaqtda kuchayib ketdi.

Harbiy ish borasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Eski xalq lashqari o‘rniga hukumron sinf vaqllaridan to‘zilgan feodal qo‘shin tashkil topadi. Harbiy ish feodallarning imtiyozi va majburiyat bo‘lib qoldi. Feodal armiyasining soni xalq lashkarlariga nisbatan ancha oz edi. Feodal qo‘shinda kavaleriya (otliq ritsarlar) rahbarlik movqieni egallar edi.<sup>11</sup>

Taraqqiy etgan feodalizm jamiyatida halq ommasining (dehqonlar va shaharliklar) jismoniy madaniyat va hukumron sinf (feodal -ritsarlar)ning jismoniy madaniyat mavjud edi. Bu madaniyatning har ikkalasi, har bir o‘ziga xos yo‘l bilan, sinfiy kurash ta’sirida

---

<sup>11</sup> Xojaev P. Meliev M., Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi va sportni boshqarish-T., 2016 y.

taraqqiy etib boradi. Xalq ommasining jismoniy madaniyat alohida-alohida bo‘lingan harbiy –jismoniy mashqlar va an’anaviy o‘yinlardan iborat edi. Feodallarning jismoniy madaniyat ancha xilma-xil edi. Moddiy resurslar va bo‘sh vaqtning mavjudligi feodallar uchun o‘zlariga Harbiy-jismoniy madaniyatning tugallangan tizimini yaratishga imqon berdi.

#### **5.4. Feodallar harbiy-jismoniy madaniyat.**

Feodal qo‘shini hujum va mudofa qilish uchun mo‘ljallangan og‘ir qurollar, Shuningdek maxsus muhofaza aslaxalari bilan qurollangan edi. To o‘q otadigan qurol kashf etulgo‘ncha qadar feodal-risolar jangda zarba yemaydigan darajada edilar. Cho‘nochi 1119 yili Bryumelda bo‘lgan jangda qatnashgan 900 ritsardan, 3 kishi halok bo‘lgan, 140 kishi esa otlardan yiqitilib, asirlikka olingan edi.

Og‘ir qurollardan foydalanish (yarog‘-aslahalarni ishlatish) feodaldan katta jismoniy kuchni, epchilik va chidamlilikni talab qilar edi. Sovutga o‘ralib olgan feodal otda moxiralik bilan yurar, og‘ir qilich, uzo‘n nayza, to‘qmoq va boshqa qurollarni yaxshi ishlatar edi. Harbiy harakatlarga o‘rgatish feodallarni harbiy-jismoniy madaniyatlash tizimining asosi qilib olingan edi. Bu tizim Gharbiy Yevropada salb yurishlari davrida topgan edi.

Feodallarning madaniyatlash “etti xil ritsiarlik fazilatlarini” otda yurish, qilichbozlik kamalak otish, suzish,ov qilish, shahmat o‘ynash va she‘r to‘qishni bilib olshidan iborat edi. Feodallar o‘zlariga faqat harbiy ishchini mo‘nosib ko‘rib, jismoniy mehnatni pisand qilmas edilar, ular qo‘pol va johil edilar.

Feodalarning harbiy-jismoniy madaniyatlash faqat manfaatparastlik maqsdi-ham tashqi bosqinchlik urushlari uchun, ham mamlakat ichidagi krepostnoy dehqonlar va ho‘narmandlarining ozodlik harakatlarini bostirish uchun bir xilda qodir bo‘lgan jismoniy jihatidan ko‘chli harbiy ritsiarlarni tayyorlash maqsadini ko‘zlar edi.

Bo‘lajak ritsiarlarning harbiy-jismoniy madaniyatlash ularning juda Yoshlik chog‘laridanoq, odatda, yirik feodallarning saroylarida boshlanar edi. Syuzerenlar qa‘lari Yosh ritsarlarning maktablari edi, desak bo‘ladi. Bu “maktab” madaniyat garchi ma‘lum darajada tartib va qoidalarga solingan bo‘lsada, xusuiy oilaviy harakterda edi.

Erkak feodallar ritsarlikka bahishlangan madaniyatning ikki majburiy bosqichini va bir ixtiyoriy bosqichni-oliy bosqichni o‘tar edilar.

Oddiy feodallar o'zlarining 7 Yoshlik o'g'illarini sen'or (ancha boy feodal) qal'asiga yuborar edilar; qal'ada bu bolalarga paj(maxram) o'nvoni berar edi. Pajlar ritsarlar tayyorlash va xizmat o'tashining dastlabki (qo'yi) bosqichini o'tar edilar. Ular kuchli va epchil bo'lishi uchun kamalak otish, tosh va nayza uloqtirish, sakrash, yugurish, kurashish, suzish va otda yurish bilan Shug'ullanar edilar. Ayni bir vaqtda ularga ov qilish, harbiy-jismoniy mashqlarni bajarish va ritsarlik odob-qoidalari o'rgatilar edi.

Pajlik Yoshida hosil qilingan malaka va kunikmalar novbatdagi bosqichda, 14 Yoshga yetgan pajlar, qurolbardorlikka o'tqazilib, ular qilich va shpor taqish huquqiga ega bo'lganlaridan keyin, takomillashtirilar edi. Qurolbardorlar maxsus o'qituvchilar rahbarligida asov otlarni minib o'rgatar, og'ir temir qalqonlar kiygan holda va ularsiz o'zoq masofalarga chopishar, handaqlardan va devorlardan sakrab o'tishlari kerak edi. Qal'a devorlariga narvon bilan narvonsiz chiqishar edi. Qurol bilan va qurolsiz suvda suzishar, ov qilishar, itlarni o'rgatishar, shaxmat o'ynashar edilar. Qurolbardorlikning oxirgi yillarida bu yoshlar qilichbozlik, nayza uloqtirish hamda to'la asbob-aslahalari bilan otda yurishni mashq qilar edilar. Qurolbardorlikning umumiy jismoniy va harbiy tayyorgarligi ana Shunday amalga oshirilar edi. 21 yoshga kirganlarida ular ritsarlik unvonini berilar edi. Ana shu davrdan boshlab ularning ko'pchiligi uchun jismoniy mashq mashg'ulotlari ko'ngil ochish vositasiga (otda yurish, ov qilish) aylanar yoki turnirlarda ishtirok etish vositasi sifatida xizmat qilar edi.

Ritsarlik tayyorgarligi – jismoniy kamolotining uchinchi bosqichi-faqat yirik sen'orlar uchun mo'ljallangan edi. Bu madaniyat bosqichi shaxsiy mayllar muvofiq keladigan jismoniy mashqlar (masalan kurash, qilichbozlik va boshqalar) turlarigina o'z ichiga oladi. Bu bosqichda guruhlar ta'limi emas, balki individual ta'lim ustida turar edi.

Qal'alarga professional o'qituvchilar, qilichbozlik ustalari, eng mashhur kurashchilar va boshqa mo'taxasislar taklif etilar edi.

Bunday madaniyat tizimi natijasida ritsarlar, odatda jismoniy jihatdan kuchli, epchil va matonatli qiskilar bo'lib, ular harbiy harakatlarning asosiy usullaridan habardor bular edilar. Dag'al jismoniy kuch ularning iftixori edi. Ular o'zlarining doirasida ritsarlik adab-qoidalari degan ahloqqa amal qilar edilar. Lekin ular dehqonlarga va shaharliklarga nisbatan har qanday qo'pollik va zo'rlikni ishlatar edilar.

Ritsarlarning turnarlari ritsarlar harbiy sport musobaqalarining o'ziga xos shaklidan iborat edi. Ularda go'yo feodal aslzodalarning harbiy-jismoniy tayyorgarligiga va ritsar otryadlarining harbiy harakatlari tayyorgarligiga yakun yasar edi. Turnarlar ilk o'rta asr davrida vujudga kelgan. Ular Fransiya, Germaniya, Angliya, Chexiya va Ispaniyada salb yurishlari davrida ayniqsa ravnaq topgan. Turnirlar o'z taraqqiyotida ikki bosqichni bosib o'tgan, birinchi bosqich-realistik harbiy o'yinlar bo'lib, bunda turnirlar namo'nali kurashdan iborat edi, ikkinchi bosqich sport yakka kurash bo'lib u franso'zlarda "jut", nemislardan "t'ost" deb atalgan.

Ommaviy realistik kurashlar ("bug'urtlar") keng katta maydonlarda o'tqazilgan va biror harbiy harakat manzarasini eslatgan. Vaqtlar o'tishi bilan bu kurashlar cheklangan maydonda, ma'lum vaqt qoida va tartibga asoslanib o'tqazila boshlangan.

Keyinchalik ommaviy turnirlar jut va t'ost turnirlari shaklini olgan. Tost turnirlari XI asrda yakkama-yakka oliShuvning ancha aniq shakli sifatida paydo bo'ldi. XI asrda ular turnir dasturining asosiy qismiga kiritila boshlandi va ritsarlar doiarsida juda keng tarqaldi. Poyga va nayza bilan harakat qilish jut yoki t'ostda-og'ir aslaha bilan qurollangan ritsarlarning yakkama-yakka oliShuvida asosiy mashqlardan edi. Belgilangan qoidaga muvofiq, chopib kelayotgan otning ustida turib, nayza zarbi bilan raqibini egar ustidan uchirib yuborishi lozim edi.

Turnir maxsus maydonlarda-poyga va boshqa musobaqalar o'tqaziladigan maydonlarda o'tqazilar edi. Dastlab turnarlar vaqtida qal'a va shaharlar yaqinidagi atrofi o'ralmagan joylar ana Shunday maydonlar vazifasini o'tar edi. XI asrdan boshlab maxsus maydonlarning xajmi ma'lum bir tartibga solina boshladi, lekin bu hamma joyda ham bir xil emas edi. XIV asrda turnar ishtirokchilarining havfsizligini ta'minlash maqsadida maydonlar to'siqlar bilan to'sib qo'yiladigan bo'ldi; raqiblar Shu to'siqlar bo'ylab birbirlariga qarshi harakat qilar edilar. Asta-sekin ana Shunday yakkama-yakka oliShuvlardagi jang san'ati uchun tumtoq nayzalar bilan kuchli va aniq zarba berishdan iborat bo'lib qoldi.

Qurolangan ikki otryadning oliShuvidan iborat bo'lgan ommaviy turnirlar ancha jiddiy harakterga ega edi. Otryachdlar maydon chekkasidagi arqon bilan tusib qo'yilgan joyda saf tortib tizilishar edi. Signalchiga muvofiq, arqon o'zib tashlanar va otryadlar birbiriga qarshi hujumga o'tar edilar. O'z shlyomishi yo'qotgan va otdan urib tushirilgan ritsarlar safdan chiqar edilar. Eng kam zarar ko'rgan otryad turnarda g'olib chiqqan

xisoblanar edi. Turnirda alohida ajralgan ishtirokchilar Xonimlar qo‘lidan qimmatbaxo mo‘qofat yoki yodg‘orlik sovg‘asi olar edilar.

O‘q otadigan qurol nayza bo‘lishi bilan XIV asrdan boshlab otliq ritsarlar va ritsarlik turnirlari tushko‘nlikka yuz to‘ta boshladi. Turnir feodal zadogonlari uchun tomoshalarga aylanib qoldi, kambag‘alashgan kichik ritsarlar esa turnirlardan boyish va talash manban sifatida foydalanar edilar.

O‘yin va tomoshalarning feodallarning, ayniqsa ularning bolalarning harbiy-jismoniy madaniyatda katta o‘rin to‘tar edi. O‘g‘il bolalar va yigit ixtiyorida yog‘och oyoqlar, arg‘imchoqlar, shagham toshlar, pildiroqlar bular edi. Bolalar har jihatdan ko‘ngil ochishar, paraqlarda, o‘rmonlarda, dalalarda erkin yugurishar, daryoda cho‘milishar edi. Yigitlar o‘yinchoq qal’alar kurashishar va ularga hujum qilib, “bosib” olishar edi.

Musobaqa o‘yinlari feodallarning madaniyatida katta ahamiyatga ega edi. Musobaqa o‘yinlarini ikki guruhga: harbiy va sport guruhlariga ajratish mumkin.

Harbiy o‘yinlarda harbiy operatsiyalardan, asosan salb yurishlaridan, Shuningdek qahramonlik ramonlaridan turli harbiy epizodlar (qal’ani qamal qilish, shahar qal’asiga hujum qilish va xakazolar) qaytarilar edi. O‘rta asrlarda bunday harbiy o‘yinlar soni g‘oyat ko‘p edi. “Salidin darasi” nomi bilan ataladigan o‘yin ayniqsa ommalashib ketgan edi.

Feodallarning eng sevimli sport o‘yini kichik koptok-hozirgi tennis koptog‘iga o‘xshash koptok o‘yini edi. Fransiyada bu o‘yin “jedekam” (olma o‘yini) deb atalar edi. Bu o‘yin uchun maxsus koptoklar, raketkalar tayyorlanib, maxsus bino-“o‘yin uyi” kurilar edi. Katta to‘p bilan “sul” o‘yini-futbol o‘yinini eslatuvchi o‘yin o‘yinlar edi. Bu o‘yinlar asosiy xalq o‘yini edi. Lekin karol va uning atrofidagi aslzodalar, ayniqsa qishloq dvaryanlari o‘ndan hazar qilmas edi.

Feodallarning ko‘ngil ochish o‘yinlaridan akrabotika mashqlari, masalan, tikka ko‘tarilgan devorga qo‘shimcha taxta bilan yugurib chiqish, qiyin to‘siqlardan sakrab o‘tish, yog‘och otda o‘ynash mashqlari ma’lumdir. Ba’zi bir kdrollar va boshqa feodallarning saroylarida maxsus akrabotika o‘qituvchilari ham bo‘lgan.

Yovvoyi hayvonlarga ov qilish ancha ommalashgan ko‘ngil ochish vositasi bo‘lgan. Ovda ritsarlar, xonimlar, qurolbardorlar, pajlar va ko‘p sonli mulozimlar qatnashgan. Maxsus qiskilar hayvonlarning uyasidan haydab yoki quvib, ovchilar kelayotgan tomonga yoki tarafga chiqarganlar, ovchilar esa hayvonlarni otganlar yoki o‘qsiz qurol bilan

yaralanganlar. Odatda ot ustida turib ov qilgan. Quturgan hayvonlar ba'zan ovchilarga hujum qilgan Shuning uchun ovchilarga jasurlik, epchillik bilan chaqqon harakatlar qilishga to'g'ri kelgan. Bu esa omadli ovchilar dong'ini chiqargan.

O'yin va tomoshalar oq suyak va feodallarning hech qanday qonun bilan belgilanmagan, tartibga solinmagan harbiy-jismoniy tizimi ana shunday edi. Bu madaniyatning oqibat maqsadi feodallarni feodal tuzumini mustahkamlash hamda dehqon va xunarmandlarni itoat- go'ylikka saqlash uchun kurashga tayyorlashdan iborat edi. Taraqqiy etgan feodalizm davrida Vizantiyada va Rus feodal knyazliklarida jismoniy madaniyat birmo'ncha boshqacharoq ravnoq topdi. Vizantiya turklar tomonidan bosib olishiga qadar (1453 yil) u yerda sirk tomoshalari o'yinlari va ko'ngil ochish vositalari sifatida antik jismoniy madaniyat izlari saqlanib qoldi.

Rus feodal knyazliklarida knyazlarning harbiy-jismoniy tarbiya tizimi, Gharbda singari, halqdan keskin farq qilmas edi. Rus knyazlari Rus yerining ko'p sonli dushmanlariga-cho'l ko'chmanchilari va Gharbiy Yevropa ritsarlariga qarshi kurashda halq lashkarlariga tayanishiga majbur edi. Shuning uchun halq ommasi bu yerda harbiy ishdan chetlashtirilmagan edi. Knyazlar va ularning drujinalarining harbiy-jismoniy tarbiyasida jismoniy mashq va o'yinlarning halq turlari ko'p ishlatilganki, bu hol ham ehtimol, Shu bilan izohlansa kerak.

Ozod dehqonlarning qulikka solinishi, ularni ekskluatatsiya qilishning kuchayishi va ularni harbiy ishda qatnashishdan chetlashtirishi halq ommasi jismoniy mashqlar bilan Shug'ullanish uchun zarur bo'lgan moddiy imkoniyatlar kamayib ketdi. Buning natijasida o'yinlar, raqslar, turli mashqlarni o'z ichiga olgan musobaqa turlari bilan nishonlanadigan ko'pgina eski halq bayramlari unitildi.

Biroq dehqonlar o'zlarning og'ir va huquqsiz ahvollariga qaramasdan, o'z muhtida, ilgarigi davrlardagi an'anaviy jismoniy mashqlari saqlanib qolishga harakat qildilar. XIV-XV asrlardagi gravyuralarda dehqonlarning otda chopishi, raqslari, uning yugurishiga, kurashga va langar chupga tirmashqib chiqishga doir musobaqalar aks ettirilgan. Germon knyazliklarida yerga tashlab qo'yilgan shamshir atrofida raqsga tushish goyat ommalashgan edi. Yevropaning shimoliy rayonlarida, jumladan Skadinoviyada chang'ida yurish va qonki uchish ancha keng qo'llanar edi. Fransiyada top bilan o'ynaladigan o'yinlar

mashhur edi. “Sul” o‘yinida ko‘pincha aksari qishloqlarning aholisi ishtirok etdi. O‘yinchilar ikki guruhga olib ketishida va oldindan belgilab qo‘yilgan nishonga tashlashdan iborat edi. O‘ynovchilar soni ko‘pincha bir necha yuz kishiga yetar edi.

Xuddi shunga o‘xshash o‘yinlar Angliyada turli nomli (“futbol”, “xerling”, “kemping” va boshqalar) bilan mashhur edi. “Lapta” turidagi o‘yinlar (nemis o‘yini “shlagball”, ingliz o‘yinlari “kriket”, “rao‘ndres”), shar o‘yinlari, kegli o‘yinlari ham ancha ommalashgan edi.

Halq hayotida saqlanib qolgan o‘yin va mashqlar dehqonlarda tizimli jismoniy madaniyatning yo‘qligini birmuncha to‘ldirar va ularda mehnat qilish va feodallarga qarshi kurashish uchun zarur bo‘lgan ma’naviy va jismoniy fazilatlarining madaniyatlashga imqon berar edi. Dehqonlar ommasidagi jismoniy tayyorgarlikning halq formalari ahamiyati shveysariyaliklar misolida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gabsburglar imperiyasiga qarshi kurash davrida Marganteka yonidagi bo‘lgan jangda (1315 yil) va boshqa janglarda uch shvisariya koptoklari Shvitsa, Urvi, Ontervalden ittifoqi dushmanning otliq ritsarlariga jiddiy zarba berishga muvoffiq bo‘ldi. Shveysariyaliklarning yaxshi tayyorgarlik tayyorgarligi va ularning jangda kamalak otish, toshi uloqtirish va boshqa harakatlarni mohirona qo‘llanganliklari ma’lum darajada bu kurashning muvoffaqiyatli borishiga sabab bo‘ladi.

XIV asrda Shveysariya yoshlarning o‘ziga xos harbiy tarbiya tizimi qaror topadi. 16-18 yoshdagi kishilar jiddiy jismoniy tayyorgarlik maktabini o‘tar edilar. Ular yugurish, sakrash, kurashni o‘rganar; tosh uloqtirish, uzo‘n nayza, oyboltani ishlatishini, zich saf bo‘lib harakat qilishni o‘rganar, shuningdek to‘p o‘yini va boshqa o‘yinlar bilan Shug‘ullanar edilar.

Yigitlarning harbiy tayyorgarligi o‘z-o‘zini idora qiladigan koptoklar orasida saylab qo‘yiladigan maxsus shaxslar tomonidan tekshirilar edi. Bunday tekshirish alohida halq yig‘ilishlarida amalga oshirilar va yugurish, sakrash, tosh uloqtirishi, kurashish, otda yugurish, kamon otish va qilichbozlikka doir musobaqalardan iborat bular edi.

Keyinchalik shveysariyaliklar knyaz va qorollar qo‘shiniga yollana boshladilar, lanuskextlarga-absalyutizm malaylariga aylanadilar. Ular kim ko‘p haq to‘lasa ana sho‘ncha pul badaniga o‘z kuchi va hayotini sotar edilar. Shveysariyaliklarni boshqacha qilib aytganda, o‘zlarining jangovar shuhratini pulga aylantirib yubordilar.



Feodallarga qarshi chiqadigan xalq lashkarlarini tayyorlashda jismoniy mashqlar katta o‘rin to‘tar edi. Yomon qurollangan piyoda dehqonlar sovutga o‘ralib olgan otliq ritsarlarga qarshi jang qilish majbur bular edi. G‘allayonchilar birinchi navbatda, ritsarlar otdan urib tushirar edilar. Buning uchun esa ular otliqlarni arqon bilan urar yoki otlarning oyog‘ini chopib tashlar edilar. Piyoda qolgan ritsarlar besonaqay bo‘lib, qo‘zgonchilar ularni so‘yil, to‘qmoq, gurza va toshlar bilan urar edilar. Bu usullar ularga o‘zlarining dushmaniga jiddiy falokat yetqazish imqonini berar edi. Masalan, so‘ngra o‘rta asr davrida taboritlar-asosan chex dehqonlaridan iborat bo‘lgan halq lashqari harakat qildi. XV asrning boshlarida gusit urushlari olib borilayotgan paytda taboritlar o‘zlarining yo‘lboshchisi Yan Jijin boshchiligida nemis ritsarlari qo‘shiniga bir qancha kuchli talofatlar yetkazdi. Taboritlarning asosiy quroli qisqa nayza, so‘yil, toshlar, dehqon to‘qmog‘i va paloxmondan iborat edi. Jijina lashqari kurashga yaxshi tayyorgarlik ko‘rar edi. Hatto o‘smirlar ham palaxmondan tosh otish mashqiga qatnashar va bo‘nga maxsus o‘rgatilar edi. To‘qmoq bilan bir daqiqada 20-30 zarba urish mumkin edi, bu esa oldindan jiddiy tayyorgarlik ko‘rishni talab qilar edi.

### **Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar**

1. Ilk taraqqiy etgan feodalizm davrida harbiy madaniyatni rivojlanishi.to‘g‘risida nimalar bilasiz?
2. Ilk feodalizm davrida harbiy va jismoniy tayyorgarlik qay shaklda rivoj topdi?
3. Arab aslzodalarning harbiy jismoniy tayyorgarligi to‘g‘risida ma’lumot bering?
4. Taraqqiyot etgan feodalizm davri to‘g‘risida bilimingizni namoyon eting?
5. Feodallar harbiy jismoniy tayyorgarligi to‘g‘risida fikringiz?

### **Talabalarning mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar.**

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o‘z fikr- mulohazalaringizni bildiring “  
Mustaqil ish ” yozing.

3. O‘rta asrlarda chet mamlakatlarda jismoniy tarbiya va sport.

#### 4. Feodalizm davrida jismoniy tarbiyaning xususiyatlari

Arab aslzodalarning harbiy jismoniy tayyorgarligi

#### **Tayanch iboralar.**

Miltiq, Feodalizm, jismoniy tarbiya, sport, futbol o‘yini, rivojlanish, harbiy jismoniy tayyorgarli, qilichbozlik

#### **GLOSSARIY**

№	Atamaning O‘zbek tilida nomlanishi	Atamaning Rus tilida nomlanishi	Atamaning Ingliz tilida nomlanishi	Atamaning ma’nosi
1	Sport	спорт	sport	Bu musobaqa jarayonida namoyon bo‘ladigan, u yoki bu jismoniy mashq turida eng yuqori natijaga erishishga yo‘naltirilgan maxsus faoliyatdir.
2	chidamlilik	выносливость	durable	Biror –bir faoliyatda toliqishga qarshi tura olish qobiliyatidir.
3	musobaqalash moq	соревноваться	compete	Ikki jamoa o‘rtasida bellaShuv
4	jismoniy madaniyat	Физическая культура	Physical training	Bu jismoniy kamolotga erishishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayondir.

#### Adabiyotlar

1. И.Икрамов Военная история. – Т.: «ТГПУ, 2001, 23.
2. М.Ү.Са’дullaev va boshqalar. Harbiy tarix. Т.: 2005. 228 bet.
3. Q.Usmonov O‘zbekiston tarixi. I qism Т.:“O`AJBNT” 2002. – 280 b.
4. Harbiy tarix ( O‘quv qo‘llanma) «TGPU», 2017

## **VI-BOB. XALQ QO‘SHINLARINING HARBIY JISMONIY TAYYORGARLIGI.**

### **6.1. Jaloliddin Manguberding harbiy yurishlari**

**JALOLIDDIN MANGUBERDI.** To‘liq ismi Jaloliddin ibn Alovuddin Muhammad (1198-1231 yillarda) Xorazm shohlar davlatining so‘nggi huqumdori (1220-1231 y.) moxir sarkarda Jamoliddin xoji (ma-k) bo‘lgani uchun Manguberdi nomi bilan atalgan. Keyinchalik bu nom talaffuzda o‘zgarib “Manguberdi” nomi bilan mashxur bo‘lib ketgan.

Jaloliddin Manguberdi otasining harbiy yurishlarida ishtirok etib, o‘zining jasur jangchi, iqtidorli sarkardalik qobiliyatlarini namoyish etgan.

Jaloliddin qorachadan kelgan, o‘rta bo‘yli, turk lafzli odam edi. Fors tilini ham yaxshi bilardi. Uning botirligiga kelganda Shuni aytish kerakki, qaddi-qomati kelishgan kuchli, baquvvat, zabardast, sulton arslonlar orasidagi eng kuchli sher edi. Bir so‘zli, kek saqlamaydigan, ochiq ko‘ngil to‘g‘ri odam edi. U jiddiy shaxs edi, xech qachon qo‘lmasdi. Juda nari borsa jilmayib qo‘yardi. U adolatsizliklarni yomon ko‘rardi. Jaloliddin o‘ta kat‘iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o‘zini yo‘qotib qo‘ymaydigan favqulotda mard va botir sarkarda edi.



**Jaloliddin Manguberdi(1198-1231 yillarda)**

Jaloliddin Manguberdi – o‘zbek xalqi tarixidagi ulug‘ shaxslardan biridir. Mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi ko‘rsatgan bemisl jasorati va murosasiz kurashi tufayli u buyuk vatanparvar va milliy qahramon sifatida butun Sharqda dong taratdi. Jamoliddinning hayoti nihoyatda qiyin va murakkab sharoitda kechdi, mo‘g‘ullarning to‘xtovsiz xujumlari, tazyiki

va taxlikasi ostida bo'lishiga qaramay otasi sulton Alovuddin Muhammad tomonidan boy berilgan, barbod bo'lgan Xorazmshoxlar imperiyasini mamlakatning janubiy-gharbiy qismida yangidan barpo etadi va vatan mustaqilligini saqlab qolish uchun o'n bir yil mobaynida bosqinchilarga qarshi matonat bilan kurashda, aql bovar qilmas qahramonliklar ko'rsatdi.

Chingizxon bo'yida turgan Jaloliddinga yetib oladi va uning qo'shinlarini o'rab oladi. Shu paytda Jaloliddin daryo yoqasida turgan onasi va haramidagi xotin-qizlarni mo'g'ullar qo'liga tushmasliklari uchun daryoga tashlattirdi. Ular daryoga gharq bo'ldilar. Jaloliddin mo'g'ullar xalqini tobora siqib kelayotgan va qutulish chorasi qolmagan bir laxzada oti bilan daryoga tik tashlab narigi soxilga so'zib utdi. Joni omon qolgan Xorazmliklar ham o'nga ergashdilar.

Jaloliddinni jasorati va qahramonligiga qoyil qolgan Chingizxon o'z xayratini yashirishda ojiz qoldi va "Bir otaning ana Shunday o'g'li bo'lishi lozim" dedi.

Jaloliddin vaqtida armiyani tashkil etgan o'nsurlarga qator o'zgartirishlar kiritilgan:

Turkiylarda qadimdan mavjud an'anaga ko'ra qo'shin o'ng va sul qanotlarga ajratilgan. Xorazmshoxlar davrida qo'shinga oid boshqaruv ishlari bilan buyuk devonning bo'lim – devoni arz Shug'ullangan. Davlat xazinasidan olingan mablag'lar va ularning sarf to'g'risidagi barcha yozuvlar Shu devonda saqlangan. Xorazmshoxlar zamonida ham ikkita tizimi bor edi. Qo'shinda xizmat qilgan harbiylarning hammasi ma'lum qiymatdagi ikkitalarga ega bo'lishgan. Xususan katta, kichik sarkardalar, qo'mondonlar bor edi. Katta ikkitalar ho'qumdorlarning marhammatiga muvofiq kamayishi yoki yana yiriklashishi mumkin edi. Kichik ikkitalar bo'lsa o'zgarmagan. Ular ota meros edi. Ikkita egalari chaqirilgan zaxoti o'z amirlari qanoti ostiga to'planishar va yurish tugagach, yana o'z yurtlariga qaytib ketishardi. Xorazmshoxlar yangi bir ulkani zabt etgach u yerdagi yerlar darhol ikkitalarga bo'linib, mansabdorlar o'rtasida taqsimlanar va devoni arz daftariga qayd qilinar edi.

Ikkita soxiblaridan tashkil topgan ulkan bir suvoriy quvvatlar Xorazmshox mamlakatining turli tomonlariga yerlashgandi. Ular viloyat askarlarini tashkil etardi.

Bo'ndan tashqari ho'qumdorning gvardiyasi ham mavjud edi.

Sulton Jaloliddin, Shubxasiz armiyasining bosh qo‘mondoni edi. U tinchlik davrida ham, yurish vaqtida ham o‘z armiyasini tashkil etgan ikki buyuk qismga: gvardiyasi va viloyat askarlariga qo‘mondonlik qilardi.

Vazir bo‘lsa Ozarboyjon va Arronda joylashgan Xorazmshox qo‘shinlariga qo‘mondonlik qilar va faxsh etish bilan Shug‘ullanar edi.

Jaloliddin doimo qo‘shin boshida bo‘ldi. Sulton goxo u yoki bu amirni biron-bir mintaqani fatx qilish uchun safarbar qilsada, ko‘p o‘tmay orqasidan yetib olib, qo‘mondonlikni o‘z qo‘liga olardi.

Harbiy kengash bosh qo‘mondon sifatida sultonning o‘zi boshqaradigan bu majlisda jangga kiradigan xonlar, amirlar, ishtirok qilar edilar. Majlisda jangda qo‘llaniladigan taktika to‘g‘risida bir qarorga kelinardi. So‘nggi ho‘qum sultonga oid bo‘lgani uchun harbiy kengash qarorlari tavsiya harkteriga ega bulardi. Masalan: gurtilar bilan bo‘ladigan bir jangdan oldin Jaloliddin vaziri va qo‘mondonlari ishtirokida harbiy kengash o‘tkazdi. Vazir dushman qo‘shinlari soni jixatidan ustovn bo‘lgani uchun jang vaqtini keyinga surishni taklif qildi. Bu taklifdan jaxli chiqqan sulton vazirning boshiga urdi va jang qilish qarorini e‘lon etdi. Boshqa tomondan, Jaloliddin jangni qaysi kuni boshlash to‘g‘risida mo‘najiblarning ma‘lumotlariga suyangan.

Jang shakllari. Jang shakllari maydon jangchi, kurshovga olish va muqobil to‘qnaShuv tarzida uch xil bo‘lgan, muqobil to‘qnaShuv kichikroq miqyosdagi maydon jangchidir.

Jalliddin maydon va muqobil janglarda o‘z qo‘shinini an‘naviy bir shaklda, ya‘ni o‘ng markaz va sul qanoti saflangan. Markazga uning o‘zi qo‘mondonlik qilgan. Markaz odatda gvardiya qo‘shinlaridan iborat edi. O‘ng va sul qanotlarga xon. malik, amirlar qo‘mondonlik qilishardi. O‘ng va sul qanotlar har holda viloyat qo‘shinlaridan tashkil topar edi.

Aksariyat hollarda markazda suvoriylar, o‘ng qanotdan kamonchilar, sul qanot piyodalardan tashkil topgan. Jang vaqtida sulton atrofidagi xos gulomon bilan oldingi safda urishardi.

Bir-biri bilan suyak dushmani bo‘lgan Xorazmliklar va mo‘g‘ullar bir-birining jang tarzini qabul qilmaganlar. Xorazmshox qo‘shinlari klassik tartib va taktika asosida jang

qilgan. Mo'g'ullar bo'lsa qismlarini o'zlarining maxsus jang uslubida ikki qator to'zchil holda urushganlar.

Jaloliddin maydon janglarida ham, muqobil janglarda ham pistirma qo'yish usullaridan foydalangan.

Jaloliddin jangning boskich shaklini ko'proq Xindistonda qo'llagan. Bunda har holda askarlarning soni kam bo'lganligi o'z rolini o'ynagan bo'lsa kerak.

U kamal paytlari manjamik devor teshar qurollar va neft moyi ishlatgan. Kamal uzoq davom etgudek bo'lsa, sulton o'z qo'shinlarini ka'la atrofiga doira shaklida joylashtirar, shahar atrofida uylar qurdirardi.

Sulton dushmanlarini aldash uchun xiyla ham ishlatgan. Masalan: u mo'g'ullar bayrog'iga uxshash ok sanjok bilan Isfa xondan Royga ketgani ma'lum.

Shuning uchun ham Jaloliddin Manguberдини "1000 askar" jangovor san'atining ustasi sifatida tilga olish mumkin. Chunki, u kam sonli navqari bilan necha mo'g'ul istilochilarini dam-badam havotirga solib turgan. Bizningcha, nafaqat Manguberdi, balki uning navkarlari ham "1000 askar" san'atini mukammal egallagan bo'lsalar ajab emas. Chunki, jismoniy jixatdan yetarli tayyorgarlik ko'rgan mo'g'ullar ham ularning nomini eshitganda zir-zir titrashgan.



## **ZAXRIDDIR MUHAMMAD BOBUR**

### **6.2. Zaxiriddin Muhammad Bobur, (1453-1530-yillar)**

Asli, polvonlar avlodidan desa bo'ladi. Uning katta bobolari – Soxibqiron Amir Temur, uning o'g'li Mironshox ham, Sulton Muhammad Mirzo, Sulton Abu Said Mirzo

ham jismoniy baquvvat, otni musht bilan urganda dovdiratadigan darajada kuchli va polvon qiskilar bo'lgan ma'nalarda ma'lum. Boburning otasi Umarshayx Mirzo polvon kelbatli, jismoniy jixatda juda baquvvat yigit bo'lgan. "Boburnomada" ta'riflanishicha, uning mushtiga bironta baxodir chidash berolmasdi. Belbog'ni bog'lab bo'lganlaridan keyin chuqur nafas olganida esa belbog'i o'zilib ketar edi.

O'n ikki yoshida Farg'ona taxtiga o'tirgan Zaxriddin Muhammad Bobur ham o'sha polvon kelbatli qiskilar zotidan bo'lgani uchun bolaligidanok nihoyatda sog'lom, binobarin sho`x tabiatli, epchil, chaqqon, kuchli, chabardast yigit bo'lib o'sdi.

Boburga kichikligidanok yugurish, otda chopish, chavg'on o'ynash o'rgatildi. U otda turib to'p surardi, tengqurlari bilan kurashga tushardi. Ammo u bolalik va o'smirlik gashtini uzoq surolmadi. Otaning bevaqt o'limi uni vorisiy taxtga o'tkazdi.

Boburning qizi Gulbadanbegim "Xumoyunnoma" asarida quyidagi ma'lumotni keltiradi, Bobur Xindistonda Agra shaxrini egallagach, xursandchilikdan bo'lsa kerak, qal'a devoriga chiqib, ikki yigitni ikki qo'ltig'ida dast ko'tarib, devor ustida yugurgan. Yigitlar, masalan: o'rtacha 75 kilogrammdan bo'lsa, demak, 150 kilogramm yukni ko'tarib, devor ustida yugurish o'ncha – mo'ncha polvonning qo'lidan kelmasligi aniq.

Boburning o'zi jismoniy tomondan baquvvat bo'lgani uchun ham doimo baxodir yigitlarni xush ko'rardi. Shuning uchun ham askarlarini jismoniy tayyorgarligiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Askarlar o'rtasida kurash tushish, jamoan o'q otish, uloq, ot chopish, ot ustida kurashish mashqlari ko'proq berilgan.

Sportning eng og'ir va xatarli turlaridan bo'lgan alpinizm ham O'rta Osiyoliklarga qadimdan ma'lum.

Kishidan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni, epchillik, jasurlik, chidamlilikni, uddaburonlikni talab qiluvchi alpinizmning ko'p shakllari O'rta Osiyoda shakllangan. Jumladan O'rta Osiyoning, Xindistonning, Afg'onistonning ko'plab past-baland tog'laridan oshib o'tgan Boburning moxir va mashxur alpinizm bo'lganligi xaqida uning "Boburnoma" asaridagi ma'lumotlar dalolat beradi. Bobur va uning askarlari Kobulga borish uchun yaqin yo'l tashlamokchi bo'lib, Kosimbek degan odamni gapi bilan Xinduqush tog'lari orqali yuradilar.

Kishidan umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlikni, epchillik, jasurlik, chidamlilikni, uddaburonlikni talab qiluvchi alpinizmning ko'p shakllari O'rta Osiyoda

shakllangan. Jumladan O‘rta Osiyoning, Xindistonning, Afg‘onistonning ko‘plab past-baland tog‘laridan oshib o‘tgan Boburning moxir va mashxur alpinizm bo‘lganligi xaqida uning “Boburnoma” asaridagi ma’lumotlar dalolat beradi. Bobur va uning askarlari Kobulga borish uchun yaqin yo‘l tashlamokchi bo‘lib, Kosimbek degan odamni gapi bilan Xindquush tog‘lari orqali yuradilar. Ammo ular yo‘ldan adashib va ko‘p qiyinchiliklarga uchrab Xindquush orqali Qushiy degan g‘orga yetib kelishadi. Hamma, Shu jumladan Bobur ham, qo‘liga kurak olib o‘ziga boshpana-g‘or qazishga kirishadi: “Qo‘limga kurak olib, qor kurab o‘zimga joynomoz miqdori yer yasadim, qorni ko‘ksingacha qazidim xanuz yerga yetmaydur edi. Xorin yelga panox bo‘ldi. O‘sha g‘orda ultirdim, yigitlarim: katta g‘orga keling, deb har necha dedilarkim, bormadim. Ko‘ngilga keldi: barcha qiskilarim qorda va buronda kosayu, men issiq uyda va istiroxatda yotamanmi, dalada barcha odamlar tashvish va mashakkatda yursalaru, men katta g‘or ichida uyqu bilan farog‘atda yotamanmi? Bu nomardlik bular edi, bu hamjixatlikdan yirok ishdur. Men har tashvish mashakkat bo‘lsa ko‘rayin, har necho‘q el tokat qilib tursa turayin, bir fors makoli bor: do‘stlar bilan birga ulsang – to‘ydir. U sho‘ndok buronda o‘zim kozib yasagan qor chuqurda ultirdim deb yozgandi.

Suvda suzish mashqlari ham har bir O‘rta Osiyolik jangchi uchun majburiy edi. Bu “Oynoma”, “Sayoxatnoma” asarlarida qayd etib o‘tilgan. Bobur ham “Boburnoma” asarida o‘zining mohir suzuvchi bo‘lganligini Shunday eslaydi: o‘sha kuni men Gang daryosini so‘zib utdim va uning u chekkasidan bu chekkasigacha necha kadam ekanligini xisoblab chiqdi m. O‘ttiz qadam masofaga suzib borgan ekanman. Shu ondayok dam o‘tmay yana ketimga suzib, o‘z joyimga qaytib keldim. Men hamma daryolarni suzib o‘tgan edim, faqat Gang daryosi qolgan edi.”

Shunday qilib Bobur Mirzo 1526 yilning aprelida Xindistonni zabt etib, boburiylar saltanatiga asos soldi va Shu tariqa temuriylar sulolasini Xindiston zaminida davom ettirdi.

Boburning sportga qiziqqanligi bir yorqin misol. To‘y tomoshalarda, sayllarda Bobur turli o‘yinlar uyushtirar edi va polvonlarning kurashlarini tashkil qilar edi. Bunday marosimlar Qobilda ham, Xindistonda ham tez-tez o‘tqazilgan.

Bobur Xindistonga borgach, 1528-1529 yillari mamlakat bo‘ylab sayoxat-safarlar qilgani ma’lum. Ana Shu safarlari chog‘ida o‘zi bilan ayrim polvonlarni ham olib yurgan va kechki dam olish paytlarida daryo bo‘ylarida ko‘ngil ochar marosimlar tashkil qilgan.



(o'ngacha allaqachon chog'ir ichishni man etish xaqida maxsus farmon e'lon qilgan edi). Bu tantanalar kurash tomoshalarisiz o'tmasdi.

Boburning Sodiq polvon va Qulol polvon degan kurashchilari bo'lgan. Qaerda kurash musobaqasi uyushtirilsa Bobur ularni boshqa polvonlar bilan kurashga tushirgan. 1527 yil martida Ganga qo'yiladigan Jo'n daryosi bo'ylab sayoxat chogida Bobur odamlari tushgan kemala xushhavo degan kishlokda to'xtaydi. Kishlok daryo tomoniga chodirlar tiqilib, Shu yerda bir kecha qolishadi. Shoxona suxbatlar uyushtirib, yoyilganidan so'ng polvonlar kurashi boshlanadi. Sodiq polvon va Qulol polvonlar o'zaro do'st bo'lib, xech qachon bir-biri bilan kurashga tushmagan edi. O'sha kuni Bobur, xazil-mutoyiba qilibmi yoki boshqa polvonlar yo'qligidanmi, ikkovini maydonga tushiradi.

Kurash Fargona usulida: Chopon keyilgan va belbog' bog'langan, ammo belbog'lar ikki qavat uzilib ketmasligi kerak-da. Sodiq polvon astoydil olishadi, Qo'lol polvon esa faqat uning harakati ga qarshilik ko'rsatadi, holos. Odamlar esa o'ndan "Xujum" kutib, "Xa-xa" deb qichqirmoqda. Olishuv anchagina davom etadi. Nihoyat Sodiq polvon raqibini dast ko'tarib yonboshga tashladi. Atrofdan esa qichqiriq ovozlari. Bobur o'tirgan joyida tizzisiga urib, Sodiqni olqishlamokda edi. zavqlanganidan uni oldiga chakirib, o'n ming tanga pul, bir bir ot va bosh-oyoq sarpo muqofot beradi. Boburning odilligi sho'ndaki, mag'lubga ham uch ming tanga pul, bir chopon xadya qildi va yelkasiga qoqib qo'ydi.

Xullas yuqorida bayon etilganlardan ma'lum bo'ladiki, Zaxiriddin Muhammad Bobur jismoniy mashq mashg'ulotlari va kurash orqali mardlik, jasurlik, botirlik, epchillik, chidamlilik sifatlarini o'zida ham askarlarida ham birdek mukammal tarbiyalab borgan.



**AMIR TEMUR**

### **6.3.AMIR TEMURNING HARBIY SAN'ATI. (1336.9.04-1405.18.02)**

**AMIR TEMUR** .To'liq ismi Amir Temur ibn Taraggay ibn Amir Barlos.Amir Temur 1336 yilning 9-aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shaxrisabz)ga qarashli Xoja ilg'or (bu xalqlar hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q badavlat kishi edi. (1405.18.02 Utror shaxri Samarkanda dafn etilgan.)

Amir Temur – o'rta asrning yirik davlat arbobi kuragi yerga tegmagan, buyuk sarkarda, kuchli, markazlashgan davlat asoschisi, qono'nsho'nos, talantli me'mor, notiq ruxsho'nos, ilm-fan va madaniyat xomiysi, Shu bilan birga el yurtni sevgan va uni mashxuri jaxon qilgan inson.

Amir Temurning Yoshligi Keshda kechadi. Yetti Yoshga to'lgach otasi uni o'qishga berdi. U Yoshlik chog'laridanoq maxsus murabbiylar nazorati ostida, chavandozlik, ovchilik, jamoan nishonga o'q uzish, boshqa turli mashq va harbiy o'yinlar bilan mashg'ul bo'lgan. Shu asnoda Amir Temur tulporlar saralab ajrata oladigan moxir chavandoz va dovyurak baxodir bo'lib voyaga yetgan. U tabiatan og'ir, bosiq teran fikrli va idrokli hamda nihoyatda ziyrak, qiskilardagi qobiliyat fazilat ayniqsa, samimiyatni tezda faxmlab oladigan inson bo'lgan. Shu tufayli o'spirinli chog'laridayok atrofiga tengqurlari orasidan sadoqatli do'stlarini jalb qila olgan. Uning atrofiga bolalikdagi do'stlari va maktabdoshlari to'planishib, birgalikda mashq qilar, musobaqalarda ishtirok etishar, asta-sekin navkar bo'lishib va harbiy guruxga birlashib, harbiy bo'linma sifatida shakllana borgan. Keyinchalik ular Amir Temur qo'shinida lashkarboshilik darajasigacha ko'tarilganlar.

Amir Temur o'zining ilk harbiy faoliyatini qo'l ostidagi navkarlari bilan ayrim viloyat amirlariga xizmat qilishdan boshlagan; ularning o'zaro kurashlarida qatnashib jasorat ko'rsatgan, janglarda chiniqqanlar, harbiy mahoratini oshirgan. Dongi butun Qashqadaryo voxasiga yoyilgan. Amir Temo'ning aqlu zakovati, shijoati va Shuxrati uni Movarao'nnaxrning nufuzli amirlaridan amir Xizr Yasavuriy va amir Kozogiy bilan yaqinlashtirdi.

Soxibqiron Amir Temur Samarkand taxtiga 1369-1370 yillarda o'tiradi. 1370 yilda amir Xusayn katl kilingach Saroymulxonim Amir Temur nikoxiga kiradi va Shundan so'ng, mashxur "Ko'ragon" nomini olishga musharraf bo'ldi.

Temur tarixchilar, oʻrta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan edi. Uning “Temur Tuzoʻqlari” asarini oʻqigan kishi bu fikrning xaqqoniyligiga qanoat xosil qiladi. Ushbu asarda Temurning doktorinasi izoxlangan. Uning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy xayotga qarashi, birlashgan qudratli davlatning siyosiy va axloqiy prinsiplari ifodalangandir.

Shundan kelib chiqqan holda Temurning asosiy va sodiq tayanchi uning qoʻshinlari edi. Temur qoʻshinlari oʻz davrida butun Osiyoda eng qudratli armiya xisoblanar edi.

Harbiy tarix Temurni oʻrta asr Osiyosida eng yirik lashkarboshlaridan deb xisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yoʻnalishda, asqariy qismlardan qayta tashkil etishda, lashkarboshi qoʻmondonlikda nomoyon boʻladi.

Temurning armiyasi oʻnlik, yuzlik, minglik boʻlinmalardan iborat boʻlib, ularning har qanchasiga muvofiq harbiy boshliqlar raxbarlik qilardi. Odatda harbiy boshliqlar raxbarlik qilayotgan boʻlinmalar soniga qarab bir-birlariga kichik-katta qismiga boʻysoʻnar edilar. Armiya boʻlinma birlashmalari qoʻshin-armiya deb atalardi; qoʻshin-armiyalarni oʻz ichiga olardi. Bu qismlarning har biri sharoitga qarab lashkar oʻng qoʻl- bronchir – sul qoʻl – juvongar, manglay – avangard vazifasini oʻtardi. Qoʻshin turlari ichida hammadan koʻra otliq askarlar, piyodalar, Shuningdek, Temur dargohida – stavkasida ilgʻor – razvetka boʻlinmasi yuqori baholanar edi.

Temur va uning lashkar boshilari jangchilarning jismoniy chinikkan, baquvvat va epchil boʻlishi muximligini yaxshi tushoʻnardilar, juda koʻp harbiy yurishlar taqdirini jangchilarning mahorati va jasorati xal qilar edi.

Shu bois Amir Temur askarlar tanlashda quyidagilarga eʼtibor berar edi. Qoʻshin toʻzib, navkar olmokda uch qoidaga amal qildim: birinchidan - yigitning kuch – quvvatiga, ikkinchidan – qilichni oʻynata olishiga, uchinchidan – aql – zakovatiga, kamolatiga eʼtibor qildim. Shu fazilatlar jamuljam boʻlsa, navkarlik xizmatiga oldim. Negaki kuch – quvvatli yigit har qanday qiyinchiliklarga, azobu uqubatlarga chidamli boʻladi, qilich oʻynata oladigan kishi raqibini magʻlub eta oladi, oqil navkar har joyda aql – idrokni ishga solib, mashgʻulotni daf etmogʻi mumkin.

Soxibqiron jangchi - paxlovonlarining Shuxrati o'sha kezlarda ham dunyo uzra taralgan edi. Fikrimizga dalil sifatida Soxibqironning hayotiga doir quyidagii lavxani keltirishni joiz deb bildik.

Amir Temur saroyiga Ispaniya – Kostilyaning elchisi Rui Gonzales de Klavixo o'z ko'ndaligiga quyidagilarni qayd etib qo'ygan edi. “Bu lochin xalqning ot ustida qanday yurishini o'z ko'zi bilan ko'rmagan kishi ishonmaydi”. U ikki polvon kurashini mana bunday tasvirlagan. “Egniga yengil kamzulga o'xshatib tiqilgan charm libos kiyib olgan ikki polvon tik turib olishar va bir – birini yiqita olmas edi. Nixoyat, ulardan biri usto'n chiqib, raqibini yerga ag'daradi va ancha vaqtgacha uning turib olishiga yo'l qo'ymaydi, bosib yotadi, aytishlaricha, agar u o'rindan turib ketsa, yiqilgan xisoblanmas ekan”.

Urush oqibatini ko'pincha ikki jangchi paxlavonning bevosita xal etganligi to'g'risidagi qiziqarli ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan: Sharofitdin Ali Yazdiy o'zining “Zafarnoma” kitobida Temo'ning Xorazm xoni Xusayn Sufiyga ikki o'rtadagi nizoni urush bilan emas, balki yakkama – yakka oliShuv yo'li bilan xal etishini taklif qilgani to'g'risida ma'lumot fikrimizga asosdir. Bo'lg'usi podshox – Amir Temurga 16 – 18 Yoshga kirganda qilichbozlik, kamon otish, kurashish va ayniqsa ov qilishda o'nga teng keladigan tengqur topilmagan. U 20 Yoshida chavandozlik bilan Shug'ullangandi. Temur bolaligidan harbiy o'yinlarni yoqtirgn. U ko'pincha tengqurlarini ikki guruxga bo'lib, jang mashqqlarini bajarardi.

Amir Temur davridagi jangovor san'at xaqida gapirib “1000 askar” deyilishini quyidagicha tusho'ntiradi: Bu jangovor san'atning ming xil usuli bo'lib, bir uslubini bilgan kishi “bir askarlik”, ikki uslubini bilgan kishi “ikki askarlik” deyiladi. Demak bu san'atning mingdan ortiq uslublari mavjud bo'lib, barcha uslublarini bilgan kishi 1000 askarli kishi xisoblanadi, deydi.

Bo'ndan 1200-1300 yillar ilgari yozilgan tarixiy asarlarda ham bu jangovor san'atga oid ma'lumotlar berilgan. Binobarin, bu “1000 askar” ning qadim davrlarda bo'lganidan darak beradi. Amir Temur zamoniga kelib esa boshqa san'atqor kabi “1000 askar” ham eng yuqori nuqtasiga ko'tarilgan. Sababi Soxibqiron bobomiz askarlarning umumiy jismoniy tayyorgarligiga aloxida e'tibor bergan. Buni uning “Askar quvvatli mamlakat boy bo'lur, boy mamlakatning asqari quvvatli bo'lur” degan xikmatli gapi ham tasdiqlab turibdi.

Bu san'atni o'rganishga ko'p vaqt talab qilingan. Biroq zarurat tug'ilganda ayrim usullarni tez o'rgatishgan ekan. Cho'nonchi, Amir Temur askarlari ko'p yillik safarga jo'nab ketishdan oldin ayollariga oddiy o'qlovlardan jangovor sifatida qanday foydalanishni sanoqli ko'nlarda o'rgatishgan ekan. Natijada, oddiy o'qlov ayollar qo'lida "Sexrli tayoqcha"ga – jangovor qurollarga aylangan.

Aynan xalq o'yinlari orqali "1000 askar" elementlari bolalar o'yinlarida ham mo'nosib joy olgan. Misol uchun "Oshiq" o'yinini olaylik. Agar oshiq tova holida kolsa, tizzada turishgan. Bordiyu oshiq o'mba holatida kolsa, bola boshi bilan turishga majbur bo'lgan. Bularning barchasi "1000 askar" san'atidagi gimnastik harakatlar deyish mumkin. Bo'ndan tashqari, "askar-askar" o'yini bolalarni bevosita Shu jangovor san'atga tayyorlagan.

Soxibqiron o'zidan ilgari o'tgan jaxongirlarning faoliyatidagi muvaffaqiyati va inqiroz sabablarini doimiy taxlil qilib, juda ko'p narsani bilib olgan va o'rgatgan hamda ijodiy o'zlashtirgan. Ma'lumotga ko'ra, Amir navkarlari faqat qaxr – g'azabga to'la ur – sur mashqlarini emas, balki kishiga xush kayfiyat bag'ishlovchi mashq va mashg'ulotlar bilan ham Shug'ullanishgan. Cho'nonchi "Tovus " Shunday mashqlar sarasiga kiritish mumkin. Tabiatda tovsudan erta turadigan go'zal, beozor qush yo'q. Uni ko'rganda xech bir inson yomon ko'z bilan ham qaramaydi. Shuning uchun butun mashqlar tovus harakati ga doir mashqlar bajarib, bir – birlarining chiroyini ko'rib zavqlanishgan, yengil tortishgan. Bunday mashqlar majmuasi 30 tadan iborat bo'lgan.

Bobomiz har bir navkarning har bitta harakati ni erinmay ko'zatgan ekanlar. Shunday hollar ham bo'lgan ekan. "Agar navkarlardan biri qilich chopishib ganimni sindirar bo'lsa, gharazguy odamlarning u xaqda aytgan gaplariga quloq solmasinlar. Uning qilgan xizmatlarini yashirmaslik kerak, aksincha bir xizmatini o'nga yo'ysinlar. Martabasini oshirsinlar, toki boshqa navkarlar buni ko'rib jonbozlik qilishga rag'batlantirilsin" degan ekanlar.

Soxibqiron o'z zamonasining tengsiz, nayzabozi, qilichbozi, yoybozi, chavandozi, kurashbozi edi. Negaki buyuk jaxongir bolaligidan, jismoniy madaniyatga, jangovor san'atlarga qiziqqan va tinimsiz mashqlar qilgan. Ayniqsa jismoniy madaniyat va sport soxasida u bosib o'tgan yo'l, askarlarni badan tarbiyasi va ularni chiniqtirishda qo'llagan usullari hozirgi Yoshlarga ham ibratlidir. Amir Temur daryo kechib o'tishga va suzishga

ham katta e'tibor bergan. Tez oquvchi daryodan kechib o'tish, suvda suzish, sirlarini mukammal egallagan bo'lgan. Daryo qirg'oqlarida turtib chiqqan toshlarga arqon tortib, ular ortidan shiddat bilan chiqib xujum qilishga moxir bo'lgan.

Amir Temur jismoniy mashq va mashg'ulotlar orqali mardlik, epchillik, chidamlilik, sifatlarini o'zida ham askarlarida ham birdek mukammal madaniyatlab borgan va u amalda sinalgan xususan Ona Vatanni mo'g'ullar istilosidan ozod etishda qo'l kelgan, jabrdiyda xalqni arosatdan olib chiqqan ro'shnolik bergan ulug' insondir.

Ma'lumki, Temo'ning asosiy va sodiq tayanchi uning qo'shinlari edi. Temur qo'shinlari o'z davrida butun Osiyoda eng qudratli armiya xisoblanardi.

Harbiy tarix Temurni o'rta asr Osiyosida eng yirik lashkarboshlaridan xisoblaydi. Uning harbiy mahorati ikki yo'nalishda, ayrim qismlari qayta tashkil etganda, lashkarboshi – qo'mondonlikda paydo bo'ldi.

Amir Temur Shu narsani talab qildiki, ya'ni amir ul-umaro urush maydonini tiklashda turt narsani nazarda tutgan; birinchisi - u yerning suvini, ikkinchisi – askar saqlaydigan yerni, uchinchisi – lashkar turgan yerdan teparoq bo'lishi va oftobda ro'baro bo'lmasligini, toki quYosh Shu'lasini spoxiylar ko'zini qamashtirmasin, turtinchisi – urush maydoni oldi ochiq keng joy bo'lishi lozim.

Yana amir etdimki urushdan bir kun oldin lashkarni safga va to'zo'qnagan yo'nalishga qaratilsin va yildan chap yoki o'ng tomonga burilmasin.

Amir Temur dargohida – statida Amir Xo'ja Saifiddin, Amir Sulaymon Xon, Amir Okbug'a, Amir Saribug'a, Amir Brandik, Xudoy Xusayn, Baxodir, Shayx Ali Baxodir, Temur Tosh, Barit Xuja, Amir Dovud Barlos, Umar Abbos, Maxmudshox Buxoriy, Amir Muoyid Arlaz, Gulsan Berdibek kabi harbiy boshliqlar xizmat qilardilar.

Shuni ham kayt etish kerakki, Temur davlatini tuzish uchun olib borilgan katta janglarda Temurning o'g'illari - Amirzoda Muhammad Jaxongir, Umar Shayx, Mironshox, Shoxrux; nevaralari – Amirzoda Muhammad Sulton, Amirzoda Pirmuhammadlar ham Amir qo'shinlariga boshchilik qilardilar. Jaxongirning o'g'li Muhammad Sulton Amir Temurning eng sevimli nevarasi bo'lib, otasi Jaxongir vafotidan keyin Temo'ning merosxuri qilib belgilangan edi.

Biz Amir Temurning jangovor xayot va faoliyatini ikkiga bo'lamiz.

Birinchi davr – 1359 – 1386 yillarni tashkil etadi. Bu davrda Amir Temur Movaraunnaxrda mo‘g‘ul xonligidan mustaqil, kuchli markazlashgan davlat tuzish uchun kurashadi.

Ikkinchi davri – 1386 yildan boshlanib, umrining oxirigacha davom etadi. Bu davrda Amir Temur “Uch yillik”, “Besh yillik” va “Etti yillik” deb nomlangan urushlar olib boradi va Xitoyga qarshi urushga tayyor turadi.

Amir Temur o‘z hayotida 30 marta yurish qilgan va 27 mamlakatni zabt etgan. Lekin ulardan “Uch yillik”, “Besh yillik” va “Etti yillik” yurishlari, ayniqsa mashxur bo‘lgan.

Soxibqiron Temur 1389 – 1391 va 1394 – 1395 yillarda Oltin o‘rda xoni To‘xtamishga qarshi yurish boshlandi. Ozodlik harakati ning sarkardasi 1389 yilning qishida ya’ni qor tizzaga yetgan paytida Samarqand shaxridan o‘z harakati ni boshladi. Shimoldan harakat boshlagan To‘xtamishni u Sirdaryo soxilida tor – mor etdi. Kelasi yili baxorida Amir Temur To‘xtamishni narigi soxil qirg‘og‘i yana bir marta yengdi. Shunday qilib, Amir Temur O‘rta Osiyoni mo‘g‘ullardan ozod qilish va uni mustaqil va kuchli davlatga birlashtirishga har tomonlama rivojlantirishga ulkan xissa qo‘shdi. Shu bilan birga Temur O‘rta Osiyoda shaharlarning qurilishiga, ilm – fan, din axliga e’tibor berdi, o‘zaro feodal nizolarning oldini oldi, savdo – sotiq xunarmandchiliqqa keng yo‘l ochdi, boshqa davlatlar bilan aloqalarni kuchaytirdi, mamlakatni boshqarish uchun “Qonunlar”, (“Temur Tuzo‘qlari”) yaratdi, armiyani mustahkamladi, iqtisodiy va siyosiy baquvvat davlat tizimini vujudga keltirdi, buyuk va jasur sarkarda, moxir davlat arbobi bo‘lib tanildi.

#### **6.4. Amir Temur davlati, armiyasining yaratilishi va tashkiliy tizimi.**

Mo‘g‘uliston bilan kurash. Muvarounnahrning birlashtirilishi. Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida Kesh viloyatining hozirgi SHahrisabz yaqinidagi Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida yirik barlos begi–amir Muhammad Tarag‘ay oilasida dunyoga keldi.

Temurning bolaligi va o‘spirinligi Kesh tog‘larida o‘tdi. Yoshligida u ov va otda musobaqalarni, nayza uloqtirish va kamondan otishni xush ko‘rardi, harbiy o‘yinlarga moyilligi sezilib turar edi. U o‘n Yoshga to‘lgach, Tarag‘ayning xizmatida bo‘lgan murabbiylar – *otabegilar* Temurni harbiy san‘atga va sport o‘yinlariga o‘rgatdilar. Yoshi ulg‘aygach u ko‘pchiligi barloslardan bo‘lgan bolaligidagi do‘stlarini yig‘di va yaxshi qurollangan otryad tashkil etdi.

Amir Temur harbiy xizmatni mahalliy hukmdorlarda boshladi. U kichik lekin yaxshi qurollangan otryadga ega bo'ldi, u bilan birgalikda harbiy-taktik tajriba orttirdi. Tez orada Temurbekning jasorati butun Qashqadaryo vodiysida mashhur bo'ldi. Shon-Shuhrat Temurbekni Movarounnahrning obro'li amirlari bilan yaqinlashtirdi.

XIV asrning o'rtalarida Chig'atoy ulusi ikkita mustaqil davlatga bo'linib ketdi: bittasi Muvarounnahrda, ikkinchisi esa Mo'g'ulistonda, ikkalasida ham hokimiyat chingiziylarning qo'llarida saqlanib qolindi. Mo'g'uliston Muvarounnahrda hukmronlikni da'vo qilib bosqinchilik siyosatini olib bordi. Muvarounnahrda amirlar o'rtasida doimo urushlar davom etib turdi, chingiziylarning hokimiyati esa kuchsizlanib qoldi.

Amir Temur 1360–1361 yillarda Mo'g'uliston xoni To'qlug' Temur Movarounnahrda bostirib kirdi. U hech qandan qarshiliksiz Qashqadaryogacha etib keldi. To'qlug' Temurning qurolli kuchlari ustunligini hisobga olgan yigirma uch Yoshli Temurbek, Mo'g'uliston xoni bilan muzokaralarni olib bordi va uning xizmatiga kirdi. Amir Temur o'zining bu harakati bilan Keshda qon to'kilishini oldining oldi.

Mo'g'uliston xoni Movarounnahrda o'z o'g'li Ilyos Xo'jani hukmdor etib tayinlaganidan keyin Temurbek unga xizmat qilishdan bosh tortdi.

1362–1363 yillarda Amir Temur chingiziylarning amiri Husayn (Qazag'anxonning nabirasi) bilan yaqinlashdi va uning singlisiga uylandi. Ular ikkalasi bir necha bor Ilyos Xo'ja qo'shiniga qarshi harbiy harakatlarni uyushtirdilar. 1364 yilning oxirida ular Ilyos Xo'ja qo'shinini Movarounnahrdan haydab chiqarishga muvaffaq bo'ldilar. Shu vaqtga kelib amir Husaynning bo'ysunmas hukmdorlar bilan kurashi kuchayib ketdi, bunda Temurbek unga faol ko'maklashdi. Saklar yashaydigan Seyistonga (hozirgi Eron va Afg'onistondagi viloyat) harbiy yurishni olib borgan vaqtida Temur o'ng qo'li va o'ng oyog'idan yaralandi va bir umrga oqsoq bo'lib qoldi. Shuning uchun uni Temurlang (fors tilidan «Temur cho'loq») deb atashgan. Evropaliklar uni «Tamerlan» deb yuritganlar, G'arbda u Shu nom bilan mashhur bo'ldi.

To'qlug' Temurning o'limidan keyin Movarounnahrdan haydalgan Ilyos Xo'ja o'zining mag'lubiyatini tan olishni xohlamadi. 1365 yilda u katta qo'shin bilan yana Movarounnahrda qo'shin tortdi. Ikkala amirlarning xon bilan kurashi 1365 yilning 22 mayida CHinoz yaqinida, CHirchiqning qirg'og'ida bo'lib o'tdi. Jang paytida Shunaqangi do'l yog'diki, hamma yoq botqoqqa aylanib ketdi. Bu jang tarixga «Loy jangi» nomi bilan



kirdi. hal qiluvchi vaqtda Husaynning qo‘shini qat’iyatsizlik qildi, jang boy berildi. Temurbek va Husayn qo‘shinining qolgan qismi bilan avval Samarqandga, keyin esa Balx viloyatida yashirindi.

Ilyos Xo‘ja o‘sha muvaffaqiyatidan so‘ng o‘z g‘alabasini mustahkamlash maqsadida Samarqandga yurish qildi. SHahar yana mo‘g‘ullar bosqini xavfi ostida qoldi, shaharning mudofaasini *sarbadorlar* boshchiligidagi tinch aholi o‘z qo‘liga oldi. Sarbadorlar harakati XIV asrning 30-yillarida Xurosonda maydonga keldi. Unda kichik savdogarlar va hunarmandlar ishtirok etganlar, ularning shiorlari quyidagicha bo‘lgan – «mo‘g‘ullarga xizmat qilgandan ko‘ra dorga osilgan ma’qul». Ularning laqablari «sar» – bosh, «dor» – dor, boshini dorga tikkanlar so‘zidan kelib chiqqan.

Samarqandning mudofaasiga Mavlonzoda va boshqalar boshchilik qildi. Aholining hammasi 12 Yoshli bolalardan to keksalargacha qo‘liga qurol oldi. himoya taktikasi takomillashgan darajaga etdi. SHaharning bosh ko‘chalari ochiq qoldirildi, lekin ichki ko‘chalar to‘siqlar bilan to‘stildi, tepasida esa zanjirlar tortildi. Qulay joylarda kamonchilarning otishlari uchun tuynuklar yaratildi. Mo‘g‘ullar bir necha bor harakatlanish mobaynida shahar atrofiga yorib kirishga harakat qildilar, lekin katta talofatlar ko‘rib chekindilar. Keyin otliqlar jangga tashlandi, ular o‘zlarining uchqur harakatlari bilan shahar himoyachilarini esankiratib qo‘yishlari kerak edi. Lekin sarbadorlar esankirab qolmadilar. Ular chavandozlarni tor ko‘chalarga kiritdilar, keyin esa to‘satdan ularga o‘q yomg‘irini yog‘dirdilar, toshlar va yog‘ochlar bilan ularga zarba berdilar. Mo‘g‘ullar chekinishga majbur bo‘ldilar. O‘lat vabosi tarqalib, ular otlarining katta qismidan mahrum bo‘ldilar.

1366 yilning bahorida sarbadorlar rahbarlarining orasida kelishmovchiliklar yuzaga kelganidan foydalangan Temur, Husayn bilan birga Samarqandga etib keldi va sarbadorlar o‘rtasida tartibbuzarliklarni chiqarganlarning ustidan sud o‘tkazdi. Shunday qilib, Husayn va Temur Samarqandning va butun Movarounnahrning to‘liq hukmdoriga aylandilar.

Husayn mamlakatning yo‘lboshchisiga aylandi, Temur esa uning o‘ng qo‘li bo‘ldi. Lekin tezda ularning munosabatlari keskinlashib ketdi. Husayn Amir Temurning harbiy boshliqlaridan katta tovonlarni to‘lashni talab qilib qoldi va yangi istehkomlarni qurib Balxni mustahkamlay boshladi. Temur janubga Qashqadaryodan Termizga, Amudaryo bo‘ylariga tushdi, daryoni kechib o‘tib 1370 yilda Balx shahrini bosib oldi.

Husaynning ustidan qozonilgan g'alabadan keyin Temurbek Movarounnahrning hukmdorlari o'rtasida boshliq bo'ldi. Balx egallangandan keyin vazirlar, beklar va armiya qo'mondonlari o'rtasida bo'lib o'tgan qurultoyda Temurbek Movarounnahrda cheksiz hokimiyatga ega shaxsga aylandi.

Shu yili Amir Temur poytaxtni Keshdan Samarqandga ko'chirdi va tez orada mustahkam devorlar va qal'alar qurdira boshladi. Davlatni boshqarish bilan birga u harbiy yurishlar tashkil etib, Movarounnahrda –Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi erlarni, Farg'ona va Shosh viloyati erlarini o'z davlati tarkibiga kiritdi.

Amir Temurning keyingi asosiy vazifasi Movarounnahrda kuchli markazlashgan davlatni barpo etish, uning xavfsizligini ta'minlash va yangi erlarni o'z davlati tarkibiga qo'shishdan iborat edi.

Amir Temur Kepakxonning davridan amal qilib kelingan ma'muriy tizim–tumanlarga bo'linish, ya'ni o'ng minglik qo'shinni etkazib berish qobiliyatiga ega bo'lgan viloyatlar tizimini saqlab qoldi. Amir Temur davrida Samarqand viloyati ettita tumandan iborat bo'lgan.

Markazlashgan davlat hokimiyatining asosiy tayanchi, davlat chegaralari barqarorligini va yangi erlarni zabt etish quroli bo'lib xizmat qilgan harbiy kuch hisoblandi.

Amir Temur armiyasi markazlashgan va o'ta intizomli bo'lib, o'ng ming, ming, yuzlik va o'nliklarga bo'lingan edi. har bir o'nlik o'z komandiriga ega bo'lgan, har o'nta o'nlikning komandirlaridan bittasi yuzlikning komandiri etib tayinlangan va hokazo. har bir qo'shin bo'linmasi safarda ham, lagerda turganda ham o'z o'rnini va vazifasini yaxshi bilgan. hech kim o'z o'nligidan, yuzligidan, mingligidan yoki o'n mingligidan boshqa yoqqa ketishga haqqi bo'lmagan.

Armiyaning asosini Amir Temurning avlodlari, ya'ni barloslar tashkil etgan, ulardan katta-katta qo'shin birlashmalarining qo'mondonlari tayinlanib, ular jangda muvaffaqiyat va mag'lubiyatlar uchun javobgar hisoblanganlar.

Chig'atoylardan ishonchli gvardiyani, tom ma'noda barloslar avlodidan tashkil etish muhim ish bo'lib hisoblandi. Gvardiya katta imtiyozlarga ega bo'lib, davlatning tayanchi bo'ldi. Uning yordami bilan Amir Temur Amudaryo va Sirdaryo o'rtasidagi erlarni hamda Farg'ona va hozirgi Toshkent viloyatidagi hududlarni birlashtirdi.

Lekin hali ham Mo'g'uliston tomonidan solinib turgan xavf-xatar tugagan emas edi. Mo'g'ullarning *Oltin O'rdasi* ham mavjud bo'lib, u ham *Oq O'rda* singari Jo'chi ulusining bir qismi edi. O'sha paytda Amir Temur davlati bilan Oltin O'rda o'rtasida Xorazm joylashgan bo'lib, u qadimdan Movarounnahr bilan umumiy iqtisodiy, siyosiy va madaniy manfaatlar bilan bog'liq bo'lgan. Mo'g'ullar davrida Xorazm ikki bo'lakka bo'lingan edi: markazi Urganch bo'lgan Shimoliy Xorazm – Oltin O'rda safiga kirgan, poytaxti Kat hisoblangan Janubiy Xorazm – Chig'atoyning ulusiga tegishli bo'lgan. XIV asr 60 yillarining boshlarida Xorazmning ikkala qismi ham So'filar sulolasidan etishib chiqqan mahalliy hukmdor Husayn tomonidan birlashtirildi (1361–1372).

Amir Temur davlatining asosini Movarounnahr tashkil etgan bo'lsa ham, ayrim amirlar uning hukmdorligini qonuniy deb tan olmadilar, chunki ular chingiziylarga qarashli edilar. Davlatning shimoliy va Sharqiy chegaralariga doimo mo'g'ullar va oq O'rda hujum qilib turdi. Ayniqsa bundan Sharqiy Farg'ona va O'tror, Yassi (Turkiston) i Sayramning cho'lli chegara hududlari katta azob-uqubatlar chekdi. 1370–77 yillarda Mo'g'uliston hukmdori amir Qamariddin (Ilyos Xo'janing o'g'li) bir necha marta Toshkent va Andijonga hujum qildi. 1376 yilda esa u Farg'ona vodiysining katta qismini bosib olishga muvaffaq bo'ldi va shahar-qishloqlarni vayronaga aylantirdi.

Bu hol Amir Temurni Mo'g'ulistonga qarshi ketma-ket bir nechta harbiy yurishlarni amalga oshirishga majbur etdi. Bu yurishlar natijasida davlatning Sharqiy chegaralari xavfsizligi ta'minlandi va uning hududlari Guljgacha kengaydi. 20 yil ichida (1370–1390) Amir Temur hammasi bo'lib Mo'g'ulistonga etti marta harbiy yurish uyushtirdi.

Xorazmni o'z davlatining ajralmas qismi deb hisoblagan Amir Temur, Xorazmga beshta yurishni amalga oshirdi. Birinchi yurish 1371 yilda Kat shahrini egallanishi bilan tugadi. 1373–1375 yillarda uyushtirilgan ikkinchi va uchinchi yurishlar muvaffaqiyatsiz tugadi. Xorazm hukmdori YUsof So'fi 1376 yilda o'z qo'shini bilan bostirib kirib Buxoro va uning atroflaridagi shaharlarni taladi. Xorazmga navbatdagi yurish 1379 yilda amalga oshirildi. Jang paytida evropalik ritsarlar musobaqalariga o'xshash manzara bo'lib o'tdi. Yusuf So'fi Amir Temurni yakkama-yakka kurashga chaqirdi, Amir Temur bu taklifni qabul qildi va qal'aning yaqiniga kelib raqibini chaqirdi, lekin u so'zida turmay kurashga chiqmadi.

Shundan soʻng Amir Temurning jangchilari jangni boshladilar va shaharni egalladilar. Xorazm hukmdori magʻlubiyatini tan oldi va Amir Temur bilan sulh tuzdi. 1388 yilda Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamish qoʻshinining bir qismini Xorazmga qoldirdi. Bu hol Amir Temurni navbatdagi–beshinchi yurishni uyushtirishga majbur etdi. Ushbu harbiy yurishdan keyin Xorazmning butligi tiklandi va u Amir Temur mulkiga kiritildi.

Oʻz davlatini mustahkamlab, Amir Temur qalʼalarni mustahkamlashga katta eʼtibor berdi. 1380 yilning bahorida Amir Temur SHahrisabz atrofida qalʼa devorlarini qurdirdi.

Movarounnahrning mustaqilligiga ikkita moʻgʻul davlatlari Oq Oʻrda va Oltin Oʻrda katta xavf solib turardi, ayniqsa ularning yagona bir davlatga birlashishi koʻngilsiz oqibatlariga olib kelishi mumkin edi. Shuning uchun Amir Temur Joʻchi ulusida boʻlayotgan hodisalarni diqqat bilan kuzatib turdi va ularning birlashishlariga yoʻl qoʻymaslikka harakat qildi va har qanday qulay vaziyatdan oʻz manfaati uchun foydalandi. Oq Oʻrda taxtiga oʻz odamini qoʻyishi kerak edi.

1376 yilda Amir Temur Oq Oʻrda va Oltin Oʻrdani birlashtirishga harakat qilganligi uchun, Oq Oʻrda xoni Oʻrisxon tomonidan qatl etilgan Tuy hoji Oʻgʻlonning oʻgʻli Toʻxtamish oʻgʻlonni qoʻllab-quvvatlay boshladi. Amir Temur Toʻxtamishga katta sovgʻa-salomlar inʼom etdi va Sabran viloyati va Signak shahrini unga berdi. 1377-yilda Dashti-Qipchoqqa uyushtirilgan yurishidan keyin va Oʻrisxon olamdan oʻtganidan keyin Sohibqiron Oq Oʻrda taxtiga Toʻxtamishxonni oʻtqazdi. Lekin keyinchalik Toʻxtamish Amir Temurga xoinlik qildi, u Oʻrisxonning izidan bordi. 1380 yilda Toʻxtamish, rus qoʻshinlaridan chekkan magʻlubiyatidan kuchsizlanib qolgan (Kulikovo jangi) Mamayxonni tor-mor etdi va Oltin Oʻrda taxtini egaladi. Shunday qilib, u Oq Oʻrda va Oltin Oʻrdani birlashtirdi. Keyingi voqealar Shuni koʻrsatdiki, Toʻxtamish Amir Temurning ashaddiy dushmaniga aylanib qoldi.

Amir Temur davlatining yaratilishi. Movarounnahr va Xorazm erlarini birlashtirishni oxiriga etkazgach, Amir Temurning keyingi bosh vazifasi, avval uchta gʻarbiy moʻgʻul uluslariga qarashli boʻlgan hududlarda yagona davlatni barpo etishdan iborat boʻldi. 1380 yilga kelib unga tobe boʻlmagan ulus, Eronni oʻz safiga olgan Xulagid ulusi edi xolos.

Janubiy viloyatlarni zabt etish Xurosonga yurish bilan boshlandi. Xurosonning poytaxti hirot muhim harbiy-strategik ahamiyatga ega edi. 1381 yilda Amir Temurning qoʻshini hirot, Tus, Kelat va Sabzavor shaharlarini egalladi. 1382 yildan 1385 yilgacha

Amir Temur Xurosonga, Mazandaronga, Shimoliy Eronga (Sultoniya shahrigacha) va Ozarbayjonga bir–nechta yangi harbiy yurishlarni amalga oshirdi.

Bu yurishlar natijasida Amir Temur davlati tarkibiga Xuroson, Afg‘oniston, Seiston, Mozandaroning bir qismi, Eronning shimolidan Sultoniya shahrigacha bo‘lgan hududi kiritildi.

Erondagi Xulagid ulusining qolgan-qutganlarini tugatish maqsadida Amir Temur 1386 yilda o‘zining uchta katta, uzoq muddatli yurishlaridan birinchisi hisoblangan uch yillik harbiy yurishini boshladi. O‘z harakatlari bilan Amir Temur Eronni mo‘g‘ullar tomonidan yangitdan bosib olinishini oldini oldi, chunki 1386 yilning boshida To‘xtamish 90 minglik qo‘shini bilan Darband orqali Tabrizga keldi va Ozarbayjon shaharlarini vayronaga aylantirdi va Eronga xavf soldi. Uch yillik harbiy yurishlar davomida (1386–1388 y.) Ozarbayjon va Fors (Erondagi viloyat) ishg‘ol etildi. Amir Temurning qo‘shini Eronning shimoliy erlarini, Armanistonni, Van ko‘ligacha bo‘lgan erlarni bosib oldi.

Sheroz (Fors viloyatining poytaxti) shahrida turgan Amir Temur, To‘xtamishning Movarounnahr hududlariga bostirib kirgani, hamda Sayram va Toshkent shaharlarini Mo‘g‘uliston qo‘shini tomonidan talanganligi to‘g‘risida xabar oladi.


1388 yilning boshida Amir Temur shoshilinch ravishda Movarounnahrqa qaytdi. Shu yili To‘xtamishning qo‘shini Xorazmda tor-mor etildi, Xorazm butunlay Amir Temur davlati tarkibiga kiritildi.

1389 yilning yozida Sohibqiron Mo‘g‘ulistonga yurish uyushtirdi. Bu yurishdan Amir Temur 1390 yilning boshida qaytdi, Mo‘g‘ulistonning qudratiga ancha putur etkazildi.

1389 va 1391 yillarda Amir Temur ikki marta Oltin O‘rdaning xoni–To‘xtamishga qarshi yurishni amalga oshirdi. 1391 yilda Volgabo‘yi cho‘llarida, hozirgi Samara bilan CHistopolning o‘rtasida joylashgan Qunduzcha degan joyda u To‘xtamishga qaqshatqich zarba berdi.

1392–1396 yillardagi besh yillik urush paytida Eronga va Iroqning Fors qismiga harbiy yurish amalga oshirildi. Amir Temurning qo‘shini 1392 yilning iyunida Samarqanddan chiqib ketdi. Fors, Iroq va Gruziya orqali o‘tib u qo‘zg‘olonchi shohlarni tartibga soldi. Uni davlatining g‘arbiy chegaralari Suriyaga va Kichik Osiyoga etdi. Endi Amir Temur davlatining poytaxti bilan yangi g‘arbiy chegaralar oralig‘igacha bo‘lgan masofa 5 ming kilometrni tashkil etdi.

Ushbu harbiy yurish paytida u yana bir bor o'zining ashaddiy dushmani To'xtamish bilan to'qnashdi. Uning harakatini to'xtatib qolish maqsadida Amir Temur qo'shini SHimoliy Kavkaz hududiga etib keldi. Ikkala armiya 1395 yilning aprelida Terek daryosi bo'yida to'qnashdilar. Shu erda bo'lib o'tgan jangda Oltin O'rda armiyasi tor-mor etildi. To'xtamish qochishga va yashirinishga ulgurdi. Amir Temurga Volgabo'yiga, Oltin O'rdaning poytaxti Saroy Berkaga yo'l ochildi. Volganing qirg'og'i bo'ylaridagi, SHimoliy Kavkazdagi, Qrimdagi, hamda dengiz bo'yidagi shaharlar bosib olindi. Oltin O'rdaga qarshi olib borilgan kurash Shu tariqa tugadi.



### **Temuriylar davrining jangchilari XV–asr (Behzodning minatyurasidan)**

Amir Temur tomonidan Oltin O'rda xoni To'xtamishning tor-mor etilishi rus knyazlarining taqdiriga, ularning mo'g'ullar qulligidan butkul qutulishlarida katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Sohibqironning Forsga, Iroqqa va qipchoq cho'llariga besh yillik urushi davlatning hayotiy manfaatlarini va savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minladi, Kavkazdan Fors ko'rfazigacha bo'lgan hududlarni zabt etilishiga olib keldi. Besh yillik yurishdan Amir Temur 1396 yilning avgustida qaytib keldi.

Besh yillik yurish davomida erishgan ajoyib g'alabalardan keyin 1398 yilning martida Amir Temur 90 mingdan ortiq qo'shin bilan Hindistonga harakatlandi. Hindiston yurishi 1398 yilning dekabrda Dehli sultoni Mahmud qo'shinining tor-mor etilishi bilan tugadi.

1399 yildan Amir Temur katta urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi va uni G'arbda olib borishni rejalashtirdi. Avvalom bor, u kichik Osiyoda usmoniylarning mulklarini bosib olishni va Suriyada Misr mamluklarini tobe qilishni ko'zda tutdi.

Etti yillik urush (1399–1404 y.) Amir Temur olib borgan urushlarning eng yirigi bo'ldi. Uning natijasida Suriyaning katta shaharlaridan Xaleb (Aleppo), Kumis, Balbek, Damashq, Bog'dod va Kichik Osiyoning katta qismi buysundirildi. Shu vaqtda Amir Temur qo'shinlarining Gruziyaga hujumi amalga oshirildi.

Shu vaqtga kelib usmoniylar davlatini ichki nizolar va tobe etilgan xalqlarning qo'zg'olonlari holdan toydirib bo'lgan edi, salbchilarning va G'arbiy Evropa hukmdorlarining urushlari ham ularni kuchsizlantirib yubordi.

Shu paytga kelib qariyb butunlay Kichik Osiyo va Bolqon turk sultonining ta'siri ostida bo'ldi. Turk qo'shinining asosiy qismi ushbu katta davlatning turli-tuman qabilalari va xalqlaridan (turklar, yollangan totorlar, serblar va boshqalar) tashkil topdi. Bu katta qo'shin edi, lekin Amir Temurning hujumi davrida uning jang olib borish qobiliyati ancha pasayib ketdi.

Etti yillik urush paytida Amir Temur, o'rta asrlar davrining yirik sarkardasi bo'lgan sulton Boyazid qo'mondonligidagi turk-usmoniylari qo'shinlari ustidan g'alabaga erishdi. 1402 yilning iyulida Anqara yaqinidagi jangda u sulton Boyazidning armiyasini tor-mor etdi.

Butun Evropa bo'lajak bu yirik jangning natijasini diqqat bilan kuzatardi. Gap Shundaki, XIV asrning o'rtalaridan evropaliklar qudratli turk ekspansiyasiga qarshi hech qanday qarshilik ko'rsata olmadilar. Usmoniylar Frakiyani, Bolgariyani, Valixiyani, Makedoniyani, Serbiyani egalladilar, Yunonistonga yorib kirdilar, Konstantinopolni qamal qildilar. Germaniya, Fransiya va Vengriyaga katta xavf tug'ildi. Bu xavfni oldini olish uchun ushbu davlatlarning Generallik kuchlari turklarga qarshi salb yurishini boshladilar. Tish-tirnog'igacha qurollangan german, fransuz, polyak, venger jangchilari bilan sulton Boyazid Yildirim boshliq turk askarlari o'rtasidagi jang 1396 yil 25 sentyabrda Bolgariyaga qarashli Nikopol shahri yaqinida bo'lib o'tdi. Bu jangda salbchi ritsarlar tor-mor etildilar. Lekin baribir Evropa uchun umid yulduzi charaqlaganday bo'ldi. Sharqdan usmoniylar imperiyasiga sarkarda Amir Temur boshchiligidagi katta otiqlar armiyasi yaqinlashib

kelardi. Temur saroyiga xristian hokimlarining elchilari usmoniylarga qarshi kurash uchun yordam so‘rab yugurgilab qoldilar.

Turk qo‘shinlarining Anqara yaqinidagi mag‘lubiyati usmoniylar imperiyasining markazlaShuv jarayonini ancha vaqtga to‘xtatib qo‘ydi, turklarni Vizantiyani bosib olishlarini 50 yilga ortga surdi va Evropaga ularning hujumlarini ancha kechiktirdi. Amir Temur 1405 yilning boshida 200 minglik katta qo‘shin bilan Xitoyga yurish boshladi. 1405 yilning yanvarida armiya O‘tror qal‘asiga etib keldi. Bu erda Amir Temur betoblanib qoldi va 1405 yilning 18 fevraliga o‘tar kechasi olamdan o‘tdi.

Amir Temurning harbiy yurishlaridan asosiy maqsadi – markazlashgan davlat barpo etishdan, o‘z davlati va xalqini tashqi dushmandan asrashdan, aholini tinch hayotini ta‘minlashdan iborat edi. Uning g‘olibona yurishlari, markazlashgan boshqaruv tizimiga ega bo‘lgan, savdo yo‘llari xavfsizligi ta‘minlangan yirik imperiyaning tashkil etilishiga olib keldi.

O‘rta Osiyo va Egey daryosining g‘arbigacha bo‘lgan ulkan hudud Amir Temur davlati tasarrufiga kirdi. Sharqning ikkita yirik imperiyasi, Turkiya va Misr buyuk sarkardaga tobe bo‘ldi.

Amir Temurdek daho mahorati oldida bosh egib, uning harbiy san‘ati, ya‘ni strategiyasi va taktikasidan haqli ravishda mag‘rurlanamiz. harbiy san‘at unga buyuk sarkarda Shuhratini keltirdi. Uning janglari jahonning ko‘pgina harbiy akademiyalarida o‘rganiladi. Amir Temur buyuk hukmdor, tashkilotchi va ajoyib shaxs bo‘lgan.

U baland bo‘yli, keng elkali, kallasi katta, ser qosh, ser soqol bo‘lgan, oyoq-qo‘llari uzun, baland ovozli, qudratli kuch va jasurligi bilan ajralib turuvchi, o‘limga tik boquvchi inson bo‘lib, umrining oxirigacha tiniq xotirasini saqlab qolgan. U bolaligidan turk va fors tillarini bilgan, mazmunli va qiziqarli so‘zlay olgan, mutola eshitishni xush ko‘rgan. U harbiy taktika va strategiya bo‘yicha, turklar, arablar, eronliklar tarixi to‘g‘risidagi bilimlarga ega bo‘lgan. Foyda keltiradigan hamma fanlar –tibbiyot, astronomiya, matematika, arxitekturani qadrlagan.

Temuriylar davlatida ma‘naviy madaniyatning hamma javhalari misli ko‘rilmagan darajada yuksaldi. Ushbu davrda fan va adabiyot, arxitektura va shaharchilik (shahar qurish), xalq an‘analari va urf-odatlari, bayramlar, sport o‘yinlari Shunday rivojlanib ketdiki, u to‘liq asos bilan *Sharq Renessansi* nomini oldi va jahon madaniyatining keyingi



rivojlanishiga turtki berdi. Temuriylar davlatida fan va madaniyatning yuqori darajada rivojlanishi turli maorif markazlarini yaratishga va kengaytirishga imkon berdi.

Amir Temur Samarqandni o'z davlatining poytaxtiga aylantirdi, u erda Xorazm, Isfaxon, SHeroz, Xaleb, Tabriz va boshqa shaharlarning ajoyib saroylar, machitlar va maqbaralarni qurish bilan band bo'lgan ustalarini ko'rish mumkin edi. Samarqand Amir Temurning rejasiga ko'ra davlatning poytaxti bo'lib, Er sharining eng chiroyli shahriga aylanishi kerak edi. Undan 150 yil oldin CHingizxon tomonidan shahar buzib tashlangan bo'lib, Shu davrgacha yirik qurilish ishlari olib borilmagan edi. Amir Temur davrida Samarqandda katta qurilish ishlari olib borildi. Uning hukmdorligi davrida Samarqandda Ko'k Saroy, bog'lar va shahar atrofida saroylar, jome' machiti, alohida maqbaralar, jumladan SHohi-Zinda ansambli qurildi va Go'ri-Amir maqbarasining qurilishi boshlandi. Yo'llar o'tkazildi, Amudaryo, Sirdaryo va Zarafshon daryolari ustida ko'priklar qurildi va kanallar o'tkazildi. O'z zamonasining misli ko'rilmagan darajada shaharlar, qishloqlar, hammomlar va maqbaralarni qurish ishlari keng miqyosda boshlab yuborildi. Samarqand atrofida jahonning mashhur shaharlarining nomlari bilan ataluvchi – Misr (Qohira), Damashq, Bog'dod, Forish (Parij), Sultoniya, SHeroz kabi bir qancha aholi punktlari barpo etildi. Ko'psonli asirlarning oralaridan olimlar, madaniyat arboblari, to'qimachilar, tosh uymakorlari, naqqoshlar, duradgorlar, qurolsozlar, rassomlar Samarqandga olib keltirildi. Buxoro, Kesh (Shaxrisabz), Yassi (Turkiston) shaharlari yangi binolar bilan bezatildi. Amir Temur Keshda Oqsaroyning peshtoqida «Kimki bizning kuch-qudratimizni ko'rmoqchi bo'lsa, biz qurgan binolarni ko'rsin» deb yozib qo'yishni amr qilgan.

U turk harbiy zodagonlarining vakili bo'lib, o'zini doimo islom diniga masub ekanligini ta'kidlagan. Davlat siyosatchisi bo'la turib ruhoniylar bilan do'stona aloqalarni saqlab qoldi, o'zining yonida ruhoniy shayxni olib yurgan, u jangdan oldin Amir Temurning g'alabasi uchun duo qilgan. Lekin Amir Temur siyosiy hisob-kitoblarni baland qo'ygan. Shuning uchun u, ham sunilarni, ham shiyilarni manfaatlarini ko'zlagan, so'filarni himoya qilgan.

Armiyaning tashkil etilishi va tuzilishi. Jangovar tartib va jang taktikasi. harbiy qurilish borasida Amir Temur o'z zamondoshlaridan o'zib ketdi, armiyani yaratish va takomillashtirish tizimini ishlab chiqdi va amalga oshirdi.

Sohibqiron qo‘mondonlik safiga yuqori talablarni qo‘ygan. U qo‘mondonlik safining doimo o‘zlarining jangovar, ma‘naviy psixologik sifatlarini doimo takomillashtirishini kuzatib borgan.

Amir Temurning shaxsan o‘zi sarkardalarni tanlagan va tarbiyalagan. O‘n begilar, yuz begilar, ming begilar va tuman begilarni to‘g‘ri tanlash armiyaning jangovar muvaffaqiyatini aniqlab bergan. Amir Temur tajribali jangchilarga alohida e‘tibor bergan. Ko‘pgina yirik janglarda ishtirok etgan va harbiy harakatlarni o‘zining asosiy mashg‘uloti deb bilgan tajribali jangchilar safardan oldin bir joyga yig‘ilgan. Ular davlat maoshlarini oluvchilar ro‘yxatiga kiritilgan.

Qo‘shin o‘nlikka, yuzlikka, minglikka va o‘n minglikka (tumanga) bo‘lingan. Iste‘dodli harbiy boshliqlarni tanlashga katta e‘tibor berilgan.

Amir Temur turli unvondagi harbiy boshliqlardan jasurlik, sezgirlik, topqirlikni talab qilgan.

Har bir harbiy boshliq o‘zining o‘rinbosariga ega bo‘lgan. Agar harbiy boshliq safdan chiqsa uning o‘rnini o‘rinbosari (*noibi*) egallagan.

Amir Temur katta jasoratlari uchun turli xil rag‘batlantirishlardan foydalangan. Uning «*Tuzukot*»ida: «Men, dushmanning podsholigini zabt etganligi yoki uning armiyasini tormor etganligi uchun amirlarga uch turdagi mukofotni o‘rnatdim, unga «qo‘rqmas» unvonini berdim... Men uni o‘zimning kengashimga kirishiga ruxsat berdim va keyinchalik chegarbo‘yi viloyatlaridan birini boshqarishni topshirdim.

Qandaydir bir shahzodaning qo‘shini ustidan g‘alaba qozongan amir xuddi Shunday mukofotga sazovor bo‘ladi».

Amirdan unvoni kichik bo‘lgan boshqa komandirlar uchun ham har xil moddiy va ma‘naviy mukofotlar belgilangan.

Boshliqlarni tanlashga Amir Temur katta e‘tibor bergan. «Hukmdorligi – degan edi u – qamchi va tayoqdan past bo‘lgan boshliq unvonga munosib emas». O‘nliklar o‘n begilar tomonidan tanlangan, yuzliklar, mingliklar va yuqori boshliqlar qo‘mondon tomonidan tayinlangan.


Amir Temur qo‘shinining asosini ko‘chmanchi qabilalar tashkil etib, ular otliqlar va kamonchilarni etkazib bergan. O‘troq xalq armiyaga piyodalarni va yordamchi xo‘jaliklar uchun ishchilarni va shaharlarni qamal qilish uchun jangchilarni, ya‘ni katapultalarni

ishlatuvchi, taranlarni uruvchi, yonib turgan kamon o'qlarni va neft aralashmasidan tayyorlangan yonuvchi granatalarni otuvchi askarlarni etishtirib bergan.

Amir Temur armiyasidagi jangchilarga doimiy maoshlar to'langan. Maoshning hajmi xizmatni qanday olib borilishiga bog'liq bo'lgan. Oddiy askar 2 tadan 4 tagacha otning bahosiga teng bo'lgan maoshni, o'n begi – o'z o'nligining maoshiga teng miqdordagi maoshni olgan (Shuning uchun u o'z jangchilarining yuqori maoshga erishishlariga manfaatdor bo'lgan); yuz begiga oltita o'nlikning maoshiga teng miqdordagi maosh to'langan va hokazo. Intizomiy jazolarning turlaridan biri maoshning o'ndan bir qismini ushlab qolish bo'lgan.

Armiyada engil piyodalar ham bo'lib, ular safarda otlarda harakatlanganlar, jang olib borishda esa, arablarga o'xshab kamondan nishonni bexato urish uchun otlardan tushib piyoda holda jang qilganlar. Piyoda jangchi qilich, 30 ta o'qqa ega bo'lgan kamon bilan qurollangan. Engil piyodalar baland pastliklarda harakatlanish va shaharlarni qamal qilish uchun qo'llanilgan. Bundan tashqari Amir Temur tog'larda harakatlanish uchun maxsus otryadni (tog' piyodalarini) tashkil etgan.

Qo'shin qat'iy tashkiliy tizimga va aniq saflanish tartibiga ega bo'lgan. har bir jangchi o'z o'nligidagi joyini bilishi, har bir o'nlik yuzlikdagi joyini bilishi kerak bo'lgan va hokazolar. Harbiy qismlar saflarda yaxshi harakatlana olganlar va anjomlari,



kiyim-boshlari va bayroqlarining rangi bilan bir-birlaridan ajralib turganlar.

Ayrim otryadlar otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Amir Temur davrida harbiy yurishdan oldin ko'riklar o'tkazish to'g'risidagi qonun og'ishmasdan bajarilgan.

Jang uchun katta va tekis maydon tanlangan, bunda suvning va otlar uchun em-xashakning yaqin bo'lishiga, quYoshning o'z jangchilarining ko'ziga tushmasligiga katta e'tibor berilgan. Jangovar tartib front, ayniqsa chuqurlik bo'ylab yoyilgan. Markazni kuchsizlashtirish hisobidan, dushmanni qurshab olish vositasi hisoblangan qanotlar kuchaytirilgan. hal qiluvchi zarbani berish uchun Amir Temur kuchli zaxirani yaratgan.

Yirik janglar davrida rang-barang jangovar bayroqlar bilan bezatilgan Bosh Qo'mondonning chodiri (*bargoh, saroparda*) jangni boshqarish oson bo'lishi uchun

balandlikda oʻrnatilgan. Odatda Bosh qoʻmondonning chodiri oldida harbiy orkestr uzluksiz chalib askarlarning jangovar ruhlarini koʻtargan.

### **6.5. Amir Temur qoʻshini jangovar tartibining tuzilish chizmasi**

Jangni qoʻriqlov xizmatini bajarayotgan engil otiqlar, yoki avanpostda turgan engil qoʻshinlar oʻqlarni otib, drotiklarni uloqtirib boshlaganlar, keyin avangard jangga kirgan. Ularni qoʻllab-quvvatlash kerak boʻlgan paytda jangga oʻng qanot avangardi (*shaqovul*), keyin chap qanot avangardi (*chapovul*) kirgan; agar yana madad kuchlari kerak boʻlib qolsa jangga oʻng qanotning chap tomon yarmi va chap qanotning oʻng tomon yarmi kiritilgan; ularning kuchlari etarli boʻlmasa jangga ikkala qanotning qolgan qimslari kiritilgan va vaziyat toʻgʻrisidagi axborot Amir Temurga etkazilgan. Agar mana Shu kuchlar ham etarli boʻlmasa qoʻmondonning shaxsan oʻzi (*amiri lashkar*) bosh kuchlari (*qoʻl*) bilan, yaʼni zaxira bilan, toʻqqizinchi hujum gʻalaba keltirishiga komil-ishonch bilan jangga tashlanishi kerak edi. «Toʻqqizinchi hujum – degan edi Amir Temur – gʻalaba keltiradi».

Jang maydonidan dushmanning chekinish alomatlari sezilsa, uni taʼqib etish va toʻgʻilicha tor-mor qilish uchun chavandozlar otryadi ajratilgan.


Amir Temur qoʻshini toʻgʻri safga va bir nechta jangovar chiziqqa ega boʻlib, ular birin-ketin jangga kiritilgan, va oxirida ketma-ket hujumlar bilan dushman holsizlantirilganidan va kuchsizlantirilganidan keyin eng yaxshi jangchilardan tashkil topgan, doimo gʻalabani taʼminlovchi qudratli zaxira jangga kiritilgan.

CHekinib, mustahkamlangan inshootlarda yashiringan gʻanim qamal qilingan. Qalʼalarning qalin devorlari oldida devor buzuvchi (*manjaniq*) va tosh uloqtiruvchi (*arroda*) toʻplar oʻrnatilgan. Toʻplar (raʼd) harakatga keltirilgan. Devorlar va minoralarning ostidan ertoʻlalar kovlangan. Devorlarda boʻshliqlar hosil qilingan. Shu boʻshliqlardan jangchilar quyundek qalʼa ichiga bostirib kirganlar. SHturm davrida himoya qalqonlaridan (toʻra), shotilar, halqalar, arqonlar va boshqalardan foydalanilgan.

Amir Temur armiyasida kavaleriya hujumining tashkil etilishi va uning strategiya va taktikasi oʻzining takomillashgan darajasiga etdi. Amir Temur armiyasida muhandislik qismlari va boʻlinmalarining birinchi namunalari boʻlib, ularga katapultalar, neftdan tayyorlangan yonuvchi moddani uloqtiradigan va qalʼa devorlarini portlatuvchi moslamalar kirgan. Uning armiyasida oʻsha vaqtning eng zamonaviy texnikalari–qamal qilish texnikasi, yonib turgan neft toʻldirilgan xurmachalarni uloqtiruvchi ballistalar qoʻllanilgan. Amir

Temur qo‘shinida daryolardan kechib o‘tishni ta‘minlovchi mutaxassislar–pontonchilar ham bo‘lgan. Fan va texnikaning yutuqlari, ayniqsa Xitoy texnikasining yutuqlari keng foydalanilgan.

Amir Temur o‘z armiyasining tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirdi. «Tuzokot»da qo‘shinning jangovar tartibi yoritib berilgan: «Agar dushman armiyasi o‘n ikki mingdan oshsa, lekin qirq mingga etmasa, qo‘shinga qo‘mondonlik baxtli o‘g‘illarimdan biriga topshirilishi mumkin va uning qo‘l ostiga ikkita qo‘mondon, yuz kishilik, o‘ng ming kishilik otryadlari bilan bir nechta amirlar belgilanib, qo‘shinning umumiy soni qirq mingtaga etkaziladi».




**Qo‘shinning saflanish tartibi**

Sohibqironning qoidasiga ko‘ra, yaxshi boshliq, g‘anim otryadining sonini bilgach, unga qarshi o‘z otryadlarini qarshi qo‘ya olishi, dushman harakatlarini kuzatishi, uning o‘qchilari, nayzachilari, qilichchilarining holati qanaqa ekanligini, ular tezkorlik bilan yoki sust hujum qilyaptimi, hammasi birgalikda hujumga o‘tdimi yoki qismlarga bo‘linibmi, bularning hammasini bilishi kerak, jang maydoniga hujum uchun kirishi yo‘llarini, kerak bo‘lganda chekinish yo‘llarini bilishi va dushmanning maqsadini anglab etishi va uning jangovar tartibiga yorib kirishga harakat qilishi kerak. U pistirmaga tushib qolmasligi uchun ehtiyotkorlik bilan harakat qilishi, jangning butun mohiyatini tuShunishi, dushmanning

niyatini anglashi va uning rejalarini buzib tashlash uchun hamma vositalarni ishga solishi kerak.

«Qirq ming chavandozlarni sardor oʻn toʻrtta qismlarga quyidagi tartibda tuzishi kerak boʻlgan: u oʻz jangovar chizigʻini tuzadi va uni markaz deb nomlaydi. Uchta qism arergardni tashkil etadi (yoki oʻng qanot korpusi). Uchta qismdan biri ilgʻor nomini oladi (mana Shu arergardning ilgʻori). CHap qanotni tashkil etgan uch qismning biri uning uchun ilgʻor boʻlib hisoblanadi. Xuddi Shunday uchta boshqa qismlar oʻng qanot arergardining oldida joylashgan boʻlib, uning fronti boʻladi, bu uchta otryadlardan biri chap qanot fronti uchun avangard boʻlib xizmat qiladi. CHap qanot ham xuddi Shunday sondagi qoʻshindan iborat boʻladi va ular uning frontini tashkil etadi. Bitta qism, oldingiga oʻxshab chap qanot avangardi boʻlib xizmat qiladi. Keyin u asosiy otryadini markaz qoʻshinlari oldida saflagan. Avangardning safiga: kamonchilar, qilichlar bilan qurollangan jangchilar, nayzachilar, dushman avangardiga tartibsizliklarni keltirib chiqarish uchun baland ovozda baqirib jang qiladigan jasur va tajribali jangchilar kiritilishi kerak»—deb yozilgan «Tuzokot»da. Yana «Tuzokot»da—«Bosh qoʻmondonning eʼtiboridan dushmanning hech bir harakati chetda qolmasligi kerak, oʻziga bino qoʻygan harbiy boshliq buyruqsiz oldinga harakat qilishni boshlasa jazolanishi kerak»—deb taʼkidlangan. Avval jangga avangard kirgan, keyin oʻng va chap qanot avangardlari, undan keyin oʻng va chap qanotda turgan otliq boʻlinmalar kirgan, ularning ortidan oʻng qanotning ikkinchi otryadi va chap qanotning birinchi otryadi harakatlangan. Agar jang olib borayotgan jangovar chiziqni ikkinchi chiziq qismlari bilan toʻldirish etarli boʻlmasa va oʻn uchta hujum jangning oqibatini hal qilmasa, unda bosh qoʻmondon ikkilanmasdan jangga saralangan jangchilardan tashkil topgan oʻz zaxiralarini kiritishi kerak boʻlgan. Agar Shunda ham gʻalabaga erishilmasa, bosh qoʻmondon oʻzi dadillik bilan jangga kirishi va shaxsiy namuna koʻrsatib jangchilarning ruhlarini koʻtarishi kerak edi. Bosh bayroq nazardan chetda qolmasligi kerak edi.



#### 40 bo‘linmadan iborat qo‘shinning saflanish tartibi

40 ming chavandozlardan iborat 14 ta bo‘linmaning saflanish tartibin. Agar g‘animning armiyasi qirq ming kishidan ohsa, unga qarshi Amir Temurning o‘zi qo‘shinni boshlagan. Bu vaqtda uning qo‘shini jangni olib borish uchun quyidagi tartibda bo‘lingan: qirqta otryaddan tashkil topgan armiyadan u o‘n ikkita otryadni tanlagan va ularga ajralib turuvchi belgi (*tamg‘a*) bergan; ular qirqta *aymoqlarga* bo‘lingan. Ulardan eng saralangan o‘n ikkitasi birinchi jangovar chiziqni, qolgan yigirma sakkiztasi esa – ikkinchi va uchinchi chiziqni tashkil etgan. O‘g‘illari va nabiralari qo‘mondonligidagi qo‘shinlar o‘ng qanotning oldiga, qarindoshlari va ittifoqchilari boshchiligidagi qo‘shinlar – chap qanotning oldiga saflangan. Bu hamma qo‘shinlar zaxirani tashkil etgan va qaerga yordam kerak bo‘lsa o‘sha erga etib kelgan.

Oltita aymoq o‘ng qanotning asosini yoki ikkinchi chizig‘ini va bittasi – uning avangardini tashkil etgan, Shuncha aymoqlar, xuddi Shu tartibda chap qanotning asosini tashkil etgan; ikkinchi chiziqning ikkala qanotlari oldida birinchi, Shu tartibda va Shuncha sondagi aymoqlar birinchi chiziqning fronti ortida Shuncha aymoqlardan iborat, tajribali qo‘mondonlar va jasur jangchilardan iborat katta avangard qo‘yilgan; bu avangardning oldida, o‘zining shaxsiy avangardi hisoblangan yana bitta aymoq, dozor va raz‘ezdlar



sifatida ikkita engil qo'shin otryadi joylashgan, ular armiyani to'satdan beriladigan zarbalardan himoya qilgan va dushmanni kuzatgan.

Engil qo'shinlar va ilg'or avangard jangni boshlagan; bosh avangardning boshlig'i ularni kuchaytirgan va o'z qo'shinlarini jangga kiritgan, agar yordam kerak bo'lsa birin-ketin jangga birinchi, keyin ikkinchi chiziqni kiritib hujumni kuchaytirgan. Agar bu yordam ham etarli bo'lmasa, unda o'ng va chap qanot zaxiralari, ya'ni Amir Temurning o'g'illari, nabiralari, qarindoshlari va ittifoqchilari boshliq qo'shin jangga kirgan.

Ularning asosiy vazifalari, dushmanga talofat etkazishdan iborat bo'lib, g'animning bosh qo'mondoniga va uning bayrog'iga e'tiborni qaratishlari, uni asirga olishlari va bayrog'ini ag'darib tashlashlari kerak edi. Agar bu urinishlar ham g'alaba keltirmasa, unda qo'shinning qolgan qismi jangga kirgan va qat'iy hujumni amalga oshirgan.

Shunday qilib, kuchlarni oshira borib ketma-ket zarbalarni berib, Amir Temur qo'shini dushmanni holdan toydirgan, kuchli zahiralari esa dushmanni tor-mor etishni oxiriga etkazgan.

Amir Temur tuzgan qo'shin o'zining tashkiliy-shtat tizimi bo'yicha Chingizxonning qo'shini tizimiga yaqin bo'lsada, quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turgan:

Amir Temur armiyasi xalq lashkarlari hisoblansa ham, Chingizxon davrida bo'lgani kabi umumiy xarakterga ega bo'lmagan.

Chingizxon davrida qo'shinning asosini ko'chmanchilar tashkil etgan. Amir Temur davrida ko'chmanchilar otliqlar va kamonchilarni etkazib bergan. Lekin Shu bilan birga o'troq aholi ham qo'shinning katta qismini tashkil etgan. Shunday qilib, harbiy xizmatga chorvadorlar bilan birga, urushlarning tez-tez bo'lib turishi va ko'laminig oshganligi munosabati bilan dehqonlar, hunarmandlar va o'troq aholining boshqa toifalari ham chaqirilgan.

Amir Temur qo'shinida armiyaning asosini tashkil etgan otliqlar bilan birga piyodalar ham katta rol o'ynagan. Chingizxon davrida to'laqonli piyodalar bo'lmagan.

Amir Temur Sharqda birinchilardan bo'lib armiyasiga artilleriya qurolini (ra'd) kiritdi. Yangi turdagi o'q otar qurolining joriy etilishi artilleriya bo'linmalarini yaratishga imkon berdi. To'pchilar (ra'dandozlar) soni bir necha ming kishiga etdi. Artilleriya orudiyalari dushmanning tirik kuchlari va texnikasini tor-mor etish hamda qal'alar va



sitadellarni qamal qilish uchun mo'ljallangan. Ular qamal chizig'ining o'ta muhim uchastkalarida o'rnatilgan.

Tog'li joylarda mohirlik bilan harakatlanuvchi maxsus piyoda qo'shinlar tashkil etilgan.

Amir Temur jangovar tartibini mohirlik bilan tuzgan va ularni chaqqonlik bilan manyovr qilgan, dushman qanotlariga va front ortiga otliqlar bilan kutilmagan zarbalarni bergan, vaziyatdan kelib chiqib o'z qo'shinini to'qqiz va etti qismlarga (*qo'lga*) bo'lgan.

Armiyada ayollardan tashkil etilgan qismlar joriy etilgan bo'lib, ular jang paytida erkaklar bilan bir safda turganlar va shon-Shuhrat va jasorat namunalarini ko'rsatganlar.

Amir Temur armiyasi safiga Movarounnahr, Dashti-Qipchoq, Xuroson, Eron, Badaxshon, Mo'g'uliston, Mazandaron va Jetedan olib kelingan jangchilar kirganlar.

Qo'shinni yig'ish va ta'minlash. Qo'shinni boshqarish. Amir Temur qo'shinida to'xtovsiz takkomillashib borayotgan muntazam armiyaning ko'pgina xususiyatlari mujassamdir: qo'shinning aniq soni, jangovar tartib (yosol) belgilangan.

Kavaleriya qismlari ko'p hollarda bir birlaridan nafaqat kiyim-boshlari, bayroqlari va anjomlarining ranglari bilan, balki otlarining rangi bilan ham farq qilgan. Bunday farq qilishlik jang paytida qo'shinni boshqarishda katta rol o'ynagan. Dushmanga nisbatan ustunlik, otliqlarning yuqori harakatchanligi va Amir Temur tomonidan ularni mohir manyovr qilinishi bilan ta'minlandi.

Turli usullar bilan dushmanning mudofaa tizimini yakson etish, g'animning yirik va yaxshi mustahkamlangan ob'ektlariga to'satdan hujum qilish, dushman tomonining hukmdorlari va taniqli harbiy boshliqlarini asirga olish, qurshab olingan shahar-qal'alarni uzoq vaqt qamal qilish, birma-bir qishloqlar, tumanlar, shaharlar va viloyatlarni zabt etish, dushmanni to'liq tor-mor etilgunigacha ta'qib etish, zabt etilgan hududlarni boshqarish uchun o'zining sodiq kishilarini tayinlashdek strategik maqsadlarni ketma-ket amalga oshirish Amir Temurga ko'plab g'alabalar keltirdi.

Harbiy ishni rivojlantirishdagi uning qo'shgan katta hissasi, butkul yangi ko'rinishdagi kavaleriya qismlarini (*kunbul, kumbul*) joriy etgani bo'lib, u nafaqat o'z qanotlarini himoya qilish uchun, balki dushman qanotlarini aylanib o'tish va front ortiga zarba berish uchun ham belgilandi.

Otliq qo‘shin armiyaning zarbdor qismini tashkil etgan va engil va og‘ir otliqlarga bo‘lingan. YOylar, o‘qdonlar, qilichlar bilan qurollangan engil otliqlar razvedka bilan Shug‘ullanganlar, qo‘riqlov xizmatini olib borganlar va kerak bo‘lgan hollarda dushmanning ilg‘or otryadlariga qarshi jangga kirganlar.

Saralangan jangchilar va zodagonlardan tuzilgan og‘ir otliqlar dushmanning asosiy zarbdor kuchlariga qarshi jang olib borgan. Chavandozlar nayza, dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qlar solingan sadoq bilan qurollanganlar.

Harbiy yurishdan oldin Amir Temur odatda harbiy kengash (*mashvarat*) chaqirgan, unda harbiy boshliqlar, beklar va amirlar ishtirok etganlar. Davlatning turli qismlaridan, Oliy Bosh Qo‘mondonning ad‘yutanti (*tavachi*) etkazgan maxsus buyruqqa (*muchalkaga*) binoan qo‘shin yig‘ilgan. Jangchilarni yig‘ishdan tashqari tavachilarning majuriyatlariga qo‘shinni joylashtirilishini, uning harakatlanishi va jangovar tartibini nazorat qilish ham kirgan.

Amir Temur o‘z qo‘shinini, jangni olib borish uchun hamma kerakli narsalar bilan ta‘minlanishiga, lagerlarda joylashishiga alohida e‘tibor bergan.

Sohibqironning buyrug‘iga binoan viloyatlar hukmdorlari, tumanlar va shaharlar beklari, qal‘alar boshliqlari (*darug‘a*) ro‘yxat bo‘yicha ko‘rsatilgan muddatda o‘z qo‘shinlari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan oldindan ko‘rsatilgan erga (*miod eri*) etib kelganlar.

To‘xtamishga qarshi Dashti-Qipchoqqa harbiy yurishni uyushtirishdan oldin (1390–1391) Amir Temur o‘zining o‘rinbosarlariga qo‘shinni uzoq davrga etadigan oziq-ovqat, qurol-yarog‘ va boshqa kerakli narsalar bilan ta‘minlashga buyruq bergan. har bir jangchi bitta yoyga, o‘ttizta o‘qqa, bitta kamondonga, bitta qalqon va bitta zaxira otga ega bo‘lgan. Safar chog‘ida har o‘nta jangchiga bitta chodir, ikkita belkurak, kirka, o‘roq, arra, bolta va yuzta igna berilgan.

Har bir jangchi bundan tashqari o‘zi bilan arqon, teri va qozon olib yurgan. Oddiy jangchilar safar chog‘ida o‘n sakkiz kishiga bitta chodir olib yurganlar. Ularning har biri yonida ikkita otni etaklab yurgan, o‘zi bilan yoy, zirh, qilich, o‘qdon, qop, o‘nta igna, bolta, arra va teridan tikilgan qop olib yurishi kerak bo‘lgan.

Jangchilar chodirlarda beshtadan bo‘lib joylashganlar. Ko‘zda tutilgan ta‘minot bo‘yicha ularning har biri dubulg‘a, zirh, qilich, yoy, o‘qdon va ot bilan ta‘minlangan. O‘n

begi alohida chodirga joylashgan. U zirh, qilich, yoy, kamondon bilan qurollangan. U o‘zi bilan beshta qo‘shimcha otni olib yurish huquqiga ega bo‘lgan.

Yuz begiga ham alohida chodir berilgan. Uning qurol-yarog‘larini qilich, yoy, zirh, o‘qdon, gurzi, to‘qmoq va kolchugalar (simdan tayyorlangan halqachalarni bir biriga o‘tkazib to‘qilgan ko‘ylak) tashkil etgan. Yuz begiga qo‘shimcha o‘nta ot berilgan.

Ming begi chodirdan tashqari soyabonga ega bo‘lib, qurol-yarog‘lari nayza, qilich, o‘q-yoy, dubulg‘a, zirh (*chax, oroyna*), kolchugalardan iborat bo‘lgan.

Piyodalar harbiy yurishlar paytida qilich, yoy va kerakli sondagi yoyning o‘qlari bilan qurollanib harakatlanganlar.

Qo‘shin bilan birgalikda bir joydan ikkinchi joyga qassoblar, oshpazlar, qovurilgan va qaynatilgan go‘sh t sotuvchilar, novvoylar, arpa, meva sotuvchilar ko‘chib yurganlar. Jangchilarga ko‘chma hammomlar xizmat ko‘rsatgan. Yurishlarda nafaqat jangchilar, balki qo‘shinga xizmat qiluvchi ko‘psonli ma‘muriyat ham ishtirok etgan. Bu erda temirchilar, qurolsozlar, duradgorlar, teriga ishlov beruvchilar, er qazuvchilar, xo‘jalik ishlarini bajaruvchilar va boshqalar bo‘lgan. Amir Temur qo‘shini safarlarida harakatlanayotgan jangovar qo‘shin korpusi ortidan yirik qurolsiz omma harkat qilgan.

Qo‘shinni yig‘ish to‘g‘risidagi qaror chiqqanidan keyin, jangchilar o‘z oilalari, anjomlari, oziq-ovqatlari bilan birgalikda belgilangan joyga etib kelganlar. Lagerning (*o‘rdagohning*) markazida Oliy Bosh Qo‘mondonning stavkasi joylashgan bo‘lib, turli-tuman qismlar va birlashmalarning chodirlari—oddiy jangchilarning chodirlaridan tortib yirik harbiy boshliqning chodirigacha bo‘lgan, har bir kishi o‘zining joylashgan joyini juda yaxshi bilgan.

Lagerda Oliy Bosh Qo‘mondonning rang-barang bayroqlar bilan bezatilgan chodiri (*bargoh*) o‘rnatilgan. Ko‘rsatilgan vaqtda (*miod vaqti*) lagerga etib kelgan jangchilar, joriy etilgan tartibga ko‘ra o‘z joylarini egallaganlar va qo‘shinning ko‘rigiga tayyorgarlik ko‘rganlar.

Kerakli sondagi jangchilar yig‘ilganidan keyin, harbiy lagerda kamonchilar, arbaletchilar, tosh uloqtiruvchilar, nayzachilar, to‘pchilar va boshqalardan tashkil topgan ulkan qo‘shinning ko‘rigi bo‘lgan. Qo‘shinda yonuvchi aralashma (*naft*) solingan xurmachalarni uloqtirish uchun maxsus askarlar bo‘lib, ular o‘t otuvchi orudiyalarning to‘xtovsiz ishlashlarini ta‘minlaganlar.

Oliy Bosh Qo‘mondonning buyrug‘iga ko‘ra jangchilar himoya sovuqlarida, to‘liq qurol-yarog‘lari bilan saflanganlar. Parad o‘tkaziladigan maydonda turli qismlarga tegishli bo‘lgan yashil, qizil, sariq, binafsha, qora, ko‘k bayroqlar hilpirab turgan. harbiy orkestr sadosi ostida Amir Temur navbatma-navbat jangchilar sherengalari oldidan o‘tgan. Jangchilar nayzalarini baland ko‘tarib, bo‘lajak jangga tayyor ekanliklarini namoyon etib baland ovozda na‘ra (*suron*) tortganlar.

Jangchilarning jangovar ruhi va tayyorgarligini aniqlash uchun yurishlar va janglardan oldin harbiy paradning o‘tkazilishi Temuriylar davrida ham an‘ana bo‘lib qoldi. Ko‘rikda nafaqat qo‘shin birlashmalari, balki asosiy kuchlarning ortidan harakatlanadigan ta‘minot aravalari ham ishtirok etgan.

Lagerning atrofi chuqur xandaqlar bilan o‘ralgan va qo‘riqlov zastavalari va postlari bilan puxta qo‘riqlangan. Lagerda o‘rnatilgan paytlarda qo‘shin qo‘riqlov xizmatini olib borgan. Qo‘riqlov qismlari lagerdan 5–6 km oldinga chiqqan, undan postlar, postlardan soqchilar ajratilgan va oldinga yuborilgan.

Amir Temur qo‘shinni boshqarishga katta ahamiyat bergan.

Sohibqironning buyrug‘i bo‘yicha dongdor komandirlardan to‘rttasi birinchi darajali qo‘mondon – *beglarbegi* lavozimiga tayinlangan. Bitta harbiy boshliq bosh qo‘mondon *amir - ul - ulamo* vazifasiga tayinlanib, u bevosita Oliy Bosh Qo‘mondonga bo‘ysungan.

Harbiy qismlarni boshqarish uchun yana o‘n ikkita harbiy boshliqlar tayinlangan. Birinchi bek mingta chavandozlardan tashkil topgan birinchi guruhga, ikkinchi bek–ikki ming kavaleriyachilardan iborat ikkinchi guruhga qo‘mondonlik qilgan, uchinchi bek uch minglik kavaleriyachilarga boshchilik qilgan. Xuddi Shu tartibda o‘n ikkinchi bek o‘n ikki minglik otryadning tepasida turgan.

Quyida toifadagi harbiy boshliq, toifasi bo‘yicha yuqori bo‘lgan harbiy boshliqqa so‘zsiz bo‘ysungan.

Amir Temur qo‘shinining turli qismlari va bo‘linmalariga uch yuz o‘n uchta beklar qo‘mondonlik qilgan, ulardan yuztasi – o‘n begilar, yuztasi – yuz begilar va yuztasi – ming begilarni tashkil etgan. Yirik qo‘shin birlashmalari Amir Temurning o‘g‘illari, nabirali va SHayx Nuriddin, Xo‘ja Sayfuddin, SHohmalik, Oллоhdod, Jahonshohdek mashhur sarkardalar tomonidan boshqarilgan.

Ragʻbatlantirishni qoʻllash keng qoʻllanildi: maqtoʻv, maoshga qoʻshimchalar, sovgʻalar, lavozimlar, unvonlar (botir, bahodir va boshqalar), qismlar uchun bayroqlar.

Uddaburonliklari va jasoratlari bilan oʻzlarini koʻrsatgan saralangan jangchilar munosib taqdirlanganlar va oʻn begi darajasiga koʻtarilganlar, keyingi jasoratlari uchun yuz begi, undan keyin esa ming begi lavozimini egallaganlar.

Jasur jangchilar va bahodirlar jangda koʻrsatgan jasoratlari uchun yuqori lavozimlarni egallaganlar va jamiyatning eʼtiborli kishilari toifasiga kirganlar. Ular gurzi, chodir, maxsus belbogʻ, qilich va jangovar nayzalar bilan taqdirlanganlar.

Gʻanimning otryadini qirib tashlagan ming begi **I-darajali amir unvonini** olgan. Dushmanning yirik otryadini magʻlub etgan I-darajali amir II-darajali amir unvoniga sazovor boʻlgan. Jang maydonida mardlik va jasorat namunalarini koʻrsatgan oddiy jangchining oylik maoshi oshirilgan. Jang maydonidan qochgan jangchilar oʻljani taqsimlash marosimiga qatnashish huquqidan mahrum etilganlar, janglarda koʻplab yarador boʻlgan jangchilarga gʻamxoʻrlik va katta ehtirom koʻrsatilgan.

Biror bir davlatni zabt etgan yoki dushman qoʻshinini tor-mor etgan harbiy boshliq bahodir faxriy unvoniga sazovor boʻlgan va unga burgʻu va nogʻora berilgan. Biror bir gʻanim shahzodasining yirik qoʻshini ustidan qozongan gʻalabasi uchun beklar ham xuddi Shunday hurmat-eʼtiborga sazovor boʻlganlar.

Dushman qoʻshinini qochishga majbur etgan oʻn begi shahar garnizonining boshligʻi (*dorugʻa*) etib tayinlangan, xuddi Shunday qahramonligi uchun yuzbegi–viloyat hokimi, ming begi–viloyat amiri (*vali*) lavozimiga ega boʻlgan.

U yoki bu davlatni zabt etgan amirga ushbu davlatning eri imtiyozli asosda boshqarish uchun *suyurgʻol* (*sovgʻa*) sifatida berilgan. Amir Temur va Temuriylar davrida *suyurgʻol* erni boshqarishning ommabop usuli boʻlib, avloddan avlodga oʻtib kelgan.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan 12 amir nogʻora va jangovar bayroq olgan. Bosh qoʻmondon nogʻora va jangovar bayroqdan tashqari *burgʻu* va ikkita shtandartga (*tumantugʻga*, *chortugʻga*) ega boʻlgan.

Mingbegi bayroq va karnay (*koʻraga*) olgan, yuzbegi va oʻn begiga nogʻora berilgan. Qoʻshin qoʻmondonining bayrogʻi, nogʻorasi va burgʻusi boʻlgan. Kastiliya qirolligining elchisi – Klavixoning guvohlik berishicha, harbiy boshliq tinchlik davrida koʻk rangdagi, zardan tikilgan koʻylak kiyib yurgan. Ular boshlariga telpak (*burk*) kiyib yurganlar. Bosh

kiyimlarining ostidan uch qator kokillari ko‘rinib turgan bo‘lib, bu belgi Amir Temur armiyasining jangchilari ekanliklarini bildirib turgan.

Dushmanning harbiy kuchlari va uning mudofaa inshootlari to‘g‘risida, g‘anim davlatining ichki ahvoli haqida aniq ma‘lumotlarni olish uchun Amir Temur o‘zining eng yaxshi razvedkachilarini (*josuslarni*) jo‘natgan. Faqatgina kerakli ma‘lumotlarni olgandan keyingina qo‘shin harbiy yurishni boshlagan. U mahalliy aholi vakillaridan yo‘lboshchilarni (*kajarchi, kacharchi*) tanlashga ham jiddiy e‘tibor bergan.

Amir Temur o‘zining to‘satdan beradigan zarbalari bilan mashhur bo‘lgan. Dushman qo‘shinining soni ma‘lum bo‘lganidan keyin uning armiyasi tun qorong‘isida dushmanning lageriga yashirincha yaqinlashgan va tongda hujumga tashlangan. Uning qo‘shini qattiq intizomi, yuqori harakatchanligi, chidamliligi va janglarda jasorati bilan ajralib turgan.

Jang arafasida shakllanadigan jangovar tartibga katta ahamiyat berilgan. Qo‘shin hech tomonga burilmasdan va ko‘rsatilgan yo‘ldan og‘ishmasdan olg‘a harakatlangan.

Tinchlik davrida ov (*charg‘a*) asosiy mashg‘ulotlardan biri bo‘lgan, ovga urushga tayyorlovchi maktab singari ahamiyat berilgan va u ko‘plab uyushtirilgan. Uning qo‘shini nafaqat tekisliklarda jang olib borish san‘atiga ega bo‘lgan, balki tog‘larda ham mohirlik bilan harakatlangan.

Sohibqironning qo‘shini harbiy yurishlarni bahorda, yozda va kuzda amalga oshirgan. Qishni o‘z o‘tovlarida o‘tkazishni afzal ko‘rganlar. harbiy yurishga otlanish muddati yaqinlashuvi bilan jangchilar hamma kerakli qurol-yarog‘lari va anjomlarini tartibga keltirganlar. Belgilangan vaqtda qo‘shin saf tartib yo‘lga tushgan. Uning ortidan hamma kerakli narsalar ortilgan aravalar (*ug‘ruq*) harakatlangan.

Sharofuddin Ali Yazdiyning ma‘lumot berishicha, belgilangan safar tartibida (*murchil*) har bir o‘nbegi, yuzbegi, mingbegi va tuman begi (*10 minglik qo‘shin qo‘mondoni*) o‘z mavqesi va darajasiga ko‘ra, intizomga qattiq rioya qilgan holda harakatlangan. Tartibni buzganlar qattiq jazolangan, ularga hatto o‘lim jazosi ham berilgan.

Dam olish uchun to‘xtalganda, odatda zanjirlar va arqonlar bilan bog‘langan aravalar bilan qo‘shin o‘rab olingan. Transheyalar qazilib, brustverlarning oldida to‘siqlar o‘rnatilgan. G‘anim qo‘shinining paydo bo‘lishi bilan jangchilar o‘z pozitsiyalaridan chiqqanlar va jangovar tartibga yoyilib dushmanga qarshi harakatlanganlar.

Amir Temur qo‘shini safar paytida quyidagi tartibda harakatlangan: bosh kuchlardan ancha oldinda avanpost (*qaravul*), uning ortidan avangard (*xiravul*), o‘ng qanot (*barang‘or*), chap qanot (*jarang‘or*), markaz (*qo‘l*), arergard (*chag‘dovul*) harakatlangan. Ularning ortidan kerakli narsalar orilgan aravalar harakatlangan.

Asosiy joylarning birida suvdan kechib o‘tish uchun joy hozirlangan. Kechuv qo‘riqlor postlari bilan qo‘riqlangan. Qo‘shin daryodan qismlar va bo‘linmalar tarkibida kechib o‘tgan. Kechuv paytida jangchilar qayiqlardan, meshlardan foydalanganlar yoki ponton ko‘priklari yasaganlar.

Amir Temur armiyasida o‘ljani taqsimlash davrida mobado kimdir o‘zboshimchalik qilsa u qattiq jazolangan, hatto u Sohibqironning yaqin kishisi bo‘lsa ham. Uning butun mol-mulki musodara qilinib, o‘zi esa qatl etilgan. Faqat ruxsat berilganidan keyin yurishning har bir ishtirokchisi, uning toifasi va darajasiga qaramasdan o‘ljaning teng taqsimlangan qismini olish huquqiga ega bo‘lgan.

## **6.6. Amir Temurning asosiy harbiy yurishlarida harbiy san‘atning rivojlanishi.**

### **Sohibqironing sarkardalik san‘ati**

Amir Temurning sarkardalik iste‘dodi uning To‘xtamishga qarshi va Hindistondagi yurishlari chog‘ida, hamda turk sultoni Boyazid Yildiringa qarshi kurashlarida yaqqol namoyon bo‘ldi.

Amir Temurning To‘xtamishxonga qarshi yurishlari. Amir Temur Oltin O‘rdaning qanday xavf solib turganidan boxabar edi. U Jo‘chi ulusida sodir bo‘layotgan voqealarni diqqat bilan kuzatib turdi. 1360 yildan 1380 yilgacha, ya‘ni 20 yil ichida Oltin O‘rdada 25 ta xon almashdi. Oq O‘rdaning hukmdori O‘risxon 1375 yilda Jo‘chi ulusining ikki qismi— Oltin O‘rda va Oq O‘rdani birlashtirishga qaror qildi. O‘rdalar birlashib Amir Temur davlatiga jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin edi. Bu xavfni oldini olish uchun Amir Temur yuzaga kelgan vaziyatdan mohirlik bilan foydalandi.

Oq O‘rdaning o‘zbek amirlaridan biri To‘y Xo‘ja o‘g‘lon Oltin O‘rdaga qarshi harbiy yurishga ishtirok etishdan bosh tortganligi uchun O‘risxon tomonidan o‘ldirildi. To‘y Xo‘ja o‘g‘lonning o‘g‘li To‘xtamish o‘g‘lon 1376 yilda Oq O‘rdadan qochib Samarqandga keldi.

Amir Temur undan O‘risxonga qarshi kurashish uchun foydalanishga qaror qildi. Amir Temur To‘xtamishni Jo‘chi ulusida uning siyosatini yurgizuvchi kishi bo‘ladi deb o‘ylagan edi. Lekin buning aksi bo‘lib chiqdi. Amir Temurning yordami bilan Oq

Oʻrdaning xoniga aylangan Toʻxtamish Oʻrisxonning izidan bordi, yaʼni u Joʻchi ulusini birlashtirishni va qudratli Oltin Oʻrdani yaratish uchun kurashni boshladi. Oq Oʻrdaning hukmdoriga aylangan Toʻxtamish (1377 y.), oʻzining raqibi va soxta xon Mamayxonning Kulikovo dalasida rus knyazi Dmitriy Donskoydan chekkan magʻlubiyatidan foydalanishga qaror qildi va Shu yili Kalka daryosi yoʻqasida Mamayxonning qolgan-qutgan qoʻshinini tor-mor etdi. Bu gʻalabadan keyin Toʻxtamish Oltin Oʻrdaning oliy hukmdori–xoni boʻldi va Joʻchi ulusining ikkala qismini birlashtirishga kirishdi.

Amir Temur bilan shijoatli va makkor Toʻxtamish oʻrtasidagi kelishmovchiliklar ochiqchasiga kurash tusini oldi.

Toʻxtamish Oʻzbekxon davridagi (1312–1320 y.) Oltin Oʻrdaning qudratini tiklashga harakat qildi. Yangi erlarni zabt etish uchun u harbiy yurishlarni boshladi. 1386 yilda Toʻxtamishning qoʻshini Ozarbayjonga bostirib kirdi. U Tabrizni zabt etdi, Ozarbayjonning koʻpgina shaharlari talon-taroj qilindi va vayronaga aylantirildi.

Amir Temur oʻz davlatiga shimoliy qoʻshnisi–Oltin Oʻrda qanday xavf solib turganini tushunib etgan edi. Movarounnahrda shimol tomondan xavf rahna solib turgan ekan Amir Temur hech qanday yurishlarni amalga oshira olmas edi.

1387–1388 yillarda Amir Temurning Movarounnahrda yoʻqligidan foydalangan Toʻxtamish davlat ichkarisiga hujum boshladi. Yoʻlda uchragan kichik qoʻshin guruhlarini yakson etib, Toʻxtamish Samarqand va Buxoro viloyatlari hududiga bostirib kirdi. Shaharlar oltin Oʻrdaliklar tomonidan qurshab olindi. Bu vaqtda Eronda turgan Amir Temur 30 minglik qoʻshinni Movarounnahrda yordamga joʻnatdi, oʻzi ham shoshilinch ravishda vataniga qaytdi. Toʻxtamish chekindi, lekin u Xorazm hukmdori Sulaymon Soʻfini Amir Temurga qarshi kurash uchun oʻziga birlashishga koʻndirdi. Bu voqealar Sohibqironni 1388 yilda Xorazmga beshinchi–oxirgi yurishni amalga oshirishga majbur qildi. U Urganchni bosib oldi va Soʻfi sulolasi hukmdorligini tugatdi.

Toʻxtamishning Samarqand va Buxoroga yurishi Amir Temurda, bu kurash alohida hududni bosib olish istagi uchun emas, balki Toʻxtamishni Sohibqironning siyosatiga qarshi yoʻnaltirilgan kurashining ifodasi ekanligiga Shubha qoldirmadi.

Amir Temurning Toʻxtamishga qarshi uchta yurishidan (1389, 1391, 1395 y.) ikkita oxirgisi, ayniqsa 1395 yilda uni Terek daryosi boʻyida tor-mor etilishi harbiy sanʼatning rivojlanishi nuqtai-nazaridan katta eʼtiborga sazovordir.



1391 yilning qishida Sohibqiron To‘xtamish tomonidan kutilayotgan xavfni bartaraf etishga va Oltin O‘rdaning Misr mamluklari bilan birga Temur davlatiga qarshi ittifoq tuzishiga yo‘l qo‘ymaslikka qaror qildi. U To‘xtamishga qarshi yurishni boshlash uchun qo‘shinni to‘plashga farmon berdi. Qo‘shin uchun oziq-ovqat zaxiralari to‘plandi. Yig‘ilgan qo‘shin Samarqanddan chiqib, Xo‘jand shahri yaqinida qurilgan ko‘prikdan Sirdaryoni kechib o‘tdi. Toshkentda Temur o‘z qo‘shinining ko‘rigini o‘tkazdi. Jangchilarga kerakli qurol-yarog‘lar va anjomlarga ega bo‘lishliklariga buyruq berildi. 1391 yilning 19 yanvarida qo‘shinning ko‘rigi vaqtida Amir Temur Jo‘chi ulusiga urush e‘lon qildi. U o‘z qo‘shinini safar tartibiga safladi va har bir kolonnaga yo‘lboshchilarni tayinladi.

Oldinda ikki yuz minglik qo‘shin bilan cho‘lu-biyobondan o‘tishdek mashaqqatli yurishni amalga oshirish masalasi turar edi. CHo‘ldan 2500 kilometr masofani bosib o‘tish kerak edi. Amir Temur vaziyatni sinchkovlik bilan o‘rganib chiqdi va Shunday yo‘lni tanladiki, bu yo‘l harakat davomida dushmandan xavfsizlikni ta‘minlardi va Shu bilan birga qo‘shinni g‘anim bilan to‘qnashgunga qadar sezdirmas edi. Amir Temurning qo‘shini YAssi (Qozog‘istondagi hozirgi Turkiston), Qorchiq, Sabron orqali harakatlanib, keyin Sariuzenga (Sarisu daryosi) chiqdi, u erdan Kichik tog‘ va Buyuk tog‘ (Oltin CHoku – Qozog‘istondagi Oltin dovon tog‘ yonbag‘irlari bo‘yidagi hozirgi Karsakpay kareri) yon bag‘irlariga etib keldi.

Uch oylik safardan keyin qo‘shinda oziq-ovqatning tanqisligi sezilib qoldi. Shuning uchun Amir Temur oziq-ovqat taqsimotini qat‘iy chekladi va bitta jangchiga 2 oyga 10 kg atrofida un beriladigan bo‘ldi.

1391 yilning mayida Amir Temurning qo‘shini Tobol daryosi qirg‘og‘iga etib keldi. Tobol shahriga etguncha qo‘shin sezdirmasdan, yashirincha harakatlanib keldi. Bu hol Amir Temurni yirik armiyaning harakatini To‘xtamishdan yashirishga muvaffaq bo‘lganligidan dalolat beradi. Uzoq va mashaqqatli yo‘l bosib o‘tilganidan keyin qo‘shinga dam olish va ov qilish uchun ruxsat berildi. Tobolga etib kelgunga qadar Sohibqiron dushman to‘g‘risida hech qanday ma‘lumotga ega emas edi. To‘xtamishning qo‘shini tomonidan buzib tashlangan Tobolning kechib o‘tish joylari tiklandi va qo‘shin daryodan kechib o‘tdi. Kuchini tiklab olganidan keyin qo‘shin Ural daryosi tomonga harakatlandi. To‘xtamish Ural daryosining ortida kechib o‘tish uchun qulay bo‘lgan uchta joyda oldindan pistirmalarni tashkil etdi. Amir Temur tajribali va mohir sarkarda sifatida hushyorlikni

yo‘qotmasdan u tomonga qo‘shinni boshlamadi, aksincha qo‘shin bu kechuv joylaridan ancha yuqoridan daryodan suzib o‘tdi. U To‘xtamishning pistirma qo‘yib, o‘sha erda o‘z qo‘shini bilan turganini va Oltin O‘rda beklari odatda yoz oylarini o‘tkazadigan Azovdan va boshqa joylardan yordam kuchlari etib kelishini kutayotganini bilar edi.

Ural va Volga daryolari oralig‘i To‘xtamishning qo‘shini uchun qulay joy bo‘lib hisoblanar edi, chunki bu erda pistirmalar qo‘yish mumkin bo‘lib, ta‘qib qilib kelayotgan tomonga qarshi holdan toydiruvchi kichik urushlarni olib borish mumkin edi.

Amir Temur dushmanning o‘ng qanotini aylanib o‘tishga qaror qildi, Shu bilan u To‘xtamishning poytaxtga chekinish yo‘lini va kutilayotgan madad kuchlari yo‘nalishini kesib qo‘yishi, hamda uni joy sharoitlaridan foydalanish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin edi. Shu bilan birga ushbu manyovr dushmanni jangga kirishga majbur etar edi. Sohibqiron o‘z qo‘shinini Samara daryosining quyi oqimi bo‘ylab emas, yuqoridan Samaraning Iyk daryosiga quyilish joyiga o‘tkazdi. Ko‘prikdan avangard (*manglay*), keyin markaz (*qo‘l*) o‘tkazildi. Qo‘shinning o‘ng va chap qanotlari (*barang‘or* va *jarang‘or*) daryodan suzib o‘tdi.

Dushmanning to‘satdan beradigan zarbasini oldini olish uchun Amir Temur jangchilarga o‘z qismlarini tark etmaslikka, katta va kichik qalqonlarni tayyorlashga, lagerni xandaqlar qazib o‘rab olishga, doimo razvedkani olib borishga, gulxanlar yoqmaslikka buyruq berdi. Lagerni qo‘riqlash uchun u 30 mingta jangchilarni tayinladi, ular lagerning atrofini patrullik yo‘li bilan qo‘riqlab turdilar. Oltin O‘rda jangchilarining keyingi chekinishlariga yo‘l qo‘ymaslik uchun Amir Temurning kichik otryadlari yolg‘ondakam harakatlari bilan dushmanning bo‘linmalari va qismlarini pistirmalarga tushirdilar.

1391 yilning 18 iyunida Qunduzcha daryosi bo‘yida (Rossiya hududidagi hozirgi Samara viloyati) Amir Temur va To‘xtamishning qo‘shini o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi. Bu jangda har ikkala tomondan taxminan 400 ming jangchi qatnashdi va bu jang o‘sha davrning eng yirik janglaridan biri bo‘ldi.

Amir Temur armiyasining ushbu jangdagi jangovar tartibi Nizomiddin Shomiy va Sharofiddin Ali YAzdiyning asarlarida to‘lig‘icha aks ettirilgan. U Sohibqironning shaxsan o‘zi tomonidan tuzilgan edi. Amir Temur birinchi bo‘lib jangovar tartibni «etti qo‘l», ya‘ni korpuslar usulida tashkil etdi, Shu vaqtgacha hech kim bunday jangovar tartibni

qo‘llamagan edi. Ali Yazdiy bu to‘g‘risida Shunday yozadi: «Hukmdor o‘zi yurib qo‘shinni etti qo‘l tartibida safladi. Shu paytgacha hech bir podshoning qo‘shinni bunday saflaganini eshitmaganman». Yana uning ma‘lumot berishicha g‘animning qo‘shini Amir Temurning qo‘shiniga qaraganda bir nechta *koShunga* (500 ta kishiga ega bo‘lgan harbiy bo‘linma) ko‘p edi.

Amir Temur qo‘shinining jangovar tartibi quyidagicha edi. Markazda saflangan qo‘lga amir Sulaymonshoh qo‘mondonlik qildi. Bu qo‘lning ortidan mirzo Muhammad Sulton boshchiligidagi ikkinchi qo‘l saf tortdi. Barang‘orda Mirzo Mironshohning qo‘li saflandi, Xo‘ja Sayfiddinning qo‘li kunbul rolini bajarib o‘ng qanotda saflandi. Juvong‘or mirzo Umarshayxning qo‘shinidan tashkil topdi. Kunbul sifatida – chap qanotda Berdibek Saribugning qo‘li joylashdi. Qo‘shin jangovar tartibining markazi avangard (manglay) tomonidan to‘sib turildi. Qo‘lning front ortida Oliy Bosh Qo‘mondon Amir Temurning Stavkasi bilan chag‘dovul joylashdi. Amir Temur qo‘mondonligidagi 20 minglik qo‘shin zaxiraga ajratildi. Bu zaxira kuchlari jangning natijasi uchun hal qiluvchi rol o‘ynadi.

Qarama-qarshi tomonda xon To‘xtamish o‘z qo‘shinini besh qismga bo‘ldi, ularga ko‘zga ko‘ringan sarkardalar va Dashti Qipchoqning bahodirlari qo‘mondonlik qildilar. Jangdan oldin Amir Temur ruhiy hujumni qo‘lladi. Dushmanning xurofot tuyg‘usiga ta‘sir o‘tkazish va o‘z qo‘shinida dushmanga nafrat uyg‘otish uchun u nabirasi Mirzo Abubakir otryadiga chodirlar qurish va qozonlarda ovqat pishirishga buyruq berdi. Bular hammasi dushmanni Shunday esankiratib qo‘ydiki, u turgan joyida qotib qoldi.

Jang uch kun davom etdi. Avval amir Xo‘ja Sayfiddin To‘xtamishning juvang‘origa hujum qildi va uni chekinishga majbur etdi. Oltin O‘rdaliklarning boshqa qismlari amir Xo‘ja Sayfiddinning hamlasini to‘xtatdi va uni qo‘shinini siqib kela boshladi. Dushmanning rejasini anglab etgan amir Jahonshoh o‘z qo‘shini bilan To‘xtamish qo‘shinining o‘ng qanotini to‘xtatib qoldi.

Mirzo Umarshayx dushmanning barang‘origa qarshi hujumga o‘tdi. To‘xtamish Sohibqiron qo‘shinining markaziga hujum qilishga botina olmadi va asosiy zarbani Amir Temur qo‘shinining chap qanotiga berishga qaror qildi. Uning shaxsan o‘zi bu hujumga boshchilik qildi. Jangning oxirida Oltin O‘rdaliklarning qo‘shini Sohibqiron qo‘shinining chap qanotini yorib o‘tdi va front ortidan qurshab olish xavfini tug‘dirdi. YUzaga kelgan vaziyatni hisobga olib Amir Temur o‘zining qismlari–zaxirani jangga kiritdi va u jangning

natijasini Sohibqironning foydasiga hal qildi. Amir Temurning zaxirasi yorib kirgan Oltin O'rdaliklarni tor-mor etdi. Qo'shinining zarbdor qismi yakson etilganidan keyin To'xtamishxon o'z mag'lubiyatini tan olishga majbur bo'ldi. Jang avjiga chiqqan paytda To'xtamishning bayrog'i ag'darilib tashlandi va uning qo'shini qocha boshladi.

Tor-mor etilgan To'xtamishning qo'shinini ta'qib etish uchun Amir Temur har bir o'nlikdan ettitadan jangchini ajratishga buyruq berdi. Ta'qib Volga daryosi bo'ylarigacha olib borildi va Shunday shijoat bilan tez olib borildiki, To'xtamishning qo'shini o'z bayrog'i qaerda ekanligini ko'rmay, qaerda yig'ilishni bilmay tarqalib ketdi, uning bir qismi qurol zarbidan halok bo'ldi, ikkinchi qismi daryoga cho'kib ketdi.

Dushmanni yakson qilib va katta o'ljani qo'lga kiritgan Amir Temur o'z qo'shini bilan Samarqandga qaytib keldi (1391 yilning oktyabr oyi oxirida).

Bu harbiy yurish va jangning asosiy natijasi va ta'limi quyidagilardir:

Amir Temurning qo'shini og'ir va murakkab sharoitlarda rejalashtirilgan yurishni amalga oshirdi, bunda faqat cho'l hududlaridan bosib o'tilgan yo'l 2500 kilometrdan oshib ketdi.

Amir Temur qo'shini safarning og'ir va harakatlanish qiyin bo'lgan uchastkalaridan dushmanga sezdirmasdan o'tdi.

O'zining mohirona manyovrlari bilan Amir Temur To'xtamishning qo'shinini, Azov bo'ylaridan qo'shimcha madad kuchlari kelishi ehtimoli bo'lgan janub tomondan kesib qo'ydi.

Sohibqiron o'zining mohir harakatlari tufayli To'xtamishni katta jangga kirishga majbur etdi va Shu bilan uni og'ir safarni amalga oshirgan Amir Temur qo'shinini holdan toydirishga qaratilgan kichik urushlarni olib borish imkoniyatidan mahrum etdi.

Safar chog'ida Amir Temur armiyasi katta va kichik suv to'siqlaridan kechib o'tdi. Bunda sayoz kechuv joylaridan (brodlar), ko'priklardan va suzib o'tish usulidan foydalanildi.

Qunduzcha jangida Amir Temur birinchi bo'lib o'z qo'shinini etti qismga bo'lishdek yangi jangovar tartibni qo'lladi. Qudratli zaxira ham ajratildi.

Jangdan oldin Sohibqiron dushmanning ruhiy ma'naviyatiga putur etkazishga qaratilgan ruhiy hujumni o'tkazdi.

Jangning natijasini zaxirani jangga kiritilishi va Amir Temurning qanotdan bergan qudratli zarbasi hal qildi.

Dushmanni ta'qib etish Shunday shiddat bilan olib borildiki u bir joyga yig'ilishga ulgurmasdan tarqalib ketdi yoki tor–mor etildi.


Lekin Oltin O'rdaning qudrati to'lig'icha yakson etilmadi. To'xtamishxon o'z kuchini tiklab olish uchun hali katta zaxiralarga ega edi. hal qiluvchi jang hali oldinda ekanligiga hech qanday Shubha qolmadi.

1391 yilda Amir Temurning Oltin O'rdaga yurishi va uning To'xtamish ustidan qozongan g'alabasi davlatning shimolida faqatgina vaqtinchalik osoyishtalikni ta'minladi. To'xtamishning asosiy iqtisodiy bazalari quyi Volgabo'yida – Saroy va hoji Tarxonda joylashgan bo'lib, Amir Temur ushbu yurish chog'ida ularga tegmadi. Mana Shu bazalarga va SHimoliy Kavkazda, Qrim, Azov va boshqa joylardagi bazalariga tayanib To'xtamish tezda zarbadan o'ziga keldi va oldingi harbiy qudratini tiklab oldi. XIV asrning oxirida u Amir Temurning ashaddiy dushmaniga aylandi.

1394 yilning kuzida Amir Temur qo'shinining SHimoliy Ozarbayjonda ekanligidan foydalanib, To'xtamish Darband orqali SHirvonga bostirib kirdi va uni talashni boshladi. Bundan xabar topgan Sohibqiron yangi urushga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Amir Temurning qo'shini Kura daryosining qirg'og'i bo'ylab yurishni boshladi. Oltin O'rda qo'shini chekindi. Oldinda jarong'orga ega bo'lgan Amir Temurning qo'shini Darbanddan o'tdi.

Mojaroni tinchlik yo'li bilan hal qilishga uringan Sohibqiron To'xtamishning qarorgohiga elchilarni yubordi. O'z maktubida Amir Temur To'xtamishni mulohazali bo'lishga, so'zga kirmoqqa va itoatli bo'lishga chaqirdi va bu o'z navbatida oldingi do'stlikni tiklanishining kafolati bo'lishini uqdirdi.

Oldiniga To'xtamish yarashish ishtiyoqini bildirdi, lekin o'zining bir to'da «nodon, kaltafahm va bechora» beklarining so'zlariga kirib rad javobini berdi va bu hol urushning boshlanishi muqarrarligidan darak berar edi.



### Qunduzcha daryosi bo‘yidagi jangda (1391 yil 18 iyun) tomonlarning jangovar tartibi

Darbanddan o‘tganidan keyin Amir Temurning qo‘shini Tarki shahri (hozirgi Maxachqala shahri yaqinida) yaqinida dam olish uchun to‘xtadi. To‘xtamish qo‘shinining avangardini Kuysu daryosining kechib o‘tish joyini qo‘riqlash uchun yubordi. Kechib o‘tish joyidagi dushman qo‘riqchilarini tor-mor etib, Amir Temurning qo‘shini hozirgi Checheniston va Ingushetiya hududlariga kirib bordi. Sunji daryosining Terek daryosiga quyilish joyi chodirlarni tikish uchun tanlandi. Terek daryosidagi kechuv joylarini kechiktirmasdan egallash uchun Amir Temurning qo‘shini Sunji daryosining qirg‘og‘i tomoniga harakatlandi.

Amir Temurning qo‘shini etib kelgunga qadar To‘xtamish Terekdan o‘tib, mudofaa inshootlarini qurishga va daryoning chap qirg‘og‘ini aravalar, daraxtlar va to‘siqlar bilan mustahkamlashga muvaffaq bo‘ldi. Lekin bunga qaramasdan Amir Temur dushmanning avangardini tor-mor etishga va Sunjidan kechib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi.

Endi Amir Temur qo‘shini Terek daryosini kechib o‘tishi kerak edi. Uning qo‘shini janubiy (o‘ng) qirg‘oqdan, To‘xtamishning qo‘shini esa shimoliy (chap) qirg‘oqdan

harakatlandi. Amir Temurning qo‘shinini uzluksiz kuzatish uchun To‘xtamish qo‘riqlov (qorovul) bo‘linmalarini ajratdi. Ikkala tomon ham uch kun mobaynida daryo bo‘ylab harakatni davom ettirdi. Uchinchi kuni Amir Temur qo‘shin bilan kelayotgan hamma xotin-qizlarga dubulg‘alar va sovutlarni kiyishga va jangchilarning harakatlarini imitatsiya qilishga buyruq berdi. Jangchilarga esa har biri ikkitadan ot olishga va jadal harakat qilib, tezkorlik bilan kechuv joyiga etib borishga buyruq berdi. Amir Temur jangchilari kechuv joyigacha yana uch kun yo‘l bosdilar va qarama-qarshilikning to‘qqizinchi kunida Terekdan kechib o‘tdilar.

1395 yil 15 aprelda Terek daryosi bo‘yida (hozirgi SHedrinskiy va SHyolkovski qishloqlari o‘rtasida) Amir Temur va To‘xtamishning armiyalari o‘rtasida jang bo‘lib o‘tdi. Jangdan oldin, jangga tayyorlanish qoidalariga binoan, Amir Temur lagerni mustahkamlashga va qo‘riqlashga, g‘animning tungi hujumlarini qaytarishga tayyor turishga buyruq berdi. Lagerning atrofida xandaqlar qazildi, erga xodalar odam o‘tib bo‘lmaydigan qilib ko‘mildi (*mandu*), to‘siqlar o‘rnatildi. Asosiy xandaqlar oldinda qizilgan xandaqlar bilan to‘siq qo‘yildi. Lagerning ichida behuda harakatlanish ta‘qiq qo‘yildi.

Bu gal ham Amir Temur o‘z qo‘shinini etti qismga bo‘ldi. Markazda qo‘l (qo‘shinning markazi) joylashdi, qo‘lning oldida asosiy avangard (xiraul), ortida chag‘davul (arergard) saflandi. Qo‘shinning qanotlarida barang‘or va jarong‘orning avangardlari joylashdi. Asosiy avangard qanotdagi avangardlarga nisbatan oldinroqda joylashdi va dushmanning jangovar tartibini yorib o‘tish vazifasini bajardi. CHag‘davul (arergard) zaxira rolini bajardi va stavkani qo‘riqlash vazifasini uchun qo‘llanildi.

Shunday qilib, Amir Temur qo‘shinining jangovar tartibi uchta chiziqni o‘z ichiga olgan: birinchi – avangard, ikkinchi – asosiy kuchlar va uchinchi – zaxira.

Birinchi chiziqni engil qurollangan jangchilar tashkil etib, ular jangni boshlaganlar, dushmanning jangovar tartibini tarqatib yuborganlar va uning safida parokandalikni keltirib chiqarganlar. Ikkinchi chiziq qo‘shinlari og‘ir qurollar bilan qurollanganlar va ular dushmanning hujumini qaytarishlari kerak bo‘lgan. Markazda saflangan qo‘l qo‘shinning asosini tashkil etgan va ko‘p hollarda jangning taqdirini hal qilgan. Engil piyodalar bo‘linmalari asosiy avangardning, markazning, chap va o‘ng qanotlardan oldinda


joylashgan. O'ng va chap qanot avangardlari, hamda arergard faqat otliq qo'shnlardan iborat bo'lgan.

Bu qismlarning hammasi mustaqil ravishda harakatlangan va faqat Oliy Bosh qo'mondonga bo'ysungan.

### Qo'shinni bunday saflash quyidagi ustunlikni yaratgan:

Dushmanga otliq va piyoda qismlar bilan uzluksiz va yoppasiga hujum qilish;  
Qo'shinning asosiy qismi qaravul va arergardning (chag'davul) himoyasi ostida bo'lganligi, bu o'z navbatida mudofaaning barqarorligini oshirganligi va dushman tomonidan qanotlar va front ortini qamrab olinishiga to'sqinlik qilganligi;

To'xtamish 1391 yilgi jangdagi tajribalari bo'yicha Amir Temur qo'shini jangovar tartibining ustunligiga ishonch hosil qilib, o'z qo'shinini Sohibqiron qo'shining jangovar tartibidek tartibda safladi.



Jang Oltin O'rdaliklarning Amir Temur qo'shinining jarong'origa qudratli hujumi bilan boshlandi. CHap qanotda yuzaga kelgan murakkab vaziyatni hisobga olib, Amir Temur o'sha tomonga o'z zaxirasidan madad kuchlarini jo'natdi.

Etib kelgan jangchilar dushan hamlasini qaytardilar va o'zlari uni ta'qib etishni boshladilar. Muvaffaqiyatga berilib ketgan alohida bo'linmalar asosiy kuchlardan ajralib ancha uzoqlashib ketdilar.

Terek daryosi qirg'og'i bo'yidagi jangdagi (1395 yil 15 aprel) jangovar tartib

Dushmanining taktik jihatdan yo'l qo'ygan xatosidan foydalangan To'xtamish o'z qo'shininig jangovar tartibini tikladi va ta'qib qilib kelayotganlar safini to'zg'itib yubordi.



Kutilmaganda bevosita Sohibqironning qo‘l ostida bo‘lgan qo‘shin dushmanning qurshoviga tushib qoldi. Shiddat bilan bostirib kelayotgan dushman to‘dalari amir SHayx Nuriddinning qismlari bilan to‘xtatib qolindi, ular o‘z otlaridan tushib g‘animni kamonlardan shijoat bilan o‘qqa tutdilar. Amir Temurning atrofida aravalardan *quran* barpo etildi (nemischada *vagenburg* – aravalarni bir biriga bog‘lab yaratilgan to‘siq). Amir Temur yoppasiga mudofaani yaratdi. Sohibqiron qo‘shini markazining jangga kiritilishi vaziyatni mo‘‘tadillashtirdi.

Jangning ikkinchi kuni yana To‘xtamishning hujumi bilan boshlandi. U hujumga o‘z jarong‘orini kiritdi. To‘xtamishning qo‘shini Amir Temur qo‘shinining avangardini ag‘darib tashlab, barang‘orga hujum qildi. Sohibqironning barang‘oridagi qo‘shinning bir qismi tarqalib ketdi, ikkinchi qismi otlardan tushib dushmanga kamonlardan o‘q yomg‘irini yog‘dirishda davom etdi. Qo‘shinning ushbu qismi Sohibqironning boshqa qismlari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Jangning ikkinchi kuni ham tomonlarning hech biriga g‘alaba keltirmadi.

To‘qnaShuvning oxirgi – uchinchi kunida jang yana oltin o‘rdaliklarning hamlalari bilan boshlandi. Markaz va qanotlarni kuchaytirgan To‘xtamish frontal hujumga o‘tdi. To‘xtamishning jarong‘ori ham jangga kiritildi. To‘xtamish qo‘shinini mana Shu qismining kuchsizlanib qolganini sezgan

Amir Temur, asosiy zarbani dushmanning jarang‘origa berdi. To‘xtamishning jarong‘ori to‘lig‘icha tor-mor etildi.

Amir Temur hamma uchastkalarda hal qiluvchi hujumga o‘tdi. Uch kunlik janglar davomida holdan toygan Oltin O‘rda qo‘shini qarshilik ko‘rsatish uchun o‘zida kuch topa olmadi va natijada qaqshatqich mag‘lubiyatga uchradi.

To‘xtamish o‘z tan soqchilari qurshovida jang maydonini tashlab qochdi va Bulg‘or o‘rmonlarida yashirindi.

Bu gal Amir Temur jangning natijasi bilan qanoatlanmasdan, Oltin O‘rda xonligining asosiy harbiy qudrati manbalarini yanchib tashlashga qaror qildi.

Dushmanni ta‘qib qilishda davom etib, Amir Temur armiyani Dnepr daryosiga boshladi, bu erdagi Minkerman qal‘asi buzib tashlandi. Dneprdan qaytib Amir Temur Rus tomonga yo‘naldi va Elets shahrigacha bordi. Shundan keyin Amir Temur Kavkazoldini

zabt etdi, keyin Oltin O‘rdaning asosiy bazalari–Hoji-Tarxon va Saroyga yo‘naldi. 1396 yilning bahorida Sohibqironning g‘olibona qo‘shini Ozarbayjonga etib keldi.

Oltin O‘rdaning Amir Temur tomonidan tor-mor etilishi rus knyazlarining taqdirilariga mo‘g‘ul-totorlar zulmidan qutulishlari uchun katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Harbiy san‘atning rivojlanishi nuqtai-nazaridan To‘xtamish bilan bo‘lib o‘tgan urush, ayniqsa 1395 yildagi Terek daryosi bo‘yidagi jang quyidagi xususiyatlarga ega:

Amir Temur qo‘llagan harbiy hiylasi tufayli hech qanday xatarsiz va yo‘qotishlarsiz o‘z qo‘shinini Terek daryosidan olib o‘tishga muvaffaq bo‘ldi.

Jang arafasida Amir Temur o‘z lagerini jihozladi va uni dushmanning tungi ehtimoliy hujumini qaytarish uchun tayyorladi.

Bu jangda ikkala tomon ham o‘z qo‘shinini etti qismga bo‘lib safladi.

Amir Temurning jangovar tartibi chuqur qilib yaratildi va mudofaaning barqarorligini va hujumning samaradorligini ta‘minladi.

Jang davomida Amir Temurning qo‘shini turli xil taktik usullarni–tezlik bilan hujumga o‘tish, pistirmalar, quranlar (aravalardan yaratilgan to‘siq) yaratish, otliqlarning piyoda tartibda jangga o‘tishlari va boshqalarni juda samarali qo‘lladi.

Amir Temur qo‘shinning samarali o‘zaro hamkorligini tashkil etib murakkab vaziyatdan chiqib ketishni ta‘minladi va keyinchalik muqarrar g‘alabani qo‘lga kiritdi.

O‘ng qanotda bosh zarba berish yo‘nalishini to‘g‘ri tanlash eng murakkab vaziyatda jangning natijasini hal qildi.

Bu jang o‘rta asrlarning eng yirik janglaridan biri bo‘ldi.

Natijada Oltin O‘rdaning qudratiga qaqshatqich zarba berildi, Shundan keyin u avvalgi qudratini tiklay olmadi.

Amir Temurning Hindistonga yurishi (1398–1399 y.). Amir Temur Hindistonga yurishni 1398 yilning martida boshladi. harbiy yurish uchun 92 minglik qo‘shin to‘plandi, Shu jumladan qo‘shinning o‘ng qanotini tashkil etgan 30 ming otliqlar, ular Sulaymon tog‘lari tomonga harakatlanishlari, Ind (Sind) daryosini kechib o‘tishlari va Mo‘lton shahrini egallashlari kerak edi. Keyinchalik Mo‘lton Hindistonga hujum qilish uchun tayanch bazasi vazifasini bajarishi kerak edi.

Chap qanot–30 minglik otliq qo‘shin Qobulga harakatlanishi, Ind daryosini kechib o‘tishi va Laxor shahrini egallashi lozim edi. Amir Temur qolgan 32 ming qo‘shin bilan

1398 yilning martida Samarqanddan chiqib, Termiz yaqinida kemalarda oʻrnatilgan koʻprik orqali Amudaryodan oʻtdi. Bu erdan u Balgan (Hindiqush togʻ tizmasi) tomonga harakatlandi. Qolgan qoʻshinni qoldirib, u Kofiriston (Afgʻonistonning markazida) shahriga toʻsatdan hujum qilish uchun 10 minglik qoʻshin bilan hindiqushdan oshib oʻtdi. Kunduz kuni togʻda qor quYoshning issigʻidan boʻsh boʻlganligi uchun otlar qorda tura olmas edi, Shuning uchun Amir Temur jangchilari kunduzi joylarida turdilar, otlarning qorga botib ketmasligi uchun ularning tagiga namatlar toʻshadilar, kech tushganda qor qattiqlashishi bilan harakatni davom ettirdilar. Shunday qilib, qoʻshin hindiqushning dovonigacha etib bordi. Togʻdan har kim bilganicha mustaqil ravishda tushdi: kimdir orqasi bilan, kimdir arqonlar yordamida. Amir Temurni arqonlar yordamida katta choyshab toʻshalgan moslamada tushirdilar. Togʻdan oʻtilganidan keyin va kichik bir daryo kechib oʻtilganidan soʻng, qoʻshin toʻsatdan Kofiriston shahriga hujum qildi. Bu yurishni muvaffaqiyatli oxiriga etkazgan Amir Temur Qobulga kirib keldi, bu erdan Ind daryosiga yoʻnaldi. 1398 yil 24 sentyabrda Sohibqironning qoʻshini qurilgan koʻprik orqali daryodan oʻtdi. Oktyabrning boshlarida uch kun ichida qoʻshin qayiqlarda oʻrnatilgan koʻprik orqali chuqur va keng Chitora (Hozirgi Pokistonning Penjab hududidagi Ind daryosining irmoqlaridan biri) daryosidan kechib oʻtdi.

Moʻlton shahrini qamal qilgan qoʻshinning oʻng qanoti bilan birlashish uchun Amir Temur qoʻshini Bayax (Ind daryosining irmogʻi) daryosi qirgʻoqlariga chiqdi. Moʻlton shahrining qamali olti oy davom etdi. SHaharni qamal qilgan qoʻshin katta qiyinchiliklarga duch keldi. Kuchli yomgʻirlar, sellar, tez-tez oʻzgaruvchan ob-havo sharoitlarida va joyning sharoiti tufayli otlar yuqumli kasallikka duchor boʻldi va qariyb ularning hammasi qirildi. Amir Temur ularni 30 mingta otlar bilan taʼminladi. Moʻlton shahri jang bilan egallandi.

Shundan keyin Amir Temur qoʻshinining bir qismi qayiqlarda, bir qismi suzib Bayax daryosidan oʻtdi. Daryoni kechib oʻtganidan keyin Amir Temur Dibalpur shahriga yoʻnaldi, uning aholisi Sohibqironning mingta jangchisini shaharga kiritib, xoinlarcha chopib tashladi. Amir Temur qoʻshinining kelishi bilan Dibalpur aholisi qudratli mustahkamlangan Batnir qalʼasiga yashirindi.

Qalʼani shturm qilish uchun Sohibqiron oʻzi bilan bor-yoʻgʻi 10 minglik qoʻshin oldi. Birinchi hamlaning natijasida qalʼa boʻsagʻasidagi istehkomlar egallandi. Birinchi kuni qamaldagilar hujumni qaytarishga muvaffaq boʻldi. Ikkinchi kuni esa Amir Temurning

jangchilari o'z pozitsiyalarini kovlab er osti yo'lini qura boshladilar. Buni ko'rgan Batnir himoyachilari 1398 yil 8 noyabrda Sohibqironning jangchilariga asirga tushdi.

8 dekabrda Amir Temurning qo'shini Dibulpurda ajrab ketgan qo'shinga etib oldi. 12 dekabrda qo'shinning hamma qismlari birlashdi.

Somin shahridan Dehligacha qo'shin uchta kolonnaga bo'linib harakatlandi: markaz va front orti ta'minoti to'g'ri yo'ldan Dehliga, o'ng va chap qanotlar ikki yon tomondagi yo'llardan harakatni boshladi. Luni shahrini egallaganidan keyin Amir Temur 15 dekabrda Dehlini qay tarzda qamal qilish va egallashni kelishib olish uchun harbiy kengash chaqirdi. Amir Temur Luni shahridan Sharqqa tomon harakatlandi, YAmuna (Jamna) daryosidan o'tdi va Dehli yaqinida lager qurdi. Lagerni hindlarning to'satdan hujumlaridan himoya qilish chora-tadbirlari ko'rildi. Lagerning atrofida xandaqlar qazildi, to'siqlar o'rnatildi.

1398 yil 18 dekabrda Dehli sultoni Mahmud shoh jangga kirish uchun Dehlidan chiqdi. U 10 mingta yaxshi qurollangan otliqlarga, 40 mingta piyodalarga, kamon o'qlari, nayzalar va qilichlar zarbalaridan qalin to'qimlar bilan himoyalani, tishlariga zahar surkalgan katta pichoqlar bog'langan 120 ta jangovar fillarga ega edi. Fillarning ustida arbaletlar bilan qurollangan jangchilar joylashgan minaracha o'rnatildi. Fillarning atrofida yonuvchi aralashma solingan xurmachalarni va temir uchli raketalarni otuvchi jangchilar harakatlandilar.

Amir Temur fillarning oldida jangchilarining oshib ketgan tashvishini bilib, oldindan quyidagi chora-tadbirlarni ko'rdi: temir tig'lar o'rnatilgan taxtani oldindan tayyorlab fillar hujum boshlagan paytda ularning oyoqlari ostiga tashlashni buyurdi; fillarni qo'rqitish va ularning orasida parokandalikni keltirib chiqarish uchun tuyalarning boshlariga va yon tomonlariga tikanli daraxtlarning shox-shabbalari va somonlar bog'lamlarini bog'lab, ularni yoqib tuyalarni fillarga qarshi yuborishni amr qildi; g'anim jangchilariga kamon o'qlari bilan, fillarga nayzalar bilan talofat etkazish va qilichlar bilan fillarning xartumlarini chopib tashlashni buyurdi. Bu chora-tadbirlarning hammasi jangchilarga botirlik xislatlarini uyg'otdi va katta muvaffaqiyatga etakladi.

Sulton Mahmud qo'shinining jangovar tartibi o'ng qanot, markaz, chap qanot va qo'shinning oldida saflangan jangovar fillardan iborat edi. Amir Temurning qo'shini odatdagidek ikkita chiziq va zaxiradan tashkil topdi. Ikkala tomondan ham *pishal-to'plar* qo'llanildi.

Jang qo‘shinlarning qanotlarida boshlandi. Dushman bilan og‘ir janglarni olib borayotgan o‘z avangardi (xarauli) va chap qanotini (jarong‘orini) qo‘llab-quvvatlash uchun Amir Temur markazdan (qo‘ldan) kuchlarni ajratdi. Sohibqiron tomonidan o‘z vaqtida ko‘rsatilgan madaddan ruhlangan jangchilar tashabbusni o‘z qo‘llariga oldilar. SHiddatli janglardan keyin Amir Temur jangchilari fillarning xartumlariga talofatlar etkazib, dushmanni chekinishga majbur etdi va Shu bilan uning orasida tartibsizliklarni keltirib chiqardi. Fillar o‘z qo‘shinlarining ikkala qanotlariga tashlandi va ularni ag‘darib tashladi. Dushmanning orasidagi parokandalikni sezgan Amir Temur, o‘z qo‘shinining markazini ilgari surdi, u bilan fillarning chizig‘iga yorib kirdi, ularning ko‘p qismini o‘ldirdi va g‘animni qochishga majbur etdi. Dushmanni ta‘qib etish Dehlining devorlarigacha davom ettirildi. Keyingi tunda sulton Mahmud shahardan qochdi. Dehli jangsiz taslim bo‘ldi.

O‘n bir oylik harbiy safardan qaytgan Sohibqironni 1399 yil 29 martda Amudaryoning bo‘yida xotinlari va shahzodalar kutib oldilar. 1399 yil 27 aprelda Amir Temur Samarqandga qaytib keldi.

Harbiy san‘atning rivojlanishi nuqtai-nazaridan Hindistonga uyushtirilgan harbiy safarning natijalari quyidagilar:

qo‘shin uch kolonnaga bo‘linib, keng front bo‘ylab harakat qildi. Oldinga jo‘natilgan o‘ng qanot Hindistonga hujum qilish uchun tayanch bazasini yaratishi kerak edi;

Amir Temur qo‘shini og‘ir va murakkab sharoitlarda hindiqush tog‘laridan oshib o‘tdi;

qo‘shin keng va toshqin daryolarni kechib o‘tdi. Daryolardan kechib o‘tish uchun kechuvning turli xil usullari qo‘llanildi: ko‘priklar, qayiqlar, suzib o‘tish; o‘tish qiyin bo‘lgan joylarda joylashgan, kuchli mustahkamlangan qal‘alarni egallashda Sohibqiron dushmanni qisqa muddatlarda taslim bo‘lishga majburlovchi juda samarali usullarni qo‘lladi;

Sohibqironning jangchilari birinchi bor jangovar fillardek dahshatli kuch bilan jang olib bordilar. Fillarga qarshi mohirona qo‘llanilgan vositalar tufayli jangovar fillar qochdi va o‘zining jangchilarini yanchib tashladi;

jangdan oldin Sohibqironning jangchilari hind qo‘shinlarining ehtimoliy hujumlarini qaytarish uchun lager qurdilar;

g'alabaga erishishda qismlarning o'rtasida o'rnatilgan yaxshi o'zaro hamkorlik va o'z vaqtida ularni zaxira kuchlari bilan qo'llab-quvvatlash muhim rol o'ynadi;

hal qiluvchi zarba dushman jangovar tartibining markaziga berildi;

jangning natijasida dushmanning ruhi tushib ketdi va u Dehlining mudofaasini tashkil qila olmadi, shahar Amir Temur qo'shinlari tomonidan jangsiz egallandi.

Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi. 1402 yil 20 iyuldagi Anqara yaqinidagi jang. Ozarbayjon, Gruziya va Sharqiy Anatoliyaning davlat tarkibiga birlashtirilishi Amir Temur mamlakatini turk-usmoniylari bilan chegaralanishiga olib keldi.

XIV asrning 90-yillarida sulton Boyazid I Yildirim (yashindek tezkor) Markaziy Anatoliyani va Kichik Osiyoning janubida, Sivas va Malatya shaharlarini bosib oldi. Shundan keyin u Amir Temurning vassallari –Arzinjon va Arziruma hukmdorlaridan usmoniylar xazinasiga o'lpon yig'ishni talab qildi.

Sohibqiron mojaroni elchilik yo'li bilan hal qilish uchun sultonga xat yubordi. Boyazid I xatga qo'pollik bilan rad javobini berdi. Sultonning javobi Amir Temurni g'azabga keltirdi va u Sivas va Malatya shaharlarini bosib oldi.

Shundan keyin 1400 yilda Sohibqiron o'z nazarini Misrga tobe bo'lgan Suriyaga qaratdi. Misr mamluklari usmoniylar bilan yaxshi munosabatda edilar va kerak bo'lgan paytda turklarga harbiy yordam ko'rsatishlari mumkin edi. Shuning uchun Amir Temur o'z qanotlarida qudratli ehtimoliy dushmanni qoldira olmas edi. Amir Temur Misr qo'shinlarini tor-mor etdi va Damashqni bosib oldi.


Shu bilan birga u Boyazid I ga xat yuborishda davom etdi. 1402 yilning bahorida Boyazid I bilan Amir Temur o'rtasidagi munosabatlar yana yomonlasha boshladi. Boyazidning javobini kutmasdan Amir Temur hujumga o'tishga qaror qildi. Bo'lajak yurishning katta ahamiyatini, qiyinchiligini va turk sultoni bilan kurashni hisobga olib, u Movarounnahrda yordam kuchlarini jo'natilishiga buyruq berdi.

Amir Temurning Kichik Osiyoga yurishi to'rt davrda olib borildi.

Yurishning birinchi davri – Amir Temur qo'shinining Kichik Osiyo hududiga bostirib kirishi. Qo'shin 1402 yilning may oyida yurishni boshladi. U Sharqiy Anatoliyadagi Kemax qal'asini qamal qildi. Bu qal'a tog' daryosining qirg'og'ida joylashgan edi. Qal'aning devori mustahkam va baland bo'lib, uning birinchi tomoni daryoga taqalgan, ikkinchi tomoni esa vodiya tutashgan edi. Vodiy daryo irmog'i bilan tutashib ketganligi

uchun unga chiqib borishning imkoni yo‘q edi. Qal’aning qolgan ikki tomonini tepaliklar himoya qilib turardi.

Qal’ani qamal qilishni Amir Temur taxtning vorisi Muhammad Sulton qo‘mondonligidagi Movarounnahrdan etib kelgan qo‘shinga topshirdi. Qal’ani qamal qilish 1402 yilning may-iyun oylarida o‘tkazildi. Sohibqiron qal’aga o‘tish qiyin bo‘lgan vodiyaning borishga qaror qildi. Uning buyrug‘iga asosan daraxtlarni kesib vodiyni o‘tinlar, shox-shabbalar bilan to‘ldirdilar va uni er bilan barobar qilib tekisladilar. Qal’a himoyachilari neftdan, maxsus tuzlardan, ko‘mir va oltingugurtdan tayyorlangan yonuvchi aralashmani daraxtlar va shox-shabbalar bilan birga yoqib yubordilar. Shundan keyin Sohibqiron jangchilariga vodiyni katta-katta toshlar bilan to‘ldirishni buyurdi. Jangchilar narvonlar va arqonlar yordamida qal’a devorlariga ko‘tarila boshladilar. Qamaldagilar asirga tushishga majbur bo‘ldilar.



### 1402 yil 20 iyuldagi Anqara yaqinidagi jang

Kemax qal’asini egallaganidan keyin Amir Temur jangchilari Sivasga harakatni boshladi.

Sivas cho‘llarida Amir Temur o‘z odatiga ko‘ra har doimgidek katta jangdan oldin qo‘shinning ko‘rigini o‘tkazdi. Tarixchilarning guvohlik berishicha, «Hamma jangchilar o‘sha davrning takomillashgan qurol-yarog‘iga ega: chavandozning boshidan – otning tuyog‘igacha sovutlar bilan himoya qilingan edi». Bu hol Amir Temurning jangchilari evropalik ritsarlardek qurol-yarog‘lar va himoya anjomlariga ega bo‘lganliklaridan dalolat

beradi. Endigina Movarounnahrda etib kelgan shahzoda Muhammad Sulton qo‘shinining anjomlari boshqacha bo‘lib, u turli xil rangda bo‘lgan.

Qo‘shinning ko‘rigi paytida sulton Boyazidning elchilari ham ishtirok etdi. Bu ko‘rik elchilarda katta tasavvur uyg‘otdi.

Sivasdan Amir Temur Toqat yo‘nalishiga dushmanni qidirib topish va Qizil-Irmoq daryosidagi kechuv joylarini egallash uchun razvedkachilarni jo‘natdi. Razvedka Anqaraning shimolida turk qo‘shinlarini yig‘ilayotganligini aniqladi.

Yurishning ikkinchi davri – Amir Temur qo‘shinining qat‘iy jangga o‘tishga qulay vaziyatni yaratish uchun manyovri.

Razvedkaning ma‘lumotiga ko‘ra, Toqatga eltuvchi yo‘l o‘rmonning ichidan o‘tgan bo‘lib, juda tor edi. Buning ustiga Qizil-Irmoq daryosidagi kechuv joylari turklar tomonidan egallangandi. Boyazid qo‘shinining asosini piyodalar, Amir Temur armiyasini esa otliqlar tashkil etdi. Shuning uchun Amir Temur o‘zi uchun noqulay joyda jang qilmaslikka qaror qildi. Turk sultonining qo‘shinini hiyla bilan tog‘li, o‘rmonli joydan chiqarish, hamda Qizil-Irmoq daryosidagi kechuv joyini turk qo‘shinlari qo‘riqlamayotgan uchastkasidan kechib o‘tish uchun Amir Temurning qo‘shini Kesariyaga yo‘l oldi.

Boyazid Amir Temurning yurishini aynan mana Shu o‘rmon yo‘lidan kutdi. Pozitsiyani egallab, u jangga tayyorgarlik ko‘rdi. Tajribali Amir Temur chalg‘ituvchi manyovrni amalga oshirdi, u kichik bo‘linmalarni o‘rmon yoqasida qoldirdi, qo‘shinning to‘xtashini imitatsiya qildi, qolganlarni so‘qmoq yo‘ldan Anqara tomonga olib ketdi.

Boyazid I qo‘shinining harakatlarini kuzatish uchun Kirsheirdan razvedka otryadi chiqdi (1000 chavandoz).

Amir Temur dushman to‘dasida yuzaga kelgan vaziyatni yaxshi bilar edi. Otliq qo‘shinni ta‘qib qilish Boyazid I ning piyodalarini toliqtirishini hisobga olgan Amir Temur, o‘z qo‘shinini dushman tomonidan ta‘qib qilishga majbur etishga qaror qildi. Boyazid I qo‘shini kommunikatsiyalarini Brussa shahridan ajratib tashlash uchun Amir Temur Anqara shahrini qamal qildi. Buning natijasida turk qo‘shinlari tekislikka chiqishga majbur bo‘ldi. Shundan so‘ng Amir Temur Anqara qamalini echib, ortga o‘tdi va lager qurib uni mustahkamladi.

Amir Temurning lageri kichik bir daryoning qirg‘og‘ida joylashgan bo‘lib, daryo lagerning orqa tomonidan oqib o‘tar edi. Lagerning atrofida xandaqlar qazildi. Sulton



Boyazid I o'zi uchun noqulay pozitsiyadan hujumga o'tishga majbur bo'ldi. Turklar tomonidagi yagona buloq Amir Temur jangchilari tomonidan buzib tashlandi, Shuning uchun sultonning qo'shini suv tanqisligiga duchor bo'ldi. Buning ustiga sultonning qo'shini yaqin orada maosh olmaganligi va uning orasida noroziliklar kelib chiqqanligi Amir Temurga ma'lum bo'ldi.

YUrishning uchinchi davri – Anqara yaqinidagi jangda turk qo'shinining tor-mor etilishi. Sharqlik tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda (bo'rttirilgan bo'lishi mumkin), Amir Temurning qo'shini 250 mingdan 350 mingtagacha jangchilarni va 32 ta jangovar fillarni, turk qo'shinlari 120–200 ming jangchini tashkil etgan. hozirgi tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda Amir Temurning qo'shini 140–160 ming kishini, 32 ta jangovar fillarni, turk qo'shinlari esa–70 ming atrofida jangchini tashkil etgan.

1402 yil 20 iyulda Anqara yaqinida sulton Boyazidning turk qo'shinlari va Amir Temur qo'shini o'rtasida o'rta asrning eng yirik janglaridan biri bo'lib o'tdi. Amir Temur armiyasining jangovar tartibi o'ng va chap qanotlardan, ularning avangardlari va markazdan tashkil topdi. Ularning oldida bir nechta qatorda kamonchilar va 32 ta jangovar fillar olov uloqtiruvchilar bilan saflandi. Markazning ortida shaxsan Amir Temurning qo'mondonligi ostida saralangan qo'shından tashkil topgan zaxira saflandi. Amir Temurning qo'shini qudratli qanotlarga va kuchli zaxiraga ega edi.

Boyazid I o'z qo'shini jangovar tartibining front ortini tog'larga taqab, o'ng qanotga chekinishga mos qilib yaratdi. Turklarning o'ng qanoti osiyoliklar qismlaridan, jumladan tatarlarning qo'shinlaridan tashkil topdi, ularning orasida sultonning siyosatidan norozi kishilar talaygina edi. Sulton qo'shining chap qanotini serb qiroli Lazarning jangchilari egalladi. Bu jangchilar boshlaridan oyoqlarigacha ritsarlik sovutlari bilan himoya qilingan edilar. Qo'shinni ikkinchi qatorining ortida front ortining markazida sultonning o'zi rahbarligidagi zaxira joylashdi. Usmoniylar qo'shini jangovar tartibining markazi kuchli, qanotlari esa kuchsiz bo'ldi.

***Jangning birinchi davri*** – jangovar tartibning qanotlaridagi janglar. Boyazidning qo'shini safardan toliqqanidan foydalanib, Sohibqiron birinchi bo'lib engil otliqlar bilan zarba berdi, keyin esa o'ng qanot avangardining serblarning qatoriga qilgan hujumi muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Shundan keyin butun o'ng qanot jangga kiritildi va serblarning qatorlarini chap qanotdan va front ortidan o'rab oldi, lekin serblar ayovsiz qarshilik

ko'rsatishda davom etdilar. Chap qanot avangardi boshida muvaffaqiyatni qo'lga kiritdi, chunki 18 minglik yollangan totor otryadlari Amir Temur tomoniga o'tdi. Boyazidning o'g'li Sulaymon qo'mondonligidagi turk qo'shinining o'ng qanoti chekinishni boshladi. Shu paytda Amir Temur, serb ritsarlarini turklarning asosiy kuchlaridan ajratib qo'yish uchun ikkinchi chiziqdagi qo'shinlarni jangga kiritdi, lekin serblar yorib o'tishga va yanicharlar otryadi bilan birlashishga muvaffaq bo'ldilar.

***Jangning ikkinchi davri*** – Amir Temur qo'shini tomonidan turk qo'shinining asosiy kuchlarini qurshovga olinishi.

Amir Temur zaxirani jangga tashladi, u turklarning asosiy kuchlarini qurshovga ola boshladi. Serb ritsarlari g'arb tomonga chekina boshladi. Amir Temur qo'shinlari yanicharlarni qurshovga olishni osonlik bilan oxiriga etkazdilar, ularni yanchib tashladilar, Boyazidni esa asirga oldilar.

***Jangning uchinchi davri*** – turk qo'shinlarining qolgan-qutganlarini ta'qib qilish.

Sulaymon qo'mondonligidagi turk qo'shinlarining qolgan-qutganlarini ta'qib qilish uchun Amir Temur 30 mingta jangchini ajratdi, ularning 4 mingtasi otlarda beshinchi sutkada Brussaga etib keldi. Sulaymon o'zining kichik bir otryadi bilan kemalarga o'tirib suzib ketishga zo'rg'a ulgurdi.

***Jangning to'rtinchi davri*** – Kichik Osiyoning g'arbiy O'rta Er dengizi qismini bosib olinishi. Sulton Boyazidning asosiy kuchlarini tor-mor etganidan keyin Amir Temur qo'shini turk qo'shinlarining qolgan-qutganlarini ta'qib qildi va Kichik Osiyoning O'rta Er dengizi qirg'oqbo'ylariga chiqdi.

Ko'pgina shaharlar va qal'alar jangsiz taslim bo'ldi. Faqat Smirna shahrida yashayotgan xristianlar qarshilik ko'rsatishga qaror qildilar. Dekabr oyida qal'ani qamal qilish boshladi. Buning uchun qamal qilish, olov va tosh uloqtiruvchi qurollar yig'ildi. Dengiz tomonidan bo'ladigan hujumni qaytarish, kemalardan himoya qilish uchun yog'ochdan to'siqlar qurildi. Qal'a himoyachilari qat'iy qarshilik ko'rsatdilar. Amir Temur er ostidan yo'l qazishni buyurdi. Qamal qiluvchilar tez-tez bir birlarini almashtirib qazib turdilar. Er ostidan qazilgan yo'l tayyor bo'lganidan keyin uning ichiga neftga pishitib olingan o'tinlar yoqildi. Buning natijasida qal'a devorlari qulab tushdi va jangchilar qal'aga bostirib kirdilar. Smirnaning egallanishi bilan Kichik Osiyoga uyushtirilgan harbiy safar tugadi.

Kichik Osiyoga uyushtirilgan harbiy yurish va Anqara jangi natijalari bo'yicha harbiy san'atning rivojlanishiga qo'shilgan hissa quyidagilar:

Sohibqiron urushni boshlash uchun qulay vaqtni tanladi. U o'zining janubiy qanotiga Misr tomonidan berilish ehtimoli bo'lgan zarbani bartaraf qildi.

Amir Temur o'zining mohir va tezkor manyovrlari tufayli dushmanga o'z irodasini singdirib, uni manfaatli marrani tark etishga majbur qildi.

Amir Temur qo'shini ortidan quvg'in qilish, asosini piyodalar tashkil etgan turk qo'shinini juda holdan toydirdi. Jang uchun qulay pozitsiya tanlandi.

Amir Temur qo'shinining jangovar tartibi qudratli zaxirani ajratgan holda kuchli qanotlardan tashkil topdi. Anqara jangi o'rta asrlar tarixidagi yirik janglar bilan bir qatorda turadi.

Jangning oqibatini qanotdan berilgan zarbalarni markazdan faol harakatlar bilan birga olib borilganligi, zaxirani o'z vaqtida jangga kiritilganligi va undan keyin turk qo'shinlarining asosiy kuchlarini qurshab olinishi hal qildi

Turklar bilan urushda Amir Temur qamrab olish negizini yaratdi. Shu negizlarga tayanib, u o'zining front ortini ishonchli ta'minladi va turk qo'shinlarini ajratib qo'ydi. Sohobqiron dushmanni va joyni razvedka qildi, vaziyatni to'g'ri aniqladi, maqsadlarni belgiladi, harbiy harakatlarning rejasini tuzdi, strategik tashabbusni o'z qo'liga oldi va dushman kommunikatsiyalarini kesib qo'ydi. Turk qo'shinidagi noroziliklar va jangchilari turli xil qabilaga mansubligidan foydalanib, u dushmanni o'zi uchun o'ta noqulay sharoitlarda jang olib borishga majbur qildi.

«Temur tuzuklarida» ushbu jangning operativ-taktik chizmasining ahamiyati quyidagicha ta'kidlanadi: «Shunday qilib, men Boyazid bilan jangga kirishdim. O'ng qanotning qo'mondoni Mirzo Mironshohga turk sultoni qo'shinining chap qanotiga, mening qo'shinimning chap qanotini boshqarayotgan Mirzo Sulton Mahmudxonga va amir Sulaymonga—dushmanning o'ng qanotiga hujum qilishni buyurdim. O'ng qanot zaxirasi qo'mondoni Mirzo Abubakir tepalikda joylashgan Boyazid qo'shinining asosiy qismiga hujum qilish vazifasini oldi, men esa o'zimning jangovar qismim va saralangan jangchilarimni olib to'g'ri janggohga kirdim. Uning qo'shini birinchi hamla paytidayoq uloqtirib tashlandi; sulton Mahmudxon mag'lub bo'lganlarni ta'qib qilishga tashlandi va Boyazidni asirga olib mening chodiringa olib keldi». Anqara yaqinidagi jangda har ikkala

tomondan dunyoning eng yaxshi piyodalari hisoblangan usmoniylar piyodalari, jahonning eng kuchli otliqlari hisoblangan Amir Temur otliq askarlari bilan to'qnashdi. Usmoniylarning piyodalari Amir Temur otliq armiyasi oldida ojizlik qildi. Bu g'alaba Sohibqironning sharaflari harbiy san'atining eng yuqori cho'qqisi bo'ldi.

Amir Temurning harbiy san'ati haqida gap borganda, uning armiyasidagi taktika va strategiya qat'iyligi bilan ajralib turishini alohida ta'kidlab o'tmasdan bo'lmaydi. Bu kurashning strategik asoslarini faol hujumkor harakatlar va urush olib borishning usullari va shakllarini chuqur bilish tashkil etdi.

Amir Temur o'z qo'shinini taktik jihatdan saflashga ijodiy yondashib, kerak bo'lgan vaqtlarda jangovar tartibga o'zgarishlar kiritdi. 1391 yil iyundagi To'xtamish bilan bo'lib o'tgan jangda Amir Temur qo'shini markazdan, ikkala qanotlardan, avangarddan, arergarddan va qanotlarni qo'llab-quvvatlab turuvchi ikkita qismlardan tashkil topgan edi, lekin har bir qanot o'zining avangardiga ega bo'ldi, markaz esa avangard va zaxira bilan kuchaytirildi. Arergard-zaxiraga Amir Temurning o'zi qo'mondonlik qildi. Uning pozitsiyasi markazning Shundoq ortida joylashdi va qaerga yordam kerak bo'lib qolsa, o'sha yoqni qo'llab-quvvatlashga doimo tayyor turdi.

Buyuk Sohibqiron harbiy san'atida tezkorlik manyovr taktikasi muhim ahamiyatga egadir. Amir Temur, mana Shu doimo uni mag'lubiyatlardan asragan va g'alabaga etaklagan marsh-manyovrlarning ustasi edi.

Amir Temur jang maydonida to'liq ustunlikni qo'lga kiritish uchun taktik darajada tez-tez o'z qo'shinini manyor qilib turdi. Amir Temurda jang davomida kerakli joyda kerakli vaqtda etib kelish qobiliyati bor edi. Bu hammasi unga to'g'ri va o'z vaqtida qaror qabul qilishga va o'z buyruqlarini bajarilishini nazorat qilishga imkon yaratdi.

Shu bilan birga, Buyuk sarkarda, urushda muvaffaqiyatga erishishda hamda strategik va operativ-taktik rejalarni amalga oshirishdagi muhim omil, armiyaning qattiq markazlashgan boshqaruvida deb hisobladi. Markazlashgan boshqaruvning ma'nosi—armiyaning hamma qismlari yagona qo'mondonlikka bo'ysunishidir. hamma amirlar bosh qo'mondonga bo'ysungan edilar va o'z majburiyatlarini aniq bajardilar. «Eskadron boshliqlariga men buyruqlarimni o'ta aniqlik bilan bajarishni buyurdim. Boshliq yoki oddiy jangchi agarda mening topshiriqlarimni bajarishdan bosh tortsa yoki uni buzsa qattiq jazoga tortdim» – deb yozilgan edi «Temur tuzuklarida».

Amir Temur taktika va strategiyani ishlab chiqqan buyuk sarkardalardan biridir. U bahssiz donishmand davlat arbobi sifati va iste'dodli sarkardalikni o'zida mujassam etgan, o'z zamonasining muvaffaqiyatli va kuchli harbiy boshlig'i edi.

Amir Temurning tarixiy buyukligi, unga tarixning o'zi tomonidan yuklatilgan bir qator burchlarni bajarganligidadir.

Birinchi burch – O'rta Osiyo hududini yagona markazlashgan davlatga birlashtirish.

Ikkinchi burch – Amir Temur tomonidan Oltin O'rdaning tor-mor etilishi bo'lib, Shundan keyin cho'l davlati o'zining avvalgi qudratini tiklay olmadi. Bu o'z navbatida uning hokimiyatini rus knyazliklari ustidan kuchsizlanishiga va Generallik Moskva Rusini mo'g'ullar zulmidan to'lig'icha ozod bo'lishini tezlashtirdi.

Uchinchi burch – Amir Temurning 1402 yilda Anqara yaqinida usmoniylar sultoni Boyazidning ustidan qozonilgan g'alabasi bilan bog'liq. Usmoniylar davlati armiyasini tor-mor etib, Amir Temur Shu bilan uni kichik davlatlarga bo'lib tashladi. Bu davlatning yana yagona bir davlatga birlashishiga uzoq 50 yil talab qilindi.

Mana Shu yarim asrlik davr Sharqiy va Markaziy Evropa xalqlari uchun juda muhim bo'ldi. U usmoniylarning g'arbga ekspansiyasini yarim asrga kechiktirdi. Mana Shu vaqt mobaynida Evropaning tarqoq davlatlari o'z qudratlarini ancha mustahkamlab oldilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov, 1996 yil 18 oktyabrda Temuriylar tarixiy muzeyining ochilish marosimida so'zlagan nutqida, «Amir Temurning o'chmas xizmatlari, uning bosqinchilarga qarshi turib, ularga uzil kesil zarbalar berganligida, Turkiston erida tarqoq o'lkalarni va xalqlarni birlashtirib, ozodlik bayrog'ini baland ko'targanligida va qudratli markazlashgan davlat barpo etganligidadir»—deb ta'kidlagan edi. 1996 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risida Qonun qabul qildi.



### **«Amir Temur» ordeni**

Bu orden bilan davlatchilikni mustahkamlashdagi xizmatlari uchun, arxitekturani, adabiyot va san'atni, Shu jumladan harbiy san'atning rivojlanishiga katta hissa qo'shgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari taqdirlanadilar. Bundan tashqari ushbu orden bilan xalqlar o'rtasida do'stlikni, davlatlar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlashga hissa qo'shgan shaxslar ham taqdirlanadilar.

Mavzuni o‘zlashtirish uchun savollar:

1. Xalq qo‘shinlarining xarbiy va jismoniy tayyorgarligiga izoh bering?
2. Buyuk sarkarda Amir Temurning xarbiy jismoniy tayyorgarligini asosiy g‘oyasi nimalardan iborat edi?
3. Zaxiriddin Muxammad Boburning jismoniy madaniyatga qo‘shgan xissasi to‘g‘risida tushuncha bering?
4. Eng yangi zamonda jismoniy madaniyatni rivojlanishida o‘z fikr mulohazalaringizni bildirining?
5. Boburning qizi Gulbadanbegim “Xumoyunnoma” asarida ma’lumot bering?

Talabalarni mustaqil tayyorgarligi uchun topshiriqlar.

Quyidagi mavzular asosida reja tuzing va o‘z fikr- mulohazalaringizni bildiring “Mustaqil ish” yozing.

- 1 Abu Ali ibn Sinoning badantarbiya haqida mulohazasi.
2. Xalq qo‘shinlarining xarbiy va jismoniy tayyorgarligi

Adabiyotlar:

1. Xo‘jayev P. Meliyev P. Yunusova D.S. Jismoniy madaniyat tarixi T. Moliya 2011 y
2. Xo‘jayev P. Meliyev Abdumalikov R. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat va sport tarixi. 1993 y.
3. Botirov X.A. Jismoniy tarbiya va sport tarixi. T. “O‘qituvchi” 1993 y.

## VII- BOB BIRINCHI JAXON URUSHI

### 7.1. Urushning boshlanishi. 1914 yil kampaniyasi. Germaniyaning yashindek tez urush olib borish rejasining barbod bo'lishi. Birinchi jaxon urushining sabablari.

1914-1918 yillardagi birinchi jaxon urushi dunyoning ko'pgina davlatlarini qamrab oldi, unga 1,5 milliard kishi jalb qilindi. Qurolli kurash zamonaviy qurol-yarog' va turli-tuman texnika bilan qurollangan ko'psonli armiyalarning kuchlari bilan olib borildi. Urush davrida 70 mln dan ortiq kishi safarbar etildi.

1914-1918 yillardagi urush o'z masshtabi bo'yicha juda keng, olib borish san'ati bo'yicha yangicha bo'ldi. Unda qurolli kurashning zamonaviy qonuniyatlari, yangicha usullari va shakli yaqqol namoyon bo'ldi. Uning nazariy va amaliy e'tibori xam Shundadir.

Urushning asosiy sababi rivojlangan davlatlarning notekis rivojlanishi, dunyoni bo'lib olish uchun ular o'rtasida munosabatlarning keskinlashuvi bo'ldi. Qarama-qarshilik ayniqsa, Angliya va Germaniya o'rtasida, Germaniya va Fransiya o'rtasida, Rossiya va Germaniya o'rtasida juda oshib ketdi. Urushga tayyorgarlik, uning boshlanishidan ancha avval chuqur sir saqlab boshlangan edi. 1-jadval

**1 jadval**

Davlatlar	Axoli soni			Harbiy ishga majbur bo'lgan kishilar (ming kishi)			
	Xamma si bo'lib	Mustaml akalarda	metropol iyada	Kadr armisi (tinchlik davrida)	Safar barlik tugaganidan keyin	Harbiy ishga o'rgatilganlar	Xamma si bo'lib safarbar etilganlar
<b>Antanta davlatlari</b>							
Rossiya	16940	33200	136200	1360	5338	5650	19000

	0						
Fransiya	95100	55500	39600	811	3781	5067	8195
Angliya	44000	393000	46500	172	658	1203	9496
	0						
Jami:	70450	482200	222300	2343	9777	11920	36691
	0						
<b>Markaziy davlatlar</b>							
Germaniya	77200	12300	64900	788	3840	4900	13250
a							
Avstriya	52800	-	52800	410	2500	3000	9000
Vengriya							
Jami:	13000	12300	117700	1198	6340	7900	22250
	0						
Antanta	57450	469900	104600	1145	3437	4020	14441
foydasida	0						
gi farq							

1879 yilda Germaniya Avstriya-Vengriya bilan Rossiya va Fransiya qarshi qaratilgan arbiy ittifoq tuzdi, unga 1882 yilda Italiya qo'shildi. Shu bilan Germaniya, Avstriya-Vengriya va Italiyaning harbiy siyosiy blegi-Uchlik ittifoqi yaratildi. Bunga javoban 1891-1893 yillarda Rossiya va Fransiya o'rtasida Rossiya-Fransiya blegi tuzildi. 1904 yilda Angliya Fransiya bilan bitim tuzadi (Angliya-Fransiya Antantasi, ya'ni fransuzchada «entente»-«keliShuv» ma'nosini bildiradi), 1907 yilda esa u Rossiya bilan Shunday bitim tuzdi. Shu bilan 1907 yilda Uchlik ittifoqiga qarshi Angliya, Fransiya va Rossiya blegi tuzilib, Antanta deb nomlandi.

Ikkala gurux xam bir-birovlari o'rtasida shiddatli kurashni boshlab, urushga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Bolqon qat'iy kurashlar platsdarmiga aylanib, bu erda



Rossiya va Avstriya-Vengriyaning manfaatlari to‘qnash keldi. Asta-sekin urushga mustamlakalar va metropoliyalardan tashqari 33 ta mamlakat kirdi.

Urushning asosiy aybdori Germaniya, Evropada o‘z xukmronligini ta’minlashga, Angliya va Fransiyadan mustamlakalarini, Rossiyadan-Polsha, Ukraina va Boltiqbo‘yini tortib olishga va Bolqonda mustaxkamlanib olishga intildi.

Angliya o‘zining mustamlaka monopoliyasini saqlab qolishni va urushda o‘zining asosiy raqibi Germaniyani yanchib tashlashni maqsad qilib qo‘ydi. Fransiya 1870-1871 yillardagi urushda chekkan mag‘lubiyati uchun o‘ch olishga va o‘shanda Germaniyaga o‘tgan Elzas va Lotaringiyani qaytarib olishga qaror qildi. Rossiya podsho xukumati Qora dengiz bo‘g‘ozlarini bosib olishga va Bolqonda o‘z ta’sirini mustaxkamlashga intildi.

Armiyalarning jangovar tayyorgarligi. Urush boshida odamlar zaxirasi va kadr armiyasining soni bo‘yicha ustunlik Antanta tomonida bo‘ldi (1 jadval). Urush davomida Antanta o‘z armiyalarining son jixatdan ustunligini saqlab qoldi.

Rossiya, Fransiya, Germaniya va Avstriya-Vengriya armiyalari, *yirik kadr armiyasi* va ko‘p sonli harbiy *ta’limga o‘rgatilgan odamlar zaxiralarini* ta’minlashga imkon beruvchi *umumharbiy majburiyat* asosida to‘ldirildi. Angliya armiyasi ko‘ngillilarni yollash asosida to‘ldirildi.

Ikkala koalitsiyalarning xam quruqlikdagi armiyalarining tashkiliy tarkibi ko‘p tomonlari bilan o‘xshash bo‘ldi. Armiya korpusi ikkita piyodalar diviziyalaridan, korpus artilleriyasidan (divizion, polk), 3-7 ta samolyotlarni o‘z ichiga olgan aviaotryaddan, kavaleriya polkidan (bo‘linmalaridan) muxandislik qo‘shinlari va aloqachilar bo‘linmalaridan tashkil topgan. Piyodalar diviziyasi ikkita polkli (polkda 3-4 batalon, piyodalar batalonida-4 rota) ikkita brigadadan, bitta kavaleriya brigadasidan, sapyor va sanitar bo‘linmalaridan tashkil topgan.

Piyodalar birlashmalari, qismlari va bo‘linmalarida odamlar soni qo‘yidagicha bo‘lgan: korpusda-43 mingdan-48 mingtagacha kishi, diviziyada- 16 mingdan-21 mingtagacha kishi.

Xisobli birlik xisoblangan batalon 1000 kishini o‘z ichiga olgan. Rotalarda 200-250 (Angliya armiyasi rotalarida-100 kishi) kishi bo‘lgan.

Kavaleriyada oliy taktik birlik 2-3 kavaleriya diviziyalarini (4-4,2 ming kishi, Angliya armiyasida 9 ming kishi) olgan korpus xisoblangan, diviziya 4-6 polklardan, polk 4-6

eskadronlardan tashkil topgan. Artilleriya brigadalarga, polklarga, divizionlarga va batareyalarga bo'lingan.

Armiya oliy brikma xisoblangan, u 3-6 korpuslardan va bitta yoki bir-nechta kavaleriya diviziyalaridan (1-2 kavaleriya korpuslaridan) tashkil topgan.

Evropa armiyalarida bir xil turdagi qurol-yarog'lar va tashkiliy tarkibga ega bo'lgan, ammo bunda ularning birlashmalari ma'lum darajada bir-birovlaridan farq qilgan. Nemis korpuslarida, boshqa armiyalarga qaraganda ancha ko'p og'ir artilleriya bo'lishi ko'zda tutilgan. Ruslarning dala qismlarida artilleriyaning soni kamroq bo'lgan, chunki ruslar artilleriyasining ancha qismi qal'alarda qoldirilgan edi.

Xamma armiyalar o'zgaruvchan traektoriya bo'ylab otuvchi dala artilleriyasiga tayandilar.

## **7.2.Germaniya korpusining tashkiliy tarkibi**


Podsho Rossiyasi qo'shinlari armiyalarni o'z ichiga olgan *front birlashmalariga* bo'linib urushga kirdi. Boshqa davlatlar armiyalari bosh qo'mondonga bo'ysungan *armiya guruxlariga (frontlar)* birlashtirildi.

Front orti xizmati (intendent, artilleriya va muxandislik ta'minoti, sanitar va veterinar ta'minoti) ancha qo'pol bo'ldi va murakkab tashkiliy tartibga ega bo'ldi. Qurol-yarog' va o'q-dorilar bilan ta'minlash qat'iy markazlashgan xolda davlat ta'minlov organlari tomonidan amalga oshirildi.

Birinchi jaxon urushi arafasida urushlar texnik negizida katta o'zgarishlar bo'ldi. Armiyani *motorlashtirishning* tezkor jarayoni kuzatildi, urush dalalarida *o'zi xarakatlanuvchi tizimlarga* o'tish, dvigatellar, zarba berish vositalari va transport vositalari qudratining oshishi xam ko'zga tashlandi. Snaryadlar va turli jangovar mashinalarning tezligi, ularning qudrati va zarbdor kuchi oshirildi. Qo'shinlar keng masshtabda *avtomatik qurollar* bilan ta'minlana boshlandi. XIX asr 80-yillarining boshlarida pulemyotlar, keyin esa avtomatik vintovkalar joriy etildi. XX asr boshida ushbu qurollar ancha takomillashtirildi.

1897-1906 yillarda Evropa armiyalarining otish sur'ati oshirilgan engil dala artilleriyasiga (75-76 mml) o'tishlari boshlandi. Yopiq o't ochish pozitsiyalaridan otish muammosi xal qilindi. Germaniya armiyasida og'ir gaubitsa artilleriyasi keng tarqaldi, keyinchalik *minomyotlar* xam ommaviy kirib kela boshladi.

1911-1912 yillardagi Italiya va Turkiya o'rtasida bo'lib o'tgan urush samolyotlar ishtirok etgan birinchi urush bo'ldi, samolyotlar bu urushda razvedka ishlarini olib borish va bombardimon qilish uchun qo'llanildi.



Birinchi jaxon urushidan oldin Evropaning barcha etakchi armiyalari pulemyotlarga ega bo'lganlar, Shu jumladan Angliya armiyasida Vickers pulemyotlari (1909 yil namunasidagi, chapda), Fransiya armiyasida Gochkis pulemyotlari (1914 yil namunasidagi, o'ngda) bo'lgan.

*Avtomobil transportidan* keng foydalanila boshlandi. Armiyalarda avtomobillar juda ko'plab qo'llanila boshlandi (rus-yapon urushida ushbu davlatlarning armiyalarida avtomobil bo'lmagan).

*Asosiy texnik aloqa vositalari* takomillasha boshladi: telegraf, telefon va radio.

Urush teatrlarida yangi qurol-yarog'lar va jangovar texnika bilan ta'minlangan ko'p millionli armiyalarning kirib kelishi, ularning xarakatchanligi, o't va zarba qudratining oshishi xujum va mudofaa usullari va shakllarini o'zgarishiga olib keldi.

Harbiy xarakatlar frontal to'qnashuvlar bilan cheklanib qolmadi. Ular urush olib boruvchi tomonlarning yaqin masofadagi front ortini nafaqat quruqlikdagi va dengizdagi kuchlar bilan, balki aviatsiya bilan xam qamrab ola boshladilar.

Agar avval harbiy san'at ikkita bir-birovi bilan bog'liq soxa-strategiya va taktikaga bo'lingan bo'lsa, endilikda uning asosiy tarkibiy qismlari xisoblangan strategik va taktik san'atdan tashqari *operativ san'at* xam bo'lib, uning asosiy predmeti *front va armiya operatsiyalarini* tayyorlash va olib borishdan iborat bo'ldi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi urushlarda urush olib boruvchi davlatlar armiyalari frontlarga yoyilgan. Frontlarning uzunligi oshdi va u taktik jixatdan bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan bir-nechta kurash o'choqlariga bo'lindi. Dushmanni tor-mor etish vazifasi bir vaqtda yoki turli vaqtda olib boriladigan janglarda xal qilinishi mumkin bo'ldi.

Operativ yoki strategik maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan operativ birlashmalar yoki qurolli kuchlarning bir-nechta turlari bilan yagona reja bo'yicha olib borilgan janglar yig'indisi-operatsiya xisoblanadi.

Jangning muvaffaqiyati xamma qo'shin turlarining xarakatlariga (umumqo'shin jangiga) bog'liq bo'lib qoldi.

Xamma davlatlar armiyalarida u yoki bu darajada o't ochib zarba berishning oshgan ahamiyatiga, ayniqsa, pulemyotlar o't zarbasiga, artilleriyaning piyodalar bilan aloqasiga, yakka ta'limga, jangovar tartibda jangchining faol xarakatiga katta e'tibor berildi.

Jangovar tartib o'zining tarqoq safga (zanjirga) va chuqur zaxiralarga bo'linishida umumiy o'xshashlik kasb etdi. Xujum zanjirlar bilan olib borildi va zaxiralar tomonidan to'xtovsiz qo'llab-quvvatlandi. Piyodalar xujumining maqsadi qat'iy zarba berishdan iborat bo'ldi. Piyodalar atakaga zich omma bo'lib tashlangan va artilleriya qo'llab-quvvatlovi uning orasida bo'lmagan.

Asosiy yoki bosh mudofaa chizig'i tayanch punktlaridan (okoplar, balandliklar va boshqalar)

iborat bo'lgan, ularning oralig'idagi bo'shliqlar o't zarbasi bilan to'silgan; chiziqlarning oldida ilg'or, mudofaa chuqurligida-front orti istexkomlari (punktlar, pozitsiyalar) yaratilgan.

Urush rejaları (40 karta). Germaniya urush rejasi (<sup>1</sup>SHliffen rejasi) urushni qisqa muddatlarda tugatishga asoslandi.

Germaniya qo'shinlari xarakatlari, birinchi galda Fransiyani tor-mor etishga qaratildi, reja bo'yicha unga asosiy qaqshatqich zarbani berish ko'zda tutildi.

Avvalboshda Rossiyaga qarshi Avstriya-Vengriya qo'shinlari bilan birga Germaniyaning cheklangan kuchlari tashlanishi kerak edi. Fransiya tor-mor etilganidan keyin Germaniya qo'shinlarini Rossiyaga qarshi qat'iy xarakatlar uchun Sharqqa tashlash rejalashtirildi. SHliffen ikkita frontda uzoq urush olib borishdan o'zini chetga olishga xarakat qildi va uning rejasi Fransiyaga birinchi tezkor va qaqshatqich zarbani berishga asoslandi.

Fransiyaga birinchi tezkor va qaqshatqich zarbani berish uchun Germaniya qo'shinlarining asosiy kuchlari, 7 ta armiya (40,5 ta dala va zaxira korpuslari, 11 kavalariya diviziyasi va birlashmalari) Fransiyaga qarshi tayyorlandi va ular Gollandiya chegarasidan

Mets qal'asigacha bo'lgan xududda qudratli o'ng qanot zarbdor guruxini tashkil etdi. Germaniya qo'shinlarining chap qanoti Fransiya armiyalarini Belgiya orqali, Fransiya-Germaniya

Shliffen-1891 yildan 1906 yilgacha Germaniya bosh shtabi boshlig'i lavozmida xizmat qilgan. SHliffen to'g'risida 3.5-bobda to'liq yozilgan.

chegarasi va Fransiyaning shimoliy departamenti bo'ylab aylanib o'tishi va ularni qurshab olishi kerak edi. Fransiyaning tor-mor etish bitta operatsiyada 6 hafta mobaynida (40 kun) amalga oshirilishi ko'zda tutildi.

### **7.3. Birinchi jaxon urushi boshida mudofaa qurilishi chizmasi.**

Sharqda Rossiyaga qarshi Germaniya qo'shinlari Avstriya-Vengriya qo'shinlari bilan birgalikda avval boshda rus qo'shinlarini ushlab turishlari, keyin esa Fransiya yakson etilganidan keyin asosiy kuchlarni rus armiyalarini tor-mor etish uchun olib kelishlari kerak edi.

Sharqiy Evropa (Rossiya) frontida Sharqiy Prussiyada nemislar 10 diviziya va 7 brigadani (zaxira va landver qismlari) tayyorladilar. Avstriya-Vengriya Rossiyaga qarshi 4 armiyani, Serbiyaga qarshi 2 armiyani qarshi qo'ydi (Bolqon frontida).

Germaniya rejasi o'z kuchlari va imkoniyatlarini xaddan ziyod baxolashga xamda Fransiya va Rossiyaning kuch va imkoniyatlarini past baxolashga asoslandi. Germaniya rejasi Angliyaning rolini xam xisobga olmadi.

Fransiya Germaniya chegarasida beshta armiyani tayyorladi, ular ikki yo'nalishda zarba berishni xisobga olib yoyilishi kerak edi: Sharqda (Elzas va Lotaringiyada) va shimoliy Sharqda (Germaniyaning Belgiya orqali aylanib o'tishiga qarshi).

Rossiyaning urush rejasi bir vaqtning o'zida Germaniya va Avstriya-Vengriyaga qarshi xarakatlarni olib borishni ko'zda tutdi. Shuning uchun rus armiyalari Avstriya-Vengriyaga qarshi Galitsiyada (33,5 ta dala piyodalari, 13 ta ikkinchi darajali dala va 18,5 ta kavaleriya diviziyalari) va Germaniyaga qarshi Sharqiy Prussiyada (19 dala piyodalari, 11 ta ikkinchi darajali va 9,5 ta kavaleriya diviziyalari) yoyildi.

Urushning boshlanishi. Germaniya qo'shinlarining Belgiya va Fransiya bostirib kirishi. Germaniya birinchi bo'lib urushga tayyorgarlik ko'rishni boshlagan edi. Germaniya raqiblarining urushga tayyorgarlikning oxiriga etkazmaganliklaridan kelib chiqadigan strategik qulay sharoitdan foydalanishi kerak edi. Birinchi jaxon urushi boshlanishining

baxonasi bo‘lib, 1914 yil 14 iyunda Serbiya chegarasi yaqinida Saraevoda Avstriya taxtining vorisi ersgersog Frans Ferdinandning o‘ldirilishi xizmat qildi. Avstriya-Vengriya Serbiyaga ultimatum taqdim etdi, 28 iyulda, ersgersogning o‘limidan bir oy o‘tgach urush e‘lon qildi va Belgradni bombardimon qildi. Serbiyaning ittifoqchisi bo‘lgan Rossiya umumiy safarbarlik e‘lon qildi. 1 avgustda Germaniya Rossiyaga, 3 avgustda-Fransiya va Belgiyaga (Germaniya qo‘shinlarini o‘z xududidan o‘tkazish to‘g‘risidagi ultimatumni rad etganidan keyin) urush e‘lon qildi. Angliya, Germaniyadan Belgiya betarafligini saqlash to‘g‘risidagi talabga rad javobini olganidan keyin, 4 avgustda Germaniyaga urush e‘lon qildi. Belgiya, Serbiya va Chernogoriya Antanta tomonida qoldi. Birinchi jaxon urushi boshlandi.

Urush boshlanishi bilan unga ishtirok etayotgan davlatlarda safarbarlik, qo‘shinni jamlash va yoyish (strategik guruxlarni yaratish) boshlandi. Safarbarlik va qo‘shinni jamlash Germaniyada 17 avgustda, Fransiyada 18 avgustda tugatildi. Qo‘shinni strategik yoyish asosan urush e‘lon qilinganidan keyin amalga oshirildi va chegara yaqiniga keltirilgan qo‘shinning ximoyasida o‘tkazildi.

G‘arbiy Evropa harbiy xarakatlar teatrda Germaniya qo‘shinlari 1 mln 600 ming kishilik, 4500 ta engil va 500 tadan ortiq og‘ir orudiyalarga ega bo‘lgan 7 armiyani Belgiya, Lyuksemburg va Fransiya chegarabo‘ylarida, Axendan YUqori Reyngacha bo‘lgan 380 kilometrli frontda yoydi. Metsdan shimolda front bo‘ylab 200 kilometrda kuchlarning 2G‘3 qismi joylashdi. 1 mln 100 ming kishi zarbdor qanotni tashkil etdi (41 karta).

Germaniya armiyalariga bosh qo‘mondonlikni general-polkovnik **Kichik Moltke** (1861-1888 yillarda Prussiya armiyasi bosh shtabi boshlig‘i lavozimida faoliyat yuritgan Moltkening jiyani) o‘z qo‘liga oldi, imperator (kayzer) Vilgelm II nomiga bosh qo‘mondon edi.

O‘z safida 5 armiya va bir-nechta diviziya guruxlari bilan 1 mln 325 ming kishiga ega bo‘lgan Fransiya qo‘shinlari, Belgiya va Vogeza boshlangan janglar sharoitida yoyildi. Fransiya armiyalari bosh qo‘mondoni etib **general Joffr** tayinlandi.

Belgiya armiyalarida qo‘shinning umumiy soni 175 ming kishiga etdi. Fransiyaga tushirilgan *Angliya ekspeditsion korpusi* 70 ming kishini o‘z safiga oldi (qo‘mondoni feldmarshal French).

G'arbiy Evropa harbiy xarakatlar teatrida xar ikkala tomondan 3 mln dan ortiq jangchilar yoyildi (xar ikkala tomondan teng sondagi qo'shinlar). Ammo nemis qo'shinlarining asosiy ommasi bosh zarba berish yo'nalishida ustunlikka erishgan edi.

1914 yil 2 avgustda Germaniya armiyasi Lyuksemburni egalladi, 4 avgustdan Belgiyaga bostirib kirishi bilan G'arbiy Evropa harbiy xarakatlar teatrida urush xarakatlarini boshlab yubordi.

Germaniya qo'shinlari Belgiyada kuchli qarshilikka uchradi. O'z qal'alariga (Lej, Namyur va boshqalarga) tayangan Belgiya qo'shinlari bosqinchilar bilan shiddatli janglarni olib bordi. Germaniyaliklar Belgiyaga bostirib kirganlaridan keyin fransuzlar o'z qo'shinlarini qayta to'play boshladilar va Lotaringiyada xujum xarakatlarini sustkashlik bilan olib bordilar. 21-25 avgustlarda Belgiya va Fransiya chegaralarida Germaniya va Fransiya qo'shinlari o'rtasida chegarabo'yi jangi bo'lib o'tdi. CHegarabo'yi jangimasshtabi bo'yicha keng ko'lamlı strategik operatsiya bo'lib, unda 9 armiya (5 Germaniya, Fransiya va 1 Angliya armiyalari) ishtirok etdi. Jang qarama-qarshi jang tusini oldi. Xar ikkala tomon xam xujum xarakatlarini olib bordi. Bu strategik jangda turli-tuman texnika bilan jixozlangan soni bo'yicha ulkan armiyalar ishtirok etdi. Front o'nlab kilometrlarga cho'zilib ketdi. CHegarabo'yi jangi strategik operatsiya xisoblanib, o'z navbatida armiyalar tomonidan ularning rayonlarida o'tkaziladigan bir-nechta operatsiyalardan iborat bo'ldi.

CHegarabo'yi jangi Germaniya armiyalariga g'alaba keltirdi va YUqori SHeldidan to Lotaringiyagacha butun front bo'ylab chekingan Fransiya armiyasiga mag'lubiyat keltirdi. Nemislar qamrab olish va manyovr qilish ustunligiga ega bo'ldilar. Ular kuchlar bo'yicha o'ng qanotda katta ustunlik yaratdilar va artilleriya bo'yicha, ayniqsa og'ir artilleriya bo'yicha ustunlikka ega bo'ldilar, qarama-qarshi jang olib borishga yaxshi tayyorlangan edilar.

Lekin strategik xujum imkoniyatiga ega bo'lib, ular qat'iy g'alabaga erisha olmadilar-fransuz qo'shinlarining chap qanotini yanchib tashlay olmadilar. Fransuzlar oxirigacha tormor etilmadilar, lekin mag'lubiyatga uchradilar va kuchsizlangan xolda chekinishga majbur bo'ldilar. O'z vaqtida va moxirlik bilan chekinish fransuzlarga armiyalarini saqlab qolish imkonini berdi.



### **Germaniya o‘qchilar zanjirining atakasi.**

Germaniyaning Fransiya armiyasini ta‘qib etish rejasi chegarabo‘yi janglari natijasini xaddan ortiq baxolash va dushmanning kuch va imkoniyatlarini past baxolashga asoslandi. Moltke, o‘ng qanot o‘z ishini bajardi, uni kuchaytirish kerak emas, degan fikrga keldi. 26 avgustda Moltke Fransiya frontidan ikkita korpusni echdi va ularga Sharqiy frontga (rus frontiga) etib borishni buyurdi. Yana bitta korpus Mets rayonida ushlanib qoldi. Bundan tashqari, Antverpenga xujum qilish uchun ajratilgan ikkita korpus Marnaga va bitta korpus Mobejga qarshi xujum qilmadi. Bu og‘ir oqibatlariga olib kelgan yirik strategik xato bo‘ldi.

Joffr o‘zining chap qanotiga zarbdor guruxni yaratishga qaror qildi. U chegarabo‘yi jangidagi mag‘lubiyatga qaramasdan qo‘shinni ustalik bilan qayta to‘pladi. Uning qo‘l ostida zaxirasi yo‘q edi, lekin u nemislarning ochiq qolgan qanotida yangi armiyani yaratish uchun temir yo‘llar orqali frontning boshqa uchastkalaridan qo‘shinni olib kelishga muvaffaq bo‘ldi.

Fransiya 5-armiyasining faol xarakatlari va o‘ng qanotning kuchsizlanishi 1-Germaniya armiyasini o‘z rejasidan voz kechishga va o‘z qanotini ochiq qoldirib Parijning Sharqrog‘ida xujum qilishga majbur etdi. Fransiyaning yangi 6-armiyasi dushmanning o‘ng qanotiga xavf soldi. Joffr uchta armiyadan (6-va 5-Fransiya armiyalari va bitta Angliya armiyasidan) chap qanot zarbdor guruxini yaratdi.

Sena va Maas daryolari bilan chegaralangan Parij va Verden oralig‘idagi uchastkada 5-9 sentyabr kunlarida yirik qarama-qarshi jang boshlanib ketdi, unda xar ikkala tomondan 2 milliondan ortiq kishi ishtirok etdi (6 Angliya-Fransiya va 5 Germaniya armiyalari), bunda ittifoqchilarning zarbdor chap qanoti qo‘shin soni bo‘yicha asosiy zarba berilishi kerak bo‘lgan dushmanning o‘ng qanotidan ortiq edi.

Aylanib o‘tayotgan nemis qanotlarining o‘zi aylanib o‘tildi. Ittifoqchilarning aylanib o‘tayotgan qanotining faol xarakatlari natijasida 1- va 2-Germaniya armiyalari oralig‘ida



bo'shliq xosil bo'ldi. Xavo razvedkasi Germaniya armiyalari oralig'idagi bo'shliqni aniqlaganidan keyin, markaz Britaniya ekspeditsion korpusi kuchlari bilan yorib o'tildi. Inglizlar va 5-Fransiya armiyasi chap qanot qo'shinlarining yaratilgan bo'shliqqa yorib kirishlari, Germaniyaning 1- va 2-armiyalarini, keyin esa qolgan armiyalarini En daryosiga chekinishga majbur etdi. Marna daryosi bo'yidagi jang nemislarning mag'lubiyati va SHliffen rejasining barbod bo'lishi bilan tugadi. Bu jang Germaniyaning yashindek tez va yakson qilish rejasining asossiz ekanligini ko'rsatdi.

Chegarabo'yidagi jangdan keyin Germaniya zarbasining markazi qanotdan markazga ko'chirildi. Belgiyaga qarshi 27 korpus xujum qilgan bo'lsa, Marnaga 21 korpus xujum qildi. 1- va 2- Germaniya armiyalari oralig'ida yaratilgan bo'shliqni yopish uchun operativ zaxiralar yo'q edi.

Fransiya bosh qo'mondonligi o'zining o'ng qanoti qo'shinlarini kuchaytirdi va jangning borishini mukammal boshqardi.

Yirik kuchlarni tezkorlik bilan manyovr qilish keng tarmoqli temir yo'llar orqali amalga oshirildi. Fransuzlar qo'shinni Parijdan 6-armiya frontiga tashib keltirish uchun avtomobil transportini qo'lladilar. Buning uchun 1200 ta Parij taksilaridan foydalanildi. Shu bilan *avtomobillar bilan tashish* ishlariga asos solindi.

Nemislar ittifoqchilar qo'shinlarini En daryosi qirg'oqlarida to'xtatib qolishga muvaffaq bo'ldilar. En daryosi bo'yidagi janglarda xoldan toygan tomonlar mudofaaga o'tdilar va kurashning pozitsion shaklini boshlab berdilar.

Uza daryosi bilan Shimoliy dengiz o'rtasidagi 200 kilometrli oraliq qo'shinlar tomonidan egallanilmay qoldi. «Dengizga qochish», ya'ni-ikkala tomonlarning, 16 sentyabrdan 15 oktyabgacha olib borilgan ochiq qanotlardagi operatsiyalari boshlandi. «Dengizga qochish»-aylanib o'tish operatsiyalarining keng qo'llanilganligi timsoli bo'ldi. Tomonlarning bir-birovlarini aylanib o'tishga intilishlari frontning cho'zilib ketishiga, yangi pozitsion chiziqlarning yaratilishiga olib keldi. Front dengiz qirg'oqbo'ylariga etganda «dengizga qochish» tugadi.

G'arbiy frontda urushning manyovrli davri tugadi, Flandriya qirg'oqbo'ylaridan SHveysariya chegarasigacha bo'lgan oraliqda 700 kilometrli pozitsion front yaratildi. Raqiblar okoplar qazib yashirindilar va ularni tikanli simlar bilan o'rab oldilar. Germaniya strategiyasining muvaffaqiyatsizligi va Marna jangidagi mag'lubiyat uchun kichik Moltke

iste'foga bo'shatildi. 1914 yil sentyabrda Germaniya bosh shtabining yangi boshlig'i etib general E. Falkengayn tayinlandi.

#### **7.4.Sharqiy frontdagi operatsiyalar.**

Avval Fransiyada qat'iy natijalarga erishishga qaror qilgan nemislar, Sharqda minimal sondagi qo'shinni qoldirdilar.

Germaniya qo'mondonligining fikricha SHliffen rejasini amalga oshirishning muxim sharti, temir yo'llar tarmoqlarining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq rus armiyalarining past safarbarlik imkoniyatlari bo'ldi. Boshda Sharqda urushning asosiy qiyinchiligini Avstriya-Vengriya boshdan kechirishi kerak edi. Germaniya qo'shinlarining minimal kuchlari rus qismlari tomonidan Sharqiy Prussiyani bosib olishlaridan mudofaa qilishlari kerak edi.

Rus qo'mondonligi avval Avstriya-Vengriyaga qarshi faol xarakatlarni olib borishni, Germaniyaga qarshi esa jangovar xarakatlarni safarbarlik tugatilganidan keyin olib borishni rejalashtirdi. Lekin G'arbiy urush teatrlarida yuzaga kelgan vaziyat va ittifoqchilarning iltimoslari rus qo'shinlarini, ularning ittifoqchisi bo'lgan fransuzlarga nemislarning xamlasini kuchsizlantirish uchun Sharqiy Prussiyaga bostirib kirishlarini tezlashtirdi. Shunday qilib, urush boshida Sharqiy urush xarakatlari teatrida strategiya, G'arbiy urush xarakatlari teatri voqealariga bog'liq bo'lib qoldi.

Ruslarning 1-va 2-armiyalari kechikmasdan safarbar etildi va Sharqiy Prussiyada 8-Germaniya armiyasi ustidan son jixatdan ustunlikka erishdi. Ruslarning ikkita armiyasi o'z safida 17,5 piyodalar va 8,5 kavaleriya diviziyalariga, 1104 ta to'plarga ega bo'ldi. Nemislarning 8-armiyasi 15 piyodalar, 1 ta kavaleriya diviziyalariga va 1044 ta to'plarga ega bo'ldi. 4 (17) avgustda 1-rus armiyasi xujumga o'tdi va nemislarning 8-armiyasiga zarbalar berib talofatlar etkazdi. Nemislar sarosima bilan o'z qo'shinlarini Vislaning ortiga o'tkaza boshladilar. Germaniya qo'mondonligi 8-armiya qo'mondoni etib iste'fodagi general Gindenburgni, shtab boshlig'i etib general Lyudendorfnı tayinladi.

Muvaffaqiyatli jangdan keyin to'xtab qolgan 1-rus armiyasining (qo'mondoni general Rennenkampf) faoliyatsizligidan foydalangan Germaniya armiyasi qo'shinni qayta to'pladi (43 karta). Ruslarning 1-armiyasiga qarshi kuchsiz to'siq yaratib, nemislar asosiy e'tiborni general Samsonov qo'mondonligidagi 2-armiyaga qaratdilar. Bir-biriga tomon ikkita zarba berib nemislar ruslar armiyasining ikkala qanotini tor-mor etdilar, markazni qurshab oldilar

va butun armiyani yakson etdilar. 2-rus armiyasining magʻlubiyati bilan tugagan **Tannenberg** jangi, bu urushda Germaniya armiyasining eng yirik gʻalabasi boʻldi. Ruslarning 100 ming askari asirga tushdi.

Gʻarbiy frontdan etib kelgan ikkita korpus bilan kuchaytirilgan nemislar, oʻz eʻtiborlarini endi sust xujum qilayotgan ruslarning 1-armiyasiga qaratdilar va uni Sharqiy Prussiyadan siqib chiqardilar. Bu janglar natijasida ruslar chorak million askarlarini yoʻqotdilar. Ammo ruslarning Sharqiy Prussiyaga bostirib kirishi nemislarni gʻarbdan ikkita korpusni olib keltirishga majbur etdi, bu oʻz navbatida fransuzlarga Marnada gʻalabaga erishishda oʻz rolini oʻynadi.

Bu xol Germaniyaning yashindek tez urush olib borish rejasining barbod etilishiga olib keldi. Germaniya ikki frontda urush olib borishga majbur boʻldi, bunda Antantaning zaxiralari, ayniqsa Angliyaning urushga kirishi bilan gʻalabaga erishishda muxim ahamiyat kasb etishi kerak edi.

Galitsiyada avstriyaliklarga qarshi jangovar xarakterli harakatlar rus armiyasi uchun ancha muvaffaqiyatli boʻldi. Galitsiya jangi bir oy davom etdi (1914 yil 18 avgust-21 sentyabr) va ruslarning gʻalabasi bilan tugadi. Jang 300-400 kilometrli frontda Visla va Dnestr daryolari oraligʻida boʻlib oʻtdi. Xar ikkala tomonlardan unda toʻqqizta armiya ishtirok etdi: ruslarning beshta (4, 5, 3, 8, va 9-armiyalari) va Avstriya-Vengriyaning toʻrtta armiyasi (1, 4, 3 va 2-armiyalari). Xammasi boʻlib unda bir yarim milliondan ortiq odam ishtirok etdi.

Polshada Avstriyaning 1- va 4-armiyalarining xujumlari avvalboshda muvaffaqiyatli rivojlana boshladi. Lekin bu muvaffaqiyat 3- va 8-rus armiyalarining Avstriya qoʻshinlari asosiy guruxi oʻng qanotini yopib turgan, uncha kuchli boʻlmagan 2-va 3- armiyalariga qarshi berilgan qudratli zarbalari bilan barbod boʻldi. Bu armiyalar katta talofatlar koʻrib (26-30 avgustlarda), Lemberg (Lvov) ortiga chekindilar.

Lodz operatsiyasi, 1914 yil 11 noyabr-19 dekabr. Bu operatsiyada nemislar 2-rus armiyasini qurshovga olishga tayyorlandilar (Tannenbergning takrorlanishi), lekin oʻzlari qurshovga tushib qoldilar (Sheffer guruxi) va undan chiqib ketishga muvaffaq boʻldilar. qanoti front ortiga xavf tugʻdirdi. Avstriya qoʻmondonligi chap qanoti kuchlarining bir qismi bilan rus qoʻshinlari qanotiga zarba berishga urinib koʻrdi, lekin bu zarba qaytarildi. Keyin parokandalikka muhtalo boʻlgan Avstriya qoʻshinlari, ruslarning oʻng qanoti

yangitdan boshlagan xujumi tufayli dog‘da qoldi, ular 11 sentyabrda umumiy xujumni boshlashga majbur bo‘ldilar va sentyabr oxirida ortga, qariyb Krakovgacha chekindilar.

Avstriya-Vengriya qo‘shinlari katta mag‘lubiyatga uchradi, 400 minggacha odamlarini yo‘qotdi, ulardan 100 minggi asirga olindi va 400 ta to‘p safdan chiqdi, bu butun qo‘shin qismining qariyb yarmini tashkil etadi. Rus armiyalarining talofatlari xam anchagina bo‘lib, 230 ming kishini tashkil etdi.

Karpatda siqib qo‘yilgan Avstriya-Vengriya qo‘shinlari nemislardan yordam so‘rab murojaat qildilar.

Sharqiy Prussiyada nemis qismlarining katta qismi 9-armiyaga birlashtirilib, Polshaning janubiy-g‘arbga olib kelindi, bu erdan ular Avstriya qo‘shinlari bilan birgalikda Varshavaga xujum boshladilar. Ammo bu vaqtga kelib ruslar safarbarlikni oxiriga etkazdilar. Qo‘shinni qayta to‘plab va qarshi zarbalar berib, ruslar Avstriya-Germaniya qo‘shinlari xamlalarini qaytardilar va Sileziyaga bostirib kirish uchun yirik kuchlarini qayta to‘plab o‘zlari xujumga o‘tdilar.

Rus qo‘shinlari bosh qo‘mondoni **buyuk knyaz Nikolay** ettita armiyadan iborat yirik qo‘shin guruxini to‘pladi, vaxolanki ulardan uchta zarbdor guruxni tashkil etib, ularning qanotlarini ikkitadan armiyalar to‘sib turdi. Bundan tashqari, 10-armiya Sharqiy Prussiyaning Sharqiy burchagiga bostirib kirdi va u erda kuchsiz nemis qo‘shinlariga qarshi jang olib bordi.

Xavfni bartaraf etish uchun Sharqiy frontning qo‘mondonligi Gindenburg va Lyudendorfga yuklatildi, ular Germaniya chegarasi yaqinidagi temir yo‘llar tizimiga asoslangan moxirona manyovrlarni ishlab chiqdilar. 9-nemislar armiyasi rus qo‘shinlari xujumi ta‘sirida Polshadagi kuchsiz tashkil etilgan kommunikatsiyalarni doimiy ravishda buzib tashladi, Shu bilan ruslarning oldinga xarakatlarini qiyinlashtirdi. 9-armiya Sileziya chegaralariga etib kelganda, uni avval shimolga Poznan-Torun rayonlariga, keyin esa 11 noyabrda janubiy-Sharqqa, Vislaning g‘arbiy qirg‘og‘iga ruslarning o‘ng qanotini to‘sib turgan ikkita armiya oralig‘iga tashladilar. Suqulib kirgan nemis qo‘shinlari ikkita rus armiyalarini bo‘lib tashladilar, 1-rus armiyasini Varshavaga chekinishga majbur etdilar va 2-rus armiyasini Lodzda qurshab olish xavfini tug‘dirdilar. 2-rus armiyasi, zarbdor gurux safidan 5-armiyani ortga qaytarib qurshovdan qutilib qoldi. Natijada aylanib o‘tayotgan

nemis qo‘shinlarining bir qismi, o‘zlari ruslar uchun tayyorlagan qopqonga tushib qoldi, Shunga qaramay qurshovdan chiqishga va asosiy kuchlarga qo‘shilishga muvaffaq bo‘ldi.

Xafta mobaynida nemis qo‘shinlari xujumi Iprda muvaffaqiyatsizlikka uchragan G‘arbiy frontdan, Sharqiy frontga nemislarning to‘rtta yangi korpusi keldi. Ular ruslarni Varshavaning oldida Bzura va Ravka daryolari marralaridan siqib chiqarish uchun qo‘llanildilar. Undan keyin Sharqda xam G‘arbdagidek xar ikkala tomon pozitsion mudofaaga o‘tdi.

Turkiya va Yaponiyaning urushga kirishi. Urushning boshqa frontlaridagi jangovar xarakterlar. Boshlangan urush xarakterlariga yangi ishtirokchi davlatlar qo‘shildi. Yangi frontlar xosil bo‘ldi. 1914 yil noyabrda Turkiyaning urushga qo‘shilishi bilan Kavkaz, Dardanell, Suriya, Falastin, Suvaysh, Arab, Mesapotamiya frontlarini birlashtirgan Osiyo-Turkiya urush xarakterlari teatri yuzaga keldi. 23 avgustda Yaponiya urushga kirdi, uning urushdagi ishtiroki, Germaniyaning Uzoq Sharqdagi mustamlakalarini bosib olish bilan chegaralandi: Xitoyning SHandun yarim orolidagi Sindano qal‘asini; Tinch okeanidagi Korolin, Marian va Marshall orollarini. Germaniya Togo, Kamerun, Germaniya Janubiy-G‘arbiy Afrikasi, Germaniya Sharqiy Afrikasi kabi ulkan mustamlakalarga ega bo‘lgan Afrikada boshlangan urush xarakterlari 1914 yilda faqat Togoni egallanishiga olib keldi, Germaniya Janubiy-G‘arbiy Afrikasi 1915 yilda, qolgan mustamlakalari esa keyingi yillarda zabt etildi.

Bolqon urush teatrida Avstriya-Vengriya qo‘shinlari 1914 yilda serb qo‘shinlariga qarshi ikki marta xujumga o‘tdilar. 7 noyabrdagi ikkinchi xujum paytida ular Belgradni egalladilar. Ittifoqchilaridan orudiyalar va o‘q-dorilar olgan serb qo‘shinlari dushmanni o‘z xududlaridan uloqtirib tashladi.

Kavkaz frontida 1914 yil kampaniyasi, Sariqamish operatsiyasida turklar armiyasiga zarba bergan rus armiyasining muvaffaqiyati bilan tugadi.

Inglizlar Iroqning janubiga va Eronga uncha katta bo‘lmagan kuchlarini tashladilar va 1914 yilning oxirida Fors ko‘rfazida va Quyi Mesopotamiyada mustaxkam o‘rnashib oldilar. O‘z navbatida turklar 1914 yilning oxirida butun Sinay yarim orolini egalladilar va *Suvaysh kanaliga* yaqinlashib kela boshladilar.

Turkiyaning urushga kirishi Germaniya potensialini ancha kuchaytirib yubordi. Turkiya zaxiralari Germaniya iqtisodiyotini ta‘minlash uchun ishlatildi. Germaniya

Turkiyaga texnik yordam ko'rsatdi va harbiy maslaxatchilar berdi. Umumun olganda turk qo'shinlariga nemis ofitserlari qo'mondonlik qildilar.

O'zining geografik xolatidan kelib chiqib Turkiya Antanta davlatlariga katta xavf tug'dirdi. U Rossiyaga o'tadigan yagona muzlamaydigan yo'lni yopibdi va ruslarning bug'doy eksportini to'xtatib qo'ydi. Shu bilan birga turk qo'shinlari Kavkazga bostirib kirish va Britaniya imperiyasining muxim kommunikatsion chizig'i bo'lgan-Suvaysh kanalini bosib olish xavfini yuzaga keltirdilar. Urush davomida Rossiya va Angliya turk qo'shinlariga qarshi anchagina kuchlarini ajratishga majbur bo'ldi.

### **7.5. 1914 yil kampaniyasida harbiy san'at rivojlanishining asosiy xususiyatlari**

1914 yil kampaniyasining asosiy natijasi, Germaniyaning qisqa vaqt urush olib borish rejasining barbod bo'lganligi bo'ldi. Yo'l qo'ygan xatolari natijasida Germaniya ikki frontda urush olib borishga majbur bo'ldi. Angliyaning urushda ishtiroki Germaniyani *dengiz tomondan qamal qilinishiga* va davlatning xom ashyo va oziq-ovqat bilan ta'minlanishining sustlashishiga olib keldi.

Qurolli kurashga asosiy kuchlarning kirgunigacha bo'lgan urushning boshlanish davri safarbarlikni, qo'shin jamlanishini, armiyalarning yoyilishi va harbiy xarakatlarni qamrab oldi. 1914 yil kampaniyasida bo'lajak kurash rejalarining va urushning kengko'lamligiga bo'lgan qarashlarning asossizligi isbotlandi. Ular amaliyotda inkor etildi. YAshindek tez urush olib borishning o'rniga safarbar etilgan armiyalar uzoq urush olib bordilar, davlatning moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini, odamlar va moddiy zaxiralarini ishlatdilar. Uzoq vaqt davom etgan urush yirik ko'pmillionli odamlar zaxiralarini talab etdi. Urushning birinchi oylaridayoq moddiy vositalar, qurol-yarog'lar va o'q-dorilarning kamchilligi sezilib qoldi. Yig'ilgan zaxiralar faqat oz vaqtga etdi xolos.

Qurolli kurashning kengko'lamligi va miltiq-pulemyot, artilleriya o'ti zarbasi natijasida urush olib boruvchi tomonlar katta talofatlar ko'ra boshladilar. Kadr askarlari safdan chiqa boshladi, kichik va o'rta qo'mondonlik safi katta talofat ko'ra boshladi. Urush qatnashchilari zaxiralarning strategik tayyorgarligini boshladilar.

Marna jangi Germaniyaning tez urush olib borish strategiyasini va Fransiya armiyalarini qurshab olishga qaratilgan bosh jang rejasini buzib tashladi. G'arbiy Evropa urush teatrda noyabr o'rtalarida urushning manyovrchan davri tugadi va noyabr-dekabrda

uning pozitsion davri boshlandi. Xoldan toygan xar ikkala tomon armiyalari mudofaaga o‘tdilar. Raqiblar okoplar qazib yashirindilar va uzluksiz o‘z istexkomlarini takomillashtira boshladilar.

1914 yil kampaniyasiga bir va bir-nechta urush teatrlarida xarakat qilayotgan ittifoqchilar armiyalarida yagona qo‘mondonlik, aniq keliShuv yo‘q edi va xarakat muvofiqligi o‘rnatilmadi.

Qurolli kurash ko‘lamining oshishi, armiyalarning o‘zaro xamkorligini tashkil etishni qiyinlashtirgan keng frontlardagi harbiy xarakatlar armiyalarni boshqarishda o‘zgartirishlar kiritishni talab qildi. «*Stavka-armiya*» tamoyili bo‘yicha tashkil etilgan boshqaruv «*stavka-front (armiyalar guruxi)-armiya*» boshqaruvi bilan almashtirildi.

Pozitsion front o‘rnatilgungacha operativ manyovrning asosiy shakli, dushmanni qurshab olish va yakson etishga qaratilgan bitta yoki ikkita qanotlarni qamrab olish va aylanib o‘tish xisoblandi. Tannenbergdan tashqari tomonlardan birortasi xam dushman yirik guruxini qurshab olishga erisha olmadi. Buning sabablari quyidagilar bo‘ldi:

- xamma vaqt xam kuchlar bo‘yicha xal qiluvchi ustunlik yaratilmadi;
- muvaffaqiyatni rivojlantiruvchi eshelon va qudratli zaxiralar yo‘q edi;
- operatsiyani olib borish xarakatchan kuchlar bilan ta‘minlanmadi. Kavaleriya ommasi bu vazifani bajarishga tayyor emas edi.

Manyovrchanlik davri qarama-qarshi jang bilan xarakterlandi.

1914 yil kampaniyasidagi muxim operatsiyalar ko‘lami ularda yuz ming kishilardan iborat (Marna, Galitsiya operatsiyalari) yirik kuchlarning ishtiroki bilan xarakterlandi. Xujum chizig‘i kengligi 300-400 kilometrgacha, operatsiyalar chuqurligi Galitsiya jangida-200 kilometrga, Marna jangida-50 kilometrga etdi. Galitsiya operatsiyasi 33 kun davom etdi.

O‘t ochib zarba berishning, ayniqsa pulemyotlar zarbasining oshganligi qo‘shinning taktik xarakatlariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Piyodalar zich zanjirlarda xujum qila olmasligi tufayli joydan moxirlik bilan foydalanishi va okoplar qazib yashirinishi kerak edi. Xujumkor jangni olib borishda piyodalarga yo‘l ochib berish uchun xizmat qilgan artilleriya o‘t zarbasining roli beqiyos oshdi. YAqin masofada jang olib borish orudiyasi-minomyotlar (transheya artilleriyasi) birinchi marta nemislar tomonidan Leja, Antverpen (Belgiya) va Mobej (Fransiya) qal’asi janglarida qo‘llanildi.

1914 yil kampaniyasida aviatsiya razvedkani olib borish, artilleriya o'tini korrektirovka qilish va pozitsiyalarni suratga olish uchun qo'llanildi. Bomba tashlash kamdan-kam o'tkazildi.

Qo'shinni tashib keltirish uchun avtomobil transportidan foydalanildi.

Urushning pozitsion shakli muxandislik qo'shinlarining rolini oshganligini ko'rsatdi. Urushdan oldingi nizomlarda belgilangan aloxida tayanch punktlarida mudofaada turish o'zini oqlamadi. Qo'shinlar, bir-birovlarining ortida joylashgan, avval bitta, keyin esa ikkita va uchta transheyalar chizig'idan iborat bo'lgan transheya mudofaasini tashkil etdilar.

#### Pozitsion urushda transheya tizimining rivojlanishi

1914 yilda xamma armiyalar, xatto taktik tamoyillari xujumga asoslangan bo'lsa xam okoplar qazib yashirinishlari kerak edi. Jang maydonida «po'lat bo'ronlar» bilan to'qnash kelgan jangchilar o'z istexkomlarini takomillashtirishda davom etdilar va avgust oxirida G'arbiy frontdagi istexkomlar SHveysariya chegarasidan Atlantika qirg'oqbo'ylarigacha cho'zilgan umumiy uzluksiz transheyalar chizig'i ko'rinishida bo'ldi. Pana joylarga, aloqa yo'laklariga, o't ochish nuqtalariga ega bo'lgan ikkinchi va xatto uchinchi mudofaa chiziqlari yaratila boshlandi.

#### **7.6. 1915 yil kampaniyasi. Germaniyaning Sharqdagi xujumi.**

Urush boshida yuzaga kelgan vaziyat undagi ishtirokchilarning 1915 yilgi rejalarini belgilab berdi.

1915 yil kampaniyasini rejalashtirayotib, Angliya va Fransiya Germaniya ustidan kuch va vositalar bo'yicha ustunlik yaratilgan sharoitda g'alabaga erishish mumkinligini tushinib etdilar. Ularning umumiy rejaları strategik mudofaadan iborat bo'ldi. G'arbiy frontda Artua va SHampanida qisman qarshi xujum operatsiyalarini o'tkazish ko'zda tutildi. Bolqonda ancha faol xarakatlarni olib borishga qaror qilindi. Qora dengiz bo'g'ozlari va Konstantinopolni bosib olish uchun desant operatsiyasini o'tkazish rejalashtirildi.

Rossiya bosh qo'mondonligi qo'shinni yomon moddiy-texnik ta'minotiga qaramasdan, ikkita strategik yo'nalishda zarba berish rejasini qabul qildi: Sharqiy Prussiyaga va Karpat orqali Avstriya-Vengriyaga.

Antantadan farqli o'laroq, urushning uzoq davom etishi markaziy davlatlar blogi uchun manfaatli emas edi. 1915 yilgi Avstriya-Germaniya rejasi G'arbda faol mudofaani,



Sharqda esa, rus armiyasini yakson etish va uni imkon qadar davlat ichkarisiga uloqtirib tashlash maqsadida Germaniya va Avstriyaning Generallik qat'iy xujumlarini ko'zda tutdi.

1915 yilgi G'arbiy frontdagi jangovar xarakatlar. G'arbda 1914 yil noyabrida boshlangan pozitsion urush uni olib borishning yangi usullari va shakllarini ishlab chiqishni talab etdi.

Nemislar, yorib o'tishni yopishi mumkin bo'lgan qudratli zaxirasiga tayanib o'z artilleriyasi uchun kuzatishga qulay bo'lgan joylarni ximoyasiz qoldirdi va dushman tomonga qaragan qiyaliklarda transheyalar yaratdi.

1915 yil 22 aprelda Germaniyaning 4-armiyasi Ipr yaqinidagi ingliz-fransuzlar pozitsiyalariga qarshi birinchi marta *gazballonli atakani* (ular xlor gazi bulutini chiqardilar) qo'lladi. Xlor gazi bilan 15 ming kishi zararlandi, ulardan 5 ming kishi xayotdan ko'z yumdi.

Bu birinchi bor ommaviy qirg'in qurolini keng masshtabda qo'llanilishi bo'ldi. Iprdan keyin ikkala tomon xam gazlarni qo'llay boshladilar.

Fransuzlar 9 maydan 15 maygacha Arrasning shimolrog'ida **Artua** operatsiyasini o'tkazdilar. Jangga tashlangan ularning piyodalari 2 kilometr ga chuqurlashdi, keyin to'xtatib qo'yildi va muvaffaqiyatsiz jang olib bordi.


Xujumkor xarakatlarning maqsadi dushman frontini tor uchastkada yorib o'tishga qaratildi.

### **1915 yil kampaniyasida tomonlar rejasi**

Fransuzlar frontni 10-12 kilometrli uchastkada yorib o'tdilar. *Artilleriya tayyorgarligi* bir-necha kun davom etdi. Artilleriya tikanli to'siqlar va istexkomlarni yakson etdi. Artilleriya zarbasidan keyin zich piyodalar ommasi olg'a xarakatlanishlari va dushman o'ziga kelib olgunga qadar uning pozitsiyalarini egallashlari kerak edi.

### **1915 yil kampaniyasi**

Yorib o'tish bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Artilleriya piyodalarning faqat birinchi chiziq okoplarni egallashni ta'minladi. U piyodalarni o'z o't zarbasi bilan keyingi olg'a xarakatlanishlarini ta'minlay olmagan. Keyingi chiziq okoplarga xujum qilish yana artilleriya bilan amalga oshirilgan. Natijada diviziyalar beso'naqay qanotlarga aylanib qolib, manyovr qila olmasdan faqat oldinga xarakatlana olganlar yoki tartibsiz ravishda ortga chekinganlar.



### **Gaz to'ldirilgan ballonlar va xlorni okopdan chiqarish**

Shampani va Artuaga yangi katta xujumni tayyorlashda fransuzlar oldingi xujumlar tajribalarini xisobga oldilar. Ular sentyabr oyida o'tkazilishi rejalashtirilgan xujumga tayyorgarlik ko'rdilar, transheyalarni dushmanga yaqinlashtirish uchun (taxminan 200 metrga yoki undan xam yaqinroq) muxandislik shturm platsdamlari qurdilar. Platsdamlar transheyalar va pana joylardan yaratildi. Birinchi uch-to'rtta jangchilar to'lqini platsdamlari ataka uchun dastlabki marra xisoblangan okoplarda joylashgan. Angliya-Fransiya qo'shinlari xujumining maqsadi, bir-birovlariga tomon 2-va 4-Fransiya armiyalari bilan (3-armiyaning qo'llab-quvvatlovida) SHampaniga Reymsning Sharqrog'idan, Artuaga esa Angliya armiyasi va **general Foshning** 10-fransuzlar armiyasi bilan zarbalar berib, Parij tomonga qaragan Nuayon bo'sag'asida Germaniya qo'shinlarini tor-mor etish va muvaffaqiyatni rivojlantirib, Fransiya xududini dushmandan tozalashdan iborat edi. Operatsiyada butun Fransiya jangovar kuchlarining to'rt dan uch qismi ishtirok etishi va ularni 2 mingta og'ir va 3 mingta dala artilleriyasi qo'llab-quvvatlashi rejalashtirildi.

Operatsiyani o'tkazish uchun 61 piyodalar (ulardan 13 tasi inglizlarniki) va 15 kavaleriya diviziyalari (ulardan 5 tasi inglizlarniki) ajratildi. Angliya va Fransiya qo'shinlari raqiblaridan tirik kuchlar bo'yicha Artuada 2 marta, SHampanida-4 marta ustun bo'ldilar.

SHampanida artilleriya tayyorgarligi 22 sentyabrda boshlandi. To'rtinchi kunda fransuz qo'shinlari xujumga o'tdilar. Ikki kun ichida ular frontni 25 km kenglikda va 2 kilometrdan 4 kilometrgacha chuqurlikda yorib o'tdilar va birinchi Germaniya pozitsiyasini egalladilar. Ikkinchi pozitsiya oldida fransuzlar to'xtatib qolindilar. Fransuzlarning ikkinchi xujumlari dushman frontini yorib o'tilishiga olib kelmadi. Artuada xam taxminan xuddi Shunday voqealar ro'y berdi. Janglar SHampanida 20 oktyabrgacha,

Artuada-13 oktyabrgacha davom etdi. Ittifoqchilar katta talofatlar ko'rdilar (260 mingdan ortiq kishi). Germaniyaliklarning yo'qotishlari 141 ming kishini tashkil etdi.

Bu janglardagi yorib o'tishlarda qo'llanilgan yangiliklar orasida aerofotosuratga olish, artilleriya o't zarbasini muvofiqlashtirilgan xolda

### **Shampani va Artuadagi operatsiyalarning rejasi va natijasi**

**(1915 yil sentyabr-oktyabr)**

berilganligini va birinchi bor ishlatilgan «**to'siqli zarba**» iborasini ta'kidlash mumkin.

SHampani va Artuada rejalashtirilgan keng yorib o'tish amalga oshmadi. YUzaga kelgan mushkul axvoldan chiqib ketib bo'lmadi. G'arbiy frontda vaziyat o'zgarmadi. Kurashning pozitsion shakli 1916 yil kampaniyasida xam yangi kuch bilan keng quloqch yoydi.

Sharqiy frontdagi jangovar xarakterlar. Germaniya qo'shinlarining xujumlari (44 karta). Germaniyaning bosh zarbani Rossiyaga ko'chirishi, Rossiyani urushdan chiqarishni va uni *separat shartnomasi* tuzishga majburlashni ko'zda tutdi. Sharqiy front qo'mondonligi (Gindenburg va Lyudendorf) Rossiyani «tiz cho'ktirish» va bu muvaffaqiyat bilan g'arbiy davlatlarni yon berishga majburlash uchun asosiy zarbani Sharqqa ko'chirishni talab qildi. Germaniya bosh shtabi boshlig'i Falkenshteyn avval Sharqda urush xarakterlarini olib borishning muvaffaqiyatiga Shubxa bilan qaradi, lekin siyosiy omillarning siquvi ostida-«urushda xolsizlangan Avstriya-Vengriyaning tez orada qulashiga bo'lgan ishonch» uni Sharqqa xujum qilish uchun qat'iy qaror qabul qilishga undadi.

Reja, rus qo'shinlarining qanotlariga Sharqiy Prussiya va Karpatda zarbalar berish, keng frontda joylashgan rus armiyalarini chuqur aylanib o'tish, ularni qurshab olish va tormor etishni ko'zda tutdi.

O'z navbatida rus qo'mondonligi xam Sharqiy Prussiyada va Karpatda xujum xarakterlarini rejalashtirdi. Shunday qilib, ikkala tomon xam bosh zarba berish yo'nalishi sifatida qanotlarni tanladi.

Avstriya-Germaniya qo'shinlari qamrab olish xolatini egalladilar. Markazda rus fronti Polshadan Galitsiyagacha bo'lgan bo'sag'ani egalladi, uning mudofaasini oltita armiya (1, 2, 5, 4, 9 va 3-armiyalar) egalladi. Rus qo'shinlari qanotlarda joylashdilar: Sharqiy Prussiyada 10-armiya, Karpatda esa 8- armiya. Narev daryosi bo'ylab yangi 12-armiya yaratilib, unga 10-rus armiyasi bilan birgalikda xujum qilish vazifasi yuklatildi.

Fevral-mart oylarida Sharqiy Prussiya va Karpatda shiddatli janglar avj olib ketdi.

Sharqiy Prussiyada 1915 yil 7-8 fevralda Germaniyaning 10-va 8-armiyalarining ruslarning 10-armiyasiga (Neman armiyasi) qarshi boshlangan xujumlari, ruslarning 20-armiya korpusining Avgust o‘rmonlarida qurshovga olinishi va tor-mor etilishi bilan tugadi. Nemislar Grodno-Lipetsk-Oittifoq s qal’asi marrasida to‘xtatib qolindi. Oittifoq s qal’asi ximoyachilari avgust o‘rtalarigacha (olti yarim oy mobaynida) ikkita rus armiyalari oralig‘idagi 50 kilometrli masofani mudofaa qilib turdi.

Avgust oyida o‘tkazilgan operatsiya Avstriya-Germaniya qo‘mondonligining rus armiyalarini chuqur qamrab olish va qurshovga olish bo‘yicha «*Kanna strategiyasi*» ning asosiy qismi bo‘ldi. U rus fronti chap qanotini chuqur qamrab olinishini boshlab berishi kerak edi. Germaniya qo‘mondonligi rejasi muvaffaqiyatsizlikka uchradi. U katta talofatlar berib ruslarning 10-armiyasi bosh kuchlarini Neman daryosiga siqib qo‘yishga muvaffaq bo‘ldi.

Karpat frontida avstriyaliklar 23 yanvarda, Vengriyaga Karpat orqali bostirib kirishga tayyogarlik ko‘rayotgan ruslarning Janubiy-G‘arbiy fronti qo‘shinlaridan o‘zib ketish uchun xujumga o‘tdilar. Ruslarni 8-armiyasining qarama-qarshi xujumlari 25-26 yanvarda boshlandi. Tog‘ dovonlaridagi qishgi jangda xar ikkala tomon xam katta talofatlar ko‘rdi. Uzoq davom etgan qamaldan keyin ruslar 22 martda **Peremishl** qal’asini egalladilar. Avstriya armiyasining 120 ming askar va ofitserlari asirga tushdi. Ruslarning xujumlari natijasida Beskid tizmalari egallandi. 11 apreldayoq ruslarning Janubiy-G‘arbiy fronti xujumlari to‘xtatildi.

Karpat operatsiyasi xar ikkala tomonning xam umidlarini oqlamadi. Unda Avstriya-Germaniya qo‘mondonligining rus qo‘shinlarini chap qanotini keng qamrab olish rejasi inqirozga uchradi.

Karpatdagi o‘tish joylarini egallagan ruslarning Janubiy-G‘arbiy fronti qo‘shinlari Vengriya tekisliklariga chiqish xavfini tug‘dirdilar. Avstriya-Vengriyaning to‘lig‘icha yanchilib ketish omili va Gabsburglar imperiyasining parchalanib ketish xavfi yuzaga keldi. Bu xavfning oldini olish uchun Germaniya qo‘mondonligi **Gorlitsa** operatsiyasini rejalashtirdi. Operatsiya bitta yoki ikkita qanotlarga xarakatlanmasdan frontni YUqori Visla bilan Beskid tizmasi etaklari (**Gorlitsa** rayonida) oralig‘idan yorib o‘tishni ko‘zda tutgan edi. G‘arbiy frontdan yirik kuchlar olib kelindi. Avstriya armiyalari Germaniya armiyalari

va korpuslari yoki qismlari bilan aralash joylashdi. Rus frontini yorib o'tish, to'rtta korpusni (uchta Germaniya va bitta Avstriya korpuslari) o'z safiga olgan, yangi tashkil etilgan 11-Germaniya armiyasiga yuklatildi. 11-Germaniya armiyasi qo'mondoni etib **general Makenzen** tayinlandi.

Gorlitsa operatsiyasi 2 mayda ruslar frontini 3-rus armiyasi egallab turgan rayonda yorib o'tish bilan boshlandi. Front yorib o'tilganidan keyin nemislar ruslarni G'arbiy Galitsiyani tashlab chiqib ketishga majbur qilishlari kerak edi. Gorlitsa rayonida yorib o'tilgan front 35 kilometrga etdi. Qo'shinlar umuman teng taqsimlangan edi. Yorib o'tish rayonida kuchlar nisbati quyidagicha bo'ldi: 11-armiya-126 mingta qilichlar, 457 ta engil orudiya, 159 ta og'ir orudiya, 260 ta pulemyot, 36 ta minomyot; rus diviziyalari: 60 mingta qilichlar, 141 ta engil orudiyalar, 4 ta og'ir orudiya, 100 ta pulemyot. Ruslarda minomyot yo'q edi. Ko'rinib turibdiki, Germaniya-Avstriya qo'shinlarining tirik kuchlar bo'yicha ustunligi ikki martadan ko'p, og'ir artilleriya bo'yicha –40 marta, pulemyotlar bo'yicha-2,5 martani tashkil etdi.

Ruslarning mudofaasi kuchsiz istexkomlardan iborat bo'ldi. U uchta chiziq okoplar-asosiy chiziq (to'liq profilli okoplar) va bir-birovidan 2-5 km masofadagi ikkita front orti chizig'idan iborat bo'ldi. Tayanch punktlari-blindajlar kam edi. Simli to'siqlar asosiy chiziqqa o'rnatildi.

Rus pozitsiyalarini yorib o'tish **1 may** kechqurun boshlandi. Ertalab 2 mayda piyodalar xujumga o'tdi. Ataka minomyotlar bilan qo'llab-quvvatlandi. Gorlitsada yorib o'tishda g'alabaga o't zarbasi va yaxshi tashkil etilgan xujum tufayli erishildi. Nemislar 700 ta orudiyani jamladilar (frontning xar 60 yardida bittadan). Bu 1916 yil Verden jangidagi o't zarbasi zichligining 1G'6 qismini tashkil etdi, lekin bu uncha chuqur bo'lmagan rus frontini 4 soat uzluksiz zarba berib yanchib tashlash uchun etarli bo'ldi. Nemis piyodalari, G'arbiy frontdagiga nisbatan raqiblar o'rtasidagi masofa katta bo'lishiga qaramasdan rus transheyalariga yashirincha yaqinlashib kelishga va artilleriya zarbasidan keyin xali o'zi kelmagan uning ximoyachilarini dog'da qoldirishga muvaffaq bo'ldi.

4 va 5 may kunlaridagi janglarda ruslarning qarshiligi sindirildi. 5 may kechqurun dushman ruslarning uchta pozitsiya chiziqlari xam yorib o'tdi. Ikki hafta mobaynida nemislar qariyb 100 milga olg'a xarakatlandilar. Ular 3 iyunda Peremishlni, 22 iyunda-Lvovni egalladilar.

Ikki hafta ichida ruslar Galitsiyani tashlab chiqdilar va katta talofatlar (yarimmilliontagacha kishi) koʻrdilar.

Xujum davomida Germaniya bosh qoʻmondonligi oʻz xujumi yoʻnalishini oʻzgartirdi. 26 iyunda Makenzen qoʻshinlari shimoliy yoʻnalishga zarba berish uchun qayta toʻplandi. Bosh xujumni shimoliy yoʻnalishdan Sharqiy yoʻnalishga-rus qoʻshinlarining asosiy guruxi joylashgan Visla va Bug daryolari oraligʻiga berishga qaror qilindi. Ruslar fronti 300 kilometrga etadigan keng yoysimon koʻrinishga ega boʻlgan boʻsagʻa koʻrinishiga kelib qoldi: u Narevning shimolrogʻi Oittifoq sdan janubga, gʻarbdan Varshava va Ivangorodni aylanib oʻtib Gʻarbiy Buggacha choʻzildi. Falkengayn rejasi, bu boʻsagʻa chizigʻi asosiga ikkita qudratli zarbani berib, rus armiyalarini ajratib qoʻyish, ularni siqib kelish va tor-mor etishdan iborat edi.

Sharqiy frontda yangi rejani amalga oshirishda Avstriya-Germaniya qoʻshinlari xali xam ikki katta guruxga boʻlinib turgan edilar: SHimoliy gurux-Pilitsa daryosigacha (Germaniyaning Sharqiy fronti) va Janubiy gurux (Avstriya-Germaniyaning Galitsiya fronti), rus qoʻshinlari esa ikki frontda, Shimoliy-Gʻarbiy va Janubiy-Gʻarbiy frontlarga boʻlingan edi.

Shimoliy-Gʻarbiy front iyun oxirida oʻz safiga 13-armiya bilan birga sakkizta armiyani oldi. Janubiy-Gʻarbiy frontda faqat uchta armiya (8-,9-va 11-armiyalar) qoldirildi. Rossiya va Germaniya-Avstriya qoʻshinlari umumiy uzunligi 1400 km boʻlgan frontda joylashdilar. Rus qoʻshinlariga qarshi Avstriya-Germaniya qoʻshinlarining 9 ta armiyasi va ikkita guruxi urush olib bordi.

Falkengayn ikkita zarba berish yoʻnalishini belgiladi: birinchisi janubda Makenzen qoʻshinlari bilan Visla va Bugning oraligʻida, ikkinchisi shimolda-Narev uchastkasida Oittifoq sning quyirogʻida. Germaniya Sharqiy fronti qoʻmondonlari ruslarni Vilno (Vilnyus) yoʻnalishida Kovnoni (Kaunasni) shimoldan aylanib oʻtib chuqur qamrab olishni va keyin xujumni Minskka rivojlantirishni talab qildilar. Birinchi reja qabul qilinib, Germaniya qoʻmondonligi uni iyunning oxiri-iyulning boshlarida amalga oshirishga kirishdi. 26 iyunda Makenzen qoʻshinlari zarbdor guruxining janubdan xujumlari boshlandi, 13 iyulda esa shimoldan Galvitsning guruxi (12-armiyaga aylantirilgan) xujum boshladi. Xujum sust darajada olib borildi. Gindenburg va Lyudendorf, chuqur qamrab olish rejasiga koʻra shimolda ikkita yoʻnalishda, Narev va Neman yoʻnalishlarida xujum boshladi.

Nemislarning Bosh qo‘mondonligi va Sharqiy fronti qo‘shinlari qo‘mondonligi qarashlari yagona bo‘lmaganligi uchun shimolda zarbdor gurux kuchsizlandi.

Rus qo‘mondonligi 5 iyulda o‘z qo‘shinini Polshadan olib chiqishga qaror qildi. Avgustning birinchi sanalarida ruslar Varshavani tashlab chiqdilar, 19 avgustda Novogorievsk qal‘asi taslim bo‘ldi. 80 mingta rus askarlari asirga tushdi. Rus bosh qo‘mondonligi almashtirildi. Buyuk knyaz Nikolay Nikolaevich chetlatildi, **bosh qo‘mondonlikni podsho Nikolay II o‘z qo‘liga oldi**. SHimoliy-G‘arbiy front ikkita frontga bo‘lindi: SHimoliy va G‘arbiy.

Sentyabr oyida nemislar 10-va Neman armiyalari kuchlari bilan ruslarning o‘ng qanotini chuqur qamrab olish maqsadida (Svensyan va Molodechnoda) so‘nggi yirik xujumni boshladilar. SHimoldan Vilnoga 10-armiya, Neman armiyasi esa Dvinskka xujum qildi. 9 sentyabrda nemislar Svensyan yo‘nalishida frontni yorib o‘tdilar va yirik otliqlar guruxini ruslarning front ortiga tashladilar. Lekin tez orada ruslar yorib o‘tilgan uchastkani yopdilar. Ruslar Vilnoni tashlab chiqdilar.

Nemislarning 1915 yilgi yozgi xujumlari natijasida ruslar, Riga-Dvinsk-Pinsk-CHernovsi chizig‘iga chekinib katta xududni tashlab chiqdilar. Xar ikkala tomonlarning talofatlari katta bo‘ldi. Muvaffaqiyatlarga qaramasdan **Germaniyaning strategik rejasi-rus armiyalarini qurshab olish va tor-mor etish va Rossiyani urushdan chiqarish bajarilmadi**.

Sharqda xam 1300 kilometrli frontda pozitsion kurash boshlandi.

Italiya va Bolgariyaning urushga kirishi. Boshqa frontlardagi harbiy xarakatlar. 1915 yilda urush ishtirokchilari doirasi kengaydi. 23 mayda Antanta tomonidan urushga Italiya kirdi, yangi Italiya harbiy xarakatlar teatri ochildi. Italiya qariyib 1 millionli armiyaga ega edi. Italiya qo‘shinlari Avstriya-Vengriyaga qarshi Isonzo rayonida (asosiy zarba), Alp tog‘larining Kariniy va Kador marralarida va Trentinoda xujum xarakatlarini olib bordilar, lekin italiyaliklarning boshlangan xarakatlari tezda to‘xtab qoldi.

11 oktyabrda Germaniya koalitsiyasiga qariyib yarimmillionli armiyaga ega bo‘lgan Bolgariya qo‘shildi. Bolgariyaning urushga kirishi bilan Germaniya Serbiyaga katta mag‘lubiyat keltirdi va Shu bilan yoppasiga frontni va Berlin bilan Kanstantinopol o‘rtasida to‘g‘ri aloqa yo‘lini tikladi. Omon qolgan serb qo‘shinlari (120 ming kishi) ittifoqchilar tomonidan Korfu oroliga o‘tkazildi.

Oktyabr oyida Salonikaga (Yunoniston) tushirilgan Angliya-Fransiya qo‘shinlari Salonika frontini tashkil etdilar.

1915 yilda Turkiyaga qarshi harbiy xarakatlar Kavkaz frontida, Mesopotamiyada, Suriya va bo‘g‘ozlarda olib borildi. Kavkaz frontida tomonlardan birortasi hech qanday sezilarli natijalarga erishmadi. Mesopotamiyada inglizlarning xujumlari Bog‘doddan 35 km uzoqlikda to‘xtatildi, bu erda ular turklar tomonidan tor-mor etildi. Inglizlar turklarning Suvaysh kanalini egallashga bo‘lgan urinishlarini bartaraf etdilar. Angliya-Fransiya qo‘shinlarining Konstantinopolni (Dardanel operatsiyasi) egallashga bo‘lgan urinishlari muvaffaqiyatsiz tugadi. Katta talofatlarga olib kelgan bu operatsiya 1915 yil oxirida Angliya-Fransiya qo‘shinlarini Galipoliya yarim orlidan evakuatsiya qilinishi bilan tugadi.

### **7.7.1915 yil kampaniyasida harbiy san’at rivojlanishining**

#### **asosiy o‘ziga xos belgilari**

1915 yil kampaniyasida Rossiyaga qaqshatqich zarba berishga va uni urushdan chiqarishga yo‘naltirilgan Germaniyaning strategik rejasi amalga oshmadi. Rus fronti Sharqqa tomon surildi, lekin yakson etilmadi. 1915 yil kampaniyasi, davlatning kuchli moddiy va ma’naviy imkoniyatlarini talab etuvchi kurashning uzoq davom etuvchi va xoldan toydiruvchi xarakterini tasdiqladi.

Sharqiy frontda 1915 yil sentyabrigacha manyovrchan kurash davom etdi. Nemislar qanotlarni yanchib tashlashga, chuqur qamrab olish va qurshovga olishga asoslangan operatsiyalarni olib bordilar. 1915 yil operatsiyalarida rus frontida Germaniya qo‘mondonligi pozitsion kurash sharoitida manyovrning yangi shakli-yorib o‘tish- frontal zarbani qo‘llashga majbur bo‘ldi. G‘arbiy frontda bo‘lgani singari, Sharqiy frontda xam nemislarning xujumkor kuchlari so‘nib qolganidan keyin, urushning pozitsion davri boshlandi.

Pozitsion urushda front chiziqlari tikanli to‘siqlar bilan o‘ralgan mustaxkamlangan istexkomlar zanjiri ko‘rinishini qabul qildi. Pozitsion frontning bunday chiziqlarining yaratilishiga, umumiy iqtisodiy, ishlab chiqarishning rivojlanishi, yangi xarakatlanish va aloqa vositalari, yangi jangovar texnikaning yaratilishi, soni bo‘yicha yirik qurolli kuchlarning bo‘lishi, qurolli kurashning xoldan toydirishga qaratilgan uzoq va shiddatli xarakteri sabab bo‘ldi. Pozitsion urush sharoitlarida dushman frontini yorib o‘tish, sun’iy



ravishda qanotlar yaratib *operativ kenglikka* chiqish va dushmanning front ortiga xavf solish urush olib borish san'atining asosiy muammosi bo'lib qoldi.

Yorib o'tish uchun yangi vositalardan foydalanildi: G'arbiy frontda 1915 yil 22 aprelda Ipr yaqinida kimyoviy urushni ochib bergan-bo'g'uvchi gazlar, Gorlitsada (1915 y.)-qudratli jangovar qurol-minomyotlar, kuzgi xujum paytida (Artuada)-gazlar va birinchi *tutun pardasi*.

Qo'llanilgan «bosqichma-bosqich» istexkomlar va pozitsiyalarni egallash katta talofatlarga olib keldi va ularda juda sust sur'atlarda xarakatlanish kuzatildi. Dushman zarba berilgan uchastkalarda qo'shinni to'plash va xujumni qaytarish uchun etarli vaqtga ega bo'ldi.

Kuchli mudofaani engib o'tish uchun artilleriya xujumni qo'llab-quvvatlashdan *artilleriya tayyorgarligiga* o'tdi, piyodalar diviziyalari og'ir gaubitsalarga ega bo'lishlari kerak bo'lib qoldi. Piyodalarning yangi jangovar tartibda-umumiy zich zanjir o'rniga, kerakli o't zarbasi kuchiga ega bo'lmagan to'lqinlar bilan xujum qilishi past sur'atlar va katta talofatlardan xalos etmadi.

Quruqlikdagi qo'shinlar tarkibining o'zgarishi, qurollanishga yangi namunadagi granatalar, miltiq granatomyotlari, transheya artilleriyasi (yaqin jang uchun), minomyotlar va bombomyotlarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'ldi. 1915 yil kampaniyasida yangi kimyoviy qurol-gaz ballonlari, kimyoviy snaryadlar, tutun snaryadlari va tutun shashkalari qo'llanildi, *protivogazlar* kirib kela boshladi. 1915 yil oxiridan Fransiya va Angliya armiyalarida juda ko'p miqdorda qo'l pulemyotlari kirib kela boshladi.

Artilleriyaning, ayniqsa og'ir artilleriyaning soni ko'paydi. Mudofaa inshootlarini buzib tashlashga va dushman tirik kuchlarini istexkomlarda tor-mor etishga qodir gaubitsa artilleriyasining roli oshdi. Artilleriya oldida xarakatchan to'siqli zarbani yaratish vazifasi qo'yildi.

Muxandislik vositalari takomillashdi, dala mudofaa inshootlari erga chuqurroq ko'mildi va temir-beton bilan yopildi. Piyodalar xujumini ta'minlovchi muxandislik platsdarmlari yaratildi, uning oldingi transheyasi dushmandan 100 metrdan 200 metrgacha masofada qurildi.

1915 yilda mudofaa ikkita pozitsiyadan iborat bo'ldi va nafaqat piyodalarga qarshi, balki artilleriyaga va kimyoviy qurollarga xam qarshi xisoblandi.

1915 yilda kavaleriya piyoda safda ko‘proq o‘t zarbasini bera boshladi. Svensyanskda dushman pozitsiyasini yorib o‘tishda muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun jangga kiritilgan nemis kavaleriyasi piyodalar bilan qo‘llab-quvvatlanmadi va muvaffaqiyatni rivojlantira olmadi.

Aviatsiya tez sur‘atlar bilan rivojlandi. 1915 yilda maxsus bomba tashlovchi va bomba ushlab turuvchi moslamaga ega bo‘lgan *bombardimonchi aviatsiya* va pulemyotlar bilan jixozlangan *qiruvchi aviatsiya* yaratildi.

### **7.8. 1916 yil kampaniyasi. Pozitsion urushda tomonlarning o‘zaro kuchsizlanishi.**

1916 yildagi umumiy vaziyat va tomonlarning strategik rejalari. 1916 yilda yuzaga kelgan vaziyat umuman markaziy davlatlar uchun qulay bo‘ldi. Ularning xamma frontlari mustaxkam edi. Ruslar armiyasi Sharqqa uloqtirib tashlandi. 1915 yilda mag‘lubiyat chegarasiga yaqinlashib qolgan Avstriya-Vengriya o‘zini ancha tiklab oldi. Ustun bo‘lgan kuchlarning zarbasi bilan Serbiya yakson etildi, natijada Berlindan Konstantinopolga to‘g‘ri yo‘l ochildi. Urushga kirgan Bolgariya ko‘p tomonlama markaziy davlatlar xolatini kuchaytirdi.

Aslida g‘alabalarga qaramasdan markaziy davlatlarning xolati og‘ir edi. Germaniyaning ittifoqchilari doimiy yordamga, moddiy vositalarga va Germaniya diviziyalariga muxtoj edilar, Germaniyaning o‘zida etishmovchiliklar juda ko‘p edi. Qamal ocharchiligining oqibatlarini sezilarli ta‘sir o‘tkazdi.

### **Zarbdor guruxning muxandislik-shturm platsdarmiga xujumdan oldin joylashishi.**

1916 yilga kelib Antanta kuchlar bo‘yicha ustunlikka ega bo‘ldi, G‘arbiy Evropa harbiy-xarakatlar teatrida yarim million kishiga ega bo‘ldi, uning Sharqiy Evropa frontidagi kuchlari xam Shunchaga etdi va artilleriya qurol-yarog‘lari bo‘yicha dushman artilleriya bilan tenglashdi. Angliya-Fransiya armiyalarining harbiy-texnik qudrati oshib bordi va bu borada tezda Germaniyadan o‘zib ketdi. Angliya armiyasi qo‘shinlari son jixatan oshdi (1916 yil boshida-37 diviziya).

Antanta va Germaniya koalitsiyasi 1916 yil kampaniyasida o‘z oldilariga qat‘iy maqsadlarni qo‘ydilar. Germaniya bosh qo‘mondonligi G‘arbgaga urush olib borib birinchi

galda Fransiya urushdan chiqarishni ko'zlatdi. Xujumni amalga oshirish uchun u frontdan va davlat ichkarisidan 5 ta zaxira diviziyalarini tashlashi mumkin edi. Germaniya ikki frontda qat'iy xujumlarni olib borish uchun etarli kuch va vositalarga ega emas edi, xatto bitta frontning bir-nechta uchastkasida xam urush olib borish uchun kuchlar etarli bo'lmadi.

Germaniya bosh qo'mondonligi tomonidan asosiy zarba Fransiya qarshi, fransuzlar mudofaasining tor uchastkasi-Verden istexkomlar rayoniga yo'naltirildi. Bu rayon Fransiya fronti o'ng qanotida butun mudofaa tizimini ta'minlab turgan edi. Verden bo'sag'asiga berilgan muvaffaqiyatli zarba nemislarga Parijga yo'l ochib berardi.

Antanta ittifoqchilari birgalikda xujum olib borish uchun qaror ishlab chiqdi. Kampaniya rejasi bo'yicha rus armiyasi Janubiy-G'arbiy frontda, Angliya-Fransiya armiyasi esa Somma rayonida xujumni amalga oshirishi kerak edi.

G'arbiy Evropa teatridagi harbiy xarakatlar. «Verden kushxonasi». 1916 yilda bir vaqtning o'zida Fransiya frontida Verden va Sommadagi ikkita yirik operatsiya va ruslarning Janubiy-G'arbiy frontidagi operatsiyalar bir-necha oy davom etdi. Verden operatsiyasi o'n oy (21 fevraldan-18 dekabrgacha), Sommadagi operatsiya to'rt yarim oy (1 iyundan-18 noyabrgacha) va ruslarning Janubiy-G'arbiy frontidagi operatsiya-uch oy (4 iyundan-sentyabrning boshlarigacha) davom etdi.

Verden bo'sag'asi urush xarakatlari davomida asta-sekin Verden istexkomlar rayoniga aylanib, unda uzoq vaqtga mo'ljallangan fortifikatsion inshootlar dala istexkomlari bilan uyg'unlashib ketdi. Verden istexlar rayoni front bo'ylab 112 kilometr ga cho'zildi. Istexkomlar rayoni Maas daryosi bilan o'ng (Sharqiy ) va chap (g'arbiy) qirg'oqlar sektorlariga bo'lindi. Mudofaa chuqurligi 4 ta pozitsiyani tashkil etdi.

Nemislar Verden bo'sag'asini ikki sababga ko'ra tanladilar: fransuzlar uni tashlab ketmasliklari; cheklangan yalanglik frontning uncha katta bo'lmagan uchastkasida fransuzlarga katta taofatlar etkazish uchun juda ko'p og'ir artilleriyani joylashtirish imkonini berganligi. Nemis kommunikatsiyalari xam anchagina yaxshi edi: fransuzlarning bitta tor temir yo'liga nisbatan ularda 14 ta temir yo'l chiziqlari bor edi.

Taktik jixatdan xam joy artilleriya zarbasini yaratish uchun qulay edi, o'rmonlar va tik qiyali jarliklar xujumga tayyorgarlikni yashirishga imkon tug'dirardi.

Verden bo'sag'asidagi operatsiya boshida fransuzlar o'ng qirg'oqda 2-armiya korpusining uchta piyodalar diviziyalarini (4, 3, 132) tayyorladilar va 30-armiya

korpusining ikkita piyodalar diviziyasini (51-va 72) va bitta (14) diviziyani zaxiraga tayyorladi, chap qirg'oqda 7-armiya korpusining ikkita piyodalar diviziyasi (67-va 29-diviziyalari), zaxirada uchta diviziya (37-, 48 va 16-diviziyalar) saqlandi. Fransuzlar xammasi bo'lib Verden mudofaasiga

1916 yil kampaniy aso'n bitta diviziyani jalb qilishlari mumkin edi. Qo'shin 632 ta orudiya bilan qo'llab-quvvatlandi, ulardan 244 tasini og'ir orudiyalar tashkil etdi. Dushman Verden istexkomlarini og'ir va o'ta og'ir artilleriya zarbalari bilan tezkorlikda egallashni ko'zda tutdi, birinchi zarbani o'ng qirg'oqning shimoliy frontiga berishga, keyin Maasning chap qirg'og'idagi pozitsiyalarga xujum qilishga qaror qilindi.

### **7.9. 1916 yil 21 fevraldan-18 dekabrgacha bo'lib o'tgan Verden operatsiyasi**

Verdenni egallash kron shaxzoda Vilgelm qo'mondonligidagi 5-armiyaga topshirildi. Armiya yangi etib kelgan korpuslar va bosh qo'mondonlik zaxira artilleriyasi bilan kuchaytirildi. 25-26 zaxira diviziyalaridan Falkengeym operatsiya uchun 17-18 tasini ajratdi. Verdenga zarba berish uchun 1225 ta orudiya jamlandi, ulardan 666 tasi og'ir, 27 tasi o'ta og'ir orudiyalar, xamda bosh zarba berish frontida-152 ta minomyot (ulardan 22 tasi og'ir minomyotlar) jalb etildi. Operatsiyani o'tkazish uchun 168 ta jangovar va yo'naltiruvchi (korrektirlovchi) samolyotlar va 14 ta aerostatlar xam jalb qilindi. Umuman germaniyaliklar bosh zarba berish yo'nalishida diviziyalar soni bo'yicha to'rt marta va artilleriya bo'yicha to'rt martadan ortiq ustunlikni yaratdi.

Minomyotlarni qo'shib xisoblaganda artilleriyadagi ustunlik 5,5 martaga oshdi. Xujumda bundan yirik sondagi artilleriya va minomyotlarning jamlanishi tarixda birinchi marta bo'ldi. Verdenda birinchi marta *ognemyotlar* qo'lalanildi.

21 fevral soat 7 da artilleriya tayyorgarligi boshlandi va 9 soat davom etdi. 1500 dan ortiq orudiya minomyotlarning zarbasi istexkomlar rayonidagi fransuzlar mudofaasining butun chiqurligiga berildi. Transheya va okoplarni buzib tashlash uchun asosan minomyotlar jalb etildi. Batareyalarga asosan kimyoviy snaryadlar bilan, qo'mondonlik punktlari, fortlar va boshqa istexkomlarga og'ir orudiyalar-210 mm li mortiralar va 420 mm li gaubitsalar zarbalari bilan talofatlar etkazildi. Temir yo'l stansiyalarini samolyotlar bombardimon qildi. Fransuzlar pozitsiyalariga 2 mln dan ortiq snaryadlar yog'dirildi.

Artilleriya tayyorgarligi vaqtida birinchi, aloxida uchastkalarda ikkinchi transheyalar mudofaa tizimi buzildi, qo‘shinni boshqarish esa izdan chiqdi. Soat 16. 45 da nemis piyodalari xujumga ko‘tarildi va zanjir to‘lqinlari bilan ataka qildi. To‘rt kun ichida nemislar birinchi va ikkinchi pozitsiyalarni egalladilar. Germaniya qo‘shinlarining yaqinlashib kelishlari bilan Maasning chap qirg‘og‘ida joylashgan fransuzlar artilleriyasining *qanotdan kesib o‘tuvchi o‘t zarbalari* o‘ta ta‘sirli bo‘la boshladi. **25 fevralda** nemislar **Duomon fortini** egalladilar va yirik taktik muvaffaqiyatni qo‘lga kiritdilar.

Maasning o‘ng qirg‘og‘ida qanday bo‘lmasin mustaxkam o‘rnashib qolishga qaror



qilgan Fransiya qo‘mondonligi, 25 fevralda 2-armiyani yaratib, unga Verden mudofaasini topshirdi.

### **Fransiya minomyotlari Verdenda**

Ikkala tomon xam jangga yangi-yangi birlashmalarni kiritdi. Fransiya qo‘mondonligi «muqaddas yo‘l» nomini olgan Bar-de-Lyuk-Verden shossesi bo‘ylab avtomobil xarakatini tashkil etdi. SHossening 65

kilometrli trassasi oltita uchastkaga bo‘lindi, avtomobil trasporti xar birida 20 mashinaga ega bo‘lgan-200 ta otdeleniega ajratildi. Martda shossening mashinalar o‘tkazish qobiliyati bir sutkada 6 mingta avtomobilga etdi. To‘qqiz kun ichida, 27 fevraldan 6 martgacha shossedan 190 ming askar, 23 tonna o‘q-dorilar va 250 tonna xar xil yuklar tashib o‘tildi.

Mart oyining boshida Fransiya qo‘shinlari anchagina ko‘paydi. Asta-sekin talofatli jangga kirgan Germaniya qismlari katta talofatlar ko‘rib, muvaffaqiyatni rivojlantirishga kuchlari etmadi. Ular 5-6 kilometr ga olg‘a xarakatlandilar. Qirg‘inbarot janglar katta talofatlar bilan tugadi va xamda bir-birovlarini xoldan toyishlariga olib keldi.

Mart-may oylarida o‘ng qirg‘oqda, qarshilik ko‘rsatish markazi xisoblangan **Vo forti** (Duomonning janubrog‘ida) uchun shiddatli janglar boshlanib ketdi. 7 iyunda uch oylik

kurashdan so'nggina Vo forti qarshilik ko'rsatishni to'xtatdi. Keyingi besh kun ichida nemislar fortga kuniga 150 mingta snaryadlar otib zarba berdilar. Fransiya qo'shinlari to'xtovsiz qarshi xujumga tashlandilar.

Vo fortini egallab, nemis qo'shinlari oxirgi mudofaa chizig'ini shturm qilishga kirishdilar. Germaniyaliklar fransuzlar mudofaasini iyulda xam avgustda xam yorib o'ta olmadilar. Sentyabrda dushman xujumi to'xtadi. «*Verden kushxonasi*» uning kuchlarini butkul xoldan toydirdi.

Boshqa frontlarda xam vaziyat Germaniya uchun noqulay bo'ldi. Iyun boshlarida ruslarning Janubiy-G'arbiy frontining katta operatsiyasi boshlandi, bu operatsiya Avstriya-Vengriyani yanchib tashlash xavfini yuzaga keltirdi va G'arbiy Evropa frontidan Germaniya diviziyalarini olib kelinishiga majbur qildi. 1 iyulda Angliya-Fransiyaning Sommada xujumlari boshlandi.

27 avgustda Antanta tomonidan urushga Ruminiya kirdi. 28 avgustda Germaniya bosh qo'mondonligi almashtirildi, qo'shinga raxbarlik qilish bosh shtab boshlig'i etib tayinlangan Gindenburgga va birinchi general-kvartirmeyster Lyudendorfga o'tdi. Verdendagi so'nib qolgan xujum ularning buyruqlariga binoan to'xtatildi.

Oktyabr-dekabr oylarida Verdenda fransuzlar xujumga o'tdilar. Ular shiddatli janglar bilan Duomon va Vo fortlarini o'zlariga qaytardilar, 18 dekabrda esa oldingi, uchinchi pozitsiya frontlar chizig'iga chiqdilar. Urushning eng uzoq davom etgan va eng yirik operatsiyalaridan biri xisoblangan Verden operatsiyasi Shu tariqa nixoyasiga etdi. Bu operatsiya xar ikkala tomon uchun katta talofatlar keltirdi, unda qariyb yarim million kishi xalok bo'ldi.

Verden jangida Germaniyaning 1916 yilgi kampaniyadagi strategik rejasi va Falkengeynning strategik xujumi kam kuchlar bilan qat'iy maqsadlarni ko'zlab olib borish doktrinasi inqirozga uchradi.

Somma operatsiyasi (1916 yil 1 iyun-18 noyabr). Jang maydonida birinchi tanklarning paydo bo'lishi. Angliya-Fransiya armiyalarining Somma daryosi bo'yidagi xujumlari Verdendagi shiddatli janglar mobaynida va rus qashinlarining Janubiy-G'arbiy frontda xujumlari boshlanganidan keyin boshlandi. Somma operatsiyasi, unda ishtirok etgan qo'shinlar soni va juda ko'plab qo'llanilgan jangovar vositalar-og'ir orudiyalar, samolyotlar bo'yicha yirik operatsiya xisoblanadi; unda birinchi marta Angliya-Fransiya qo'shinlari

tomonidan urushning yangi qudratli vositasi-tanklar qo'llanildi. Operatsiya to'rt yarim oy mobaynida, 1 iyuldan 18 noyabrgacha davom etdi.


Angliya-Fransiya qo'mondonligi dushman frontini Somma daryosining xar ikkala qirg'og'ida yorib o'tishni va muvaffaqiyatni rivojlantirib, Nuayon bo'sag'asida Germaniya armiyasi qanotiga va front ortiga zarba berishni rejalashtirdi.

Mustaxkamlangan istexkomlar pozitsiyasini yorib o'tish bir yo'nalishda ketma-ket, marradan-marraga bir-nechta zarbalarni berib va uni uzoq vaqt amalga oshirishni ko'zda tutdi. Yorib o'tishda aosiy rol artilleriyaga berildi. Artilleriya zarba beradigan chuqurlik, piyodalar egallashi kerak bo'lgan marrani belgilab berdi. Marralar bir vaqtda ingliz va fransuz qo'shinlari tomonidan egallanishi (yorib kirish marrasi) kerak edi: birlashmalar va qismlarning ishlab chiqilgan xarakat jadvallari buzilmasligi talab qilindi. Bu talab operatsiyani olib borishda xalokatli bo'ldi. Oldinga xarakatlangan fransuz qo'shinlari dushman mudofaasi ichkarisiga xarakatni davom ettirish o'rniga ingliz qo'shinlarini kutib to'xtab qoldi.

#### **7.10.1916 yil 1 iyuldan-18 noyabrgacha davom etgan Somma operatsiyasi**

Jangovar tartib eshelonlashtirilgan shturmchi qismlar va zaxiralardan tashkil topdi. Xujumkor jangda piyodalarning xarakat yig'indisi jangning uchta davriga birlashtirildi: xujumga tayyorgarlikka yoki dushman bilan 150-300 metr ataka masofasiga yaqinlashishga, ataka va muvaffaqiyatdan foydalanishga, egallangan pozitsiyani ushlab qolishga.

Sommada yorib o'tish fronti 37 km qilib belgilandi (aslida 40 km). Bosh zarbani berish Bapom yo'nalishida 25 kilometrli frontda 2-Angliya armiyasiga yuklatildi. 6-Fransiya armiyasi Sommaning ikkala qirg'og'i bo'ylab xujum qildi, uning roli xujumni ta'minlash va qo'llab-quvvatlashdan iborat bo'ldi.



### **Angliya og‘ir orudiyasi Sommada**

Operatsiya boshida yorib o‘tish uchun tanlangan frontda germaniyaliklar 2-armiyaning 8 diviziyasiga ega bo‘ldilar: 5 diviziya inglizlarga qarshi va 3 diviziya fransuzlarga qarshi va zaxirada 4 diviziya ushlab turildi. Nemislarning mudofaasi bir-biridan 2-3 kilometr masofada joylashgan ikkita pozitsiyadan iborat bo‘ldi. Chuqurligi 500-1000 metr bo‘lgan birinchi pozitsiya mudofaaning asosi xisoblandi va yoppasiga mudofaani amalga oshiradigan tayanch punktlari bilan jixozlangan uchta okoplar chizig‘idan iborat bo‘ldi. Birinchi pozitsiya chuqurligi 30 metrdan iborat bo‘lgan tikanli to‘siqlar bilan to‘stildi. Birinchi va ikkinchi pozitsiyalarning o‘rtasida oraliq pozitsiyalar yaratildi. Mudofaaning umumiy chuqurligi 7-8 kilometrni tashkil etdi.

Xar qanday kichik yorib o‘tuvni bartaraf etish uchun birinchi pozitsiyadan front ortigacha yopiq o‘tish yo‘lakchalari yaratildi. Qishloqlar va o‘rmonlarda yashirinib o‘rnatilgan ko‘plab pulemyotlar butun ochiq maydonlarni ota olgan.

4-Angliya armiyasining operativ qurilishi quyidagicha bo‘lgan: xamma beshta armiya korpuslari (16 diviziya) birinchi eshelonda, armiya zaxirasida esa-ikkita piyodalar va uchta kavaleriya diviziyalari joylashgan. Angliya va Fransiya armiya korpuslari (6-armiya-14 diviziya) jangovar tartibi bir eshelon va zaxiradan tashkil topgan. 40 kilometrli yorib o‘tish frontida kuchlar nisbati quyidagicha bo‘ldi: Germaniyaning 8 diviziyasiga qarshi 32 diviziya.

Angliya armiyasi artilleriyasi 444 ta 75 mmli pushkalardan, 228 ta orudiya, 56 ta katta qudratga ega bo‘lgan og‘ir mortiralar, 61 ta o‘ta katta qudratli uzun stvolli to‘plar, 360 ta



transheya orudiyasidan tashkil topdi. Fransuzlar 75 mmlr orudiyalar uchun 6 millionta snaryad tayyorladilar, ya'ni urush boshida butun armiyada snaryadlar soni qancha bo'lgan bo'lsa Shuncha.

Xamma qo'shin turlarining zarba berish qudrati takomillashgan yangi qurolning xisobidan oshdi. Piyoda qo'shinlar rotasida 4-8 ta pulemyot va 12 ta miltiq-granatomyotlar va ko'p sonli 37 mmlr to'plar va mortiralar bo'lgan; batalonlarda 8 ta *stanokli pulemyotlarga* ega bo'lgan *pulemyot rotalari* tashkil etildi.

Qo'shinlar mustaxkamlanib olgan dushmanga qarshi jangni olib borishga jadal o'rgatildi. Piyodalarni artilleriya bilan qo'llab-quvvatlashning yangi usuli-*olovli val* birinchi marta Somma operatsiyasida keng qo'llanildi.

Xujumdan oldin 24 iyunda boshlangan 7-kunlik artilleriya tayyorgarligi o'tkazildi.

Artilleriya tayyorgarligi davrida Germaniya qo'mondonligi qo'shin va jangovar texnikani etkazib kelib mudofaani mustaxkamladi. Germaniya istexkomlariga tashlangan juda ko'plab snaryadlarning portlashi oqibatida okoplar chizig'i ko'p xollarda er bilan tekislanib tashlandi. Artilleriya tayyorgarligi kimyoviy snaryadlar bilan xam olib borildi. Dushman okoplari, birinchi kunlarda xavoda to'liq xukmronlikni qo'lga kiritgan aviatsiya pulemyotlari bilan o'qqa tutildi.

1 iyulda piyodalar xujumga tashlandi. Fransiya piyodalari olovli valning ortidan, Angliya piyodalari batareyalarning aloxida nishonlar bo'ylab o't zarbalari ko'magida xujumga o'tdi. Atakaning muvaffaqiyati bir xil bo'lmadi.

Sommaning Sharqrog'ida, bosh yo'nalishda 4-Angliya armiyasi o'ng qanotdagi korpuslari bilan Germaniya mudofaasiga suqulib kirdi va birinchi pozitsiyani egalladi. Qolgan korpuslarning xujumlari katta talofatlar bilan qaytarildi. Inglizlarni urinishlarining inqirozga uchrashining asosiy sababi yo'l qo'yilgan taktik xatoliklar bo'ldi. Germaniya transheyalariga tashlangan inglizlar piyodalarining yarmi tikanli simlarga etib kelgunigacha otib tashlandi, yorib kirganlari esa nemislar artilleriya sinigining to'siqli zarbasi bilan to'xtatib qo'yildi va nemislarning qarshi xujumlari bilan yanchib tashlandi.

Sommadagi strategik operatsiya so'nib qoldi. Qat'iy xarakatlarga qaramasdan nemislarning mustaxkamlangan mudofaasini yorib o'tishga muvaffaq bo'linmadi. Artilleriya tayyorgarligidan keyin va olovli val to'suvida piyodalar to'lqini yangidan-yangi

shturmga tashlanaverdi Ayrim xollarda ular olg'a siljiy oldilar, lekin bu siljish bir-necha yuz metrni tashkil etdi.

Angliya-Fransiya piyodalari zanjirlar to'lgini bilan xujum qildi. Germaniya askarlari atakani qaytarib, guruxiy taktikani qo'lladilar.

Birinchi shiddatli kunlardan keyin xujum alangansi va xujum imkoniyatlari tugab bo'ldi. Dushman etib kelgan yangi qo'shnlarni operatsiyaga tashladi. Yangi xujumkor zarbalar, ularni amalga oshirish uchun tirik kuchlar va ko'plab texnika, Shu jumladan yangi jangovar vosita-tanklar, operatsiyaning birinchi kuniga nisbatan ancha kuchli va ancha tashkillashtirilgan qarshilikka duch keldilar.

Somma jangi 141 kun davom etdi. Xujum boshlangandan keyin ikki hafta o'tgach inglizlar tungi ataka natijasida Germaniya istexkomlarining ikkinchi chizig'ida 5 milni egalladilar. Xujumning muvaffaqiyatini uning to'satdan boshlanganligi va tun qorong'isi ta'minladi. Sentyabr oyida inglizlar yana 1,5 mil olg'a xarakatlandilar.


Sommadagi operatsiya davomida ingliz-fransuz qo'shinlarini dushman mudofaasini yorib o'ta olmadilar.

15 sentyabrda inglizlar tomonidan amalga oshirilgan xujumda birinchi marta tanklar qo'llanildi. Inglizlar dushman chuqurligiga 2 kilometrga kirishga muvaffaq bo'ldilar, lekin bu katta muvaffaqiyat keltirmadi. Qudratli, lekin sust xarakatlanuvchi tanklar operatsiyaning borishida burilish yasamadi. Tanklar xali takomillashmagan bo'lib, ularning birinchi xujumlari tezda so'nib qoldi.

49 ta tankdan xujumga 32 tasi ishtirok etdi, dastlabki pozitsiyaga ulardan 17 tasi etib kelmadi. Jangda 10 ta tank texnik talofat ko'rib, safdan chiqdi.

18 noyabr janglari bilan Somma operatsiyasi tugadi. Germaniya fronti yorib o'tish uchastkasida Sommaning shimolrog'ida 12 kilometrga surildi.

Urush olib boruvchi tomonlarning talofati Verdendagi talofatlardan ko'payib ketdi va 1 million 300 ming kishidan oshib ketdi. Somma operatsiyada Antanta o'z vazifasini



bajarmadi. Germaniya fronti yanchib tashlanmadi.

### **Angliya og'ir tanki M-1**

Sharqiy Evropa teatridagi harbiy xarakatlar. Janubiy-G'arbiy frontdagi xujumlar (1916 yil iyun-sentyabr). Falkengeyn ruslar qarshiligini sindira olmadi. 1915-1916 yillar qishi ruslarning ishlab chiqarish sanoatiga ancha engillik yaratdi, u vintovkalar va harbiy anjomlar bo'yicha etishmovchiliklarni to'ldirishga muvaffaq bo'ldi.

4 iyunda general Brusilov qo'mondonligidagi Janubiy-G'arbiy front qo'shinlari xujumga o'tdi.

Rus frontida tomonlarning xolati 1916 yil baxorida quyidagicha bo'ldi. Rus qo'shinlari uchta frontdan tashkil topdi: Petrograd strategik yo'nalishini ta'minlovchi SHimoliy, G'arbiy-Moskva strategik yo'nalishi va Janubiy-G'arbiy-Kiev strategik yo'nalishi-Riga ko'rfazidan Rossiya Ruminiya chegarasigacha bo'lgan 1200 kilometrdan ortiq istexkomlar pozitsiyasini egalladilar. Frontlarda 1 mln 732 ming qilichlarga ega bo'lindi.

Frontning Avstriya uchastkasida dushman uchta Avstriya-Vengriya va bitta Germaniya diviziyalariga ega bo'ldi. Pinskdan Nemangacha bo'lgan frontni shaxzoda Leapold Bavariyalikning guruxi mudofaa qildi, Litva va Sharqiy Prussiyani uchta Germaniya armiyalaridan iborat Gindenburgning guruxi to'sib turdi. Dushman kuchi 1 mln 61 mingta qilichdan iborat bo'ldi.

Janubiy-G'arbiy frontning yorib o'tish uchastkasida Avstriya mudofaasi, bir-biridan besh kilometr va undan ortiq masofada joylashgan ikki-uchta chiziqdan (pozitsiyadan) tashkil topdi. CHuqurligi 1,5-2 km bo'lgan birinchi chiziq ikki-uchta okoplar chizig'idan va tarmoqlardan iborat bo'lib, bir-birovi bilan artilleriya munosabatida aloqada bo'ldi.

Birinchi pozitsiya oldida 2-3 ta tikanli to'siqlar yaratilib, ularning xar biri 4-10 qatorli qoziqlar yoki roqatkalarga ega bo'ldi. Aloxida uchastkalarda *elektr toki ulangan simlar* tortildi, bombalar osib qo'yildi, o'zi portlab ketadigan fugaslar ko'mildi. Juda ko'p sonli blindajlar, pana joylar, pulemyotlar o'rnatilgan tuynuklar, otish tuynuklari, ayvonchalar yaratildi. Janubiy-G'arbiy front asosiy zarbani 8-armiya kuchlari bilan, ikkinchi darajali, lekin qudratli zarbalarni 11-,7- va 9-armiyalarning kuchlari bilan berdi.

4 iyunda butun front bo'ylab dushman pozitsiyalariga artilleriya zarbalari berildi. Janubiy-G'arbiy frontning xujumkor operatsiyalari sentyabr oyining birinchi sanalarigacha

davom etdi. U uch martalik xujumga o'tish, faol mudofaalanayotgan dushman bilan uzluksiz janglar olib borish bilan xarakterlandi.

Operatsiyaning birinchi davrida 4-15 iyunlarda dushmanning mustaxkamlangan pozitsiyasi yorib o'tildi va u rivojlantirilib Janubiy-G'arbiy front olg'a xarakatlandi: asosiy zarbani bergan o'ng qanotdagi 8-armiya 70-75 kilometr ga (dushman pozitsiyasini front bo'y lab 80 kilometr gacha yorib o'tdi); chap qanotdagi 9-armiya 50-60 kilometr gacha, 11-armiya 35-40 km va 7-armiya 10-15 kilometr gacha. Dushmanning ko'p askarlari asirga olindi.

8-armiya artilleriya tayyorgarligi bilan simli to'siqlar, birinchi okoplar chizig'i to'lig'icha, ikkinchi okoplar chizig'i qisman buzib tashlandi. Birinchi chiziq okoplarining bir qismini dushman tashlab ketdi. Uch kun ichida 8-armiya birlashmalari avstriyaliklar pozitsiyalarini front bo'y lab 70-80 kilometr ga yorib o'tdi va dushman ichkarisiga 25-30 kilometr ga suqulib kirdi. 7 iyunda Lutsk shaxri egallandi.

Lutskning egallanishi bilan armiya front chizig'i yoy ko'rinishiga kelib qoldi va uning qavariq tomonida markaz qo'shinlari turib qoldi. Armiyalarning qanotlari bu vaqtda dastlabki pozitsiyalarga taqaldi.

8 iyundan 15 iyungacha 8-armiya chap qanotga xarakatni davom ettirdi. O'ng qanot qo'shinlari dushman pozitsiyalarini yorib o'ta olmadi.

### **7.11. 1916 yil yozida Janubiy-G'arbiy front tomonidan Avstriya-Germaniya pozitsiyalarining yorib o'tilishi**

Janubiy-G'arbiy front operatsiyasining ikkinchi davri dushman qarshi zarbalarini qaytarish (16 iyundan) bilan va ikkinchi davri xujum bilan (4 iyuldan) xarakaterlandi.

4 iyulda front qo'shinlari umumiy xujumga o'tdilar va u Janubiy front xujumlari bilan bir vaqtda olib borildi. G'arbiy front qo'shinlari Baranovichiga, Janubiy-G'arbiy front qo'shinlari esa Kovelga zarbalar berdi.

Janubiy-G'arbiy front operatsiyasining uchinchi davri, iyul o'rtalaridan zarbani stavkaning ko'rsatmasiga binoan ushbu frontga ko'chirish va uning 28 iyuldan yangi uchinchi xujumga o'tishi bilan xarakaterlandi.

Ruslarning Janubiy-G'arbiy fronti xujumi vaqtida, ittifoqchilarning G'arbdagi xujumlaridan farqli o'laroq, artilleriya tayyorgarligi bir sutka mobaynida olib borildi. 24

soatlik artilleriya zarbalaridan keyin ruslarning ilg'or bo'linmalari qisqa zarbalar bilan avstro-vengrlarning mudofaasini tekshirib ko'rdilar. Ayrim xollarda ruslarning ilg'or otryadlari artilleriya zarbalaridan yashiringan avstriyaliklarning blindajlarigacha etib keldilar. Bu xujum Brusilov yorib o'tishi nomini oldi.

Sentyabr boshlarida front mo'tadillashdi. Janubiy-G'arbiy frontning 1916 yil yozidagi xujumkor operatsiyalari, Avstriya-Vengriya qo'shinlarining Galitsiya va Bukovinadagi yirik mag'lubiyatlari (ular xalok bo'lganlar, yaradorlar va asirga olinganlar bilan 1,5 million kishini yo'qotdilar) oqibatida katta axamiyatga ega bo'ldi.

YOrib o'tilgan frontni yopish uchun markaziy davlatlar harbiy qo'mondonligi G'arbiy va Italiya frontlaridan 30 dan ortiq diviziyalarni olib kelishga majbur bo'ldi.

Urushning boshqa frontlaridagi harbiy xarakatlar. 1916 yil avgustida Antanta tomonidan urushga Ruminiya kirdi. *Ruminiya fronti* yaratildi. Ruminiya kuchsiz tayyorlangan va yaxshi ta'minlanmagan armiyaga ega edi. Ruminiya armiyasida og'ir artilleriya umuman bo'lmagan, undagi odamlar soni 400 ming kishiga etdi. Ruminiya qismlarining katta qismi Transilvaniya chegarasi bo'yida joylashdi. Shu erdan ular 28 iyunda xujum boshladilar. Dushman Ruminiyaga zarba berish uchun Makenzen va Falkengeyn (sobiq bosh shtab boshlig'i) qo'mondonligidagi qo'shin guruxlarini yaratdi. Sentyabr oxiri- oktyabr oylarida dushman qo'shinni yoyishni oxiriga etkazdi va xujumga o'tdi. Makenzen guruxi-Dobrujuga, Falkengeyn guruxi-Transilvaniyaga xujum qildi.

Ruminlarning shiddatli qarshiliklarini engib Makenzen qo'shinlari 23 noyabrda Dunayni kechib o'tdi va Falkengeyn qo'shinlari birlashdi. 4 dekabrda ruminlar Buxarestni jangsiz topshirdilar. 1917 yil yanvar oyi o'rtalarida Fokshani frontida, Dunayning quyilish joyida pozitsion kurash fronti o'rnatildi.

Italiya frontida 1916 yil martida italiyaliklar Izonso daryosi bo'yida beshinchi jangga kirishdilar, lekin bu yana muvaffaqiyatsizlik bilan tugadi. 15 mayda avstriyaliklar Trentinoga xujum boshladilar. Xujum muvaffaqiyatli davom etdi. Iyunda avstriyaliklar italiyaliklarni tog'ning so'nggi yon bag'riga siqib qo'ydilar. 17 iyunga kelib avstriyaliklarning xujumi to'xtatildi, ular qo'shinni ruslar frontiga jo'nata boshladilar. Buning natijasida italiyaliklar, Italiya frontining asosiy uchastkasi xisoblangan-Izonsoda xujumga o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

Avgust-noyabr boshlarida Italiya armiyasi Izonsoda oltinchi, ettinchi, sakkizinchi va to‘qqizinchi xujumni amalga oshirdi, natijada ular juda sust xarakatlanib katta talofatlar berdilar.

Solonik fronti (300 ming Serbiya, Angliya, Fransiya, Italiya va rus qo‘shinlari) o‘ziga yuklatilgan vazifani to‘liq bajara olmadi. Sentyabrda Solonik fronti qo‘shinlari Monastir shaxriga xujum qildilar va uni noyabr oyida egalladilar. 1916 yil oxirida ittifoqchilar qo‘shinlari Piriney (Yunoniston floti bazasi) egalladilar, Yunoniston armiyasi va flotining bir qismini qurolsizlantirdilar va o‘z front ortilarini ta‘minladilar.

Osiyo-Turkiya frontida, turli frontlarda rus va ingliz qo‘shinlari turk qo‘shinlariga qarshi tarqoq, bir-biri bilan bog‘lanmagan jangovar xarakatlarni olib bordilar.


1916 yilda Kavkaz frontida rus qo‘shinlari Erzurem (10 yanvar-2 mart), Trapezund (14-18 aprellar) va Erzinjon operatsiyalarini o‘tkazdilar. Forsning shimoliy qismi egallandi. Rus qo‘shinlari Turkiya xududiga qariyb 250 kilometr ga xarakatlandi va Erzerum, Trapezund va Erzinjon shaxarlarini egalladi.

Mesopotamiya frontida inglizlar Kut-El-Amardagi mag‘lubiyatlaridan keyin 1916 yilning oxirigacha hech qanday faol xangovar xarakatlarni olib bordilar. Sinay yarim orolida turklarning xujumlarini qaytargan inglizlar xujumga o‘tdilar. 1916 yil dekabrda ular El-Arishni (Suvaysh kanalidan 130-140 km shimolroqda) egalladilar.

### **7.12. 1916 yil kampaniyasidagi harbiy san‘at rivojlanishining asosiy o‘ziga xos belgilari.**


1916 yil kampaniyasi xujumkor janglarida tor frontda frontal (Verdenda), keng frontda (Sommada) va keng frontning bir-nechta uchastkalarida ommalashgan zarbalar qo‘llanildi.

Mudofaa ancha mustaxkamlandi va chuqurlashdi, uning asosi bo‘lib 2-3 ta istexkomlar chizig‘i xizmat qildi. Bunday mudofaa, chuqurlikdan qarshi xujumni qo‘llash, operativ zaxiralar bilan manyovrni amalga oshirish imkonini berdi.



**Lis tomonidan yaratilgan Angliya qo‘l pulemyoti**

Oldingi mudofaa chiziqlarini buzib tashlagan artilleriya o't zarbasining rivojlanishi, mudofaalanayotgan piyodalardan dushmanga yaqin mudofaa chizig'ida minimal sondagi jangchilarni qoldirishni va asosiy kuchlarni front ortiga joylashtirishni talab qildi. Piyoda qo'shinlar o't zarbalarini oshirish uchun qo'l pulemyotlarini qo'lladilar. Shu maqsadlar uchun piyodalarning o't zarbalarini oshirishda kichik kalibrli batalon to'plari va minomyotlar kiritildi.



### **90 mm li bombomyot pozitsiyada**

1916 yilda piyodalarni o't zarbasi bilan kuchaytirish sifatida xarakatchan to'siqli zarba-*olovli val* qo'llanildi. Kimyoviy va tutunli snaryadlar (gaz ballonli atakalarning o'rniga) ko'rinishidagi kimyoviy kurash vositalari artilleriya qo'llanila boshlandi.

Sommadagi operatsiyada birinchi marta jangda *tanklar* ishtirok etdi. Takomilla Shuvi past bo'lgan tanklar kam sonda qo'llanildi va ulardan piyodalarni dushmanning mudofaa pozitsiyalariga yaqinlashishlariga ko'maklaShuvchi vosita sifatida foydalanildi. Yurish tezligi sust, xarakatlanish uzoqligi kam bo'lgan tanklar taktikaga va artilleriyaning qo'llanishiga, xamda asosiy qo'shin turlari o'rtasida shakllangan aloqaga ta'sir ko'rsatmadi. Lekin tanklarning jang maydonida birinchi qo'llanishi ularning kelajagi porloq ekanligidan dalolat berdi.

### **7.13. Germaniya batalonining jangovar tartibi**

Muvaffaqiyatni rivojlantirish, qisman aloqa va kuzatuvni amalga oshirish uchun belgilangan otliqlar pozitsion kurashda o'zining jangovar sifatlarini namoyish eta olmadi.

Muxandislik qo'shinlari mudofaa chiziqlarini, xujum uchun dastlabki marralarni qurishda, qo'shin uchun yo'llarni yaxshilashda o'z san'atlarini ancha takomillashtirdilar. Xujum muxandislik vositalari bilan ancha samarali ta'minlana boshlandi, lekin jang maydonida qo'shinni bevosita ta'minlash xali kuchli emas edi.

Aviatsiya xavoda xukmronlikni qo‘lga kiritish uchun kurash olib bordi. U razvedkachi, bombardimonchi va qiruvchi aviatsiyaga bo‘lindi. Bombardimonchi aviatsiya dushmanning yaqin masofadagi front ortiga zarbalar berish uchun qo‘llanildi, qiruvchi-samolyotlar esa aviatsiyaning boshqa turlari uchun katta xavf tug‘dirdi. YAKka xolda xavo jangini olib borishdan samolyotlar uchta va undan zvenolarga bo‘linib guruxiy janglarga o‘tdi. Ularning muxim vazifalari bombardimonchi, razvedkachi samolyotlarni kuzatishdan iborat bo‘ldi. Shu tariqa qiruvchi aviatsiyaning bombardimonchi va razvedkachi aviatsiyasi bilan o‘zaro xamkorlikni tashkil etish muammosi tug‘ildi.

1916 yilda katta avtomobil tashish ishlari amalga oshirildi (Verdendagi «muqaddas yo‘l» bo‘ylab va Sommada)

Piyodalar xujumkor jangni *zanjir to‘lqinlari* bilan, xamda *gurux-gurux* (Verden, Somma) bo‘lib va *shturmchi komandalarga* (ruslarning Janubiy-G‘arbiy fronti) bo‘linib olib bordi. Piyodalarning tashkil etilgan maxsus guruxlari okop janglarida qo‘llanildi.

Xujumkor jangning muvaffaqiyati artilleriya tayyorgarligiga bog‘liq bo‘ldi, lekin artilleriya piyodalarni faqat to‘siqli zarbani ko‘rish imkoniyati bo‘lgan chuqurlikkacha kuzatib bordi. Piyodalarning qamrab oluvchi manyovrlarsiz tekis taqsimlanishi, mudofaaning butun chuqurligida uni bosib qo‘yish yoki yanchib tashlash uchun etarli bo‘lmadi. Bu, jangda ishtirok etuvchi xamma qo‘shin turlari jangovar imkoniyatlari to‘lig‘icha foydalaniladigan umumqo‘shin jangini tashkil eta olmaslikdan dalolat berdi.

#### **7.14. Birinchi jaxon urushining 1917-1918 yillar kampaniyasi. Germaniyaning mag‘lubiyati va urushning tugashi.**

1917 yil kampaniyasi. Rossiyaning urushdan chiqishi. AQSHning urushga kirishi. 1917 yil boshidagi umumiy vaziyat va tomonlarning strategik rejaları. Antanta harbiy jixatdan markaziy davlatlardan anchagina kuchliroq bo‘ldi va kirib kelgan 1917 yilda g‘alaba qilishga umid bog‘ladi.

1917 yil boshida Germaniya koalitsiyasining axvoli Belgiyani, Fransiyaning katta qismini, Polshani, Boltiqbo‘yi va Belorussiyani egallaganiga qaramasdan, Serbiya va Ruminiya ustidan g‘alaba qozongani bilan axvoli juda og‘ir bo‘ldi. Germaniya odamlar zaxiralariga muxtojlik seza boshladi. Germaniya o‘z axolisining 17 Yoshdan 45 Yoshgacha bo‘lgan harbiy ishga majbur erkak kishilaridan 1917 yil baxorida faqat 13 diviziyani tashkil etishi mumkin edi.



Avstriya-Vengriyaning axvoli bundan xam og'irlashib ketib, uning armiyasi frontlarni faqat germaniyaliklar yordamida ushlab turishga qodir edi.

Iqtisodiy, moliyaviy va odam zaxiralari bo'yicha ustunlik Antanta tomonida bo'ldi. U AQSHning iqtisodiy yordamiga ega bo'ldi. AQSH Germaniyaning g'alaba qilishidan va uning Evropada xukmronlik qilishidan cho'chidi. Shuning uchun 1917 yil 6 aprelda Amerika Qo'shma Shtatlari Germaniyaga urush e'lon qildi.

Germaniya uchun AQSHning urushga kirishi kutilmagan xol emas edi. Germaniya bosh qo'mondonligi AQSHning urushga tayyorgarlik darajasi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lib, uning G'arbiy Evropa teatrida kuchlarni safarbar etish va yoyish uchun ko'p vaqt sarflashini to'g'ri xisobga oldi. Og'dirib olish usuli bilan to'ldirilgan AQSHning doimiy armiyasi 190 ming kishini va milliy gvardiyasi-170 ming atrofida harbiy xizmatchilarni tashkil etdi. Urush e'lon qilish bilan birga AQSH qurolli kuchlarni yaratishga kirishdi. 1917 yil sentyabrida armiyaga chaqirilgan askarlarning soni 2 mln 800 ming kishiga, urush oxirida 4 mln kishiga etdi, ulardan 2 millioni Evropa teatrida joylashtirildi.

Angliya va Fransiya armiyalari Germaniya armiyasidan artilleriya, aviatsiya bo'yicha ustun bo'lib, ularda tanklar xam bor edi. Ikkala tomon xam og'ir artilleriyani otish uzoqligini, nishonga aniq urishi va qudratini oshirdilar, uni takomillashtirdilar.

Shunday qilib, 1917 yilda yuzaga kelgan strategik vaziyat markaziy davlatlar uchun juda og'ir bo'lib, Antanta uchun qulay bo'ldi. 1917 yilda Germaniya koalitsiyasi na G'arbda, na Sharqda qat'iy xujumkor operatsiyalarni olib borishga qodir emas edi. U strategik mudofaaga o'tdi.

Antantaning rejasi o'zining kuch va vositalar bo'yicha ustunligidan qat'iy foydalanishga va urushni 1917 yilda tugatishga asoslanib ishlab chiqildi. Fransiya bosh qo'mondonligida o'zgarishlar bo'ldi. 1916 yil dekabr oyida general Joffr iste'foga chiqdi, uning o'rnini general Nivel egalladi.

Xar ikkala koalitsiyalarning kuchlari 1917 yil boshida harbiy xarakatlar teatrlarida quyidagicha taqsimlandi:

<b>Evropa urush xarakatlari teatri</b>			
Markaziy ittifoq davlatlari armiyalari		Antanta davlatlari armiyalari	
armiyalar	Diviziyalar soni	Armiyalar	Diviziyalar soni

G'arbiy front			
Germaniya	129	Fransiya	106
		Angliya	56
		Belgiya	6
		Rossiya	2 brigada
Rossiya fronti			
Germaniya	64	Rossiya	130
Avstriya	38		
Turkiya	2		
Ruminiya fronti			
Avstriya	11	Ruminiya	20
Germaniya	10	Rossiya	17
Bolgariya	3,5		
Turkiya	2		
Solonik fronti			
Bolgariya	8,5	Ittifoqchilar	20
Avstriya	2	Italiya	17
Germaniya	1		
Turkiya	1		
Italiya fronti			
Avstriya	34	Italiya	43

<b>Evropa urush teatrlaridan tashqarida</b>			
Kavkaz, Fors			
Turkiya	27	Rossiya	13,5
Mesopotamiya			
Turkiya	3	Angliya	5
Arabiston			
Turkiya	4		15 000 kishi
Misr va Sinay			
Turkiya	2	Angliya	4
Suriya-Anatoliya, Frakiya			
Turkiya	9		

1917 yilning boshida Antanta davlatlari 439 diviziyaga (Fransiya-112, Angliya-84, Rossiya-158, Belgiya-6, Serbiya-6, Italiya-51, Ruminiya-22), markaziy davlatlar esa 337 diviziyaga (Germaniya-200, Avstro-Vengriya-73, Bolgariya-12, Turkiya-48) ega edilar.

1917 yilda qabul qilingan rejaga ko'ra asosiy rol Angliya, Fransiya armiyalariga berildi. Qolgan boshqa frontlar xam faol jangovar xarakatlarni olib borish vazifasini oldilar.

Sharqiy frontdagi vaziyat. Rossiyani urushdan chiqishi. 1917 yil fevralida Rossiyada burjua-demokratik inqilobi bo'ldi, xokimiyat tepasiga Muvaqqat xukumat kelib, urushni davom ettirdi.

Iyulda ruslar Janubiy-G'arbiy frontda xujumga o'tdilar. Operatsiyada 42 piyodalar va 9 kavaleriya diviziyalari ishtirok etdi. Operatsiya boshida rus qo'shinlari Lvov yo'nalishida dushman pozitsiyasining bir-nechta uchastkalarini egalladilar.

### **Rossiya, Italiya va Bolqon frontlaridagi 1917 yil kampaniyasi**

Keyingi kunlarda xujum to'xtab qoldi. 13 iyulda rus qo'shinlari (8-armiya) yorib tish uchastkasida 25-30 kilometr ga olg'a xarakatlandilar.

Germaniya qo‘mondonligi yorib o‘tilgan uchastkaga tezkorlik bilan Fransiya frontidan (11 diviziya) va boshqa frontlardan qo‘shinni olib keldi. Ternopol yo‘nalishida ular 19 iyulda kuchli qarshi zarba berdilar, frontni yorib o‘tdilar, muvaffaqiyatni rivojlantirib, Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlarini uloqtirib tashladilar.

Keyinchalik Germaniya qo‘shinlari Riga (1-6 sentyablarda) va Moonzund (12-20 oktyablarda) operatsiyalarini o‘tkazdilar. Qisqa artilleriya tayyorgarligidan keyin ular 1 sentyabrda G‘arbiy Dvinani kechib o‘tdilar va rus pozitsiyalarini egallash uchun janglarni olib bordilar. Xujumning uchinchi kunida Germaniya qo‘shinlari Rigaga kirdilar.

12 oktyabrdan 20 oktyabrgacha nemislar Moonzund orollarini egallash bo‘yicha jangovar operatsiya o‘tkazdilar. Bu operatsiyada dengiz kuchlari desant (25 ming kishi) tushirilishini ta‘minladilar.

Rossiyadagi vaziyat og‘ir bo‘ldi. Bir milliondan ortiq qochoqlar (dezertirlar) rus armiyasini tashlab ketdi. Ichki tushkunlik Rossiya iqtisodiyotining uzoq urush olib borishga bardosh bera olmasligini tasdiqladi.

25 oktyabrda (7 noyabrda) Petrograd da inqilob sodir bo‘ldi, Muvaqqat xukumat ag‘darilib tashlandi va Rossiyada ittifoq xukumati o‘rnatildi. Ittifoq xukumati 3 dekabrda Germaniya bilan tinchlik muzokaralarini boshladi. 15 dekabrda tinchlik to‘g‘risida bitim imzolandi. Urush xarakatlari ruslarning Sharqiy frontida to‘xtatildi.

Markaziy davlatlar uchun, ayniqsa Avstriya-Vengriya uchun tinchlik bitimining imzolanishi juda qo‘l keldi. Germaniya va uning ittifoqchilari 1918 yilda Brest-Litovskda Rossiyaga tinchlik shartnomasining og‘ir shartlarini elon qildi. 1918 yil 3 martda tinchlik shartnomasi imzolandi. SHartnomaga binoan Rossiya Polshadan va Litvadan butunlay, Estoniya, Latviya, Ukraina va Belorussiyaning bir qismidan voz kechdi.

1917 yildagi G‘arbiy Evropa teatriidagi harbiy xarakatlar. 1917 yil baxorda fransuzlar va inglizlar qat‘iy xujumga tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordilar. Germaniya qo‘mondonligi qo‘shinni Nuayon bo‘sag‘asidan (front bo‘ylab Arrasdan Suassongacha 135 kilometrda, chuqurlik bo‘ylab ayrim joylarda 30 kilometrdan 40 kilometrgacha bo‘lgan) tayyorlangan *Zigfrid pozitsiyasiga* olib o‘tdi (qo‘shinni olib o‘tish 16 martda boshlandi). Germaniya qo‘shinlarining olib o‘tilishi ittifoqchilarning tayyorgarligini buzib yubordi va ularni qo‘shinni qayta to‘plashga majbur qildi. Lekin ittifoqchilarning rejalari o‘zgartirilmadi va asosiy zarba Reyms bilan Suasson oralig‘ida yorib o‘tish uchun

mo'ljallangan 5-, 6-Fransiya armiyalari bilan beriladigan bo'ldi. Yorib o'tish fronti 40 km qilib belgilandi. Yorib o'tishni rivojlantirish uchun 10-va 1-armiyalar belgilandi.

Operatsiyaga ishtirok etish uchun 100 dan ortiq piyodalar, 10 kavaleriya diviziyalari, mingtacha samolyotlar va 2000 tadan ortiq tanklar jalb etildi. Faqatgina fransuzlar tomonidan operatsiyaga 1 mln 400 ming kishi jalb etildi. Front bo'ylab 40 kilometrda 5597 ta orudiya joylashtirildi: 2000 ta engil, 1947 ta og'ir va 1650 ta transheya to'plari.

9 aprelda inglizlarning **Arrasdagi** atakalari bilan fransuzlar va inglizlarning aprel oyi xujum operatsiyalari boshlandi. Artilleriya tayyorgarligi ikki sutka davom etdi. Xavoda harbiy-xavo kuchlarining xujumlari boshlandi. Soat 5.30 da Angliya piyodalari «*olovli val*» to'suvida xujumga kiritildi. Istexkomlarning birinchi chizig'i bir soatga etmasdan egallandi. Olovli val va tanklarning ortidan xarakatlangan piyodalar tezda to'xtab qoldi. Katta talofatlarga olib kelgan xoldan toydiruvchi janglar

#### **7.15.G'arbiy Evropa urush teatridagi 1917 yil kampaniyasi.**

Angliya-Fransiya qo'shinlarining aprel oyi xujumlari boshlanib ketdi. 11 aprelda 5-Angliya armiyasi qo'shinlarining bir qismi jangga kiritildi, lekin Shunga qaramasdan 3-armiya frontida dushman qarshiligini bosib qo'yishga muvaffaq bo'linmadi. 28 aprelda inglizlarning Zigfrid chizig'iga yorib kirishlari kichik bir chiziqni egallash bilan chegaralandi.

Bosh yo'nalishda zarba berish 16 aprel ertalab soat 6 da boshlandi. Fransiya bosh qo'mondonligi yorib o'tishni bir sutkada amalga oshirishni rejalashtirdi.

Artilleriya tayyorgarligi to'qqiz kun davom etdi. Bu vaqt ichida nemislar zaxiralarni tortib keldilar va artilleriyaning kuchaytirdilar. Cho'zilib ketgan artilleriya tayyorgarligi xujum qiluvchi qo'shinlarni to'satdan zarba berish imkoniyatidan maxrum etdi.

Olovli val va tanklar bilan kuzatib borilgan Fransiya piyodalari zich jangchilar ommasi bilan xujum qildi. Xaddan tashqari qilingan xarakat xam vazifani bajarilishiga olib kelmadi. Birinchi va ayrim joylarda ikkinchi istexkomlar chizig'ini egallashga muvaffaq bo'lindi. Janglarda 132 ta tank qo'llanildi.

Fransiya va Angliya armiyalarining xujumlari ayrim xollarda to'xtab qoldi, ayrim xollarda yangi kuchlar bilan davom etdi. Lekin xujum qiluvchi qo'shinlar operativ kenglikka chiqa olmadilar. Janglar faqat tomonlarni xoldan toydirdi.

Fransuzlarning umumiy talofatlari 120 ming kishini, inglizlarniki 80 ming kishini tashkil etdi. Nemislarning talofati 280 ming kishiga etdi. Jangga tashlangan 132 ta tankdan 76 tasi jang maydonida qolib ketdi, ulardan 57 tasi artilleriya zarbasi ostida tor-mor etildi.

Operatsiya natijasida xech qanday strategik ahamiyatga ega bo'lmagan kichik xududlar egallandi. Aprel oyida o'tkazilgan bu operatsiyani Fransiyada «*Nivel kushxonasi*» deb atadilar.

Aprel xujumi inqirozidan keyin ittifoqchilar katta xujumkor operatsiyalar o'tkazmadilar, yirik strategik vazifalardan voz kehdilar.

Xujumkor operatsiyalar cheklangan maqsadlarni ko'zlab o'tkaziladigan bo'ldi. Endilikda kurash pozitsiyalarni yaxshilash, aloxida taktik punktlarni egalash uchun olib borildi.

7 iyunda inglizlar 2-armiya kuchlari bilan **Messin** rayonida (Ipr rayonida) xujumga o'tdi. Xujumning maqsadi, inglizlar front uchastkasida dushman suqulib kirgan 15 kilometrli yoysimon bo'sag'ani kesib qo'yishdan iborat bo'ldi. Operatsiya puxta tayyorlandi. Xujum uchastkasida *minalashtirish* o'tkazildi. 600 tonna portlovchi modda (20 ta gornlar) o'rnatilgan uzunligi 8 ming metr bo'lgan er osti galerlari o'tkazildi. Ko'pgina galerlar 50-60 metr chuqurlikdan o'rnatildi.

### **G'arbiy Evropa urush teatridagi 1917 yil kampaniyasi.**

Artilleriya tayyorgarligi 28 mayda boshlandi, u kechayu-kunduz kichik to'xtalishlar bilan olib borildi.

7 iyun soat uchdan o'n daqiqa o'tganda o'rnatilgan portlovchi moddalar portlatildi. Dushmanning oldingi va joy-joyi bilan ikkinchi pozitsiyalari er bilan yakson etildi. Operatsiya natijasida Angliya qo'shinlari Ipr rayonida o'z xolatlarini ancha yaxshiladilar. Keyingi operatsiyani inglizlar **Iprda** o'tkazdilar. Asosiy zarbani 5-Angliya armiyasi berdi, uni shimoldan 1-Fransiya armiyasi, janubdan 2-Angliya armiyasi qo'llab-quvvatladi. Qo'shinlar ko'p sonli artilleriyaga (frontning xar bir kilometrda o'rtacha 6,5 ta orudiya to'g'ri keldi) ega bo'ldilar. Xujumga ishtirok etish uchun 216 ta tanklar xozirlandi.

Operatsiya 31 iyulda 16 kunlik artilleriya tayyorgarligi bilan boshlandi va orada to'xtalishlar bilan uch oydan ortiqroq-10 noyabrgacha davom etdi.

Ipr jangi qo‘shin talofatidan boshqa xech narsa olib kelmadi. Front yorib o‘tilmadi, xarakatlanish chuqurligi bor-yo‘g‘i 6 kilometrga etdi. Inglizlar 400 ming, nemislar 240 ming kishilarini yo‘qotdilar.

Keyingi xujumkor operatsiya 23-26 oktyabrlarda **Malmezonda** Fransiyaning 6-armiyasi kuchlari bilan o‘tkazildi. YOrib o‘tish fronti 10 kilometrni tashkil etdi. Bu operatsiyani o‘tkazish uchun 1878 ta orudiya, ulardan 1000 tagacha og‘ir, katta qudratga ega bo‘lgan to‘plar tayyorlandi. Malmezonda butun urush davomida artilleriyaning eng yuqori zichligiga erishildi (xar bir pogon metrga 8 tonna snaryad otildi), 63 ta tanklar diviziyalarga tarqatib berildi.

Artilleriya tayyorgarligi 8 sutka davom etdi. 23 oktyabrda piyodalar tanklar bilan xujumga kirdi. 4 kun ichida dushmanning uchta okoplar chizig‘i egallandi. Malmezon bo‘sag‘asini kesib tashlash vazifasi bajarildi. 12 kilometrli frontda fransuzlar germaniyaliklar mudofaasiga 6 kilometrga yorib kirdilar.

**Kambre operatsiyasi (1917 yil 20 noyabr-6 dekabr)** harbiy tarixga «tanklar tantanasi» va ularni birinchi marta ko‘plab qo‘llash tajribasi sifatida kirdi. Kambre operatsiyasida pozitsion frontni yorib o‘tish imkoniyati ko‘rindi.

Kambre operatsiyasining maqsadi-tanklarni ommalashgan xolda piyodalar, aviatsiya va kavaleriya bilan xamkorlikda qo‘llab muvaffaqiyatga erishishdan iborat edi.

Xujumni ikki bosqichda o‘tkazish ko‘zda tutildi: birinchi bosqichning mazmuni-birinchi kundayoq dushman pozitsiyasini butun chuqurligida yorib o‘tish, ikkinchi bosqichning moxiyati esa-muvaffaqiyatni rivojlantirishdan iborat bo‘ldi.

Operatsiyani o‘tkazish 3-Angliya armiyasiga yuklatildi. YOrib o‘tish uchastkasi 12 kilometrli kenglikda, frontga nisbatan perpendikulyar joylashgan, 7-8 kilometrgacha torayib ketadigan ikkita kanalning oralig‘ida belgilandi.

YOrib o‘tish uchun quyidagi kuchlar ajratildi: 3-va 4-korpuslar (6 piyodalar diviziyasi); tank korpusi (476 ta tank, ulardan 378 tasi jangovar tanklar, xar biri 3 tadan tank batalonlariga ega bo‘lgan uchta tank brigadasi); kavaleriya korpusi; 1009 ta artilleriya orudiyasi va 1000 tagacha samolyotlar.

Germaniya mudofaasi uchta pozitsiyadan iborat bo‘ldi. Asosiy pozitsiya oldida, simli to‘siqlar tarmog‘i bilan ximoyalangan qo‘riqlov pozitsiyasi joylashdi. Ushbu pozitsiya va asosiy pozitsiya oralig‘ida juda ko‘plab qarshilik ko‘rsatish tuynuklari yaratildi. Asosiy

pozitsiyadan 2 km uzoqlikda ikkinchi pozitsiya joylashtirildi. Ikkinchi pozitsiyaning ortidan uchinchi pozitsiya o‘rin egalladi.


Xujum uchastkasida nemislar ikkita diviziyani oldinda va bitta diviziyani zaxiradi ushlab turdilar.

### **1917 yil 20 noyabrdan-6 dekabrgacha o‘tkazilgan Kambre operatsiyasi**

Tanklar xujumining jangovar tartibi mukammal ishlab chiqildi. Tanklar xujumi birin- ketin jangga kiritiladigan tanklar to‘lqinlari bilan olib borildi. Tanklar xar birida uchta tankka ega bo‘lgan vzvodlarga birlashtirildi. Tanklar vzvodi uchburchak safda xujumni olib bordi: bitta tank oldinda (bosh tank) va ikkita tank (asosiy kuchlar) 100 metr ortda. Oldindagi tank dushman o‘t ochish vositalarini bosib qo‘ygan va simli to‘siqlar xamda okoplar orqali piyodalarga yo‘l ochib berayotgan asosiy kuchlarni (ikkita «piyodalar» tanklarini) to‘sib turgan. Oldindagi tank simli to‘siqlardan o‘tib okoplargacha etib kelgan, okoplardan o‘tib ketmasdan orudiyasidan zarbalar berib chapga burilgan. Ortda chap tomondan kelayotgan piyodalar tanki okopga etib kelgan va fashina tashlab undan o‘tgan va okop bo‘ylab chap tomonga xarakatlangan. Ikkinchi piyodalar tanki, birinchi piyodalar tanki tashlagan fashina orqali okopdan o‘tgan va ikkinchi okopga etib kelib, o‘z fashinasini tashlab undan o‘tgan va u xam okop bo‘ylab chap tomonga xarakatlangan. Bu vaqtda oldindagi tank piyodalar tanklari tashlagan fashinalar orqali okoplardan o‘tib, uchinchi okopga xarakatlangan, ikkita piyodalar tanklari (asosiy tanklar) yana uning ortidan xarakatni davom ettirgan.

Piyodalar otdelenie-otdelenie, qator-qator bo‘lib (otdelenie zanjir xolda-kolonnada bittadan bo‘lib) tank vzvodining asosiy kuchlari ortidan (piyodalar tanklari ortidan) xarakatlangan. Ular uch guruxga bo‘lingan: ularning xar biri o‘z vazifasini bajargan: birinchi gurux-*okop tozalovchilar*, ikkinchi gurux-*okoplarni qamrab oluvchilar* (aloxida mudofaa inshootlari bilan kurashish) va uchinchi gurux-qo‘llab-quvvatlovchi gurux bo‘lib, egallangan okoplarda «okop garnizonlarini» yaratgan va keyingi eshelonlar uchun avangard bo‘lib xizmat qilgan.





### Tanklarni okoplardan o'tish chizmasi

Shunday qilib, tanklar va piyodalarning o'zaro xamkorligi amalga oshirildi, tanklar piyodalarga simli to'siqlar orqali yo'l ochib berdi, dushman pulemyot nuqtalarini yakson qildi, egallangan pozitsiyalarda mustaxkamlanishda piyodalarni qo'llab-quvvatladi. Piyodalar tanklarning oldinga xarakatlanishlariga ko'maklashdi, yaqin masofada ular dushmanning orudiya raschyotlarini safdan chiqarib, tanklarni dushman artilleriya zarbalaridan ximoya qildi. Tanklar piyoda qismlarga taqsimlab berildi.

20 noyabr soat 6.30 da Angliya okoplari ortida yoyilgan tanklar xujumga kiritildi. Artilleriya 10 daqiqa oldin o't ochib, tanklar va piyodalarni olovli val (tanklardan 200 metr oldinda) bilan kuzatib bordi. Ko'plab samolyotlar dushmanning batareyalari, piyodalari va shtablariga zarbalar berdi. Xujum juda muvaffaqiyatli kechdi. To'satdan berilgan ommalashgan zarba va ko'p sonli tanklarning zarbalari dushmanni parokandalikka solib qo'ydi. Xujum qiluvchilar faqat bir-nechta punktlarda kuchli qarshilikka uchradilar. Soat 16 da inglizlar 10 km olg'a xarakatlandilar, 8 ming kishini asir oldilar, o'zlari 1500 kishini yo'qotdilar. Dushmanning uchta kuchli istexkomlar pozitsiyasi egallandi. Lekin janglar

davomida xoldan toygan qo‘shinlar muvaffaqiyatni rivojlantira olmadilar. 21 noyabrda inglizlar ozroq oldinga xarakatlandilar, lekin ochiq maydonda yastanib yotgan pozitsiyani egallay olmadilar. 22 noyabrdan dushman yangi diviziyalarini olib kela boshladi va kurash odatiy pozitsion shaklga o‘tib qoldi.

30 noyabr-6 dekabrda germaniyaliklar qarshi zarba berdilar, qo‘ldan ketgan xududning bir qismini egalladilar va ko‘plab dushman askarlarini asir oldilar. Ularning keyingi xarakatlari tanklar bilan to‘xtatib qolindi.

Urushning umumiy borishiga Kambre operatsiyasi sezilarli ta‘sir ko‘rsatmadi. Lekin bu operatsiya urush olib borish san‘atiga o‘z xissasini qo‘shdi. Kambre-urushlar tarixidagi tanklar ommalashtirib qo‘llanilgan birinchi jang bo‘ldi. Bu jang bilan urush olib borishning va umuman qurolli kurash olib borishning yangi usullari va shakllarining yaratilishi bog‘liqdir.

Piyodalar va artilleriya, aviatsiya bilan xamkorlik qilayotgan tanklarning ko‘plab qo‘llanishi, dushman mudofaasini yangicha usulda yorib o‘tishga (uchta pozitsiyasini) imkon berdi. Kambre jangida dushman pozitsiyasini yorib o‘tish yuqori sur‘atlarda amalga oshirildi. Yangi vosita xisoblangan-tank, xujum qiluvchi piyodalar uchun daxshatli qurol xisoblangan pulemyotlarga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib bordi. Zirxlangan mashinalar pulemyotlarni yanchib tashladi yoki ularni o‘t ochishni to‘xtatishga majbur qildi. Tanklar piyodalarga yo‘l ochib berdi, pulemyotlar bilan to‘ldirib tashlangan jang maydonidan ularni olib o‘tdi.

*Kambre jangi bilan piyodalar, artilleriya, tanklar va aviatsiya o‘rtasida xamkorlikka asoslangan umumqo‘shin jang taktikasining boshlanishi bog‘liqdir.*

Bu jang bilan *tankka qarshi mudofaaning yaratilishi* xam bog‘liqdir. Artilleriya o‘ta samarali vosita bo‘lib xisoblandi. Tanklarga qarshi nishonga qarata to‘g‘ri otuvchi maxsus orudiya ajratildi. Tanklarga qarshi otish uchun minomyotlar va avtomobillarga o‘rnatilgan 77 mmli zenit to‘plari qo‘llanildi.

**Boshqa frontlardagi harbiy xarakatlar.** 1917 yil oktyabrda Italiya frontida avstro-germanlar **Kaporettoda** birgalikda xujumni amalga oshirdilar. 7 Germaniya va 8 Avstriya diviziyalaridan iborat 14-zarbdor armiya yaratildi. 14-armiya 10-va 2-Avstriya armiyalari bilan qo‘llab-quvvatlandi. 1-Avstriya armiyasi unga qarshi turgan dushman kuchlarini

xoldan toydirdi. 14-armiya 1621 ta orudiyaga, 301 ta minomyotlarga va ko'plab gazomyotlarga ega edi.

Kaporettodagi jang 24 oktyabrda boshlandi. Italiyaliklarning fronti yorib o'tildi. Avstriya va Germaniya qo'shinlari Italiya xududiga 100 kilometrdan ortiq ilgarilab ketdilar. Angliya-Fransiya qo'mondonligi shoshilinch ravishda o'z diviziyalarini Italiyaga yuborishni boshladi. Noyabr oyi o'rtalarida Italiya qo'shinlari Pyava daryosi marrasida mustaxkamlanib oldilar. Italiyaliklarning talofati qariyb yarim million kishini tashkil etdi (335 ming asirlar va 130 ming xalok bo'lganlar va yaradorlar).

Italiya qo'shinlarining Kaporettodagi mag'lubiyati bilan Avstriya-Vengriya monarxiyasining xalokati ortga surildi. Ammo muvaffaqiyatlarga qaramasdan Italiyadagi Avstriya-Germaniya qo'shinlarining xujumlari Antantaning strategik xolatini o'zgartirmadi. Italiya urushdan chiqarilmadi va ittifoqchilarning ko'magi bilan u o'z frontini ximoya qildi.

Salonik frontida (ittifoqchilarning kuchlari 600 ming kishidan iborat edi) Antantaning aprel oyi xujumi muvaffaqiyat keltirmadi. 1917 yilning ikkinchi yarmida frontda osoyishtalik xukm surdi. Iyunda Antanta Yunonistonni, qirolni ag'darilib tashlanganidan keyin o'z tomonidan urushga kirishiga erishdi.

1917 yilda Kavkaz frontida xech qanday yirik to'qnaShuvlar bo'lmadi.

Mesopotamiya frontida inglizlar uzoq va puxta tayyorgarlikdan so'ng xujumga o'tdilar va mart oyida Bog'dodni egalladilar. Tigr va Mosulu daryolarining oqimi bo'ylab yuqoriga xujumni rivojlantirib, ular Qora-Tepa-Tikrit marralariga chiqdilar. Suriya frontida turklar inglizlarning (mart-aprel oylarida) G'azo rayonidagi pozitsiyalarini yorib o'tish uchun qilgan xarakatlarini barbod etdi. Noyabrda inglizlar yangi-uchinchi xujumni boshladilar va turklarning mudofaasini yorib o'tdilar. Noyabr o'rtalarida inglizlar YAffra shaxrini egalladilar, 9 dekabrda esa-Ierusalimni bosib oldilar. Inglizlarning keyingi xujumlari to'xtatib qo'yildi.

#### **7.16. 1917 yil kampaniyasida harbiy san'at rivojlanishining asosiy o'ziga xos belgilari**

1917 yil kampaniyasida Rossiyaning urushdan chiqishi urushning borishiga, Antanta va Germaniya koalitsiyasi strategik rejalariga o'z ta'sirini o'tkazdi. Rossiyaning urushdan chiqishi Antantaga o'zining yomon ta'sirini o'tkazdi.

Kampaniyaning yirik voqeasi-AQSHning Antanta tomonidan urushga kirishi bo'ldi. Antanta moddiy vositalar va odamlar zaxirasi bilan kuchaydi, ammo bu kuchlardan faqat keyingi 1918 yil operatsiyalarida foydalanish mumkin edi.

1917 yil kampaniyasida Antantaning rejasi-muvofiqlashtirilgan zarbalar bilan Germaniya koalitsiyasi ustidan g'alabaga erishish amalga oshmadi. Angliya-Fransiya qo'shinlari aprel oyidagi qat'iy xujumlarni faqat o'z kuchlari bilan o'tkazdilar, Shu bilan ular germaniyaliklarga boshqa frontlardan qo'shinni olib kelishga imkoniyat yaratib berdilar. Ruslar, fransuzlar va inglizlar xam o'z frontlarida zarbalarni kelishilmagan xolda, turli vaqtlarda berdilar.

Urushni mudofaa usuli bilan quruqlikda va dengizda suv osti jangovar xarakterini olib borishga qaratilgan Germaniya strategiyasi xam o'zini oqlamadi. 1917 yilda operativ va taktik san'at borasida olg'a siljishlar ko'zga tashlandi. Operatsiya va jangni olib borish usullari va shakllari jangovar texnika va qurol-yarog'larning takomillaShuvi, qo'shinlarga ko'plab tanklar, samolyotlar va boshqa vositalarning kiritilishi ta'sirida, xamda uch yildan beri davom etib kelayotgan urushning boy tajribalarini o'rganish va ulardan foydalanish tufayli rivojlandi. 1917 yilning birorta xam operatsiyasi urush olib borishning pozitsion usullari va vositalarini o'zgarishiga olib kelmadi.

Xujum qilayotgan raqib xujum sur'atini oshirishga, mudofaalanayotgan tomonga zaxiralarni tortib kelishga va kuchlarni tenglashtirishga imkon bermaslikka xarakter qildi. Mudofaaning chuqurligi oshdi. Diviziya mudofaa uchastkasi 3-4 km bo'lganda uning chuqurligi 12 kilometrga etdi. *Xarakatchan, faol mudofaaga* o'tishni amalga oshirish boshlandi (qattiq mudofaadan). Mudofaa tizimida aloqa yo'lakchalariga ega bo'lgan va yoppasiga mudofaani ta'minlaydigan tayanch punktlari katta ahamiyat kasb eta bordi. Nemislar mudofaani, to'sib turuvchi yoki oldingi zonalarga va jangovar zonalarga ajrata boshladilar. Oldingi zona (chuqurligi 1 km bo'lgan qo'riqlov pozitsiyasi) asosiy mudofaa pozitsiyasiga to'satdan zarba berishni oldini olish uchun belgilandi. Mudofaani chuqurlik bo'ylab eshelonlashtirish va uni takomillashtirish bilan mudofaalanayotganlar, uni zabt etilishiga to'sqinlik qilish, xujum qilayotgan qo'shinnlarni kerakli kuch va vositalarni olib kelish uchun mudofaa chizig'ida to'xtatib qolishga xarakter qilganlar.

## **Mudofaani jangovar va to'sib turuvchi zonalarga bo'linishi**

1917 yilda tanka qarshi mudofaa (tankka qarshi orudiyalar, zirx teshib o'tuvchi o'qlarni otuvchi miltiqlar va pulemyotlar, muxandislik inshootlari) joriy etildi.

Operatsiyalarni olib borishning yangi usuli-frontning turli uchastkalarida bir vaqtning o'zida zarbalar berish keng tarqaldi. Kaporetto operatsiyasida frontning yorib o'tilishi va operativ kenglikka chiqish amalga oshirildi. Lekin inglizlar va fransuzlar G'arbiy frontda, qo'shinni ko'plab moddiy va texnik vositalar bilan ta'minlanganligiga qaramasdan bunga erisha olmadilar.

### **1916 yilning oxiri va 1917 yilda Fransiya mudofaasining qarshilik ko'rsatish tarmog'lari (markazlari)**

Raqiblar to'satdan zarba berish samaradorligini saqlab qolish uchun ko'p kunlik (16 sutkagacha) artilleriya tayyorgarligidan voz kehdilar, dushman mudofaasini buzib tashlashga emas, uni bosib qo'yishga xarakat qildilar. Qisqa artilleriya tayyorgarligi o'tkazildi, yoki umuman o'tkazilmadi (Mitava va Kambre operatsiyalari). To'satdan zarba berishga erishish maqsadida kurashning yangi vositalari qo'llanildi, masalan, 1917 yil 7 iyundagi juda katta qudratga ega bo'lgan portlash.


Jang tajribalari asosida piyodalar va tanklarning o'zaro xamkorliklari ishlab chiqildi.

To'lqinsimon jangovar tartibdan guruxiy jangovar tartibga o'tish amalga oshirildi. Asosini guruxlar (otdelenielar) tashkil etgan guruxiy jangovar tartib-piyodalarni kuzatib boradigan engil orudiyalar, tanklar va pulemyotlarning kirib kelishi va keng tarqalishi bilan joriy etildi. Uzluksiz chiziq-zanjir va piyodalar to'lqini-kuchaygan artilleriya o't zarbasidan yakson etila boshlandi, Shuning uchun kichik guruxlar qo'llanilib, ular joydan moxirlik bilan foydalanganlar. Zanjirlardan iborat bo'lgan jangovar tartibning aloxida ob'ektlarga xujum qilishi amaliyotda qo'llanildi.

Tanklar, ishlab chiqilgan olovli val, yangi guruxiy jangovar tartib xujum qudratini ancha oshirdi. Kambre jangida tanklarning ko'plab qo'llanishi, xamma zamonaviy qo'shin turlari (eskilar va yangilar)-piyodalar, artilleriya, tanklar va aviatsiyaning o'zaro xamkorligi-dushman mudofaasi ichkarisida tez sur'atlar bilan xujum qilishga imkon yaratdi. Xujum mudofaaga qaraganda kuchliroq bo'ldi. Operativ kenglikka chiqish kuchli

zaxiralarning bo‘lmaganligi, xamda rejalashtirilgan butun operatsiya davomida xamma qo‘shin turlari o‘rtasida o‘zaro xamkorlikni to‘g‘ri tashkil etilmaganligi uchun amalga oshmadi. Kurashning yangi usullari, *umumqo‘shin jang taktikasining* birinchi qo‘llanishi, unda amaldagi qo‘shin turlari bilan birga tanklarning ishtirok etishi Kambre operatsiyasi bilan bog‘liqdir. Kambre operatsiyasi tanklar jangi xisoblanadi.

1917 yilda artilleriyaning soni oshdi, yirik kalibrli to‘plar ko‘paydi. Og‘ir korpus artilleriyasi diviziyalarga biriktirildi, korpuslar bosh qo‘mondonlik zaxirasi xisobidan kuchaytirildi. *Bosh qo‘mondonlik artilleriya umumiy zaxirasi* yaratildi (BQAZ). Qo‘shin gazomyotlar bilan ta‘minlandi. Tankka qarshi artilleriya joriy etildi.



**Pastlab uchuvchi samolyotlarga qarshi otishga moslashtirilgan pulemyotr**

1917 yilda son jixatdan oshib borayotgan aviatsiyaning nishonlarni yo‘q qilish qoidalari va usullari ishlab chiqildi va o‘rganila boshlandi. 1917 yilda bombardimonchi va shturmchi aviatsiya jang maydonida xujum qilayotgan qo‘shinlar manfaatlari uchun keng qo‘llanila boshlandi.

Yaratilayotgan xavo xujumiga qarshi mudofaa dushman samolyotlari bilan samarali kurash olib bora boshladi. Maxsus zenit orudiyalari va qiruvchi aviatsiyadan keng foydalanila boshlandi (1915 yildan), to‘siq aerostatlari, *zenit projektorlari* qo‘llanila boshlandi.

Qurolli kuchlarning barcha turlari tashkiliy tizimlarida o‘zgarishlar bo‘ldi. Ikkala koalitsiya armiyalari piyoda qo‘shinlarida diviziyalardagi jangchilarning soni kamaydi. Germaniya va Fransiya diviziyalarida batalonlar soni to‘qqiztaga qisqartirildi.

## **7.17. 1918 yil kampaniyasi. Germaniyaning mag‘lubiyati va birinchi jaxon urushining tugashi**

**Germaniyaning 1918 yildagi xujumi** (45 karta). 1918 yilda Antanta urushni Rossiyasiz olib bordi va uning kuchlari xoldan toydi. Amerika Qo‘shma SHtatlari Fransiyaga yirik qo‘shin guruxlarini faqat 1918 yilning o‘rtalarida olib kelishi mumkin edi.

1917-1918 yillar bo‘lag‘alaridagi harbiy xolat Germaniya va uning ittifoqchilari uchun qulay bo‘ldi. Ular Rossiya, Ruminiya va Fransiyada keng xududlarni, butun Belgiyani, Serbiya, CHernogoriya va Albaniyani egallab turgan edilar. Italiya armiyasi 1917 yil oktyabrida Kaporetto jangida mag‘lubiyatga uchradi va uzoq vaqtga o‘zining avvalgi jang olib borish qobiliyatini yo‘qotdi. Rossiyaning urushdan chiqishi bilan Germaniya oldida bitta front-G‘arbiy front qoldi. Ruslarning Kavkaz armiyasidan ozod bo‘lgan Turkiyaning xam harbiy xolati ancha yaxshilandi.

Lekin iqtisodiy va siyosiy munosabatda Germaniya juda og‘ir axvolda qoldi. Germaniyaning ittifoqchisi xisoblangan Avstriya-Vengriya iqtisodiyoti parokandalikka uchraganligi sababli chuqur inqirozni boshidan kechirayotgan vaqt boshlandi. Turkiya va Bolgariyaning oziq-ovqat ta‘minoti masalalari qiyinlashib ketdi.

Angliya va Fransiyaning xam iqtisodiy axvoli yomonlashdi. Lekin Germaniya bilan taqqoslaganda ularning axvoli ancha barqaror bo‘lib, ularning iqtisodiy va harbiy imkoniyatlari Germaniyanikidan ancha ustun bo‘ldi. Angliya va Fransiya sanoati ko‘plab samolyotlar etkazib berdi, tanklarni ommaviy ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi.

Antanta davlatlari armiyani muntazam to‘ldirib borish uchun yirik odamlar zaxiralariga ega edilar. Ular mustamlaka davlatlari qo‘shinlaridan keng foydalandilar. 1918 yil martidan boshlab Amerika qo‘shinlarining Fransiyaga ommaviy etib kelishlari boshlandi (bir oyda taxminan 250-300 ming kishi). 1918 yil iyulida bir millionga yaqin qo‘shin olib kelindi. 1918 yil mart oyida Germaniyaning xujumi paytida Fransiyadagi Amerika qo‘shinlari soni 300 ming kishiga etdi.

Germaniya bosh shtabining rejasi Amerika qo‘shinlarining Fransiyaga etib kelishi bilan Antantaning qattiq qarshiligiga uchray boshladi. Xujumni tezlashtirishga shoshilish kerakligi ko‘rinib qoldi. Reja G‘arbiy Evropa teatrda qat‘iy zarbani Arras bilan La-Feraning oralig‘iga berishni, frontni yorib o‘tishni va Fransiya, Angliya qo‘shinlarini ajratib

tashlashni xamda inglizlarni La-Mansh bo'g'ozi qirg'oqbo'ylariga uloqtirib tashlashni ko'zda tutdi. Buning uchun asosiy zarbani Angliya frontiga berish rejalashtirildi.

Germaniya ittifoqchilari armiyalariga kelsak, ular Germaniyaning G'arbda to g'alabaga erishgunigacha dushman xujumlarini qaytarib turishlari kerak edi.

Antanta davlatlari urushni 1918 yilda tugatish kerak emas deb xisobladilar. Ular Germaniya ustidan 1919 yilda g'alabaga erishishni ko'zda tutdilar.

Baxorda germaniyaliklar Antanta qo'shinlaridan 21 piyodalar diviziyalariga ustunlik yaratdilar, lekin jangchilar soni bo'yicha ustunlik ularning raqiblari tomonida bo'ldi. Antanta armiyalari ko'plab samolyotlarga, 9 kavaleriya diviziyasiga va tanklar bo'yicha mutloq ustunlikka ega bo'ldilar. Germaniyaliklarda kavaleriya umuman bo'lmagan.

Nemislar Sharqiy frontda yirik kuchlarni qoldirib, Angliya-Fransiya qo'shinlariga kerakli darajada qat'iy zarbalar berish uchun ularni qo'llamadilar.

1918 yil martida Germaniya xujumidan oldin Antanta o'z safida quyidagi kuchlarga ega bo'ldi: 12 Belgiya diviziyasi front bo'ylab 35 kilometrda, dengiz qirg'oqbo'yidan Langemarkkacha joylashdi; Angliyaning 4 armiyasi-60 piyodalar diviziyalari va 3 kavaleriya diviziyalaridan iborat bo'lib, front bo'ylab 200 kilometrda Langemarkdan Uaza daryosigacha bo'lgan xududda joylashdi va ikki guruxga- SHimoliy (3 armiyaga ega bo'lgan) va Sharqiy (4 armiyaga ega bo'lgan) guruxlarga bo'lingan Fransiya qo'shinlari-xammasi bo'lib 100 piyodalar diviziyalari va 6 kavaleriya diviziyalaridan iborat bo'lib, front bo'ylab 530 kilometrda Uaza daryosidan SHveysariya chegaralarigacha bo'lgan xududda joylashdi.

Germaniyaliklar 765 kilometrli butun front bo'ylab, 10 armiya va 3 armiyalar guruxlarini o'z ichiga olgan to'rtta front birlashmalariga (193 piyodalar diviziyalari) ega bo'ldi.

Zarba berish uchun belgilangan uchta armiya-17-,2-va 18-armiyalar Arras bilan La-Ferning oralig'idagi 106 kilometrli frontda joylashdi. 70 kilometrli yorib o'tish frontida uchta armiyaning 59 piyodalar diviziyasi va bosh qo'mondonlik zaxirasining 3 diviziyasi xujum qilishi kerak edi. Nemislar uchta armiya joylashgan frontda (106 km) 6824 orudiya va 1000 samolyotlarga ega bo'ldilar. Qo'shinlar uch eshelonda saflandilar.

Xujum uchun tanlangan frontda, o'z saflarida 8 korpusga (32 piyodalar va 3 kavaleriya diviziyalari, 3 mingtacha atrofida orudiyalar, 500 taga yaqin samolyotlar, 216 ta tanklar)



ega bo'lgan 5-va 3-Angliya armiyalari mudofaani egallab turdilar. Kuchlar nisbati bo'yicha dushman Angliya qo'shinlaridan ikki marta ustun bo'ldi.

1918 yilda Angliya-Fransiya qo'shinlarini tor-mor etish vazifasini bajarish-bir vaqtda beriladigan zarbalar bilan emas, balki ketma-ket zarbalar berish yo'li bilan amalga oshirilishi ko'zda tutildi. Xuddi Shu reja bo'yicha 1918 yilda xujumkor operatsiyalar o'tkazildi: Pikardiyada, Somma daryosi bo'yidagi xujum 21 martdan-2 aprelgacha va Flandriyada Lis daryosi bo'yidagi xujum 9-30 aprellarda, En daryosi bo'yida xujum 27 maydan-13 iyungacha va Marna daryosi bo'yidagi xujum 15-17 iyullarda o'tkazildi.

Birinchi zarbalar bilan Angliya frontini yanchib, ingliz qo'shinlarini dengizga uloqtirib tashlash ko'zda tutildi. **21 martda** Kruazile, La-Fer frontida berilgan zarba ingliz va fransuz qo'shinlarining oralig'iga yo'naltirildi.

21 mart soat 4. 40 da artilleriya kanonadasi ovozi **xal-qiluvchi operatsiyaning boshlanganligi to'g'risida xabar berdi («Pikardidagi mart oyi xujumi»)**. To'satdan boshlangan kuchli o't zarbalari, ko'plab qo'llanilayotgan kimyoviy snaryadlar ikki soat davomida Angliyaning 5-va 3-armiyalari batareyalariga berildi. Keyin artilleriya zarbasi mudofaa pozitsiyalariga berildi. Artilleriya zarbasining samaradorligi juda yuqori bo'ldi.

Soat 9 dan 40 daqiqa o'tganda 70 kilometrli yorib o'tish uchastkasida chuqur eshelonlashtirilgan piyodalar olovli val to'suvida dushmanga qarshi xujumga o'tdi. Soat 11 da, tuman tarqalganidan keyin xujum qiluvchi diviziyalarning jangovar samolyotlari xavoga ko'tarildi. Aviatsiya o'z piyoda qo'shinlariga ancha ko'maklashdi.

Xujumning birinchi kunida 18-armiya Angliya diviziyalarini 6-7 kilometrgacha uloqtirib tashladi. Qolgan ikkita armiyalar (17-va 2-armiyalar) ikkinchi mudofaa chizig'igacha etib bordi va unga bostirib kirdi. Keyinchalik 18-armiya qo'shinlari butun taktik mudofaani yanchib o'tdi va operativ mudofaani engib o'tish uchun janglarni davom ettirdi. 23 martda avtomashinalarda olib kelingan va xarakatlanish mobaynida jangga tashlangan Fransiya diviziyalari germaniyaliklarga qarshi xarakatni boshladi. Fransuzlarning qarshiliklari oshib boraverdi. 27 mart 18-armiyaning so'nggi katta muvaffaqiyatli kuni bo'ldi. Shu kundan boshlab armiya xolsizlanib, uning operatsiyasi inqirozga uchradi.

Angliya va Fransiya armiyalari oralig'ida xosil bo'lgan 15 kilometrli bo'shliqdan foydalanilmadi. Germaniyaliklar kavaleriya va tanklarga ega emas edilar. Germaniyaning

14-armiyasi 14 kunda o'zining markaziy korpuslari bilan 84 km xarakatlandi. Nemislar 90 ming kishini asirga oldilar va 1000 ta orudiyani egalladilar, o'zlari 160 ming kishini yo'qotdilar.

Xujum ko'zlangan natijalarning aksiga olib keldi. Inglizlarni tor-mor qilish o'rniga germaniyaliklar yoysimon front xosil qildilar, uning do'ng tomoni dushman tomonga qarab qoldi. Suqilib kirish xavfi bo'lgan frontning uzayishi ancha kuchlarni o'ziga jalb qildi.

Pikardidagi mart oyi xujumining davomi, 6-va 4-Germaniya armiyalarining **Flandriyada**, Lis daryosining xar ikkala qirg'og'ida **9-30 aprelda** o'tkazgan operatsiyalari bo'ldi. Germaniya bosh qo'mondonligining bu erda ikkinchi zarbani berish uchun qarori, Angliya qo'shinlari frontini yanchib tashlash umumiy rejasidan kelib chiqdi. 6-va 4-armiyalarga muxim yo'l tarmoqlari va Kemmel, Kassel balandliklari rayonidagi-Xazebrukni egallash vazifasi yuklatildi. Bu balandliklarni egallash inglizlarni Ipr va dengiz oralig'idagi bo'sag'adan xaydab chiqarishga, operatsiyani qirg'oqbo'ylariga rivojlantirishga olib kelishi kerak edi.

9 va 10 aprelda 6-va 4-Germaniya armiyalari inglizlar pozitsiyalariga xujum qildilar. Birinchi kunlarda xujum muvaffaqiyatli kechdi. Angliya qo'shinlari qariyb 36 kilometrli frontda joyi bilan 10 kilometrgacha uloqtirib tashlandi. Inglizlarga yordam tariqasida shoshilinch ravishda Fransiya diviziyalari etib kela boshladi. Ittifoqchilar qo'shinlarining qarshi zarbalari kuchaya boshladi. Xujum natijasida Flandriyada Germaniya qo'shinlari Lis vodiysi ichkarisida, Amendagi axvolga tushib qoldilar, ya'ni ularga qarshi dushman artilleriyasining kesib o'tuvchi zarbalari berildi.

Bu yo'nalishda keyingi xujumkor janglar xech qanday muvaffaqiyatga olib kelmasligi ko'rinib qoldi. Xazebruk yo'nalishida paydo bo'lgan yangi «qop» xavf-xatardan boshqa xech narsaga olib kelmasligi ko'rinib qoldi.

Germaniyaliklar Lis daryosi marralarida 39 diviziyani, inglizlar va fransuzlar esa 35 diviziyani jangga kiritdilar. Muvaffaqiyatli xujum natijasida Xazebruk yo'nalishida 18 km chuqurlikka kirib borildi. Ittifoqchilarning talofatlari germaniyaliklarnikidan ko'p bo'ldi. Faqat aprel oyining o'zida inglizlar 143 ming kishini yo'qotdilar, nemislar 30 ming kishini asirga oldilar.

Qariyb yarim oylik osoyishtalikdan keyin **27 mayda Germaniya qo'shinlari En daryosi bo'yida xujumga o'tdi**. May oyi xujum rejasi oldingi strategik maqsadni xal

qilishga, ya'ni inglizlarni tor-mor etishga asoslanib ishlab chiqildi. Zarba berish uchun tanlangan front uchastkasi Parijning yaqinidan (120 km) o'tdi. Bu uchastkada germaniyaliklarning muvaffaqiyatlari Fransiya poytaxtiga katta xavf tug'dirardi. Operatsiyani Prussiya shaxzodasi fronti qo'shinlari o'tkazdi. Asosiy zarbani En va Vel daryolariga chiqish vazifasini olgan 7-armiya berishi kerak edi. 1-va 18-armiyalarga 7-armiyaning o'ng va chap qanotlari tomonidan yordamchi zarbalar berish topshirildi. Germaniyaning 7-armiyasi 28 diviziyaga (16 diviziya birinchi eshelonda), birinchi armiyaning o'ng qanoti-3 diviziyaga va 18-armiyaning chap qanoti xam 3 diviziyaga ega bo'ldi.

20 diviziyaga (birinchi eshelonda 11 diviziya) ega bo'lgan fransuzlarning 6-armiyasi 98 kilometrli frontni egalladi.

Fransuzlar mudofaasining umumiy chuqurligi 8 kilometrdan 13 kilometrgacha masofani tashkil etdi. Birinchi mudofaa pozitsiyasining birinchi chizig'ida jangovar qo'riqlor, ikkinchi chizig'ida-jangovar qism, uchinchisida-zaxira joylashdi. Birinchi pozitsiyaning ortidan ikkinchi pozitsiya joylashdi, undan 5-6 km uzoqlikda qarshilik ko'rsatish tarmoqlari o'rin egalladi.

27 mayda nemislarning 7-armiya qo'shinlari 25 diviziya kuchlari, 3955 ta to'plar bilan 44 kilometrli frontda 9 diviziyaga va 1030 ta to'plarga qarshi xujumga o'tdi. Xujumni 687 ta samolyot qo'llab-quvvatladi.

27 may soat 2 da Germaniya artilleriyasi, 2 soat 40 daqiqa davom etgan artilleriya tayyorgarligi o'tkazdi. Uning davomida fransuzlar artilleriyasi bosib qo'yildi, Shuning uchun nemis piyodalarining dastlabki marralarni egallashlariga xamda xujum paytida xalaqit bera olinmadi.

Soat 4. 40 da xujumni boshlagan nemis piyodalari olti soat ichida dastlabki marradan 9 kilometrda joylashgan En daryosiga chiqdilar. Markazdan xujumga o'tgan nemis qo'shinlari birinchi kunda 20 km xarakatlandilar. Qanotlarda ittifoqchilar qo'shinlari qattiq qarshilik ko'rsatdilar. 28, 29 va 30-may kunlarida Germaniya qo'shinlari markazga xarakatni davom ettirdilar. Operatsiyaning keyingi muvaffaqiyati qanotlarda ittifoqchilarning shiddatli qarshiliklariga duch keldi. 30 mayda Germaniya xujum fronti kengaydi. O'ng qanot chekkasida 7-armiyaning 7-korpusi va u bilan yonma-yon joylashgan 18-armiyaning 38-korpusi bilan xujumga o'tdi. 31 mayda 7-armiya 18-armiyaning chap

qanot korpusi bilan va 1-armiya qo‘shinlari bilan birgalikda butun front bo‘ylab xujumga o‘tdi. 1-5 iyunlarda operatsiya so‘nib qoldi va to‘xtadi.

27 may-5 iyunlardagi xujum natijasida germaniyaliklar 60 kilometrga olg‘a xarakatlandilar. Ular Marnaga chiqdilar va ularning frontidan 70 km masofada joylashgan Parijga yaqinlashib keldilar. Ittifoqchilar talofatlari asirlar bilan 55 ming kishini, 650 orudiyani, ikki mingdan ortiq pulemyotlarni tashkil etdi. Dushmanning yo‘qotishlari 126 ming kishini tashkil etdi.

En operatsiyasidan keyin G‘arbiy frontda bir oylik «operativ osoyishtalik» xukm surdi, uning davomida tomonlar xal qiluvchi xarakatlarga tayyorlandilar. Umumiy vaziyat Germaniya uchun ancha yomonlashdi, Antanta uchun esa talofatlar ko‘rganiga qaramasdan yaxshilandi. Antanta iqtisodiy potensial va odamlar zaxirasi bo‘yicha Germaniyadan ustun bo‘ldi. G‘arbiy frontga uzluksiz Amerika qo‘shinlari etib kela boshladi. Germaniya armiyasining axvoli butkul yomonlashdi.

Qo‘shinning jang olib borish qobiliyatini ko‘tarish maqsadida Germaniya bosh qo‘mondonligi, tayyorlanayotgan xujum so‘nggisi bo‘ladi va tinchlikni o‘rnatishga olib keladi, deb e‘lon qildi. Xujum 15 iyulda Marna daryosi bo‘yida, Reymsning ikki tomonida belgilandi. Shundan keyin ikki hafta o‘tgach Flandriyaga zarba berish rejalashtirildi va bu vazifa 4-va 6-armiyalarga topshirildi.

Marnadagi xujum Germaniya shaxzodasi qo‘mondonligidagi armiya guruxi safiga kiruvchi 7-,1- va 3-armiyalarga topshirilib, xujumni olib borish uchastkasi kengligi-80 kilometrni tashkil etdi. 7-va 1-armiyalar Reymsni aylanib o‘tib, bir-birovlariga tomon xujumni olib borishlari kerak edi.

Butun G‘arbiy frontda (810 km) jangchilar soni bo‘yicha umumiy ustunlik Antanta tomonida edi. Xujum uchun tanlangan uchastkada 45 diviziya zarba berdi. Xujum frontida xammasi bo‘lib 8800 to‘p (transheya orudiyalaridan tashqari) jamlandi, frontning har bir kilometrda 110 tagacha orudiyalar to‘g‘ri keldi. Xujum 1464 samolyotlar bilan qo‘llab-quvvatlandi.

Germaniya xujum frontida fransuzlarning 4-, 5- va 6-armiyalari (33 piyodalar va 3 kavaleriya diviziyalari, ulardan 19,5 piyodalar diviziyalari birinchi eshelonda joylashdi) joylashdi.

15 iyulda Germaniya qo‘shinlarining xujumlari bilan Marnada jangovar xarakterli harakatlar boshlandi. Nemislarning artilleriya tayyorgarligidan bir soat oldin fransuzlar o‘t ochishni boshladilar. Nemislarning artilleriya tayyorgarligi 4 soat davom etdi. 7-Germaniya armiyasi qo‘shinlari katta talofatlar ko‘rib Marnani kechib o‘tdi va kun davomida 4-8 km olg‘a harakatlandi. 1-Germaniya armiyasi ittifoqchilarning uncha kuchli bo‘lmagan qarshiliklarini qaytarib, kunning birinchi yarmida 3-4 km harakatlandi va oldindan ortga o‘tib ulgurgan qismlarning to‘satdan ko‘rsatgan shiddatli qarshiligiga duch keldi. Boshlangan xujum tezda to‘xtab qoldi. 17 iyulda Germaniya qo‘mondonligi xujumni to‘xtatdi, uning 7-armiyasi Marna daryosining narigi qirg‘og‘iga o‘tishga tayyorgarlik ko‘rish to‘g‘risida buyruq oldi. Marnadagi xujum inqirozga uchradi.

Xujumni vaqtincha to‘xtatgan Germaniya bosh qo‘mondonligi tezlik bilan artilleriyani Flandriyaga ko‘chirib keltira boshladi, bu erda uning rejasiga asosan bosh zarbani berish va uning davomida inglizlarni tor-mor etish ko‘zda tutildi.

Ammo bu zarbalar amalga oshmadi. Marnadagi xujum birinchi jaxon urushidagi nemislarning so‘nggi xujumlari bo‘ldi. 18 iyulda fransuzlarning 10-va 6-armiyalari qarshi zarba berdi, uning ortidan qolgan armiyalarning xujumkor harakatlari boshlandi va germaniyaliklarning Marna bo‘sag‘asini tashlab ketishlari kuzatildi.

Antantaning umumiy xujumlari va Germaniyaning tor-mor etilishi (46 karta). Germaniyaning yangi xujumlarini qaytarishga tayyorgarlik ko‘ra turib, ittifoqchilik qo‘mondonligi Shu bilan birga xujumkor harakatlarga xam tayyorgarlik ko‘ra boshladi. Birinchi zarbani berish uchun Marna rayoni belgilandi. Antanta xujumkor operatsiyalarni tayyorlashda Amerika qo‘shinlariga xam umid bog‘ladi. Iyul o‘rtalarida Fransiyada Amerika armiyasi 27 diviziyani tashkil etdi.

18 iyulda Fransiya armiyasi front bo‘ylab En va Marna daryolari qirg‘oqbo‘ylarida 10-armiya qo‘shinlari bilan va chap qanotdan 6-armiya bilan zarbalar berdi. Qolgan 9- va 5-armiyalar 18 iyulda artilleriya zarbasi va maxalliy axamiyatga ega bo‘lgan janglarni olib bordilar.

10-armiya nemislarning pozitsiyalarini 24 kilometrli uchastkada, 6-armiya esa 26 kilometrli uchastkada yorib o‘tdi. 10-armiya yaxshi ta‘minlangan bo‘lib, u o‘z safiga 16 piyodalar diviziyasini, 3 kavaleriya diviziyasini, 1573 ta to‘pni, 337 ta tank va 561 ta samolyotlarni biriktirdi. U mudofaalanayotgan 9-Germaniya armiyasi ustidan kuch va

vositalar bo'yicha bir yarim marotaba ustunlikka ega bo'ldi. 18 iyul soat 4 dan 35 daqiqa o'tganda Fransiya artilleriyasi 10-va 6-armiyalarning butun fronti bo'ylab artilleriya zarbasini boshladi. Olovli val va ko'plab tanklarning to'suvida 10-armiyaning piyodalari dushmanga qarshi xujumga o'tdi. Piyodalarga ko'maklashish uchun aviatsiya xavoga ko'tarildi. Artilleriya tayyorgarligisiz boshlangan xujum dushmanni sarosimaga solib qo'ydi. 3,5 soat ichida 10-armiyaning korpuslari (bosh zarbani bergan) dushman ichkarisiga tomon 4-5 kilometrga xarakatlandi. Kechga tomon 10-armiya qo'shinlari 9 kilometrga olg'a surildi, 6-armiya qo'shinlari esa 5 km xarakatlandi. Ikkinchi kuni Germaniya diviziyalari o'ta qattiq qarshilik ko'rsata boshladi. 4 avgustda «**Ikkinchi Marna**» **operatsiyasi to'xtatildi.**

Strategik tashabbus to'lig'icha ittifoqchilarga o'tdi. Marnadagi g'alabadan keyin ittifoqchilar qo'mondonligi ketma-ket *operativ qoplarni* tor-mor etishga kirishdi va 1919 yilda Germaniya ustidan g'alaba qozonishni ko'zda tutdi.

Avgustda ittifoqchilar, nemislarning mart oyidagi xujumlari natijasida paydo bo'lib, front tomoniga bo'rtib chiqqan Amen «qopini» kesib tashlash maqsadida **Amen xujumkor operatsiyasini o'tkazdilar.** 4-Angliya armiyasi o'zining 12-piyodalar va 3-kavaleriya diviziyalarining kuchlari bilan va 1-Fransiya armiyasining qo'llab-quvvatlovida xujum xarakatlarini olib bordi.

4-Angliya armiyasi 18 kilometrli front uchastkasida xujumni amalga oshirdi, armiya xujumini 2068 ta orudiyalar, ulardan 672 tasi og'ir orudiyalar, 408 ta samolyotlar va 415 ta tanklar qo'llab-quvvatlab turdi. 1-Fransiya armiyasi 15 piyodalar va 3 ta kavaleriya diviziyalariga, 1616 ta orudiyalar va 700 ta samolyotlarga ega bo'ldi.

8 avgustda 4-Angliya armiyasining birinchi zarbasidan keyin va 1-Fransiya armiyasi chap qanot korpusining zarbasidan keyin 1-Fransiya armiyasining qolgan kuchlari va 9-Fransiya armiyasi qo'shinlarining zarbalari boshlanishi kerak edi.

4-Angliya armiyasi va 1-Fransiya armiyasining 31-korpusiga qarshi 2-Germaniya armiyasining 7 diviziyasi va 840 ta orudiyalari joylashdi. Xujumni olib borayotgan qo'shinlar tirik kuchlar, aviatsiya va artilleriyada va ayniqsa ko'plab sonli tanklar bo'yicha ustunlikka ega bo'ldilar.

8 avgust tongda 4-Angliya armiyasining korpuslari artilleriya zarbasi berilishi boshlanishi bilan xujumga o'tdilar. Artilleriya xamma orudiyalarning uchdan bir qismi

bilan olovli val yaratdi, qolgan orudiyalar esa germaniyaliklarning artilleriya pozitsiyalariga, qo'mondonlik punktlariga, qo'shin to'plangan joylarga, zaxiralar etib kelishi mumkin bo'lgan yo'llarga, axoli punktlari va boshqa joylarga zarbalar berdi. Xujumni to'satdan boshlashga erishish, qudratli artilleriya zarbasi, ko'plab tanklarning zarbalari va aviatsiyaning xarakati bitta tashlanish bilan inglizlarga dushman mudofaasiga 3 kilometracha suqilib kirish imkonini berdi.

Kun mobaynida xujumni olib borayotgan ingliz va fransuz qismlari dushman mudofaasi chuqurligiga 11 kilometracha olg'a xarakatlandilar. 16 mingdan ortiq kishi asirga olindi va 400 dan ortiq orudiyalar egallandi. Ammo dushmanning qarshiligi oshib bordi va 13 avgustda ingliz-fransuz birlashmalarining xarakatlari to'xtatib qo'yildi. Ittifoqchilar qo'shinlari 75 kilometrli frontda 10 kilometrdan 18 kilometracha olg'a siljidilar. Amen operatsiyasi davomida Germaniya armiyasining jang olib borish qobiliyatiga putur etganligi va uning xoldan toyganligi namoyon bo'ldi. Lyudendorf o'z esdaliklarida yozishicha, 8 avgust «jaxon urushi tarixida Germaniya armiyasi uchun eng qora kun bo'ldi».

Amen operatsiyasidan keyin ittifoqchilar qo'shinlari bir-nechta uchastkalarda xujumga o'tdilar va xamma vaqt dushmanni siqib kelib, asirlar va orudiyalarni egallab sezilarli natijalarga erishdilar. Amen operatsiyasi boshida va sentyabr boshlarigacha ittifoqchilar, germaniyaliklarga oldindagi Zigfrid tayyorlangan pozitsiyalarga mustaxkamlanishga imkon bermasdan 150 kilometrli frontda 35 kilometrga olg'a xarakatlandilar.

12-15 sentyablarda 1-Amerika armiyasi, 1914 yilda xosil bo'lib qolgan Sen-Miyel bo'sag'asini kesib tashlash uchun **Sen-Miyel operatsiyasini o'tkazdi**. Bu operatsiya natijasida front chizig'i 24 kilometrqa qisqardi.

Ittifoqchilar xujum operatsiyalarini boshlashlari bilan Germaniya armiyasining axvoli yanada yomonlashdi. Diviziyalar soni 15 iyuldagiga nisbatan taxminan 20 taga kamaydi. Amaldagi diviziyalarda jangchilar soni kamayib ketdi. Zaxirani tashkil etuvchi diviziyalar soni xam keskin kamayib ketdi. Katta talofatlarni boshdan kechirayotgan qo'shinning jang olib borish qobiliyati sustlashib ketdi.

Germaniya bosh qo'mondonligi armiyaning asosiy e'tiborini dengizdan Maas daryosigacha bo'lgan xududda mudofaani olib borishga qaratdi.

Ittifoqchilarning rejasi marshal Foshning 24 iyuldagi yozuvlarida aniq bo'lgan edi. Unga ko'ra, cheklangan maqsadlarni ilgari surgan rejalarni amalga oshirgandan keyin, yoz oxirida yoki kuzda yirik xujum boshlanishi kerak edi.

Xujumda zarbalarni ketma-ket bir nechta uchastkalarda, bir kunlik interval bilan berilishi kelishib olindi: amerikaliklar va fransuzlar-26 sentyabrda, Britaniyaning 1-va 3-armiyalari-27 sentyabrda, Flandriya guruxi –28 sentyabrda va Britaniya 4-armiyasi Fransiyaning 1-armiyasi ko'magida-29 sentyabrda xujumga o'tishlari kerak edi. Ittifoqchilarning bir-birovlari tomon qudratli, to'xtovsiz zarbalarni berishlariga va dushmanni bir zum xam tinch qo'ymaslikka asoslangan rejalari vaziyat talablariga to'liq javob berib, muvaffaqiyatli amalga oshirildi.

Ittifoqchilar qo'shinlari xujum qila turib, o'zlarining bosh qo'mondonlari marshal Foshning xamma ko'rsatmalariga amal qilishlari kerak edi: «tezkorlik bilan xarakat qilish, katta kuchlarni oldinga tashlash, ularni natijaga erishguncha front ortidan xamma kuchlar bilan qo'llab-quvvatlash. Bu uchta shartni bajarish bir-necha kunlik janglarda talofatlar ko'rishdan asraydi».

26 sentyabrda 1-Amerika va 4-Fransiya armiyalari xujumga o'tdi. Ularning kuchlari germaniyaliklarning kuchlaridan ortiqroq bo'ldi. 1-Amerika armiyasi qariyb 35 kilometrli uchastkada xujumga o'tib, 15 piyodalar (ulardan 9 tasi birinchi eshelonda) va bitta kavaleriya (fransuzlarniki) diviziyalarini, 2400 ta orudiya (yarmidan ko'pi og'ir orudiyalar), 840 ta samolyotlar va 790 ta tanklarni o'z ichiga oldi. Amerika armiyasiga to'rtta Germaniya diviziyalari qarshi turib, ularning xar biri 9 kilometrli frontda xarakat qildi. 26 sentyabrda 3 soatlik artilleriya tayyogarligidan keyin Amerika qo'shinlari artilleriya olovli vali ko'magida (tanklar muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun belgilangan edi) xujumga o'tdi. Jangning birinchi kunida Amerika armiyasi 3 kilometrdan 9 kilometrgacha olg'a xarakatlandi. 30 sentyabrda xujum dushman tomonidan to'xtatildi.

4 oktyabrda 1-Amerika armiyasi xujumni yangitdan boshladi. 8 oktyabrda Amerika armiyasidan tashqari Fransiyaning 4-va 5-armiyalari va 10-armiya qo'shinlari xujumga o'tdi. Argondan Maasgacha bo'lgan uchastkada dushman mudofaasi ichkarisiga suqulib kirish 12 kilometrdan oshmadi.

Boshqa uchastkalarda, ittifoqchilar frontining markazida, 27 sentyabrdan 13 oktyabrgacha Angliya-Fransiya qo'shinlari Zigfrid pozitsiyasini yorib o'tdilar, Flandriyada



28 sentyabrdan 13 oktyabrgacha Flandriya armiya guruxlari (Belgiyaning 12 piyodalar va bitta kavaleriya diviziyalari, 2-Angliya va 6-Fransiya armiyalari) 20 kilometr gacha olg'a xarakatlandilar.

20 oktyabrdan Germaniya-Gunding-Brungilda-Krimgilda pozitsiyalari uchun kurash boshlanib ketdi. 5 noyabrda Angliya qo'shinlari va 1-Fransiya armiyasi qo'shinlari tomonidan pozitsiya yorib o'tildi. Germaniya armiyalarining keyingi istexkomlar chizig'i Antverpen-Maasga chekina boshladilar. Dushmanni shiddat bilan ta'qib etayotgan ittifoqchilar qo'shinlari sulx tuzish kuni, ya'ni 11 noyabrda Germaniyaning ushbu istexkomlar chizig'iga chiqdilar.

Germaniyaning harbiy-iqtisodiy xoldan toyishi o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi. Uning inqirozi muqarrar bo'lib qoldi. Avstriya-Vengriya 3 noyabrda kapitulyasiya qildi, undan oldinroq esa Turkiya Angliya bilan tinchlik sulxini imzoladi (Bolgariya Antanta bilan 29 sentyabrda tinchlik sulxini imzoladi).

8 noyabrda Germaniya vakillari Kompen o'rmonidagi marshal Foshning qarorgoxiga keldi. **11 noyabrda tinchlik sulxi shartlari imzolandi.** 51 oy va 2 hafta davom etgan **urush tugadi.**

Sulx shartlariga ko'ra Germaniya egallagan xududlarni tashlab chiqish, ittifoqchilarga 5 ming orudiya, 25 ming pulemyot, 3 ming minomyot, 1700 samolyot, 5 ming parovoz, 150 ming vagon va 5 ming soz avtomobillarni berish majburiyatlarini oldi. Germaniya armiyasi butunlay quolsizlantirildi. Germaniyaning Reyn viloyati ittifoqchilar qo'shinlari tomonidan okkupatsiya qilindi.

**Bolqon, Italiya frontlari va urushning boshqa frontlaridagi jangovar xarakatlar.** 1918 yilda Bolgariya, Avstriya-Vengriya va Turkiyaning umumiy axvoli, Germaniyaniki singari moddiy va odamlar zaxiralarining kamayib ketishi, oziq-ovqatlarning tanqisligi, cho'zilib ketgan urushdan tobora noroziligi oshib borayotgan armiya va xalqning xoldan toyganligi bilan xarakterlandi. Germaniya blogining axvoli 1918 yilning ikkinchi yarmidan boshlab, Germaniya armiyalari G'arbiy frontda pozitsiya ortidan pozitsiyalarni tashlab chiqib ketishlari bilan inqirozga yuz tuta boshlagan edi.

Bolqonda ittifoqchilar qo'shinlari 15 sentyabrda Bolgariya armiyasining «jang olib borish qobiliyatini» sindirish uchun qat'iy xujumga o'tdilar. Shu vaqtga kelib ular kuchlar

bo'yicha ancha ustunlikni qo'lga kiritgandilar. 1918 yil baxorida Germaniya diviziyalari Bolqon frontidan G'arbiy frontga olib kelindi.

Ittifoqchilarning Egey dengizidan Adriatika dengizigacha 350 kilometr ga cho'zilib ketgan Salonik frontidagi xujumlari davrida ular 29 piyodalar diviziyalariga va kichik otliq guruxga, umumiy soni 670 ming kishilik qo'shinga va 2070 ta orudiyalarga ega bo'ldilar. Frontni uchta Bolgariya armiyalari, 11-Germaniya armiyasi va Avstriya korpusi, umumiy soni 400-450 ming kishilik qo'shin mudofaa qilib turar edi.

Asosiy zarba frontning markaziga, tog'li rayonga berildi. Ittifoqchilar qo'shinlari 15-18 sentyablarda Bolgariya fronti chizig'ini 25 km kenglikda va 15 km chuqurlikda yorib o'tdilar. Yorib o'tilgan uchastkani kengaytirish va chuqurlashtirish muvaffaqiyatli amalga oshirildi. O'n kun ichida ittifoqchilar qo'shinlari 100 km (markazda) xarakatlandilar. 11-Germaniya armiyasi qurshovga olindi va taslim bo'ldi. **29 sentyabrda Bolgariya kapitulyasiya qildi.**

Italiya frontida, Pyava daryosi bo'ylarida Avstriya-Germaniya qo'shinlari 50 diviziyaning kuchi bilan 15 iyunda qat'iy maqsadlarga erishish uchun xujumga o'tdilar. 20 iyungacha davom etgan janglarda Avstriya qo'mondonligining jang rejasi barbod bo'ldi. Pyava daryosini kechib o'tgan birlashmalar to'xtatib qo'yildi, keyin esa chap qirg'oqqa uloqtirib tashlandi.

Italiya armiyasi avstro-vengerlarga qarshi faqat 25 iyulda, Germaniya kapitulyasiyasidan ikki hafta oldin xujum («**Vittorio-Veneto**» operatsiyasi) boshladi. Pyava daryosini kechib o'tib va Avstriya qismlarining qarshiliklarini sindirgan italiyaliklar, tezkorlik bilan olg'a xarakatlana boshladilar. 29 oktyabrda Avstriya-Vengriya tinchlik sulhi tuzishni so'radi va u 3 noyabrda imzolandi.

Osiyoda, Mesopotamiya frontida Angliya armiyasi Mosul yo'nalishida xujumni davom ettirib, oktyabr oyida Kirkunni egalladi. Turkiya armiyasi taslim bo'lganidan keyin, 31 oktyabrda inglizlar Mosulni egalladilar.

Suriya frontida Falastin va Suriya uchun qat'iy kurash 1918 yilning sentyabrda boshlandi. Inglizlarning jangovar kuchlari 57 ming nayza-pichoqlar, 12 ming qilichlar va 540 ta orudiyani tashkil etgan bo'lsa, turklarning kuchlari 32 ming nayza-pichoqlar, 2 ming qilichlar va 402 ta orudiyalardan iborat bo'ldi. Raqiblar Iordan daryosining quyi oqimidan

(O'lik daryosidan shimolroqda) dengizgacha-YAffaning shimolrog'idan boshlab, uzunligi 100 km bo'lgan frontni egalladilar.

Xujumkor operatsiya 19 sentyabrda boshlandi. Birinchi kun davomida inglizlar frontni yorib o'tdilar va yorib o'tilgan uchastkalarga otliq korpusni kiritdilar. Korpus 60 kilometr yo'l bosib, 20 sentyabrda turklarning front ortidagi temir yo'lni kesib qo'ydi. 20 sentyabrda 20-korpusning markazda joylashgan diviziyalari xujumga o'tdi. Turklarning axvoli yanada yomonlashdi. 24 sentyabrda turklar armiyasining bir qismi tor-mor etildi, bir qismi asirga olindi. 1 oktyabrda inglizlar otliqlari va arablar Suriyaning poytaxti-Damashqqa kirdilar. Falastindagi turk armiyasi yanchib tashlandi. **30 oktyabrda Turkiya Angliya bilan tinchlik sulxini imzoladi.**

**1918 yil kampaniyasining harbiy-siyosiy natijalari.** 1918 yil kampaniyasi Germaniya va butun to'rtlik ittifoqning harbiy mag'lubiyati bilan tugadi.

Germaniya bosh qo'mondonligining inglizlarni Amerika Qo'shma SHtatlari o'z kuchlari bilan urushga aralashgunlarigacha tor-mor etish rejasi ketma-ket amalga oshirilmadi.

Ittifoqchilar armiyalari ustidan keskin g'alabalarga erishish maqsadida olib borilgan strategik xujum, Germaniya bosh qo'mondonligi tomonidan zarbalarni butun front bo'ylab ko'chirish yo'li bilan amalga oshirildi.

Ittifoqchilar Germaniya zarbalari ostida Generallik kuchlarini ancha samarali qo'llay boshladilar va *yagona qo'mondonlik* yaratdilar, bu o'z navbatida urushni muvaffaqiyatli olib borishning muxim omili bo'lib qoldi.

Germaniya qo'mondonligidan farqli o'laroq ittifoqchilar qo'mondonligi o'zining to'xtovsiz zarbalari bilan dushmanga tinim bermadi. Zarbalarni bunday usulda berish o'zini to'liq oqladi. Dushmanga qarshilik ko'rsatish qobiliyati pasayib ketgan germaniyaliklar, pozitsiya ortidan pozitsiyalarni dushmanga qoldirib chekina boshladilar. Muvaffaqiyatga frontdan dushmanni egallagan pozitsiyasidan siqib chiqarish yo'li bilan erishildi. 1918 yilda G'arbiy frontdagi harbiy xarakatlar shiddatligi bilan ajralib turdi. Boshlangan jangovar xarakatlar qariyb to'xtovsiz 235 kun davom etib (21 martdan 11 noyabrgacha), unda 400 kilometrli kenglikda olti million kishi ishtirok etdi. 235 kundan 118 kunida germaniyaliklar (21 martdan 18 iyulgacha), va 116 kunida ittifoqchilar (1 iyuldan 11 noyabrgacha) xujum qildilar. 1918 yil birinchi yarmidagi operatsiyalarda xar ikkala


tomondan 20 ta armiya (Germaniyaniki 9 ta, ittifoqchilarniki 11 ta) ishtirok etdi. Zarbdor armiyalarning birinchi eshelonidagi diviziyalarning xujum fronti kengligi 1,8 kilometr dan 3,3 kilometr gacha etdi. Xujum frontining har bir kilometrda 65 tadan 100 tagacha va undan ortiq orudiyalar, 9 tadan 20 tagacha va undan ortiq samolyotlar to'g'ri keldi, fransuzlarning 18 iyuldagi qarshi xujumlari davrida 14 ta tank ishtirok etdi. Xujum uchastkalari kengligi 60-80 kilometr dan oshmadi (ittifoqchilarning iyuldagi xujumlarida-130 km). Operatsiya chuqurligi 5 kilometr dan 84 kilometr gacha atrofida bo'ldi. Bir sutkalik xujum sur'ati 2 kilometr dan 8 kilometr gacha etdi. Xujum uchun keng yorib o'tish uchastkalari tanlandi. Asosiy vazifani bajaruvchi armiya zarbdor xisoblangan.

Ammo operativ munosabatda o'tkazilgan operatsiyalar oxiriga etmay qoldi. Operativ chuqurlikda muvaffaqiyatga erishish nasib etmadi.

Ketma-ket beriladigan zarbalar bilan Germaniya qo'mondonligi zarba berish san'atini takomillashtirishga xarakat qildi. Ko'plab moddiy vositalardan foydalanish, puxtalik bilan tayyorgarlik ko'rish, artilleriya zarbasini takomillashtirish tufayli Germaniya qo'shinlari taktik mudofaani engib o'ta boshladilar, kuchaytirilgan istexkomlarni yorib o'tib, operativ kengliklarga chiqib boshladilar. Lekin bu erda ularning oldiga dushmanning tezlik bilan olib kelingan zaxiralari paydo bo'lib, ularni to'xtatib qoldirdi. Operativ chuqurlikda keng manyovr o'tkazish amalda qo'llanilmadi. Buning uchun Germaniya qo'mondonligi xarakatchan vositalar-tanklar va otiqlarga ega emas edi. YUklatilgan strategik vazifani xal etish uchun yorib o'tilgan uchastkalarda xujumni rivojlantirishga erishilmadi.

1918 yil operatsiyalari, muvaffaqiyatga erishish uchun to'satdan zarba berish omilining katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. To'satdan zarba berishga erishish uchun uzoq davom etuvchi artilleriya tayyorgarligidan voz kechish katta ahamiyat kasb etdi.

Mudofaa uzluksiz chuqurlikka tomon kuchayib bordi. YUzaga kelib qolgan mudofaa chizig'i, dushmanga bosh kuchlar joylashgan asosiy pozitsiyaga bemalol etib kelishiga imkon bermadi. Mudofaa, bir-birovi bilan o'tish yo'lakchalari orqali aralashib ketgan chiziqlar tizimi va tayanch punktlariga birlashib ketdi.



## 1918 yildagi mudofaa

1918 yil kampaniyasi yangi qo‘shin turlari tank, xavo va kimyo qo‘shinlarini ommaviy qo‘llash bilan xarakterlidir.

Qurol-yarog‘lar, piyodalarni qo‘llash usullari, artilleriya bilan tanklar va aviatsiyaning o‘zaro xamkorligini ishlab chiqish takomillashdi. Dushmanning butun taktik mudofaa chuqurligini engib o‘tish uchun jangovar tartibni eshelonlashtirish shart bo‘lib qoldi. Piyoda qo‘shinlar ko‘proq guruxiy jangovar tartibda jang olib bora boshladi. Mudofaa jangi taktikasi xarakatchan mudofaani qo‘llash bilan xarakterlandi, bundan maqsad oldinga ildam xarakatlanayotgan dushmanni xoldan toydirish, uni to‘xtatib qo‘yish va dastlabki pozitsiyaga uloqtirib tashlashdan iborat edi.

Artilleriyani qo‘llashda xam o‘zgarishlar bo‘ldi. To‘satdan zarba berishga erishish uchun atakaga tayyorlanish bir-necha soat mobaynida olib borildi; ko‘p xollarda o‘t ochib zarba berish piyodalar xujumi bilan boshlangan. Artilleriya zarbasi (artilleriya tayyorgarligi) to‘satdan zarba berishga erishish uchun nishonlarni dastlabki otib ko‘rishsiz boshlangan. O‘t ochish jadalligi va uning buzib tashlash va zaxarlash kuchi (ko‘plab kimyoviy snaryadlarni qo‘llash natijasida) taktik mudofaani yorib o‘tishni ta‘minladi. Artilleriya tayyorgarligi dushmanning ko‘psonli kuchli istexkomlarini buzib tashlash vazifasiga ega emas edi. U dushman mudofaasini bosib qo‘yish, uni kuchsizlantirish, piyodalarni erga yotishga majbur qilish maqsadida olib borildi. 1918 yilda artilleriyani takomillashtirish davom etdi. *Diviziya artilleriyasi* xujum muvaffaqiyatli rivojlanganda piyodalarning ortidan etishib xarakat qila olmay qoldi. Shuning uchun *artilleriyani ko‘plab avtomobillarda* tashib yurishga to‘g‘ri keldi.

Piyodalarni jang paytida o‘t bilan kuzatib borishning asosiy shakliga aylangan olovli val, ularning xujumlarini 3-4 km chuqurlikda qo‘llab-quvvatlagan. Lekin u ko‘p xollarda piyodalardan o‘zib ketgan yoki u bilan aloqa yo‘qolgan paytlarda butunlay buzilgan.

1918 yilda germaniyaliklar Parijga 100 mmli snaryadlar bilan 100 km masofadan zarbalar berganlar.

Tanklarning soni va sifati oshdi. 8 avgustdan urushning oxirigacha frontlarda xarakat qilgan ingliz tanklarining soni 2000 tani tashkil etdi. Mudofaa davrida ittifoqchilar tanklari Germaniya qo'shinlarini to'xtatib qolishda piyodalarga ko'maklashib, qarshi xujumga tashlangan. Xujumkor operatsiyalarda tanklar piyodalarga yo'l ochib bergan. Ittifoqchilar qo'mondonligi samolyotlar bilan tanklar o'rtasida aloqani tiklashga va tankka qarshi orudiyalarni xavodan tor-mor etishga xarakat qildi. Tank birlashmalariga samolyotlar birlashtirilgan.

Tankka qarshi vositalar takomillashdi va ancha ishonchli qo'llanila boshlandi. Tankka qarshi batareyalar soni oshdi, turli xildagi «tuzoqlar» va to'siqlar yaratila boshlandi. 1918 yilning ikkinchi yarmidan *minalar va mina maydonlari* keng qo'llanila boshlandi.

1918 yil kampaniyasi aviatsiyaning ommaviy qo'llanilishi bilan xam xarakterlidir. 1918 yilda faqat inglizlarning o'zlari 5500 tonna aviabomba tashladilar. Germaniya bombardimonchi aviatsiyasi Parij va Londonni bombardimon qildilar. *Xavo xujumidan mudofaa tizimi (XXM, (PVO))* rivojlandi. U front zonalaridan tashqari, frontdan olisda joylashgan yirik aloxida siyosiy va iqtisodiy ob'ektlarni qamrab oldi.

1918 yilda Fransiya va Angliya otliq otryadlari bosh qo'mondonlik zaxirasini tashkil etib, xavfli uchastkalarga tashlangan va ayrim xollarda xoldan toygan o'z diviziyalarini ortga chekinishini ta'minlab, xujum qilayotgan Germaniya piyodalarini to'xtatib qolgan. Ittifoqchilar xujumi davrida otliqlar o'z xarakatlari bilan dushman chekinishini tezlatgan.

Kampaniya davomida qo'shinni boshqarishning yanada murakkablashishi ko'zga tashlandi. SHtablar turli xil qo'shin turlari va vositalar o'rtasidagi o'zaro xamkorlikni tashkil etish bo'yicha katta shijoatli ishlarni olib bordilar. Boshqarish texnikasi va aloqa takomillashdi.

Operatsiyani moddiy vositalar bilan ta'minlash, xavodan kuchli va to'xtovsiz bombardimonlar sharoitida ularni tashib keltirishni amalga oshirish murakkab ish bo'lib qoldi. Avtomobil transporti ancha muxim ahamiyat kasb eta boshladi. 1918 yil iyulida avtomobillarda ittifoqchilar tomonidan 950 ming kishi tashib keltirildi.

## **VIII BOB. BIRINCHI JAXON URUSHI DAVRIDA HARBIY SAN`ATNI**

### **RIVOJLANISHI.**

#### **8.1. Birinchi jaxon urushi davrida harbiy san`at**

##### **rivojining asosiy o`ziga xos belgilari.**

Birinchi jaxon urushi o`zining kengko`lamligi va unda ishtirok etgan davlatlar soni bilan, harbiy xarakatlar teatrining kengligi, odamlar safining ko`pligi, frontning kengligi va harbiy xarakatlarning qat`iyligi bilan nixoyatda ulkandir. Urushga jalb etilgan 33 ta mamlakatning axolisi bir yarim milliard kishidan oshib ketdi, bu er shari axolisining 2G`3 qismidan ortiqdir. Urush Evropa, Osiy va Afrika xududlarini qamrab olib, umumiy maydoni 4 mln km<sup>2</sup> ni tashkil etdi. 1917 yil yanvarida xar ikkala koalitsiyalarning armiyalarida 33,5 mln kishi xarakat qildi.

Urush davrida markaziy davlatlar koalitsiyasida 25 milliondan ziyod kishi va Antanta davlatlarida 48 mln kishi safarbar etildi: Rossiyada-19 mln kishi; Germaniyada-13,3 mln kishi; Avstriya-Vengriyada-9 mln kishi; Fransiyada-8,2 mln kishi; Angliyada- 9,5 mln kishi; AQSHda-3,9 mln kishi.

Urush davridagi umumiy talofatlar soni juda ulkan bo`lib, xalok bo`lganlar va yaralanib o`lganlar 10 mln kishini, yaradorlar va nogironlar soni 20 mln kishini tashkil etdi.

Birinchi jaxon urushi yillarida iqtisodiyot va texnikaning xal qiluvchi roli namoyon bo`lib, urushning borishi va uning oqibati davlat front ortiga bog`liqligi ko`rinib qoldi. Antanta davlatlari erishgan g`alaba iqtisodiyot va bevosita urushning g`alabasi bo`ldi. Germaniya blogi davlatlari strategik xom ashyo va oziq-ovqat zaxiralariga katta muxtojlik seza boshladi. Yirik front bo`ylab yoyilgan millionlab kishilarga ega bo`lgan armiyalar, ularni o`q-dorilar, jangovar texnika, anjomlar va oziq-ovqat bilan uzluksiz ta`minlashni talab etdi. Urush sanoatning asosiy soxalarini harbiy ishlab chiqarishga o`tkazishga, urush olib boruvchi barcha davlatlarning butun iqtisodiyotini urushni ta`minlash uchun xizmat qilishga majbur etdi. Antanta mustamlaka davlatlarning kuchlari va moddiy zaxiralaridan foydalandi.

Urush davrida armiyalar mashinalashtirildi, ularning zarba berish qudrati, manyovrchanligi va zarbdor kuchi beqiyos oshdi. Oshib borayotgan zarbaning xamda qo`shinning manyovrchanlik kuchini ko`rsatuvchi belgi yangi jangovar mashinalar-tanklar va zirxli mashinalar bo`lib xisoblandi.

Qo‘shinni tezkorlik bilan xarakatlanishida, ularni bir uchastkadan boshqasiga tashib keltirishda avtotransport katta rol o‘ynadi. Urush boshida Fransiya armiyasi 6 mingta yuk avtomobillariga, urush oxirida esa-80 mingta avtomobilga ega bo‘ldi.

1914 yilda bitta askarga 0,3-0,4 mexanik tirgak ot kuchi to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 1918 yilga kelib bu ko‘rsatkich –1,5-2,0 ga etdi.

Urush davrida yangitdan dala fortifikatsion texnikasi yaratildi; aloqa vositasi, telegraf, telefon va radio rivojlandi.

Harbiy texnika, armiyalar soni, qurolli kurash olib borishning usullari va shakllarining o‘zgarishi bilan qo‘shin turlari munosabatida uni tashkil etish tizimining o‘zgarishi bog‘liq. Yirik frontda qurolli kurashni olib borish, unda millionlab jangchilarga ega bo‘lgan armiyalarni joylashtirish armiya guruxlari va front birlashmalarining (Rossiyada) yaratilishiga olib keldi. Urush masshtablarining oshishi bilan diviziyalar soni xam oshdi. Urush boshida diviziyalar soni 363 ta bo‘lgan bo‘lsa, ularning soni urush oxirida 893 taga etdi.

1914-1918 yillarda turli harbiy texnika ishlab chiqarilganligi quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

Qurol-yarog‘ va o‘q-dorilarning turi	Germaniya	Avstro-Vengriya	Fransiya	Angliya	Rossiya	AQSH
Vintovkalar (ming dona xisobida)	8547	3500	2500	3845	3300	3500
Pulemyotlar (ming dona xisobida)	280	40,5	312	239	28	75
Artilleriya orudiyalari (ming dona xisobida)	64	15,9	23,2	26,4	11,7	4
Minomyotlar(ming dona xisobida)	12	-	3	2,5	-	0,6
Tanklar (ming dona xisobida)	100	-	5300	2800	-	1000



Samolyotlar (ming dona xisobida)	47,3	5,4	52,1	47,8	3,5	13,8
Artilleriya o'q-dorilari (ming dona xisobida)	306	80	290	218	67	20
O'qlar (ming dona xisobida)	8,2	4	6,3	8,6	13,5	3,5
Avtomashinalar (ming dona xisobida)	65	-	110	87	20	30

Piyoda qo'shinlar asosiy qo'shin turi bo'lib qolaverdi, lekin uning axamiyati pasaydi, misol uchun, Fransiya armiyasida 1915 yilda 71,8 % dan 1918 yilga kelib 50,4 % ga pasaydi.

Diviziyalarda piyodalar soni ancha kamaydi. Diviziyaning tashkiliy tarkibi anchagina o'zgardi, piyodalar polklari qisqartildi yoki polklarda batalonlar soni ancha kamaydi. Germaniya 1915 yilda, Fransiya esa 1916 yilda diviziyalarda piyodalar polklari to'rttadan uchtaga kamaydi. Germaniyaliklar va fransuzlar 12 batalonli diviziyalardan 9 batalonli diviziyalarga o'tdi. Shu bilan birga polklarda pulemyot rotalari saflari ko'paydi, piyodalar safiga yaqin masofalarga zarba beruvchi artilleriya kiritildi. Diviziyalarda piyodalar soni kamaydi, lekin piyodalarning zarba berish qudrati 2,5-3 marta oshdi.


Urush davrida artilleriyaning axamiyati uzluksiz oshdi. Misol uchun, Fransiya armiyasida 1918 yilda u 35,7 %ni tashkil etdi, 1915 yilda esa 18,1 % ni tashkil etgan edi. Piyodalarni jangda o't zarbasi bilan qo'llab-quvvatlovchi piyodalar artilleriyasi va zenit artilleriyasi qariyb yangitdan yaratildi: tankka qarshi artilleriyaga asos solindi. Artilleriyaning otish uzoqligi (asosiy namunalarning otish uzoqligi 15-30 %ga) va xarakatchanligi oshdi.

Artilleriyaning ko'p sonli orudiyalarini manyovr qilish va uni ommaviy qo'llash maqsadida bosh *qo'mondonlik artilleriya zaxirasi yaratildi (BQAZ)*. Urushning pozitsion kurash davrida pozitsion mudofaani yorib o'tish artilleriya xarakatiga bog'liq bo'ldi. Piyodalar artilleriyaning o'z o't ochish pozitsiyalarini oldinga ko'chirib yana artilleriya tayyorgarligini o'tkazishini kutib marradan marraga xujum qilgan. Birinchi vaqtda uzoq

davom etgan artilleriya tayyorgarligini o‘tkazishda (bir necha sutka), artilleriyaga dushman mudofaa inshootlarini buzib tashlash vazifasi yuklatilgan. Keyinchalik bu vazifa «mudofaani bartaraf» etish vazifasi bilan almashtirildi. Endilikda artilleriya tayyorgarligi bir necha soat (3-5 soat) o‘tkaziladigan bo‘ldi. Piyodalar xujumining boshlanishi bilan, o‘tkazilgan artilleriya tayyorgarligidan keyin dushmanga piyodalarning bevosita nayzabozlik zarbalaridan oldin so‘nggi o‘t zarbasini berish maqsadida olovli val (1916 yildan) qo‘yilgan.

1916 yilning ikkinchi yarmidan keyin jang maydonida tanklar paydo bo‘ldi. Ularning paydo bo‘lishi dushmanning yoppasiga mudofaa pozitsiyalarini engib o‘tish kerakligi bilan, pozitsion tanglikdan operativ kenglikka chiqish va oxir oqibat kurashning pozitsion shaklidan manyovrchanlikka o‘tish uchun kelib chiqdi.

Tanklar, ayniqsa 1918 yil operatsiyalarida katta rol o‘ynadi. Lekin tanklar umuman takomillashmagan edi va ular piyodalarni dushmanning mudofaa chizig‘iga etkazuvchi vosita sifatida qo‘llanildi. Asta-sekin urush davomida tank qismlari taktik va tashkiliy jixatdan qisman mustaqil qo‘shin turi sifatida tashkil etila boshlandi. Urush oxirida frontda va front ortida Antanta 8 mingta tanklarga ega bo‘ldi (Germaniyada 70 ta). Tanklarning texnik-taktik xarakteristikalarini yaxshilandi. Ularning xarakatlanish tezligi 13 kmG‘soatga va zaxira xarakatlanish uzoqligi 100-150 kilometr gacha oshirildi.



Tanklarning jangga kiritilishi bilan xujum sur‘ati oshdi, piyodalar yangi guruxiy xujum jangovar tartibi-guruxiy xujum taktikasiga o‘tdi.

Tanklarning paydo bo‘lishi bilan artilleriyaga *tanklarni o‘t bilan qo‘llab-quvvatlashni* tashkil etish vazifasi yuklatildi.

Urushda aviatsiya katta rivojlanishga ega bo‘ldi. U nishonlarni razvedka qilish va artilleriya zarbasini yo‘naltirish (korrektirovka qilish) uchun belgilangan bo‘lib, o‘ta

takomillashmagan edi. 1917 yilda aviatsiya to'rtta qo'shin turidan tashkil topdi: qiruvchi, shturmchi, engil bombardimonchi va og'ir bombardimonchi aviatsiya.

Aviatsiyaning soni tez sur'atlar bilan oshib bordi. Urush olib boruvchi tomonlar tinchlik sulxi tuzilgan kunda safda 10136 ta samolyotlarga ega bo'ldilar.

Tashkiliy jixatdan aviatsiya 10-12 ta samolyotlari bilan otryadlarga (eskadrilyalarga), guruxlarga, eskadralarga va brigadalarga bo'lindi. Fransiya qo'mondonligi 1918 yilda 660 ta samolyotga ega bo'lgan birinchi xavo diviziyasini tashkil etdi.

1917 yildan yirik operatsiyalarda 1000 tagacha va undan ortiq samolyotlar ishtirok eta boshladi.

Aviatsiya bilan kurashda xavo xujumidan mudofaa qo'shinlari (XXM) rivojlana boshladi.

1915 yil aprelida Germaniya kimyo urushini ochib berdi. Ayniqsa bu kurash 1917 yilning yozi va kuzida juda qat'iy tus oldi, u 1918 yilda katta rivojlanishga ega bo'ldi.

Zaxarlovchi moddalar (ZM) dushmanni yakson etish yoki safdan chiqarish maqsadida qo'llanildi. Avvalboshda ular bo'g'uvchi gazlar bulutini (to'lqinini) yaratuvchi gaz ballonlari ko'rinishida qo'llanildi. 1915 yil iyunida nemislar kimyoviy snaryadlarni qo'lladilar. Artileriya tayyorgarligi paytida otilgan xamma snaryadlarning 30 %ni kimyoviy snaryadlar tashkil etdi.

Kimyoviy xujumga qarshi, *jamo*a va *yakka ximoyaga* bo'lingan *kimyoviy mudofaa vositalari* ishlab chiqildi va qo'llanildi.

Zaxarlovchi vositalardan ko'rilgan umumiy talofatlar Fransiya, Angliya, Amerika va Germaniya armiyalarida yarim million kishini tashkil etdi.

Otliq qo'shinlar qo'shin turi sifatida oldingi jangovar sifatlarini ko'rsata olmadi. Urush oxirida u ancha qisqarib ketdi. Pozitsion urush davrida otliqlar otdan tushganlar va piyoda qo'shin sifatida xarakatlanganlar. Otliq qismlar pulemyotlar, samolyotlar o't zarbasidan va ular tashlayotgan bombalardan katta talofatlar ko'ra boshladilar. Lekin bular xammasi otliqlarni muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun yorib o'tilgan uchastkalarga kiritishga to'sqinlik qilgan emas.

Urushda muxandislik qo'shinlari va muxandislik vositalari keng rivojlanishga ega bo'ldi. Muxandislik qo'shinlarining axamiyati 1,5-2 marta oshdi. Oliy muxandislik qo'shin birligi batalon xisoblandi. Batalondagi to'rtta rotadan bittasi telegraf rotasi bo'ldi. Piyodalar

diviziyalariga bittadan muxandislik rotalari ajratilgan. Muxandislik qo‘shinlari rivojlangani sari uning safidan aloqa, temir yo‘l, avtomobil, zirxli, xavoda suzuvchi (dirijabllar) va aviatsiya qo‘shinlari ajralib chiqdi.

Urush davrida front orti xizmatining roli oshdi. O‘q-dorilarni tashib keltirish ko‘p marotabaga oshdi. Front orti xizmatini uzluksiz ishlashini ta‘minlash uchun avtomobil qismlari tashkil etildi.

Bosh jang strategiyasi urushning yangi talablariga javob bermay qoldi. Bosh jangda g‘alabaga erishish va dushmanni ketma-ket tor-mor etish rejasi barbod bo‘ldi. Urush xarakterlarini bir vaqtning o‘zida bir-nechta frontlarda to‘rt yil olib borishga to‘g‘ri keldi.

Birinchi jaxon urushida strategiya avvalom bor, frontda dushmanni, uning tirik kuchlarini yakson qilishga va uning xududini bosib olishga va ushlab turishga yo‘naltirildi. Davlat front orti, ayrim xollardan tashqari dushman xamlasiga duch kelmadi.

Yangi kurash olib borish vositalari-aviatsiya, tanklar paydo bo‘lishi va artilleriyaning takomillashishi bilan strategiyaning imkoniyatlari oshdi. Operatsiyalarning kengko‘lamligi o‘zgardi, janglarga katta qo‘shinlar kiritiladigan bo‘ldi, xujum fronti kengligi, operatsiyaning chuqurligi va sur‘ati xujumning birinchi kunidanoq oshdi.

Qo‘shinni boshqarish murakkablashdi. Xarakterdagi qurolli kuchlarning armiya guruxlariga (frontlarga) bo‘linishi munosabati bilan, armiya tomonidan o‘tkaziladigan aloxida operatsiyalar front operatsiyalarining bir qismi bo‘lib qoldi. *Bosh qo‘mondonlik zaxirasiga* yirik kuchlar ajratiladigan bo‘ldi.

Yoppasiga frontlarning shakllanishi bilan urush pozitsion xarakterga ega bo‘ldi. Xujumkor janglar, istexkomlarni uzoq va shiddatli yanchib tashlash va ko‘plab o‘t ochish vositalarini sarflash tusini oldi.

Urushning boshlanishi bilan raqiblar qamrab oluvchi manyovrlarni amalga oshirishga, qanotlarga qarshi jang olib borishga xarakter qildilar. Qanotlarni keng qamrab olish kuzatildi, lekin u qurshovga olish bilan yakunlanmadi. Buning uchun kerakli bo‘lgan kuch va xarakatchan vositalar etarli emas edi. Manyovrchanlik operatsiyalari pozitsion kurash bilan almashtirildi. Yoppasiga frontlar shakllandi, ochiq qanotlar qolmadi. Manyovrning yagona shakli *frontdan zarba berish* bo‘lib qoldi. Frontni taktik yorib o‘tishni operativ yorib o‘tishga rivojlantirishning imkoniyati bo‘lmadi.

Birinchi jaxon urushi taktik mudofaani engib o'tish muammosini xal etdi. Birlashmalarning jangovar imkoniyatlari va operativ san'atning o'zi xali operativ masshtablarda yorib o'tish muammosini xal etish talablariga javob bermas edi.

Yorib o'tish bitta tor uchastkada armiyaning kuchlari bilan yoki keng frontda bir nechta armiyalarning kuchlari bilan amalga oshirilgan. O'zini oqlagan yorib o'tish, bu keng frontda bir vaqtning o'zida bir-nechta zarbalarni berish yo'li bilan yorib o'tish bo'ldi.

## **8.2.Yangi jangovar vositalarning yaratilishi**

Yangi jangovar vositalarning yaratilishi bilan, o't zarbasi, qo'shinning manyovrchanlik va zarbdor kuchining oshishi bilan xujumkor va mudofaa jang taktikasi murakkablashdi. Jangning butun qiyinchiligi piyodalarning zimmasiga tushdi. Uning quroli pulemyotlar bo'lib xisoblandi. Umumqo'shin jangi piyodalar va artilleriyaning o'zaro xamkorliklari ko'rinishini kasb etdi, Shuni ta'kidlash lozimki, artilleriya yordamchi rolni o'ynadi.

Piyodalar jangovar tartibining asosi bo'lib zanjir xizmat qildi. Uning kuchli tomoni mudofaalanayotgan dushmanga bir vaqtda kuchli zarbalar berish bo'lib xisoblandi, lekin zarba etarli kuchga ega emas edi.

Eshelonlashtirilgan zanjirlardan iborat to'liq jangovar tartib (1915-1916 yillarda) chuqurlikni va yorib o'tish kuchini oshirgan. Lekin bunday zarba berish katta talofatlarga olib kelgan. To'liqlarning beso'naqayligi ularni boshqarishni qiyinlashtirar edi.

Guruxiy jangovar tartib ancha manyovrchan bo'ldi va tezlik bilan talofatlarni kamaytirdi (1917-1918 y.), unda jang aloxida guruxlar-otdelenielar kuchi bilan olib borildi. Uning paydo bo'lishi engil pulemyotlar, engil to'plar, minomyotlar va tanklarni jangovar qo'llanilishi bilan bog'liq.

Shunday qilib, piyodalarning jangovar tartibi uzluksiz o'zgardi: o'qchilar zanjiridan zanjir to'liqlariga va keyin esa jangovar guruxlarga (shturmchi guruxlar orqali) o'tish amalga oshirildi.

Urush oxirida diviziya front bo'ylab 2,5-3 kilometrda, batalon esa 500-600 merta xujum qilgan. Batalon, polk, diviziya va korpuslarning jangovar tartibi odatda ikki eshelonda qurilgan. Ikkinchi eshelon birinchi eshelonni almashtirish yoki uni kuchaytirish uchun qo'llanilgan.

Mudofaaning rivojlanishi yoyma mudofaadan (bir-biri bilan o't ochib xamkorlik qiluvchi tayanch punktlari) transheya mudofaasiga, tayanch punktlariga, juda ko'plab turli

xil inshootlarga va o't ochish vositalariga, masalan tankka qarshi va samolyotlarga qarshi bir-nechta pozitsiyalardan (chiziqlardan) iborat bo'lgan mustaxkam fortlarni yaratishga keldi. Mudofaa chuqurlikka tomon 1,5-2 kilometr dan 15-20 kilometr gacha rivojlandi va jixozlangan pozitsiyalardan ketma-ket qarshilik ko'rsatish, qarshi xujumlarni amalga oshirish imkonini berdi.

Urushdan oldin, urush qisqa, manyovrchan bo'ladi, deb uylagan edilar, Shuning uchun istexkomlar chizig'ini qurish ortiqcha ish deb xisoblangan edi. 1914 yilda Marna jangigacha piyoda qo'shinlar oddiy okoplar qazib yashiringan edi. Frontlarning mo'tadillashishi bilan qo'shinlar tomonidan egallanadigan mudofaa pozitsiyalari, tayanch punktlariga ega bo'lgan bitta transheya chizig'idan iborat bo'lib, o'tish yo'lakchalari orqali birlashtirildi. Okoplarning oldida bir-necha qator tikanli simlar to'siqlari o'rnatilgan.

1915 yilda og'ir artilleriya qo'llanishining kuchayishi bilan, qo'shin 8-10 kilometr gacha chuqurlikka eshelonlashtirila boshlandi, bunda ikkinchi pozitsiya yaratildi va uning birinchi pozitsiyadan uzoqligi 4-8 kilometrni tashkil etdi. Uchinchi, front orti pozitsiyasining yaratilishi bilan mudofaa chuqurligi yanada oshdi.

1917-1918 yillarda mudofaa chiziqlardan (zonalardan) tashkil topdi: oldingi, jangovar va front orti.

Urush oxirida mudofaada polklar uch eshelonda joylashdilar, diviziyaning uchastkasi 5 kilometr dan oshmagan. Frontning xar bir kilometrda 12 tadan 24 tagacha orudiyalar va 4 tadan 8 tagacha minomyotlar to'g'ri kelgan. Qo'shinlar mudofaada guruxiy jangovar tartibda joylashganlar, qarshilik ko'rsatish tarmoqlarini, tayanch punktlarini va ularni birlashtirib turuvchi okoplarni egallaganlar.

## **XIX – BOB IKKINCHI JAXON URUSHI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR (1939-1945yy.)**

### **9.1. Ikkinchi jaxon urushining boshlanishi. Fashistlar tajovuzini qaytarish va urushdagi vaziyatni tubdan o‘zgarishga sharoit yaratilishi(iyun 1941y. – noyabr 1942-y.).**

Birinchi jaxon urushi tugashi bilan xalqaro imperializm yangi urushga tayyorgarlikni boshlab yubordi. Imperialistik davlatlar o‘rtasidagi kelishmovchilik ikkita qarama-qarshi blokning shakllanishiga olib keldi: Germaniya, Italiya a‘zo bo‘lgan fashistlar blogi va AQSH qo‘llab-quvvatlagan Angliya-Fransiya ittifoqchilik blogi. Shu vaqtda xalqaro imperializmning butun xarakati boshlanishi muqarrar bo‘lgan yangi urushda birinchi sotsialistik davlat-SSSRni tor-mor etishga yo‘naltirildi.

Angliya-Fransiya koalitsiyasi va AQSH bu maqsadlariga fashizm agressiyasini SSSRga qarshi gij-gijlab erishmoqchi bo‘ldilar. Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSH xukumatlari Germaniyaning Avstriyani bosib olganiga e‘tibor bermadilar.

G‘arb davlatlari xukumron doiralari o‘zlarining jirkanch maqsadlari bilan fashizmni jilovlashni va Shu bilan birga yangi jaxon urushining oldini olishni xoxlamadilar. Gitlerchilar Germaniyasining «tinchlikni saqlash» siyosati 1938- yilning martida Avstriyani o‘z davlati tarkibiga, keyin 1938-yilning oxiri va 1939-yilning boshlarida CHexoslovakiya davlatining jaxon kartasidan yo‘q qilinishi va uni Germaniya tarkibiga kiritilishiga olib keldi.

Urushning boshlanishi muqarrar edi. O‘z xususiyatiga ko‘ra Ikkinchi jaxon urushi murakkab xodisalardan iboratdir. Uning murakkabligi Shundan iboratki, unda ikki g‘arb militaristik guruxlarining bosqinchilik maqsadlari va xalq ommasining fashizmdan ozod bo‘lishga intilishlari jiplashib ketgan edi.

Ammo Shuni esda tutmoq lozimki, AQSH, Angliya xukumron doiralari butun urush davomida o‘zlarining monopolistik munosobatlariga amal qilib keldilar.

## **9.2. Ikkinchi jaxon urushining birinchi davridagi jangovar xarakatlarning olib borilishi.**

Birinchi jaxon urushidan keyin g'olib davlatlar-Angliya, Fransiya va AQSH Evropa qit'asida, YAqin Sharqda va mustamlaka Afrikasida siyosiy va iqtisodiy xukmronlikni qo'lga kiritdilar. Germaniya esa urushda chekkan mag'lubiyati natijasida jiddiy iqtisodiy inqirozga uchradi. Ammo Germaniya militarizmining ijtimoiy-iqtisodiy bazasi xali but bo'lib, xam siyosatda, xam iqtisodiyotda monopolistik kapital xukmron edi. Bundan tashqari Germaniya o'z qurolli kuchlarining asosini xam saqlab qoldi.

Ikkinchi jaxon urushi g'arbiy davlatlarning jaxonga xukumronlik qilish uchun, bozorlarni, xom ashyo manbalarini zabt etish va kapital boyliklarga egalik qilish uchun kurashlari natijasida kelib chiqdi. Uning aybdorlari xamma davlatlarning militaristlari bo'ldi. Ikki gurux-birinchi tomondan Angliya, Fransiya va AQSH, ikkinchi tomondan – Gitler Germaniyasi, fashistlar Italiyasi va Yaponiya militaristlari jaxonga xukumronlik qilish uchun qurolli kurashga tayyorgarlik ko'ra boshladilar. Urushdan oldingi, AQSH, Angliya va Fransiyaning Myunxen siyosati atalmish butun siyosati, Gitlerchilar Germaniyasini va u bilan birga Yaponiya militaristlarini va fashistlar Italiyasini, Ittifoq Ittifoqiga qarshi gij-gijlashga yo'naltirildi. Shu maqsadlar bilan Angliya, Fransiya va ayniqsa Amerika militaristlari, Germaniyaga harbiy-sanoat potensialini tiklashga yordam berib, unga Evropaning Sharqida erkin xarakatlanish imkoniyatini berdilar, Yaponiya militaristlari Osiyoda Shunday erkin xarakatlanish imkoniyatini oldi.

Myunxen keliShuvi - Germaniyaning qo'li bilan Ittifoq davlatini bo'g'ishni orzu qilgan AQSH, Angliya va Fransiya xukumron doiralarning antiittifoq siyosatining kulminatsion punkti bo'ldi.

Ittifoq xukumati tinchlik siyosatini olib bordi va birgalikda xavfsizlikni ta'minlash tizimini yaratishga, agressorga xamkorlikda barxam berish taklifini ko'tarib chiqdi. Lekin, AQSH, Angliya va Fransiya, Ittifoq xukumatining xamma konkret takliflarini rad etdi.

G'arb davlatlari xukumron doiralari o'zlarining jirkanch maqsadlari bilan fashizmni jilovlash va Shu bilan birga yangi jaxon urushining oldini olishni xoxlamadilar. Gitler Germaniyasining «tinchlikni saqlash» siyosati 1938- yilning martida Avstriyani o'z davlati tarkibiga, keyin 1938-yilning oxiri va 1939-yilning boshlarida CHexoslovakiya davlatining jaxon kartasidan yo'q qilinishi va uni Germaniya tarkibiga kiritilishiga olib keldi.



Urushning boshlanishi muqarrar edi. O‘z xususiyatiga ko‘ra Ikkinchi jaxon urushi murakkab xodisalardan iboratdir. Uning murakkabligi Shundan iboratki, unda ikki g‘arb militaristik guruxlarining bosqinchilik maqsadlari va xalq ommasining fashizmdan ozod bo‘lishga intilishlari jiplashib ketgan edi.

Faqatgina Ittifoq Ittifoqining fashistlar Germaniyasining bostirib kirishi oqibatida urushga kirishi, Ikkinchi jaxon urushini xaloskorlik, antifashist urushiga aylantirishga muxim omil bo‘ldi.

Ammo Shuni esda tutmoq lozimki, AQSH, Angliya xukumron doiralari butun urush davomida o‘zlarining monopolistik munosabatlariga amal qilib keldilar.

### **9.3. Ikkinchi jaxon urushinihg davrlarga bo‘linishi**

Qurolli kurash xarakteri bo‘yicha Ikkinchi jaxon urushi quyidagi davrlarga bo‘linadi:

**BIRINCHI DAVR**-urushning boshlanishidan–Germaniyaning SSSRga bostirib kirguniga qadar(1939- y. 1.09.-1941- y 22.06.);

Fashistlar Germaniyasi va Italiyaning Evropada va Afrikada qurolli agressiyalari, Yaponiyaning Janubiy-Sharqiy Osiyodagi agressiyasining kengayishi.

**IKKINCHI DAVR**-Germaniyaning SSSRga bostirib kirishidan-qizil Armiyaning Stalingrad ostonalarida qarshi xujumga o‘tguniga qadar (1941- y. 22.06.- 1942- y. 18.11.)

Fashistlar Germaniyasining SSSRga qo‘qqisdan bostirib kirishini qaytarish, urushning borishida tubdan burilish yasash uchun qulay sharoit yaratish.

**UCHINCHI DAVR**-Tubdan burilish davri (1942- y. 19.11.-1943- yilning oxiri)

**TO‘RTINCHI DAVR**-nemis fashistlarining batamom tor-mor etilishi va Germaniyaning kapitulyasiyasi (1944- y. yanvar-1945- y. 9 may)

**BESHINCHI DAVR**-Yaponiya imperialistlarining tor-mor etilishi va Ikkinchi jaxon urushining tugashi (1945- y 9 may–2 sentyabr).

Urushning birinchi davri ikki koalitsiyadan iborat yirik kapitalistik davlatlarning o‘zaro oliShuvidan iborat bo‘ldi. Bu davr mobaynida nemis-fashist bosqinchilari Polsha, Norvegiya, Daniya, Fransiyaning shimoliy qismini, Belgiya, Gollandiya, Lyuksemburg, YUgoslaviya, Gretsiyani okkupatsiya qildilar, Angliyaga og‘ir talofatlar etkazdilar.

#### **1939 yildagi Germaniya-Polsha urushi.**

Polshaga bostirib kirish uchun 53 ta diviziya, jumladan 6 ta tank va 5 ta motorlashgan, 2 ta brigada, 2500 ta tank, 2000 ta samolyotlar jamlandi, kampaniya davomida urushga yana

qo‘shimcha 8 ta diviziya jalb qilindi. Ular Polsha Armiyasidan shaxsiy tarkib bo‘yicha 1,6 marta, tanklar bo‘yicha 3,2 marta, artilleriya bo‘yicha 1,3 marta, jangovar samolyotlar bo‘yicha 5 marta ustunlikka ega edilar.

Fashistlar qo‘mondonligining maqsadi, ikkita kuchli aylanma zarbani Varshava yo‘nalishiga berish, Polsha armiyasini qurshab olish va bitta strategik operatsiyada Visla daryosining janubrog‘ida tor-mor etish, polyaklarning jang olib borish qobiliyati yuqori qismlarini davlatning Sharqiy qismiga chekinishiga yo‘l qo‘ymasdan yakson etishdan iborat edi.

Gitler bosqinchilariga qarshi Polsha qo‘mondonligi 36 ta piyodalar diviziyalarini, 11 ta (kavaleriya) otlıq, 2 ta mexanizatsiyalashgan brigada, 860 ta engil tanklar, 420 ta samolyotlar va 12 ta jangovar kemalarni qarshi qo‘ydi.

Germaniya-Polsha urushi 1939- yil 1-sentyabrda nemis-fashistlar aviatsiyasining Polsha aerodromlariga, temir-yo‘l stansiyalariga va shtablariga to‘satdan zarbasi bilan boshlandi.

Polsha mudofaasining asosiy yo‘nalishlarda yorib o‘tilishi tank va motorlashgan diviziyalar bilan amalga oshirildi. Qanotlar piyoda qo‘shinlarning xarakatlari bilan ta‘minlandi. Quruqlikdagi operatsiyalar o‘tkazilishidan oldin artilleriya va aviatsiya tayyorgarligi o‘tkazildi.

SHimoldan va janubdan berilgan zarbalar natijasida Germaniya qo‘shinlari uch kun ichida Polsha frontining mudofaasini butun chuqurligida yorib o‘tishni amalga oshirdilar. Tank va motorlashgan diviziyalar erishilgan muvaffaqiyatni front ichkarisida, chuqurlikda rivojlantira boshladilar. Ularga aviatsiya va tanklar bilan qilingan xamkorlik katta qulaylik yaratdi.

9-sentyabrda Polsha armiyasi jiddiy talofatlarga uchradi. Lekin Shunga qaramasdan nemis qo‘shinlari Varshava rayonida qattiq qarshilikka uchradilar. Varshava garnizoni va xalqi fashistlarning xarakatlanish mobaynida Polsha poytaxtini egallashga urinishlarini barbod etdi. Varshava mudofaasi 20 sutka davom etib (8-27 sentyabr), Ikkinchi jaxon urushi tarixida yirik shaxarning mudofaasini tashkil etish va uni olib borishning timsoli bo‘ldi. Modlin qal‘asi garnizoni 30- sentyabrgacha qaxramonona jang qildi, Gdin dengizchilari 2- oktyabrgacha dushmanning suvdan va quruqlikdan bergan xamma zarbalarini o‘q - dori va oziq - ovqat tugaguncha qaytarib turdilar.

Germaniya-Polsha urushi natijasida Polsha magʻlubiyatga uchradi. Polsha xalqi fashistlarning qattiq okkupatsiya qulligiga qoldi, davlat raxbarlari Ruminiyaga qochib ketdi.

Germaniya-Polsha urushi harbiy sanʼatning rivoji uchun katta ahamiyatga ega boʻldi. U harbiy xarakatlarni boshlashda, ayniqsa bombardimonchi aviatsiya va bronetank qoʻshinlari birlashmalarining toʻsatdan strategik zarba berish roli oshganini koʻrsatdi.

Quruqlikdagi qoʻshinlar kichik, tor frontda, Harbiy xavo kuchlari bilan yaqindan turib xamkorlik qilib, koʻplab tanklarni joylashtirib, keyin xujumga oʻtdilar. Bosh zarba berish yoʻnalishlarida tanklarning joylashtirish qalinligi frontning har bir kilometrda 50-80 ta mashinaga etdi. Tank diviziyalarining va ularning safidan oldinga joʻnatiladigan (50 km gacha) ilgʻor otryadlarning muvaffaqiyatli xarakatlari, Polsha qoʻshinlarining koʻplab tanklar qoʻllanilgan sharoitlarda mudofaa xarakatlarini olib borishga tayyor emasligi va ularda tankka qarshi artilleriyaning etarli darajada boʻlmaganligi bilan tushuntiriladi.

Angliya va Fransiya 1939- yil 3 sentyabrda Germaniyaga urush eʼlon qildi. Lekin ikkala davlat ham oʻzlarining ittifoqchilari boʻlgan Polshaga yordam koʻrsatmadilar. Ularning armiyalari 8 oydan ortiq Germaniya chegarasi yaqinida hech qanday jangovar xarakatlar olib bormadi. Bu «gʻalati urush» edi. Uning siyosiy maqsadi, Angliya va Fransiya xukumron doiralari xali ham Germaniya SSSRga qarshi urush ochadi, ular bilan urush xarakatlarini olib bormaydi deb ishonganligidadir.

#### **9.4. Urushdagi vaziyatni tubdan oʻzgarishga sharoit yaratilishi.**

Sobiq ittifoqqa qarshi urush rejasida nemis–fashist qoʻmondonligi Moskvani bosib olishga katta, birinchi darajali ahamiyat bergan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fashistlar qoʻmondonligi Moskva yoʻnalishida 77ta diviziyani (jumladan 14 ta tank va 8 ta motorlashgan) toʻpladi, kuchlarning bir qismi Leningrad va Kievdan ushbu yoʻnalishga tashlandi.

Fashistlar qoʻshinlariga uchta frontning qoʻshinlari qarshi turdilar. Ularning safida 1250 ming odam, 990 ta tank, 7600 ta orudiy va minomyotlar, 677 ta samolyotlar mavjud edi. Lekin ustunlik dushman tomonida edi.

Moskva boʻsagʻalarida koʻp qavatli mudofaa yaratilib, uning chuqurligi 250-300 km.ni tashkil etdi.

30-sentyabrda dushman xujumga oʻtdi, ustunlikka ega boʻlib u Ittifoq qoʻshinlarining mudofaasini yorib oʻtib, shiddat bilan Sharqqa tomon xarakatlana boshladi. 3 oktyabrda

dushman Oryol shaxrini egalladi, 7 oktyabrda uning motorlashgan qismlari Vyazmaga yorib kirdi va to'rtta armiya qo'shinlarini qurshovga oldi. Qurshovdagi qo'shinlar dushmanning 29 tagacha diviziyasini xoldan toydirdilar. Birlashmalarning ancha qismi oktyabr o'rtalarida qurshov xalqasini yorib chiqib, Moskva tomonga o'tishga muvaffaq bo'ldi.

Mojaysk mudofaa chizig'i asosiy qarshilik ko'rsatish marrasiga aylandi. Bu erga yangi-yangi birlashmalar kela boshladilar. Oryol yo'nalishiga xam zaxira birlashmalari olib kelina boshlandi, ular Oryoldan Tulaga o'tadigan yo'llarda uzoq janglar olib borib dushmanning tank guruxining xarakatlarini susaytirib yubordilar.

Bu vaqtga kelib Moskvaning shimoliy-g'arbida vaziyat keskinlashdi. Dushmanning tank guruxi 14 oktyabrda Tverni egalladi. Lekin Ittifoq qo'shinlari qarshi zarba berib dushmanni to'xtatib qoldilar.

17 oktyabrda OBQ Stavkasi g'arbiy frontning chap qanot armiyalari negizida Kalinin frontini tashkil etdi (qo'mondoni general I.S.Konev). Uning qo'shinlari qattiq janglar bilan Seliger ko'li, Kalinin, Voljsk suv ombori marralarida mustaxkam o'rnashib, dushmanni Moskvani shimoldan aylanib o'tish niyatini barbod etdilar. Bu erda dushman «Markaz» armiya guruxining chap qanotini yopish uchun mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi.

Oktyabr oxirida Mojaysk mudofaa chizig'ida xayot-mamot janglari avj olib ketdi. Katta talofatlarga qaramasdan dushman Moskvaga intilardi. Ittifoq qo'shinlari dushman xamlalariga cheksiz matonat va qaxramonlikni qarshi qo'yidilar. Mashxur Borodino maydonida 32- o'qchi diviziyaning polklari o'limga tik boqib, fashistlar xujumini qaytarib turdilar.

Shunga qaramasdan dushman tank qo'shinlari g'arbiy front pozitsiyalarini yorib o'tib Volokalamsk, Mojaysk, Kalugani egalladi, Moskvagacha 80-100 km qoldi. 19-noyabrda Davlat Mudofaa qo'mitasi Moskvada qamal xolatini joriy etish bo'yicha qaror qabul qildi. Oktyabr oxirida Ittifoq qo'shinlari ushbu yo'nalishda dushmanni mudofaaga o'tishga majbur etdilar.

Lekin fashistlar qo'mondonligi Moskvani qishgacha egallash fikridan qaytmagan edi. Shu munosabat bilan «Markaz» armiya guruxiga yangi xujumni tayyorlash va o'tkazish uchun topshiriq qo'yildi, bu vazifa-ikkita qudratli gurux bilan Moskvani shimoldan va

janubdan aylanib o'tish, uni qamal qilish va bir vaqtning o'zida frontdan kuchli zarba berib Ittifoq poytaxtini egallashdan iborat edi.

Ittifoq Oliy Bosh Qo'mondonligi o'z vaqtida fashistlar guruxini aniqladi va ularning rejasini payqab qolib, g'arbiy front qo'shinlarini kuchaytirish, mudofaa marralarini takomillashtirish, zaxiralarni Moskva rayoniga olib kelish chora-tadbirlarini ko'rdi.

Buning natijasida g'arbiy front mudofaasi noyabr oyida mustaxkamlandi, uning barqarorligi oshirildi.

15-16-noyabrda nemis qo'shinlari Volokalamsk, 18-noyabrda Tula yo'nalishlarida xujumga o'tdilar. Bir necha kundan so'ng esa Elets k yo'nalishida xam xujumga o'tdilar. 600 kmli frontda yana xayot-mamot janglari avj olib ketdi. Dushman oshgan qarshilikni darrov payqadi.

G'arbiy frontning o'ng qanoti dushmanga katta talofatlar berib, o'zi xam asta-sekin chekina boshladi. Noyabr oxirida nemislar Moskva-Volga kanaliga chiqdilar va uni Dmitrov rayonida kechib o'tdilar.

Bu vaziyatda Bosh Qo'mondonlik YAxroma rayonida va janubrog'da qarshi xujumlarni amalga oshirdi. Bu qarshi xujumlar natijasida dushman kanalning g'arbiy qirg'oqqa uloqtirib tashlandi.

G'arbiy frontning chap qanotida dushman Ittifoq qo'shinlarining front ortiga o'tishga muvaffaq bo'ldi, lekin Tulani egallay olmadi. Ittifoq qo'shinlari Tula va uning atrofi rayonlarini mustaxkam ushlab turdi, bu o'z navbatida butun g'arbiy frontning chap qanoti barqarorligi ta'minladi va bir necha kuchli qarshi zarbalar berish imkoniyatini yaratdi. Ulardan eng qudratlisi Mixaylov rayonidan berildi.

Janglar natijasida dushman 4-dekabrda xujumni to'xtatishga va mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi. 5-dekabr 1941- yilda «Markaz» armiya guruxi qo'shinlari butun front bo'ylab to'xtatib qolindi. Shunday qilib fashistlar armiyasining Moskvaga qilgan ikkinchi xamlasi xam barbod bo'ldi. Moskva ostonalaridagi mudofaa janglari bilan 1941- yil yozgikuzgi kampaniya nixoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi—bu Gitler Germaniyasining «yashindek tez urush olib borish» rejasining chippakka chiqqani bo'ldi. Qizil Armiya dushmanning zarbdor guruxlarini xoldan toydirishga muvaffaq bo'ldi.

## **9.5. Ittifoq Armiyasining Moskva ostonalaridagi qarshi xujumi**

**(1941- y. 5- dekabr – 1942- y. 7- yanvar)**

Yaratilgan vaziyatda Ittifoq Qurolli Kuchlari oldida Leningrad, Moskva va Kavkazdagi xavfni bartaraf etish va urushning borishida burilish yasash vazifasi qo'yilgan edi. Bu vazifalarni qizil Armiya 1941-1942 yilgi qishgi kampaniyalar davomida xal etishi kerak edi. Asosiy zarba Moskva yo'nalishiga berilishi ko'zda tutildi. Moskva ostonalarida qarshi xujumni amalga oshirish uchun Kalinin, g'arbiy, Janubiy - G'arbiy frontlar qo'shinlari jalb etildi. Ular 1100 ming odamga, 7652 ta orudiya va minomyotlarga, 744 ta tankka va 1000 ta jangovar samolyotga ega edilar. Bu frontlarga qarshi 1708 ming odam, 18500 ta orudiya va minomyolar, 1170 ta tank va 615 ta samolyotlarga ega bo'lgan «Markaz» armiya guruxi turar edi.

Qarshi xujumning maqsadi, dushmanning Moskva yo'nalishidagi asosiy guruxlarini tor-mor etish va Moskva shaxri va Moskva ishlab chiqarish rayonlari ustidagi xavf-xatarni bartaraf etishdan iborat edi.

Qarshi xujumning rejasi-g'arbiy frontning xujumlari, Kalinin frontining chap qanoti va Janubiy-G'arbiy frontning o'ng qanoti bilan xamkorlikda amalga oshirilib Moskvaning janubi va shimolida dushmanning zarbdor guruxlarini yakson etish va ularni Moskvadan uloqtirib tashlash edi. Qarshi xujumni to'satdan berish uchun operativ to'xtalishsiz, mudofaa davrida shakllangan qo'shinlar bilan berilishi kerak edi. Asosiy rol g'arbiy frontga berildi. Front qo'shinlari oldida dushmanning qanotdagi guruxlarini Klin, Solnechnogorsk, Stalinogorsk, Tula rayonlarida tor-mor etish vazifasi qo'yilgan edi.

5-dekabrda Kalinin fronti qo'shinlari qarshi xujumga o'tdilar. 6- dekabrda g'arbiy, Janubiy - G'arbiy frontlarning qarshi xujumlari boshlandi. 9-dekabrda 30-armiya qo'shinlari Moskva-Kalinin temir yo'lini egallab, Klindagi dushman guruxini shimoliy - g'arb tomondan qurshovga ola boshladilar. Xarakatlanish surati xali past edi.

Ittifoq qo'shinlari xali urush olib borish tajribasiga ega emas edilar. Ular o'z saflarida kam sonli artilleriya va tanklarga ega bo'lib, qalin tushgan qor xam manyovr qilishni qiyinlashtirar edi.

Dushman qarshiligini engib, Ittifoq qo'shinlari 15 dekabrda Klin rayonida dushman guruxini qurshab oldilar. 1941- yil 15 dekabrda Klin shaxri dushmandan ozod etildi.

Istra yoʻnalishida xam janglar avj olib ketdi, bu yoʻnalishda dushman Kryukovo rayonida kuchli mudofaa yaratishga ulgurdi. 8-dekabrda 8- gvardiyachi oʻqchilar diviziyasi Kryukovoni egallab, Istra yoʻnalishiga xujumni rivojlantirdi.

Kryukovo jangida magʻlubiyatga uchragan dushman Istra suv ombori ortiga oʻtib, kuchli mudofaani tashkil etdi. Frontdan uning mudofaasini yorib oʻtishga boʻlgan xarakatlar muvaffaqiyat keltirmadi. 16-Armiya qoʻmondoni general K.K.Rokossovskiy qoʻshinlarining bir qismi bilan shimoldan va janubdan dushman mudofaasini aylanib oʻtishga qaror qildi. Qurshovga tushib qolish xavfi ostida fashistlar shoshilinch ravishda Volokolamsk tomonga oʻtishga qaror qildilar. Ittifoq qoʻshinlari dushmanni taʻqib etib, 1941- yil 25 dekabrda frontning oʻng qanot qoʻshinlari Lama va Ruza daryolari marrasiga oʻtdilar. Lekin bu erda ular avvaldan tayyorlangan pozitsiyalarda toʻxtatib qolindilar. Dushmanni taʻqib etish xarakatchan guruxlar va changʻichilar batalonlari bilan olib borilib, ular koʻp xollarda dushmanning front ortiga yorib kirib, uning ortga qaytish yoʻllarini toʻsib, toʻsatdan zarbalar berdilar. Moskvaning shimoliy-gʻarbidagi xujumlar davomida Ittifoq qoʻshinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uni 90-100 kmga uloqtirib tashladilar.

Kalinin fronti, gʻarbiy frontning oʻng qanot armiyalari bilan birgalikda, dushmanning Kalinin guruxlariga zarbalar berdi va 16 dekabrda Tverni egalladi.

Gʻarbiy frontning chap qanot qoʻshinlari Uzlovoy yoʻnalishiga xujum qilib nemislarning 2-tank armiyasini magʻlubiyatga uchratdilar. 1942- yil 7- yanvarda ular 220 km olgʻa siljib «Markaz» Armiya guruxini shimoldan qamrab oldilar.

Shunday qilib, 1942- yil yanvar oyi boshlarida qizil Armiyaning Moskva ostonalaridagi xujumi qatʻiy gʻalaba bilan tugadi. Dushmanning zarbdor guruxlari tor-mor etildi va gʻarbga tomon 100-150 kmga uloqtirib tashlandi. Poytaxtga solinib turilgan taxdid bartaraf etildi.

Mudofaadan xujumga oʻtilishi va Bosh strategik yoʻnalishda yirik gʻalabalarga erishilishi bilan Qizil Armiya dushman qoʻlidan tashabbusni tortib oldi. Moskva ostonalarida nemislarning tor-mor etilishi bilan urushning borishida tubdan burilish boshlandi.

## **9.6. 1940-yil may-iyun oylaridagi g‘arbiy Evropadagi jangovar xarakatlar, ularning natijalarilari va xulosalar.**

### **DANIYA VA NORVEGIYANING BOSIB OLINISHI**

Ittifoqchilarning xarakatsizligi, Germaniyaga, Polshani bosib olgandan keyin Daniya va Norvegiyani bosib olish imkoniyatini yaratdi. Fashistlar raxbarlari Evropaning shimoliy qanotida, Angliyaga qarshi harbiy xarakatlar olib borishni, va uni egallashni SSSRga bostirib kirish uchun muxim strategik platsdarm deb qaradilar.

Germaniya floti kemalari, aviatsiya va xavo-desant qo‘shinlari xamkorligida 9- aprelda Norvegiyaning sakkizta qirg‘oq bo‘yidagi muxim portlariga desant tushirdilar va ularni bosib oldilar. Xar bir desant kuchaytirilgan piyodalar polklaridan, jangovar va transport (7 tadan 25 tagacha) kemalaridan tashkil topdi. Norvegiya xududiga qo‘shin tuShurish bir vaqtning o‘zida amalga oshirilishi uchun, desantlar Germaniyaning shimolida uzunligi 900 km. bo‘lgan marradagi portlardan bir vaqtning o‘zida tashlandilar. Norvegiyaning xamma asosiy aerodromlari o‘sha kuniyoq xavo desantchilari tomonidan egallandi. Davlat ichkarisida jang xarakatlarini rivojlantirib, nemislar asosiy kommunikatsiyalar va markazlarni egallab, Norvegiyani kapitulyasiya qilishga majbur etdilar. Nemis desantining muvaffaqiyatiga o‘z vatanining xoini mayor Kvisling boshchiligidagi Norvegiya «beshinchi kolonnasi»ning xarakatlari ko‘p jixatdan axamiyatga ega bo‘ldi. Norvegiyani to‘lig‘icha okkupatsiya qilish uchun ikki oy vaqt talab etildi.

1940- yil 9- aprelda Daniyaning asosiy portlariga xam nemislarning dengiz desanti tashlandi va ular bosib olindi.

Nemis – fashist qo‘shinlarining Norvegiyani bosib olish operatsiyasi quyidagi omillar bilan xarakterlanadi:

- dengiz desantining yashirincha va puxta tayyorlanganligi;
- desant tuShurilishining to‘satdan amalga oshirilishi;
- xavo desantini keng ko‘lamda xar xil maqsadlarda qo‘llanilishi, jumladan, aerodromlarni egallash, kommunikatsiyalarni buzish, boshqaruvni izdan chiqarish uchun.

### **9.7.Germaniyaning g‘arbiy Evropa davlatlariga bostirib kirishi**

Fashistlar Germaniyasi bilan urushga tayyorgarlik ko‘rib, Angliya, Fransiya qo‘mondonligi, harbiy xarakatlar boshlanishi bilan o‘zlarining kuchli qo‘shin guruxlarini SHimoliy Fransiyadan, betaraf Belgiya va Gollandiya xududlariga olib chiqishga qaror



qildilar. Bu davlatlar armiyalari bilan birlashib, Angliya-Fransiya guruxlari birgalikda Belgiya va Gollandiya chegaralarini ximoya etishi va nemislarning berilajak bosh zarbalarini Shu erda qaytarishlari kerak edi.

Shu reja asosida ittifoqchilar Germaniyaga qarshi SHimoliy-Sharqiy harbiy-xarakatlar teatrda 143 ta diviziya, 3000 ta tank, 2700 ta dan ortiq samolyotlar tayyorladilar. Fransiya armiyasi uchta armiya guruxiga bo‘lindi, ulardan birinchisi – eng kuchlisi - Belgiyaga kirishi kerak edi.

Nemis-fashist qo‘mondonligi 135 ta diviziya va 1 ta brigadani, 2600 ta tank va 3500 ta samolyotlarni ularga qarshi tashladi. Bu qo‘shinlar «A», «V», «S» armiya guruxlariga birlashtirildi. «A» armiya guruxi – 45 ta diviziya va 3- xavo armiyasidan, «V», armiya guruxi – 29 ta diviziya va 2-xavo armiyasidan, «S», armiya guruxi – 19 ta diviziyadan iborat edi, va bosh qo‘mondonlik zaxirasi 42 ta diviziyadan tashkil topdi.

Fashistlar qo‘mondonligining maqsadi, Fransiya, Belgiya, Gollandiya xududlarida joylashgan ittifoqchilar qo‘shinlariga chuqur va kuchli zarbalar berish, La-Mansh bo‘g‘ozi qirg‘oqlariga chiqish, ittifoqchilar qo‘shinlarini bo‘lib tashlash, ularning asosiy kuchlarini qurshab olib, SHimoliy Fransiya va Belgiyada tor-mor etishdan iborat edi.

Asosiy zarbani «A» armiya guruxi Arden tog‘lari yonidan Lyuksemburg, Abvil yo‘nalishlariga, La-Mansh bo‘g‘ozi bo‘ylab, Majino liniyasini shimoldan aylanib o‘tib berishi ko‘zda tutildi. «A» armiya guruxi, «B» guruxi bilan birgalikda ittifoqchilarning kuchli birinchi armiya guruxlarini qurshab olishi va tor-mor etishi kerak edi.

«B» armiya guruxining vazifasi, «A» armiya guruxi ittifoqchilar qo‘shinlarining ortidan aylanib o‘tib kirishi paytida, o‘zining chap qanoti bilan Belgiyada ittifoqchilar qo‘shinlariga zarba berish va ularni xoldan toydirishdan iborat edi.

«S» armiya guruxi Majino liniyasi qarshisini ximoya etish va Shu erda fransuz qo‘shinlarini xoldan toydirish vazifasini oldi.

1940 - yil 10 mayda nemis-fashist qo‘shinlari xujumga o‘tdilar. Tongda birinchi zarbani fashistlar aviatsiyasi 3500 ta samolyoti bilan Fransiya aerodromlariga 300 km. chuqurlikda bera boshladi. Natijada nemislar xavoda xukumronlikni qo‘lga kiritdilar. Bir vaqtning o‘zida xavo desantlari ko‘plab suv to‘siqlaridagi ko‘priklarni, istexkomlarni, tayanch punktlarini bosib olish uchun Gollandiya va Belgiya xududiga tuShurila boshlandi.

Fashistlarning bostirib kirishi bilan ittifoqchilar qo‘mondonligi o‘zining noto‘g‘ri rejalari asosida birinchi guruxdagi bosh kuchlardan iborat armiyalarni Gollandiya va Belgiyaga kiritishga buyruq berdi. Bu erda nemislarning ikkilamchi kuchlari - «B» armiya guruxi va ittifoqchilarning asosiy kuchlari o‘rtasida jang xarakatlari boshlanib ketdi. Bu xolat Kleystning Shu vaqtda Arden orqali kelayotgan tank guruxining xarakatlarini engillashtirdi. Uch sutka mobaynida bu gurux 100-120 km. ilgarilab ketib, 13 mayda 100 kmli frontda Maas daryosi bo‘ylariga chiqdi. Maas daryosini kechib o‘tish xarakatlanish mobaynida, 14 soat vaqt ichida amalga oshirildi. 1940- yilning 20 mayida Kleystning bosh qo‘shinlari Dyunkerning janubrog‘idan La-Manshga chiqdilar.

Nemis-fashistlarning «A» va «B» guruxlarining birgalikdagi xarakatlari natijasida 25 mayda ittifoqchilar qo‘shinlari SHimoliy Fransiyada va Flandriyada siqib qo‘yildi. Belgiya armiyasi kapitulyasiya qildi. Angliya armiyasi 28 maydan 4-iyun oraliq‘ida Dyunkerdan evakuatsiya qilindi.

5 iyunda nemis-fashist qo‘shinlari kuchsizlanib qolgan fransuzlar armiyasiga Somma daryosi buyida qattiq zarba berdilar. Bir necha chuqur zarbalar berib, ular Fransiyaning markaziy rayonlariga bostirib kirib, Parijni egalladilar. Bu operatsiyalarning xarakterli tomoni, fashistlar qo‘mondonligi tomonidan bir emas, xar biri uchtadan mexanizatsiyalashgan korpusni o‘z ichiga olgan uchta tank guruxining qo‘llanilishi edi. Ular kuchli chuqur zarbalar berib fransuz armiyasini tor-mor etishni oxiriga etkazdilar. 1940- yil 22-iyunda Fransiya xukumatini Gitler bilan tinchlik sulxini imzoladi.

### **Fransiyaning tezlik bilan mag‘lubiyatga uchrashining sabablari:**

1. Fashizm oldida kapitulyasiya qilgan Fransiya burjuaziyasining sotqinligi.
2. Fransiya harbiy tizimi va harbiy doktrinasining eskirganligi.
3. Angliya va Fransiya armiyalarining zamonaviy urush olib borishga tayyor emasliklari.
4. Ularda yirik aviatsiya, tank va motorlashgan birlashmalarning yo‘qligi.
5. Dushmanning bosh zarba berish yo‘nalishini aniqlashdagi xatolik.
6. Nemis - fashist qo‘mondonligining asosiy kuch va vositalarini bosh zarba berish yo‘nalishlarida moxirona jamlashi.

7. Nemis- fashist qo‘mondonligining tank va mexanizatsiyalashgan birlashmalarini muvaffaqiyatni rivojlantirish uchun qo‘llaganligi.

### **9.8..Germaniyaning Angliyaga qarshi kurashi.**

Fransiyaning mag‘lubiyatidan so‘ng fashistlar Angliyaga tinchlik sulxini tuzishni taklif etdilar. Taklif qabul qilinmadi. Shundan so‘ng gitlerchilar Angliyaga bostirib kirishga tayyorgarlik ko‘ra boshladilar. Xavodan xujumni amalga oshirib, ular Britaniya qarshiligini engib, uni tinchlik sulxini tuzishga majbur qilishni o‘z oldilariga maqsad qilib qo‘ydilar. Xavodan berilayotgan zarbalar Britaniya orollarini suvdan qamal qilish bilan birgalikda olib borilishi kerak edi.

Avgust boshlarida Angliya qiruvchi samolyotlarining soni nemislarnikidan ortiq bo‘lib (700 ta inglizlar qiruvchi samolyotlari, 578 ta nemislar qiruvchi samolyotlari), bombardimonchi aviatsiya bo‘yicha ustunlik nemislar tomonida edi (1600 ta nemislarda, 436 ta inglizlarda). Inglizlar zaxirasida yana 300 ta qiruvchi samolyotlar mavjud edi.

Germaniya Angliyaga urush ochish uchun dengizda xukumronlikka erishmagan edi. Norvegiya operatsiyasi davomida flotdagi yo‘qotishlari oqibatida Germaniya 1940- yil yozida va kuzida etarli darajadagi kemalarni to‘play olmadi. Buning ustiga Angliya qo‘mondonligi tez orada, flot, aviatsiya, qirg‘oq bo‘yida eshelonlashtirilgan pozitsiyalarning va quruqlikdagi kuchlarning xamkorligida qudratli mudofaani yaratdi.

Fashistlar Harbiy Xavo kuchlari va armiyani Angliya bilan kurashda kuchsizlashtirishni xoxlamasdan, o‘zlarining asosiy kuchlarini Ittifoq Ittifoqiga qarshi to‘play boshladilar. Mana Shu vaziyatni e‘tiborga olib, 1940- yilning kuzida Angliyaga bostirib kirish rejasi bekor qilindi va u Ittifoq Ittifoqining e‘tiborini chalg‘itish uchun niqobli tadbirga aylandi.

Shu bilan bir vaqtning o‘zida 1940- yil avgust-noyabrda Germaniya Harbiy Xavo Kuchlari (XXK) (2, 3, va 5 xavo flotlari) Angliyaning harbiy-iqtisodiy potensialini izdan chiqarish uchun mustaqil operatsiya o‘tkazdi («Angliya uchun kurash»). Britaniya shaxarlariga anchagina talofat etkazishlariga qaramasdan, Germaniya XXK o‘z maqsadlari-Angliyani urushdan chiqarishga erisha olmadilar.

Germaniya XXK olib borgan strategik operatsiyaning muvaffaqiyatga erisholmaganining sababi, Germaniya XXK qo‘mondonligining ingliz qiruvchi aviatsiyasining sonini noto‘g‘ri baxolaganligi, XXM kuchlarining, xamda Britaniya

aviatsiya ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqarish qobiliyatini va tezkorlik bilan uchuvchilarni tayyorlay olish imkoniyatlarini xisobga olmaganidir. Nemis XXK lari xavoda o'z xukumronliklarini saqlab qolish uchun birinchi zarbani to'satdan bera olmadilar. Germaniya qo'mondonligi aviatsiya kuchini bir necha ob'ektlar bo'yicha noto'g'ri sarflab, zarba berish tartibini buzdi: eski nishonlarga zarba berishni oxirigacha etkazmasdan, zarbani yangi nishonlarga ko'chira boshladi. Angliya aviatsiyasi shaxsiy tarkibi asta-sekin tajriba orttirib, dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatdi.

Germaniya XXKlari strategik o'preatsiyasining va umuman Britaniya orollariga qilingan xujumning inqirozga uchrashining asosiy sababi-bu nemis fashistlarining SSSRga qarshi urush ochishga qaror qilganliklaridir. Ittifoq Ittifoqining agressiyani qaytarish uchun ko'rayotgan tayyorgarlik omilining o'zi Angliyani mag'lubiyatdan qutqarib qoldi.

### **9.9.Germaniyaning Bolqonga bostirib kirishi.**

Angliyaga xavo xujumi bilan birgalikda fashistlar Germaniyasi Bolqonga xam xujumni tayyorladi. Ular Bolqon yarim orolini muxim xom ashyo va oziq-ovqat bazasi va Ittifoq Ittifoqiga xujum qilish uchun muxim platsdarm deb qaradilar.

1941- yil 6-aprelda nemis-fashist qo'shinlari Italiya va Vengriya armiyalari bilan xamkorlikda Bolqonga – YUgoslaviya va Gretsiyaga bostirib kirdilar. Bu agressiya Sharqiy frontning janubiy qanotini ta'minlash maqsadida o'tkazildi. Texnik jixozlanish va soni jixatidan dushman ustunligi sezilarli darajada bo'lganligi va Xorvatiya, Sloveniya burjuaziyasining sotqinligi oqibatida YUgoslaviya armiyasining dushmanga ko'rsatayotgan qarshiligi sustlashib ketdi. 1941- yil 17-aprelda YUgoslaviya armiyasi kapitulyasiya qildi.

Gretsiyaga asosiy zarba Bolgariya xududidan berildi. 27-aprelda fashistlar Afinani egalladilar. YUgoslaviya va Gretsiyani okupatsiya etishni tugatib nemis-fashist bosqinchilari 1941- yilning 20-mayidan 2 iyunigacha, 8-xavo korpusining qo'llab - quvvatlovida, 11-havo-desant korpusini tuShurib Krit orolini bosib oldilar. Kritga desant tuShurilishi parashyut-desant qo'shinlari imkoniyatlarining oshganligidan darak berdi.

### **Harbiy-siyosiy natijalar va xulosalar.**

Ikkinchi jaxon urushining birinchi davrida gitlerchilar Germaniyasi Evropaning to'qqizta davlatini bosib oldi va ularni o'z qo'lligiga aylantirdi. Evropa qit'asi davlatlari

zaxiralarining katta qismi ularning to'liq ixtiyoriga o'tdi. Bu zaxiralarni fashistlar Germaniyasi Ittifoq Ittifoqiga qarshi tayyorlanayotgan agressiyaga sarfladi.

Ikkinchi jaxon urushining birinchi davri voqealari, monopolizmning 20 yillik siyosati uqubatlarini tortishga majbur bo'lgan Evropa xalqlari taqdiriga katta ta'sir o'tkazdi. Urushning birinchi davrida fashizm katta harbiy natijalarga erishdi. Lekin uchinchi Reyxning g'alabalari o'zining salbiy natijalariga xam ega bo'ldi: fashizm rejimiga qarshi nafaqat Evropa xalqlari va boshqa qit'alar xalqlarining, balki bir qator kapitalistik davlatlar xukumron doiralarning xam nafratlari uyg'ondi. Ularga qarshi kuchlar maydonga kela boshladi, Evropa xalqlarining Gitler rejimiga qarshi kurashlari avj olib ketdi.

Evropada vermact olib borgan qurolli kurash davlatlarga og'ir harbiy talofatlar olib keldi. 1939-1941yillar davomida Polsha, Norvegiya, Fransiya, Belgiya, Gollandiya, YUgoslaviya, Gretsiya, qurolli kuchlari tor-mor etildi, Daniya va Lyuksemburg okkupatsiya qilindi. Lekin Evropa davlatlari armiyalari va flotlarining qarshiligi oqibatida vermact xam ancha talofatlar ko'rdi. Nemis-fashist qo'shinlari 2000 ta tank va juda ko'plab jangovar samolyotlar va kemalarini yo'qotdilar.

Ikkinchi jaxon urushining birinchi davrida qurolli kuchlarning strategik yoyilish usullari ancha takomillashdi. Safarbarlikning olib borilishi yashirincha va uzoq muddatda amalga oshirila boshlandi; qo'shnlarning jamlanishi xam harbiy xarakatlar boshlangunga qadar olib borila boshlandi; jangovar yoyilish urushning boshlanishigacha tugatildi. 1939-1941 yillar harbiy to'qnaShuvlarining boshlanish jarayonlarining qariyb xammasida strategik yoyilishda vaqt bo'yicha ustunlikka erishish va birinchi zarbani berish muxim xal qiluvchi axamiyatga ega bo'ldi. Vermactning dushmandan ustunligi Shundan iborat edi.

Tajribaning ko'rsatishicha kurash olib borish vositalari qudratining oshishi, ayniqsa urushning boshida to'satdan zarba berilganda katta samara keltiradi.

Urushning birinchi davrida Germaniya qo'mondonligi xujumkor jangni tashkil etish va uni olib borishda katta ko'nikma oldi. Dushman mudofaasini yorib o'tishda gitlerchilar bosh zarba berish yo'nalishini tanklar o'tishi uchun qulay joylardan tanladilar, qo'qqisdan zarba berishni keng qo'lladilar, zarbani tank birlashmalari, aviatsiya va artilleriya bilan berib, xavo desantidan samarali foydalandilar. Operativ chuqurlikda muvaffaqiyatni rivojlantirish vazifasini zirxli tank birlashmalari, mexanizatsiyalashgan qo'shinlar aviatsiya va xavo desanti bilan xamkorlikda bajardilar.

Tank va motorlashgan diviziyalar xujumda xal qiluvchi rolni o'ynay boshladilar. Ular jangovar tartibni ikki eshelonda (ayniqsa chegarabuyi zonalarida dushman mudofaasini yorib o'tishda), ayrim xollarda bir eshelonda (dushmanni ta'qib etishda) yaratdilar. Xarakatchan birlashmalar dushman fronti ichkarisida xarakatlanish vazifasini oldilar. Bunday vazifalarni bajarishda xarakatchan ilg'or otryadlarning qo'llanilishi katta muvaffaqiyatlar keltirdi.

Shunday qilib, Germaniya fashizmi Ittifoq Ittifoqiga bostirib kirguniga qadar Evropa davlatlarining butun qurol-yarog' arsenalini, katta metall zaxiralarini, strategik xom ashyolarni, metallurgiya va harbiy zavodlarni egallab, harbiy xarakatlar olib borishda katta tajribaga ega bo'ldi.

### **9.10. Germaniyaning sobiq ittifoqga qarshi urush rejasi, qo'shinlarning strategik joylashishi.**

#### **Ittifoq qo'shinlarining urushgacha holati va guruhleri.**

1941-1945 yillardagi urush arafasida vaziyat fashist davlatlari tomonidan agressiyaning kuchayishi, Sobiq Ittifoqi uchun harbiy xavfning oshishi bilan xarakterlandi.

Sobiq Ittifoqi tomonidan o'rtaga tashlangan jamoa xavfsizligi to'g'risidagi taklifni inkor etgan Angliya, Fransiya, AQSH va boshqa davlatlar hukmron doiralarning xoinona siyosatlarini, 1939-1940 yillarda Germaniya tomonidan Evropaning qariyb hamma davlatlarini bosib olinishiga olib keldi. Shundan so'ng Germaniya SSSRga hujum qilish uchun fashist davlatlari blogini tuzish uchun keng faoliyatni boshladi. 1940 yil sentyabrda Berlinda Germaniya, Italiya va Yaponiya o'rtasida uchlik ittifoqi paktini imzolash marosimi bo'lib o'tdi. Keyinchalik bunga Vengriya, Ruminiya, Bolgariya davlatlari kiritildi. Finlyandiya Germaniya bilan ittifoq tuzdi, Ispaniya, Turkiya va SHvetsiya Germaniya pozitsiyasiga o'tib oldi.

Germaniya va uning ittifoqchilarining SSSRga hujum qilish uchun bevosita tayyorgarliklari 1940 yilning yozida, Fransiya okkupatsiya qilinganidan keyin boshlab yuborildi. 1940 yilning 18 dekabrda Gitler «Barbarossa» shartli nomini olgan SSSRga qarshi urush rejasini imzoladi. Unda quyidagi so'zlar bor edi: «Germaniya qurolli kuchlari qisqa fursat ichida, Angliyaga qarshi urush oxiriga etgunigacha, qisqa kampaniya davomida Ittifoq Ittifoqini tor-mor etishga tayyor bo'lishi kerak. SSSRning G'arbida joylashgan Ittifoq quruqlikdagi kuchlarining asosiy kuchlari tank qo'shinlarining chuqur, shiddatli va

tez harakatlari bilan yanchib tashlanishi kerak. Dushman qo‘shinlarining jang olib borish qobiliyati yuqori bo‘lgan qo‘shinlarini ulkan Ittifoq hududi ichkarisiga chekinishining oldi olinishi kerak. Operatsiyaning pirovard natijasi Osiyo Rossiyasiga qarshi Volga-Arxangelsk umumiy chizig‘i bo‘ylab to‘siq yaratishdan iborat».

Gitlerchilar qo‘mondonligi o‘z-hisob kitoblarini to‘satdan zarba berishni tashkil etishga va strategik total va nazariyasi bitta kampaniyada tezkor harakatlar bilan dushman ustidan to‘liq g‘alabaga erishishni ko‘zda tutgan «yashindek tez urush olib borish»ga asoslanib tuzdi, bunga erishishga to‘satdan hujumni boshlash zamin yaratishi kerak edi.

Fashistlar Germaniyasi rahbariyati SSSR xalqlarini siyosiy, iqtisodiy va g‘oyaviy tomondan sindirishga, hamda Ittifoq xalqining katta qismini, birinchi navbatda armiyadagi siyosiy xodimlar, harbiy asirlarni qirishga haratilgan butun bir tadbirlar tizimini ishlab chiqdi. Bular hammasi oldindan tasdiqlangan «Ost» rejasida o‘z ifodasini topdi.

Ittifoq Ittifoqiga bostirib kirish uchun nemis-fashist qo‘shinlari quyidagi guruhlariga yoyildi: Finlyandiya hududida nemislarning «Norvegiya» armiyasi va ikkita Finlyandiya armiyasi joylashdi. «SHimol» armiyalar guruhi Sharqiy Prussiyada joylashdi. «Markaz» armiyalar guruhi Polshaning shimoliy-Sharqiy qismida, «Janub» armiyalar guruhi esa Polshaning janubiy-Sharqiy qismida va Ruminiyaning shimoliy-Sharqiy qismida jamlandi.

Hammasi bo‘lib Sobiq Ittifoqi g‘arbiy chegaralari yaqinida fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilari 5,5 mln. kishiga ega bo‘lgan va o‘z qurollashida 4300 ta tanklarni, 4980 ta samolyotlarni, 47200 ta dan ortiq orudiya va minomyotlarni o‘z safiga birlashtirgan 190 diviziyani jamladi.

Bu hamma qo‘shinlar jamlanish va yoyilishni 1941 yilning 17 iyunida oxiriga etkazib, zich va jiplashgan holatda turdi. Birinchi eshelonda gitlerchilar qo‘mondonligi 130 diviziyani tayyorladi, Shu jumladan 13 tank diviziyasini.

Ittifoq hukumati fashistlar Germaniyasining SSSRga hujum qilish ehtimolini oldindan bildi va davlatni mudofaaga tayyorladi Qurolli Kuchlarni jangovar tayyorgarligini oirish chora-tadbirlari ko‘rildi; yangitdan yaratilayotgan mexanizatsiyalashgan korpuslarning shakllantirish tezkorlik bilan olib borildi; chegarabo‘yi chiziqlarida istehkomlar rayonlari va aerodromlarni qurish ishlari olib borildi; boshqa mudofaa tadbirlari olib borildi. Ammo vatqning tig‘izligi tufayli ko‘pgina ishlarni oxiriga etkazishga muvaffaq bo‘linmadi.

Urush boshida Sobiq Ittifoqi chegaralarini Barents dengizidan Boltiq dengizigacha beshta chegarabo‘yi okruglari himoya qilib, ularning safida 2.680 ming kishi mavjud edi. Ushbu okruglarning safida 170 diviziya va 2 brigada 35,5 mingta orudiya va minomyotlar, 1475 ta yangi KV va T-34 tanklari, 1540 ta yangi namunadagi samolyotlarga ega bo‘lindi. Jangovar texnika soni bo‘yicha, ayniqsa tanklar va samolyotlar bo‘yicha Ittifoq qo‘shinlari dushmandan qolishmadi. Lekin ularning ancha qismi eskirgan edi.

Qo‘shinni qayta qurollantirish oxiriga etkazilmagan bo‘lib, bu ishlarni tugatish 1941 yilning oxiri-1942 yilning boshlarida rejalashtirildi. Chegarabo‘yi okruglarida yangi tanklar bor-yo‘g‘i 18,2 %ni, yangi samolyotlar-21,3 %ni tashkil etdi. SHaxsiy tarkib endigina yangi texnikani o‘zlashtirishni boshlagan edi. Bundan tashqari Ittifoq chegarabo‘yi okruglari urushning boshida front bo‘ylab va chuqurlikka ulkan hududda yoyilgan bo‘lib, tinchlik davrining kun tartibi bo‘yicha faoliyat yuritardi.

Shunday qilib, urushning boshida harbiy-siyosiy vaziyat fashistlar Germaniyasi foydasiga anchagina qulay bo‘lib turgan edi.

1941-1945 yillardagi urush uch davrga bo‘linadi:

- birinchi davr – 1941 yil 22 iyun-1942 yil 18 noyabr;
- ikkinchi davr – 1942 yil 19 noyabr – 1943 yilning oxiri;
- uchinchi davr – 1944 yil yanvar – 1945 yil 9 may.

Yaponiyaga qarshi urush urushning alohida davri bo‘lib hisoblanadi.

Urushning birinchi davri o‘z ichiga uchta kampaniyani oladi: 1941 yilning yozgi-qishgi mudofaa kampaniyasi; 1941-1942 yilning qishgi hujum kampaniyasi; 1942 yilning yozgi-kuzgi mudofaa kampaniyasi.

### **9.11. Germaniyaning Sobiq ittifoqqa bostirib kirishi. Urushning birinchi davrida harbiy harakatlarning olib borilishi.**

1941 yil 22 iyun erta tongda minglab nemis orudiyalari Ittifoq chegara zastavalariga, qo‘shin jamlangan joylarga, chegarabo‘yi shaharlariga va qishloqlariga qudratli zarbalarni berishni boshladi. Fashistlar aviatsiyasi Sevastopol, Kiev, Boltiqbo‘yi shaharlarini, o‘nlab harbiy va fuqaroviy aerodromlarni bombardimon qila boshladi.

Fashistlar Germaniyasining Ittifoq Ittifoqiga xiyonatkorona bostirib kirganidan ikki soat o‘tgach natsistlar elchisi Shulleberg SSSR tashqi ishlar xalq komissari V. Molotovning huzuriga kelib o‘z hukumati nomidan Germaniyaning SSSRga bostirib kirish hahidagi



qarorini etkazdi. O‘z harakatlarini oqlash maqsadida fashistlar hukumati, Germaniya go‘yoki Ittifoq Armiyasi tomonidan tayyorlanayotgan urushni oldini olish uchun urush harakatlarini boshladi, degan uydirmanni o‘ylab topdi. Bunday surbetlarcha yolg‘on tezda ochib tashlandi.

SSSRga hujum qilish paytida gitlerchi yo‘lboshchilar, dunyoda ularning bosqinchilik rejalarini amalga oshiradigan hech handay kuch yo‘q deb uyladilar. Birinchi muvaffaqiyatlardan mast bo‘lgan fashist generallari reja ular ishlab chiqqanlaridek davom etyapti degan fikrga kelgan edilar. 1941 yilning yozi va kuzida nemis-fashist bosqinchilari Sobiq Ittifoqi hududi bo‘ylab chuqur ichkarilab ketdilar va Leningrad, Moskva bo‘sag‘alariga chiqdilar, Krimga va Donbassga yorib kirdilar.

Ittifoqga harshi Germaniyaning satellitlari Italiya, Ruminiya, Vengriya va Finlyandiya ochiqchasiga qarshi chiqdi. Ispaniya, Portugaliya, SHvetsiya o‘zlarini betaraf deb e‘lon qilgan bo‘lsalarda, Germaniyaga hamma tomonlama yordam ko‘rsatib keldilar. Portugaliya Germaniyani nemis sanoati uchun o‘ta kerakli bo‘lgan volfram bilan ta‘minladi. SHvetsiya Rur ishlab chiqarish sanoati uchun temir rudasini etkazib beruvchi asosiy davlat bo‘ldi. SHvetsiya hududidan nemislarning Finlyandiya hududida joylashgan «Norvegiya» armiyasi uchun temir yo‘llari orqali qo‘shin kuchlari o‘tkazildi.

Nemislarning hujumini qaytarish uchun Armiyaning asosiy kuchlarini g‘arbga joylashtirish kerak bo‘lsada, Yaponiya va Turkiya hukmron doiralarining Ittifoqga dushmanona pozitsiyasi tufayli Uzoq Sharqda quruqlikdagi qo‘shinlarning 32 diviziyasini ushlab turishga to‘g‘ri keldi. Bu hol nemis-fashist bosqinchiliklarga qarshi kurashni ancha kuchsizlantirdi.

Fashistlar Germaniyasi uchun keyingi qulay vaziyat, vermakt asosiy kuchlarini bitta frontda-Ittifoq Ittifoqiga qarshi jamlash imkoniyatiga ega bo‘lganligidir. Urushning birinchi kunlarida nemis-fashist qo‘shinlari asosiy zarba berish yo‘nalishida son jihatdan Ittifoq qo‘shinlari ustidan juda katta ustunlikka ega bo‘ldilar.

Fashistlarning hujumlarini to‘xtatish uchun 23 iyundan 27 iyungacha, uchta frontning mexanizatsiyalashgan korpuslari har xil uchastkalarda ettita zarba berdilar va shiddatli tank janglari boshlanib ketdi. Bu qarshi zarbalar bilan dushmanni to‘xtatib qo‘yishga erishilmadi, lekin u katta talofatlar ko‘rdi va uning harakatlanish sur‘ati pasaydi. Xalqning

buyuk matonati, sabotiga va mislsiz qahramonliklariga qaramasdan gitlerchi bosqinchilar oldinga harakatlanishda davom etdilar.

Birinchi kunlarda Brest, Belostok, Kaunas rayonlarida og'ir vaziyat yuzaga keldi, bu erda nemislarning «MARKAZ» armiyalar guruhining asosiy kuchlari Minsk yo'nalishida harakat hilayotgan edi. «SHIMOL» armiyalar guruhi safiga kiruvchi nemislarning 4-tank guruhi 26 iyunda G'arbiy Dvinani kechib o'tib, Daugavpilsni egalladi. 9 iyulda gitlerchilar kolonnasi Pskovga yorib kirdilar. Leningrad katta xavf ostida holdi. 29 iyunda gitlerchilar guruhi Minskning sharhida bir-nechta Ittifoq diviziyalarini hurshovga oldi. Dushman Berezinani kechib o'tib, Dneprga harakatni davom ettirdi.

Lvov yo'nalishida Ittifoq qo'mondonligi tezlik bilan chuqurlikdan zaxiralarni tortib kelishga va ularni jangga kiritishga muvaffah bo'ldi. Lutsk, Brodi, Rovno rayonlarida bir hafta mobaynida urush boshlangandan beri eng katta tank janglari boshlanib ketdi. Dushmanning Lvov rayonida Ittifoq qo'shinlarini qurshovga olish rejasi barbod bo'ldi, lekin Ittifoq diviziyalari katta talofatlar ko'rib, iyul oyida Kievning uzoq bo'sag'alariga chekinishga majbur bo'ldi.

### **9.12.1941 yilning yozida ittifoq armiyasining mudofaa janglari.**

1941 yil 30 iyunya SSSR Oliy Ittifoq Prezidiumi, VKP(b) MKning qaroriga binoan I.V.Stalin rahbarligida Davlat Mudofaa Komiteti (DMK) tashkil etildi. DMQ qo'lida davlatning butun hokimiyati birlashtirildi. DMQ qarorlari va buyruqlari hamma fuqaroviy, partiya, ittifoq, harbiy va boshqa organlar tomonidan so'zsiz bajarilishi shart bo'ldi.

Ittifoq Qurolli Kuchlarining harbiy harakatlariga rahbarlik qilish uchun Bosh (Glavnogo) Qo'mondonlik Stavkasi yaratildi (10 iyuldan u Bosh (Verxovnogo) Qo'mondonlik Stavkasi deb, 8 avgustdan esa Oliy Bosh Qo'mondonlik Stavkasi deb yuritila boshlandi). Stavkaning raisi etib I. V. Stalin tayinlandi, u Siyosiy byuroning qaroriga ko'ra Ittifoq Mudofaa Xalq komissari etib, Shu bilan birga Oliy Bosh Qo'mondon ham etib saylandi. Ittifoq -german frontining uchta uchta strategik yo'nalishlarida-Shimoliy-G'arbiy, G'arbiy va Janubiy-G'arbiy yo'nalishlarda-1941 yil 10 iyulda bosh qo'mondonliklar yaratildi. Ularning bosh qo'mondonlari etib marshallar K.E.Voroshilov, S.K.Timoshenko, S.M.Budyonniy tayinlandi.

Urushning birinchi haftalari va oylaridayoq fashistlar Germaniyasi rahbariyatining siyosiy va harbiy rejalarining asossiz va puch ekanligini qo'rsatdi. «Barbarossa» rejasida

ko'rsatilgan muddat ichida (2oy) nemis-fashist qo'mondonligi tomonidan belgilangan maqsadlarning birortasiga ham erishilmadi.

Boltiq dengiz flotining asosiy bazasi Tallin ikki hafta mobaynida dushmanning shiddatli hujumlarini qaytarib turdi.

Polkovnik I.D.Chernyaxovskiyning 28 tank diviziyasi bir hafta davomida Novgorod shahri uchun kurash olib bordi. 14 avgustda Ittifoq qo'shinlari guruhi Staraya Russi rayonidan Leningradga hujum qilayotgan dushman guruhining qanotiga hujum qildi. Faqat 25 avgustdagina dushmanning «SHIMOL» armiyalar guruhi Leningradga hujumni yana davom ettirishga muvaffaq bo'ldi. Dushman Ladoga ko'liga yorib kirishga va SHlisselburgni egallashga muvaffaq bo'ldi. 8 sentyabrdan boshlab Leningrad quruqlik tomonidan qamal qilindi. Lekin bu Leningradliklar va Leningrad fronti qo'shinlarining irodasini buka olmadi. 1941 yilning 9 sentyabrida nemis-fashist qo'shinlari shaharning hal qiluvchi shturmini boshladilar. O'n sutka davomida shiddatli janglar bo'lib o'tdi. 18 sentyabrda Leningrad bo'sag'asida front to'liq muvofiqlashdi. 1941 yil 26 sentyabrda dushman bu erda mudofaaga o'tdi.

Lekin gitlerchilar Leningradni yanchib tashlash rejasidan voz kechmadilar. Endi ular shaharni uzoq vaqt qamal qilib maqsadlariga erishmoqchi bo'ldilar, qamal 900 kun davom etdi. Leningradliklar katta talofatlar berdilar. Piskaryov qabristonida yarimmilliondan ortiq kishilarning jasadlari dafn etildi. Urush davrida Leningradga 840 ishlab chiqarish korxonalari vayronaga aylantirildi, 10 mingdan ortiq turar joylar binolar yondirildi, buzib tashlandi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Jang o'ta shiddatli tus oldi.

1941- yil 22-iyundan 9 iyulgacha, urushning boshlanish davridan Smolensk jangigacha, Ittifoq qo'shinlari Boltiq dengizidan Karpatgacha og'ir chegarabuyi janglarini olib bordilar va ustunlikka erishgan dushman kuchlarining zarbasi ostida, dushmanga Boltiqbuyining katta qismini, Belorussiyaning qariyb hammasini va Ukrainani bir qismini tashlab Sharqqa tomon 350-600 kmga chekindilar.

Yuqori SHimolda nemis-fashist qo'shinlari 1941- yil 29 iyunda Murmansk va Kandalaksha yo'nalishlarida hujumni boshlab, 9 iyulda Ittifoq territoriyasi ichkarisiga bor-yo'g'i 25-30 km. harakatlandilar.

Chekinish chog'ida Ittifoq qo'shinlari hattiq qarshilik ko'rsatib, dushman shaxsiy tarkibiga va harbiy texnikasiga katta talofatlar etkazdilar.

Ittifoq qo‘shinlari o‘zlari uchun qiyin jangovar vaziyat sharoitida, bostirib kelayotgan dushman guruhlariga qarshi zarbalar berdilar, bu bilan dushman hujumi suratini pasaytirib, davlat ichkari rayonlaridan yirik strategik Ittifoq qurolli kuchlari guruhlarini G‘arbiy Dvina daryosi Sharqrog‘i marralariga va Dnepr daryosining o‘rta oqimi bo‘ylariga safarbar etish va olib chiqish uchun vaqtdan yutib chiqdilar.

Urushning boshlanish davrida Ittifoq qurolli kuchlari katta talofatlar ko‘rib, og‘ir sharoitlarga tushib holdilar. Ittifoq qo‘shinlari SHimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda keng front bo‘ylab, kuch va vositalar cheklangan sharoitda mudofaa janglarini olib borib, dushmanni to‘xtatib qola olmadilar va 12 sentyabrda Leningradning yahin bqsag‘alariga chekindilar. 8-sentyabrda dushman SHlisselburgni (Petrokrepostni) egalladi, Leningradni quruqlikdan qamal qildi. Leningrad bilan aloqa faqat Lodoga ko‘li va havodan amalga oshirila boshlandi.

Petrazavodsk va Kareliya bo‘g‘ozlarida fin va nemis qo‘shinlari 1941- yil sentyabrining oxirida Svir va 1939- yildagi davlat chegaralarida to‘xtatib qolindilar.

Mudofaa janglari davomida SHimoliy-G‘arbiy yo‘nalishda ittifoq qo‘shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib uning Leningradni egallash rejalarini barbod etdilar.

G‘arbiy yo‘nalishda ittifoq qo‘shinlari urushning birinchi kunlarida Minskning g‘arbrog‘ida (bu erda G‘arbiy frontning asosiy kuchlari qurshovda qolgan edi) katta talofatlar ko‘rib, 1941- yilning 10 iyulidan 10 sentyabrigacha Smolenskda ayovsiz janglar olib bordilar. Bu janglar keng front bo‘ylab shimolda Velikie Lukidan, janubda Jlobin va Roslavl gacha masofada davom etdi. Smolensk jangi mobaynida G‘arbiy front qo‘shinlari dushmanning tirik kuchlariga va jangovar texnikalariga katta talofatlar etkazidilar va buning oqibatida u Moskvaga hujumni davom ettirish imkoniyatidan mahrum bo‘ldi.

Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishda Ittifoq qo‘shinlari 1941- yil 10 iyuldan sentyabr oxirigacha dushmanning kuch jihatidan ustun bo‘lgan kuchlari bilan Uman va Kiev rayonlarida og‘ir mudofaa janglarini olib bordilar. Fashistlar qo‘mondonligi Janubiy-G‘arbiy frontga qarshi ikkita tank guruhini jangga kiritdilar (1- va 2- tank guruhlari) va ularning qudratli zarbalari bilan 1941- yil 15 sentyabrda Kiev rayonida Janubiy-G‘arbiy frontning to‘rtta armiyasini qurshovga oldilar. Buning natijasida Ukrainada mudofaa jiddiy kuchsizlandi. Ukrainada mudofaani mustahkamlash maqsadida Oliy Bosh qo‘mondonlik Stavkasi Ukrainaga o‘z zaxirasidan bir – necha diviziyalarni jo‘natdi.

Ittifoq -german frontining janubiy qanotida 1941- yilning 5 avgustidan 16 oktyabrigacha Ittifoq qo‘shinlari va qora dengiz floti Odessaning qahramonona mudofaasini amalga oshirdilar, dushmanning 18 ta diviziyasiga qattiq talofatlar etkazib, bu rayonda ularni holdan toydirdilar. Ittifoq qo‘shinlari qrimda mudofaani mustahkamlash va Sevastopolni mudofaa etish maqsadida 16 oktyabrda Odessadan evakuatsiya qilindilar.

Ittifoq qurolli Kuchlari Leningrad, Kiev, Odessa, qrimdagi qahramonona mudofaada va Smolensk jangida dushmanga qattiq talofatlar etkazib fashistlar qo‘mondonligining «yashindek tez urush olib borish» rejasini barbod etdilar.

Qish tushgunga hadar Ittifoq Ittifoqiga qarshi urushni tugallash maqsadida, 1941- yil 30-sentyabrda fashistlar armiyasi Moskvani egallash uchun birinchi bosh hujumni boshladi.

Moskvaning uzoq bo‘sag‘alarida G‘arbiy, Kalinin va Bryansk frontlari oy mobaynida og‘ir mudofaa janglarini olib bordilar. Bu janglar davomida ular fashistlarga katta talofatlar etkazdilar va ularning qish tushgunga qadar Moskvani bosib olish rejalarini barbod etdilar. Oktyabr oxirida dushman Moskvaning yaqin bo‘sag‘alarida to‘xtatib qolindi.

Fashistlar qo‘smondonligi kuch va vositalarini qayta to‘plab va to‘ldirib, 1941- yilning 15-16-noyabrda Moskvaga ikkinchi hujumni boshladi.

Lekin Ittifoq qo‘shinlari dushman hamlalarini qahramonona qaytarib 1941- yil dekabr oyi boshlarida nafaqat uning Moskvaga hujumini to‘xtatib qoldilar, balki hujumga o‘tgan dushman guruhlarini tor-mor etish maqsadida qarshi hujumga o‘tish uchun qulay sharoit yaratdilar.

Mana Shu davr mobaynida Leningrad va Janub front qo‘shinlari OBQ Stavkasi buyrug‘iga binoan Tixvin va Rostov yaqinida hujumga o‘tgan dushmanga qarshi hujumga o‘tdilar.

1941- yil 26-noyabrda boshlanib 28 dekabrgacha davom etgan Ittifoq qo‘shinlarining Tixvin yaqinidagi qarshi hujumlari, janubdan Svir daryosiga o‘tib fin armiyasi bilan qo‘shilib, Leningradda ikkinchi qurshov halqasini yaratishga intilgan dushman guruhining tor-mor etilishi bilan tugadi.

1941- yil 17-noyabrdan 2 dekabrgacha davom etgan Rostov yaqinidagi qarshi hujum nemislarning birinchi tank armiyasining to‘liq tor-mor etilishi va Rostovning fashistlardan ozod etilishi bilan tugadi.

Olib borilgan qarshi hujumlarning maqsadi, dushmanga katta talofatlar etkazish bilan bir qatorda bu yoʻnalishlarda uni holdan toydirish va fashistlar qoʻmondonligiga Shu kuchlar hisobidan Moskvaga hujum qilayotgan qoʻshinlarni toʻldirishga imkoniyat bermaslikdan iborat edi.

qrimda qizil Armiya va HDF 1941- yil 30-oktyabrdan Sevastopolning qahramonona mudofaa jangini olib bordi.

Yozgi-kuzgi kampaniya oxirida, yaʼni besh yarim oy mobaynidagi ayovsiz janglar natijasida, Ittifoq Qurolli Kuchlari davlat ichkarisiga 900-1500 kmga chekinib, dushmanga katta hududlarni qoldirishga majbur boʻldilar. Lekin bu janglar davomida Ittifoq qoʻshinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uning «yashindek tez urush olib borish» rejasini tamomila barbod etdilar.

Markazda va Gʻarbiy yoʻnalishlarda hujum qilgan nemis-fashist qoʻshinlari qatʼiy qarshilikka uchradilar. 10 iyulda boshlangan Smolensk jangigacha kuch va vositalar boʻyicha ustunlik vermaxt tomonida boʻldi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Dushman jangga ikkita tank guruhini tashladi. Jang oʻta shiddatli tus oldi.

16 iyulga oʻtar kechasi dushman tanklari Smolenskka bostirib kirdi va uning janubiy qismini egalladi. Dneprning ortida, shaharning shimoliy qismida joylashgan ittifoq qoʻshinlari dushmanga toʻxtovsiz hujum qildilar. Dushmanning Smolenskni mudofaa qilib turgan Ittifoq qoʻshinlarini qurshab olish va ularning chekinish yoʻllarini toʻsib qoʻyish uchun qilgan harakati barbod boʻldi.

Smolensk jangi davomida Ittifoq armiyasi nafaqat mudofaa harakatlarini olib bordi, balki dushmanga qarshi zarbalarni ham berdi.

10 sentyabrda Smolensk jangi tugadi. «MARKAZ» armiyalar guruhi Dneprdan 170-200 km Sharqqa tomon harakatlangan boʻlsada, fashistlar qoʻmondonligining harakatlanish mobaynida Moskvani egallash uchun qilgan harakati barbod boʻldi. Markaziy yoʻnalishda dushman birinchi marta ikkinchi jahon urushi mobaynida ikki oy davom etgan mudofaaga oʻtishga majbur boʻldi. Shu vaqtda Ittifoq armiyasi poytaxtning mudofaasini mustahkamlash, zaxiralarni tortib kelish va SHimoliy-Gʻarbiy yoʻnalishdagi qoʻshinlarning ahvollarini yaxshilash uchun vaqtdan yutib chiqdi. «MARKAZ» armiyalar guruhi katta talofatlar koʻrdi. Bu urushning keyingi borishi uchun katta ahamiyatga ega boʻlgan Smolensk jangining asosiy natijasi Shundan iborat.

YUzaga kelgan vaziyatda gitlerchilar qo‘mondonligi Moskvaga frontdan hujumlarni to‘xtatishga va asosiy zarbani markazdan qanotlarga ko‘chirishga majbur bo‘ldi.

### **9.13. Moskva ostonalaridagi janglar (1941- y. sentyabr-1941- y.5 dekabr)**

Ittifoqga harshi urush rejasida nemis–fashist qo‘mondonligi Moskvani bosib olishga katta, birinchi darajali ahamiyat bergan edi. Bu maqsadni amalga oshirish uchun fashistlar qo‘mondonligi Moskva yo‘nalishida 77 ta diviziyani (jumladan 14 ta tank va 8 ta motorlashgan) to‘pladi, kuchlarning bir qismi Leningrad va Kievdan ushbu yo‘nalishga tashlandi.

Fashistlar qo‘shinlariga uchta frontning qo‘shinlari qarshi turdilar. Ularning safida 1250ming odam, 990ta tank, 7600ta orudiya va minomyotlar, 677ta samolyotlar mavjud edi. Lekin ustunlik dushman tomonida edi.

Moskva bo‘lag‘alarida ko‘p havatli mudofaa yaratilib, uning chuqurligi 250-300 kmni tashkil etdi.

30-sentyabrda dushman hujumga o‘tdi, ustunlikka ega bo‘lib u Ittifoq qo‘shinlarining mudofaasini yorib o‘tib, shiddat bilan Sharqqa tomon harakatlana boshladi. 3 oktyabrda dushman Oryol shahrini egalladi, 7 oktyabrda uning motorlashgan qismlari Vyazmaga yorib kirdi va to‘rtta armiya qo‘shinlarini qurshovga oldi. Qurshovdagi qo‘shinlar dushmanning 29tagacha diviziyasini holdan toydirdilar. Birlashmalarning ancha qismi oktyabr o‘rtalarida qurshov qalqasini yorib chiqib, Moskva tomonga o‘qtishga muvaffaq bo‘ldi.

Mojaysk mudofaa chizig‘i asosiy qarshilik ko‘rsatish marrasiga aylandi. Bu erga yangi-yangi birlashmalar kela boshladilar. Oryol yo‘nalishiga ham zaxira birlashmalari olib kelina boshlandi, ular Oryoldan Tulaga o‘tadigan yo‘llarda uzoq janglar olib borib dushmanning tank guruhining harakatlarini susaytirib yubordilar.

Bu vaqtga kelib Moskvaning shimoliy-g‘arbida vaziyat keskinlashdi. Dushmanning tank guruhi 14 oktyabrda Tverni egalladi. Lekin Ittifoq qo‘shinlari qarshi zarba berib dushmanni to‘xtatib holdilar.

17 oktyabrda OBQ Stavkasi G‘arbiy frontning chap qanot armiyalari negizida Kalinin frontini tashkil etdi (qo‘mondoni general I.S.Konev). Uning qo‘shinlari qattiq janglar bilan Seliger ko‘li, Kalinin, Voljsk suv ombori marralarida mustahkam o‘rnashib, dushmanni

Moskvani shimoldan aylanib o'tish niyatini barbod etdilar. Bu erda dushman «Markaz» armiya guruhining chap qanotini yopish uchun mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi.

Oktyabr oxirida Mojaysk mudofaa chizig'ida hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Katta talofatlarga qaramasdan dushman Moskvaga intilardi. Ittifoq qo'shinlari dushman hamlalariga cheksiz matonat va qahramonlikni qarshi ho'ydilar. Mashhur Borodino maydonida 32- o'qchi diviziyaning polklari o'limga tik boqib, fashistlar hujumini qaytarib turdilar.

Shunga qaramasdan dushman tank qo'shinlari G'arbiy front pozitsiyalarini yorib o'tib Volokalamsk, Mojaysk, Kalugani egalladi, Moskvagacha 80-100 km. qoldi. 19-noyabrda Davlat Mudofaa qo'mitasi Moskvada qamal holatini joriy etish bo'qyicha qaror qabul qildi. Oktyabr oxirida Ittifoq qo'shinlari ushbu yo'nalishda dushmanni mudofaaga o'tishga majbur etdilar.

Lekin fashistlar qo'mondonligi Moskvani qishgacha egallash fikridan qaytmagan edi. Shu munosabat bilan «Markaz» armiya guruhiga yangi hujumni tayyorlash va o'tkazish uchun topshiriq qo'yildi, bu vazifa-ikkita qudratli guruh bilan Moskvani shimoldan va janubdan aylanib o'tish, uni hamal qilish va bir vaqtning o'zida frontdan kuchli zarba berib SSSR poytaxtini egallashdan iborat edi.

Ittifoq Oliy Bosh qo'mondonligi o'z vaqtida fashistlar guruhini aniqladi va ularning rejasini payqab qolib, G'arbiy front qo'shinlarini kuchaytirish, mudofaa marralarini takomillashtirish, zaxiralarni Moskva rayoniga olib kelish chora-tadbirlarini ko'rdi.

Buning natijasida G'arbiy front mudofaasi noyabr oyida mustahkamlandi, uning barqarorligi oshirildi.

15-16-noyabrda nemis qo'shinlari Volokalamsk, 18-noyabrda Tula yo'nalishlarida hujumga o'tdilar. Bir necha kundan so'ng esa Elets k yo'nalishida ham hujumga o'tdilar. 600 kmli frontda yana hayot-mamot janglari avj olib ketdi. Dushman oshgan qarshilikni darrov payqadi.

**G'arbiy frontning o'ng qanoti dushmanga katta talofatlar berib, o'zi ham asta-sekin chekina boshladi. Noyabr oxirida nemislar Moskva-Volga kanaliga chiqdilar va uni Dmitrov rayonida kechib o'tdilar.**



Bu vaziyatda Bosh qo‘mondonlik YAxroma rayonida va janubrog‘da qarshi hujumlarni amalga oshirdi. Bu qarshi hujumlar natijasida dushman kanalning g‘arbiy qirg‘og‘iga uloqtirib tashlandi.

G‘arbiy frontning chap qanotida dushman Ittifoq qo‘shinlarining front ortiga o‘tishga muvaffaq bo‘ldi, lekin Tulani egallay olmadi. Ittifoq qo‘shinlari Tula va uning atrofi rayonlarini mustahkam ushlab turdi, bu o‘z navbatida butun G‘arbiy frontning chap qanoti barqarorligi ta‘minladi va bir necha kuchli qarshi zarbalar berish imkoniyatini yaratdi. Ulardan eng qudratlisi Mixaylov rayonidan berildi.

Janglar natijasida dushman 4-dekabrda hujumni to‘xtatishga va mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldi. 5-dekabr 1941- yilda «Markaz» armiya guruhi qo‘shinlari butun front bo‘ylab to‘xtatib qolindi. Shunday qilib fashistlar armiyasining Moskvaga qilgan ikkinchi hamlasi ham barbod bo‘ldi. Moskva ostonalaridagi mudofaa janglari bilan 1941- yil yozgi-kuzgi kampaniya nihoyasiga etdi. Uning asosiy natijasi–bu Gitler Germaniyasining «yashindek tez urush olib borish» rejasining chippakka chiqqani bo‘ldi. qizil Armiya dushmanning zarbdor guruhlarini qoldan toydirishga muvaffaq bo‘ldi.

### **Sobiq ittifoq armiyasining Moskva ostonalaridagi qarshi hujumi**

**(1941- y. 5- dekabr – 1942- y. 7- yanvar)**

YAratilgan vaziyatda Ittifoq qurolli Kuchlari oldida Leningrad, Moskva va Kavkazdagi xavfni bartaraf etish va urushning borishida burilish yasash vazifasi qo‘yilgan edi. Bu vazifalarni qizil Armiya 1941--1942- yilgi qishgi kampaniyalar davomida hal etishi kerak edi. Asosiy zarba Moskva yo‘nalishiga berilishi ko‘zda tutildi. Moskva ostonalarida qarshi hujumni amalga oshirish uchun Kalinin, G‘arbiy, Janubiy-G‘arbiy frontlar qo‘shinlari jalb etildi. Ular 1100 ming odamga, 7652 ta orudiya va minomyotlarga, 744 ta tankka va 1000 ta jangovar samolyotga ega edilar. Bu frontlarga qarshi 1708 ming odam, 18500 ta orudiya va minomyolar, 1170 ta tank va 615 ta samolyotlarga ega bo‘lgan «Markaz» armiya guruhi turar edi.

qarshi hujumning maqsadi, dushmanning Moskva yo‘nalishidagi asosiy guruhlarini tormor etish va Moskva shahri va Moskva ishlab chiqarish rayonlari ustidagi xavf-xatarni bartaraf etishdan iborat edi.

Qarshi hujumning rejasi-G‘arbiy frontning hujumlari, Kalinin frontining chap qanoti va Janubiy-G‘arbiy frontning o‘ng qanoti bilan hamkorlikda amalga oshirilib Moskvaning

janubi va shimolida dushmanning zarbdor guruhlarini yakson etish va ularni Moskvadan uloqtirib tashlash edi. Qarshi hujumni to'satdan berish uchun operativ to'xtalishsiz, mudofaa davrida shakllangan qo'shinlar bilan berilishi kerak edi. Asosiy rol G'arbiy frontga berildi. Front qo'shinlari oldida dushmanning qanotdagi guruhlarini Klin, Solnechnogorsk, Stalinogorsk, Tula rayonlarida tor-mor etish vazifasi qo'yilgan edi.

5-dekabrda Kalinin fronti qo'shinlari qarshi hujumga o'tdilar. 6- dekabrda G'arbiy, Janubiy-G'arbiy frontlarning qarshi hujumlari boshlandi. 9-dekabrda 30-armiya qo'shinlari Moskva-Kalinin temir yo'lini egallab, Klindagi dushman guruhini shimoliy-g'arb tomondan qurshovga ola boshladilar. Harakatlanish surati hali past edi.

Sobiq ittifoq qo'shinlari hali urush olib borish tajribasiga ega emas edilar. Ular o'z saflarida kam sonli artilleriya va tanklarga ega bo'lib, qalin tushgan qor ham manyovr qilishni qiyinlashtirar edi.

Dushman qarshiligini engib, Sobiq ittifoq qo'shinlari 15 dekabrda Klin rayonida dushman guruhini qurshab oldilar. 1941- yil 15 dekabrda Klin shahri dushmandan ozod etildi. Istra yo'nalishida ham janglar avj olib ketdi, bu yo'nalishda dushman Kryukovo rayonida kuchli mudofaa yaratishga ulgurdi. 8-dekabrda 8- gvardiyachi o'qchilar diviziyasi Kryukovoni egallab, Istra yo'nalishiga hujumni rivojlantirdi.

Kryukovo jangida mag'lubiyatga uchragan dushman Istra suv ombori ortiga o'tib, kuchli mudofaani tashkil etdi. Frontdan uning mudofaasini yorib o'tishga bo'lgan harakatlar muvaffaqiyat keltirmadi. 16-Armiya qo'mondoni general K.K.Rokossovskiy qo'shinlarining bir qismi bilan shimoldan va janubdan dushman mudofaasini aylanib o'tishga qaror qildi. qurshovga tushib holish xavfi ostida fashistlar shoshilinch ravishda Volokolamsk tomonga o'tishga qaror qildilar. Ittifoq qo'shinlari dushmanni ta'qib etib, 1941- yil 25 dekabrda frontning o'ng qanot qo'shinlari Lama va Ruza daryolari marrasiga o'tdilar. Lekin bu erda ular avvaldan tayyorlangan pozitsiyalarda to'xtatib qolindilar. Dushmanni ta'qib etish harakatchan guruhlar va chang'ichilar batalonlari bilan olib borilib, ular ko'p hollarda dushmanning front ortiga yorib kirib, uning ortga qaytish yo'llarini to'sib, to'satdan zarbalar berdilar. Moskvaning shimoliy-g'arbidagi hujumlar davomida Ittifoq qo'shinlari dushmanga katta talofatlar etkazib, uni 90-100 kmga uloqtirib tashladilar.

Kalinin fronti, G'arbiy frontning o'ng qanot armiyalari bilan birgalikda, dushmanning Kalinin guruhlariga zarbalar berdi va 16 dekabrda Tverni egalladi.

G'arbiy frontning chap qanot qo'shinlari Uzlovoy yo'nalishiga hujum qilib nemislarning 2-tank armiyasini mag'lubiyatga uchratdilar. 1942- yil 7- yanvarda ular 220 km olg'a siljib «Markaz» Armiya guruhini shimoldan qamrab oldilar.

Shunday qilib, 1942- yil yanvar oyi boshlarida qizil Armiyaning Moskva ostonalaridagi hujumi qat'iy g'alaba bilan tugadi. Dushmanning zarbdor guruhlari tor-mor etildi va g'arbga tomon 100-150 kmga uloqtirib tashlandi. Poytaxtga solinib turilgan tahdid bartaraf etildi.

Mudofaadan hujumga o'tilishi va Bosh strategik yo'nalishda yirik g'alabalarga erishilishi bilan qizil Armiya dushman qo'lidan tashabbusni tortib oldi. Moskva ostonalarida nemislarning tor-mor etilishi bilan urushning borishida tubdan burilish boshlandi.

#### **9.14.Sobiq ittifoq qo'shinarining umumiy hujumlari (1942- y.8.01.-20.04.)**

Moskva ostonalaridagi qarshi hujum bilan bir vahtda Volxov fronti qo'shinlari dushmanning Tixvin guruhlariga zarbalar berib, dekabrning boshlariga uni Volxov daryosining narigi qirg'og'iga uloqtirib tashladilar.

Sevastopol himoyachilari ham qahramonona jang qilib, fashistlarning ikkinchi hamlasini ham qaytardilar. Fashistlar bu erda ikki hafta mobaynida 7-10 km ga olg'a siljishga muvaffaq bo'ldilar.

Dekabr oxirida qora dengiz floti va Azov flotiliyasi, Kavkazorti fronti qo'shinlari, Kerch-Feodesiya desant operatsiyasini o'tkazdilar. Uning natijasida qrimdagi yirik platsdarmlar qo'lga kiritildi, Shu bilan birga ittifoq -german frontining janubiy hududlarida vaziyat qizil Armiya foydasiga ancha yaxshilandi.

Tashabbusni qo'lga kiritib, qizil Armiya 1942- yil yanvar oyi boshlarida hamma strategik yo'nalishlarda frontning 2000 km. li masofasida umumiy hujumni olib bordi. Bu hujumning boshida Stavka, birinchi hujum operatsiyalari tajribalari asosida dushmanning tayyorlangan mudofaasiga hujum qilish to'g'risida yo'l-yo'riqlar ishlab chiqdi va ularni 1942- yil 10-yanvarda chiqqan Direktivada aks ettirdi. Dushman mudofaasini yorib o'tish tor uchastkalarda qudratli artilleriya qo'llab-quvvatlashida amalga oshirilishi talab etildi. Yorib o'tish artilleriya tayyorgarligi bilan cheklanmasdan, artilleriya hujumining olib borilishi, piyodalar va tanklarning yorib o'tish oxiriga etkuzilgunga qadar olib borilishi kerak edi. Bu talablar bir necha operatsiyalarda muvaffaqiyatga erishishda o'z rolini uynadi.

Qizil Armiyaning qishgi kampaniyadagi asosiy janglari gʻarbiy yoʻnalishlarda avj olib ketdi. Bu erda Kalinin fronti qoʻshinlari «Markaz» armiya guruhini shimoliy-gʻarb tomondan oʻrab oldilar va unga Rjev yoʻnalishida yangi zarbalar berdilar. Harbiy frontning oʻng qanot armiyalari dushman qarshiligini engib, Zubkovo va Gjatsk yoʻnalishlarida 50-70 km ga olgʻa siljidilar. Frontning chap qanot qoʻshinlari YUxnovo rayonida qattiq janglarni olib bordilar. YAnvarning 2- yarmida Vyazmaga qatʻiy hujumlar boshlandi. Oyning oxirida Ittifoq qoʻshinlari shahar boʻsagʻalariga chiqdilar. Lekin shaharni egallash va «Markaz» Armiya guruhini oxirigacha tor-mor etish nasib etmadi.

Harbiy yoʻnalishda Ittifoq Armiyasining umumiy hujumlari natijasida 1942- yilning yanvar-aprel oylarida «Markaz» Armiya guruhining 16 ta diviziyasi va 1 ta brigadasi tor-mor etildi. Dushman 100-150 kmga uloqtirib tashlandi.

Shimoliy-gʻarbiy strategik yoʻnalishda Leningrad va Volxov fronti qoʻshinlari 1942-yil aprelogacha «SHimol» Armiya guruhini yakson etish va Leningrad qamalini yorib oʻtish uchun hujumlarni olib bordilar. Lekin bu vazifa amalga oshmadi.

Janubiy - Gʻarbiy va Janubiy frontlar qoʻshinlari hujumlar davomida Xarkov yoʻnalishida dushman mudofaasini yorib oʻtib 90 kmga olgʻa siljidilar. Keyinchalik olib borilgan hujumlar muvaffaqiyat keltirmadi.

Shunday qilib, umumiy hujumlar natijasida qizil Armiya dushmanni yana 100-250 kmga uloqtirib tashlab, ancha gʻalabalarni yoʻlga kiritdi.

Lekin jangovar texnika, qurol-yarogʻ va oʻq dorilarning etishmovchiligi sababli asosiy yoʻnalishlarda operatsiyalarni oxirigacha etkazishning imkoni boʻlmadi. Qoʻmondonlik safining hujum harakatlarini tashkil etish va olib borishda etarli tajribaga ega emasligi ham oʻz salbiy taʻsirini koʻrsatdi.

1941-1942 y. qishgi kampaniya davomida qizil Armiya ayovsiz janglarda nemis-fashist bosqinchilarini Moskva ostonalarida tor-mor etishi katta harbiy-siyosiy ahamiyatga egadir. Ikkinchi jahon urushida Germaniya birinchi katta zarbaga uchragan edi. Qizil Armiya 50 tagacha dushman diviziyalarini tor-mor etdi. Fashistlar Germaniyasi quruqlikdagi qoʻshinlari 400 mingdan ortiq odamini yoʻqotdi.

Urush yillarida birinchi marta Sobiq ittifoq aviatsiyasi Moskva ostonasida havoda qukurmonlikni qoʻlga kiritdi. Gitlerchilar armiyasining engilmasligi tugʻrisidagi afsona

yo‘liga chiqdi, blitzkrieg strategiyasi inqirozga uchradi. Fashistlar Germaniyasi uzoq urush olib borish kerakligi omilini tan oldi.

1941-1945 y. urushning ikkinchi davrida sobiq Ittifoq Qurolli kuchlari ikkita xujum kampaniyasi o‘tkazdilar: 1942-43 yillardagi qishgi va 1943 yildagi yozgi kampaniyalar. Qishgi kampaniya Stalingrad ostonasidagi qarshi xujum bilan boshlandi.

1941-1945 y. urushning ikkinchi davrida harbiy-siyosiy vaziyat dushmanning vaqtinchalik ustunligini yo‘q qilishi, Qizil Armiya o‘zining jang olib borish tajribasini orttirishi, xalq bilan armiyaning yakdilligini mustaxkamlanishi bilan xarakterlandi. Sobiq Ittifoq davlati iqtisodiy axvolining xali xam qiyinchiligiga qaramasdan butun xalq xo‘jaligi va ishlab chiqarishni harbiy relslarga o‘tkazishni yuqori sur‘atlarda olib borildi.

Xukumat Qurolli Kuchlar qudratini mustaxkamlash va ishlab chiqarishni oshirish bo‘yicha moddiy va odam zaxiralarini safarbar etishni tashkil etishda juda katta ishlarni amalga oshirdi. 1942 yilda, 1941 yildagiga nisbatan samolyotlar ishlab chiqarish 60 % ga, tanklar ishlab chiqarish 3,7 martaga, minomyotlar ishlab chiqarish qariyb 3 martaga oshdi. Bular xammasi 1942 yil noyabrda Qizil Armiyaga ittifoq -german frontida kuchlar nisbatini oshirishga imkon berdi. Xarakatdagi armiyada 6,1 mln kishiga, 385 ta diviziyaga, 72,5 mingta orudiya va minomyotlarga, 6 mingdan ortiq tank va O‘YUAQ ga, 3088 ta jangovar samolyotlarga va 233 ta jangovar kemalarga ega bo‘lindi. Shu vaqtga kelib ittifoq -german frontida dushman 6,2 mln kishiga, 258 ta diviziyaga, 70980 ta orudiya va minomyotlarga, 6600 ta tanklar va shturmchi orudiyalarga, 3500 ta jangovar samolyotlarga va 194 ta kemalarga ega bo‘ldi. Shuni ta’kidlash lozimki dushman diviziyalari o‘zining jangovar safi bo‘yicha ittifoq diviziyalaridan 1,5 marta ustun edi.

Frontda xali xam vaziyat keskin bo‘lishiga qaramasdan, 1942 yil noyabr oyi o‘rtalarida ittifoq -german frontining janubiy qanotida dushmanni tor-mor etish uchun qulay vaziyat yuzaga keldi.

Kavkazning neft manbalarini va quyi Volga rayonlarini egallashga xarakat qilgan dushman katta talofatlar ko‘rib, uning xujum olib borish qobiliyati sustlashib ketdi va keng frontda cho‘zilib qoldi.

Butun front bo‘ylab mudofaaga o‘tishga majbur bo‘lgan dushman, 1942 yil yozi va kuzidagi mag‘lubiyatlari natijasida janubda yaqin vaqt oralig‘ida yirik xujum operatsiyalarini amalga oshira olmaydi, deb xisobladi.

YUzaga kelgan vaziyatdan kelib chiqib sobiq Ittifoq qo‘mondonligi 1942-43 yilgi qishgi jangovar xarakterli rejasini ishlab chiqdi. Unga ko‘ra Qizil Armiyaga faol xujum xarakterli bilan urushning borishida tubdan burilishga erishish, dushmandan strategik tashabbusni tortib olish va davlat xududidan dushmanni ommaviy quvib chiqarish vazifasi qo‘yildi.

### **9.15. Sobiq ittifoq qo‘shinlarining Stalingrad ostonalaridagi qarshi xujumi.**

Urushning uchinchi davri boshi harbiy-siyosiy vaziyat Sobiq Ittifoqi uchun, dushmanning vaqtinchalik ustunligini barbod etilishi, Qizil Armiyaning jang olib borish tajribasining oshganligi, Ittifoq xalqining ruxiy-siyosiy birdamligining mustaxkamlanishi bilan xarakterlandi.

Xali xam frontda vaziyat keskin bo‘lishiga qaramasdan, 1942 yil noyabr oyi o‘rtalarida ittifoq -german frontining janubiy qanotida dushmanni tor-mor etish uchun qulay sharoit yaratildi. Kavkazning neftga boy manbalarini va Volganing qo‘yi rayonlarini bosib olishga intilgan fashistlar armiyalari, og‘ir talofatlar ko‘rib, o‘zlarining xujum olib borish imkoniyatlarini yo‘qotib, katta front bo‘ylab cho‘zilib qoldilar. Germaniya qo‘shinlari strategik mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldilar.

Ikkinchi jaxon urushining uchinchi davri tarixga, urushning borishida antigitler koalitsiyasidagi davlatlar foydasiga tubdan burulish davri bo‘lib kirdi.

Stalingradda dushmanni tor-mor etish «URAN» operatsiyasining maqsadi qo‘yidagilardan iborat edi: asosiy zarbani Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlari Serafimovich-Kletskiy rayonlaridan va Stalingrad fronti qo‘shinlari Stalingradning janubidagi Sarpa ko‘llari bo‘yidan berishlari ko‘zda tutildi. Asosiy vazifa-dushmanning asosiy guruxlarining qanotlarini tor-mor etib, xujumni Kalach-Ittifoq skiy yo‘nalishiga rivojlantirib, dushman qo‘shinlarini Stalingradda qurshab olish va yakson etishdan iborat edi. Don fronti Vertyachiya ikkita zarba berib, Don daryosining kichik irmoqlari bo‘yida dushmanni qurshab olish va tor-mor etish vazifasini oldi.

Qarshi xujumga tayyorgarlik ko‘rish mudofaa janglari davomida boshlangan edi. Buning uchun Stavka, Stalingrad yo‘nalishiga yirik zaxiralarni jo‘natdi. Qarshi xujum boshida Janubiy-G‘arbiy, Don va Stalingrad frontlari safiga o‘nta umumqo‘shin, tank va to‘rtta xavo armiyalari kiritildi. Uchala frontlar 1103 ming odamga, 1463 ta tank va O‘YUAQ (SAU)larga, 15500 ta orudiya va minomyotlarga, 1350 ta samolyotga ega edilar.

YUqori Mamondan Astraxangacha ularga qarshi fashistlarning «B» armiya guruxi o‘zining 1101 ming odami, 675 ta tank va shturmchi orudiyalari, 10290 ta orudiya va minomyotlari va 1216 ta samolyoti bilan qarshi turar edi.

1942 yil 19-noyabrda, 80 minut davom etgan artilleriya tayyorgarligidan so‘ng, Janubiy-G‘arbiy va Don fronti qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar. Xujumning birinchi kunida Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlari Serafimovichining janubiy-g‘arbidagi platsdarmlardan kuchli zarba berib Kletskiy rayonida dushman mudofaasini yorib o‘tdilar.

20-noyabrda Stalingrad fronti qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar

23-noyabr kunida Janubiy-G‘arbiy frontning 26-va 4-tank korpuslari Donni kechib o‘tib Kalachni egalladilar va Ittifoq skiy rayonida Stalingrad frontining 4-mexanizatsiyalashgan korpusi bilan birlashdilar. Shu bilan qurshov xalqasi birlashtirildi, qurshov ichida fashistlarning 22 diviziyasi, 100 ta aloxida qismlari 330 ming odami bilan qolib ketdi.

Stalingrad yo‘nalishida vaziyatni tiklash uchun nemislar tezlik bilan «DON» armiyalar guruxini tashkil etdi. 1942 yil 12- dekabrda «Don» armiyalar guruxi Kotelnikovo rayonidan xujumga o‘tdi. Unga 51- armiya qo‘shinlari qarshi turgan edilar. Janglar birinchi kunlardan oq shiddatli tus olib ketdi. 19- dekabrda dushman Mishkovo daryosi bo‘ylariga chiqdi va Shu erda OBQ ajratgan xisoblangan 2- zaxira Armiyasi tomonidan to‘xtatib qolindi.

Shu vaqtga kelib, Stavka tomonidan Janubiy-G‘arbiy fronti qo‘shinlarining va Voronej fronti 6- armiyasi qo‘shinlarining xujumlari tayyorlanib, 16- dekabrda boshlandi. Bir necha kun ichida ular 8-Italiya va 3- Ruminiya armiyasining qolganlarini tor-mor etdilar. Bu operatsiyada bosh rolni tank va mexanizatsiyalashgan korpuslar o‘ynadi.

Janubiy-G‘arbiy frontning muvaffaqiyatli xujumlari va Stalingrad fronti qo‘shinlarining matonatli mudofaalari, fashistlarning qurshovda qolgan guruxlariga yorib kirish uchun keyingi xarakatlarini to‘xtatishga majbur etdi. Dushman zarbdor guruxlarining anchagina qismini Tormosin va Kotelnikovo rayonlaridan Janubiy-G‘arbiy front qo‘shinlariga qarshi tashlashga majbur bo‘ldi.

29- dekabr ertalab ular Kotelnikovo fashistlardan ozod etildi.

Shunday qilib, nemis-fashist qo‘mondonligining Stalingrad ostonalarida qurshovda qolgan guruxlarini qutqarish uchun qilgan xarakati butunlay barbod bo‘ldi. Endi front chizig‘i ulardan 200-250 km ga ortga surildi.

Qurshovda qolgan fashistlarni tor-mor etish Don fronti qo‘shinlariga topshirildi. 1943 yil 10-yanvarda Sobiq ittifoq qo‘shinlari qurshovda qolgan fashistlarni yakson qilishga kirishdilar. Fashistlarni Stalingrad ostonalarida tor-mor etish bo‘yicha «Xalqa» nomini olgan so‘nggi operatsiya boshlandi.

YAnvar oxirida Ittifoq qo‘shinlari tomonidan dushman guruxi ikki bo‘lakka bo‘lib tashlandi. Janubiy gurux 1943 yil 31-yanvarda kapitulyasiya qildi. 1943 yil 2-fevralda dushmanning shimoliy guruxi qarshilik ko‘rsatishni to‘xtatdi. Shu kuni, 200 kun davom etgan Stalingradning tarixiy jangi tugadi.

### **9.16. Kursk jangi. Kuchlar gruppirovkalari va tomonlar rejasi. Sobiq ittifoq qo‘shinlarining Kursk yo‘nalishidagi mudofaa janglari.**

Oliy Bosh Qo‘mondonlik Stavkasi dushmanning yozgi xujum tayyorgarligini o‘z vaqtida bilib, ularning reja va maqsadlarini ochib tashladi. Shundan so‘ng Janubiy va Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishlarda umumiy xujumni boshlab yuborish rejalashtirildi. Kursk yoyini mudofaa etish Markaziy frontga (K.K.Rokossovskiy) va Voronej frontiga (N.F.Vatutin) topshirildi. Bu frontlarning front ortida yirik strategik zaxira kuchlari to‘planib, Cho‘l fronti (I.S.Konev) tarkibiga kiritildi.

Sobiq ittifoq qo‘shinlari mustaxkam, chuqur eshelonlashtirilgan mudofaani tashkil etdilar. Mudofaaning oldingi chizig‘ida va ichkarisida xar xil tankka qarshi to‘siqlar yaratildi. TQTP safiga odatda 3-5 ta tankka qarshi orudiya, 9-12 ta tankka qarshi miltiqlar (PTRD, PTRS), 2-4 ta minomyotlar, bitta vzvodgacha sapyorlar va avtomatchilar otdeleniesini olgan. Ayrim mollarida TQTPga tank va SAUlar birlashtirilgan.

Markaziy frontda bir necha TQTP polkka ajratilgan mudofaa joyida, tankka qarshi rayonlarga birlashtirilgan.

Yaxshi tashkil etilgan tankka qarshi mudofaa Ittifoq qo‘shinlariga dushmanning yirik tank bo‘linmalari bilan muvaffaqiyatli jang olib borish va ularga jangning birinchi kunlaridayoq mudofaa taktik zonasida katta talofatlar etkazish imkoniyatini berdi.

#### **Kursk bo‘sag‘asidagi mudofaa janglari.**

Razvedka ma‘lumotlari bo‘yicha, dushmanning xujumga o‘tishi 5- iyulda ekanligi aniqlandi. Shu kuni erta tongda Markaziy va Voronej frontlari dushmanning zarbdor guruxlari to‘plangan rayonlarga rejalashtirilgan artilleriya qarshi zarbalarini berdi. Dushmanga katta talofatlar etkazilib, uning xujumi 1,5-2 soatga to‘xtatib turildi.



Talofatlarga qaramasdan, 1943 yil 5-iyul ertalab artilleriya va aviatsiya zarbalari to'suvida dushmanning Oryol guruxi xujumga o'tib, asosiy zarbani Olxatovkaga 13-armiya chizig'iga berdi, ikkalamchi zarba Maloarxangelsk va Fatejga berildi.

Xamma qurol turlaridan berilgan kuchli zarba va muxandislik to'siqlari o'ta kuchli dushman xujumini muvaffaqiyatli qaytarishni ta'minladi. Olti kun davomida dushman mudofaani 10-12 km.ga yorib kirishga muvaffaq bo'ldi. 42 ming odamini va 800 ta tankidan ajragan dushman xujumini to'xtatishga majbur bo'ldi. Dushman xujumi inqirozga uchradi. Xamma zaxiralarini ishga solib bo'lgan dushman xujumdan voz kechib, 11 iyulda mudofaaga o'tdi.

Dushman Voronej fronti qo'shinlariga xam qarshi xujumini 1943 yilning 5-iyulida, asosiy zarbani Oboyan, ikkilamchi zarbani Korochaga berish bilan boshladi. Birinchi kundayoq fashistlar Oboyan yo'nalishida Ittifoq qo'shinlari marralariga aviatsiya qo'llab-quvvatlovida 700 tagacha tankini tashladi va u mudofaani 30-35 km ga yorib kirdi.

Lekin fashistlarning Kurskka Oboyan orqali yorib kirish xarakatlari barbod bo'ldi. Shundan so'ng ular Kurskka Proxorovka orqali yorib o'tishga xarakat qilib ko'rdilar. Lekin fashistlarning yo'lga zaxiradan etib kelgan 5- gvardiyachi tank armiyasi va 5-gvardiyachi armiya turardi. Bu armiyalar, avvaldan Shu erda xarakatlanayotgan qo'shinlar bilan birgalikda dushmanning xujum qilayotgan tank guruxlariga qarshi zarbalar berish vazifasini oldilar. 1943 yil 12-iyulda Ittifoq qo'shinlari qarshi zarbani boshladilar. Dushman xam faol xarakatlarini boshlab yubordi. Buning natijasida tanklarning to'qnaShuv janglari boshlanib, unda xar ikkala tomondan 1200 ta tank va O'YUAQ (SAU)lar qatnashdi. Nemis-fashistlarining janubdan Kurskka yorib kirish rejasi oxrigacha barbod bo'ldi. Dushman mudofaaga o'tishga majbur bo'ldi, 16- iyuldan esa chekina boshladi. Voronej fronti qo'shinlari, 18-iyuldan CHo'l fronti qo'shinlari bilan birgalikda dushmanni ta'qib etishni boshlab, 23 iyul oxirida mudofaa janglari boshida egallagan marraga chiqdilar.

Shunday qilib, shiddatli mudofaa janglari davomida Ittifoq qo'shinlari dushmanning zarbdor guruxlarini xoldan toydirib, ularga katta talofatlar etkazib, Ittifoq qo'shinlarini Kursk ostonasida tor-mor etishga erishish rejalarini barbod etdilar. Nemislarning ittifoq -german frontidagi navbatdagi yirik xujumi mag'lubiyat bilan tugadi. Bu ularning oxirgi xujumi edi.

### **9.17.Sobiq ittifoq qo‘shinlarining Kursk ostonalaridagi qarshi xujumi.**

Kursk jangining yangi davrini ochib bergan Ittifoq qo‘shinlarining qarshi xujumi, 1943 yil 12 iyulda g‘arbiy va Bryansk frontlari qo‘shinlarining Oryol yo‘nalishida xujumga o‘tishlari bilan boshlandi. Uch kundan so‘ng Markaziy front qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar. Dushmanga beriladigan zarba kuchlarini oshirish maqsadida Ittifoq qo‘mondonligi g‘arbiy front xarakatlanadigan chiziqqa 11-umumqo‘shin armiyasini va 4-tank armiyasini, Bryansk fronti chizig‘iga 3-gvardiyachi tank armiyani jangga kiritdi.

Shiddatli janglar davomida Bryansk fronti qo‘shinlari 1943 yil 5- avgustda Oryol shaxrini ozod etdilar.

Voronej va Cho‘l fronti qo‘shinlarining xujumlari muvaffaqiyat bilan rivojlana boshladi va ular 3-23 avgust kunlari «Rumyansev» nomini olgan Belgorod-Xarkov operatsiyasini o‘tkazdilar.

1943 yil 5-avgustda Ittifoq qo‘shinlari Belgorodni egalladilar. SHiddatli janglar davomida Voronej fronti qo‘shinlari dushmanning qarshi zarba berayotgan guruxini tor-mor etdilar. Shu vaqtda Cho‘l fronti qo‘shinlari Xarkovga yaqinlashib kelib, 23 avgustda shturm bilan shaxarni egalladilar. Xarkovning ozod etilishi bilan Belgorod-Xarkov operatsiyasi tugatildi. Ittifoq qo‘shinlari dushmanning yirik guruxini tor-mor etib, dushman front chuqurligi tomon 140 km. ga siljidilar.

Shunday qilib, 50 kun davom etgan Kursk jangi nixoyasiga etdi. Bu jang Ikkinchi jaxon urushidagi katta janglardan biri edi. Ittifoq qo‘shinlarining umumiy xujumga o‘tishlari uchun qulay sharoit yaratildi.

#### **Kursk jangi ( 1943- yil 5 iyul-23 avgust ).1943- yil iyulidagi umumiy harbiy-siyosiy vaziyat.**

1942-1943 yil qishki shiddatli janglardan so‘ng ittifoq -german frontida nisbatan osoyishtalik xukm surdi. Ikkala tomon xam yangi janglarga tayyorgarlik ko‘ra boshladi, harbiy ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari ko‘rila boshlandi, bo‘lajak xarakatlar rejalari tuzila boshlandi, zaxiralarni yig‘ish va qayta to‘plash boshlandi. Avvalgi janglar tajribalari asosida qo‘shin turlarining jangovar qo‘llashning tashkiliy formalari va usullari takomillashtirila boshlandi.

Umumiy harbiy- siyosiy vaziyat 1943- yil yozida Qizil Armiya uchun qulay bo'ldi. Jangovar texnikani ishlab chiqarish uzluksiz oshib bordi, bu o'z navbatida Ittifoq qo'shinlarining texnik jixozlanishining oshishiga olib keldi.

1943- yil yozida o'qchilar qo'shinlarining korpus tashkiliy-shtat tizimi tiklandi, bir xil tanklarga ega bo'lgan tank armiyalarining, artilleriya korpuslari va yorib o'tish divizionlari, og'ir reaktiv artilleriya diviziyalari va zenit artilleriya diviziyalarining shakllanishi boshlandi. Maxsus qo'shinlar va front orti qo'shinlari sifat jixatidan yaxshilandi.

Tashabbusni qo'lga kiritgan Ittifoq qo'mondonligi, qishgi xujumlarga mustaxkam negiz yaratish maqsadida, 1943- yil yozida bir necha xujum operatsiyalarini rejalashtirdi.

Fashistlar qo'mondonligi xam xal qiluvchi jangovar xarakterlarga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Ular yozgi xujumlarga xar tomonlama tayyorgarlikni boshlab, Sobiq ittifoq qo'shinlarining bo'lajak xujumlarini oldini olishga qaror qildi. Shu maqsadlarni ko'zlab «Sitadel» operatsiyasi rejasi ishlab chiqildi. Operatsiyasining maqsadi quyidagicha edi: Oryol va Belgorod rayonlaridan bir-biroviga tomon Kursk yo'nalishiga zarba berib, Kursk bo'sag'asida Ittifoq qo'shinlarini qurshab olish va tor-mor etish. Keyinchalik dushman Sobiq ittifoq qo'shinlarini Donbassda tor-mor etishni ko'zda tutdi. Bu operatsiyani o'tkazish uchun 50 ta diviziya, jumladan 16 ta motorlashgan va mexanizatsiyalashgan diviziyalar jamlandi. Gurux o'z safida 900 ming odam, 10 mingtagacha orudiya va minomyotlar, 2700 ta tank va 2000 ta dan ortiq samolyotlarga ega edi.

Oliy Bosh Qo'mondonlik Stavkasi dushmanning yozgi xujum tayyorgarligini o'z vaqtida bilib, uning reja va maqsadlarini ochib tashladi. OBQ Stavkasi mudofaa janglari bilan dushmanni xoldan toydirishga va uning qanotdagi guruxlariga qattiq talofatlar etkazib, keyin dadil qarshi xujum bilan fashistlarni to'lig'icha tor-mor etishni ko'zda tutdi. Shundan so'ng janubiy va Janubiy-G'arbiy yo'nalishlarda umumiy xujumni boshlab yuborish rejalashtirildi. Kursk yoyini mudofaa etish Markaziy frontga (K.K.Rokossovskiy) va Voronej frontiga (N.F.Vatutin) topshirildi. Ikkala frontning safida 1 mln.300 mingdan ortiq odam, 20 mingtagacha orudiya va minomyotlar, 3300 ta dan ortiq tank va SAUlar, 2650 ta samolyot mavjud edi. Bu frontlarning front ortida yirik strategik zaxira kuchlari to'planib, CHo'l fronti (I.S.Konev) tarkibiga kiritildi.

Sobiq irrifoq qo'shinlari mustaxkam, chuqur eshelonlashtirilgan mudofaani tashkil etdilar. Sobiq irrifoq qo'shinlari mudofaasining umumiy chuqurligi 250-300 kmga etdi.

Kursk bo'sag'asida mudofaani tayyorlash chog'ida dushmanning tanklariga qarshi kurashishga katta e'tibor berildi. Mudofaaning oldingi chizig'ida va ichkarisida xar xil tankka qarshi to'siqlar yaratildi. Tankka qarshi tayanch punktlari (TQTP) va tankka qarshi rayonlar mudofaa taktik zonasining butun chuqurligida, muxim yo'nalishlarda esa umumqo'shin armiya mudofaasining butun chuqurligida (35kmgacha) yaratildi. TQTP safiga odatda 3-5 ta tankka qarshi orudiya, 9-12 ta tankka qarshi miltiqlar (PTRD, PTRS), 2-4 ta minomyotlar, bitta vzvodgacha sapyorlar va avtomatchilar otdeleniesini olgan. Ayrim xollarda TQTPga tank va SAUlar biriktirilgan.

Markaziy frontda bir necha TQTP polkka ajratilgan mudofaa joyida, tankka qarshi rayonlarga birlashtirilgan.

YAxshi tashkil etilgan tankka qarshi mudofaa Ittifoq qo'shinlariga dushmanning yirik tank bo'linmalari bilan muvaffaqiyatli jang olib borish va ularga jangning birinchi kunlaridayoq mudofaa taktik zonasida katta talofatlar etkazish imkoniyatini berdi.

### **Natijalar va xulosalar.**

Harbiy tarix, xali dushmanning yangi texnikalar bilan jixozlangan bunday yirik guruxini furshab olinishi va to'lig'icha tor-mor etilishi misolini ko'rmagan edi. 330 minglik armiyaning qurshab olinishi va tor-mor etilishi fashistlar Germaniyasi uchun katta ruxiy va moddiy mag'lubiyat edi. Ittifoq armiyasi Stalingrad ostonalarida tajribali va makkor dushmanni yakson etgan edi. Faqat xujumlarni olib borish chog'ida dushmanning 32 ta diviziyasi va 3 ta brigadasi qirib tashlandi, 16 ta dushman diviziyalariga katta talofat etkazildi.

Fashistlar Stalingrad ostonalarida 1942 yil 19 noyabrdan 1943 yil 2 fevralgacha 800 mingdan ortiq odamini, ikki mingta atrofida tanklarini va shturmchi orudiyalarini, 10 mingtadan ortiq orudiya va minomyotlarini va uch mingtagacha transport va jangovar samolyotlarini yo'qotdi.

Stalingrad ostonalaridagi jangning g'alaba bilan tugashi katta harbiy-siyosiy axamiyatga ega. Bu jang Ikkinchi jaxon urushining borishida tubdan burilishning kulminatsion punkti bo'ldi. Ittifoq Armiyasining qishki muvaffaqiyatli xujumlari uchun qulay sharoit yaratildi. Gitlerchi okkupantlarning Ittifoq xududidan xaydab chiqarish davri boshlandi. Ittifoq qurolli kuchlari dushmandan strategik tashabbusni tortib olib, uni urushning oxirigacha o'z qo'llarida mustaxkam ushlab turdilar.

Stalingrad ostonalaridagi g'alaba-bu ittifoq xalqining g'alabasi, Ittifoq harbiy san'atining g'alabasidir. Bu g'alaba Ittifoqning xam harbiy, xam xalqaro obro'sini oshirdi.

Stalingrad ostonalarida fashist gazandalarining mag'lubiyati, milliy-ozodlik xarakati kurashlarining, fashist okkupantlari va ularning xamtovoqlariga qarshi qarshilik xarakatlarining avj olib ketishiga olib keldi. Fransiya, YUgoslaviya, Polsha, Belgiya, Gretsiya, Albaniya va Evropaning boshqa davlatlari vatanparvarlari antifashist kurashlarini kuchaytirib, dushmanga sezilarli darajada zarbalar bera boshladilar.

Bu g'alaba Osiyo va Afrika davlatlarida xam milliy-ozodlik xarakatlarining rivojlanishiga ta'sir o'tkazdi. Bu mamlakatlar xalqlari, dunyoda Germaniya fashizmini tor-mor etishga qodir kuch borligiga ishonch xosil qildilar.

Ittifoq xukumati va xalqi Stalingrad ximoyachilarining qaxramonligini va jasoratini munosib taqdirladi. Stalingradga «Qaxramon shaxar» unvoni berildi. 100 ga yaqin Ittifoq jangchilari Ittifoqi Qaxramoni unvoniga sazovor bo'ldilar, o'ng minglab askarlar va ofitserlar davlat mukofotlari bilan taqdirlandilar. 1942- yil oxirida «Stalingrad mudofaasi uchun» medali ta'sis etildi. 700 mingdan ortiq jangchilar bu medal bilan taqdirlandi, Shu jumladan 2738 kishi o'zbekistonliklar.

### **9.18. Fashist bosqinchilarini sobiq ittifoqini xududlaridan quvib chiqarilishi.**

Ikkinchi jaxon urushning to'rtinchi davri, ittifoq Qurolli Kuchlari tomonidan 1943 yil oxiridan 1945 yilning 9- mayigacha o'tkazilgan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bu davr ichida uchta kampaniya o'tkazildi:

- 1944 yilki qishgi kampaniya (1943 y. 24.12-1944 y. aprel);
- 1944 yil yozgi kampaniya (1944 y. iyun-dekabr);
- qishki, Evropadagi yakunlovchi kampaniya (1945 y. yanvar-may).

Bu davrning xarakterli tomoni, fashist bosqinchilarini sobiq ittifoq tuprog'idan butkul xaydab chiqarilishi, Qizil Armiya tomonidan Sharqiy va Janubiy Sharqiy Evropa xalqlarining ozod etilishi va gitlerchilar Germaniyasining batamom tor-mor etilishi bo'ldi.

### **1944 yil qishi va baxoridagi Sobiq ittifoq qo'shinlarining xujumlari.**

1944 yil qishgi kampaniya boshida Qizil Armiya strategik tashabbusni o'z qo'lida mustaxkam ushlab turdi.

Sobiq ittifoq xalqining shijoatkorona mexnatlari iqtisodiyotning tez rivojlanishini ta'minlab, harbiy ishlab chiqarishni yanada kengroq yo'lga qo'ydi. Qurol-yarog' va harbiy

texnika sonining ortib borishi bilan ularning sifati takomillashdi, qo‘shinlarning tashkiliy tizimi o‘zgardi. Armiya qurollanishida qurol-yarog‘ va harbiy texnikaning yangi-yangi namunalari kiritildi. Birlashmalar va qismlarning zarba berish qudrati, xarakatchanligi va manyovrchanligi oshdi.

1944 yil boshida Qizil Armiyaning xarakatdagi qo‘shinlari-6,1 mln. odamga, 88,9 mingta orudiya va minomyotlarga, 2167 ta reaktiv artilleriya qurilmalariga, 4900 ta atrofida tanklar va SAUlarga, 8500 ta jangovar samolyotlarga ega bo‘lib, bu dushman armiyalari ustidan shaxsiy tarkib bo‘yicha 1,2 marta, artilleriya bo‘yicha 1,6 marta, samolyotlar bo‘yicha 2,8 marta ustunlikni ta‘minladi. Tanklar bo‘yicha ustunlik dushman tomonida edi. Bu xolat ittifoq qo‘shinlariga xujumni keng qanotda olib borish imkoniyatini berdi.

Oliy Bosh Qo‘mondonlik rejasiga ko‘ra Qizil Armiyaga, Boltiq dengizidan Qora dengizgacha bo‘lgan oraliqda front bo‘ylab yoyilib, dushmanning asosiy guruxlarini shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda va ittifoq -german frontining janubiy qanotida tor-mor etib, Ittifoq xududini katta qismini fashistlardan ozod etib va yangi operatsiyalarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun qulay sharoit yaratish vazifasi qo‘yildi. Asosiy kuchlar Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishda jamlandi. Bu erda ittifoq qo‘shinlari oldida, nemis–fashist armiyalarining asosiy kuchlarini tor-mor etib, O‘ng Qiroq Ukraina va Qrimni ozod etish jangovar vazifasi turardi.

Fashistlar qo‘mondonligi nafaqat butun front bo‘ylab egallab turgan marralarni ushlab turish, balki Dneprda mudofaani mustaxkamlash, g‘arbda kutilayotgan Angliya-Amerika qo‘shinlarining tuShurilishini bartaraf etish, keyinchalik urushning natijasini o‘z foydasiga xal etishni rejalashtirdi. Bu masalalarni xal etishda antigitler koalitsiyasining parchalanishiga katta umid bog‘landi.

Ittifoq -german frontining janubiy qanotida nemislar, 103 ta diviziyani (jumladan 18 ta tank va 2 ta motorlashgan), 1 mln.760 ming askar va ofitserlar, 16 840 ta orudiya va minomyotlar, 2200 ta tank va shturmchi orudiyalar, 1460 ta samolyotlarni yig‘dilar. Ularga qarshi 4 ta Ukraina frontlari (1-UF, 2-UF, 3-UF, 4-UF) qarshi qo‘yilib, ular o‘z saflarida 2 mln. 365 ming odamga, 28 847 ta orudiya va minomyotlarga, 2037 ta tanklar va SAUlarga, 2637 ta samolyotlarga ega bo‘ldilar.

O‘ng Qirg‘oq Ukrainadagi operatsiyalar bilan bir vaqtning o‘zida Leningrad va Novgorod ostonalarida xujumlar tayyorlanib, «SHimol» armiya guruxini tor-mor etib,

Leningrad qamalini butkul echib tashlab Boltiqbuyiga chiqish rejalashtirildi. Dushmanni, o‘z zaxiralarini O‘ng Qirg‘oq Ukraina va Leningrad yaqiniga olib kelish imkoniyatidan maxrum qilish maqsadida g‘arbiy yo‘nalishda faol jang xarakatlari rejalashtirildi.

### **Nemis-fashist qo‘shinlarini Leningrad va Novgorod bo‘sag‘alarida tor-mor etilishi.**

Nemis-fashist qo‘shinlarini Leningrad va Novgorod bo‘sag‘alarida tor-mor etish Leningrad va Volxov frontlariga, 2-Boliqbo‘yi fronti qo‘shinlari ko‘magida va Boltiq floti xamkorligida 1944 yil 14-yanvardan 29 fevralgacha amalga oshirildi. Bu operatsiyaning maqsadi, «SHimol» armiya guruxini tor-mor etish, Leningrad qamalini butkul echib tashlash, Leningrad ishlab chiqarish rayonini ozod etish va keyingi operatsiyalar uchun qulay sharoit yaratishdan iborat bo‘ldi. Stavkaning rejasi, maqsadi-bir vaqtning o‘zida Leningrad va Novgorod rayonlaridan ikkita guruxning kuchli xujumlari bilan, avval dushmanning qanotdagi guruxlarini tor-mor etish, keyin «SHimol» armiya guruxini xamma kuchlarini tamomila yakson etishni o‘z ichiga oldi.

Operatsiyaning birinchi davrida 1944 yil 14-30 yanvarlarda, Leningrad fronti qo‘shinlari dushmanning uzoq vaqtga mo‘ljallangan mudofaasini yorib o‘tdilar, uning petergof-strelnin guruxini tor-mor etib, 30 yanvar oxirida dushmanning Luga daryosi buyidagi oldindan tayyorlangan mudofaa marrasiga chiqdilar.

Shu davr mobaynida Volxov fronti qo‘shinlari dushmanning Novgorod guruxini yakson etib, Novgorod shaxrini egalladilar va xujumni Luga yo‘nalishiga rivojlantirdilar.

1944 yil 31 yanvardan 16 fevralgacha, operatsiyaning ikkinchi davrida Leningrad fronti o‘zining asosiy kuchlarini g‘arbga, Kengissep yo‘nalishiga jo‘natdi va kuchlarning bir qismi bilan Lugaga zarba berdi. Volxov fronti Lugani janubiy-Sharqidan aylanib o‘tib asosiy zarbani berdi. 16 fevral kuni ikkila front qo‘shinlari Lugani egalladilar va xujumni Pskov tomonga rivojlantirdilar. Dushman mudofaasi butun operativ chuqurlikda yorib o‘tildi.

1944 yil 16 fevraldan 29 fevralgacha Leningrad fronti 2- Boltiqbuyi fronti qo‘shinlari bilan xamkorlikda, xujumni rivojlantirib, dushmanni tor-mor etishni tugatib Narva daryosi, CHud va Pskao ko‘llari marralariga, Pskovning janubiy marralariga chiqdilar. Operatsiyaning axamiyatga molik tomoni—bu frontlarning, flotning va partizan xarakatlarining o‘zaro xamkorligi natijasida bitta strategik vazifani bajarganliklaridir.

Operatsiya natijasida Ittifoq qo‘shinlari dushmanning 20 tadan ortiq diviziyasini tor-mor etdilar, dushman chuqurligiga 220-280 km ga olg‘a xarakatlandilar va nemis-fashist qo‘shinlaridan Leningrad viloyatini va Kalinin viloyatining bir qismini ozod etdilar. Leningrad qamali butunlay tugatildi. Dushmanni Kareliya buynida va Boltiq buyida tor-mor etish uchun qulay negiz yaratdilar. 1944 yil yanvar-fevral oylarida Belorussiyada, fashistlarning «Markaz» armiya guruxini yakson etish uchun jang xarakatlari olib borildi. Ittifoq qo‘shinlarining Leningrad va Novgorod ostonalarida va Belorussiya xududidagi xujumlari, gitlerchilar qo‘monligini o‘z zaxiralarini ittifoq -german frontining janubiy qanotiga etkazib kelish imkoniyatidan maxrum etdi, Shu bilan O‘ng Qirg‘oq Ukrainada muvaffaqiyatli jangovar xarakatlarning olib borish imkoniyati yanada oshdi.

### **O‘ng Qirg‘oq Ukrainaning ozod etilishi.**

O‘ng Qirg‘oq Ukrainadagi jangovar xarakatlarning maqsadi, qarshida turgan dushman kuchlarini Dnepr buyi rayonlarida tor-mor etish va Janubiy Bug va Ingulets daryolariga chiqish uchun bir vaqtning o‘zida bir-nechta, ketma-ket operatsiyalarni o‘tkazishdan iborat bo‘ldi. Keyinchalik dushmanga chuqur zarbalar berib «Janub», «A» armiya guruxlarining asosiy kuchlarini tor-mor etib Karpat tog‘lariga va Mogilev-Podolskdan Dnestrning qo‘yilish joylariga chiqish ko‘zda tutildi.

O‘ng Qirg‘oq Ukrainadagi xujumlar ikkita davrga bo‘linadi:

jangovar xarakatlarning birinchi davrida (1943 y. 24- dekabr-1944 y. 29 fevral) to‘rttala Ukraina frontlari beshta operatsiya o‘tkazdilar:

- Jitomir-Berdichev operatsiyasi (1943 y.24 dekabr-1944 y. 29 fevral);
- Kirovograd operatsiyasi (1944 y.5-17 yanvar);
- Rovno-Lutsk operatsiyasi (1944 y. 27.01.-11.02.);
- Korsun-Shevchenko operatsiyasi (1944 y. 24.01-17.2.);
- Nokopol-Krivoy-Rog operatsiyasi (1944 y. 30.01-29.02.)

Bu operatsiyalar davomida qo‘shinlar dushmanning yirik guruxlarini Jitomir, Kirovograd, Krivoy-Rog rayonlarida tor-mor etib, O‘ng Qirg‘oq Ukrainaning ancha qismini ozod etdilar, Dneprning chap qirg‘og‘ida Nikopol rayonida dushman platsdarmini yakson etdilar va Korsun-Shevchenko rayonida dushmanning kuchli guruxlarini qurshab oldilar va tor-mor etdilar.



Bu xarakatlar mobaynida 1-Ukraina fronti qo‘shinlari «Janub» armiya guruxini shimoldan aylanib o‘tib, CHernovsi yo‘nalishiga zarba berish uchun qulay joyni egalladilar. Korsun-Shevchenko bo‘sg‘asi va Nikopol platsdarmining tugatilishi bilan 2-va 3-Ukraina frontlari qo‘shinlarining keyinchalik, Janubiy Bug, Dnestr va Prut daryolariga xujum qilishlari uchun qulay sharoit yaratildi.

### **KOSUN-SHEVCHENKO OPERATSIYASI**

O‘tkazilgan operatsiyalar orasida **Korsun-Shevchenko** (1944 y 24.01-17.02) operatsiyasi aloxida o‘rin tutadi. Bu operatsiyada 1-Ukraina frontining chap qanoti (N.F.Vatutin), 2-Ukraina frontining (I.S.Konev) asosiy kuchlari ishtirok etdilar. Operatsiyada Ittifoq qo‘shinlari 3-4 sutka mobaynida Korsun-Shevchenko bo‘sg‘asining asosini yorib o‘tdilar. Bir-birovi tomonga jang xarakatlarini rivojlantirib qo‘shinlar Zvenigorodka yaqinida birlashdilar va to‘qqiz kun ichida Ittifoq qo‘shinlari, dushmanning 10 diviziyasini va bitta brigadasini qurshab olishni tugatdilar. Keyingi 14 kun mobaynida ular dushmanning yirik qarshi zarbalarini tashqi frontda qaytarib turdilar va qurshovdagi fashistlarni tor-mor etdilar. Dushmanning umumiy yo‘qotishlari 73 ming askar va ofitserlarni tashkil etdi. Tashqi front qurshovida dushmanning boshqa yo‘nalishlardan olib kelingan 8 ta tank va 6 ta piyodalar diviziyalari xoldan toydirildi, bu o‘z navbatida Shu vaqtda Rovno-Lutsk va Nikopol-Krivoy-Rog operatsiyalarining muvaffaqiyatli o‘tkazilishiga imkon yaratdi.

Harbiy nazariya nuqtai-nazaridan Korsun-Shevchenko operatsiyasi quyidagi xossalarga ega:

**birinchidan**, qisqa muddatlarda tayyorlandi, qiyin ob-xavo sharoitlarda o‘tkazildi va harbiy tarixga dushmanning kuchli guruxini qurshab olish va to‘lig‘icha tor-mor etish misoli bo‘lib kirdi. Uning muvaffaqiyatli tugatilishiga xal qiluvchi rolni tank armiyalari (5 gv. tank armiyasi, 6-tank armiyasi) o‘ynadi;

**ikkinchidan**, ichki va tashqi front qurshovining yaratilish xususiyati, ular dushmanning kuchli qarshi atakasi va qarshi xujumini qaytarish mobaynida yaratilganligini o‘ziga biriktiradi. Bu xolat ularning, ya’ni tashqi va ichki front qurshovlarining bir vaqtda emas, balki xar xil vaqtda yaratilishini aniqlab berdi. Mo‘‘tadil tashqi frontni yaratish uchun tank armiyalari jo‘natildi. Ularga mustaqil mudofaa chiziqlari topshirildi. Shunday qilib, urush davrida birinchi bor tank armiyalari qurshovga olish operatsiyalarida ikkita ketma-ket

vazifalarni oldilar:-avval dushman mudofaasini yorib o‘tish va qurshovni tugatish, keyin tashqi frontda dushman qarshi zarbalarini qaytarish;

**uchinchidan**, Korsun-Shevchenko operatsiyasida, Stalingrad jangidan farqli o‘laroq, dushmanni qurshab olish bilan uning tor-mor etilishi o‘rtasida operativ to‘xtalish bo‘lmadi. Dushmanning tashqi frontda kuchli qarshi xujumlarini qaytarish bilan bir vaqtning o‘zida, bir necha yo‘nalishlardan zarba berish yo‘li bilan, qurshovdagi dushmanni tor-mor etish jarayoni xam olib borildi.

### **Gitlerchi qo‘shinlarini Sharqiy Prusiyada va Polshada tor mor qilinishi.**

1944 yil iyun oxiridan avgust boshlarigacha Ittifoq qo‘shinlari Belorussiya va g‘arbiy Ukrainada yirik xujum operatsiyalarini o‘tkazdilar.

Bu operatsiyalar davomida partizanlar bilan xamkorlikda ular dushmanning yirik guruxlarini tor-mor etdilar va butun Belorussiyani, Litva va g‘arbiy Ukrainaning bir qismini, Polshaning Sharqiy qismini ozod etdilar.

Avgustning ikkinchi yarmida Ittifoq Qurolli Kuchlari asosiy kuchlarni Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishga qaratdilar. 2-va 3-Ukraina frontlari qo‘shinlari bu erda yilning oxirigacha xujumni to‘xtatmadilar. Bu xujumlar davomida Ittifoq qo‘shinlari ittifoq -german frontining janubiy uchastkalarida dushmanning yirik guruxlarini qurshab oldilar va tor-mor etdilar, Moldaviya, Ukraina Zakarpatesini ozod etishni tugatdilar, Ruminiya va Bolgariyani urushdan chiqardilar va nemis-fashistlariga qarshi urush xarakatlarini CHexoslovakiya, YUgoslaviya va Vengriya xududlariga olib o‘tdilar.

1944 yil qishgi kampaniyalarda erishilgan g‘alabalar natijasida Sobiq Ittifoqi uchun harbiy-siyosiy vaziyat juda qulay bo‘ldi. Bu xol Qizil Armiyaning yozgi-kuzgi kampaniyalardagi vazifalarini aniqlab berdi. Bu vazifa, Ittifoq tuprog‘ini fashistlardan batamom tozalash va Evropa xalqlariga fashizm qulligidan ozod bo‘lish uchun yordam berishdan iborat edi. Shu maqsadlarga erishish uchun, asosiy yo‘nalishlarga bir-necha ketma-ket zarbalar berish rejalashtirildi.

1944 yil 10 iyundan 9 avgustgacha Ittifoq qo‘shinlari Boltiq floti, Onega va Ladoga harbiy flotiliyasi bilan birgalikda dushmanning uzoq vaqtga mo‘ljallangan mudofaasini yorib o‘tib, finlar armiyasiga qaqshatqich zarbalar berdilar, Kareliyaning katta qismini ozod etdilar va front chizig‘ini Leningraddan 150 km ga surib tashladilar.

Iyun oxiridan avgust boshlarigacha Ittifoq qo‘shinlari Belorussiya va g‘arbiy Ukrainada yirik xujum operatsiyalarini o‘tkazdilar.

Bu operatsiyalar davomida partizanlar bilan xamkorlikda ular dushmanning yirik guruxlarini tor-mor etdilar va butun Belorussiyani, Litva va g‘arbiy Ukrainaning bir qismini, Polshaning Sharqiy qismini ozod etdilar.

Avgustning ikkinchi yarmida Ittifoq Qurolli Kuchlari asosiy kuchlarni Janubiy-G‘arbiy yo‘nalishga qaratdilar. 2-va 3-Ukraina frontlari qo‘shinlari bu erda yilning oxirigacha xujumni to‘xtatmadilar. Bu xujumlar davomida Ittifoq qo‘shinlari ittifoq - german frontining janubiy uchastkalarida dushmanning yirik guruxlarini qurshab oldilar va tor-mor etdilar, Moldaviya, Ukraina Zakarpatesini ozod etishni tugatdilar, Ruminiya va Bolgariyani urushdan chiqardilar va nemis-fashistlariga qarshi urush xarakatlarini CHexoslovakiya, YUGoslaviya va Vengriya xududlariga olib o‘tdilar.

Shu vaqt mobaynida Ittifoq qo‘shinlari Boltiq va SHimoliy flotlar bilan birgalikda nemis-fashist qo‘shinlarini Boltiqbuyida va Zapolyareda tor-mor etdilar. Bu operatsiyalar davomida Estoniya, Latviya, Zapolyare va Norvegiyaning shimoliy qismi ozod etildi.

Tukum va Libavaning o‘rtasida dushmanning 30 tadan ortiq diviziyalari dengizga siqilib qo‘yildi.

Shunday qilib, 1944 yildagi muvaffaqiyatli operatsiyalar natijasida Qizil Armiya fashistlar Germaniyasiga og‘ir talofatlar etkazdi. Ittifoq qo‘shinlari Ittifoq tuprog‘ini qariyb butunlay, Polshaning Sharqiy qismini nemis-fashist bosqinchilaridan ozod etdilar va jang xarakatlarini CHexoslovakiya, YUGoslaviya, Vengriya va Norvegiyada boshlab yubordilar. Fashistlar Germaniyasi siyosiy yakkalanib qolish xolatiga tushib qoldi.

### **Belorussiya (Bagratiya) operatsiyasi (1944 y. 23.06-29.08).**

Belorussiya strategik operatsiyasiga ikki oydan ortiq tayyorgarlik ko‘rildi. Operatsiyaning maqsadi, keng front bo‘ylab to‘rttala frontlarning kuchlari bilan xujumni boshlab, dushman mudofaasini olti joyidan yorib o‘tish, uning guruxlarini Vitebsk va Bobruysk rayonlarida qurshab olish va tor-mor etish, keyin uchala Belorussiya frontlarining kuchlari bilan Minsk yo‘nalishiga, partizan otryadlari bilan yaqindan xamkorlik qilib «Markaz» armiya guruxiga kuchli zarbalar berib uni tor-mor etishdan iborat edi. Keyin zarbalarni kuchaytirib, xujum frontini kengaytirib Ittifoq Ittifoqining g‘arbiy chegaralariga

chiqish rejalashtirildi. Frontlarga aniq vazifalar Lepel, Berezino daryosi, Slutsk (160 km. chuqurlikkacha) marralarigacha qo'yildi.

Bu vazifalar bajarilganidan so'ng, keyingi vazifalarni vaziyatga qarab belgilash ko'zda tutildi.

1-Boltiqbuyi fronti (general I.X.Bagramyan) 3-Belorussiya fronti bilan xamkorlikda dushmanning Vitebsk-Lepel guruxini tor-mor etish vazifasini oldi.

3-Belorussiya frontiga (general I.D..CHernyaxovskiy) 1- Boltiqbuyi va 2- Belorussiya frontlari bilan xamkorlikda dushmanning Vitebsk-Orsha guruxini tor-mor etish vazifasi yuklatildi.

2- Belorussiya frontiga (general G.F.Zaxarov) 3- va 1-Belorussiya frontlari bilan xamkorlikda dushmanning Mogilyov guruxini tor mor etish topshirildi.

1- Belorussiya fronti (armiya-general K.K. Rokossovskiy) o'ng qanot qo'shinlari bilan dushmanni Bobruysk rayonida qurshab olish va tor-mor etish vazifasini oldi. Keyinchalik front qo'shinlari Osipovichi, Puxovichi va Slutskka xujum qilishlari kerak edi. Markaz va chap qanotdagi qo'shinlar egallab turgan marralarini mustaxkam ushlab turishlari va Lyublin yo'nalishiga xujum qilishga tayyor turishlari kerak edi.

Lepel, Berezino daryosi, Slutsk marralariga chiqish bilan, 3- Belorussiya frontining chap qanoti va 1- Belorussiya fronti o'ng qanoti zarbdor guruxlari, dushmanni umumiy yo'nalish – Minskka tomon ta'qib etishlari, qolgan kuchlar esa, frontdan dushmanni ta'qib etib kelayotgan 2- Belorussiya fronti bilan Molodechno, Baranovichi yo'nalishiga ta'qibni olib borib, dushmanning asosiy kuchlarini Minskning Sharqida qurshab olishlari va tor-mor etishlari ko'zda tutildi.

Birinchi Boltiqbuyi frontini g'arbiy yo'nalishda, dushmanning uchinchi tank armiyasini tor-mor etish va «SHimol» armiya guruxining shimoldan berilajak zarbalarini oldini olish va uni qolgan fashistlar guruxlaridan ajratib qo'yish maqsadida xujumni rivojlantirish uchun foydalanish ko'zda tutildi.

Uzoq aviatsiya dushmanning aerodromlariga, temir yo'llariga zarba berishi va kuchlarining bir qismi bilan quruqlikda xarakatlanayotgan qo'shinlarga yordam ko'rsatishi kerak edi. Partizan birlashmalariga, operatsiya boshlanishida dushman ichkarisida va uning kommunikatsiyalarida ommaviy diversiyalar o'tkazib, Belorussiyani ozod etishda xar tomonlama Qizil Armiyaga yordamlashish vazifasi topshirildi.

## Operatsiyaning mazmuni.

Jangovar xarakatlarning xarakteri va bajarilishi kerak bo'lgan vazifalar bo'yicha Belorussiya strategik operatsiyasi ikkita davrga bo'linadi.

Birinchi davrda, 1944 yil 23 iyundan 4 iyulgacha Vitebsk-Orsha, Mogilyov, Bobruysk operatsiyalari o'tkazildi va dushmanning Minsk guruxini qurshab olish tugatildi. Xujumni rivojlantirish vaqtida, tashqi qurshov frontida Ittifoq qo'shinlari SHaulay, Vilnyus, Belostok va Lyublinsk-Brest operatsiyalarini o'tkazdilar.

Keng ko'lamliligi, puxta tayyorlanganligi va moxirona bajarilishi bilan bu operatsiya Ikkinchi jaxon urushi tarixidagi eng yorqin, yuksak ahamiyatga ega operatsiyalardandir.

1-Boltingbuyi, 3-va 2-Belorussiya frontlarining xujumlari 1944 yil 23 iyunda boshlandi. 1-Belorussiya fronti ikki sutkadan keyin xujumga o'tdi. Xamma frontlarda xujum arafasida ilg'or batalonlarning razvedka janrlari o'tkazildi.

Ikki kun mobaynida dushmanning bosh va ikkinchi mudofaa chizig'i qariyb xamma yo'nalishlarda yorib o'tildi va yorib o'tilgan pozitsiyalarga xarakatchan qo'shinlar kiritildi. Xujumni rivojlantirib xamma frontlar qo'shinlari 28 iyunda dushman mudofaasining butun operativ chuqurligida yorib o'tdilar, dushmanning Vitebsk guruxini (beshta diviziya) va Bobruysk guruxini (oltita diviziya) qurshab olib tor-mor etdilar va Berezino daryosiga chiqish bilan Puxovichi rayonida dushmanning Minsk guruxini qanotlarini qurshab oldilar.

Keyingi xujumlarni rivojlantirib, 3-va 1-Belorussiya frontlari qo'shinlari 3 iyul oxirida Minsk rayonida birlashdilar va 2- Belorussiya fronti bilan birgalikda va partizan otryadlari bilan xamkorlikda 18 ta diviziyadan iborat (100 ming atrofida odamini) dushmanning Minsk guruxini qurshab olishni tugatdilar. Qurshovdagi dushman guruxlarini tor-mor etish 2- Belorussiya frontiga topshirildi va 11 iyul oxirida to'lig'icha amalga oshirildi.

1-Boltingbuyi fronti qo'shinlari xujumni Svensyan yo'nalishiga tomon rivojlantirdilar.

Frontlar aviatsiyasi quruqlikdagi qo'shinlar xujumlarini qo'llab-quvvatlab turdilar. Aviatsiya ayniqsa dushmanning Bobruysk va Minsk guruxlarini tor-mor etishda katta rol o'ynadi. Uzoq aviatsiya dushmanning temir yo'l orqali tashib kelayotgan yuklariga va aerodromlardagi aviatsiyasiga qarshi kurashni amalga oshirdilar.

Frontlarning xarakatlariga Belorussiya partizani juda katta yordam berdilar, ularning asosiy zarbalari dushman kommunikatsiyalariga qaratildi. Ular dushmanning

zaxira kuchlarining katta qismini xoldan toydirib, dushman xaqida ma'lumot yig'ish, ularning chekinayotgan qo'shinlariga frontlar qo'shinlari bilan xamkorlikda zarbalar berish, kechuv joylarini egallash va o'z qo'shinlari etib kelgunga qadar ularni ushlab turishdek muxim vazifalarni bajardilar.

Dushmanning Minsk guruxi qurshovga olinganidan keyin, g'arbiy Dvina va Pripyat oralig'idagi uning mudofaasida 400 km li bo'shliq xosil bo'lib, bu bo'shliqqa Ittifoq qo'shinlari ildamlab ketdilar. Minskning g'arbida tor-mor etilgan dushmanning qolganlarini shiddat bilan ta'qib etish boshlandi. Iyul o'rtalarida frontlar qo'shinlari Neman daryosi bo'ylariga chiqdilar. Ittifoq qo'shinlariga Boltiq dengiziga va Sharqiy Prussiya chegaralariga chiqish uchun real sharoitlar yuzaga keldi.

Sharqiy Prussiya chegaralari bo'sag'alarida yangi front chizig'ini tiklash maqsadida nemis-fashist qo'mondonligi iyul oyi mobaynida bu yo'nalishga 27 ta diviziyani, jumladan 10 ta tank diviziyasini tashladi. Dushman birinchi chiziqqa anchagina zaxiralarini kiritib, Neman daryosi marrasida, Sharqiy Prussiyaning bevosita chegaralari bo'ylarida yangi mudofaa frontini yaratishga va qarshilik ko'rsatishni kuchaytirishga erishdi.

Neman daryosi marralariga chiqish bilan, front orti ta'minotining 500 km ortga qolib ketganligi tufayli frontlarga yonilg'i moddalari, o'q-dorilar va oziq-ovqatlarning tanqisligi sezilib qoldi. Shu munosabat bilan qo'shinlar front bo'ylab katta chuqurlikka cho'zilib ketdilar, artilneriya va tanklar orqaga qolib ketdi, aviatsiyaning faolligi tez tushib ketdi.

Iyulning ikkinchi yarmida 1-Belorussiya frontining Brest-Lyublin operatsiyasi boshlandi. Brest-Lyublin yo'nalishida xujumni rivojlantirib, 1- Ukraina, 2-Belorussiya frontlari bilan o'zaro xamkorlikni olib borib, 1- Belorussiya fronti qo'shinlari 1944 yil 22 iyulda Lyublinni egalladilar.

Iyul oxirida qo'shinlar Visla daryosiga chiqdilar va uning g'arbiy qirg'og'idagi platsdarmlarni egalladilar, bevosita Varshavaga yaqinlashib keldilar va front qo'shinlarini Varshavadan Sharqqa tomon uloqtirib tashlashga xarakat qilgan dushmanning kuchli guruxi bilan shiddatli jang xarakatlarini boshlab yubordilar.

Belorussiya (Bagration) operatsiyasining asosiy maqsadi 1944 yilning iyulida amalga oshirilgan edi. Avgust oyi mobaynida frontlar qo'shinlari, operativ vaziyatni yanada yaxshilash maqsadida, dushmanning qarshi zarbalarini qaytarib, aloxida operatsiyalar o'tkazdilar. Avgust oxirida frontlar qo'shinlarining xoldan toyganliklarini va dushman

qarshiligi faolligining oshganligini xisobga olib, Oliy Bosh Qo‘mondonlik Stavkasi (OBQ) tomonidan direktiva chiqarilib, mudofaaga o‘tishga buyruq berildi.

Shunday qilib, Belorussiya (Bagration) operatsiyasi davomida yirik strategik va siyosiy maqsadlarga erishildi. Nemis fashist qo‘shinlarining markaziy guruxi qo‘shinlari-«Markaz» armiya guruxi tor-mor etildi. Bu guruxning 34 ta diviziyasi va uchta brigadasi yakson etildi. Bu operatsiya davomida siyosiy va strategik vaziyat ittifoq -german frontining markaziy uchastkasida tubdan o‘zgardi. Ittifoq qo‘shinlari g‘arbga tomon 500-600 km. olg‘a xarakatlandilar, Belorussiyani batamom ozod etdilar, Litva va Polshaning katta qismi ozod etildi, Neman daryosini kechib o‘tib Sharqiy Prussiya chegaralariga chiqdilar, Narev va Visla daryosi bo‘yidagi platsdamlarni egalladilar. Shu bilan birga, Ittifoq qo‘shinlari dushmanning Boltiqbuyi va Sharqiy Prussiya guruxlarini o‘rab oldilar va ularni bo‘lib tashlash uchun qulay sharoit yaratdilar.

### **Berlin operatsiyasi va fashist Germaniyani so‘zsiz taslim bo‘lishi.**

Uchinchi davrning xal qiluvchi voqeasi, 1-, 2-Belorussiya va 1- Ukraina frontlari qo‘shinlarining Berlin operatsiyasi bo‘ldi. Operatsiyaning maqsadi, Berlin yo‘nalishida to‘plangan («Visla», «Markaz» armiya guruxlari) nemislarning strategik guruxlarini tor-mor etish, Berlinni egallash va Gitler Germaniyasini kapitulyasiya qilishga majbur etish edi.

1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo‘shinlari 16 aprelda xujumga o‘tdilar, 20 aprelda 2-Belorussiya fronti qo‘shinlarining xujumlari boshlandi. 1-Belorussiya fronti bosh kuchlarining xujumlaridan oldin 14 va 15 aprel kunlarida, 1-Ukraina fronti esa 16 aprelga o‘tar kechasi razvedka janglari o‘tkazdilar.

1-Belorussiya fronti qo‘shinlarining xujumlari boshqacha sharoitlarda kechdi. Frontning bosh qo‘shin guruxlari, 20 daqiqalik artilleriya tayyorgarligidan so‘ng, 146 ta zenit projektorlarini yoqib, erta tongda dushmanga qarshi xujumni boshladilar.

Faqat operatsiyaning to‘rtinchi kuni oxirida Oder mudofaa marrasi 1-Belorussiya fronti qo‘shinlari tomonidan 30 km chuqurlikda yorib o‘tildi, o‘rtacha xarakatlanish surati bir sutkada 7-8 km ni tashkil etdi.

Shunday qilib, 19 aprel oxirida dushman mudofaasining bosh va ikkinchi chizig‘ini yorib o‘tish oxiriga etkazildi.

20 aprelda 2-Belorussiya fronti qo‘shinlari umumiy xujumga o‘tdilar. Front qo‘shinlari dushmanning shiddatli qarshiligini engib, Oder daryosini g‘arbiy oqimlari buyidan kechib

oʻtdilar va 25 aprelda nemislarning bosh mudofaa marrasini yorib oʻtdilar, xujumni gʻarbiy va shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishlarda rivojlantirdilar.

25 aprelda Torgau shaxri yaqinida (Elba daryosining gʻarbiy qirgʻogʻi) 1- Ukraina fronti qoʻshinlari, gʻarbdan xarakatlanib kelayotgan 1-Amerika armiyasining ilgʻor qismlari bilan uchrashdilar.

1945 yil 2 may soat 15.30 da Berlinda dushman guruxi tugatildi, Berlin garnizoni kapitulyasiya qildi.

1945 yil 8 may soat 23.45 dan 9 may 00.45 gacha, Berlin yaqinidagi Karlxorstda nemis-fashistlari Bosh qoʻmondonligi soʻzsiz taslim boʻlganligi toʻgʻrisidagi kapitulyasiyaga imzo chekdi. Ittifoq Qurolli Kuchlari va xukumati nomidan kapitulyasiyani marshal G.K.Jukov qabul qildi.

### **Operatsiyaning mazmuni.**

1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qoʻshinlari 16 aprelda xujumga oʻtdilar, 20 aprelda 2-Belorussiya fronti qoʻshinlarining xujumlari boshlandi. 1-Belorussiya fronti bosh kuchlarining xujumlaridan oldin 14 va 15 aprel kunlarida, 1-Ukraina fronti esa 16 aprelga oʻtar kechasi razvedka janrlari oʻtkazdilar.

1-Ukraina fronti qoʻshinlari ayniqsa yorib oʻtishni muvaffaqiyatli amalga oshirdilar. Artilleriya tayyorgarligi vaqtida Neyse daryosini kechib oʻtish boshlandi. Egallangan platsdarmda yoyilib, frontning bosh qoʻshin guruxlari xujumni muvaffaqiyatli rivojlantirdilar. Dushmanning bosh mudofaa chizigʻini yorib oʻtishni oxiriga etkazish uchun jangga tank armiyalarining ilgʻor otryadlari, dushman mudofaasining butun taktik chuqurligini yorib oʻtishni oxiriga etkazish uchun esa birinchi eshelon tank armiyalari tank korpuslarining asosiy kuchlari jangga kiritildi.

Xujumning uchinchi kuni oxirida 1-Ukraina fronti qoʻshinlari butun Neyse mudofaa marrasini front boʻylab 35 km da yorib oʻtishni tugatdilar va gʻarbga tomon 30 km gacha xarakatlandilar. Tank armiyalari operativ chuqurlikka chiqdilar va erkin manyovr qilish imkoniyatini oldilar.

1-Belorussiya fronti qoʻshinlarining xujumlari boshqacha sharoitlarda kechdi. Frontning bosh qoʻshin guruxlari, 20 daqiqalik artilleriya tayyorgarligidan soʻng, 146 ta zenit proyektorlarini yoqib, erta tongda dushmanga qarshi xujumni boshladilar.



Piyodalar va tanklar dushman mudofaasining birinchi pozitsiyasi chuqurligiga xarakatlanib, katta qarshilikka uchradilar. Dushman mudofaasini yorib o'tish bo'yicha shiddatli janglar boshlanib ketdi.

Kunning ikkinchi yarmida, jangga tank armiyalarini kiritib, dushmanning taktik mudofaa chuqurligini yorib o'tishni tugatishga urunib ko'rildi, lekin kunning oxirida yorib o'tish amalga oshmadi. Yorib o'tish ketma-ket dushman pozitsiyalarini egallash xarakteriga ega bo'ldi. Xar kuni xujum artilleriya tayyorgarligi bilan boshlanib, uning samaradorligi kundan-kun tushib ketaverdi.

Tank armiyalari, birinchi eshelon birlashmalari jangovar tartiblari safida xujum qildilar. Faqat operatsiyaning to'rtinchi kuni oxirida Oder mudofaa marrasi 1-Belorussiya fronti qo'shinlari tomonidan 30 km chuqurlikda yorib o'tildi, o'rtacha xarakatlanish surati bir sutkada 7-8 km ni tashkil etdi.

Shunday qilib, 19 aprel oxirida dushman mudofaasining bosh va ikkinchi chizig'ini yorib o'tish oxiriga etkazildi.

1-Belorussiya fronti chizig'ida Berlinni shimoldan bosh guruxlarning o'ng qanot birlashmalari bilan o'rab olish uchun qulay sharoit yaratildi, 1-Ukraina fronti chizig'ida esa Shu kuniyoq 3-, 4-gvardiyachi tank armiyalari, SHpree daryosining g'arbiy qirg'og'idagi platsdarmlardan Berlinga xujum qildilar.

Dushmanni Berlin guruxining asosiy kuchlarini qurshab olish uchun ikkala frontning juda katta manyovrlari boshlandi.

19 apreldan 25 aprelgacha 1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo'shinlari bir vaqtning o'zida Berlin guruxi asosiy kuchlarini qurshab olish va bo'laklarga bo'lib tashlash uchun jang xarakatlarini olib bordilar. 25 aprel oxirida Ittifoq qo'shinlari qurshov xalqasi Berilinning g'arbida Potsdam rayonida birlashtirildi. Fashist qo'shinlarining yirik guruxlari qurshovga olindi. Tashqi va ichki front qurshovlari yaratildi. Shu kuniyoq Berlining janubiy-Sharqida 1-Belorussiya frontining 1-tank armiyasi qo'shinlari, 1-Ukraina frontining 3- gvardiyachi tank armiyasi qismlari bilan uchrashdilar. Shu bilan dushmanning qurshovdagi guruxi Berlin va Frankfurt-Guben guruxlariga bo'lib tashlandi.

20 aprelda 2-Belorussiya fronti qo'shinlari umumiy xujumga o'tdilar. Front qo'shinlari dushmanning shiddatli qarshiligini engib, Oder daryosini g'arbiy oqimlari

buyidan kechib o'tdilar va 25 aprelda nemislarning bosh mudofaa marrasini yorib o'tdilar, xujumni g'arbiy va shimoliy-g'arbiy yo'nalishlarda rivojlantirdilar.

25 aprelda Torgau shaxri yaqinida (Elba daryosining g'arbiy qirg'og'i) 1- Ukraina fronti qo'shinlari, g'arbdan xarakatlanib kelayotgan 1-Amerika armiyasining ilg'or qismlari bilan uchrashdilar.

26 apreldan 8 maygacha Ittifoq qo'shinlari qarshida turgan dushmanni tor-mor etishni tugatdilar. 1-Belorussiya va 1-Ukraina frontlari qo'shinlari fashistlarning qurshovdagi Berlin va Frankfurt-Guben guruxlarini qirib tashladilar, ularning 12-armiyasi va Gerlits guruxining qarshi zarbalarini qaytardilar. 2-Belorussiya fronti qo'shinlari 3-tank armiyasi SHteyner armiya guruxini tor-mor etishni tugatdilar.

Qurshovdagi Berlin guruxini qirib tashlash, Berlin shturmi paytida olib borildi. Front qo'shinlari, aviatsiya qo'llab-quvvatlovida, xar xil yo'nalishlardan shaxar markaziga tomon zarba berib kela boshladilar. SHturmda tank armiyalari faol ishtirok etdilar. 30 aprelda 1-Belorussiya fronti qo'shinlari shiddatli janglar bilan shaxar markaziga chiqdilar va Reyxstagni egalladilar va uning bosh gumbaziga g'alaba Bayrog'ini o'rnatdilar. 1945 yil 2 may soat 15.30 da Berlinda dushman guruxi tugatildi, Berlin garnizoni kapitulyasiya qildi.

Tashqi front qurshovida xarakalanayotgan 1-Belorussiya fronti qo'shinlari va 1-Ukraina fronti kuchlarining bir qismi, xujumni g'arbgaga rivojlantirdilar va 7 mayda butun Elba daryosi marralariga chiqdilar.

1945 yil 8 may soat 23.45 dan 9 may 00.45 gacha, Berlin yaqinidagi Karlxorstda nemis-fashistlari Bosh qo'mondonligi so'zsiz taslim bo'lganligi to'g'risidagi kapitulyasiyaga imzo chekdi. Ittifoq xukumati nomidan kapitulyasiyani marshal G.K.Jukov qabul qildi.

1-Ukraina frontining bosh kuchlari Praga yo'nalishiga xarakatlanish uchun qayta to'plana boshlandi. Praga operatsiyasi davomida (1945y. 6-11 may) 1-, 2-, va 3-Ukraina frontlari qo'shinlari tomonidan, dushmanning CHexoslovakiyadagi so'nggi eng katta guruxi tor-mor etildi.

Praga operatsiyasi natijasida CHexoslovakiya xalqiga katta yordam ko'rsatildi va 858 ming dushman qo'shinlari asirga olindi.

Uchta front qo'shinlari operatsiyaning umumiy natijasiga ko'ra muxim harbiy-siyosiy vazifa-fashistlar Germaniyasi Qurolli Kuchlarining yirik guruxini tor-mor etdilar,

Shu bilan gitlerchilarni kapitulyasiya qilishga majbur etdilar va AQSH, Angliya xukmron doiralarning Berlinni Ittifoq qo‘shinlaridan oldin egallash rejalarini barbod etdilar.

### **9.19.O‘zbekiston xalqining fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g‘alabagaqo‘shgan xissasi.**

Urush boshlangan kundanoq Respublikada ko‘pminglik mitinglar bo‘lib, ularda ko‘pchilik frontga ko‘ngilli bo‘lib ketish to‘g‘risida arizalar berdi. Urushning birinchi oylarida O‘zbekistonda 14 diviziya, 12 brigada tashkil etilib frontga jo‘natildi.

Mashxur Brest qal‘asini ximoyachilari safida serjant Doniyor Abdullaev bir nechta fashistlarni safdan chiqarib o‘zi xam xalok bo‘ldi.

O‘zbekistonlik jangchilar Kiev, Smolensk, Odessa, Sevastopol, Moskva mudofaasida xam faol ishtirok etib o‘zlarini o‘chmas Shuxratga burkadilar.

Stalingrad jangida 62 va 64-armiyalar safida O‘zbekistonda tashkil etilgan 90 va 99 o‘qchilar brigadalari mardonavor jang qildi. Stalingard mudofasi solnomasida Sharqning 11 qaxramon yigitining nomi o‘chmas iz qoldirdi. 9 o‘zbek, 1 qozoq, 1 tatarlardan iborat guruxga nomsiz tepalikning mudofasi topshirildi. Tepalik uchun jang 12 kun davom etdi, dushmaning 300dan ortiq kishisi safdan chiarildi, tepalik ximoyachilaridan faqat 2 kishi tirik qoldi.

Qaxramonlar orasida birinchi o‘zbek generali Sobir Raximovning nomi zarxal xarflar bilan yozilgan. Polk komandirining o‘rinbosari lavozimidan qisqa vaqt ichida u general-mayor, diviziya komandiri lavozimigacha xizmat qilib, Kavkazni. Belorussiyani, Polshani dushmandan tozalashda qaxramonlik namunalarini ko‘rsatdi. 1945 yilning martida general S. Raximov xalok bo‘ldi, vafotidan keyin unga urush qaxramoni unvoni berildi.

O‘zbekiston urush yillarida davlatning asosiy ta‘minlov bazalaridan biriga aylandi. Front ortidan frontga 200 ta samolyot 17 000 aviabomba 4800 minomyot 2 mln. 300 ming aviabomba 56 mingta snaryadlar, 22000 ta minalar, 1048000 granatalar, qishloq jo‘jalik mexnatkashlari 4 mln. 806 000 t paxta, 1282000 t. g‘alla, 482000t. kartoshka va poliz maxsulotlari, 54500t. uzum, 36000t. quruq meva, 159000t. go‘sht, 22000 t. yung va boshqa maxsulotlar etkazib berdilar.

Ikkinchi jaxon urushining to‘rtinchi davrida Qizil Armiya nemis-fashist bosqinchilarini Ittifoq tuprog‘idan uloqtirib tashladi, Markaziy va Janubiy–Sharqiy Evropa davlatlarining bir nechtasini ozod etdi, ittifoqchilar bilan birga gitlerchilar armiyasini tor-mor etishni

tugatdi va fashistlar Germaniyasini so‘zsiz kapitulyasiyani imzolashga majbur etdi. Shu bilan Evropada urush xarakatlari tugatildi.

Antigitler koalitsiyasining g‘alabasi Evropada milliy ozodlik xarakatlarining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi. Bu kurash YUgoslaviyada, Fransiyada, Italiyada, CHexoslovakiyada Polshada, Belgiya va Gretsiyada o‘zining yuqori cho‘qqiga chiqdi.

Urushning to‘rtinchi davrida Qizil Armiyaning qurol-yarog‘ va harbiy san’ati, gitlerchilar qo‘shinlarining qurol-yarog‘ va harbiy san’atidan ustunligi ko‘rinib qoldi.

Ittifoq xalqi, og‘ir sinovlarni mardonavor engib chiqib, o‘z mamlakatini saqlab qoldi. Fashizm mag‘lubiyatga uchradi. Tor-mor etilgan nemis-fashist armiyalari so‘zsiz kapitulyasiya qildi. Urushning bosh natijasi Shundadir. Urushning g‘alaba bilan tugatilishi natijasida, g‘arbda SSSRning chegaralari xavfsizligi ta’minlandi.

Ittifoq Ittifoqining Ikkinchi jaxon urushidagi g‘alabasi butunxatdon tarixiy ahamiyatga ega. Evropa davlatlarining ko‘pgina xalqlariga bu g‘alaba ozodlikka, mustaqillikka va taraqqiyotga yo‘l ochib berdi. Ittifoq xalqi va uning Qurolli Kuchlari Avstriya, Albaniya, Bolgariya, Vengriya, Norvegiya, Polsha, Ruminiya, CHexoslovakiya, YUgoslaviya xalqlarini fashistlar okkupatsiyasidan qutqarishda xal qiluvchi rol o‘ynadi.

Tarixiy xaloskorlik vazifasini munosib bajarib, Ittifoq xalqi va uning Qurolli Kuchlari, dunyoning taraqqiyparvar xalqlarining xurmatini qozondilar.

Ittifoq qo‘shinlarining Stalingrad ostonasidagi buyuk g‘alabalari ittifoq -german frontida va umuman Ikkinchi jaxon urushining borishida Ittifoq armiyasi foydasiga tubdan burilishni boshlab berdi. Ushbu jangni diqqat bilan kuzatib turgan butun dunyoga fashizimni to‘xtatib qola oladigan kuch bor ekanligi isbotlandi. Bizning armiyamiz strategik tashabbusni dushmandan tortib oldi va uni urushning oxirigacha o‘z qo‘lida ushlab turdi. Marshal G. K. Jukovning ta’biri bilan aytganda Stalingradda nemislar armiyasining quYoshi botdi. Butun ittifoq axli singari ushbu g‘alabaga o‘zbekistonliklar xam ulkan xissa qo‘shdilar, o‘zlarini so‘nmas Shuxrat bilan burkadilar, ulardan 2738 kishi «Stalingrad mudofaasi uchun» medali bilan taqdirlandi.

Kursk bo‘sag‘asida Qizil Armiyaning qarshi xujumi buyuk g‘alaba bilan tugadi. Dushmanga to‘ldirib bo‘lmas talofatlar etkazildi, uning Oryol va Xarkov rayonlarida strategik platsdarmlarni ushlab turishga qilgan xarakatlari barbod bo‘ldi.

Qarshi xujumning muvaffaqiyati bizning qo‘shinlarimizning xujumga o‘tish vaqtini moxirlik bilan tanlashlari natijasida ta‘minlandi. Qarshi xujum, dushman asosiy guruxlarining katta talofatlar ko‘rganidan keyin va uning xujumida inqiroz boshlanganidan keyin boshlandi. Bundan tashqari muvaffaqiyatga g‘arbiy, janubiy-g‘arbiy va boshqa yo‘nalishlarda xarakat qilayotgan frontlarning moxirona tashkil etilgan o‘zaro xamkorliklari bilan xam erishildi. Bu nemis qo‘mondonligiga o‘zi uchun xavfli yo‘nalishlarda qo‘shinini qayta to‘plashni amalga oshirishga imkon bermadi.

Qarshi xujumning muvaffaqiyatiga Kursk yo‘nalishida, frontlarning xujumlarini rivojlantirish uchun foydalanilgan OBQ Stavkasining oldindan yaratilgan strategik zaxirasi katta ta‘sir ko‘rsatdi.

Qarshi xujum boshlanishidan oldin kuchaytirilgan rotalar va ilg‘or batalonlarning kuchlari bilan jang razvedkasi o‘tkazildi.

Xujumkor jang taktikasiga kiritilgan yangilik, qism va birlashmalarning bir eshelondan chuqur eshelonlashtirilgan jangovar tartiblarga o‘tishlari bo‘ldi.

**Ikkinchi jaxon urushi yillarida umumiy dushman xisoblangan fashistlar Germaniyasining tor-mor etilishida AQSH va Angliya qurolli kuchlari xam o‘zlarining xissalarini qo‘shdilar.**

Lekin urushdan keyingi yillarda ayrim tarixchilar g‘alabaga erishishdagi SSSRning rolini pasaytirish uchun, Ikkinchi jaxon urushiga tegishli tarixning ayrim masalalarini soxtashtirishga urundilar.

Ularning ayrimlari Angliya-Amerika qo‘shinlarining Afrikadagi, Uzoq Sharqdagi g‘alabalarini ko‘klarga ko‘tarib, urushning xal qiluvchi fronti xisoblangan ittifoq -german frontini kam tilga olganlar. Shunday qilib, ularning fikrlaricha urushning borishida tubdan burilish yasagan Moskvaning qaxramonona mudofaasi emas, Stalingradning tarixiy jangi emas, Kursk jangi emas, balki 1942 yil oktyabridagi El-Alameyn jangida ingliz qo‘shinlarining SHimoliy Afrikadagi general Rommel qo‘mondonligidagi Generallik nemis-italiya qo‘shinlari ustidan qozongan g‘alabalaridir.

Misol uchun, ingliz tarixchisi Dig Fuller Germaniya va uning ittifoqchilarining ustidan qozinilgan g‘alaba ketma-ketligini quyidagicha ifodalaydi: avval Tinch okeanida joylashgan Miduey orolidagi g‘alaba, keyin, El-Alameyndagi g‘alaba, Angliya-Amerika

qo‘shinlarining SHimoliy Fransiyaga tushirilishi, faqat ulardan keyingina Ikkinchi jaxon urushining borishida tubdan burilishni boshlab bergan Stalingrad jangi turadi.

Fashizmni tor-mor etishlidagi va Ikkinchi jaxonning asosiy fronti xisoblangan ittifoq -german fronti rolini pasaytirish tendensiyasi keng tarqaldi. Lekin faktlarga murojaat etsak buning butunlay teskarisiga ishonch xosil qilamiz. Ittifoq -german frontida Germaniya fashizmi va ularning ittifoqchilarining 669 ta diviziyasi yakson etildi, boshqa xamma frontlarga nisbatan uch yarim marotaba ko‘p, bu erda Germaniya aviatsiya va tanklarining asosiy qismini yo‘qotdi.

1941 yilning iyunidan 1944 yilning o‘rtalarigacha Sharqiy frontda bir vaqtning o‘zida fashistlarning 190 tadan 270 tagacha diviziyalari xarakatlandi. Shu vaqt mobaynida Angliya va Amerika qurolli kuchlariga qarshi shimoliy Afrikada 9-23 ta diviziya, Italiyada 7-26 ta diviziya jangovar xarakatlarni olib bordi.

Bizning ittifoqchilarimizning g‘alabaga qo‘shgan xissalari qanday, Angliya va Amerika qurolli kuchlari O‘rta Er dengizi, g‘arbiy va Tinch okeani harbiy xarakatlar teatrlaridagi jangovar xarakatlarin qanday olib borildi, xaqiqatan xam Angliya va Amerika qurolli kuchlari Ikkinchi jaxon urushi taqdirini xal etgan «g‘alabaning arsenallari» bo‘ldilarmi?

## **9.20. Ittifoqchilarning O‘rta Er dengizi harbiy xarakatlar teatridagi harbiy xarakatlar (1940-1943 y.)**

### **Shimoliy Afrikadagi jangovar xarakatlar.**

Shimoliy Afrikada harbiy xarakatlar, 1940-yil 13 sentyabrda Italiya qo‘shinlarining Liviyadan Egipetga bostirib kirishi bilan boshlandi. Lekin italiyaliklar armiyasi katta muvaffaqiyatga erisha olmadi. Dekabrda ingliz qo‘shinlari qarshi xujumga o‘tdilar va italiyaliklarga katta talofatlar etkazib, ularni chegaradan g‘arbga tomon 800 kmga uloqtirib tashladilar. 1941-yil fevralida qarama-qarshi guruxlar El-Egeyleda va Liviyada turub qoldilar.

Nemis-fashist qo‘mondonligi 1941- yil boshida, general Rommel qo‘mondonligidagi tank va engil piyodalardan iborat ekspeditsion korpusni Liviyaga tashladi.

31 martda italiya-nemis qo‘mondonligi xujumga o‘tdi, inglizlarga zarbalar berib, ularni yana Misr chegaralariga uloqtirib tashladi. Lekin Rommelning korpusi boshqa oldinga

xarakterlari olmas. Iyul o'rtalarida u mudofaaga o'tdi, bu ittifoq -german frontida urush xarakterlarining boshlanishi bilan bog'liq edi.

Faol jang xarakterlari faqat 1941- yil noyabrda, 8- Britaniya armiyasining (7 ta diviziya, 5 ta brigada, 655 ta tanklar va 700 ta samolyotlar) xujumga o'tishi bilan yangitdan boshlandi. Ikki oylik janglar davomida ingliz qo'shinlari yana dushmanni 800 kmga El-Egeylega uloqtirib tashladilar. Lekin dushmanning bosh kuchlarini inglizlar tor-mor eta olmadilar.

1942- yil yanvar oyi o'rtalarida ingliz qo'shinlari butun Kiriniekada tarqalgan xolda turgan edi. Bundan Rommel foydalanishga xarakter qildi. 21 yanvarda ingliz-nemis qo'shinlari xujumga o'tdilar, ular 8- inglizlar armiyasiga katta talofatlar etkazib, 600 km olg'a xarakterlanib, yana Liviyaning katta qismini egalladilar. Lekin Suvaysh kanaliga tashlanish uchun ularga kuchlar va zaxiralar etmadi, chunki asosiy kuchlar ittifoq -german frontidagi og'ir janglarga tashlangan edi.

Fevral oxirida frontda vaqtinchalik tinchlik xukm surdi va u may oyining oxirigacha davom etdi. 27 mayda Rommel yana xujumni boshladi. Yana Britaniya armiyasiga katta talofatlar etkazildi. Lekin bu armiyani general Rommel bu safar xam tor-mor eta olmas. Iyun oyi oxirida ingliz qo'shinlari oldindan tayyorlangan El-Alameyndagi marralarda mustaxkamlandilar. Bu vaqtga kelib italiya-nemis qo'shinlarining jang olib borish imkoniyatlari tugab bo'lgan edi. Etib kelishi kerak bo'lgan kuchlarni kutgan Rommel xujumni to'xtatdi va yana frontda tinchlik xukm surdi.

### **El-Alameyn yaqinidagi operatsiya (1942- yil 23.10-27.11).**

1942- yil 23-oktyabrda ikkala tomon xam, O'rta Er dengizi va Kattar oralig'idagi mustaxkamlangan pozitsiyalarda ximoyada turar edi. Italiya-Nemis «Afrika» tank armiyasi o'z safida to'rtta nemislar, sakkizta italiyaliklar diviziyalari bilan El-Alameynning janubiy-g'arbida, uzunligi 60 kmli marralarni egalladilar.

Mudofaa, tayanch punktlarini, qarshilik ko'rsatish uzellari yaratish va ushlab turish prinsipida qurildi. Uning umumiy chuqurligi 15-20 kmga etdi, lekin qo'shinlar uning faqat asosiy qismini egalladilar. Xammasi bo'lib bu guruxda-80 ming odam, 540 ta tank, 1200 tadan ortiq orudiyalar va 350 ta dan ortiq samolyotlar mavjud edi. Diviziyalarning to'ldirilganligi 40-50 % ni tashkil etdi.

Shu vaqtga kelib, inglizlar qo‘mondonligi o‘z qo‘shinlarini odamlar va texnika bilan to‘ldirdi va nemis- italiya qo‘shinlariga zarba berish maqsadida operatsiyalarni rejalashtirdi.

10 ta diviziya va 4 ta brigadadan tashkil topgan ingliz qo‘shinlari o‘z saflarida 230 ming odamga, 1440 ta tanklarga, 2300 ta dan ortiq orudiyalarga va 1500 ta samolyotlarga ega edilar. Ingliz qo‘shinlari dushman ustidan odamlar bo‘yicha – 2,8 marta, tanklar bo‘yicha –2,6 marta, artilleriya bo‘yicha-1,9 marta, aviatsiya bo‘yicha – 4,2 marta ustunlikka ega edilar.

8-Armiya qo‘mondonligining maqsadi, bosh zarbani dushmanning o‘ng qanotiga berishdan iborat edi. Beshta piyodalar diviziyalari va ikkita zirxli tank brigadalaridan tashkil topgan qo‘shinlarning zarbdor guruxi dushman mudofaasini 9 kmli frontda yorib o‘tishi kerak edi. Keyin armiyaning ikkinchi eshelonini (3 ta zirxli tank diviziyalari) jangga kiritib, muvaffaqiyatni rivojlantirib, birinchi eshelon birlashmalari bilan dushmanning asosiy kuchlarini tor-mor etishni tugatishi kerak edi. Bitta korpusga dushmanni chap qanotda chalg‘itish va xoldan toydirish vazifasi yuklatildi. Keyinchalik, chekinayotgan dushmanni g‘arbga tomon ta‘qib etib, 8-Armiya qo‘shinlari butun Liviyani egallashlari kerak edi.

Germaniya-Italiya qo‘mondonligining rejasi mudofaa xarakteriga ega edi. Uning qaroriga ko‘ra, Britaniya qo‘shinlarining xujumlarini birinchi eshelondagi piyodalar diviziyalarining kuchlari bilan qaytarish, yorib kirgan dushman qo‘shinlarini to‘rtta tank diviziyalarining qarshi zarbalari bilan bartaraf etishdan iborat edi.

Yorib o‘tishni amalga oshirish uchun kuchli artilleriya guruxi yaratildi. Yorib o‘tish uchastkalarida artilleriya qalinligi frontning har bir km da 100 ta orudiyaga etdi.

1942- yil 20 oktyabrdan 23-oktyabrgacha Angliya XXX jangdan oldin keng ko‘lamli aviatsiya tayyorgarligini o‘tkazdi. Aviatsiya zarbalari dushmanning aerodromlariga, kommunikatsiyalariga va qo‘shinlar to‘plangan joylariga berildi.

1942- yil 23-oktyabr 23.00 da 20 daqiqalik artilleriya tayyorgarligi boshlandi. Artilleriya zarbalari dushmannig artilleriya batareyalariga, qo‘mondonlik kuzatuv punktlariga (QKP) va qarshilik ko‘rsatish uzellariga jamlandi.

Soat 23.30 da artilleriyaning olovli vali qo‘llab-quvvatlovida piyodalar xujumni boshadilar. Yorib o‘tish mudofaa pozitsiyalarining sekinlik bilan yanchilishiga aylanib ketdi. 24-oktyabrda jangga ikkinchi eshelon birlashmalari xarakatchan kuchlarining bir



qismi kiritildi. Ingliz tanklarining operativ tekislik chiqish uchun qilgan xarakatlari muvaffaqiyat keltirmadi. Keyingi uch kun mobaynida inglizlar atakani davom ettirdilar, lekin xal qiluvchi natijaga erisha olmadilar. 8- Armiya qo‘mondoni general Montgomeri xujumni to‘xtatdi, tank diviziyalarini jangdan chiqardi va qo‘shinlarini qayta to‘pladi. Nemis-italiya qo‘mondonligi, inglizlar bosh zarbani o‘zining o‘ng qanotidan berishiga to‘liq ishonch xosil qildi va 27-oktyabrdan boshlab o‘zining tank birlashmalarini dengiz bo‘yiga olib o‘ta boshladi. General Rommel o‘zining chap qanotida dushmanga qarshi zarba berib, uning asosiy kuchlarini tor-mor etish uchun zarbdor gurux yarata boshladi. 28-oktyabrda inglizlar aviatsiyasi nemis-italiya tank diviziyalariga zarbalar berdi va ularning qarshi zarba berish rejasini barbod etdi.

2-noyabrga o‘tar kechasi 8-Armiya 4 soatlik artilleriya tayyorgarligidan keyin xujumga o‘tdi. Xujum karabl artilleriyasi va ittifoqchilar aviatsiyalarining osmonda to‘liq xukumronligida olib borildi. 1,5 sutka davomida 4 km olg‘a xarakatlanib, 8-Armiya oxir-oqibat dushmanning taktik mudofaa zonasini yorib o‘tdi. Xosil bo‘lgan bo‘shliqqa armiya qo‘mondoni, xujumni g‘arbga tomon rivojlantirish uchun 7- zirxli tank diviziyasini jangga kiritdi. Nemis – italiya qo‘mondonligi chekinishga qaror qildi. Birinchi bo‘lib Germaniya birlashmalari ortga olib o‘tila boshlandi, uning uchun Rommel italiyaliklardan butun transportni tortib oldi. Natijada chekina olmagan italiyaliklar asirga tushdi (30 mingtagacha askar va ofitserlar). Shu bilan El-Alameyn yaqinidagi operatsiya nixoyasiga etdi.

Shunday qilib, 8-inglizlar armiyasi ikki oylik xujumkor xarakatlar davomida, 1942-yil oktyabr oxiri-1943- yil boshlarida El-Alameyn yaqinida nemis-italiya qo‘shinlariga katta talofatlar etkazib, ularni Liviyadan xaydab chiqardi. Lekin bu safar xam inglizlarga dushman qo‘shinlarini batamom tor-mor etish nasib etmadi. Inglizlarning g‘alabasi SHimoliy Afrikada va O‘rta Er dengizida vaziyatni ularning foydasiga o‘zgartirdi.

Keyingi oy davomida 8 inglizlar armiyasi 1200 km olg‘a xarakatlandi, bunda o‘rtaga xarakatlanish surati 40 km ni tashkil etdi. CHEkinayotgan dushmanni ta‘qib etib armiya birlashmalari 27-noyabrda El-Ageylening janubiy marrasiga etib keldilar, keyin Tripoli portini egallab, 1943- yil fevral oyi boshida «Maret» chizig‘ida dushman tomonidan to‘xtatilib qolindilar.

## **9.21.«TORCH» operatsiyasi va Shimoliy Afrikada jangovar xarakatlarning tugatilishi.**

Cherchillning qistovida Aljir va Marokashning yirik portlariga «*TORCH*» desant operatsiyasini o‘tkazishga qaror qilindi.

1942-yil 8-noyabrdan 13-noyabrgacha, ittifoqchilarning maqsadlariga binoan, Marokash va Aljirda dengiz desanti tushirildi. Butun operatsiyaga, O‘rta Er dengizi harbiy xarakatlar teatrida ekspeditsion kuchlarning qo‘mondoni etib tayinlangan general Eyzenxauer boshchilik qildi. Birinchi to‘rt sutka davomida Aljir, Oran va Kasablanka rayonlariga ettitagacha Amerika diviziyalari tushirildi jumladan, ikkita zirxli tank diviziyasi. Desant tushurilishi, bu erdagi fransuz qo‘shinlarining kuchli bo‘lmagan qarshiligi ostida o‘tdi. Lekin tezda ular o‘z qarshiliklarini to‘xtatib, ingliz-amerika qo‘shinlariga qo‘shildilar. Ittifoqchilar Sharqqa tomon hech qanday qarshiliksiz xarakatlanish imkoniyatini oldilar. Shu qulay sharoitlarda ittifoqchilar 2 hafta ichida 900 km olg‘a xarakatlandilar, keyin Tunis va Bizerta shaxri bo‘lag‘alarida to‘xtatib qolindilar.

10-noyabrda nemis qo‘mondonligi xavodan va dengizdan yirik kuchlarni olib kela boshladi, ulardan «NERING» operativ guruxi tashkil etildi, keyinchalik u 5-tank armiyasiga aylantirildi.

Ittifoqchilar qo‘shinlari qo‘mondonligi, Rommel qo‘shinlarini 5-tank armiyasi bilan birlashishiga yo‘l qo‘ymaslikka xarakat qilib, 1943- yil fevral oyining birinchi kunlarida frontning o‘ng qanotida armiya korpusining kuchlari bilan xujumni amalga oshirdilar. Fashistlar qo‘mondonligi qarshi choralarni ko‘rdi va ittifoqchilar qo‘shinlariga qarshi zarba berdi. Tunisda harbiy xarakatlar uzoq davom etish xarakteriga ega bo‘ldi. Faqat 1943- yil mart oyining oxirida inglizlarning zirxli tank qismlari Maret chizig‘ini janubiy - g‘arbdan, cho‘l va tog‘lardan aylanib o‘tib, dushmanning o‘ng qanotiga va front ortiga zarba berish xavfini yaratdi. Lekin Rommel o‘zining xoldan toygan armiyasini zarba ostidan shimolga olib o‘tishga ulgurdi. May oyida ittifoqchilar xal qiluvchi, so‘ngi xujumga o‘tdilar. Italiya-nemis qo‘shinlarining qolgan-qutganlari Boi oroliga o‘tdi va Shu erda 1943- yil 13 mayda kapitulyasiya qildi. Shu bilan SHimoliy Afrikada harbiy xarakatlar tugadi.

Shunday qilib AQSH va Angliya birgalikdagi xarakatlari bilan Afrikada fashistlar blogi qo‘shinlari ustidan g‘alabaga erishdilar.

## **Angliya-Amerika qo‘shinlarining Sitsiliyani egallashi. Italiyaning urushdan chiqishi. Ittifoqchilar qo‘shinlarining Italiyaga tuShurilishi va jangovar xarakatlarning umumiy borishi.**

Bir yarim oylik tayyorgarlikdan so‘ng angliya-amerika qo‘mondonligi 1943- yil iyul-avgustida Sitsiliya desant-operatsiyasini o‘tkazdi. Uni amalga oshirish uchun xamma quruqlikdan qo‘shinlar 7-amerika va 8 –inglizlar armiyalariga birlashtirildi va 15-armiya guruxi tashkil etildi (hammasi 23 ta diviziya). Desant tuShurilishini 4000 tadan ortiq samolyotlar va 3000 tadan ortiq jangovar va transport kemalari ta‘minlab turdilar.

Dushman tomonidan Sitsiliya orolini, o‘z safida 11 ta diviziyani (9 ta italiyaliklar va 2 ta nemislar diviziyalari) olgan 6-italiya armiyasi mudofaa etib turgan edi.

Dastlabki aviatsiya tayyorgarligi o‘tkazilib, u 50 kun davom etdi. Uning davomida italiya-nemis aviatsiyasi 400 ta samolyotini yo‘qotdi.

Dengiz desantini tuShurish 1943- yil 10–iyulda karabllar artilleriyasi va aviatsiyaning kuchli qo‘llab-quvvatlovida boshlandi. 8-inglizlar armiyasi orolning janubiy-Sharqiy qismiga, 7-amerika armiyasi esa Janubiy-G‘arbiy qismiga tuShurildi va ular 50 km ga olg‘a xarakatlandilar. Lekin Sitsiliyani to‘lig‘iga egalash 17 avgustda amalga oshirildi.

Sitsiliya desant operatsiyasi o‘tkazilganidan keyin Appenin yarim oroliga xujum qilish uchun qulay sharoit yaratildi. Shu vaziyatda Italiya xalqining fashizmga qarshi kurashi natijasida Mussolini tuzumi ag‘darilib tashlandi. Yangi xukumat, Shimoliy Afrika va Sitsiliyadagi og‘ir muvaffaqiyatsizliklar oqibatida, gitlerchilar qo‘shinlarining Kursk ostonalaridagi xalokati va antifashist qarshilik ko‘rsatish xarakatlarining oshganligi tufayli, 1943- yil 3 sentyabrda ittifoqchilar bilan tinchlik sulxini tuzishga majbur bo‘ldi. Shu kuniyoq 8-inglizlar armiyasi hech qanday qarshilikka uchramay Appenin yarim orolining janubiga tuShurildi. 8-sentyabrda uning birlashmalari 120 km ga xarakatlanib, 16-sentyabrda Italiyaning g‘arbiy qirg‘oq buylarida Solerna rayonida tuShurilgan 5- amerika armiyasi bilan birlashdilar. Noyabrning boshlarida nemis-fashist qo‘mondonligi mudofaa uchun etarli kuch va vositalarga ega bo‘lmaganligi uchun, o‘z qo‘shinlarini ancha mustaxkam bo‘lgan Rimning janubidagi mudofaa marrasiga olib o‘tdi. Ingliz-amerika qo‘shinlari Shu marraga chiqib dushman mudofaasini yorib o‘tish uchun bir-nechta muvaffaqiyatsiz urinishdan so‘ng mudofaaga o‘tishga majbur bo‘ldilar. Ular 1943- yil noyabridan 1944- yilning iyuligacha boshqa faol xarakatlarni amalga oshirmadilar.

## **9.22. G‘arbiy Evropa harbiy xarakatlar teatridagi jangovar xarakatlar (1944-1945 y.).**

1944- yil o‘rtalarida Evropada harbiy-siyosiy vaziyat Ittifoq Qurolli kuchlarining g‘alabalari va Evropa davlatlari xalqlarining fashist bosqinchilariga qarshi milliy-ozodlik kurashlarining keng qanot yoyganligi bilan xarakterlandi. Fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilarining axvoli tezlik bilan yomonlashishda davom etdi. Nemis-fashistlari, Sharqiy frontda ittifoq qo‘shinlarining yangi qudratli zarbalari berilishini tuShunib, bu erda o‘z qurolli kuchlarining asosini ushlab turardi. Shu sharoitlarda gitlerchilar raxbariyati, Fransiyada amerika-angliya qo‘shinlari tuShurilishini qaytarish uchun etarli kuchlarni jamlash imkoniyatiga ega emas edi. AQSH va Angliya xukumron doiralari, Evropaga bostirib kirishni kechiktirish o‘zlarining manfaatlari uchun xam xavfli ekanligini tuShunib etdilar, chunki Ittifoq Armiyasi ittifoqchilarsiz xam Gitlerchilar Germaniyasini tor-mor etishga va Evropa xalqlarini fashizm qulligidan ozod etishga yordam berishga qodir edi.

Bu xammasi AQSH va Angliyani 1944- yil yozida, 2 yilga kechiktirib Evropada ikkinchi frontni ochishga majbur etdi.

SHimoliy Fransiyaga qo‘shin tuShurish va xujumni boshlash uchun ittifoqchilar Britaniya orollarida 38 ta diviziyani, 12 ta brigadani va 10 ta «Komandos», «Reyndjers» otryadlarini jamladilar.

Ularning saflarida – 6000 ta tank va SAU lar, 15000 ta orudiya va minomyotlar, 10800 ta jangovar va 2300 ta dan ortiq transport samolyotlari, 2600 ta atrofida planerlar va 6939 ta xar xil maqsadlarda qo‘llaniladigan kemalarga ega edilar.

G‘arbiy Evropada ittifoqchilar qo‘shinlariga qarshi dushmanning 58 ta diviziyasi (ulardan 9 tasi tank diviziyasi) turgan bo‘lib, ularning jang olib borish qobiliyati shaxsiy tarkib etishmaganligi sababli juda past edi.

Ularning safida – 2000 ta tank va shturmchi orudiyalar, 67000 ta orudiya va minomyotlar, 350 ta samolyotlar mavjud edi.

Shunday qilib, kuchlar nisbati bo‘yicha ustunlik: shaxsiy tarkib bo‘yicha-3 marta, orudiya va minomyotlar bo‘yicha-2,2 marta, ittifoqchilar foydasida edi. Samolyotlar va kemalar bo‘yicha ittifoqchilar anchagina ustunlikka ega edilar.

Ittifoqchilar qo‘mondonligining umumiy rejasiga ko‘ra, desantni Normandiyaga, keyin Fransiyaning janubiga tuShurish ko‘zda tutildi. Shu bilan bir vaqtning o‘zida, Po daryosi vodiylariga chiish uchun Italiyada xujumni davom ettirish rejalashtirildi.

### **Normandiya desant operatsiyasi.**

O‘tkazilgan ikkita desant operatsiyalaridan, «Overlod» («Xukmronlik») maxfiy nomini olgan Normandiya desant operatsiyasi asosiysi edi. Desant operatsiyasining maqsadi, 80 km kenglikda bir vaqtning ızida beshta piyodalar diviziyalarini qirg‘oqbuyida va qirg‘oqdan 15-20 km ichkarida uchta xavo-desant diviziyalarini tuShurish, taktik platsdarmlarni egallash, keyin ularni birlashtirish va yigirmanchi kunning oxirida uni front bo‘yicha 100 km gacha, front chuqurligida 100-110 km ga kengaytirishdan iborat edi. Keyinchalik xujumni janubiy, Sharqiy yo‘nalishlarda rivojlantirish va 90-kunning oxirida Sena va Luara marralariga chiqish rejalashtirildi.

Desant tuShurilishini to‘satdan amalga oshirishga erishish uchun, ittifoqchilar qo‘mondonligi kuch va vositalarni jamlashni dushmandan yashirish, dushman razvedkasi bilan kurashish va desant tuShurilishi vaqti va rayoni to‘g‘risida uni chalg‘itish bo‘yicha keng tadbirlarni amalga oshirdi.

Bostirib kirishdan oldin ikki oy mobaynida aviatsiya tayyorgarligi o‘tkazildi. Aviatsiya bomba zarbalari ko‘priklarga, temir yo‘l stansiyalariga, aerodromlarga berildi. Natijada qo‘shin tuShurilishi kerak bo‘lgan rayonlar dushman zaxiralaridan ajratib qo‘yildi.

Desant operatsiyasi 1944- yil 6 iyunga o‘tar kechasi aviatsiya tayyorgarligi va uchta xavo-desant diviziyalarini suv buyidan 15 km ichkariga tashlash bilan boshlandi. Bu vaqtda ittifoqchilar floti, xech qanday qarshiliksiz, La-Manshdan o‘tib 6 iyun ertalab Fransiya qirg‘oqlaridagi yoyilish rayonlariga etib keldi. Desant tuShurilishidan 40 daqiqa oldin kemalar artilleriyasi kuchlari bilan artilleriya tayyorgarligi boshlandi.

Desant tuShurilishi daryoda suvning ko‘tarilishi va pasayishini xisobga olib o‘tkazildi. Suv pasayishi davrida suzuvchi tanklar to‘suvida shturmchi guruxlarning tuShurilishi boshlandi, ularning vazifalari, o‘z zarbalari bilan saper guruxlarining to‘siqlarni tozalash ishlarini ta‘minlashdan iborat edi. Suvning ko‘tarilishi bilan asosiy kuchlarning tuShurilishi boshlandi. Xar bir diviziya, platsdarmlarni egallash vazifasini bilan, 1-eshelonning 1-2 ta kuchaytirilgan polklarini o‘z safiga olgan bo‘lib, 6-10 km li uchastkalarga tushirildi.

Birinchi kunda beshta piyodalar diviziyalari tuShurilib, ular xavo desanti bilan birlashdilar. Muvaffaqiyatga, birinchidan, gitlerchilar qo‘mondonligi qo‘shin tuShurilishini Senson qo‘ltig‘idan emas, Pa-de-Kala rayonidan kutganligi; ikkinchidan, qo‘shinlarni xavodan qudratli qo‘llab-quvvatlanganligi qulaylik yaratdi. 12 iyun oxirida ittifoqchilar qo‘shinlari, front bo‘ylab 80 km, front chuqurligida 13-18 km li umumiy platsdarm yaratdilar. Ittifoqchilar armiyalarining strategik platsdarmlar uchun kurashlari bir yarim oy davom etdi. SHiddatli janglar natijasida iyul oxirida platsdarm front bo‘ylab 100-110 km ga, front chuqurligida 30-40 km ga etdi.

25 iyulda ittifoqchilar Sen-Lo janubi, Kan marralariga chiqdilar va yirik port shaxar SHerburni egalladilar. Shu bilan Normandiya desant operatsiyasi tugadi.

Amerika-Angliya qo‘shinlarining SHimoliy Fransiyaga bostirib kirishlari natijasida, g‘arbiy Evropada qurolli kurashning yangi fronti ochildi, bu frontning, ya’ni ikkinchi frontning ochilishini butun antifashist kuchlari ikki yil davomida sabrsizlik bilan kutgan edilar.

Ikkinchi front Germaniyaning anchagina kuchlarini o‘ziga jalb etdi. Lekin ittifoq - german fronti xali xam Ikkinchi jaxon urushining asosiy fronti bo‘lib qoldi.

Ittifoqchilar qo‘shinlarining Normandiyaga tuShurilishi, Ikkinchi jaxon urushining borishida eng yirik strategik axamiyatga ega bo‘lgan operatsiya bo‘ldi.

### **9.23. Ittifoqchilar armiyalarining Fransiya ichkarisidagi xujumlari.**

1944- yilning 25 iyulidan ittifoqchilar qo‘shinlarining Shimoliy Fransiyada xujumlari boshlandi. Xujum davomida 1-Amerika armiyasi 27 iyul oxirida nemis-fashist qo‘shinlarining taktik mudofaa zonasini yorib o‘tib Avransh shaxrini egalladi. Jangga 3-Amerika armiyasi kiritilib, Fransiya ichkarisiga ildam xarakatlanib ketdi. Shu vaqtga kelib fashizmga qarshi qarshilik Ko‘rsatish xarakati keng quloqch yoyganligi sababli, ushbu armiya kuchli qarshilikka uchramadi.

Ingliz qo‘shinlari amerikaliklar muvaffaqiyatidan foydalanib o‘ng qanotda 20-25 kmga olg‘a xarakatlandilar. 8-avgustda 3-Amerika armiyasining Le-Man va Ajrantanga chiqishi va 1-Kanada armiyasining janubda xarakatlanishi natijasida Falez rayonida dushmanning asosiy kuchlarini qurshab olish va to‘lig‘icha tor-mor etish imkoniyati tug‘ildi. Lekin, ittifoqchilarning sust xarakatlari va ularda yirik qo‘shin guruxlarini qurshab olish va tor-mor etish tajribasi yo‘qligi sababli, bu vazifani xarakatlanish mobaynida amalga oshirish

nasib etmadi. Bundan foydalangan nemislar Falez rayonidan jang qilish qobiliyati yuqori diviziyalarini olib chiqdi. 19-avgustda ittifoqchilar oltita piyodalar va ikkita tank diviziyalarining tarqab ketgan qismlarini qurshovga oldilar. Xammasi bo'lib 125 ming odam. Lekin keyinchi uch kunda nemis qo'shinlari qurshovdan 30-35 ming odamini olib chiqishga muvaffaq bo'ldilar.

Shunday qilib, ittifoqchilar qo'shinlari dushmanning bosh guruxlarini qurshab olish va tor-mor etish vazifasini to'lig'icha bajara olmadilar.

Falez ostonasidagi mag'lubiyatdan keyin nemis-fashist qo'shinlarining umumiy chekinishi boshlandi. Ittifoqchilar qo'shinlari dushmanni shiddat bilan ta'qib etib, 16 avgustda Luara va Sena daryolari marralariga chiqdilar.

Ittifoqchilar qo'shinlariga qarshilik Ko'rsatish xarakati katta yordam berdi. Uning ishtirokchilari ittifoqchilar qo'mondonligiga dushman xaqida ma'lumot etkazib, kommunikatsiyalarni buzib tashladilar, katta-katta rayonlarni ozod etdilar. 19 avgustda Parijda qurolli qo'zg'olon boshlanda, u 25 avgustda nemislar garnizonining kapitulyasiyasi bilan tugadi.

Shu vaqtga kelib Sena daryosi marrasidan xujum qilayotgan Amerika-Angliya qo'shinlari Zigfrid chizig'iga etdilar, lekin uni, dushmanning qattiq qarshiligi tufayli xarakatlanish mobaynida yorib o'ta olmadilar.

1944- yil 17-sentyabrdan–26 sentyabrgacha 2-Angliya armiyasining kuchlari bilan, dushman mudofaasini yorib o'tish maqsadida Gollandiyada Arnem operatsiyasi o'tkazildi. Bunda, Zigfrid chizig'ini tor uchastkada (3,2km) xavo-desant qo'shinlarining yirik kuchlarini (xavo-desant armiyasi) jalb etib yorib o'tish uchun bo'lgan xarakatlar yaqqol ko'zga tashlandi. Operatsiya-ittifoqchilar uchun muvaffaqiyatsiz tugadi.

Lekin bu operatsiya AQSH va Angliyaning xavo-desantini desantlash bo'yicha katta texnik imkoniyatlarini tasdiqladi. Bu operatsiyani o'tkazib, ittifoqchilar qo'shinlari shiddatli janglarni olib borib dekabr oyining o'rtalarida Strasburgdan Arnemgacha rayonda Germaniya chegarasiga chiqib mudofaaga o'tdilar.

Ittifoqchilar Italiyada katta muvaffaqiyatga erisha olmadilar. 1944- yil davomida ular Po daryosi bo'ylaridagi vodiylarga chiqish vazifasini bajara olmadilar. 4 iyunda ular nemislar tomonidan tashlab chiqib ketilgan Rimni egalladilar va 1944- yil oxirida Ravenna,

Petrasanta marrasiga chiqdilar va Shu erda dushman tomonidan butun qish davomida to'xtatib qolindilar.

Shunday qilib, 1944- yil oxirida gitlerchilar qo'mondonligi g'arbiy frontni barqarorlashtirishga muvaffoq bo'ldi. Lekin uning antifashist koalitsiyasiga zarba berish umidi amalga oshmadi.

### **Nemis qo'shinlarining Ardendagi qarshi xujumi.**

Ittifoqchilar dekabrda Zigfrid chizig'ini yorib o'tish uchun operatsiya o'tkazishga tayyorlana boshladilar. Lekin, nemis-fashist qo'mondonligi ulardan oldin operatsiyaga kirishdi. Nemis-fashist qo'mondonligi Arden o'rmonlarida yashirincha, 21 ta diviziya va ikkita brigadadan iborat zarbdor guruxni jamlashga muvaffaq bo'ldi.

1945- yil 1 yanvarda Shimoliy Elzasda nemislarning qarshi xujumi boshlandi. Uch kunda ular 30 km ga xarakatlandilar. 1944- yil 16 dekabrda nemis qo'shinlari 8-armiya korpusiga Arden rayonida kuchli zarba berdilar va tayanch punktlari chiziqlaridan osonlik bilan o'tib, mudofaa chuqurligiga xarakatlanib ketdilar. Lekin Maas orqali Antverpinga shiddat bilan yorib o'tish amalga oshmadi. Amerika qo'mondonligi frontning boshqa uchastkalaridan diviziyalarni olib, ularni jangga kiritishga ulgurdi. Dekabr oxirida ittifoqchilar qo'shinlari uchun vaziyat og'irlashib qoldi. Ularning fronti 80 km li uchastkada 100km chuqurlikda yorib o'tildi.

Shu sharoitlarda U. Cherrill, I. Stalinga murojaat etib, ittifoqchilarga yordam berish uchun ittifoq -german frontida Ittifoq Armiyasining yirik xujumlarini boshlashni iltimos qildi. Oradan bir hafta o'tgan 12 yanvarda ittifoq qo'shinlari Boltiqdan Karpatgacha, rejadagi muddatdan anga oldin kuchli xujumni boshladilar. Bu nemis qo'mondonligini g'arbda faol jang g'arakatlarini olib borishdan voz kechishga majbur etdi. Ittifoqning 6-tank armiyasi, keyinchalik yana 16 ta diviziya tezkorlik bilan g'arbiy frontdan ittifoq -german frontiga tashlandi. Gitlerchilar Ardenda va Elzasda xujumni to'xtatdilar va yanvar oxirida dastlabni marraga chekindilar.

### **Ittifoqchilar qo'shinlarining Germaniya ichkarisidagi xujumlari.**

Ardendagi mag'lubiyatidan so'ng ittifoqchilar qo'shinlari xujumni faqat 1945-yilning fevralida yangitdan boshladilar. 8-fevraldan 10- martgacha ular bir necha operatsiyalar o'tkazdilar, ularning natijasida Reyn daryosining g'arbiy qirg'oqlariga chiqdilar. Reynni xarakatlanish mobaynida kechib o'ta olmadilar.



1945- yil mart oyining oxirida vaziyat ittifoqchilar uchun juda qulay, Germaniya uchun esa juda og'ir bo'ldi.

1945- yil mart oyining oxirida ittifoqchilar qo'mondonligi Rurni egallash uchun katta operatsiyalardan birini tayyorladilar va o'tkazdilar. Ittifoqchilar qo'shinlari 51 ta diviziya va 14 ta aloxida brigadalardan tashkil topdi.

Rur marrasidagi xujumning maqsadi, Rur ishlab chiqarish rayonining shimolidan va janubidan, umumiy yo'nalish Kasselga xujum qilish, Rurda dushmanning asosiy guruxini qurshab olish va tor-mor etishdan iborat edi. Keyinchalik asosiy kuchlar bilan Germaniya ichkarisida xujumni rivojlantirish rejalashtirildi.

1945- yil 24-martga o'tar kechasi 21-armiya guruxi qo'shinlari Reyn daryosini kechib o'tdilar va 1aprelda 12-armiya guruxi bilan xamkorlikda Rur rayonida dushmanning 325-minglik guruxini qurshovga oldilar va u 18 aprelda kapitulyasiya qildi.

Shundan so'ng ittifoqchilar qo'shinlari xech qanday qarshiliksiz Elbaga tomon ildam xarakatlanib ketdilar.

25-aprelda 1-Amerika armiyasining ilg'or qismlari Torgau rayonida, Elbada 1-Ukraina fronti qo'shinlari bilan uchrashdilar. Aprel oxirida butun janubiy Germaniya va YUqori Avstriya ittifoqchilar qo'shinlari bilan band bo'ldi. Bir necha kundan keyin Italiya xalqining faol yordamida, Italiyaning shimoliy qismi to'lig'icha fashistlardan ozod etildi. 1945- yil 8 mayda Ittifoq qo'shinlari tomonidan Berlin rayonida gitlerchilar qo'shinlarining asosiy kuchlari tor-mor etilgandan keyin fashistlar Germaniyasi kapitulyasiya qildi.

Shunday qilib, 1944- va 1945- yillarda ittifoqchilarning ekspeditsion kuchlari g'arbiy Evropada katta muvaffaqiyatlarga erishdilar va bu bilan umumiy vazifa, fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabaga o'z xissalarini qo'shdilar. Evropada Ikkinchi front ochildi, urush davridagi eng katta desant operatsiyasi o'tkazildi. Lekin Shuni esda tutmoq lozimki, Germaniya Bosh qo'mondonligi urushdan yutqizganini tuShunib, asosiy kuch va vositalarini ittifoq -german frontida ushlab turganligi ittifoqchilar jangovar xarakatlari uchun qulay imkoniyat yaratdi. Bu, qit'ada ittifoqchilar desantini tuShurulishini engillashtirib, ularning keyingi xarakatlari uchun yo'l ochib berdi.

Amerika-Angliya koalitsiyasining strategiyasi dushmanni xoldan toydirish urushidan iborat bo'ldi. Bu strategiyaning asosiy negizi muntazam ravishda, xam Germaniyaga qarshi, xam Yaponiyaga qarshi harbiy xarakatlarning olib borilganligi bo'ldi.

Bunday strategiya AQSH va Angliya xukmron doiralarning siyosatidan kelib chiqib, Ittifoq Ittifoqini urush davrida kuchsizlantirishga va jaxon bozorida o'zlarining asosiy raqiblari Germaniya va Yaponiyani yo'q qilishga yo'naltirildi.

Ikkinchi jaxon Urushida ittifoqchilarning Qurolli Kuchlari, vaziyatning xar xil sharoitida, xar xil harbiy-xarakatlar teatrida xujumkor va mudofaa janglarini olib borish tajribasiga ega bo'ldilar. Angliya-Amerika qo'mondonligining, maqsadlarni, vazifalarni, qo'shinlar safini va operatsiyalarni o'tkazish usullarini uzoq muxokama qilish xarakteriga ega ekanligi, rejalarini ishlab chiqish uzoq vaqt davom etishi va ulardagi ortiqcha mufassalliklar, xarakatlar buning isbotidir.

Urush tajribasi Shuni ko'rsatdiki, Amerika qo'mondonligi xar qanday operatsiyani, dushman ustidan kuch va vositalar bo'yicha ustunlik yaratmasdan, xavoda aviatsiya xukumronligiga erishmasdan oldin boshlamaslikka xarakat qildi. Armiyalar va armiya guruxlarining xujum operatsiyalari dastlabki va bevosita aviatsiya va artilleriya tayyorgarligidan so'ng boshlanar edi.

Umuman ittifoqchilar qo'shinlarining g'arbiy Evropadagi jangovar xarakatlari, xar tomonlama, ayniqsa yirik dengiz-desant operatsiyasini tayyorlash va o'tkazishda, xamda xavo-desant birlashmalarini qo'llashda tajribaga ega ekanliklaridan darak beradi.

Ikkinchi frontning ochilishidan boshlab ittifoqchilar qo'shinlari bir-nechta operatsiyalarni o'tkazdilar, bunda Fransiyada, Belgiyada, Gollandiya, Lyuksemburg, Daniyada va Germaniyaning g'arbiy qismida fashistlarga katta talofatlar etkazdilar. Umuman ittifoqchilarning qurolla kuchlari Fashistlar Germaniyasining tor-mor etilishida ma'lum xissalarini qo'shdilar. Lekin AQSH va Angliya xukmron doiralarning reaksion siyosati Evropada ikkinchi frontni kamida ikki yilga kechiktirib, fashistlar Germaniyasining taqdiri ittifoq -german frontida butunlay xal qilingan paytda ochdilar. Ittifoq armiyasiga qarshi urushning oxirigacha Germaniyaning bosh kuchlari xarakatlanib, ularning safiga dushmanning jang olib borish qobiliyati o'ta yuqori bo'lgan qo'shinlar va aviatsiya birlashmalari xarakat qildilar.

G'arbiy Evropa harbiy xarakatlar teatrida 1944 yilning yozigacha ittifoqchilarning strategiyasi kutish xarakatiga ega bo'ldi, bu o'z navbatida harbiy maqsadlar bilan emas, balki Ittifoq ittifoqini maksimal kuchsizlantirishga va Germaniyaning dunyoga xukmronlik qilish uchun da'vogarligiga qarshi yo'naltirilgan AQSH va Angliya xukmron doiralarning

siyosatlarini bilan aniqlandi. Bu maqsadlar urushning oxirigacha ittifoqchilarning xarakterlarida asos bo'lib qoldi. 1944 yilning yozidan, sobiq ittifoqi bosqinchilarni o'z xududidan xaydab chiqargan va Evropa xalqlarini fashizm qulligidan ozod etishga kirishgan paytda, ittifoqchilarning harbiy strategiyalari ancha faollashib qoldi.

Qurolli kurashning aynan mana Shu davrida AQSH va Angliya xukmron doiralari ittifoq qo'shinlarining yo'llarini to'sishga va Germaniyaning va boshqa Evropa davlatlarining erlarini imkon qadar ko'proq bosib olishga xarakter qildilar, bundan maqsad, egallangan ushbu xududlarda urushdan keyingi yillarda o'z xukmronliklarini o'rnatish edi.

Harbiy san'at nuqtai-nazaridan ittifoqchilar qo'shinlarining yirik dengiz desant operatsiyalarini tayyorlash va o'tkazish tajribalari katta qiziqish uyg'otadi. Ularning muvaffaqiyatlarga erishishlari quyidagi omillar bilan xarakterlandi: desantlarni tushirish rayonlarini to'g'ri tanlash; kuch va vositalarni ushbu rayonlarda qat'iy ommalashtirish; dushmanni chalg'itish bo'yicha olib borilgan maskirovka tadbirlari; desant operatsiyalarini xar tomonlama xavodan va xavo-desant qo'shinlarini keng masshtabda qo'llash bilan ta'minlash.

Xujum operatsiyalarini o'tkazishdagi katta muammo-bu dushman mudofaasini yorib o'tish bo'ldi. Yorib o'tish tor frontda (3-8 km) odatda, armiya korpusi kuchlari bilan amalga oshirildi (Sen-Loning janubiy-g'arbiy, Gollandiya operatsiyasi). Dushmanni tor-etishdagi asosiy rol aviatsiyaga berildi. Dushmannig taktik mudofaa zonasini yorib o'tish sur'ati juda past bo'ldi. Bu avvalom bor, bosh zarba berish yo'nalishida xujumni olib borayotgan birlashmaning ko'p xollarda boshqa yo'nalishlarda xarakterlanayotgan qo'shinlarning faol xarakterlari bilan ta'minlanmaganli bilan tushintiriladi. Buning natijasida dushman frontning xali xujumga kirmagan guruxlarini olib, ittifoqchilarning bosh zarba berish yo'nalishlariga tashladi va ularning xujumlarini to'xtatib qoldi. Ittifoqchilarning xujumni olib borayotgan qo'shini dushmannig kichik bir qarshiligini sezishi bilan to'xtab qolgan. Aviatsiya jalb qilingan, faqat uning ommaviy zarbalaridan keyingina ittifoqchilar xujumni yana davom ettirganlar. Dala artilleriyasining taktik qalinligining kamligi (frontning xar km da 50-130 ta orudiya) xam dushman mudofaasini yorib o'tishda qiyinchiliklarni to'g'dirgan. Ayrim operatsiyalarda yorib o'tishni tezlatish uchun xavo desantidan foydalanilgan (Gollandiyadagi xujum, Reyinni kechib o'tishdi).

Armiya guruxlar va ikkinchi eshelonlar armiyalarining, xamda kuchli zaxiralarning operativ safda bo‘lmaganliklari (Normandiya desant operatsiyasi bundan istisno) taktik muvaffaqiyatni operativ muvaffaqiyatga aylantirish vazifasi, dushman mudofaasi taktik zonasini yorib o‘tishda ishtirok etgan armiya korpusining kuchlari bilan xal qilindi. O‘z safida 1-2 ta zirxli tank, 1-2 ta, ayrim xollarda esa undan ko‘p bo‘lgan piyodalar diviziyalariga ega bo‘lib, ular o‘z jangovar tartiblarini ikki eshelonda qo‘rganlar. Ikkinchi eshelonda odatda, zirxli tank guruxlari ajratilib, ularga xam taktik mudofaa zonasini yorib o‘tishni tugatish, xam muvaffaqiyatni operativ chuqurlikda rivojlantirish vazifasi yuklatilgan. Xarakatlanish sur‘ati bir sutkada 10 km dan oshmagan, faqat urushning oxirgi davradagi jangovar xarakatlarda sutkada 20 km ga etdi (1945 yilning aprelida).

Mudofaa operatsiyalari odatda, dushmanni to‘satdan berilgan xujumini qaytarish bilan boshlangan, bu razvedkaning noto‘g‘ri ma‘lumoti, dushman mudofaasini va uning kuchvositalari va imkoniyatlarini pisand qilmaslikning oqibatidir. Mudofaa kam chuqurlikda tayyorlanib, kerakli muxandislik inshootlari bilan jixozlanmagan. Shu bilan birga mudofaani operativ chuqurlikda olib borishning ijobiy tomonlari xam bor edi: dushman mudofaasini yorib o‘tish uchastkasiga tezkorlik bilan qo‘shin guruxlarini to‘plash, xamda dushman xujumini barbod etish uchun aviatsiyadan keng foydalanish.

Umuman ittifoqchilarning g‘arbiy Evropadagi jangovar xarakatlari ularning turli tajribalarga ega ekanliklarini, ayniqsa dengiz desant operatsiyalarini tayyorlash va olib borishda va xavo-desant birlashmalarini qo‘llashda katta ko‘nikmalarini kzsatadi.

Evropada ittifoq -german urushining g‘alaba bilan tugashi, butun Ikkinchi jaxon urushining oqibatini aniqlab berdi. Ittifoq xalqi tinchlik davri vazifalarini xal etishga kirishishi mumkin edi. Lekin Uzoq Sharqda va Tinch okeanida xali xam urush alangasi yonib turar edi.

Urush xarakatlari Uzoq Sharq chegaralarida olib borilayotgan edi va ittifoq xalqi urush o‘chog‘i va agressiya raxna solib turgan ekan osoyishta, xotirjam yashay olmas edi. Tezlik bilan bu alangani o‘chirish va insoniyat uchun uzoq kutilgan tinchlikni ta‘minlash talab qilinar edi.

Mana nima uchun, yaqindagina fashistlar Germaniyasini tor-mor etgan davlat, ittifoqchilik majburiyatlarini bajarib Yaponiyaga qarshi urushga kirishi kerak edi.

Shunday qilib, o'zining ittifoqchilik majburiyatlarini bajarib, Ikkinchi jaxon urushini tezroq tugatish uchun va Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarini urush azob-uqubatlaridan qutqarish, xamda Uzoq Sharqdagi chegaralari va davlat manfaatlari xavfsizligini ta'minlash uchun, sobiq Ittifoqi Yaponiya militaristlariga qarshi urushga kirdi.

#### **9.24.Sobiq ittifoqning Yaponiyaga qarshi urush boshlashining sabablari.**

Evropada ittifoq-german urushining g'alaba bilan tugashi, butun Ikkinchi jaxon urushining oqibatini aniqlab berdi. Ittifoq xalqi tinchlik davri vazifalarini xalq etishga kirishishi mumkin edi. Lekin Uzoq Sharqda va Tinch okeanida xali xam urush alangasi yonib turar edi.

Urush xarakatlari Uzoq Sharq chegaralarida olib borilayotgan edi va Ittifoq xalqi urush o'chog'i va agressiya raxna solib turgan ekan osoyishta, xotirjam yashay olmas edi. Tezlik bilan bu alangani o'chirish va insoniyat uchun uzoq kutilgan tinchlikni ta'minlash talab qilinar edi.

Mana nima uchun, yaqindagina fashistlar Germaniyasini tor-mor etgan davlat, ittifoqchilik majburiyatlarini bajarib Yaponiyaga qarshi urushga kirishi kerak edi.

Militaristik Yaponiya tomonidan urushning davom ettirilishi xalqaro axvolning xaddan tashqari keskinlashuviga, ittifoqning manfaatlariga va Uzoq Sharqdagi chegaralariga raxna solib turar edi va Yaponiya militaristlari agressiyasi qubonlariga olib kelar edi. Sobiq Ittifoqning Yaponiyaga qarshi urushga kirishi, 1945 yil fevral oyida Yalta konferensiyasida aniqlangan edi. Bu konferensiyada Ittifoq, Amerika va Angliya davlat raxbarlari oldida, Evropada urush xarakatlari tugagandan so'ng uch oy o'tgach Yaponiyaga urush ochish majburiyatini olgan edi.

Yaponiya xukmron doiralarining agressiv xarakatlari, fashistlar Germaniyasining sobiq Ittifoqiga qarshi urushini bevosita qo'llab-quvvatlashlariga qaratildi. Shuning uchun Ittifoq ukumati to'liq asos bilan 1945 yil 5 aprelda Sobiq Ittifoqi bilan Yaponiya o'rtasida, 1941 yil 13 aprelda imzolangan betaraflik to'g'risidagi pakti bekor qildi.

Shunday qilib, o'zining ittifoqchilik majburiyatlarini bajarib, Ikkinchi jaxon urushini tezroq tugatish uchun va Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlarini urush azob-uqubatlaridan qutqarish, xamda Uzoq Sharqdagi chegaralari va davlat manfaatlari xavfsizligini ta'minlash uchun, Sobiq Ittifoqi Yaponiya militaristlariga qarshi urushga kirdi.

Shu munosabat bilan, 1945 yil 8 avgustda ittifoq xukumati, Sobiq Ittifoqi 9 avgustdan o‘zini Yaponiya bilan urush xolatida deb e’lon qildi.

Sobiq Ittifoqining Yaponiyaga qarshi urushga kirishi adolatli akt bo‘lib, Yaponiya militaristlari raxna solib turgan Ittifoq davlati va boshqa davlatlar manfaatlarini ximoya qilishga yo‘naltirilgan edi. Ittifoq xalqi va uning Qurolli Kuchlari, Uzoq Sharqda urush o‘chog‘ini o‘chirish, tinchlikni tiklash va Er sharining ushbu qismida adolatni o‘rnatishga kirishdi.

Yaponiyaga qarshi urushga kira turib, Sobiq Ittifoqi quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ydi:

- Yaponiya militarizmini tor-mor etish va Ikkinchi jaxon urushining tugashini tezlatish;
- Mamlakatni yapon agressorlari zulmidan butkul qutqarish;
- Xitoy, Koreya va Osiyoning boshqa davlatlariga milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurashlarida yordam berish; Ittifoqchilar oldidagi majburiyatlarini bajarish.

**Manjuriya operatsiyasi jangovar xarakatlarning borishi. Yaponiya qo‘shin guruxlari va mudofaa xarakteristikalari.**

Yuzaga kelgan vaziyatni xisobga olib, Yaponiya xukumati egallangan xududlarda strategik mudofaaga o‘tishni, urushni uzoq vaqtga cho‘zishni, ittifoqchilar qo‘shinlariga katta talofatlar etkazishni va natijada tinchlik sulxini tuzish uchun qulay sharoitga erishishni rejalashtirdi. Bundan tashqari, Yaponiya xukmron doiralari, yapon qo‘shinlarining shiddatli qarshiliklari, ittifoqchilarni so‘zsiz kapitulyasiya qilish talabidan voz kechishga majbur etadi deb ishongan edilar. Yana ular, Sobiq ittifoq bilan AQSH va Angliya o‘rtasida kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishga va buning natijasida separat tinchlik sulxini tuzish osonlashishiga ko‘proq ishongandilar.

Obiq ittifoqning Yaponiyaga urush boshlashi bilan jangovar xarakatlar Xitoyning shimoliy-Sharqida, Shimoliy Koreyada, Saxalin orolining janubiy qismida va Kuril orollaridagi katta xududlarda avj olib ketdi. Yuqorida ko‘rsatilgan xududlarda Manchjou-Go, va Ichki Mongoliya qo‘shinlari bilan Yaponiya qo‘mondonligi 1,2 mln odam, 1200 ta atrofida tanklar, 6260 ta orudiya va minomyotlar, 2000 ta atrofida samolyotlardan iborat yirik qo‘shin guruxini jamladi.

Manchjuriya va Koreya xududlarida yaponlar 17 ta kuchli istexkomlarni yaratib, ularning xar biri front buylab 20-100 km, chuqurlikda 40 km masofada joylashgan bo'lib, 4500 ta uzoq vaqtga mo'ljallangan o't ochish inshootlariga ega edi.

Yaponiya qo'shinlarining asosiy kuch guruxi Kvantun armiyasi bo'lib, uning safida 1 mln. ta atrofida odami bor edi.

Yaponiya qo'mondonligining rejasi, kuchli istexkomlarga tayanib va qulay tabiiy marralardan foydalanib, kuchlarning bir qismi bilan Qizil Armiya qo'shinlarini chegarabuyi chiziqlarida to'xtatib qolishdan iborat edi. Yaponiya qo'mondonligi, Ittifoq qo'shinlariga qarshi zarbalar berish uchun bosh kuchlarini Markaziy Manchjuriyada jamladi. Qizil Armiya qo'shinlari Manchjuriya ichkarisiga yorib kirgan vaqtda, ularni dastlabki marraga uloqtirib tashlab, qulay sharoit yaratilgan vaqtda qat'iy xujumga o'tib, ittifoq Primoresini va Xabarovsk o'lkasini egallash ko'zda tutildi.

Yaponiya qo'mondonligi Ittifoq qo'shinlarining asosiy zarbasini Primore yo'nalishidan kutgan edi. Shuning uchun bu erda eng kuchli gurux yaratildi. Mongoliya Xalq Respublikasi tomonidan xujum qilinishi extimoli kam deb qaraldi, chunki oldinda katta qo'shin bilan o'ta olish imkoniyati yo'q Ichki Mongoliyaning suvsiz Gobi cho'llari va Katta Xingan tog' tizmasi yotardi. Shuning uchun Mongoliya Xalq Respublikasi Manchjou-Go qo'g'irchoq davlatining va mongol beklarining kam sonli qo'shinlari bilan yopib turildi.

Shunday qilib, yaponlar guruxining zaif qismi Kvantun Armiyasining chap qanoti bo'ldi. Mana Shu joylardan Ittifoq qo'shinlari uchun qisqa, Markaziy Manchjuriyadagi yaponlarning asosiy guruxining front ortiga o'tadigan yo'l o'tar edi.

Bu xolat Ittifoq qo'mondonligi rejasining asosini tashkil etdi.

### **Sobiq ittifoq qo'shinlarining guruxlari.**

Yapon qo'shinlarini tor-mor etish uchun ittifoq Oliy Bosh qo'mondonligi Uzoq Sharqda uchta frontni yoydi: Baykalorti, 1-, va 2-Uzoq Sharq frontlari. Uchala front o'z safida 1,5 mln. odamga, 26 000 ta orudiya va minomyotlarga, 5250 ta tank va O'YUAQ (SAU) larga va 3800 ta samolyotlarga ega edi. Bundan tashqari, operatsiyaga qatnashish uchun, o'z saflarida 600 ta jangovar kemalarga ega bo'lgan Tinch okean floti, Amur daryo flotiliyasi, xamda ittifoq -mongol Generallik o'tliq - mexanizatsiyalashgan guruxi jalb etildi. Ittifoq qo'shinlari dushmandan: odamlar bo'yicha-1,2 marta, orudiyalar bo'yicha-4,2 marta, tanklar bo'yicha-4,8 marta, samolyotlar bo'yicha-1,9 marta ustunlikka ega bo'ldilar.

Bunday kuchlar va vositalar nisbati oldinda turgan jangovar vazifani muvaffaqiyatli bajarish imkoniyatini berar edi.

Operatsiyaga bevosita raxbarlik qilish uchun, Vladivostok shaxrida marshal A.M. Vasilevskiy boshchiligida Uzoq Sharqda Ittifoq qo‘shinlarining Bosh qo‘mondonligi yaratildi.

### **OBQ Stavkasining maqsadi.**

Sobiq Ittifoqining Yaponiyaga qarshi urushining maqsadidan kelib chiqib, ittifoq qo‘shinlari oldida-militaristik Yaponiyaning bosh zarbdor kuchi xisoblangan Kvantun armiyasini tor-mor etish, Ikkinchi jaxon urushi davrida Yaponiya tayangan Manchjuriya va Koreyadagi iqtisodiy bazalarni egallash va Shu bilan uni kapitulyasiya qilishga majbur etish vazifasi turar edi.

Manchjuriya strategik xujum operatsiyasining (1945 yil 9 avgust-2 sentyabr) maqsadi quyidagilardan iborat edi: Baykalorti, Amurbuylari va Primoredan bir vaqtning o‘zida bir-nechta markazlashgan zarbalarni berib, Kvantun armiyasining bosh kuchlarini qurshab olish va tor-mor etish. Urushning boshlanishi, to‘satdan zarba berish va xarakatchan birlashmalarni dushman ichkarisiga tezkorlik bilan kirib borishlari negizida tuzildi.

Asosiy zarbalarni bir-birovlariga tomon, Mongoliya Xalq Respublikasi xududidan Baykalorti fronti (Marshal R.YA.Malinovskiy) va Primoredan 1-Uzoq Sharq fronti (Marshal K.A.Meretskov) berishi kerak edi.

2-Uzoq Sharq fronti (armiya generali M.D.Purkaev), Baykalorti va 1-Uzoq Sharq frontlariga Kvantun armisining asosiy kuchlarini tor-mor etishda yordam ko‘rsatib, Xarbin va Sitsikarga xujum qilish vazifasini oldi.

16-armiya qo‘shinlari va Kamchatka mudofaa rayoni Saxalinning janubiy qismini va Kuril orollarini yapon shinlaridan tozalashlari kerak edi.

Tinch okean flotining (admiral I.S.Yumashev) asosiy vazifasi, Ittifoq portlarini va dengiz kommunikatsiyalarini ximoya etish va quruqlikdagi qo‘shinlarga Shimoliy Koreyadagi, Saxalin va Kuril orolaridagi portlarni, harbiy-dengiz bazalarni egallashda yordam ko‘rsatishdan iborat edi.

Uzoq Sharqda Ittifoq qo‘shinlarining xujumlaridan oldin, yirik kuch va vositalar g‘arbiy Evropadan Uzoq Sharqqa olib kelindi. Uchta umumqo‘shin va bitta tank armiyalarini qayta to‘plash o‘tkazildi.



Uzoq Sharqdagi qo‘shinlarning yangi jangovar texnika bilan qayta qurollanishi o‘tkazildi. Shtablar, qo‘mondon kadrlar, jangovar tajribalarga ega bo‘lgan ofitser va generallar bilan kuchaytirildi.

### **Manchjuriya operatsiyasining mazmuni**

Xal etilishi kerak bo‘lgan vazifalar xarakteri va qo‘shinlarning xarakat usullariga qarab operatsiya ikki davrga bo‘linadi:

a) To‘sib turuvchi yapon qo‘shinlarini tor-mor etish va Ittifoq qo‘shinlarining Markaziy Manchjuriya tekisliklariga chiqishlari (operatsiyaning birinchi davri 1945 yil 9-14 avgust)

Baykalorti fronti qo‘shinlari 1945 yil 9-avgust soat 00 dan 10 daqiqa o‘tganda artilleriya tayyorgarligisiz, kuchli ilg‘or otryadlari bilan Xingan-Mukden yo‘nalishiga jangovar xarakatlarni boshladilar. Soat 4.30 da frontning bosh kuchlari davlat chegarasidan o‘tdilar. 9 avgust erta tongda uchala frontlarning bombardimonchi aviatsiyasi va Tinch okean floti, yapon qo‘shinlarining muxim ob‘ektlariga, temir yo‘l stansiyalariga, shaxarlariga va mudofaa uzellariga, xamda Yuki, Rasin, Seysin va Koreya portlariga jamlangan zarbalarni bera boshladilar.

Baykalorti frontining tank birlashmalari, kuchli istexkomlarni aylanib o‘tib, Katta Xingan tog‘ining dovonlariga tezlik bilan xarakatlanib ketdilar. Kunning oxirida ular dushman ichkarichiga tomon 150 km gacha xarakatlandilar. Dushman qarshiligi zaif edi. U xujumga o‘tgan Ittifoq qo‘shinlarining siquvlariga dosh bera olmadi, chunki dushmanning bosh guruxlari ichkarida edi.

10 avgustda front qo‘shinlari xujumni rivojlantirishni davom ettirdilar, 6-gvardiyachi tank armiyasining birlashmalari esa Katta Xingan tog‘ining dovonlariga yaqinlashib keldilar. Dushman chekina boshladi. Baykalorti fronti qo‘shinlari shiddat bilan olg‘a xarakatlandilar.

13 avgust oxirida 6-gvardiyachi tank armiyasining bosh kuchlari Katta Xingan va Buyuk Xitoy devoridan oshib o‘tib Markaziy Manchjuriya tekisligiga chiqdilar va Mukden va Chanchunga shiddatli xujumni davom ettirdilar. Xujumning birinchi olti kuni ichida tank armiyasi 500 km ga olg‘a xarakatlandi.

Yaponlar tomonidan 12 avgustdan 14 avgustgacha o‘tkazilgan qarshi zarbalar muvaffaqiyat keltirmadi. Shiddatli xujumlarni xech qanday urinishlar to‘xtatib qola olmas edi.

Bu vaqtda general I. Plievning ittifoq -mongol otlig - mexanizatsiyalashgan qo‘shinlari 250-400 km ga olg‘a xarakatlanib Dolonnor shaxrini egalladilar, Djanbay va Kalgan shaxarlari uchun janglarni boshlab yubordilar.

Shunday qilib, dadil xarakatlar natijasida Baykalorti fronti qo‘shinlari tezlik bilan to‘sib turuvchi yapon qismlarini tor-mor etdilar va olti kunda Manchjuriya ichkarisiga tomon asosiy yo‘nalishlarda 350-400 km. xarakatlandilar. YApon qo‘shinlarining SHimoliy va SHimoliy-G‘arbiy Manchjuriyada, Kvantun armiyasining asosiy qo‘shinlari bilan bog‘lanish yo‘llari kesib qo‘yildi. Solun, Xaylar va Sitsikar yo‘nalishlarida qarshilikni davom ettirayotgan yapon qo‘shinlari, o‘zlarining yuqori shtablari va ta‘minlash bazalaridan ajratib qo‘yildi.

Baykalorti fronti qo‘shinlari bilan bir vaqtda, 9-avgustga o‘tar kechasi 1-Uzoq Sharq fronti qo‘shinlari Xarbin-Girin yo‘nalishlariga xujumni boshladilar. Soat 1.00 da front qo‘shinlarining ilg‘or otryadlari, kuchli yoqqan jala yomg‘iridan foydalanib, artilleriya tayyorgarligisiz yaponlarning mustaxkam istexkomlariga xujum qilib, istexkomlarning oralig‘idagi bo‘shliqlarga yorib kirib, dushmani bo‘laklarga bo‘lib tashlab, asosiy kuchlarga yo‘l ocha boshladilar. Tongda ilg‘or batalonlar dushman mudofaa ichkarisiga 3-6 km olg‘a xarakatlandilar.

Soat 8.30da frontning asosiy kuchlari xujumga o‘tdilar. Xamma yo‘nalishlarda dushman qattiq qarshilik ko‘rsatdi. Dushman qarshiligini engib o‘tib, xamma yo‘nalishlarda yaponlar mudofaasini yorib o‘tdilar va 20 km gacha oldinga xarakatlandilar.

Keyingi kunlarda frontning zarbdor guruxlari, kamikadzelardan (o‘limtiklar) foydalanib olib borilgan qarshi zarbalar natijasida ko‘rsatilayotgan qarshilik oshganligiga qaramasdan, Mudanszyan yo‘nalishida dushman mudofaasining ichkarisida xujumni olib bora boshladilar, Mudanszyanni aylanib o‘tib, 14 avgustda 120-150 km oldinga xarakatlandilar va Girin rayoniga yorib kirdilar. Shu vaqtgacha front qo‘shinlarining chap qanoti qo‘shinlari Shimoliy Koreyaga kirib keldilar va Tinch okeani floti bilan xamkorlikda yapon floti bazalari, Yuki va Rasinni egalladilar.

Shunday qilib, operatsiyaning birinchi davrida 1-Uzoq Sharq fronti qo‘shinlari yaponlarning uzoq vaqtga mo‘ljallangan mudofaasini yorib o‘tdilar, Sharqiy -Manchjuriya tog‘larini oshib o‘tib, nafaqat to‘sib turuvchi qismlarini balki, birinchi yapon frontining asosiy kuchlarini xam tor-mor etdilar.

2-Uzoq Sharq fronti davlat chegarasini kesib o'tdi va 9-avgust soat 1.00 da Amur daryo flotilyasi bilan Amur va Ussuri daryolarini kechib o'tdi, shiddatli janglarni olib borib, Manchjuriya ichkarisiga Xarbin yo'nalishiga xarakatlana boshladi. 14-avgust oxirida 2-Uzoq Sharq fronti qo'shinlari 50 km dan-200 km gacha olg'a xarakatlandilar.

Shunday qilib, 14 avgust oxirida, ya'ni xujumning oltinchi kunida uchala frontlarning qo'shinlari, dushman bilan qattiq jang xarakatlarini olib borib, xamma yo'nalishlarda dushman qarshiligini sindirdilar, bu xarakatlari bilan Kvantun armiyasini bir necha qismga bo'lib tashladilar va ularni batamom tor-mor etish uchun qulay sharoit yaratdilar.

b) Ittifoq qo'shinlari xujumlarining rivojlanishi va Kvantun armiyasining kapitulyasiyasi operatsiyaning ikkinchi davrini tashkil etdi (1945 y. 15 avgust-2 sentyabr).

15 avgustda Baykalorti fronti qo'shinlari xamma yo'nalishlar bo'yicha Katta Xingan tog' tizmasidan oshib o'tdilar va Katta Manchjuriya tekisliklariga chiqdilar. 6-gvardiyachi tank armiyasi hech qanday qarshilikka uchramay Mukden va Chanchunga tomon xarakatlana boshladi. Qolgan qo'shinlar xujumni Kalgan va Sitsikarga olib bordilar.

1-Uzoq Sharq fronti qo'shinlari 16 avgustda Mudanszyanni egalladilar va xujumni Xarbin va Giringa rivojlantirdilar. YApon qo'shinlari tartibsiz ravishda g'arbga va janubiy-g'arbga chekina boshladilar.

Frontning chap qanot qo'shinlari 15 avgustda Vansin shaxrini, Tinch okean floti desanti esa Sensin harbiy-dengiz bazasini egalladilar. Ittifoq qo'shinlari bu yo'nalishda SHimoliy Koreya xududlariga shiddat bilan xarakatlana boshladilar.

2-Uzoq Sharq fronti oldida yapon qo'shinlari 15 avgustda Xarbinga chekina boshladilar, bu Baykalorti va 1-Uzoq Sharq fronti qo'shinlarining, ularning front ortiga chiqishlari bilan boshlandi.

Ittifoq qo'shinlarining shiddatli xujumlari va Kvantun armiyasining tor-mor etilishi muqarrarligi, yapon qo'mondonligini Ittifoq qo'mondonligining so'zsiz kapitulyasiya to'g'risidagi talabini bajarishga majbur etdi. 19 avgustdan Manchjuriyada yapon qo'shinlari frontning katta qismida kapitulyasiya talablarini bajarishni boshladilar, qo'shinlarimiz Kvantun armiyasi askarlarini quolsizlantirishga, kapitulyasiya qilgan qo'shinlarni qabul qilishga va Manchjuriya va SHimoliy Koreyani yapon bosqinchilaridan ozod etishga kirishdilar.

Dushman kapitulyasiyasini qabul qilish, Xarbin, Dalniy, Port-Artur, Pxenyan va boshqa shaxarlarda tartibni saqlash va moddiy boyliklarni ximoya etish uchun xavo desantlari tushurildi va ular joylarda garnizonlarni qurolsizlantirdilar. Manchjuriyada jang xarakatlarining boshlanishi bilan 2-Uzoq Sharq fronti qo'shinlari (16-armiya) Tinch okean floti bilan birgalikda Janubiy Saxalinni (1945 y. 11-25.08) va Kuril orollarini (1945 y. 18.8-1.09) ozod etishga kirishdilar.

Quruqlikdagi va dengiz kuchlarining aviatsiya qo'llab-quvvatlovidagi Generallik murakkab xujumlari bilan Janubiy Saxalinda dushman qarshiligi sindirildi va 25 avgustda u erda dushman kuchlarini tor-mor etish tugatildi.

Kuril orollarida joylashgan ommaviy yapon qo'shinlari Yaponiya Qurolli Kuchlarining Manchjuriyadagi mag'lubiyati munosabati bilan kapitulyasiya qildi. Yapon qo'shinlarini qurolsizlantirish va asirga olishni tezlatish uchun xarkatchan otryadlar va xavo desantlari tashkil etilib, boshqa orollarga jo'natildi.

Kvantun armiyasining tor-mor etilishi bilan Yaponiya xukumati SSSRga, AQSH va Angliyaga xam qarshi urushni davom ettira olmasligini tan oldi va 1945 yil 2-sentyabrda Yapon dengizida, AQSH XDF linkori «Missuri» bortida so'zsiz kapitulyasiya to'g'risidagi akti imzoladi. Dushmanning kichik-kichik guruxlari bilan janglar 1945 yilning 9-sentyabrigacha davom etdi.

1945 yil 9 avgustdan–2 sentyabrigacha Ittifoq Armiyasi Manchjuriyada yaponlarning 22 ta diviziyasini tor-mor etdi. Yaponlar, o'lganlar bilan faqat 800 mingdan ortiq odamini yo'qotdi, 500 mingdan ortiq askar va ofitserlari asirga olindi, jumladan 148 generallar, xamda Kvantun armiyasining xamma qurol-yarog' va anjomlari egallandi.

Shunday qilib, militaristik Yaponiyaning tor-mor etilishi natijasida Ikkinchi jaxon urushning oxirgi o'chog'i o'chirildi, butun dunyoda tinchlik o'rnatildi va Yaponiyaning ittifoqga ta'udidi bartaraf etildi. Ittifoq Ittifoqiga Saxalinning janubiy qismi qaytarildi va Kuril orollari berildi, bu bilan davlatning okean bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqasi tiklandi va Sharqda mudofaa bazasi mustaxkamlandi.

Ittifoq Qurolli Kuchlarining Uzoq Sharqdagi g'alabasi Manchjuriya va Shimoliy Koreyani yapon bosqinchilaridan ozod etib, Xitoy xalqining Amerika monopolizmi tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan ichki reaksiyaga qarshi milliy ozodlik xarakati kurashlarining keng yoyilishi va g'alaba bilan tugashi uchun qulay sharoit yaratdi.

Militaristik Yaponiyaning magʻlubiyati, mustamlaka qulligiga qarshi oʻz milliy mustaqilligi uchun Xindiston, Xindixitoy, Indoneziya va Janubiy-Sharqiy Osiyodaga boshqa mamlakatlar xalqlarining milliy-ozodlik xarakatlarining keng avj olishiga olib keldi.

1945 yil avgustdagi Ittifoq Qurolli Kuchlarining Uzoq Sharqdagi jangovar xarakatlari, Ittifoq harbiy sanʼatini, Uzoq Sharq harbiy-xarakatlar teatrida (XXT) yirik xujum operatsiyalarni tabiatning qiyin sharoitlarida amalga oshirish tajribasi bilan boyitdi.

1941-1945 yillarda Tinch okeanidagi harbiy xarakatlar Yaponiya uchun strategik va siyosiy vaziyatning yomonlashgan sharoitlarida rivojlandi.

1944 yilda Yaponiya xukmron doiralari, Ganges, Markus, Ueyk, Marshal orollarida, Yangi Gvineyaning Sharqiy qismida, Indoneziya, Malayi va Birma orollarida kuchli mudofaani yaratib, Amerika-Angliya qoʻshinlarini keyingi xarakatlariga yoʻl qoʻymaslikka xarakat qildilar. Bu bilan birga Xitoyga xujumni rivojlantirib, Markaziy va Janubiy Xitoyni egallab, Osiyo qitʼasida mustaxkam oʻrnashib ular, qoʻshimcha zaxiralarni olib kelib urushni davom ettirishni rejalashtirdilar.

Yaponiyaning quruqlikdagi qoʻshinlarining asosiy kuchlari va aviatsiyasi Xitoyda, Manchjuriyada, Koreyada va metropoliyada jamlandi, faqat 13 ta diviziya, 600 tagacha samolyotlar va Generallik flot (3 ta liniyachi kemalar, 4 ta avianosetslar, 16 ta kreyslerlar, ikkita suv osti kemalari eskadrasi va bir nechta eskadra minonosetslar) Tinch okeani orollarida joylashdi.

Yaponiya XDF ning asosiy kuchlari xam metropoliyadagi bazalarda va Janubiy-Xitoy bazalarida joylashtirildi.

Umuman yapon qoʻmondonligi tomonidan Tinch okeanida operatsiyalarni oʻtkazish uchun ajratilgan kuchlar etarli emas edi.

Shu vaqtga kelib ittifoqchilar Tinch okeanida dushman ustidan aviatsiya va flot boʻyicha ustunlikni yaratdilar. Ular 24 tacha atrofida diviziyalarga, 16 ta liniyachi kemalarga, 33 ta kreyslerlarga, 35 ta avianosetslarga, 280 ta esminetslarga va 4150 ta samlyotlarga ega edilar. Ularning qoʻshin guruxlari tarqoq xolda emas edi. Tinch okeanining markaziy qismida admiral Nimetsning operativ guruxi xarakatlanayotgan edi (3, 5-desant korpuslari, 3, 5-flotlar va 7-uchavo armiyasi). Okeanning Janubiy-Gʻarbiy qismida general Makarturaning operativ guruxi joylashdi (6-amerika va 1-avstraliya armiyalari, 7-flot va 5-xavo armiyasi). Angliya-Amerika qoʻshinlari dushman ustidan diviziyalar soni

bo'yicha ikki marta, aviatsiya va XDF bo'yicha bir-necha marotaba ustunlikka erishdilar, bu ularga keng ko'lamli xujum xarakterlarini olib borish imkoniyatini berdi.

Lekin Amerika-Angliya qo'mondonligining 1944 yildagi rejalarini yil oxirida Filippin va Ryukko orollariga qarshi xarakterlariga qulay sharoit yaratish uchun asta-sekin yaponlarni Marshall, Karolin va Mariin orollaridan xamda Yangi Gvineyadan siqib chiqarishni ko'zda tutdi.

Tinch okeanining Markaziy qismida jang xarakterlari 2-fevralda boshlandi. Fevral davomida ittifoqchilar qo'shinlari Marshall orollarini egalladilar.

10 avgustda ular Mariin orollarini egallashni tugatdilar, sentyabrda esa Palau va Ulugi orollarini bosib olish bilan Karolin orollaridagi yapon garnizonlarini qurshab oldilar. 1944 yil 15 iyunda amerikaliklar birinchi marta napalmli aviatsiya bombalarini Saylan orolida qo'lladilar.

Shu davr mobaynida general Makarturaning operativ guruxi Admiralteystv guruxidagi asosiy orollarni va Yangi Gvineya orolining katta qismini egalladi.

Ittifoqchilar qo'shinlarining Yangi Gvineya orollari g'arbiy qirg'oq bo'ylariga chiqishlari va ular tomonlaridan Morotay orollarining bosib olinishi, Filippin orollarini egallash uchun operatsiyalarni o'tkazishga qulay sharoit yaratdi. Filippin orollarini 14-yapon armiyasi (6 ta diviziya, 1 ta brigada) mudofaa etayotgan edi. Xavo xujumlaridan ximoya etish uchun ular, 600 tagacha baza, 120 ta atrofida avianosets samolyotlarini jalb etishlari mumkin edi. Filippin rayonida yirik XXK yo'q edi.

Amerika qo'mondonligi avval. Leyte orolini, keyin qolgan orollarni egallashga qaror qildi. Bu vazifani bajarish uchun 6-Amerika armiyasi va ikkita zaxira diviziyalari (200 ming odam), 3-, 7-flotlar (885 tagacha kemalar, jumladan 30 ta avianosetslar) va 1580 ta samolyotlar (1280 tasi avianosetslarda) jalb etildi.

Desant tushurilishi 20 oktyabrda kema artilleriyasi va aviatsiya zarbalari to'suvi ostida boshlandi. Yapon qo'mondonligi vaziyatni tiklash uchun flotning asosiy kuchlari bilan (9 ta linkor, 4 ta avianosets, 19 ta kreyserlar va 33 ta eskadra minonosetslari) yashirincha Filippin orollariga chiqishga va to'satdan ittifoqchilar flotiga zarba berishga qaror qildi. Lekin yaponlarning orollar tomon xarakterlanayotganligini Amerika razvedkasi o'z vaqtida aniqladi.

1944 yil 23-25 oktyabrlarda Engano burnining Sharqida Samar orolida Surigao ko'rfazida flotning janglari keng qanot yoydi. Bu Ikkinchi jaxon urushidagi eng katta dengiz jangi bo'lib, unda dengiz jangini olib borish taktikasidagi katta o'zgarishlar ko'zga tashlandi. Yaponiya floti, dushmandan avianosetslar bo'yicha kuchsizligi sababli, liniyachi kemalar va kreysrlarning zarba berish kuchlaridan maksimal foydalanishni maqsad qilib qo'ydi. Amerika floti avianosets aviatsiyalari bo'yicha ustunlikka erishgan bo'lib, yapon kemalariga, ular yaqinlashib kelgunlariga qadar zarba berish imkoniyatiga ega edi. Bundan tashqari, radiolokatsion texnika bo'yicha ustunlik, amerikaliklarga boshqaruvni, razvedkani yaxshi tashkil etish, xamda jangni tungi sharoitlarda samarali olib borish imkoniyatni berdi.

Bu ustunlikdan foydalangan Amerika floti dushmanni tor-mor etdi. Uch kunda yaponlar 4 ta avianosetsini, 3 ta liniyachi kemalarini, 10 ta kreysrlarini, 11 ta esminetslarini yo'qotdilar. Dengiz jangining oqibati butun desant operatsiyasi taqdirini xal etdi. 22-dekabrda Leyta orolidagi yapon garnizoni kapitulyasiya qildi.

Shunday qilib, 1944 yil oxirida harbiy xarakatlar Tinch okeani zonasidan Janubiy Xitoy daryosiga va Yaponiyaning yaqin bo'sag'alariga o'tkazildi.

Osiyo qit'asida yaponlar 1944 yilda o'z bosqinchilik maqsadlarini amalga oshira olmadilar. Xitoyda keng quloch yoygan partizanlar xarakati va Xitoy qo'shinlarining faol xarakatlari yaponlarning Markaziy Xitoyni okkupatsiya qilish rejalarini barbod etdi.

Ittifoqchilar qo'shinlari Birmalik vatanparvarlar bilan xamkorlikda shimoliy Birmani yaponlardan tozaladilar. Xindixitoy va Indoneziyada xalq ozodlik xarakatlari keng qanot yoydi. Ayniqsa Yaponiyaning harbiy-siyosiy vaziyatining yomonlashuviga, agressiya bo'yicha uning sherigi xisoblangan Germaniyaning xalokat yoqasida qolganligi va uning Yaponiyaga xar qanday yordam ko'rsatish imkoniyatidan maxrum etilganligi katta ta'sir ko'rsatdi.

Yaponiya xali xam yirik quruqlikdagi qo'shnlarga, katta odamlar va strategik xom ashyo zaxiralariga ega bo'lib, qurolini qo'yib mag'lubiyatni tan olgisi kelmas edi.

Ittifoqchilar qo'mondonligi 1946 yilning baxorigacha, uzoq vaqt urush olib borishni ko'zda tutdi, lekin ularning kerakli miqdordagi quruqlikdagi qo'shinlari mintaqada yoq' edi. Shuning uchun AQSH va Angliya xukumatlari Yalta konferensiyasidan oldin SSSRdan yordam so'rab murojaat etishga majbur bo'ldilar. Ittifoq Ittifoqi, Ikkinchi jaxon urushini tezroq tugatish va Osiyo xalqlarini yaponlar qulligidan xalos bo'lishlariga yordam berish

maqsadida, fashistlar kapitulyasiyasidan keyin uch oy o'tgach YAponiga qarshi urushga kirishga rozilik bergan edi.

Bunday quvvatlovga tayangan Amerika-Angliya qo'shinlari, Filippin orollari arxipelagida jangovar xarakterlarni boshladilar va bu xarakatlar 1945 yilning 5-iyuligacha davom etdi. Filippin orollari uchun janglar davrida, Ivodzuma orolini egallash maqsadida operatsiya o'tkazildi. Ushbu orollarning egallanishi bilan Amerika xavo kuchlari, bevosita Yaponiya xududlariga xavo atakalarini kuchaytirish uchun qo'shimcha aerodromlarga ega bo'ldilar.

Shu bilan bir vaqtda Tinch okeanidagi Okinava orolini egallash uchun eng yirik operatsiyalardan biri o'tkazildi. Bu orol metropoliya va Osiyo qit'asi bo'sag'alarida joylashgan bo'lib, aerodromlarni qurishga qulay va flot uchun yakor to'xtash joylariga ega edi, bu erda yirik quruqlikdagi qo'shinlarni joylashtirish imkoniyati katta edi. Orolni 90 mingta atrofida yapon qo'shinlari mudofaa qildi. Xavodan ularni 250 ta samolyotlar ximoya etib turdi.

Ittifoqchilar qo'mondonligining rejasi, orolni bosib olish uchun yirik desantni orolning kuchsiz ximoyalangan g'arbiy qirg'oq bo'ylariga tuShurishni ko'zda tutdi. Keyinchalik xujumni Sharqiy , shimoliy va janubiy yo'nalishlarda rivojlantirib, dushman kuchlarini bo'laklarga bo'lib tashlab, keyin ularni tor-mor etish ko'zda tutildi. Operatsiyani o'tkazish uchun 10-Amerika armiyasi (4 ta pd, 3 ta dengiz piyodalari diviziyalari), 5-Aamerika floti, Angliya avinosets birlashmalari-xammasi bo'lib 450 ming odam, 13717 ta jangovar va yordamchi kemalar va 1727 ta samolyotlar jalb etildi.

1-aprelda, kuchli artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin orolning g'arbiy qirg'oq bo'ylariga desant tuShurilishi boshlandi. Kunning oxirida 50 mingtagacha odamlar va 200 ta suzuvchi tanklarni tuShurishga muvaffaq bo'lindi. 5- aprelda qo'shinlar dushman garnizonini bo'laklarga bo'lib tashlab orolning Sharqiy qirg'oq bo'ylariga etdilar. Yaponlarning, desant operatsiyasini, o'z flotlarining kam sonli kuchlari va kamikadzelardan tashkil topgan samolyotlar ekipajlarini ommaviy qo'llab, operatsiyani barbod etish uchun xarakatlari amalga oshmadi. 22-iyunda orol ittifoqchilar tomonidan to'lig'icha bosib olindi.

Okinava orolini bosib olish bo'yicha o'tkazilgan operatsiya ittifoqchilarning Tinch okeani xavzalaridagi so'nggi operatsiyalari bo'ldi, Shundan keyin metropoliya orollariga bostirib kirish uchun tayyorgarlik ko'rila boshlandi.



Shu vaqtga kelib, Yaponiyaning axvoli butkul yomonlashib ketdi. gitlerchilar Germaniyasi kapitulyasiya qildi va Yaponiya yakkalinib qoldi. Xalq ozodlik xarakatlari qariyb butun Janubiy-Sharqiy Osiyo davlatlarini qamrab oldi.

Sobiq Ittifoqi Yaponiyaga qarshi urushga kirishga tayyorlana boshladi. Shunga qaramasdan 1945 yil 6 va 9 avgust kunlarida AQSH xumron doiralarining buyruqlariga ko'ra Yaponiyaning Xirosima va Nagasaki shaxarlariga atom bombalari tashlandi. Atom bombalarining qo'llanishi harbiy-nuqtai nazaridan xech-bir kerakligi yo'q edi. Shu bilan birga atom bombalarining qo'llanishi Yaponiyani kapitulyasiya etgan asosiy omil emas edi. Faqat Yaponiyaning asosiy zarbdor kuchi bo'lgan Kvantun armiyasining tor-mor etilishi va Manchjuriya va Koreyadagi muxim iqtisodiy bazalarning qo'ldan ketishi, 1945 yil 2-sentyabrda Yaponiyaning so'zsiz kapitulyasiya to'g'risidagi aktini imzolashga majbur etdi va Shu bilan Ikkinchi jaxon urushi tugadi.

Tinch okeanidagi harbiy xarakatlar o'z xarakteri va olib borilish xususiyatiga ko'ra Evropada olib borilgan urushlardan ancha qolishar edi. Ittifoqchilar tomonidan bu xarakatlarda 4 ta dala armiyalari, uchta flot, uchta xavo armiyalari xamda quruqlikdagi qo'shinlar, harbiy dengiz va xavo kuchlarining aloxida birlashmalari va qismlari qatnashdilar.

Harbiy xarakatlar Shuni ko'rsatdiki, operativ va strategik vazifalar odatda, Qurolli Kuchlar xamma turlarining birgalikdagi xarakatlari bilan xal etildi. Urush xarakatlari avval AQSH va Angliyada xukm surgan flotda liniyachi kemalarning bosh rolini o'ynash nazariyasini bekor qildi. Ularninig o'rnini tez xarakatlanuvchi avianosetslar egalladi. Ko'pgina dengiz janglari va to'qnaShuvlarida jangning oqibatini avianosetslar aviatsiyasi xal etdi.

Ittifoqchilar qo'shinlarining jangovar xarakatlari, Tinch okeani xavzalarida jangovar desant operatsiyalarini tayyorlash va olib borish bo'yicha harbiy tarixning ayrim ochilmagan qirralarini ochib berdi. Dengiz desant operatsiyalarining ko'pchiligida ishtirok etgan quruqlikdagi qo'shinlar bir-ikkita diviziyadan oshmadi. Faqat aloxida yirik operatsiyalarda (Leyte, Luson va Okinava orollarini bosib olishda) quruqlikdagi qo'shinlar diviziyalarining soni ettitaga etdi. Lekin xamma xollarda xam quruqlikdagi qo'shinlarning xarakatlari yirik aviatsiya va flotning kuchlari bilan qo'llab-quvvatlanib turildi.

Operatsiyalarga tayyorgarlik 2-3 oy davomida olib borildi. Bunda asosiy e'tibor razvedkani tashkil etishga, xavoda xukmronlikka erishishga va zarbani to'satdan berishga qaratildi.

Desant tushurish rayoni aniqlanayotganda, aerodrom va harbiy dengiz bazalarini tezlik bilan qurish uchun qulay, bitta ikkita orollar tanlanar edi. Ular egallanganidan keyin boshqa orollarning egallanishi yoki qurshovga olinishi amalga oshirilar edi. Bu, kuch va vositalarni ommalashtirishga imkon yaratib, dushman ustidan qat'iy ustunlikni ta'minlar edi.

Dengiz desantini tushurish artilleriya va aviatsiya tayyorgarligidan keyin, odatda ertalabki soatlarda, qiqqa muddatlarda amalga oshirilar edi. Diviziya 2-6 km li, armiya korpusi 4-12 km li uchastkalarda tushurildi. Qism va birlashmalarning jangovar tartiblari bir eshelonda qurildi. Desant tushurilganidan keyin xujum surati pasayib ketar edi, ayrim sutkalarda u yuzlab metrnlarni tashkil etar edi. Bu xammasi ittifoqchilar qo'shinlarining chakalakzorlarda jang olib borishga tayyor emasliklari, tekis, ravon yo'llarga bog'lanib qolganliklari, ularning qat'iysizliklari va o'ta extiyotkorliklari bilan tushuntiriladi. Yapon piyodalarning fanatlarcha qat'iy qarshiliklari, ularning chakalakzorlar, tog'liklar va tungi sharoitlardan moxirona foydalanishlari xam muxim omillardan biridir.

Dengiz desanti tushurilishini ta'minlashda juda ko'p avianos aviatsiyalari jalb qilindi (1500-2100 tagacha samolyotlar).

Kam sonli dala artilleriyasi desant operatsiyalarida qo'llanildi. Bu etishmovchilikni ittifoqchilar qo'mondonligi aviatsiya va kema artilleriyasi zarbalari bilan to'ldirishga xarakat qildi.

Desant tushurilishida birinchi eshelonlar safida suzuvchi tanklar keng qo'llanildi, platsdarmlarni egallash va ushlab turishda piyodalarning imkoniyatlari ancha oshdi. Zirni tank birlashmalari, harbiy xarakatlar teatrining xususiyatiga ko'ra keng qo'llanilmadi.

Tinch okeani orollari oralig'idagi masofalar kattaligi uchun ittifoqchilar flotining xarakatlanuvchi bazalarda joylashishi, ya'ni suzuvchi doklardagi birlashmalar, ustaxonalar, tankerlar, moddiy zaxiralar transport kemalari katta rol o'ynadi.

Tinch okeanidagi urushlarda cheklangan masshtablarda yangi kurash vositalari (atom bombasi, napalmlar, reaktiv snaryadlar), avvaldan ma'lum, lekin ancha takomillashgan vositalar (radiolokatsion, radionavigatsion vositalar, suzib yuruvchi omborlar va ustaxonalar va xar xil desant vositalari) qo'llanildi. Bu vositalarning ko'pchiligi urushdan keyingi yillarda o'zlarining keyingi rivojlanish bosqichlariga o'tdilar.

Umuman AQSH va Angliya Qurolli Kuchlari Tinch okeani xavzalaridagi jangovar xarakatlar mobaynida, dengiz desant operatsiyalarini tashkil etish va olib borishda katta tajriba orttirdilar.

**Germaniya fashizmi va Yaponiya militarizmi va ularning sheriklari ustidan qozonilgan buyuk g'alaba-jaxon tarixidagi va sobiq Sobiq Ittifoq Qurolli Kuchlari solnomasining sharaflari zarvarag'idagi olamshumul voqeadir.**

Ikkinchi jaxon urushining daxshatli soyasi Evropa, Osiyo va Afrikaning bepoyon xududlarini qamrab, jaxonning xamma okeanlari akvatoriyasini egalladi.

U SHimolda YAngi Er va Alyaska qirg'oqlarigacha, g'arbda Evropaning Atlantika qirg'oqlarigacha, Sharqda Kuril orollarigacha, Janubda Misr, Xindiston va Avstraliya chegaralarigacha etdi. 6 yil davom etgan bu urushda 61 ta davlat ishtirok etdi. Qurolli kurashda 120 mln. mexnatga yaroqli axoli safarbar etildi. Harbiy xarakatlar 40 ta davlatlar xududlarida olib borildi.

Sobiq Ittifoq qurolli kuchlari ikkinchi jaxon urushida g'alabaga erishishda avangard rolini o'ynadi. 30 dan ortiq front, 50 tagacha armiya operatsiyalarini o'tkazgan qurolli kuchlar fashizm ustidan qozonilgan buyuk g'alabaga o'z xissani qo'shdi, davlat tuprog'idan dushmanni quvib chiqardi, Sharqiy Evropani fashistlarlar qulligidan, SHimoliy Sharqiy Osiyo xalqlarini Yaponiya militaristlaridan xalos etdi. Shu bilan birga Shuni ta'kidlash lozimki, urushda sobiq Ittifoq xalqi o'zining 27 milliondan ortiqroq kishisini qurbon berdi.

Shunday qilib, 1945 yilning 2 sentyabrida, fashistlar Germaniyasi tomonidan yondirilgan va 60 milliondan ortiqroq kishining xayotiga zomin bo'lgan Ikkinchi jaxon urushi alangansi so'ndirildi.

1941-1945 yillardagi urushning boshlanishi bilan ittifoq -german fronti Ikkinchi jaxon urushining asosiy fronti bo'lib qoldi. O'rta Er dengizi, G'arbiy-Evropa va Tinch okeani harbiy – xarakatlar teatrlaridagi jangovar xarakatlar yordamchi xususiyatga ega bo'ldi va Ittifoq qurolli kuchlarining g'alabalarining ta'siri ostida rivojlandi.

Amerika-Angliya koalitsiyasining strategiyasi dushmanni xoldan toydirishga qaratilgan urushni olib borishga yo'naltirildi. Bunday strategiyaning muxim tamoyili, xam Germaniyaga qarshi, xam Yaponiyaga qarshi harbiy xarakatlarni birma-bir amalga oshirish bo'ldi.

Avval bu xarakatlar Germaniya va YAponidan ancha uzoq bo'lgan rayonlarda nisbatan kam kuchlar bilan olib borildi. Lekin yirik operatsiyalarni ular urushning yakunlovchi davrida, Qizil Armiyaning g'alabalari uning oqibatini xal qilganidan keyin boshladilar.

Ikkinchi jaxon urushi paytida ittifoqchilarning qurolli kuchlari, vaziyatning turli sharoitlarida, turli harbiy-xarakatlar teatrlarida xujum va mudofaa operatsiyalarini olib borishda katta tajribalarga ega bo'ldilar.

## **X – BOB. MUDOFAA JANGI, UNING IKKINCHI JAXON URUSHI DAVRIDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI XAL ETISH YO‘LLARI**

### **10.1. Mudofaaga o‘tish shartlari.**

1941-1945 yillardagi urush yillarida va arafasida mudofaa jang turi deb qaralib, dushmanning xujumiga qarshi turish uchun qo‘llanilib, unda qo‘shinlar uyushqoq o‘t ochish tizimidan, joylardan foydalanib va qarshi xujumlar uyushtirib, egallab turgan marralarini va xududlarni ushlab turishgan.

Mudofaaga qo‘shinlar jang uchun kuchlari etarli bo‘lmagan xolda yoki mudofaa xarakatlari xaqiqatan xam maqsadga muvofiq bo‘lsa o‘tishgan.

Bundan tashqari mudofaa o‘ta muxim xududlarni yoki ob‘ektlarni ushlab qolmoq, boshqa xududlardagi janglarning natijasini, oqibatini kutib va qulay fursat vaqtida xujumga o‘tish uchun xam qo‘llanilgan.

Mudofaaning maqsadi, dushmanning o‘zi uchun noqulay sharoitlarda jangga kirishga majbur etish, unga katta talofatlar etkazish, uning xujumini barbod etish va o‘z qo‘shinlarini xujumga o‘tishlari uchun sharoit yaratishdan iboratdir.

Urush yillarida, mudofaaga o‘tish shartlari deganda, taktik vaziyatning faktorlar yig‘indisi (dushman va qo‘shni qismlarning xarakterlari va xolati, ushbu rayonlardagi erlarning shart - sharoitlari va boshqalar) va unda mudofaaga tayyorgarlikning amalga oshirilishi va qo‘shinlarning unga, ya’ni mudofaaga o‘tishi tuShunilgan.

Mudofaaga o‘tish shart sharoitlarini aniqlab beruvchi narsa odatda dushman qo‘shinlarining xolati bo‘lgan. Shunga ko‘ra, qo‘shinlarning mudofaaga o‘tishi dushman bilan to‘qnaShuv bo‘lmagan sharoitda va bevosita u bilan to‘qnaShuv sharoitida olib borilgan. Bo‘linmalar dushman bilan bevosita to‘qnaShuv sharoitida mudofaaga o‘tgan:

- chekinishda;
- xujum paytida, dushman qarshi xujumini qaytarish uchun, egallangan marralarda mustaxkam o‘rnashib olishda;
- qarshidan kelayotgan dushman bilan jangning muvaffaqiyatsizligi natijasida;
- suvliklar marralarida platsdarmlarni egallash va ushlab turishda;
- qismlarning mudofaa janglarida qanotlarni va bo‘shliqlarni yopishda.

O‘qchi bo‘linmalar mudofaaga nafaqat dushman bilan bevosita to‘qnashuv sharoitida, balki to‘qnaShuv bo‘lmagan xollarda, Davlat chegaralarini ximoya qilish, 2-

eshelonlar zaxiralari safida xamda xujumkor jang paytida, taktik va operativ (tezkolik) chuqurligida mudofaa marralarini egallash uchun xam o'tishgan.

### **10.2.Bo'linmalarining jangovar vazifalari.**

O'qchi bo'linmalar (batalon, rota, vzvod, otdelenie) urush oldi nuqtai nazarida, mudofaada belgilangan rayon, pozitsiyalarni ximoyalash vazifasini olgan. Xujum qilayotgan dushmanga aniq va qo'qisdan zarbalar berib katta talofat etkazib, uning xujumini barbod etish uchun xam mudofaa belgilangan.

Bundan tashqari jangovar Nizom-piyodalarning asosiy vazifasi, dushman piyodalarini tanklardan ajratgan xolda tor-mor etishni ta'kidlagan edi.

Mudofaada bo'linmalarining jangovar vazifalari front bo'ylab va front chuqurligida ta'riflangan.

O'qchi bataloniga mudofaada, frontda bo'ylab va uning chuqurligida 2 km.gacha masofa belgilanishi mumkin edi, keng front bo'ylab esa 5 km.gacha masofa ajratilar edi. Rotaga front bo'ylab va chuqurlikda 1000 m.gacha rota mudofaa rayoni, vzvodga front bo'ylab 300-500 m. front chuqurligida 250 m.gacha vzvod mudofaa rayoni, otdelenielar uchun front bo'ylab va chuqurlikda 30-40 m.gacha pozitsiyalar tayinlanar edi.

Urushning birinchi davridagi mudofaa janglari tajribasi, dushman tanklari va uning piyodalari o'qchilar bo'linmalarining asosiy dushmani ekanini ko'rsatdi. Shuning uchun, piyodalarning asosiy vazifalari dushmanning piyodalari bilan jadal kurash olib borgan xolda, bor yaqin jang vositalarini ishga solib uning tanklarini safdan chiqarishdan iborat bo'lib qoldi. O'qchi bo'linmalaridan mudofaada o'z rayonlarini mustaxkam ushlab turish, va Shu erdan dushman tanklari va piyodalarini o'tkazib yubormaslik talab qilingan. Shuning uchun jangovar tajriba ko'rsatganidek, komandirlar o'z bo'linmalariga jangovar vazifalarni qo'yayotgan vaqtlarida birinchi navbatda mudofaa mustaxkamligi bog'liq bo'lgan asosiy rayonlarni ushlab turish, dushman tanklariga qarshi kurashni asosiy vazifa qilib ko'rsatishgan. Shu xolat Qizil Armiyaning piyodalar Jangovar nizomida o'z aksini topgan.

Vzvod tayanch punkti, vzvod mudofaa rayonidan iborat bo'lib, ushbu rayonni ushlab turish, vzvod mudofaa rayonini mustaxkamligini ta'minlagan. Vzvod mudofaa rayoni aylanasiga mudofaa uchun yaratilgan bo'lib, o'z ichiga vzvodning asosiy kuch va vositalarini xamda, kuchaytirish uchun ajratilgan vositalarni olgan.

Batalon mudofaa uzeli umumiy o't ochish tizimiga Generallik rotalarning bosh tayanch punktlarining zaxirasini o'z ichiga olgan. Uni jixozlash jarayonida katta e'tibor, fortifikatsion inshootlarning, portlaydigan va portlamaydigan to'siqlarning qurulishiga qaratilgan.

Bundan tashqari, bo'linmalarda tankka qarshi mudofaaning axamiyati oshishi bilan, Jangovar nizom, dushman tanklari yorib o'tishi mumkin bo'lgan yo'nalishlarda joylashgan batalon va rota mudofaa rayonlarini, batalon mudofaa rayonidek jixozlashni talab qilardi.

Jangovar vazifa aniqlanayotganda, mudofaaning mustaxkamligini oshirish uchun bo'linmalarning mudofaa rayonlarini qisqartirish va ularning chuqurligini oshirish aloxida o'rin tutgan.

Mudofaa rayoni kengligini qisqartirilishi, kuch va vositalarning qalinligini oshishiga va bo'linmalarning mudofaa tartibi chuqurligining oshishi imkonini berdi. Shu bilan birga otdelenie mudofaa frontining oshishi kuzatildi. Bu birinchidan otdelenielar oralig'idagi masofani (intervalni) minimumga qisqartirilishiga, ikkinchidan shaxsiy tarkibni front bo'ylab tarqalganligi tufayli, uni snaryadlar portlashidan kam talofat ko'rishiga olib keldi.

Shunday qilib, urush yillarida bo'linmalarning jangovar vazifalari o'zgartirildi. Dushman tanklari va piyodalarini tor-mor etish bo'linmalarning bosh vazifalari etib aniqlab berildi. Rota tankka qarshi tayanch puntlari va batalon tankka qarshi mudofaa uzellari yaratila boshlandi, bo'linmalarning mudofaa fronti kamayishi yuz berdi.

Bu xamma tadbirlar o'qchi bo'linmalarining mudofaasining barqarorligini, mustaxkamligini oshishi imkoniyatini yaratdi.

### **MUDOFAANING YARATILISHI:**

O'qchi bo'linmalari, mudofaaga o'tishda, jangovar tartib, o't ochish tizimini tuzishgan, tankka qarshi mudofaa tashkil etishgan, joylarni muxandislik munosabatlarida jixozlashgan va mudofaani takomillashtirish tadbirlarini o'tkazishgan.

### **10.3.Jangovar tartibi xaqida**

Jangovar tartib-bu bo'linmalarning jang olib borish uchun yaratilgan tartibi. Urush oldi nuqtai nazarida mudofaa ko'p eshelonli bo'lishi kerak deb xisoblangan. Mana Shu xolatdan kelib chiqib, eshelonlashtirish nafaqat birlashmalarda va qismlarda, balki bo'linmalarda xam amalga oshirilgan. Batalonlarda jangovar tartib 2 ta eshelonda yaratilib, o'z ichiga chalg'ituvchi (skovivayushaya), zarbdor va o't ochib zarba berish guruxlarini olgan.

**Chalg'ituchi (skovivayushaya)**-gurux-batalon kuchlarining 2/3 qismidan tashkil topgan bo'lib, birinchi eshelonda joylashgan. Guruxning vazifasi, dushmanga Shunaqa zarbalar berishdan iborat ediki-dushman piyodasi boshlangan xujumini oxirigacha etkazish qobiliyatidan uni maxrum qilish, agar dushman birinchi eshelondagi rota mudofaa rayoniga yorib kirsa, uni to'xtovsiz o't ochib to'xtatib qolishdan iborat edi.

**Zarbdor gurux** – batalondagi xamma kuchlarning 1/3 qismidan tashkil topgan bo'lib. Ikkinchi eshelonda joylashgan. Guruxning vazifasi birinchi eshelondagi qo'shinlarga, oldindagi dushmannig xujumini qaytarishga yordam berish, agar dushman birinchi eshelondagi rota mudofaa rayonlariga yorib kirsa, birinchi eshelon bilan birgalikda «olovli qop» («ognevoy meshok») yaratib va dushmanga katta talofatlar etkazishdan iborat bo'lgan. Agar yorib kirgan dushman guruxi (1-2 vzvod) tanklar bilan quvvatlanmasa qarshi zarbalar bilan yakson qilingan. Batalon keng front bo'ylab (5km.gacha) joylashgan bo'lsa zarba berayotgan 2 ta rota orasida 1500m.dagi oralig' masofa yaratilgan. Uning ortidan 1500 metrgacha zarbdor gurux rotasi joylashtirilgan.

**O't ochish guruxi** - pulemyot, minomyotlar rotasidan va 45 mm pushkalar vzvodidan tashkil topgan va ular chalg'ituvchi va zarbdor guruxlarni quvvatlab turish va jangovar qo'riqlash uchun belgilangan. Vazifasi dushmanni, mudofaa rayonining yaqin va uzoq bo'sag'alarida, marralarida tor-mor etish. Pulemyotchilar rotasiga mudofaa uchun rayon ajratilmagan, rota batalonning butun mudofaa rayoni bo'ylab va undan tashqarida o't ochish pozitsiyalarini egallagan.

Minomyotchilar rotasi yopiq o't ochish pozitsiyalarida, o'zining zarbasi bilan oldindagi dushmanning muhim bo'sag'alarini yo'q qilish masofalarida joylashgan.

Batalon mudofaa fronti oldida kuchaytirilgan vzvod tayinlanib, mudofaa rayonidan 1-3 km. front chuqurligida jangovar qo'riqlash qo'yilgan. Vzvod front bo'ylab 2 km.gacha marrani egallab, dushmanning asosiy yo'nalishlariga kuchli zarbalar berishi kerak edi.

Rotaning jangovar tartibi 2 eshelondan tashkil topgan. Birinchi eshelonda odatda, 2 ta vzvod, ikkinchi eshelonda esa 1ta vzvod joylashtirilgan.

O'qchi vzvodining jangovar tartibi birinchi va ikkinchi liniyadagi o'qchilar otdeleniesidan tashkil topgan bo'lib, vzvod jangovar tartibi tuzilayotgan vaqtda, otdelenielarning bir-biroviga zich joylashishiga yo'l qo'yilmagan. Shuning uchun



otdelenielar front bo‘ylab, 150-250 m. intervallarda, front chuqurligida 200 m.gacha joylashtirilgan.

Ikkinchi liniyadagi otdelenielar odatda, tepaliklarning orqa tomonlariga, tabiiy to‘siqlarga joylashtirilgan.

Urushning dastlabki davrlarida, kuch va vositalarning etishmaganligi uchun, ittifoq - german frontida o‘qchi batalon va rotalar, urushdan oldingi nazariyada ko‘rsatilganidek kengroq front bo‘ylab mudofaaga o‘ta boshlagan. Rotalar oralig‘idagi masofa 1500 m.gacha etgan.

Vaziyat sharoitlari batalon va rotalarning jangovar tartibini eshelonlashtirishdan voz kechishni talab qilar edi. Ular odatda bir eshelondan tashkil topgan bo‘lib, zaxiraga ega edi. Shu bilan birga vzvod va otdelenielarning jangovar tartiblari urushdan oldingi nazariya bo‘yicha tashkil etilgan edi.

Jangovar tajribaning ortishi va ittifoq qo‘shinlarining sonining ko‘payishi bilan o‘qchi diviziyalarining mudofaa chizig‘i kamaytirildi, o‘z-o‘zidan o‘qchi bo‘linmalarning xam mudofaa fronti qisqartirildi. Birinchi navbatda batalon va rotalar oralig‘idagi masofa qisqartirildi. Front bo‘ylab jangovar tartib qalinlashtirildi.

Urushning ikkinchi davrida ittifoq qo‘shinlarining faolligi oshishi bilan, nemis-fashist qo‘mondonligi xujumkor jangni olib borishda keng ko‘lamda tanklarni qo‘llay boshladi, keng ko‘lamda jangovar tartibini eshelonlashtira boshladi. Dushmanning piyodalar qismlarida qurollarning va jangovar texnikaning soni va sifati o‘sa boshladi. Bu xol keyinchalik frontning kamayishiga va bo‘linmalarning mudofaa rayonlarining oshishiga va jangovar tartibning rivojlanishiga olib keldi.

Rota va batalonning jangovar tartibi odatda, ikki eshelondan tashkil topgan. Agar jangovar tartib bir eshelonda qurilsa, bu xolda birinchi yoki ikkinchi transheyalarda joylashtirilgan, kuchaytirilgan vzvod zaxirasi yaratilar edi. Zarba berish vositalari odatda batalon mudofaa uzeli rayonida joylashtirilgan.

Rota jangovar tartibi ikki eshelonda qurilgan. Vzvodda xamma otdelenielar bir liniyada, bir transheyada joylashtirilgan. Otdelenie pozitsiyasi 75-100 m.ni tashkil etgan, askarlar orasidagi interval 8-10 m.ni tashkil etgan. Batalon mudofaasining asosini tankka qarshi tayanch punktlari tashkil etib, ularning chegaralari odatda o‘qchi rotalarning mudofaa chegaralari bilan birlashib ketgan. Birinchi eshelondagi vzvod va rotalarning

mudofaa rayoni chegaralari tutashib ketgan. Batalon mudofaa rayonida tankka qarshi mudofaa uzeli tashkil qilinib, yoppasiga, aylanasiga mudofaaga o'tishga tayyorlanilgan. Urushning uchinchi davrida Ittifoq Armiyasi xamma frontlarda xal qiluvchi janglarni olib bora boshladi. Mudofaa janglari davomida batalon mudofaa rayonining roli sezilarli oshdi. U front bo'ylab 1500-2500 m.ni front chuqurligida 1500-2000 m.ni egalladi va xar bir pozitsiyaning mudofaa asosini tashkil etdi. Batalon mudofaa rayonida tankka qarshi mudofaa uzeli yoki tankka qarshi kuchli tayanch punktlari yaratildi.

#### **10.4.O't ochish tizimining rivojlanishi**

O't ochish tizimi mudofaada bu-bo'linmalar, xamma o't ochish vositalarining yagona reja bo'yicha dushmanni tor-mor etish bo'yicha birlashishidir.

Batalon o't ochish tizimi mudofaaning oldingi chizig'ida 3 ta zonani yaratishni ko'zda tutadi.

**Birinchi zona** - dushmanga jismoniy va ruxiy ta'sir o'tkazish zonasi. U mudofaa chizig'idan 400-3000 metr masofada yaratiladi. Bu zonada zarba berish uchun 1-2 qo'llab-quvvatlovchi batareya, batalonning minomyot rotasi, jangovar qo'rio'lash, 2-3 qo'llab-quvvatlovchi stanokli pulemyot, qo'l pulemyotlari va birinchi eshelondagi rotalarning vzvodlaridagi snayperlari tayinlangan. Uzoq masofalarga artilleriya zarbalari, dushmanga jismoniy talofatlar berish bilan birga yana unga ruxiy ta'sir o'tkazish, uning jangovar tartibini buzish, uning bo'linmalarini bir vaqtda dastlabki marraga chiqishiga yo'l qo'yimaslik uchun berilgan.

**Ikkinchi zona** – to'siqli zarba berish zonasi (zona zagruditelnogo ognya). U mudofaa chizig'idan 200-400 metr polosada qo'yilgan. Bu zonada o't ochib yo'q qilinmaydigan oraliqlar bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi kerak bo'lgan. Xar bir nuqta birinchi eshelondagi vzvodning pulemyotlari va vintovkalarining qanotlardan kesib o'tuvchi (perekrestnim) zarbalaridan chetda qolmasligi kerak.

Rotaning ikkinchi eshelondagi vzvodining pulemyot va vintovkalari mudofaa chizig'idan 650-800 m.da joylashib, to'siqli zarbaga ishtirok eta olmagan. Lekin rota komandiri ularni birinchi eshelondagi vzvodlar rayoniga chiqarishi va ulardan Shunday foydalanishi, kerakli vaqtda yana ularni o'z vaqtida front chuqurligiga o'zlarining asosiy jangovar pozitsiyalariga qaytarishi kerak bo'lgan. Ularni o'zlarining asosiy pozitsiyalariga

qaytarish taxminan dushmanning oldingi mudofaa chizig'iga yaqinlashuvi 200 m.g.a etganda ko'zda tutilgan.

To'siqli zarba artilneriya va minomyotlarning zarbalari bilan kuchaytirilgan.

**Uchinchi zona** – dushmanni uzil-kesil tor-mor etish zonasi- oldingi marra chizig'idan 200 m. uzoqlikdan boshlangan. Dushmanga zarba berish uchun birinchi eshelondagi rotalarning stanokli pulemyotlari va pulemyot rotasining stanokli pulemyotlari ishlatilgan. Bu pulemyotlar, joylashgan joylarini dushmanga sezdirmaslik uchun oldingi chiziqdan 200 m.dan oshiq masofada ishlatish tavsiya etilmagan, xatt to'siqli zarba zonasini yaratishda xam ulardan foydalanilmagan. Ular balandliklarning orqa tomonlariga, to'siqlar panalarida bir-birovidan 500 m. uzoqlikda joylashtirilgan. Qanotlardan, oldingi chiziq bo'ylab o't ochish vazifasini olishgan. Dushman ikkinchi eshelondagi rota rayoniga yaqinlashib kelishi bilan batalon mudofaa rayoni ichida pulemyot rotasi bilan «olovli qop» yaratish ko'zda tutilgan.

Batalon mudofaa rayoni ichida o'q otar qurollarining o't ochish tizimi, rotalarning ikkinchi eshelondagi vzvodlari va ikkinchi eshelondagi rota, xamda birinchi eshelondagi rotalar vzvodi otdelenielarini rayon ichidagi zaxira va qo'shimcha pozitsiyalarga ko'chirish bilan yaratilgan.

Batalon mudofaa rayonida piyodalarga qarshi o't ochish tizimidan tashqari, polk komandirining ko'rsatmasiga binoan tankka qarshi mudofaa tizimi xam tashkil etilgan. U batalon va polk artilneriyasi, piyodalarni quvvatlovchi pushkalar batareyasi zarbalarini o'z ichiga olgan. Batalon artilneriyasi orudiyalari birinchi liniyada, oldingi chiziqdan 200-300 metrda joylashgan. Tankka qarshi orudiyalar ikkinchi liniyasi oldingi chiziqdan 500-600 m.da tashkil etilgan. Oldingi chiziqdan 1-2 km. masofada batalon komandiridan yuqori bo'lgan komandirlarning qo'mondonlik punktlarini ximoya etish uchun uchinchi liniya joylashtirilgan.

Xavo xujumidan mudofaa batalon mudofaa rayonida pulemyot rotasining uchinchi vzvodi bilan tashkil etilgan. O'qchi rotalarida pastlab uchuvchi samolyotlarga qarata o't ochish uchun ikkinchi eshelondagi vzvodlar tayinlangan. O'qchi vzvodlarida esa ikkinchi liniyada joylashgan otdelenielar tayinlangan.

Tankka qarshi mudofaaning sifatining oshishi, 1942 yil martida o'qchi bataloni shtatiga tankka qarshi miltiqlar vzvodining kiritilishi, xamda batalon mudofaa rayoniga

bitta-ikkita artilleriya batareyasi va dushman tanklari bilan kurashish uchun tankka qarshi vzvod ajratilishi bilan ro'y berdi. Buning natijasida, tankka qarshi vositalarning qalinliga frontning xar bir kilometriga 6-8 tani tashkil etdi. O'qchi rotalari kuchaytirish uchun tankka qarshi miltiqlar o'la boshladi, ular odatda otdelenielar safida tanklar kelishi xavfi bor yo'nalishlarda qo'llanilib, dushman tanklariga 500 metr masofadan o't ochishgan. Tankka qarshi miltiqlarning jamlangan zarbalari ko'p samara bera boshladi. Yana dushman tanklariga qarshi kurashda samarali vosita 45 va 76 mm. li pushkalar xisoblangan, ular tanklar kelishi xavfi bor yo'nalishlarda, oldingi chiziqda yoki mudofaa ichkarisida o't ochish pozitsiyasini egallashgan. Tankka qarshi artilleriyaning zarba berish uzoqligi 600 m.ni tashkil etgan. Stanokli pulemyotlar, dushman mudofaaning oldingi chizig'iga 1000m.ga yaqinlashib kelganda o't ochgan, qo'l pulemyotlari 800m. qolganda, dushmanning yaqinlashuvi mudofaaning oldingi chizig'igacha 400 metr qolganda qo'l va stanokli pulemyotlar o'zlarining asosiy pozitsiyalarini egallagan va zarba berish o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqqan.

Mudofaada transheyalar va o'tish yo'llari tizimiga o'tish, o'qchi bo'linmalariga jangda o't ochish vositalarini keng manyovr qilish imkonini berdi. Bu o'z navbatida oldingi chiziq oldida dushmanni xoldan toydirishga va xavfli yo'nalishlarda o't ochishning yuqori qalinligini saqlab qolishni ta'minladi.

Avtomatik qurollar sonining oshishi, mudofaa frontining kamayishi o't ochish qalinligini frontning xar bir pogon metrda 10 tagacha o'qqa etkazdi. Snayperlarning o't ochib zarba berishi keng qo'llanildi, xar bir vzvodda snayperlar tayyorlana boshlandi, otdelenielar, vzvodlar va xatto rotalarning marralarga dushman piyodalarini tanklaridan ajratish uchun va dushman samolyotlariga qarshi zalp bilan o't ochishi yo'lga qo'yildi. Tankka qarshi orudiyalar ikkinchi va uchinchi transheyalarning orqasida, Shunaqa masofalarda qo'yilganki, ular dushman tanklari mudofaaning oldingi chizig'iga yorib kirmasdan, ularni o'zlarining zarbalari bilan tor-mor etishlari kerak bo'lgan. Tankka qarshi miltiqlar, tankka qarshi orudiyalardan oldinda birinchi transheyada, dushman tanklari kelishi xavfi bor yo'nalishlarda, gurux-gurux bo'lib joylashtirilgan.

Pulemyot rotasi odatda, vzvod-vzvod bo'lib o'qchi rotalariga birkutilgan, o'qchi batalonining minomyot rotasi ikkinchi va uchinchi transheyaning ortida joylashib, 2-3 ta zaxira o't ochish pozitsiyasiga ega bo'lgan. Ular markazlashgan xolda qo'llanilgan.

O't ochish tizimining tashkilotchilari bo'linma komandirlari bo'lgan. O't ochish tizimi xamma xollarda muxandislik to'siqlari tizimi bilan birgalikda olib borilgan, muxandislik to'siqlari tizimi kuchsiz bo'lgan joylarga kuchli zarba tayyorlangan.

### **10.5. Tankka qarshi mudofaasining rivojlanishi**

Tankka qarshi mudofaa – bu tashkiliy tadbirlar va qo'shinlarning jangovar xarakterlarining yig'indisi bo'lib, dushmanning tanklari va boshqa zirxli mashinalarining xujumini qaytarish va ularni yo'q qilishga qaratilgan.

U o'z ichiga: tankka qarshi vositalar guruxini, tankka qarshi to'siqlar tizimi bilan bog'liq, tankka qarshi zarba berish tizimining xamma turlarini oladi.

Urushning boshida chekinayotgan va mudofaalanayotgan ittifoq qo'shinlariga dushman tanklarining ommalashgan zarbalarini qaytarishga to'g'ri keldi. Artilleriya sonining, ayniqsa tankka qarshi artilleriyaning etishmasligi, dushman tanklari bilan kurashning asosiy qiyinchiligini, ular bilan kurashning kuchsiz vositalari bilan jixozlangan piyodalar o'zlariga qabul qildi.

1941 yil 6-iyulda OBO stavkasi tanklarga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida buyruq berdi. O'qchi bo'linmalarida dushman tanklarini qirish bo'yicha, mard jasur odamlardan komandalar tashkil qilina boshlandi. Komandalar vintovkalar, avtomatlar, tankka qarshi minalar, granatalar shodasi va yonuvchi aralashmali butilkalar bilan qurollantirildi. Dushman tanklari bilan kurashning bu usuli jangchilardan mustaxkam iroda, matonat, va o'ta botirlikni talab etardi.

1941 yil kuzidan dushman tanklarini qiruvchi guruxlar tankka qarshi militiqlar bilan qurollana boshladi.

Tankka qarshi mudofaani kuchaytirish bo'yicha yo'nalishlardan biri, 1941 yil yozida dushman tanklari kelishi xavfi bor yo'nalishlarda, o'qchi polklar va diviziyalar kuch va vositalaridan tankka qarshi rayonlarning (tayanch punktlari) yaratilishi bo'ldi. Ular oldingi chiziqda va rayon ichkarisida yaratila boshlandi. Tankka qarshi rayonning komendanti etib artilleriya komandiri tayinlandi. Urushning ikkinchi davrida tankka qarshi vositalarning ommalashtiruvchi, tankka qarshi mudofaaning asosi tankka qarshi uzellar yaratila boshlandi. Boshqarishni qulaylashtirish uchun 2-3 tankka qarshi tayanch punkti tankka qarshi uzelga birlashib, batalon mudofaa rayonida joylashtirilgan. Ular orasidagi o'zaro xamkorlikni tashkil etish bilan o'qchi bataloni komandiri Shug'ullangan.

O'ziga xos tankka qarshi tayanch punkti (TQTP, PTO) o'z tarkibiga: 4-6 orudiya, 6-9 tankka qarshi miltiqar, 2-3 minomyotlar, 2-3 stanokli va 3-4 qo'l pulemyotlarini olgan. Lekin ularning soni mudofaa etilayotgan yo'nalishning muximligiga, biriktirilgan kuch va vositalarning soniga, vaziyat sharoitiga, dushmanning xarakteri va xarakat taktikalariga qarab o'zgarib turgan.

Xamma TQTPlar aylanasiga mudofaaga tayyorlanishgan, o'qchi bo'linmalariga biriktirilgan tankka qarshi batareyalar odatda, bo'linib tashlanmagan, tankka qarshi miltiqlar esa 3-4 tasi guruxlarga bo'linib Shunday joylashtirilganki, otdelenie komandiri ovoz bilan ularni boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak bo'lgan. Tankka qarshi vositalar mudofaa rayonining butun chuqurligida eshelonlashtirilgan. Bunda 60 % tankka qarshi orudiyalar oldingi chiziq uchun dushman tanklari bilan kurashga qatnashgan va tankka qarshi to'siqlarning birinchi chizig'ini yopishgan.

Urushning ikkinchi davrida tanklarni qiruvchi guruxlar yanayam rivojlanib bordi va ular rota va vzvodlarda yaratila boshlandi. Ular yonuvchi aralashmali butilkalarni, mina shlagbaumlarini, klinersga qarshi minalarni, tanklarga qarshi yog'och shtangalarni va aloxida tankka qarshi minalarni keng qo'llay boshlashdi.

Urushning ikkinchi davrining xarakterli xususiyati Shuki, dushman tanklariga qarshi nafaqat tank qiruvchi guruxlar, balki bo'linmalarning butun shaxsiy tarkibi o'rgatila boshlandi. Shu maqsadda davlat ichkarisida shaxsiy tarkib bilan tank obkatkasi o'tkazila boshlandi.

Tankka qarshi mudofaani katta masshtablarda yaratish maqsadida, avvalgidan farqli o'laroq, tankka qarshi minalar, boshqariladigan va boshqarilmaydigan fugaslar, tankka qarshi xodalar, nadolblar, eskarplar, kontreskarplar va boshqalar qo'llanila boshlandi. Tankka qarshi mina dalalari nafaqat oldingi chiziq oldida, balki mudofaa rayoni ichkarisida xam o'rnatila boshlandi.

Shunday qilib, tankka qarshi mudofaa bosqichma-bosqich tizimga yig'ilib, tankka qarshi uzellar va tankka qarshi tayanch punktlaridan tashkil topdi.

Urushning uchinchi davrida, orttirilgan jangovar tajribani xisobga olib, batalon mudofaa rayonlarida 2-3 ta tankka qarshi tayanch punktlaridan tashkil topgan batalon tankka qarshi uzellari yaratildi. Rotaning tankka qarshi tayanch punktlari urushning ushbu davrida odatda, 3-5 ta orudiyadan, 1-2 tankdan, tankka qarshi miltiqlar vzvodidan va minomyot

vzvodidan tuzilgan. Dushmanning og'ir tanklari bilan kurashning samaradorligini oshirish uchun, ularning safiga o'rtacha kalibrdagi orudiyalar va o'ziyurar artilleriya qurilmalari kiritilgan. Buning xususiy tomoni Shunda ediki, o'qchi bo'linmalarida tankka qarshi vositalarni, dushman xujum qilishi xavfi bor yo'nalishlarida to'plash va ularni batalon mudofaa rayonining butun chuqurligida joylashtirishdir.

### **10.6. Mudofaani tashkil etish**

Urush oldi nuqtai nazarida va urush yillarida mudofaa jangini tashkil etish, rekognosirovka o'tkazish, qaror qabul qilish, jangovar vazifani qo'yish, boshqaruv va o'zaro xamkorlikni tashkil etishni o'z ichiga olgan. Jangovar tajriba ko'rsatganidek, faqat joylarda rekognosirovka o'tkazish o'qchi bo'linmalar komandirlariga maqsadga muvofiq qaror qabul qilishga, o'zaro xamkorlikni tashkil etishga va boshqa masalalarni echishga omil yaratgan. Lekin urushning birinchi oylarida, bo'linmalar vaqtning etishmasligida, keng front bo'ylab mudofaaga o'tganda, bo'linma komandirlari, ayniqsa batalon komandirlari, ko'p xollarda rekognosirovkani tashkil etish va o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishmagan. Qaror ko'p xollarda karta bo'yicha qabul qilingan. Jangni tayyorlash mobaynida, batalon komandirining bo'ysunuvchilari bilan shaxsiy munosabatlari cheklangan xususiyatga ega edi. Bu sharoitlarda rekognosirovka rota va vzvod komandirlari tomonidan chuqurroq o'tkazilgan. Ular katta mustaqillik va tashabbus ko'rsatishgan. Natijada qarorni qabul qilish ko'p ma'noda komandirning tajribasiga, bilimi, va oldinni ko'ra bilishiga bog'liq bo'lgan.

Mudofaani tashkil etish uchun bir necha kun bor vaqtlarda, dushman tomonidan aktiv jang xarakatlari olib borilmaganda, rekognosirovka birmuncha boshqacha olib borildi. Rekognosirovka chuqurroq, bo'lajak jang operatsiyalarining xamma masalalari aniq o'rganilgan xolda olib borilib, bu natijada maqsadga muvofiq qarorni qabul qilishda, komandirlar buysunuvchilariga aniq vazifalarni qo'yishlariga olib keldi.

Batalon komandirlari bo'ysunuvchilarga xamma vaqt xam jangovar vazifani og'zaki buyruq sifatida qo'yish imkoniyatiga ega bo'lishmagan, keng front bo'ylab mudofaaga topshiriq olgach ular, odatda, topshiriqni karta bo'yicha berishgan yoki choparlar orqali yozma jangovar topshiriq ko'rinishida berishgan. Agar vaziyat sharoiti Shuni taqozo etsa, bo'linma komandirlari qariyb xamma vaqt topshiriqni shaxsan va joylarda berishgan.

O‘zaro xamkorlikni tashkil etishga katta e‘tibor berilgan, u ishlab chiqilgan jang rejasida o‘z aksini topgan. O‘zaro xamkorlikni to‘lig‘icha tashkil etish vaziyatdan, vaqtning etariligidan, bo‘linma komandirining tajribasidan kelib chiqqan.

Urushning birinchi davrida o‘zaro xamkorlik, urushdan oldingi nazariyada ko‘zda tutilganidek, marralar va ob‘ektlar bo‘ylab tashkil etilgan. Lekin jangovar tajriba buning bir nechta kamchiligini ko‘rsatdi, ulardan asosiylari: bo‘shliqlar va qanotlarning kuchsiz ta‘minlanganligi, muxandislik kuchlari va vositalarini noto‘g‘ri qo‘llanishi, ayrim bo‘linma komandirlarida joylarda ishlash tajribalari yo‘qligi, bazi xollarda artilleriyani noto‘g‘ri qo‘llanishi.

O‘zaro xamkorlikni tashkil etish batalon mudofaa rayonining sxemasida o‘z aksini topgan.

Artilleriyaning kam qalinligi tufayli, mudofaa janglarida tankka qarshi artilleriyaning piyodalar va muxandislik tankka qarshi vositalari bilan o‘zaro xamkorligi katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Jangovar tajriba, xar bir komandirning albatta joylarda bo‘ysunuvchilari va qo‘llab - quvvatlovchi bo‘linmalar bilan o‘zaro xamkorlikni tashkil etishlarini ko‘rsatdi. Oldingi marrani ushlab turishda o‘qchi bo‘linmalari katta rol o‘ynadi. Shu munosabat bilan avvalom bor, ularning foydasiga, dushman xujumini qaytarishda ishtirok etuvchi xamma kuch va vositalarning o‘zaro xamkorligi tashkil etilgan.

Rota – batalon zvenosida o‘zaro xamkorlikni tashkil etish uchun 3-4 soat vaqt talab qilinar edi. Urush davrida katta boshliqlar o‘z ishlarini Shunday tashkil etishganki, o‘qchi bo‘linmalar komandirlari o‘zaro xamkorlikni tundamas kunda tashkil etishlari kerak bo‘lgan. Bunda o‘zaro xamkorlik masalalari, bo‘linmalarning kuchlarini xisobga olib, umumiy ko‘rsatmalar usulida xal qilingan (kim, kim bilan, qachon va nima uchun o‘zaro xamkorlik qiladi ) va bundan tashqari, joylarda bo‘linma komandirlari bilan jangovar xarakatlari varianti usulida xam olib borilgan. Batalon va rotalarda o‘zaro xamkorlik masalalari mudofaa sxemalarida ko‘rsatilgan. Vzvodlarda o‘qchi va xisob kartochkasi tuzilgan. Mudofaani takomillashib borishi bilan, yangi kuch va vositalarni bo‘linmalar mudofaa rayoniga jalb qilinishi bilan yoki dushman xaqida yangi ma‘lumotlar olinishi bilan, o‘zaro xamkorlikka o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritilgan.



## **XI.BOB. HARBIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH.**

Urush oldi nuqtai nazaridan rota (batalon) komandirida 2 ta kuzatuv punkti (KP) bo'lishi kerak: birinchisi, birinchi eshelon joylashgan joyda, ikkinchisi, ikkinchi eshelon joylashgan joyda, xar birida o'z kuzatuvchilari bilan. Vzvod va otdelenie komandirlarida 1 ta kuzatuv punkti bo'lishi tavsiya etilgan. Qo'mondonlik punktlari, tanklar etib kelishi qiyin bo'lgan joylardan tanlangan, u joydan batalon (rota) mudofaa rayoni ko'rinib turishi, bo'ysunuvchi komandirlar bilan aloqani ta'minlash imkoniyati bo'lishi kerak bo'lgan. Aloqa telefon, signallar va choparlar orqali amalga oshirilgan.

Urushning boshida bo'linma komandirlari bo'ysunuvchilarini muxandislik munosabatida kuchsiz jixozlangan bitta QP dan boshqargan. Aloqa asosan signallar va choparlar orqali amalga oshirilgan.

Mudofaa janglari tajribasi, o'qchi batalonida, mudofaa jangini uzluksiz va moxirona boshqarish uchun 2 ta – asosiy va zaxiradagi QP bo'lishi kerakligini ko'rsatdi. Bunaqa yoyilgan QP (KP) tizimi Kursk yoyida mudofaani qurishda keng tarqaldi. Bunda o'qchi bataloni QP 3 ta asosiy elementdan tashkil topdi: - batalon komandiri, ad'yutant, kuzatuvchi, katta joylashgan qo'mondonlik punkti; - kuzatuv punktidan 25-30 metrda yashirinib joylashtirilgan aloqa uzeli, u erda aloqa vzvodi komandiri, telefon stansiyasi, aloqa zaxirasi joylashgan; -xizmat ko'rsatuvchilar guruxi rayoni, u erda aloqachilar, bo'sh telefonistlar joylashgan. QP va KP yog'och va tuproqdan qurilgan tomga ega bo'lgan.

Urushning ikkinchi davridan boshlab, o'zaro xamkorlik qiluvchi bo'linmalar komandirlarining birgalikdagi ishlarini tashkil etishlariga va boshqaruv punktlaridagi xizmatni tashkil etishga katta e'tibor qaratilgan.

Artilleriya batareyasi komandirlari rota (batalon) komandirlari QP da yashagan va ishlagan, divizion komandiri esa batalon (polk) komandiri QP da joylashgan. Shunday qilib, urushdan oldingi nazariya o'qchi bo'linmalari komandirlarining mudofaa jangini tashkil etish bo'yicha ishlari mazmunini to'g'ri aniqlab bergan.

### **11.1 Mudofaa jangining olib borishi**

Urush oldi nuqtai nazaridan, o'qchi bataloni janglari, jangovar qo'riqlashning janglari bilan boshlanadi deb xisoblangan.

Batalon mudofaasi oldingi chizig'iga yorib kirishga xarakat qilgan dushmanning kichik guruxlarini, jangovar qo'riqlash asirga olishi yoki tor-mor etishi kerak bo'lgan.

Dushmanning katta kuchlari xujum qilganda, avvaldan belgilangan marralarda ularni artilleriya zarbasi bilan tor-mor etish ko'zda tutilgan. Pulemyot va minomyot rotalari, zaxiradagi o't ochish pozitsiyalaridan o'z zarbalari bilan jangovar qo'riqlashni qo'llab-quvvatlab turishlari kerak bo'lgan. Jangovar qo'riqlashning ortga qaytishi katta boshliqning signali bo'yicha, atakaga tayyorlangan artilleriyaning tayyorgarligi boshlanmasdan oldin amalga oshirilgan. Jangovar qo'riqlashning ortga qaytishi Shunday o'tkazilishi talab qilinganki, unda zarbani oldingi chiziqdan to'xtatmay turib, dushmanni qanotlardan beriladigan zarbaga olib kelish kerak bo'lgan.

Urushning birinchi davrida, diviziyaning birinchi eshelonida turgan xamma o'qchi batalonlari jangovar qo'riqlash tayinlagan. Bu xol, qo'shinlar ko'p zaziyaatlarda dushman bilan bevosita to'qnashuv sharoitida mudofaaga o'tishlari bilan tushutiriladi. Jangovar qo'riqlashga tayinlangan bo'linmalar, oldingi marradan 3 km.gacha bo'lgan masofada pozitsiyani egallagan. Jangovar qo'riqlashning safi kuchlar va vositalarning soniga, birinchi pozitsiyaning dushmandan qancha uzoqligiga bog'liq bo'lib, odatda bitta otdeleniedan vzvodgacha bo'lgan. Jangovar qo'riqlashning jangining davom etishi bir soatdan oshmagan.

Urushning ikkinchi davrida o'qchi batalonlari odatda, kuchaytirilgan vzvodni jangovar qo'riqlashga tayinlagan. Jangovar qo'riqlash bo'lmaganda, uning vazifasi oldingi marradan turib kuchli kuzatish yo'li bilan, jangovar raschyotlarning navbatchiligi bilan, va ayrim xollarda kuzatuvchilarni oldinga jo'natish bilan bajarilgan.

Dushman tomonidan atakaning artilleriya tayyorgarligi o'tkazilgan vaqtda, ittifoq qo'shinlari ukritielarda joylashgan, xar bir otdeleniening jangovar pozitsiyasida faqat kuzatuvchi va navbatchi o't ochish vositasi qoldirilgan. Dushman atakaga o'tishi bilan bo'linmalar jangga tayyorlangan. Ayrim xollarda oldingi chiziqda mudofaani olib borayotgan bo'linmalar, dushmanni aldash va shaxsiy tarkibni artilleri va aviatsiya zarbasi ostidan olib chiqish maqsadidi mudofaaning chuqurligiga olib o'tilgan.

Dushman xujumini qaytarishda asosiy davr bu – oldingi chiziq uchun jang bo'lgan. Oldingi chiziqning barqarorligi ko'p xollarda, bo'linmalarning mudofaa rayonining butun barqarorligini aniqlagan.

Urushdan oldingi nazariya, oldingi chiziq uchun jangda xamma o't ochish vositalarini, jumladan polkning ikkinchi eshelonidagi zarbdor guruxni xam qo'llashni talab qilardi.

O'qchi bo'linmalarining asosiy xarakatlari dushman tanklaridan piyodalarini ajratishga yo'naltirildi. Dushmanga zarba berish maksimal uzoqliklardan boshlanib va uning oldingi chiziqqa yaqinlashuviga 400 metr qolganda zarba berish o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqarilgan. Tankka qarshi artilleriya, dushman tanklari polk komandiri ko'rsatgan marra ga etib kelishi bilan mustaqil ravishda o't ochishi kerak bo'lgan.

Urushning boshida Ittifoq qo'shinlari, dushman atakasini qaytarishda, urushdan oldingi nazariya bo'yicha xarakat qilishgan. Lekin, keng front bo'ylab mudofaaga o'tgan o'qchi bo'linmalarida kuch va vositalar qalinligi kam edi va kuchsiz o't ochish tizimiga, xamda kam muxandislik to'siqlari, ayniqsa tankka qarshi to'siqlarga ega edi. Bundan tashqari qator bo'linmalarda urushning birinchi oylarida, o'z o'q otar qurolining o'ti bilan o'z pozitsiyasini vaqtdan oldin dushmanga bildirib qo'yishdek asossiz qo'rqoqlik xukm surar edi. Bu xammasi dushmanga tezlik bilan oldingi chiziqqa chiqishiga va o'zining ko'p marotoba ustunligidan foydalanib, o'qchilar bo'linmasining mudofaasini yorib o'tishga imkon berardi. Shu bilan birga, mudofaalanayotgan bo'linmalar oldingi chiziq oldida dushmanga katta talofatlar etkazib, uning xujumini to'xtatib qolgan xodisalar xam juda ko'p bo'lgan. 1941 yil 15 iyulda 188- o'qchi diviziyasi, 523- o'qchilar polkining 1- o'qchilar rotasining 80 jangchisi, bir yarim soat mobaynida dushmanning ikkita piyodalar rotasini xujumini muvaffaqiyatli qaytarib turdi. Katta talofatlar tufayli dushman keyingi atakalardan voz kechdi.

Moskva mudofaasida va urushning birinchi davridagi keyingi mudofaa janglarida, dushmanning piyodalar va tanklar bo'yicha ustunligiga qaramasdan, o'qchi bo'linmalarining mudofaa frontining kamayishi, jangovar tartibning o'zgartirilishi va uni artilleriya zarbasi bilan faol qo'llab -quvvatlash natijasida, o'qchi bo'linmalarining mudofaasi barqarorligi sezilarli oshdi.

Urushning ikkinchi davrida oldingi chiziq va birinchi pozitsiya uchun uchun janglar ko'p vaqt davom etadigan bo'ldi. Misol uchun, Kursk ostonalaridagi janglarda, o'qchi batalonlari, birlashtirilgan va qo'llab -quvvatlash uchun ajratilgan artilleriyaning, minomyotlar va o'q otar qurollarning kuchli zarbalari, xamda to'siqlar tizimidan foydalanib, bir necha soat mobaynida dushman atakasini oldingi chiziqda qaytarib, keyin 1,5-2 soat davomida birinchi pozitsiyani ushlab turishgan.

Dushmanning zarbdor guruxining tezlik bilan oldingi chiziqni va birinchi pozitsiyani yorib o'tolmaganligiga, urushning birinchi davriga nisbatan tankka qarshi zarbaning, xamda uni xar xil to'siqlar bilan almashtirish, batalon mudofaa rayonida zarba berish vositalarini manyovr qilish, askar va ofitserlarning kuchli faolligi va matonati, ataka qilayotgan dushmanning piyodalari va tanklari bilan kurashda xar xil vositalar va usullarning qo'llanishi, xar xil transheyalar, o'tish yo'llari, ukritielar xisobidan o'qchi bo'linmalarining jangovar qobiliyatini saqlab qolish, asosiy sabab bo'lgan. Bo'shliqlarni ishonchli ta'minlash va katta komandirlar tomonidan artilleriya zarbasini xujum qilayotgan dushmanga qarata jamlash katta ahamiyatga ega.

Urushning uchinchi davrida, mudofaani barqarorligini xam oldingi chiziqda, xam mudofaa rayonining ichkarisida barqarorligini oshirish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Dushman piyodalari va tanklarining kuchli atakalariga qaramasdan, birinchi ataka mobaynida bo'linmalarining mudofaa rayonini egallay ololmasdi. Dushmanning tanklari va bronetransportyolari katta talofatlar ko'rib, oldingi marralariga chekinar edi, uning piyodalari esa yotib qolar edi.

Faqat takroriy atakadan keyin dushman ularning mudofaalariga tiqilib kirgan. 1945 yil 6- mart soat 6 dan 8- mart soat 6 gacha dushman 572-o'qchi polkining 2- o'qchi bataloninig mudofaa chizig'ini egallay olmadi. Bunda u 20-25 tanklar qo'llab-quvvatlovida, artilleriya tayyorgarligi o'tkazib, 2 tagacha piyodalar bataloni bilan 3 ta kuchli ataka o'tkazgan edi. Faqat to'rtinchi atakadan keyingina dushman batalon mudofaa rayoniga tiqilib kirishga muvaffaq bo'ldi. Dushmanning talofatlarining umumiy soni, 15 ta tankni, 9 ta shturmchi orudiyani, 1 ta bronetransportyorni, 500 taga yaqin o'lganlar va yaradorlar bilan birga askar va ofitserlarni tashkil etdi. Mudofaaning oldingi chizig'ini mukammal ushlab turish, artilleriyaning va minomyotlarning yopiq o't ochish pozitsiyalaridan beriladigan zarbalaridan to'g'ri foydalangan xolda, xamda rota TQTP va batalon tankka qarshi mudofaa uzellari (TQMU) orudiyalarining to'g'ri navodkalari bilan beriladigan zarbalari yordamida erishilgan. Artilleriya zarbasi o'q otar quollarining zarbalari bilan muvaffaqiyatli to'ldirilgan. Mudofaaning oldingi chizig'ini ushlab turishda Shubxasiz askar va ofitserlarning matonatlari katta rol o'ynagan.

Urushdan oldingi harbiy fan mudofaa jangiga «bepisand» qaraganligi natijasida urush yillarida, ayniqsa uning birinchi davrida kechirib bo'lmaydigan talofatlar berildi. Harbiy

doktrinaning asosan xujumkor jangga qaratilganligi sababli sobiq SSSRning harbiy ishlab chiqarish kompleksi mudofaa jangi uchun kerakli bo'lgan qurol-yarog'larni kam ishlab chiqardi, misol uchun dushmanning bosh yo'nalishlarda tanklarning taktik zichligi frontning xar kilometriga 20-25 tankni tashkil etgan bo'lsa, unga qarshi bizning vositalarimiz 1-1,5 tani tashkil etdi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, Ittifoq armiyasi safidagi komandirlar urush yillarida juda katta jangovar tajriba orttirdilar. Juda qudratli xisoblangan dushman to'xtatib qolindi va bosqichma-bosqich qarshi xujum xarakatlari amalga oshirilib fashistlar tor-mor etildi. Kezi kelganda Shuni aytib o'tish kerakki, Ittifoq armiyasi urush yillarida uchta strategik mudofaani amalga oshirdi-Moskva ostonasida va Stalingradda-majburan, Kursk yoyida ataylab-maqсад chuqur eshelonlashtirilgan mudofaa bilan dushmanni to'xtatib qolish, unga katta talofatlar etkazish va xujumga o'tish uchun qulay sharoit yaratib, qarshi xujumga o'tishdir.

## **XII – BOB XUJUMKOR JANG, UNING IKKINCHI JAXON URUSHI DAVRIDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI XAL ETISH YO‘LLARI**

### **12.1.1941-1945 yillardagi urush yillarida va arafasida xujumkor jang jangning asosiy turi ekanligi.**

1941-1945 yillardagi urush yillarida va arafasida xujumkor jang jangning asosiy turi xisoblangan. «Faqat, dushmanni qurshab olishga qaratilgan va uni bosh yo‘nalishda tezkorlik va tashabbuskorlik bilan ta‘qib etib olib borilgan qat‘iy xujumkor jang, bosh yo‘nalishda dushmanni kuch va vositalarini to‘lig‘icha tor-mor qilishga olib keladi» - deb yozilgan edi 1940 yilda chop etilgan umumiy taktika qo‘llanmasida. Urush yillarida qo‘shinlar xujumga vaziyatning turli xil sharoitlarida o‘tganlar.

Urushdan oldingi nizomlar bo‘yicha xujumga o‘tishning asosiy usuli xarakatlanish mobaynida xujumga o‘tish xisoblangan. Uning mazmuni, vaqtning o‘ta etishmaslik sharoitlarida yorib o‘tish uchun tayyorgarlik dushmanning mudofaa marrasiga qo‘shinning yaqinlashuv jarayonida boshlangan, xujum yoyilish marrasi belgilangan erdan to‘xtalishsiz olib borilgan. Bu usul qulay bo‘lgan, qachonki dushman mudofaasi kuchsiz va chuqur bo‘lmasa, xujum qiluvchi qo‘shinlar esa qudratli zarba berish qudratiga, ayniqsa manyovrchanlikka ega bo‘lsalar.

Urush yillarida o‘qchi bo‘linmalari manyovrchanliklari yuqori bo‘lmaganligini va 1942 yil yozidan dushman transheya mudofaasiga o‘tganligini xisobga olib xujumga o‘tishning asosiy usuli dushman bilan bevosita to‘qnaShuv sharoitida amalga oshirila boshlandi. Uning mazmuni Shundan iborat ediki, bo‘linmalar oldindan xujum uchun dastlabki marrani egallaganlar, uni muxandislik munosabatida jixozlaganlar, Shu erdan dushmanga qarshi xujumga o‘tganlar.

### **12.2. Bolinmalar Jangovar vazifalarining o‘zgarishi, jangavor tartiblarning rivojlanishi va taktik zichlikning oshirishi.**

Xujumkor jangning maqsadi, mudofaaga o‘tgan dushmanga tashkillashtirilgan, keskin zarbalar berib uni tor-mor etishdan iboratdir. Bunda, xujumga o‘tgan qo‘shinlarning ustunligi, tashabbusni o‘z qo‘liga olgan xolda, frontning joylashgan joyi, yo‘nalishi, kengligi, xamda kerakli bo‘lgan kuch va vositalarni aniqlay olishdan iborat bo‘lgan. Urush yillarida qo‘shinlar jangovar vaziyatning xar xil shart-sharoitlarida xujumga o‘tganlar. Bu

shart - sharoitlar qarama qarshi kuchlarning tarkibi, xolati va xarakterlari, jang maydonlarining meteorologik sharoitlari, yil fasllari va boshqa faktorlar bilan aniqlangan. Xamma faktorlarni to'g'ri xisoblash, ijodiy baxolash xujumkor jangga o'tish usullarini tanlash imkoniyatini bergan.

Urushdan oldingi harbiy nizomlarda, xujumkor jangga o'tishning asosiy usuli-xarakatlanish mobaynida xujumga o'tish (sxodu) xisoblangan. Bu xolda, belgilangan vaqt juda qisqa bo'lgan paytlarda, mudofaani yorib o'tish uchun qo'shinlarni dushman mudofaa marrasiga yo'naltirilgan va xujum belgilangan yoyilish marralaridan to'xtalishsiz boshlangan. Bu usul, agar dushman mudofaasi kuchsiz va chuqur bo'lmaganda, xujumga o'tgan qo'shinlar esa katta o't ochish va zarba berish kuchlariga va eng asosiysi manyovr qilish imkoniyatiga ega bo'lgan xollarda qo'llanilgan.

1941-1945 yillardagi urush davomida o'qchi bo'linmalarning manyovr qilishlari juda xam yuqori bo'lmaganligini va 1942 yildan dushman transheya mudofaasiga o'tganligini e'tiborga olib, xujumga o'tishning usuli-dushman bilan bevosita to'qnaShuv davomida o'tish deb belgilandi. Bunda qo'shinlar xujumga o'tish uchun avvaldan dastlabki marrani egallanganlar, uni muxandislik munosabatida jixozlab, Shu erdan xujumga o'tganlar.

1941-1945 yillardagi urush arafasida va yillarida, o'qchi bo'linmalarning xujumdagi asosiy vazifalari, qarshidagi dushmanni tor-mor etish va marra yoki rayonni ko'rsatilgan vaqtda egallashdan iborat edi. Xujum qilayotgan qo'shinlarning asosiy xarakat ob'ektlari bu o'z-o'zidan ma'lum – dushman, uning tirik kuchlari, kurollari va jangovar texnikasidir. Faqat Shularni yo'q qilganda (asir olganda, egallaganda) to'liq g'alabaga erishish uchun sharoit yaratiladi. Shuning uchun, yo'q qilish uchun dushman guruxini yaqqol aniqlash-jangovar vazifa mazmunining asosiy elementini tashkil etadi.

Urush oldi nuqtai nazaridan o'qchi bataloni kuchaytiruvchi vositalar va dushmanning qarshilik ko'rsatishiga ko'ra (kuchlar va vositalar bo'yicha 3 marta ustunlikka erishgan xolda) front bo'ylab 400 metrdan 1000 metrgacha xujumkor jang olib boradi. Dushmanning dala mudofaa rayoniga xujum qilganda, g'alabaga asosiy yo'nalishda, shtatdagi va qo'llab quvvatlash uchun ajratilgan kuch va vositalarni joylashtirib, 3-5 marta ustunlik yaratgan xolda, kuchlarning bir qismi bilan chalg'ituvchi yo'nalishlarda imitatsion jang xarakatlarini olib borib erishish mumkin. Shundan so'ng o'qchi batalonining jangovar tartibini 1 yoki 2

eshelonda tuzish belgilangan. Jangovar tartib zarbdor, chalg'ituvchi guruxlaridan va ayrim xollarda zaxiradan (rezervdan) tashkil topgan.

**Zarbdor gurux** – bo'linmalarning shtatdagi barcha va qo'llab quvvatlash uchun ajratilgan vositalarning asosiy qismini (taxminan 2/3 qismini) o'z ichiga oladi.

**Chalg'ituvchi gurux** – (xamma kuch va vositalarning 1/3 qismigacha) – ikkilamchi, yordamchi yo'nalishlarda xarakat qilish uchun belgilangan.

**O't ochish guruxi** – batalonning pulemyot va minomet rotalaridan, 45 mm tankka qarshi to'plar vzvodidan tashkil topgan. U jangovar tartibning o't ochish elementi xisoblanib, bosh yo'nalishlarda qo'llanilgan.

Agar bo'linmalar chalg'ituvchi gurug'larda polkning (batalonning) ochiq qanotlarida xujumkor jang olib borsa, u xolda batalon zaxirasi (rezervi) xamma kuchlarning 1/9 qismidan yaratilgan.

yuqorida ta'kidlab o'tilgan elementlardan tashqari, o'qchi batalonining jangovar tartibi xujumda tanklar yordamida kuchaytirilsa, bir eshelon bevosita piyodalarni qo'llab-quvvatlovchi tanklar qo'yilib (NPP), xal qiluvchi yo'nalishlarda markazlashtirilgan xolda qo'llanilgan.

1941-1945 yillardagi urushning birinchi xujumlari tajribasi, o'qchi birlashmalar, qismlar va bo'linmalar jangovar tartiblarini va jangovar imkoniyatlarini kayta ko'rib chiqishni talab qildi. Buning asosiy sababi, 1941 yil kuzida nemis-fashist bosqinchilari Moskva ostonalarida muvaffaqiyatsizlikka uchrab, Ittifoq harbiy nazariyasida nazarda tutilganidan farq qilgan xolda mudofaaga o'tishga majbur bo'lganidir. Bu mudofaa katta bo'lmagan chuqurlikda pozitsion xarakterga ega bo'lib, o'z navbatida, xujum qiluvchilardan qisqa muddatlarda, zaxira kuchlari yoki frontning xujum qlinmagan uchastkalaridan, xududlaridan kuchlar etib kelgunga qadar xujumni oxiriga etkazishni talab qilar edi.

1941 yilda bo'linmalar odatda, 2 eshelonda xujumga o'tganlar. Shu bilan bir vaqtning o'zida, o'qchi bo'linmalarning jangovar tartiblarining chuqur eshelonlashtirilishi u sharoitlarda o'zini oqlamasligi ko'rinib qoldi. Dushman mudofaasining asosiy kuchlari tayanch punktlarida, oldingi chiziqda joylashtirilgan. Birinchi eshelonda ularga xujum qilgan bo'linmalar o'zlarining shtatdagi kuch va vositalarining 30-35 % ga ega bo'lgan. Qolganlari ikkinchi eshelonlarda joylashib, xech kanday xarakatlar olib bormagan va



jangovar tartibning chuqur bo‘lmaganligi uchun dushmanning xamma o‘t ochish vositalaridan talofatlar ko‘rgan.

Chuqur eshelonlashtirilgan jangovar tartibning kamchiligi to‘lig‘icha Moskva ostonalaridagi qarshi xujum paytida va 1942 yil yozgi janglarda ko‘rinib qoldi. Urushdagi tajribalar mudofaa Xalq komissarining 1942 yil 8 oktyabridagi № 306 – sonli buyrug‘ida o‘z aksini topdi. Bu buyruqda, o‘qchi bo‘linmalarining xujumkor jangda yangi jangovar tartiblarga o‘tishi kerakligi ta’kidlandi.

Bu buyruq jangovar tartibning zarbdor, chalg‘ituvchi guruxlariga bo‘linishini va rota, batalon, xanda polk va diviziyalarda eshelonlashtirishni bekor qildi va 1942 yil noyabr oyi boshlarida qabul qilingan qizil Armiya piyodalarining yangi Jangovar nizomining asosini tashkil etdi.

Yangi nizom qoidalarining to‘g‘riligi Stalingrad ostonalaridagi qarshi xujum paytida tekshirib ko‘rildi. Natijada, qo‘shinlarimizga unchalik chuqur bo‘lmagan, muxandislik munosabatida kuchsiz jixozlangan dushman mudofaasi qarshi turganda, yangi jangovar tartib o‘zini to‘liq oqladi. 55-armiyaning 302-o‘qchi diviziyasining o‘qchi batalonlari qurshovning tashqi frontida bir eshelonli jangovar tartibda xujumga o‘tib, birinchi pozitsiyadagi dushman mudofaasini 1500 m. gacha, 1-1,5 km/soat sur‘at bilan yorib o‘tdi. Bunda batalonning xujum front buylab 700 m. gacha, o‘qchi rotalarda 200-250 m. gacha etdi.

Shu bilan birga, 1942 yil oxirida nemis-fashist qo‘shinlarining mudofaasining xarakterli tomonlari xisoblangan, muxandislik munosabatida yaxshi rivojlangan bir-nechta pozitsiyalarini yorib o‘tish uchun, qudratli birinchi zarbani berish bilan birga, uni jang mobaynida rivojlantirish uchun kuchlar bo‘lishi talab qilingan. Qizil Armiyaning piyodalar Jangovar nizomidagi (BUP-42) bir nechta bo‘linmalari Shu munosabat bilan xujumkor jangning oshib ketgan talablariga javob bera olmadi. Bu amaliyotda, o‘qchi-qism-birlashma bo‘g‘inida 1943 yil yozida 2 eshelonli jangovar tartibni joriy qilishni aniqlab berdi. Bu qadamning nazariya tomonidan kerak ekanligi ancha kech isbotlandi. Harbiy tarixda bo‘lgani kabi, bevosita jang maydonida xarakat qilayotgan komandir va askarlarning ijodiy yondaShuvi jang nazariyasini ancha to‘ldirdi va ayrim xollarda amaldagi nazariyani tubdan o‘zgartirib, harbiy tarixning xamma yig‘indilarini rivojlanishini belgilab berdi.

### 12.3. Piyodalarni bevosita qollab- quvvatlash.

Urushning oxirgi davrida, qo‘shinlarning zirxli tanklar bilan ko‘plab ta‘minlanishi, o‘qchi bo‘linmalar komandirining umumqo‘shin jangini tashkil etish va olib borishda to‘plagan tajribalari bois, ko‘p xollarda tanklar, rotalar va batalonlarga biriktirila boshlandi (Visla-Oder, Berlin operatsiyalari). Shu munosabat bilan bevosita piyodalarni qo‘llab-quvvatlash tanklari (NPP) bu bo‘linmalarning jangovar tartibining yangi elementi bo‘lib qoldi. Urushning oxirgi bosqichida ushbu tanklarning olg‘a xarakatlarini ta‘minlash maqsadida bo‘linmalarga O‘YUAQ biriktirila boshlandi, ularning vazifasi dushmanning tanklarga qarshi vositalarini tor-mor etish bo‘lib (artilleriya razvedkachisining ma‘lumotiga ko‘ra), ular tanklardan 250-250 metr ortda xarakatlangan.

O‘qchi bo‘linmalarining jangovar tartiblari asosiy elementlarini kuchaytirish, yangi elementlarni yaratish, eski o‘zini oqlamaganlarini yo‘qotish yo‘lidan bordi. O‘qchi batalonining jangovar tartibi o‘zining rivojlanishida murakkab yo‘lni bosib o‘tdi. Uning urush yillaridagi rivojlanishni 2 epatga bo‘lish mumkin. Birinchi etapda (1941 yildan-1943 yilning birinchi yarmi) ikkinchi eshelonni bekor qilish xisobidan jangovar tartibni oddiylashtirishga intilish kuzatildi. Xamma o‘qchi rotalarini bir liniyada (burchak ostida (pod uglom) yoki bir burchak chiqqan xolda (ustupom) qo‘llash, xujumda o‘t ochish kuchlarini va nayza bilan zarba berishni oshishiga imkon berdi. Lekin xujum paytida bosh yo‘nalishda bu kuchlarni qo‘llab-quvvatlash va jadallashtirish imkoniyati bo‘lmadi. Bunday jangovar tartib dushmanning bitta-ikkita transheyali mudofaasiga xujum qilganda o‘z samarasini bergan bo‘lsa, 3-4 trashneyadan iborat bo‘lgan dushmanning birinchi pozitsiyasini yorib o‘tishda yaroqsiz edi. Shuning uchun urushning davrida o‘qchi batalonining ikkinchi esheloni qayta tiklandi.

o‘qchi bo‘linmalarining Ikkinchi Jaxon urushi yillarida yaratilgan jangovar tartibi bizning kunlarda xam asosan saqlanib qoldi.

O‘qchi bo‘linmalariga real jangovar vazifalarni qo‘yish va ularni bajarish uchun samarali jangovar tartib yaratish, dushman mudofaasinining birinchi pozitsiyasini bir soat mobaynida yorib o‘tish imkonini berdi va dushman taktik mudofaa zonasini (TZO) qisqa muddatda muvaffaqiyatli yorib o‘tish va keyinchalik xujumkor jangni mudofaa ichkarisida rivojlantirish sharoitini yaratdi.

## 12.4.Xujumni tayorlanishi

1941-1945 yillardagi urush arafasida va yo‘llarida qo‘shinlarning chuqurlikdan yig‘ilish, jamlanish rayoniga tortib kelish bilan boshlanib, xujum uchun dastlabki marraga etkazish bilan tugagan. Dushman bilan bevosita to‘qnaShuv xolatida xujumga tayyorgarlik, xujumga o‘tish uchun belgilangan dastlabki marradan amalga oshirilgan.

Jamlanish rayoni odatda, maskirovka uchun qulay joylarda, asosan dushman artilleriya zarbasi etmaydigan masofalarda belgilangan. Urush oldi nuqtasi nazarida jamlanish rayoni dushmanning asosiy mudofaa chizig‘idan 3-5 km. bo‘lgan. Urush yillarida bu masofa ko‘p xollarda katta, 5-10 km. gacha etkazilgan.

Bo‘linmalar jamlanish rayoniga etib kelib, bo‘ladigan jang xarakterlarini tuShunib va unga tayyorgarlik ko‘rgan. Tayyorgarlikning aniqligi va davom etishi urush yillarida doimo oshib borgan. Komandirlar va shtablarning xujumkor jang tadbirlari tayyorgarligini, (xujumga o‘tish dastlabki marrasida) katta qismini jamlanish rayonida o‘tkazishga xarakterlari ko‘zga tashlanadi. Bundan maqsad, tayyorgarlik ishlarining xajmini xujum uchun dastlabki marrada qisqartirishdan iborat. Shunga qaramasdan, xujum uchun dastlabki marraning axamiyati ko‘rilayotgan davrda o‘ta baland bo‘lib qolaverdi.

Bo‘linmalarga xujum uchun dastlabki marra, bo‘lajak jang xarakterlari yo‘nalishlariga, ularning bo‘lajak jangovar tartiblariga yashirincha chiqishlarini xisobga olinib vazifa belgilangan. Dastlabki marra dushman tomonini, uning oldingi chizig‘iga yashirincha chiqish yo‘llarini, o‘z qo‘shinlarini joylashgan joylarini kuzatishni, xamda shtatdagi va qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan pulemetlar, minomyotlar va orudiyalarni o‘zi uchun qulay joylashtirishni ta‘minlash kerak edi. Undan, ya‘ni dastlabki marradan, shtatdagi bor qurollarning, birlashtirilgan va qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan o‘t ochish vositalarining to‘sivida, xujum xarakterlari, jangovar tartibga yoyilgan xolda boshlanadi. Xujum uchun dastlabki egallash ko‘p xollarda bir vaqtning o‘zida avval mudofaa etilgan marrani almashtirish bilan olib borilgan.

Dastlabki xolatda xujumga tayyorgarlik ishlari oxiriga etkazilgan. Bu erda dushmanni oxirigacha razvedka qilingan. Xujum uchun qaror aniqlangan, bo‘linmalarga jangovar vazifa qo‘yilgan, o‘zaro xamkorlik tashkil etilgan, xar tomonlama ta‘minlash va boshqaruv yo‘lga qo‘yilgan.

Xujumni tayyorlashda vaqt faktori sezilarli ta'sir o'tkazadi. Buning uchun urushdan oldin batalon zvenosiga 2-3 soat yorug' vaqt etarli deb xisoblangan. Lekin boshlangan Ikkinchi Jaxon urushi, ayniqsa uning birinchi davri xujumga tayyorlanish muddatini minimumga qisqartirishga majbur etdi. Shunaqa vaqtlar bo'lganki, batalon komandiriga xujumni tayyorlash uchun bor-yo'g'i 10-15 minut vaqt berilgan. Bunday vaqtning cheklanishi bo'linmalarga dushman mudofaasi va joylashgan joyini xususiyatlarini xisobga olmasdan faqatgina jangovar vazifani aniqlash imkonini bergan. Bunaqa sharoitda o'zaro xamkorlik masalalari qo'rib chiqilmagan. Xujum uyushmagan xolda olib borilib, ko'p xollarda muvaffaqiyatsiz tugagan.

1941-1945 yillarning qishidagi xujumlarni tashkil etishdagi kamchiliklarni xisobga olib, 1942 yil otkyabrida Bosh shtab boshlig'i qo'shinlarga topshiriq berib, unda batalon komandirlariga jangni tashkil etish uchun 3 soatdan kam bo'lmagan vaqt ajratilishini talab qildi.

1943 yil yozida jangni tashkil etish uchun batalon komandiriga 6-8 soatgacha vaqt ajratila boshlandi. Bu xol ularga bosqichma-bosqich va to'la xajmda xamma zvenolarda kerakli tadbirlarni o'tkazish imkonini berdi. Joylarda ishlarni amalga oshirish va bo'linmalarni bo'lajak jang xarakatlariga tayyorlash imkoniyatni xam yaratildi.

Urushning uchinchi davridagi ko'pgina janglarda komandirlarga va shtablarga jangni tashkil etish uchun yanayam qulay sharoitlar yaratildi. 1944 yil baxorida chiqqan, dushman pozitsion mudofaasini yorib o'tish bo'yicha qo'llanma faqat joylarda o'zaro xamkorlikni tashkil qilish uchun batalon komandiriga bir sutkadan kam bo'lmagan vaqt ajratilishini talab qildi. Ayrim xollarda undan xam ko'p muddat berilgan.

Xujumga tayyorgarlik o'ziga, komandirlar, politrabotniklar, va batalon shtabi tomonidan amalga oshiriladigan bir nechta tadbirlarni birlashtiradi. Ularning asosiylari: yig'in (sbor), vaziyatni xamma tomonlama baxolash va umumlashtirish, qarorni ishlab chiqish, bo'linmalarga jangovar vazifa qo'yish, o't ochib zarba berishni, ta'minlashning xamma turlarini o'zaro xamkorligini va boshqaruvni, xamda qo'shinlarni jangovar vazifani bajarish uchun tayyorgarligini tashkil etishdan iborat.

1941-1945 yillardagi urush davrida komandirlarning YIG'IN (SBOR), VAZIYAT MA'LUMOTLARINI BAXOLASH VA UMUMLASHTIRISH buyicha ishlari doimo takomillashib bordi. Batalon komandiri vaziyat to'g'risidagi ma'lumotlarni

komandirlaridan, buysunuvchilaridan, biriktirilgan va qo‘llab-quvvatlash uchun ajratilgan bo‘linmalardan, yuqorida turgan shtabdan, asirlardan, qochib o‘tganlardan va maxalliy axolidan, xamda shaxsan jang maydonini kuzatish natijalaridan olgan.

Xujumni tashkil etishdagi yaqin davr bu komandir tomonidan qarorni ishlab chiqishdan iborat bo‘lgan. Chunki buning asosida jangni tashkil etish va olib borish bo‘yicha keyingi tadbirlar amalga oshirilgan.

Urush yillarida komandirning ishi avvalo bo‘lajak xarakatlarning maqsadini aniqlash (komandir nimaga erishmoqchi), xarakatning usulini (qanday qilib maqsadga erishishni) aniqlashdan iborat edi. Jangning maqsadi, bo‘linmalarning xarakat yo‘nalishlari, jangovar tartibning qurulishi, qo‘shinlarning vazifalari, o‘zaro xamkorlikning tashkil etilishi, o‘t ochib yo‘q qilish, ta‘minlash va boshqarish-qarorning asosiy masalaridan biri edi.

Tajriba Shuni ko‘rsatdiki, qarorning maqsadga muvofiqligi ko‘p faktorlarga, avvalo, olingan jangovar vazifani chuqur anglab etishga vaziyatni xamma tomonlama to‘g‘ri baxolashga, jangda xamma kuch va vositalarni uning rivojlanishini xisobga olib, asoslangan usullarni, qoidalarni qo‘llashga bog‘liq.

Jangovar vazifani qo‘yayotganda komandirlardan tezkorlik, yashirinchalik bilan uni etkazish, aniq, to‘liq va tushunarli qilib aytib berish talab qilingan. Bunda xamma choralar ko‘rilib, pastdagi komandirlar jang xarakatlarini tashkil etish uchun etarli vaqtga ega blishlari ko‘zda tutilgan. Jangovar vazifa bo‘linma komandirlariga o‘og‘zaki, aloqa vositalaridan foydalanib etkazilgan.

Jangovar buyruq qo‘shinlarga qaror va vazifani etkazish uchun asosiy xujjat xisoblangan. Batalon, rota, vzvod komandirlari jangovar buyruqni joylarda og‘zaki, asosan kartaga tushirgan xolda berishgan. Jangovar buyruqda quyidagi asosiy vazifalar ko‘rsatilgan:

- dushman xaqida ma‘lumot;
- olingan jangovar vazifa;
- qo‘shnilarning xolati va ularning vazifalari;
- komandirning qarori;
- buysunuvchilarga vazifalar; (yaqindagi va oldindagi bajarilajak vazifalar va kuchaytirish vositalari, XXM (PVO), TQM (PTO), xamda qanotlar va bo‘sh joylarni ta‘minlanishi, aloqa uchun signallar va shartli belgilar, qo‘mondonlik

kuzatuv punkti (KNP), o‘q-dori punkti, sanitar transporti posti va o‘rinbosarlar joylashgan joylar).

Qizil Armiya piyodalar Jangovar nizomi (BUP-42) «buyruq tushunarli, qisqa, izoxlarsiz, lekin Shunaqa qilib etkazilsinki, buysunuvchilar o‘zlariga qo‘yilgan vazifani to‘g‘ri tuShunsinlar» degan talabni asosiy omil sifatida aniqlab berdi.

Ayrim xollarda jangovar buyruq o‘rniga yoki uni rivojlantirishda jangovar ko‘rsatmalar berilgan. Buning uchun bo‘linma komandirlari belgilangan namunadagi dala daftarchasidagi dala yozuvlaridan keng foydalanishgan.

Bo‘linmalar tomonidan dushmanni o‘t ochib yo‘q qilish rekognosirovkalar o‘tkazish jarayonida, qaror qilish davomida va o‘zaro xamkorlikni tashkil etish vaqtida amalga oshirilgan.

Uning vazifasi o‘qchi bo‘linmalarning xarakatlarini pulemetlar, artilleriya, minometlar va tanklar zarbasi bilan to‘xtovsiz qo‘llab-quvvatlashni ta‘minlash edi.

Rekognosirovkada juda kuchli zarba berilishi kerak bo‘lgan ob‘ektlar aniqlanishi kerak bo‘lgan va u yo‘nalishlarda artilleriya o‘t ochish pozitsiyasini joylashtirish nazarda tutilgan.

Batalon komandiri qaror qabul qila turib, o‘t ochish vositalarini rotalarga taqsimlagan, yoyilish tartibi va o‘t ochishga tayyorlanish muddatini va boshqarish signallarini belgilagan. Keyin u artilleriya tayyorgarligi davomida yo‘q qilish va bosib qo‘yish (podavleniya) uchun ob‘ektlarni, xujum boshlanishi bzarbani qaysi nishonlarga ko‘chirishni, tikanli to‘siqni qaysi joylaridan o‘tish yo‘llarini ochishi aniqlagan. Yana u pulemet bo‘linmalariga, tankka qarshi miltiqlar (PTR) bo‘linmalariga va avtomatchilarga vazifa belgilagan.

Urush yillarida xujumda o‘zaro xamkorlikni tashkil etishning takomillashtirishning jadal izlanishlari olib borildi. Xujumning mazmuni kengaytirildi, chuqurligi oshirildi va unga qo‘shinlarning kuchlari jamlantirildi. Agar Moskva ostonalaridagi qarshi xujumda o‘zaro xamkorlik odatda piyodalar, tanklar, artilleriya o‘rtasida faqat dushman mudofaasiga xujum qilinganda tashkil etilgan bo‘lsa, 1943 yilning yozida kelib, kuchlarni birgalikda jamlash va o‘zaro xamkorlik piyodalar, tanklar, artilleriya va muxandislik qo‘shinlari o‘rtasida bo‘linmalarning jangovar vazifalarining butun chuqurligida tashkil etildi. Bo‘shliqlarni (stiklarni), qanotlarni ta‘minlash, qo‘shinlar bilan yaqin xamkorlikka erishish masalalari echila boshlandi. Batalon komandiri bilan xamkorlik joylarda (ko‘rinishi,

chuqurligida) yoki karta bo'yicha ko'p xollarda urushning birinchi davrida xarakterli bo'lgan, bo'ysunuvchi komandirlarga ko'rsatmalar bermasdan, rekognosirovkada xarakatlarning extimolga yaqin variantlari o'yini bo'yicha amalga oshirildi. Bunda artilleriyaga buzib tashlash, bosib qo'shish uchun nishonlar, transheyalar va biriktiruv yo'llarining uchastkalari, tayanch punktlari va mudofaa inshootlari, xamda artilleriya tayyorgarligi davrida dushmanning to'siqlaridan o'tish uchastkalari va vaqti, piyodalar va tanklarning xujumini quvvatlab turish tartiblari va ularning chuqurlikdagi janglarini zarbalar bilan kuzatish ko'rsatilgan.

Piyodalarni bevosita qo'llab-quvvatlash tanklari, dastlabki pozitsiyalarga chiqish xaqida, yoyilish marralari xaqida, o'tish joylari va to'siqlardan o'tish xaqida, dushmanning tayanch punktlariga xujum qilganda, artilleriya va piyodalar bilan xamkorlik qilish xaqida topshiriq olgan.

Xujumni tayoyrlashda boshqarishni tashkil etish muxim o'rin egaladi. Jangda batalonini boshqarish – komandir va shtab tomonidan, rota va vzvodlarni boshqarish esa boshqaruv guruxlari jalb qilingan xolda ularning komandirlari tomonidan amalga oshirilgan.

Dastlabki marrada, xujum boshlanishida boshqaruvni yo'lga qo'yish uchun xamma bo'linmalarda qo'mondon-kuzatuv punktlari (KNP) yaratilib, jixozlanib, u erda komandir va shtab ishchilari yoki boshqaruv guruxi joylashgan.

Batalon komandiri bo'yichunuvchi bo'linmalarini, shtab boshlig'i funksiyasini bajarayotgan katta ad'yutant orqali boshqargan. Katta ad'yutant batalon komandirining ko'rsatmalarini etkazishni ta'minlagan, katta boshlif bilan, fo'llab-fuvvatlovchi bo'linmalar va qo'shnilar bilan aloqani yo'lga qo'ygan va jang maydonini to'xtovsiz kuzatishni tashkil etgan. Bunda tashqari, unga komandirning buyrug'ini joylarda bajarilishini tekshirish, xamda batalonining front orti ishlarini va qo'riqlashni tashkil etish vazifasi yuklatilgan.

Rota va vzvod komandirlariga bo'linmalarini boshqarishda, boshqaruv guruxi safiga tashkiliy kirgan kuzatuvchilar va aloqachilar yordam bergan. Kuzatuvchiga komandirni vaziyatning xamma o'zgarishlaridan xabardor qilish uchun, dushmanni va o'z qo'shinlarining xarakatlarini kuzatish vazifasi yuklatilgan. Aloqachilar yuqoridagi komandir, bo'ysunuvchi va biriktirilgan bo'linmalar komandirlari bilan aloqani bog'lab turish uchun ishlatilgan.

Xujum boshlanishi bilan bo‘linma komandirlari dushmanni kuzatish uchun, birlashtirilgan va qo‘llab-quvvatlovchi vositalarni boshqarish uchun va yuqoridagi shtab bilan aloqani olib borish uchun qulay joylarda joylashishi kerak bo‘lgan. Lekin bunda birinchi o‘ringa komandirning jangdagi shaxsiy namunasi qo‘yilgan. Urushning birinchi davridagi tajribalar jangda bo‘linmalarni boshqarishni tashki etishni katta kamchiliklarini ko‘rsatdi. Urushdan oldingi nizomlarning komandirining jangdagi o‘rni to‘g‘risidagi talabining maqsad muvofiqligi isbot etildi. Vzvod, rota, batalon komandirlarining bo‘linmalarning oldida borishi natijasida, boshqaruvning tashkillanishi buzilib ketdi, ofitserlar safi esa katta talofatlar ko‘ra boshladi.

Tajribalarni umumlashtirib, Mudofaa Xalq komissari 1942 yil 8 oktyabrda № 306 sonli buyrug‘ida komandirlarning joyini aniqlab berdi: «otdelenie komandiri – bevosita zanjirda (sepda), vzvod, rota, batalon komandirlari – bo‘linmalarning jangovar tartibining ortida, o‘z bo‘linmalarining, xamda qanotlardagi qo‘shnilarning janglarini borishini va dushmanni kuzatish uchun qulay joylarda». Bu talab piyodalar Jangovar nizomida o‘z tasdig‘ini topdi. (BUP-42).

1941-1945 yillardagi urush yillarida, o‘qchi bo‘linmalarining boshqarish vositalari takomillashib bordi. Urush arafasida ular tovush signallari (svistok, truba, burg‘u, qo‘ng‘iroq, snaryad gilzalari va boshQalar), ko‘rinish signallari (vexalar, gulxanlar, bayroqchalar, raketalar, «svetyak» (SP-60), yoki «lyuks» (SP-95) rusumidagi svetsignal apparatlari, telefon apparatlari (UNA va UNA-F), (A-7) radiostansiyalardan iborat edi). Bundan tashqari, aloqa delegatlari keng ishlatildi.

Urush boshlanishi bilan telefon apparatlari telefon provodalari va radiostansiyalarning etishmasligi ko‘rinib qoldi. Buning xammasi bo‘linmalarni boshqarishda va oqibat jangning natijasiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi.

1943 yilda o‘qchi batalonlariga polk bilan aloqani tashkil etish uchun A-7, va A-7-A, 1944 yilda takomillashgan A-7B radiostansiyalari berila boshlandi. O‘qchi bataloni va birlashtirilgan tank bo‘linmalari o‘rtasida aloqa broneob‘ektlarga o‘rnatilgan 9R, 10R, va 122T radiostansiyalari yordamida amalga oshirilgan. Batalon – rota zvenosida va birlashtirilgan artilleriya bo‘linmalari o‘rtasida aloqa uchun RBS radiostansiyalari va telefon aloqasi qo‘llanilgan. Xato 15-20 km. sutkalik xujum suratida xam, ko‘p tarmoqli telefon aloqasi o‘tkazish imkoniyati bor ekanligini urush tajribalari ko‘rsatdi.



1943 yilda yozidan, diviziyalarda radio va telefon aloqalarini amalga oshirish uchun, sutkada bir marta, xatto sutkada bir necha marotaba o'zgarib turadigan yagona boshqarish va yo'naltirish jadvallari ishlab chiqila boshlandi.

Shunday qilib, 1941-1945 yillardagi urush yillarida o'qchi bo'linmalarining xujumga tayyorgarligi doimo takomillashib bordi. Batalon komandirining jangni tashkil etish bo'yicha ishlari 1941 yilda 10-15 minutdan 1-3 sutkagacha uzaytirildi. Vaziyat ma'lumotlarini yig'ish, umumlashtirish va baxolash bo'yicha ishlarning sifati sezilarli oshdi. Razvedkaning vositalari soni va organlarining jixozlanishi, uning o'tkazilish chuqurligi, olingan ma'lumotlarning ishlab chiqishning tezkorligi o'sdi. Buning xammasi komandirning – maqsadi bo'yicha oddiy, bajarilishi bo'yicha real jangga qaror chiqarishiga va jangovar vazifani bajarilishini ta'minlashga ijobiy ta'sir o'tkazdi.

Rota va vzvod komandirlariga jangovar vazifa bevosita joylarda etkazilgan, undan keyin xamma kuch va vositalarning vazifalar bo'yicha, marralar, vaqtlar, va vazifani bajarish usuli bo'yicha o'zaro xamkorlik tashkil etilgan. Xujumkor jangda jangovar va material-texnik ta'minlanish ko'p o'sib boruvchi axamiyat kasb etdi.

Urush yillarida boshqaruvni tashkil etishni yaxshilash masalalarida keskin siljishlar bo'lib o'tdi. Jangda komandirning xaqiqiy o'rni aniqlandi. Batalon shtabi xaqiqiy boshqarish organiga aylandi. Boshqaruv punktlarining safi, joylashuvi, ko'chish tartiblari birma – bir aniqlanib berildi. Xujumda boshqaruvning texnik vositalari va qo'shinlarni yashirin boshqaruv xujjatlari keng ishlatila boshlandi.

Bo'linmalarining jangga tayyorgarligi sezilarli takomillashdi. U ancha davom etadigan va ancha aniq bo'ldi, bo'lajak jangning joyining shartlariga javob beradigan, jangovar vaziyatlariga yaqinlashtirib, jangovar otishma bilan, biriktirilgan va qo'llab-quvvatlash uchun ajratilgan kuch va vositalarni jalb qilib o'tkazila boshlandi.

1941-1945 yillardagi urush yillarida aniqlangan, asos solingan jang tayyorgarligining xamma tadbirlari, uning rivojlanishining asosiy yo'nalishlari hozirgi sharoitda xam dolzarb bo'lib qolmoqda. Jangni qisqa muddatlarda, qiyin taktik vaziyatda, xamda jangovar xarakatning birinchi turidan ikkinchi turiga o'tishda (mudofaadan xujumga) tashkil etish usuli va ishlarning bosqichma-bosqich olib borilishi aloxida e'tiborga molik.

## **12.5.Dushman mudjfaasini yorib o`tishda yuqori sur`atlarga erish.**

*1941-1945 yillardagi* urush yillarida o`qchi bo`linmalarining xujumga o`tishlari «yagona xolda» asosan amaliyotda o`tkazilmagan. Piyodalar bilan birgalikda, xatto undan o`zib ketib artilleriya, tanklar, (o`zi yurar artilleriya) va saperlar xujum qilishgan. Xujum odatda, mudofaada turgan dushmanni o`t ochib zarba berish bilan boshlanib, bir nechta ketma-ket bosqichlarni o`z ichiga oladi: xujum (ataka), ta`qib qilish, dushmanni qarshi xujumini qaytarish (agar dushman uni o`tkazsa) va erishilgan marraga mustaxkamlanish bilan tugaydi.

### **DUSHMANGA O`T OCHIB ZARBA BERISH.**

O`qchi bo`linmalarining xujumi yo`nalishida DUSHMANGA O`T OCHIB ZARBA BERISH asosan artilleriya yordamida amalga oshirilgan va o`q otar quollarining zarbalari bilan to`ldirilgan. Ayrim xollarda bunga aviatsiya xam qatnashgan. O`t ochib zarba berish, odatda, artilleriya tayyorgarligi bilan qo`qqisdan boshlangan.

Artilleriya tayyorgarligi samaradorligining oshishi artilleriya qalinligining oshirilishi, artilleriya tayyorgarligi vaqtining kamaytirilishi va bunda o`t ochish naletini oshirilishi, va xamda nishonlarni sifatli razvedka qilish yoki boshlangan razvedkani oxirigacha etkazish xisobiga erishildi. Belorusiya va YAssi-Kishinyov operatsiyalarida artilleriya qalinligi yorib o`tish uchastkalarida xar bir km. da 200-250 tanki tashkil etgan. Bu xol xar bir o`qchi bataloni xujumini 120 dan 150 tagacha orudiya, minometlar, reaktiv artilleriya jangovar mashinalari qo`llab turushi imkonini berdi. Artilleriya tayyorgarligining davom etishi 70-140 (1 soat 10 daqiqa – 2 soat 20 daqiqa) daqiqaga qisqartirildi, O`t ochish naletining xajmi esa 40-60 % ni tashkil etdi. 1941-1945 yillardagi urushning oxirigi davrida xujumning artilleriya tayyorgarligi ancha takomillashdi. Uni o`tkazish uchun jalb qilingan orudiya va minometlar frontning xar bir km. da 280 taga etkazildi. Bu xol xar bir o`qchi bataloni xujumi yo`nalishida 150 ta o`t ochish vositalarining zarbalarini jamlanishini ta`minladi.

Xujum zarbasi tayyorgarligining davom etishi 25-45 daqiqaga qisqartirildi, o`t ochish naletining xajmi esa 60-100 % ga etdi. Ko`pincha artilleriya tayyorgarligi bitta kuchli o`t ochish naletidan tashkil topgan. Dushmanga xujumni boshlanishi to`g`risida yolg`on tasovvur kasb etish uchun, artilleriya zarbasini oldingi marradan ichkariga ko`chirishni soxta tayyorgarligi o`tkazilishi keng qo`llanildi. Bunga ishonib, dushman oldingi marradan transheyalarni egallagan. Bu vaqtda oldingi marraga qarata, dushman uchun xalokatli

bo'lgan navbatdagi kuchli o't ochish naleti o'tkazilgan. Misol uchun, 1944 yil aprelida, 3-gvardiyachi diviziyaning Perikop buynidagi artilleriya tayyorgarligi jadvalida ikkita soxta zarbaning ko'chirilishini o'tkazish ko'zda tutilgan edi.

Artilleriya xujumining bajarilishi zarur bo'lgan qismi, Oliy Bosh Qo'mondonlikning 1942 yil 10 yanvaridagi direktivasida aniqlab berilgan va Qizil Armiya piyodalar Jangovar nizomida tasdiqlangan artilleriya qollab-quvvatlashi xujumning muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun katta ahamiyatga ega.

Birinchi bo'lib, piyodalar va tanklarning xujumini rejalashtirilgan artilleriya artilleriya qo'llab-quvvatlash 1942 yilning 10 yanvarida 331-va 352- o'qchi diviziyalarining xujumlarida Lama daresi buylarida, ketma-ket zarbani avaldan razvedka qilingan nishonlarga dushmanning birinchi marrasining butun chuqurligida jamlash usuli bilan amalga oshirilgan.

Urushning uchinchi davrida, birlamchi o't ochish vali bilan birgalikda ikkilamchi o't ochish vali usulida artilleriya qo'llab-quvvatlashi keng tajriba qilina boshlandi. 1944 yil iyunida Bobruysk operatsiyasida bosh yo'nalishda xujum qilayotgan 44-gvardiyachi o'qchi diviziya birinchi eshelonining artilleriya qo'llab-quvvatlashi ikkilamchi o't ochish vali bilan 1800 m. chuqurlikda amalga oshirdi. O't ochish valining asosiy marralari, dushman mudofaasining xarakterlari qarab, uning tayanch punktlari, transheyalari, tirik kuchlari, zarba berish vositalariga qarab, bir-birovidan 200-250 m. masofada tayinlangan. Ularning o'rtasida 1-2 oraliq marralar aniqlab berilgan. O't ochish valining xamma marralari xujum boshlanishidan 2-3 kun oldin otib ko'rilgan. 1944 yil yanvarida Leningrad qamalini yorib o'tishda bir vaqtning o'zida zarba uchta marraga berildi. Qrim operatsiyasida esa 51-o'qchi korpusning yorib o'tish uchastkasida to'rtinchi o't ochish vali olib borildi.

Dushmanni uning mudofaa chuqurligida xujumni rivojlantirishda o't ochib yakson qilishda, qarshi xujumini qaytarishda va rejalashtirilgan xolda ortga qaytishiga yo'l qo'ymaslikka, chuqurligiga ta'sir o'tkazadigan va o'tkazish usullari piyodalar va tanklarni artilleriya zarbasi bilan kuzatish muxim rol o'ynadi. Urush yillarida piyodalar va tanklarni artilleriya zarbasi bilan kuzatish chuqurligi xujumda 6 martadan oshdi, kam samarali jamlangan zarba o'rniga esa chaqiruv bo'yicha, avvaldan razvedka qilingan nishonlarga jamlangan va kuchaytirilgan artilleriya zarbalari qo'llanila boshlandi.

1941-1945 yillardagi urush arafasida va yillarida, piyodalar va tanklarning xujumi, dushmanning tirik kuchlarini yo‘q qilishga, uning material zaxiralarini egallashga, ma‘naviy kuchlarini va qarshilik ko‘rsatish qobiliyatini bosib qo‘yishga olib keladigan taktik xujumning barqaror etapi deb xisoblangan. U o‘qchi batalonining jangovar vazifasining butun chuqurligida olib borilgan. Xujumning muvaffaqiyatli o‘tkazilishidan ko‘p jixatdan butun xujumning muvaffaqiyati bog‘liq bo‘lgan. Shuning uchun urush yillarida xujumning ushbu etapi, xamma darajadagi komandirlar va keng askarlar ommasining ishtirokida doimo izlanilib, tadqiqot qilishni talab qilgan.

Urush yillarida xujumni takomillashtirish bor necha yo‘nalishlardan bordi, ulardan asosiylari, uning qo‘qqisdan boshlanishini ta‘minlash, birinchi zarbaning samaradorligiga, xarakatchanligiga va to‘xtovsizligiga erishish.

### **12.6. Dushmanni taqib etish.**

Birinchi pozitsiyada mag‘lubiyatga uchuragan Dushmanni taqib etish., uni uzil-kesil tor-mor etishda katta ahamiyatga ega. Dushmanni ta‘kib etish uning chuqurlikda mudofaani tiklashiga yo‘l qo‘ymasdan, o‘z qo‘shinlarini xujumini muvaffaqiyatli rivojlantirishni ta‘minlaydi.

Urushdan oldingi harbiy nizomlar, o‘qchi bo‘linmalari dushmanni ortga chekinishi aniqlanishi bilan uni zudlik bilan ta‘qib etishni talab qilgan. Ta‘qib etish, kuchlarning butun shijoatlari bilan dushmanni to‘liq yakson qilingungacha olib borilishi va katta boshliqning buyrug‘i bilan to‘xtatilishi mumkin edi.

Vaziyatning qulay sharoitlarida va ochiq joylarda ta‘qib etish suratini oshirish uchun, bo‘linma va rota komandirlari bo‘linmalarning orudiya va pulemetlar bilan kuchaytirilgan katta qismini kolonnaga yig‘ib, ularni tezlik bilan qanotlarga dushmanni chekinish uchun chiqadigan yo‘llariga tashlagan. Bunda, frontda faqat zarba berish uchun keraklicha kuch va vositalar qoldirilgan. Frontdan ta‘qib etayotgan bo‘linmalar pulemetlar, artilleriya va tanklar bilan kuchaytirilgan. O‘t ochib zarba berish vositalari chekinayotgan dushmanni ko‘proq zarba ostida ushlab turish uchun jadal olg‘a intilib, uning tashkillashgan chekinishini barbod etib, unga katta talofatlar etkazgan. Tomonlarda qolib ketgan qarshilik ko‘rsatish o‘chog‘larini batalon aylanib o‘tib ketishi va ular xaqida ma‘lumotni polk komandiriga etkazishi kerak bo‘lgan.

Bundan kelib chiqadiki, urushdan oldingi harbiy nazariya dushmanni, o'qchi bo'linmalar bilan uzil-kesil maqsadlar bilan katta chuqurlikda nafaqat frontdan, balki parallel marshrutlar bo'ylab xam taqib etishni ko'zda tutgan. Samarali ta'qib etish – bu frontdan va parallel tomonlardan taqib etishni birga olib borish xisoblangan.

Shunday qilib, urush yillaridagi janglar tajribasi, ta'qib etish xujumning ajralmas bir qismi ekanligini tasdiqladi. U jang xarakterlarining turli usullari yig'indisi bo'lib, ularda xal qiluvchi rolni chekinayotgan dushmanning qanotlariga va ichkarisiga qirish uchun manevr va unga xar xil yo'nalishlardan qo'qqisdan zarbalar berish ahamiyatga egadir. Ta'qib etishda muvaffaqiyatga erishishda yuqori olg'a intilish suratlari muhim e'tiborga ega. Olg'a intilish suratlari qancha yuqori bo'lsa, Shunchalik bo'linmalar dushman rejalarini barbod etish, uning kuchlarini bo'laklarga bo'lib tashlab tor-mor etish imkoniyatini olgan.

Ta'qib etishda yuqori suratlarga erishish uchun, komandir o'z vaqtida dushmanning chekinishini aniqlashi, uni xujum qilayotgan bo'linmalardan ajralishiga yo'l qo'masligi, tezlik bilan kerakli jangovar tartib tuzib ta'qib qilishga o'tishi, tezkor xarakterlar bilan dushmanni o'ulay marralarga va ob'ektlarga o'rnashib olishiga imkon bermasligi, ta'qibni xatto kichik to'xtalishlar va pauzalarsiz, kuchlarning to'liq shijaotlari bilan o'tkazishi muhim edi.

Xujum paytida, va ayniqsa chekinayotgan dushmanni ta'qib etishda komandir erishilgan muvaffaqiyatni mustaxkamlash uchun, xamma choralarni ko'rishga Shu vaqtda tayyor bo'lishi kerakki, qachon uning bo'linmasi jang qilish imkoniyatini yo'qotganda (dushmanning kuchli mudofaasiga duch kelganda, katta kuchlarning qarshi xujumini qaytarishda yoki katta boshliqning buyrug'i bo'yicha).

### **12.7. Erishilgan marrada mustaxkamkanish**

Erishilgan marrada mustaxkamkanishga 1941-1945 yillardagi urush davrida katta e'tibor berilgan. Bu masalada – xujum qiluvchi o'zining maqsadi – dushmanni to'liq tor-mor etishga doim tayyor turgan xolda, o'zini xar xil kutilmagan xodisalardan ximoya qilishidan kelib chiqilgan xolda xarakterat qilingan. O'z egallagan pozitsiyasini mustaxkamlamasdan xujumga o'tish xalokat bilan barobar deb xisoblanadi.

Piyodalar bo'linmalarining oxirgi marralarga chiqishlari bilan xujum tugallanmaydi. Agar xamma marralar mustaxkam egallansa, agar dushmaning xamma qarshi xujumlari

qaytarilgan bo'lsa va u yaqin vaqt oralig'ida ularni qaytadan jangovar xarakatlarni boshlash qobiliyatidan maxrum etilgan bo'lsagina jangovar vazifa bajarilgan deb xisoblanadi.

Egallangan marralarda mustaxkamlanish, dushmanning qarshi xujum qilish extimoli bor yo'nalishlarida razvedka ishlarini tashkil etish bilan, bosib olingan marralarni mudofaa qilish bo'yicha bo'linmalarga vazifa qo'yish bilan, o't ochish tizimini, ayniqsa tankka qarshi o't ochish tizimini, muxim yo'nalishlarda va uchastkalarda tankka qarshi to'siqlarni o'rnatish bilan, bo'shliqlarni va qanotlarni ta'minlash bilan, muxandislik ishlarini to'liq xajmda o'tkazishni tashkil etish bilan erishiladi. Ushbu tadbirlar o'qchi bo'linmalarining qisqa muddatlarda mudofaani tashkil etish bo'yicha o'tkazadigan tadbirlariga juda xam o'xshash.

Xujumkor jang taktikasiga kiritilgan o'zgarishlar va komandirlarning tajribalari oshib borishi, taktik vaziyatni baxolashda ularning ijodiy yondaShuvlari natijasida, xamda Stalingraddagi qarshi xujumdagi yirik g'alaba Ittifoq Armiyasi foydasiga tubdan burilish yasaganidan keyin barcha xujumkor xarakatlar faqat muvaffaqiyat bilan yakunlana boshlandi.

Xujumdan oldin artilleriyani samarali qo'llash, piyodalari bevosita qo'llab-quvvatlash tanklarini qo'llash usullarining takomillashishi o'qchilar bataloni g'alabalarining asosiy omili bo'lib xizmat qildi.

Dunyoda rivojlanishning ma'lum tendensiyasi ko'p yillar davom etgan «sovuq urushdan» xalqaro munosabatlarning yumshatilishi va rivojlangan davlatlarning harbiy qarama-qarshilik darajasining pasiyishi xisoblanadi. Shu bilan birga g'arb bilan Sharq o'rtasida munosabatlarning me'yorlanish jarayonida dunyoning ko'pgina mintaqalarida olib borilayotgan va boshlanishi muqarrar bo'lgan mojarolarning qisqartirilishi kuzatilmoqda.

Tarixchilarning xisoblashlaricha Er yuzida oxirgi 5500 yil ichida 14 000 tadan ortiq urushlar bo'lib o'tgan bo'lib, ularda 3,5 mlyard insonlar qurbon bo'lganlar. Insoniyat o'zining tarixi davomida faqat 292 yil tinchlik sharoitida yashagan, ya'ni xar yuz yilda bir xaftadan kamroq.

Tarixiy jarayonning o'ziga xos belgisi Shundan iboratki, xalqaro masalalarni xal etishda harbiy kuch asosiy vosita xisoblangan.

## **XIII– BOB MAXALLIY URUHLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR**

### **13.1. Maxalliy (lokal) urushlarning harbiy-siyosiy xarakteristikasi.**

O‘zining ijtimoiy-siyosiy mazmuniga ko‘ra ochilayotgan, boshlanayotgan maxalliy (lokal) urushlar davlatlarning siyosatlarini qurolli kuchlarini qo‘llab davom ettirishlaridir.

Maxalliy (lokal) urushlarning jaxon urushlaridan farqi Shundan iboratki, maxalliy (lokal) urushlar cheklangan siyosiy maqsadlarni ta‘qib etadi. Bu esa harbiy xarakatlar masshtablarining cheklanganligi, ularda ishtirok etayotgan harbiylarning ko‘p sonliligi, maxalliy (lokal) urushlar strategiyasi va taktikasining o‘ziga xosligi bilan shartlanadi. Lekin hozirgi zamondagi maxalliy (lokal) urushlar o‘zining keng ko‘lamligi bilan farq qiladi, ularda katta talofatlar kuzatiladi va doimo bu urushlarning jaxon urushlariga aylanib ketish xavfi borligi kuzatiladi.

Ikkinchi jaxon urushidan keyin dunyoda 100 dan ortiq maxalliy (lokal) urushlar bo‘lib o‘tdi. Ularning orasida xal etilmagan xududiy masalalar, yangi bozorlarni zabt etish, davlatlarning dunyoning ma‘lum bir mintaqasida ʻz mavqelarini saqlab qolish va o‘z iqtisodiy muammolarini xal etish uchun yuzaga kelgan urushlarni ko‘rsatish mumkin.

Xozirgi zamondagi maxalliy urushlarda qarama-qarshi tomonlar odatda yakka xolda xarakatlanmaydilar. Jaxon arenasida shakllangan kuchlar nisbati va xalqaro aloqalarda bunday urushlarda xar ikkala tomon boshqa bir davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

Qurolli kurash olib borish kuch va vositalaridan foydalanish darajasi bo‘yicha urushdan keyingi maxalliy (lokal) urushlar va harbiy mojarolar quyidagilarga bo‘linadi:<sup>12</sup>

- regulyar qurolli kuchlarning qatnaShuvi va ularning zamonaviy qurol-yaroqlarining xamma turlarini, yadro qurolidan tashqari qo‘llashlari;
- regulyar qurolli kuchlar bilan bargalikda noregulyar bo‘linmalarning ishtiroki va oddiy qurollarning, ko‘p xollarda eskirgan qurollarning qo‘llanishi.

Maxalliy (lokal) urushlarning aksariyat qismi ikkita besh yillikka (1956-1960, 1961-1965 y.) to‘g‘ri keladi.

Bu davr «sovuq urush»ning eng yuqori cho‘qqisiga chiqqan va rivojlangan davlatlarning mustamlaka tizimining emirilishi davri edi. 1960-yillarning ikkinchi

---

<sup>12</sup> Kochkarov.A.K., Sotvoldiev. A.YU., Durmenov.SH.N. O‘quv qo‘llanma Harbiy tarix T.: 2017

yarmidan va 1970-yillari xalqaro maydonda kuchlar nisbatining o'zgarishi natijasida maxalliy (lokal) urushlarning soni kamaydi.

XX-asrning 50-90-yillarida-Ikkinchi jaxon urushidan keyin Er sharining turli joylarida aloxida davlatlar va davlatlar guruxlari o'rtasida urushlar bo'lib o'tdi. Mana Shu davr mobaynida 200 tadan ortiq kichik harbiy mojarolar 20 tacha atrofida o'rtacha sur'atdagi cheklangan urushlar bo'lib o'tdi.

Ularning orasida katta ahamiyatga ega bo'lganlari quyidagilardir: 1950-1953 y. Koreya urushi, 1959-1975 y. Vetnam urushi, 1967, 1973, 1982-yillardagi YAqin Sharqda Isroil va arab davlatlari o'rtasida bo'lib o'tgan urushlar, 1982-yildagi Angliya va Argentina o'rtasidagi harbiy mojarolar, 1979-1982 yillardagi Afg'onistondagi urush, 1991-yildan boshlangan Fors ko'rfazidagi urushlar va boshqalar.

Xamma maxalliy (lokal) urushlar oddiy qurollar qo'llanib olib borildi. Ammo xarikkala urush olib boruvchi tomonlar Amerika va NATO ga a'zo bo'lgan davlatlarning to'g'ridan to'g'ri ko'maklariga tayanib, yoki sobiq ittifoq va Varshava shartnomasiga a'zo bo'lgan davlatlarning qo'llab-quvvatlashlariga tayanib xarakat qildilar. Ko'p xollarda urushlar o'zaro keliShuvlar asosida va o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarga qisman erishilib nixoyasiga etgan. Siyosat bobida bu urushlar odatda xalqaro axvolning keskinlaShuviga, «sovuq urush» ning rivojlanishiga olib kelgan. Harbiy ma'noda ular harbiy xarakatlarning yangi formalari, shakllari va usullarining yaratilishiga olib keldi.

### **13.2.Yirik maxalliy urushlarning sharxi. 1956-yildagi Misrdagi urush.**

Birinchi arab-isroil urushi Amerika va Buyuk Britaniya tomonidan qo'llab-quvvatlangan Isroil va Arab davlatlari guruxlari (Misr, Iordaniya, Iroq, Suriya, Livan, Saudiya Arabistoni va Yaman) o'rtasida bo'lib o'tdi. Urush xarakatlari 1948-yil 15-mayda BMT tomonidan Isroil davlati barpo etilishi bilan arab davlatlari tomonidan uni barbod etish uchun qilgan xarakatlari natijasida boshlandi. Javob xarakatlari bilan Isroil xujumni qaytardi va Palastin xududining qariyb yarmini bosib oldi. 1949-yilda urush demilitarlashgan xududni yaratish to'g'risidagi bitimni imzolash bilan tugadi.

1952-yilda Misr xalqi monarxiya tuzumini ag'darib tashladi va 1953-yilda Respublika mustaqilligi e'lon qilindi. Yosh davlatning o'z siyosiy mustaqilligini mustaxkamlash yo'lidagi keyingi qadami-bu 1956-yilda Suvaysh kanalini milliyashtirish bo'ldi. Misr xukumatining bu xaqqo'ylik xarakati Angliya-Fransiya imperialistlarining qarshiligiga



uchradi va ular Isroil bilan birgalikda Misrga bostirib kirish rejasini tayyorlay boshladilar. Agressiyaning maqsadi-Kamol Nosir xukumatini ag'darib tashlash, Suvaysh kanalini bosib olish va Yaqin Sharqda o'z mavqelarini mustaxkamlashdan iborat edi. Agressiyani amalga oshirish uchun 230 ming askar va ofitserlar, 600 ta tank, 650 ta dan ortiq samolyotlar va 130 tadan ortiq jangovar kemalar jalb qilindi. Urushning boshida Yosh Misr davlati armiyasida 90 mingta odam va 130 ta atrofida samolyotlar bor edi. Angliya-Fransiya qo'mondonligining rejasiga ko'ra jangovar xarakatlarni Isroil qo'shinlari Sinay yarim orolidan boshlashi kerak edi. Keyinchalik qo'shinlarga, aerodromlarga ma'muriy markazlarga ommaviy aviatsiya zarbalari berilganidan keyin, dengiz va xavo desantlarini ketma-ket Port-Said va Port-Faud portlari tuShurish, Suvaysh kanalini egallash va xujumni davlat ichkarisiga rivojlantirib Qoxirani bosib olish ko'zda tutildi.

1956-yil 29-oktyabrda Isroil qo'shinlari Suvaysh va Isroil yo'nalishlariga zarbalar berdi. Suvaysh yo'nalishida ular 29-oktyabr kuni kechqurun El-Kuntilla rayoniga chiqdilar, shaxarni egalladilar va Naxlga xujumni rivojlantirdilar.

5-noyabrda Angliya-Fransiya qo'mondonligi Port-Said va Port-Faud rayonlariga o'z deasantlarini tushirdilar. Portlarni ximoya qilayotgan Misr qo'shinlari ularga qarshilik ko'rsatdilar. Interventlar o'z kuchlarini orttirib 6-noyabrda dengiz desantini ushbu portlarga tushirdilar.

Bosqinchilar Suvaysh kanalini, Qoxirani bosib olishni va operatsiya natijalarini o'z foydalariga xal etishga umid bog'ladilar. Lekin ularning rejalari amalga oshmadi. 1956-yil 2-noyabrda qator davlatlarning taziqlari ostida BMT Bosh Assambleyasi urushni to'xtatish va qo'shinlarni olib chiqib ketish to'g'risida qaror qabul qildi.

### **13.3. Arab davlatlariga qarshi Isroil agressiyasi (1967 y.)**

Suvaysh kanali avantyurasining barbod bo'lganligi Isroil agressorlariga tas'lim bo'lmadi. Davlatda arab davlatlariga nisbatan nafrat ortib bordi. BAR, Suriya, Iordaniya, chegaralarida harbiy provakatsiyalar avj olib ketdi. AQSH va uning NATO blokidagi ittifoqchilari vositachiligida va yordamida Isroil arab davlatlariga xujum qilish uchun tayyorgarlikni boshlab yubordi. Agressiya boshida Isroil armiyasi to'lig'icha Amerika va Angliyaning zamonaviy qurollari va texnikasi bilan qayta qurollandi. U o'z safiga 275 ming odamga, 1000 ta tanklarga, 450 ta samolyotlarga va 26 ta jangovar kemalarga ega bo'ldi. Xujum rejasiga ko'ra, aviatsiyaning yirik kuchlari va zirxli tank va

mexanizatsiyalashgan qo‘shinlarning to‘satdan zarbalari bilan tashabbusni qo‘lga kiritish, navbatma-navbat BAR, Suriya, Iordaniya qurolli kuchlarini tor-mor etish va 3-4 kun ichida xal etuvchi natijalarni qo‘lga kiritishi kerak edi. Bosh zarbani Misr qo‘shinlariga berish ko‘zda tutildi.

Urush xarakatlari 1967-yilning 5 iyunida Isroilning Misr, Suriya, Iordaniyaga xavo xujumi bilan boshlandi. Isroil aviatsiyasi to‘satdan berilgan zarbadan va misrliklarning qudratli xavo-xujumidan mudofaa vositalariga ega emasliklaridan foydalanib, Misr aviabazalariga ikkita ketma-ket zarbalarni berdi. Birinchi ikki soat ichida arablar XXX 65 % yakson qilindi, 16 ta aerodromlarda uchish-qo‘nish yo‘laklari yaroqsiz xolga keltirildi. Xavoda Xukmronlikni qo‘lga kiritib Isroil aviatsiyasi quruqlikdagi qo‘shinlarni qo‘llab-quvvatlashga kirishdi.

Isroil quruqlikdagi qo‘shinlari harbiy xarakatlarning boshlanishi bilan Sinay yarim orolida Kantara, Ismoil va Suvaysh yo‘nalishiga xujumni boshladilar. Qurshab olish manyovrlari keng qo‘llana boshlandi. Avval o‘tib bo‘lmaydigan deb xisoblangan, Shuning uchun BAR qo‘shinlari tomonidan egallanmagan uchastkalarda Isroil qo‘shinlari vertolyotlardan tushirila boshlandi va tank kolonnalariga yorib kirib ular uch kundan keyin Sinay yarim orolining ichkarisiga yorib kirdilar, Suvaysh kanaliga eltuvchi kommunikatsiyalarni kesib qo‘ydilar va chekinayotgan BAR qo‘shinlarini qurshovga oldilar.

Iordaniya aerodromlariga va qo‘shinlar to‘plangan joylarga ommalashtirilgan aviatsiya zarbalarini berib Isroil qo‘shinlari shimol tomondan Nablus yo‘nalishiga xujumga o‘tdilar. Dushmanni to‘xtatib qolish uchun qilingan xarakatlar muvaffaqiyat keltirmadi. 7-iyun oxirida Iordaniya qo‘shinlari tor-mor etildi.

9-iyunda Isroil armiyasi aviatsiya ko‘magida Suriya frontida xujumga o‘tdi va asosiy zarbani El-Kuneytra, Damashq yo‘nalishiga berdi. Isroil qo‘shinlari Suriya xududiga 26 km suqulib kirdilar. Ushbu marrada jangovar xarakatlar 13 iyungacha davom etdi. Faqat xalqaro xamjamiyatning aralaShuvi agressorni xujumni to‘xtatishga majbur etdi.

#### **13.4. Arab-Isroil urushi (1973 yil 6-25 oktyabr).**

Isroilning davom etgan agressiyasi to‘rtinchi arab-isroil urushiga olib keldi. Urushga tayyorgarlik ko‘rib Isroil davlatning harbiy qudratini oshirib bordi. Quruqlikdagi qo‘shinlar 33 ta brigadaga (ulardan 10 tasi tank brigadalari) va bir nechta jangovar va

ta'minlash batalonlariga ega bo'ldi. Qo'shinlarda 1700 ta tank, 450 taga yaqin bronetransportyorlar, 488 ta jangovar samolyotlar mavjud edi. Qurol-yarog'larning ko'pchiligini amerikaliklar namunasidagi qurollar tashkil etdi. Harbiy-dengiz flotida 58 ta jangovar kemalar bor edi. Avval boshda Isroil qo'mondonligi urush xarakatlarini Suriyaga qarshi rejalashtirdi. Suriya qo'shinlarini tor-mor etganidan keyin Isroil qo'mondonligi faol xujumkor jang xarakatlarini Misrga qaratishni ko'zda tutdi.

Bu urush maxalliy (lokal) urushlar orasida unda qatnashayotgan qo'shinlar va jangovar texnikaning soni bo'yicha eng katta urush bo'ldi.

1973 yil 6-8 oktyabrlar davomida Misr qo'shinlari Suvaysh kanalini muvaffaqiyatli jang bilan kechib o'tdilar, uning Sharqiy qirg'og'ini ozod qildilar va Sinay yarim oroli bo'ylab 15-30 km chuqurlikka xarakatlandilar. Shu vaqt mobaynida Suriya armiyasi Golan balandligining katta qismini va El-Kuneytra shaxrini ozod qildilar. Xar ikkala frontlarda xam katta tank janglari bo'lib o'tib, ularda yuzlab tanklar, zirxli mashinalar, o'nlab samolyotlar qatnashdi. PTURS va xar xil turdagi zenit raketalari keng qo'llanildi.

9-14 oktyabrlarda Isroil qo'mondonligi Suriya frontida yirik qo'shin guruxlarini yoydi va Damashqqa qarshi xujumni boshladi. Suriya qo'shinlari tashkillashgan xolda ikkinchi mudofaa chizig'iga o'tdilar. Misrliklar bu davrda Sinay yarim orolida erishilgan marrada mustaxkamlandilar.

15 oktyabrdan Isroil qo'shinlari asosiy xarakatlarni Sinay frontiga o'tkazdilar. 2- va 3-Misr armiyalari bo'shliqlariga qarshi zarbalarni berib, Isroil qo'shinlari Suvaysh kanalini kechib o'tdilar va uning g'arbiy qirg'og'ida ancha xududni egalladilar, Suvayshni qurshab oldilar.

1973-yil 25 oktyabrda BMT Xavfsizlik Kengashining qarori bilan jangovar xarakatlar tugatildi. Tomonlarning yo'qotishlari: o'lganlar va yaradorlar bilan 20 ming odamni, 2700 tacha tanklar, 330 tadan ortiq samolyotlar va ko'plab jangovar texnikalarni tashkil etdi. Arab davlatlari Isroil tomonidan 1967-yilda bosib olingan katta xududni o'zlariga qaytardilar.

### **13.5. Maxalliy (lokal) urushlardagi taktik xarakatlarni xarakteristikasi: Sobiq ittifoq-Afg'oniston 1979-1989yy**

Islom davlati xisoblangan Afg'oniston O'rta Sharqda joylashgan bo'lib, bevosita Markaziy Osiyodagi MDX respublikalari bilan chegaradosh, bu davlat 30 yil davomida xali qon to'kilmoqda.

Afg'onistonni umumiy chegarasi -5421km, bulardan Markaziy Osiyodagi MDX davlatlari bilan 2348 km tashkil qiladi, Eron bilan- 820km., Pokiston bilan-2130km., Xitoy bilan-75km..O'zbekiston – Afg'oniston chegarasi 156km.tashkil qilib Amudaryodan o'tadi.

Afg'oniston davom etgan agressiyasi afg'on-ittifoq urushiga olib keldi. Urushga tayyorgarlik ko'rib Afg'oniston davlatning harbiy qudratini oshirib bordi. Quruqlikdagi qo'shinlar 30 ta bo'linmalar (ulardan 10 tasi tank bo'linmari) va bir nechta jangovar va ta'minlash bo'linmalariga ega bo'ldi. Qo'shinlarda 170 ta tank, 450 taga yaqin bronetransportyorlar, 48 ta jangovar samolyotlar mavjud edi. Qurol-yarog'larning ko'pchiligini amerikaliklar namunasidagi qurollar tashkil etdi. Avval boshda Afg'oniston qo'mondonligi urush xarakatlarini SSSRga qarshi rejalashtirdi.

Bu urush maxalliy (lokal) urushlar orasida unda qatnashayotgan qo'shinlar va jangovar texnikaning soni bo'yicha eng katta urush bo'ldi.

1981 yil 6-8 oktyabrlar davomida Afg'oniston qo'shinlari kanalini muvaffaqiyatli jang bilan kechib o'tdilar, uning Sharqiy qirg'og'ini ozod qildilar va Sinay yarim oroli bo'ylab 15-30 km chuqurlikka xarakatlandilar. Shu vaqt mobaynida Afg'oniston armiyasi Golan balandligining katta qismini va Kandagar shaxrini ozod qildilar. Xar ikkala frontlarda xam katta tank janjlari bo'lib o'tib, ularda yuzlab tanklar, zirxli mashinalar, o'nlab samolyotlar qatnashdi. PTURS va xar xil turdagi zenit raketalari keng qo'llanildi.

9-14 oktyabrlarda Tolibon qo'mondonligi frontida yirik qo'shin guruxlarini yoydi va Qobul qarshi xujumni boshladi. Ittifoq qo'shinlari tashkillashgan xolda ikkinchi mudofaa chizig'iga o'tdilar. Tolibonlar bu davrda katta muvaffaqiyatga erishilgan marrada mustaxkamlandilar.

15 oktyabrdan Afg'oniston qo'shinlari asosiy xarakatlarni frontiga o'tkazdilar. 2- va 3- Afg'oniston armiyalari bo'shliqlariga qarshi zarbalarni berib, Isroil qo'shinlari Suvaysh

kanalini kechib oʻtdilar va uning gʻarbiy qirgʻogʻida ancha xududni egalladilar, Suvayshni qurshab oldilar.

1989-yil 25fevralida Ittifoq Xavfsizlik Kengashining qarori bilan jangovar xarakatlar tugatildi. Tomonlarning yoʻqotishlari: oʻlganlar va yaradorlar bilan 20 ming odamni, 2700 tacha tanklar, 330 tadan ortiq samolyotlar va koʻplab jangovar texnikalarni tashkil etdi.

## **XIV – BOB O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARINING YARATILISHI**

Bugungi kunda jamiyatni qiziqtirgan va muxim muammolardan biri – bu Qurolli Kuchlar taqdiridir. Bu albatta tabiiy xol, chunki armiya tom ma'noda davlat taqdirini aniqlaydigan, uning ichki mo'tadilligini, xozirgi zamonda uning o'rnini belgilab beradigan omillardan biridir.

Katta va kichik urushlardan saqlanish insoniyatning birinchi galdagi vazifasi bo'lib qoldi. Zaminimizning xamma sog'lom fikrli insonlari harbiy xavf-xatarlarning xamma ko'rinishlariga engib bo'lmas to'siq qo'yilishi kerak ekanligini juda yaxshi tuShunadi.

Xozirgi kunda, davrimizni g'am - g'ussaga giriftor qiluvchi urushlar, harbiy to'qnaShuvlar, harbiy xavf-xatarlar manbalaridan xalos etishni armiyaga tayanmagan xolda bajarib bo'lmaydi degan tuShuncha xaqli ravishda paydo bo'ldi.

Xozirgi kunda, harbiy xavf-xatarlar darajasi pasayganligini, yaqin kelajakda yangi jaxon urushi yoki boshqa keng ko'lamlil urushlarning bo'lishi muqarrar emasligini xech kim inkor eta olmaydi.

Lekin kichik, lokal (maxalliy) va xatto regional urushlarning boshlanib ketish extimoli oshdi. Shuning uchun butun dunyoda tinch-totuvlik davri boshlanishigacha xali uzoq. Xozirgi kunda xar qanday ko'rinishdagi urushlarning oldini olish davlatning asosiy siyosiy maqsadidir.

Shak-Shubxasiz, xozirgi sharoitda ustunlik siyosiy vositalarga berilishi kerak. Lekin bular samarali bo'ladi, qachonchi siyosat davlatning etarli darajadagi iqtisodiyotiga va harbiy qudratiga tayansa.

O'z-o'zidan, bu muxim vazifani echishda boshqa institutlar bilan birgalikda Qurolli Kuchlar xam faol qatnashishi lozimdir. Faqat Qurolli Kuchlargagina davlatning xududiy yaxlitligini ta'minlash, uning sarxadlarini ximoya etish, xalqning tinch va osoyishtaligini ta'minlash, xar qanday agressiyani to'xtatib qolish kerak bo'lsa uni kuch ishlatish usuli bilan tor-mor etish vazifasi yuklatilgan.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan an'anaviy vazifalar bilan bir qatorda, xozirgi sharoitda Qurolli Kuchlar oldida boshqa vazifalar xam turadi - bu davlat xokimiyati

va boshqaruvi bilan yaqindan xamkorlik qilish, harbiy xizmatning obro‘-e‘tiborini orttirish, harbiy-vatanparvarlik tizimi bebaxolini tiklashdir

#### **14.1. Mustaqillikdan song O‘zbekistonda Qurolli Kuchlarni rivojlanishi**

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining yaratilishida, Oliy qonunchilik organining muxim xujjati - O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoq ining 1992 yil 14 yanvardagi qarori xisoblanadi, unga ko‘ra sobiq ittifoq Qurolli Kuchlarining O‘zbekiston xududida joylashgan barcha harbiy qismlari, birlashmalari, harbiy bilim yurtlari, harbiy muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston Respublikasi ixtiyoriga, yurisdiksiyasiga o‘tkazildi va ularning moddiy, material – texnik ta‘minoti joriy etildi.

Mintaqada shakllangan harbiy-siyosiy va harbiy-strategik sharoitga ko‘ra va dunyoda kechayotgan siyosiy jarayonlarning rivojini taxlilidan kelib chiqib, 1992 yil 3-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoqi «Mudofaa to‘g‘risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat» to‘g‘risida, «Muqobil xizmat» to‘g‘risidagi qonunlarni qabul qildi. Yosh mustaqil davlat talablariga javob beradigan Qurolli Kuchlarining yaratilishida mustaxkam qonuniy poydevor yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi, davlat manfaatlarini ximoya etish uchun etarli bo‘lgan Qurolli Kuchlarini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan, Qurolli Kuchlarni yaratilishini boshlab bergan bir necha m‘yoriy xujjatlar imzolandi. Ularning birinchilari qatorida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 6 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari Vazirligi va Qurolli Kuchlar Bosh Shtabining yaratilishi» to‘g‘risidagi qarorning imzolanishidir. Ularning maqsadlari - bosqichma-bosqich professional armiyani yaratish, tarkibi bo‘yicha kam sonli, lekin xarakatchan, zamonaviy harbiy texnika va qurol-yarog‘ bilan jixozlangan, O‘zbekiston xavfsizligini mustaqil va ishonchli ximoya etishga qodir armiyani yaratish edi. Quruqlikdagi qo‘shinlarning, korpus-brigada-batalon tashkiliy-shtat tizimiga o‘tkazish boshlandi, bunda taktik birlashma brigada xisoblandi, asosiy taktik element batalon bo‘lib qoldi. Bunday tizim yuqori manyovrchan xarakatlarni va jangovar tartiblarda operativ qurulishning ixchamligini ta‘minlab, jang maydonida boshqaruvni engillashtirishga olib keladi.<sup>13</sup>

---

<sup>13</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 yil 6 yanvardagi «O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari Vazirligi va Qurolli Kuchlar Bosh Shtabining yaratilishi» to‘g‘risidagi qarori

## 14.2. Qurolli kuchlarni tashkiliy-stat tizimidagi o'zgarishlar

Qurolli Kuchlarni qayta qurish uch bosqichda amalga oshirish rejalashtirildi. **Birinchi davrda (1992-1993 yy.)** kata o'zgarishlar kiritish ko'zda tutilmagan va kerakli texnika va qurol-yarog'larga ega bo'lgan quruqlikdagi qo'shinlarning boshqaruv organlari joriy etildi. **Ikkinchi davr (1994-1996 yy.)** davomida polklarni brigadalarga aylantirish amalga oshirildi, xamda maxsus qo'shin turlari qismlari va birlashmalari qayta tashkil etildi, va ular uchun oz miqdordagi mablag' talab qiluvchi qurol-yarog' va texnika sotib olindi.

**Uchinchi bosqichda (1997-2000 yy.)** yangi birlashmalar va qismlar tashkil etildi, anchagina miqdordagi mablag' talab qiluvchi qurol-yarog' va texnika sotib olindi va Qurolli Kuchlar tarkibiga aniqliklar kiritildi.

**Birinchi davr.** 1992 yil 3 iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoqi «Mudofaa to'g'risida», «Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat to'g'risida», «Muqobil xizmat to'g'risida» qonunlar, «Harbiy qasamyod to'g'risidagi» qarorni qabul qildi, xamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Mudofaa ishlari Vazirligini O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligiga aylantirish to'g'risidagi qarorini tasdiqladi. O'zbekiston Qurolli Kuchlarida harbiy isloxlarning birinchi davrida armiyaning tashkiliy-shtat tizimini takomillashtirish harbiy qismlar va harbiy bilim yurtlarini qayta qurish ishlari amalga oshirildi, shaxsiy tarkibni o'rgatish va tarbiyalashning yangicha tizimi yaratildi. 1992 yil 23 yanvarda Vazirlar Maxkamasining qarori bilan Milliy gvardiya tashkil etildi.

O'tmish ajdodlarimizning, eng avvalo jaxon tarixidagi buyuk sarkarda va davlat arboblardan biri Amir-Temurning manaviy madaniyati – merosi xayotga ko'tarib chiqarildi. Bu davrda QQ - Quruqlikdagi Qo'shnlardan, Harbiy Xavo Kuchlaridan, Xavo Xujumidan Mudofaa Qo'shnlardan, Maxsus Qo'shnlardan, Milliy gvardiya va Muxandis-Quruvchi Qo'shnlardan tashkil topgan edi.

1993 yil oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan 105-Xavo-desant diviziyasi negizida 2- xarakatchan kuchlar Armiya Korpusi tashkil topdi, 59-Armiya Korpusi o'rniga 1- Armiya Korpusi tashkil topdi. Harbiy intizomga, harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga katta e'tibor qaratildi. Shu munosabat



bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Maxkamasining 1992 yil 23- sentyabrdagi 445 – sonli qarori bilan «Qurolli Kuchlarda harbiy intizomni mustaxkamlash va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish to‘g‘risida» xamda «Harbiy qismning Jangovar Bayrog‘i to‘g‘risida», qaror va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Ittifoq ining qarori bilan 14 yanvarni «Vatan ximoyachilari kuni» deb e‘lon qilindi.

**Ikkinchi davr.** 1994 yil yanvarida 108- motoo‘qchilar diviziyasi tarqatib yuborildi, uning harbiy qismlari 1- Armiya Korpusi safiga kiritildi. Tarqatib yuborilgan polklar o‘rniga motoo‘qchilar, tog‘ o‘qchilari, tank, zenit artilleriyasi brigadalari tashkil topdi. Aprel oyida Respublika viloyatlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida va Toshkent shaxrida Mudofaa ishlari Boshqarmalari, shaxar va tumanlarda esa mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limlar joriy etildi. Qozog‘iston va Tojikiston respublikalarida joylashgan harbiy qismlar O‘zbekistonga o‘tkazildi.

1994 yil may oyida O‘zbekiston NATO bilan «Tinchlik uchun xamkorlik» doiralari dasturi to‘g‘risida xujjatga imzo qo‘ydi. Bu o‘z navbatida bizning harbiy xizmatchilarimizga, jaxonning harbiy munosobatlarda rivojlangan armiyalari bilan birgalikda xalqaro harbiy xarakatlarda ishtirok etish imkoniyatini ochib berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Xukumati harbiy xizmatchilarga g‘amxo‘rlik qilishda davom etib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi Vazirlar Maxkamasi «Muddatli harbiy xizmatchilar va ularning oila a‘zolari uchun qo‘shimcha imtiyozlar to‘g‘risida» qaror qabul qildi. O‘zbekiston Respublikasining «Mustaqillik», «Do‘stlik» ordenlarini, xamda «Jasorat», va «Shuxrat» medallarini ta‘sis etish to‘g‘risidagi qonunlari qabul qilindi.

Respublikada milliy, yuqori saviyali ofitser kadrlarini tayyorlashga muxim axamiyat berildi. 1994 yil sentyabr oyida Jizzax Oliy aviatsiya bilim yurti va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi yaratildi. Harbiy qismlarga yangi namunadagi Jangovar Bayroqlarni tantanali ravishda keng ommani jalb etib topshirish, xar bir harbiy jamoa uchun muxim voqea bo‘ldi.

1995 yilda O‘zbekiston harbiylari birinchi marta, AQSHning Luizaniya shtatida o‘tkazilgan xalqaro tinchlikni saqlash «Xalqaro birdamlik – 95» mashqlarida qatnashdi. Bizning harbiylarimiz MDX davlatlari harbiy xizmatchilari bilan birgalikda, Tojikiston xududidagi fuqarolar urushi alangasini o‘chirishda faol ishtirok etdi.

Markaziy osiyo mintaqasi davlatlaridagi murakkab harbiy-siyosiy vaziyatni xisobga olib, O'zbekiston mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashga aloxida e'tibor qaratdi. Bu muammoni xalq etishda O'zbekiston bilan Qozog'iston va Tojikiston o'rtasida harbiy xamkorlikning mustaxkamlanishi muxim ahamiyatga ega bo'ldi. Shu bilan birga 1995 yil 15-dekabrda Jambulda uch davlat rahbarlari uchra Shuvida Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta'minlash masalalari chuqur ko'rib chiqildi, O'zbekiston, Qozog'iston, Tojikiston davlatlarining BMT bayrog'i ostida tinchlikni ta'minlash batalonlarini tashkil etish to'g'risida bitim imzolandi. Shu yiliyoq bizning harbiylarimizning ularning Markaziy-Osiyo bataloni «Sentrazbat» terma vuzvodi safida va xalqaro tinchlikparvar mashqlari «Kooperativ osprey-96» da ishtirok etganlaridan so'ng jaxon arenasida obro'-e'tibori ancha oshdi.

1996 yil 26 aprelida O'zbekiston Respublikasining «Amir Temur» ordenini ta'sis etish to'g'risidagi qonuni qabul qilindi, bu orden bilan endilikda buyuk shaxslar, jumladan harbiy san'at rivojiga xissa qo'shgan kishilar taqdirlanadilar.

Qurolli Kuchlar xayotida muxim voqea, 1996 yil 9-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori bilan Ichki xizmat nizomini, Intizom nizomini, Qorovul va garnizon xizmati nizomlarining qabul qilinishi bo'ldi. Saf nizomi Mudofaa Vazirining buyrug'i bilan 1996 yil 14 oktyabrda xarakatga kiritildi. Ushbu nizomlarni ishlab chiqish jarayonida nafaqat harbiy qurulishda to'plangan tajribalar, balki shaxsiy tarkibning milliy xususiyati, o'zbek xalqining mentaliteti xisobga olindi. Markaziy Osiyoda yagona xisoblangan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi yuksak obro'-e'tibor kasb eta boshladi, uning tinglovchilari qo'shinlardagi amaliy malaka oshirishlarda o'zlarini eng yaxshi tomondan ko'rsatdilar.

**Uchinchi davr.**1997 yil ko'pgina muxim voqealarga boy bo'ldi. Qurolli Kuchlar Akademiyasining birinchi bitiruvchilarining chiqaruvini, xamda harbiy bilim yurtlaridan artilleriyachi, desantchi, zenitchi, harbiy uchuvchilar va muxandis texnik ofitserlar, aerodrom va front orti ofitserlari, shaxsiy tarkib bilan ishlash bo'yicha komandir o'rinbosarlari chiqarildi. Xalqaro vaziyatning murakkabligini e'tiborga olib, xalqaro terrorchilar xarakatlarini bartaraf etish maqsadida maxsus operatsiyalar batalonlari tashkil etildi. O'zbekistonning xalqaro harbiy xamkorlikdagi yangi bosqichi «Sentrazbat-97», «Sentrazbat-98» mashqlarining Chirchiq poligonida o'tkazilishi bo'ldi.

Birinchi marta bizning ofitserlarimiz o‘quv nuqtalarida AQSH, Rossiya, Turkiya va boshqa davlat harbiylarini o‘rgatish ishlarini olib borishdi. Shu yili Toshkent OUQBYU, Chirchiq OTQMBYU va Samarqand OAQMBYU terma vzvodlari Norvegiyada bo‘lib o‘tgan xalqaro mashqlar «Kooperativ banners-97» da ishtirok etishdi.

1998 yil avgust oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti xuzuridagi milliy xavfsizlik kengashi majlisida Mudofaa vazirligi Bosh Shtabini Qurolli Kuchlar Generalniy (Bosh ) SHtabiga aylantirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Uninig maqsadi, harbiy qurulishning yaxlitligi va boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish va mudofaani rejalashtirish, Mudofaa Vazirligi, chegara va ichki qo‘shinlar va boshqa vazirliklar harbiy bo‘linmalarining xarakatlarini xamkorligini takomillashtirish va koordinatsiya qilishdan iborat.

1998 yilda qo‘shinlarning qayta tashkil etilishi bois Qurolli Kuchlarda isloxlarning navbatdagi etapi boshlandi.

### **14.3.Ozbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarda o‘tkaziladigan isloxlarning davrlarga bo‘linishi.**

#### **Birinchi davr (1998-2000 y.)**

Bu davr - QK takomillashuvi va harbiy – ma‘muriy bo‘linishi davri.

1. Harbiy okruglar, chegara rayonlari, Ichki qo‘shinlarning xududiy bo‘linmalarining tashkil etilishi;
2. Qo‘shinlarning asosiy strategik yo‘nalishlarda to‘planishi;
3. XXKning XXM bilan birlashuvi;
4. Maxsus operatsiyalar kuchlarining yaratilishi;
5. Qism va bo‘linmalarining yangi tashkiliy-shtat tizimining ishlab chiqarilishi, uni mashqlar davomida tekshirib ko‘rilishi.

#### **Ikkinchi davr (2000-2002y.)**

Bu davrda QK boshqaruv tizimining isloxtlashtirish o‘tkazildi.

1. QK larning Generallik Shtabining yaratilishi;
2. Mudofaa vazirligi va Generallik shtabning vakolatlarining ajratilishi;
3. Mudofaa vazirligi, Ichki Qo‘shinlar bo‘linmalariga va front orti va texnik ta‘minlov bo‘linmalarida yangi tashkiliy-shtat tizimining kiritilishi;

4. Maxsus operatsiyalar kuchlari brigadasining, Mudofaa Vazirligi, IIV Ichki qo‘shinlarida va Chegara qo‘shinlarida maxsus-qidiruv bo‘linmalarining kengaytirilishi;
5. Yangi jangovar nizomlar, qo‘llanmalar va yo‘riqnomalarni ishlab chiqish va ularni bajarilishini ta‘minlash;
6. Harbiy okruglarda serjantlar tayyorlash maktablarining ochilishi.

### **Uchinchi davr (2003-2005y.)**

Qo‘shinlarni to‘ldirilishining sifatli o‘zgartirilishi va ta‘minlanishi.

1. Qo‘shinlarning jangovar tayyorgarligi va jang olib borish qobiliyatining asosi xisoblangan jangovar tayyorgarlikning samaradorligini oshirish;
2. QKlar tizimini optimallashtirish;
3. QKlarning bosqichma-bosqich shartnoma asosiga o‘tishi;
4. O‘R fuqarolarining uzluksiz, ko‘pbosqichli va samarali harbiy ta‘limini va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasini tashkil etish;
5. Zaxira tayyorgarligining mutlaqo yangi usullarini ishlab chiqish va xayotga tadbqiq etish;
6. Muddatli xizmatni 18 oydan 12 oygacha qisqartirish (oliy ma‘lumotlilar uchun 12 oydan 9 oygacha);
7. Qo‘shinlarni bosqichma-bosqich zamonaviy qurol-yarog‘ va jangovar texnika bilan ta‘minlash;
8. Ofitserlar va shartnoma bo‘yicha harbiy xizmatchilarning oylik maoshlarini oshirish, ularning yashash sharoitlarini yaxshilash va oilalarining ijtimoiy ximoyalanishini oshirish, nafaqa miqdorlarini oshirish choralarini ishlab chiqish va amalga oshirish.

### **14.4. Quruqlikdagi qoshinlar**

Quruqlikdagi Qo‘shinlar Qurolli Kuchlarning asosini tashkil etadi. Qurolli Kuchlarning eng ko‘psonli turi bo‘lib, quruqlikdagi qo‘shinlar boshqa qo‘shin turlari bilan xamkorlikda O‘zbekistonga qarshi xar qanday agressiyani bartaraf etish vazifasini bajaradi.

**Uning jangovar safi quyidagilardan iborat:**

- motoo‘qchilar bo‘linmalari;
- tank va artilleriya bo‘linmalari;
- xavo-desant bo‘linmalari;

- xavo xujumidan mudofaa bo‘linmalari.

**Motoo‘qchilar bo‘linmalari** - quruqlikdagi qo‘shinlarning asosini tashkil etadi, qurollanishida BMP-2 (PJM-2), BTR-80 dek zamonaviy texnika va qurollarga, katta moddiy vositalar zaxiralariga ega bo‘lib, xar qanday ob-xavo va xar qanday erlarda eng rang-barang jangovar vazifalarni echishga qodirdir.

Ular erdagi va xavodagi dushman ob‘ektlarini tor-mor etish uchun tanklar, artilleriya va minomyotlar, tankka qarshi boshqariluvchi raketalar, zenit komplekslari va qurilmalari, samarali razvedka va boshqarish vositalari bilan jixozlangan.

Bular quruqlikdagi qo‘shinlarga egallangan marralarni ishonchli ushlab turishni, kerak bo‘lgan xollarda uzoq vaqtli jangovar xarakatlarni yuqori suratda olib borishni, dushmanning xar qandy qarshiligini qat’iyat bilan qaytarishni taqozo etadi.

Motoo‘qchilar front bo‘ylab va front chuqurligidan jadal manyovrlar qilishga, katta tezlikda dushmanning tirik kuchlari va texnikasini ta’qib etishga va tor-mor etishga qodirdir.

Motoo‘qchilar qo‘shinlarining asosini motoo‘qchilar birlashmalari va bo‘linmalari tashkil etadi.

**Tank bo‘linmalari** - quruqlikdagi qo‘shinlarning bosh zarbdor kuchi va qurolli kurashning qudratli vositasi bo‘lib, zamonaviy jang sharoitlarida o‘ta muxim jangovar vazifalarni bajarish uchun belgilangan.

Tankchilarimizning qurollanishida turgan, yuqori jangovar xususiyatga ega ishonchli zirxli ximoyali zamonaviy T-62, T-64, T-72 tanklari, tog‘ - cho‘l sharoitlarida katta masofalarni bosib o‘tishga qodir.

**Artilleriya bo‘linmalari** - bosh zarba berish qudrati va jangovar vazifalarni bajarishda muxim operativ-taktik vosita. Artilleriya bo‘linmalarining qurollanishida turgan 122 mm, 152 mm gaubitsalar, zalp bilan o‘t ochish reaktiv tizimi BM-21, 120 mm, 82 mm minomyotlar artilleriya bo‘linmalarining zarba berish imkoniyatlarini va jangovar xarakatlarning oqibatiga ta’sirini oshiradi. Ular kuchli xarakatchan va manyovrchan bo‘lib, qo‘llanilayotgan qudratli snaryadlari bilan olislikdagi nishonni aniq va bexato yo‘q qilishga qodirdirlar. Tankka qarshi stvolli artilleriya bilan bir qatorda dushmanning zirxlangan vositalariga qarshi boshqariladigan tankka qarshi reaktiv snaryadlar xam katta rol o‘ynaydi.

Artilleriyaning vazifasi - dushmanning yadro va kimyoviy vositalarini yo‘q qilish va bosib qo‘yish, uning piyodalar jangovar mashinalarini, artilleriyasi, tanklarini va boshqa zarba berish vositalarini, tirik kuchlarini, xavo xujumidan mudofaa va radioelektron vositalarini, fortifikatsion inshootlarini taktik va yaqindagi operativ chuqurlikda tor-mor etishdan iborat. Bundan tashqari artilleriya masofadan turib minalashtirish va joyni yoritish vazifasini xam bajaradi. Artilleriya- gaubitsa, pushka, reaktiv, tankka qarshi artilleriya, minomyotlar, tankka qarshi boshqariluvchi raketalar, birlashmalari va bo‘linmalaridan, xamda artilleriya razvedka bo‘linmalaridan tashkil topgan.

**Xavo xujumiga qarshi mudofaa bo‘linmalari-** dushmanning xavodagi ob‘ektlarini yo‘q qilishning asosiy vositasi. Xavo xujumidan mudofaa bo‘linmalarining vazifalari – dushmanning samolyotlarini, vertolyotlarini, qanotli raketalarini va boshqa xavodagi ob‘ektlarini yo‘q qilish, uning xavodan beriladigan zarbasini qaytarish va o‘z qo‘shin gruppirovkalarini, boshqaruv punktlarini, aerodromlarni va boshqa muxim ob‘ektlarni jangning xamma turlarida, xamda xarakatlanish mobaynida va joyda joylashganda yopib turish. Ular o‘z qurollanishida – 23 mm ZU-23-2, 23 mm ZSU23-4, zenit raketa komplekslari «Strela-10», «OSA», PZRKlarga ega.

Xavo xujumidan mudofaa bo‘linmalari – zenit, raketa, zenit-raketa-artilleriya, zenit artilleriyasi, zenit-raketa texnik bo‘linmalaridan tashkil topgan.

**Xavo desant bo‘linmalari** – xarakatchan kuchlarning asosini tashkil etib, ularning roli hozirgi sharoitda ancha oshdi. Desant jangovar mashinalari, o‘zi yurar artilleriya qurilmalari, bronetransoprtyorlar, yuqori samarali tankka qarshi va zenit vositalari, stvolli va reaktiv artilleriya, qudratli avtomatik qurollar, zamonaviy aloqa va boshqaruv apparaturalari bilan qurollangan o‘zbekistonlik desantchilar armiyamizning eng yuqori tayyorlangan qismi bo‘lib xisoblanadi.

Zamonaviy harbiy – transport samolyotlari yordamida ular dushmanning yaqin va chuqur ichkarisiga tuShurilishi va mustaqil xolda yoki boshqa bo‘linmalar bilan xamkorlikda oldilariga qo‘yilgan jangovar vazifani bajarishga qodirdirlar.

**Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlari va harbiy – xavo kuchlari.**

Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlari o‘z qurollanishlarida S-75, S-125, S-200 kabi zamonaviy vositalarga egadirlar. XXM qo‘shinlarining rivojlanish tarixi mustaqil

O‘zbekiston Qurolli Kuchlari yaratilishi bilan chambarchas bog‘liq. 1993 yil avgust oyidagi O‘R Mudofaa Vazirining «Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlarida jangovar navbatchilikni tashkil etish va olib borish bo‘yicha qo‘llanmani kiritish to‘g‘risida» buyrug‘iga binoan Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlari O‘zbekiston Respublikasi xavo sarxadlarini qo‘riqlashga kirishdilar. Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlari davlatimizning xavo xujumidan mudofaa etishni Harbiy xavo kuchlari va Quruqlikdagi qo‘shinlar Xavo xujumidan mudofaa bo‘linmalari bilan xamkorlikda bajaradi. Jangovar vazifani bajarish uchun Xavo xujumidan mudofaa qo‘shinlari kichik, o‘rta, katta uzoqlikdagi zenit raketa komplekslariga ega. Bu komplekslarning samaradorligi ularning safiga xavo nishonlarini aniqlash radiolokatsion stansiyalari va avtomatik boshqarish vositalari kiritilishi bilan oshirildi.

**Harbiy-xavo kuchlari-** O‘R Qurolli Kuchlarining eng yuqori manyovrchan turidir. Ularning vazifalari - xavodan dushmanning aviatsiyasini, quruqlikdagi gruppirovkalarini, davlat va harbiy boshqaruv tizimi ob‘ektlarini, front ortini, harbiy – iqtisodiy potensialini, uning transport kommunikatsiyalarini tor-mor etish, xamda quruqlikdagi qo‘shinlarimizni xavodan qo‘llab-quvvatlash, xavo desantlarini desantlash, qo‘shinlarni, moddiy-texnik vositalarni tashish, xavo razvedkasini olib borish va boshqalardan iborat.

Ularning qurollanishida-SU-17, SU-24, SU-25, MiG-29, kabi zamonaviy samolyotlar, MI-8, MI-24 vertolyotlari va IL-76, AN-12, AN-26 transport samolyotlari mavjud.

Ular katta muvoffaqiyat bilan dushman Xavo xujumidan mudofaasiga qarshi tura oladilar, katta masofadan turib dushmanning erdagi va xavodagi o‘ektlarini yakson qilish, boshqariluvchi raketalar yordamida dushman front ortining chuqur ichkarisiga zarbalar berish va samarali xavo razvedkasini olib borishga qodirlar.

### **Maxsus qo‘shinlar**

Maxsus qo‘shinlar o‘ziga jangovar, texnik, front orti ta‘minoti bo‘linmalarini biriktirgan bo‘lib yuqori jangovar tayyorgarlikni va davlat mudofaa qobiliyatini qo‘llab - quvvatlashda o‘zlarining katta xissalarin qo‘shmoqdalar.

**Razvedka bo‘linmalarining** vazifalari – dushmanni va jangovar xarakatlar olib borilayotgan rayonlarda razvedkani olib borish va boshqa maxsus vazifalarni bajarish. Ular

o‘z vazifalarini mustaqil xolda yoki birlashmalar bilan birgalikda bajarishadi, ularning xarakatlarini muxandis qo‘shinlari ta‘minlab turadi.

**Muxandislik qo‘shinlari** – muxandis – sapyor, ponton-ko‘prik, muxandis-yo‘l, to‘siqlarni o‘rnatish va yo‘q qilish, muxandis ko‘prik - qurish bo‘linmalaridan tashkil topgan. Ularning vazifalari – xamma qo‘shin turlarining jangovar xarakatlarini muxandislik munosabatida ta‘minlashdan iborat.

**Kimyoviy ximoya bo‘linmalariga - Qurolli Kuchlarda** katta e‘tibor qaratilgan. Ularning vazifalari – bo‘linmalar jangovar xarakatlarini ta‘minlash, xamda dushmanga yondiruvchi qurollar bilan talofatlar etkazishdan iborat. Ularning vazifalari xajmi quyidagilar:

- bo‘lajak xarakatlar chiziqlarida, xarakatlanish marshrutlarida, yoyilish marralarida va ikkinchi eshelonda qayta xujum yo‘nalishlarida radiatsion va bakteriologik razvedkani olib borish;
- shaxsiy tarkib va jangovar texnika, transport va kiyim kechaklarni dushman yadro, bakteriologik va kimyoviy qurollarni qo‘llaganda dozimetrik nazorat va sanitar ishlov berish.

**Harbiy aloqa** - qo‘shinlar va qurol boshqarish tizimida malumot almashish uchun belgilangan. Ularning vazifalari- yuqorida turgan shtab bilan barqaror aloqani ta‘minlash va o‘z vaqtida jangovar boshqaruv signallarini qabul qilish; vaziyatning xar qanday sharoitida buysunuvchi qo‘shinlarni boshqarishni ta‘minlash; qo‘shinlarga, dushman tomonidan yadro quroli qo‘llanishi xavfi to‘g‘risida, xavodan kelayotgan dushman to‘g‘risida, radioaktiv, bakteriologik, kimyoviy zaralanish xaqida ma‘lumotni etkazish; o‘zaro xamkorlik qilayotgan bo‘linmalar o‘rtasida aloqani ta‘minlash; qo‘shinlarni jangovar xarakatlarini front orti ta‘minoti va maxsus-texnik ta‘minotlari bo‘yicha buyruqlarni etkazish.

Davlatning mudofaa qobiliyatini mustaxkamlash, uning xavfsizligini va xududiy yaxlitligini ta‘minlash maqsadida 1998 yil oktyabrida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan harbiy okruglar tashkil etildi:

- Shimoliy -G‘arbiy harbiy okrugi;
- Janubiy -G‘arbiy aloxida harbiy okrugi;
- Markaziy harbiy okrugi;



- Sharqiy harbiy okrugi;
- Toshkent harbiy okrugi.

2000 – yilda qurolli kuchlar isloxlari jarayonida ularni jangovar qo‘llash xususiyatlariga ko‘ra quruqlikdagi qo‘shinlarning asosini to‘rtta turdagi umumqo‘shin birlashmalari tashkil etdi:

- Tekisliklarda jangovar xarakatlarni olib borishga mo‘ljallangan motoo‘qchi birlashmalari;
- tog‘li xududlarda jangovar xarakatlarni olib borishga mo‘ljallangan tog‘ - o‘qchi birlashmalari;
- aloxida yo‘nalishlarda yuzaga keladigan jangovar vazifalarni echishga mo‘ljallangan tez yoyiladigan kuchlar sifatida qo‘llaniladigan desantchi-shturmchi birlashmalari;
- kichik terrorchi guruxlarni qurshab olish va tor-mor etish uchun maxsus kuchlar operatsiyalari.

Quruqlikdagi qo‘shinlarning aloxida turlari (tank,artilleriya, zenit-raketa birlashmalari) umumqo‘shin bo‘linmalarini kuchaytirish, ularni ximoya etish va dushmanga kuchli uzil-kesil zarbalar berish uchun belgilangan.

2000 yilning sentyabr oyida Qurolli Kuchlarning keyingi bosqichma-bosqich isloxlarni olib borish maqsadida, zamonaviy talablarni xisobga olib, qo‘shin turlari va boshqa vazirliklar harbiy bo‘linmalarining yagona tizimini takomillashtirish, ularning xamkorligini ta‘minlash, davlatning xavfsizligini va xududiy yaxlitligini ta‘minlash uchun Prezidentimiz buyrug‘i bilan Generalniy (Bosh) Shtab – O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Generallik Shtabiga aylantirildi. Mudofaa vazirligi va Generallik Shtabning vakolatlari ajratib berildi.

**O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Generallik Shtabi** – O‘R Qurolli Kuchlarining yagona qo‘mondonlik organi bo‘lib, davlatni mustaqilligini xududiy yaxlitligini qurolli ximoya qilish uchun qarorlarni ishlab chiqadi

Generallik Shtab milliy harbiy strategiyaning konseptual asoslarini ishlab chiqish, Qurolli Kuchlarning rivojlanishi, Mudofaa doktrinasining asosiy yo‘nalishlarini bajarish uchun javobgardir:

- Qurolli Kuchlarni, boshqa vazirliklar va idoralar harbiy bo‘linmalarini boshqarishning operativ – strategik bosh organi vazifasini bajaradi;

- Strategik va operativ rejalashtirishni amalga oshiradi, qo‘shinlarning jangovar xarakterlariga raxbarlik qiladi.

Generallik Shtab o‘z faoliyati davomida Konstitutsiya va O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonunlari, O‘R Prezidentining buyruqlari va ko‘rsatmalari, O‘zbekiston Respublikasi Xukumatining qarorlariga amal qiladi.

**O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi** davlatning ijroya organi bo‘lib, mudofaa soxasi va harbiy qurulishda davlat siyosatini o‘tkazishni ta‘minlovchi rasmiy boshqarmalar qo‘shinlariga raxbarlik va ma‘muriy boshqaruvni amalga oshiradi, xamda Mudofaa Vazirligi qo‘shinlarini zamonaviy qurol-yarog‘, harbiy texnika va moddiy – texnik vositalar bilan ta‘minlash, xalqaro xamkorlikni chuqurlashtirish vazifasini bajaradi.

2001 yil 2 iyulda bizning Qurolli Kuchlarimiz xayotida muxim voqea-serjantlar tayyorlash maktablarining ochilishi bo‘ldi. Bu maktablar – yangi tipdagi kichik komandirlar zvenosidagi yuqori professional serjantlarni tayyorlay boshladi.

#### **14.5.Qurolli Kuchlar yaratilishining qonuniy negizlari.**

Umumharbiy majburiyatlar va harbiy xizmat masalalarini aniqlab beruvchi asosiy xujjat O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (mod.52,93, 126,153), «Umumxariy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi» O‘R qonuni «Muqobil xizmat to‘g‘risida»gi O‘R qonuni, O‘zbekiston respublikasining Mudofaa doktrinasi xisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va uning negizida chiqarilgan qonuniy aktlar davlatni ximoya etish va Qurolli Kuchlarni boshqarishning asosini aniqlab beradi.

Konstitutsiyaning 126-bandida, O‘zbekiston Respublikasi o‘zining xavfsizligini ta‘minlash uchun etarli darajadagi Qurolli Kuchlarini yaratadi, 3- bandida esa O‘zbekiston Respublikasi chegaralari va xududi daxlsiz va bo‘linmasdir deb ko‘rsatilgan.Uning 125-bandida O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat mustaqilligi va uning xududiy butligini, xalqning tinch xayotini va uning xavfsizligini ta‘minlash uchun yaratiladi deb ta‘kidlangan. Bundan tashqari Konstitutsiya davlat raxbari va ijroya xokimiyat - O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Oliy Majlisning harbiy qurulishga raxbarlik qilish xuquqini aniqlab berdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti davlatning mustaqilligini qo‘riqlash va uning xududiy butligini ta‘minlash chora tadbirlarini ko‘radi. O‘zbekiston Respublikasiga xamla

qilingan vaqtda urush xolatini e'lon qiladi va uch sutka ichida qarorini Oliy Majlisga tasdiqlashga taqdim etadi.

Vazirlar maxkamasi Oliy majlis qonunlarini, Prezidentning buyruq va qarorlarini bajarilishini ta'minlaydi, xar yili harbiy xizmatga chaqirish uchun fuqarolar kontingentini aniqlaydi.

Harbiy xizmatning quyidagi turlari mavjud:

-muddatli harbiy xizmat;

Safarbarlik chaqiruv rezervidagi xizmat;

-shartnoma bo'yicha serjant, askar lavozimlaridagi harbiy xizmat;

-ayollarning shartnoma bo'yicha serjant, askar lavozimlaridagi harbiy xizmat;

-harbiy-o'quv yurtlarida kursantlar (tinglovchilar) sifatidagi harbiy xizmat;

-ofitserlik lavozimlaridagi harbiy xizmat.

Tinchlik davrida zaxiradagi xizmat, harbiy majburiyatdagilarni harbiy mutaxassisliklari bo'yicha urush davrida kerak bo'ladigan bilimlarini, ko'nikmalarini, takomillashtirish uchun yig'inlar ko'rinishida o'tkaziladi.

## ILOVALAR

### GLOSSARIY

Askar- Qurolli Kuchlarda mudatli harbiy xizmatni o`tagan shaxs

Avtomonitoring – bu o`qituvchining o`z kasbiy faoliyatiga qay darajada tayyorgarligini aniqlab borish. O`zlarini-o`zlari baholash va shu asosda o`zlarining intellektual salohiyatini muntazam rivojlantirishini nazorat qilish jarayoni.

Avtoreferat – ilmiy asar yoki tadqiqotning muallif tomonidan tayyorlangan qisqacha mazmuni, ifodasi.

Avtoritet - shaxsning boshqalar tomonidan e`tirof qilingan obro`si, fazilati, boshqalarga nisbatan ta`siri va ular tomonidan qadrlanishi. Avtoritet chin yoki soxta bo`ladi.

Adaptatsiya – lotincha so`z bo`lib, adaptation – moslashuv ma`nosini anglatadi. Bu erda adaptatsiya ilmiy izlanish olib borishda qo`lga qo`lga kiritilgan natijani (metodologik, usul, model, algoritm va hokazolarning) tadqiq etilayotgan ob`ekt yoki predmetni ifodalay olishligi nazarda tutiladi.

Adekvat (lotincha adequatus – tenglashgan, mos, aynan bir, o`xshash) – bilish nazariyasida narsa va hodisalarning xossalari va aloqalarini ularning obektiv mazmuniga to`g`ri keladigan aniq vam os ilib olish. Inson ongi ob`ektiv borliqni ijtimoiy amaliyot asosida adekvat aks ettira boradi.

Adekvatlik – ilmiy tadqiqot ishi natijasining tadqiqot ob`ekti (narsa va hodisalar) kechishi, ya`ni ob`ektning funktsional vazifalarini (o`zgarish, ishlash qonuniyatlarini va h.k.) aynan aks ettirilishi (adekvatligi) tekshiriladi. Bunda ob`ekt modeli bilan tadqiqot natijasi modeli o`rtasidagi o`xshashlik, moslik va ulrdagi qonuniyatlarning nechog`lik teng aks ettirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademik – yuksak ilmiy unvon. O`zR da O`zR FAda akademiklar saylanadi. Akademiklik unvoni O`zR FA va boshqa ilmiy hamda o`quv muassasalarining olim va ijodkorlariga, shuningdek ayrim shaxslarga beriladi.

Akademik daraja – ikki bosqichli oliy ta`limda beriladigan (bakalavr yoki magistr) darajadir.

Akademiya – ilmiy kadrlar tayyorlashning aniq sohalari bo'yicha oliy va oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim dasturini amalga oshiradi.

Akademiya – yunoncha so'z bo'lib, u Akademos – afsonaviy qahramon Akadem nomidan olingan. Akademiya ko'pincha ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari va o'quv yurtlarining nomi. Jumladan, miloddan avvalgi IV asrlarda Platon (Aflotun) asos solgan yunon falsafiy maktabi; Sharq mamlakatlaridagi akademiya tarzidagi muassasa va jamiyatlar VIII – IX asrlarda tashkil topa boshlagan. Arab xalifaligida Xorun ar-Rashid hukmronligi davri (786-809)da «Bayt ul-hikmat» («Bayt ul- hikma»)ga asos solinib, xalifa Ma'mun hukmronligi davri (813-833)da «Bayt ul-hikma»ning faoliyati yanada rivoj topgan, uning rasadxonasi va katta boy kutubxonasi bo'lgan.

Algoritm – pedagogik texnologiya tarkibiy bo'laklari (modullari) o'zaro ketma-ket joylashuvining hamda pedagogik texnologiya jarayonlarini amalga oshirishning qat'iy ketma-ketligining belgilangan qoidasi.

Belgilangan qonun-qoidalarni bajarish (algoritmni amalga oshirish) da hech qanday ixtiyoriylikka yo'l qo'ymaslik kerak va undan mazkur yo'nalishdagilar foydalana olishi kerak.

Algoritmning bajarilish jarayonini ma'lum bir bosqichidan (uzluksiz ta'lim tizimida) keyin boshqa bosqichiga ayrim ko'rsatmalar (maqsad va vazifalar) berish yo'li bilan o'tish mumkin.

Algoritmni qo'llanish sohasi deb, algoritm natijaviy bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlarning eng katta sohasiga aytiladi. Boshqacha aytganda, agar masala shartlari qo'llanilish sohasidan olingan bo'lsa, u holda algoritm bu shartlarni qayta ishlaydi va to'xtash ro'y beradi, agarda shartlar bu sohadan olinmagan bo'lsa, unda yo hech qachon to'xtash ro'y bermaydi, yoki to'xtash ro'y bersa ham biz natijasini hisobga olmaymiz.

Amaliyot – Nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash – bu amaliyot deb ataladi.

Amir Temur (1336-1405). *To'liq ismi* – Amir Temur Ko'ragon ibn Amir Tarag'ay. Amir Temur Yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakkiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. U dastlabki savodini oilada chiqaradi va 7 Yoshidan madrasada o'qiy boshlagan hamda Yoshlida madrasadagi tengqurlaridan o'zib ketgan.

*Ustoz-pirlari:* Shayx Shamsiddin Kulol, Sayyid Amir Kulol, Shayx Zayniddin Toybodiy (Sayyid Baraka), Shayx Bobu Sungu.

*Asarlari:* «Temur tuzuklari», «Malfuzoti Temuriy» («Temurning aytganlari»), «Voqioti Temuriy» («Temurning boshidan kechirganlari»). Bulardan tashqari Amir Temurning hayoti va faoliyati haqida tarixchi va yozuvchilar yaratgan mashhur asarlari ham mavjud («Zafarnoma», «Temurnoma» kabilar). Amir Temur farzandlari va nabiralariga aytgan pand-nasihatlarida adolatlilik, o'zaro hurmat, insonparvarlik, saxovatlilik kabi axloqiy fazilatlarni ustun qo'yadi. Bugungi kunda talabalarda axloqiy fazilatlarni rivojlantirishda «Temur tuzuklari»dagi axloqiy tarbiyaga oid qarashlaridan unumli foydalanish lozim.

Analiz - dars o'tish jarayonini tahlili qilish.

Ananaviy darslar – darsni bir xil o'tish jarayoni. Har doimgi bir xil holat.

Anketa - so'rov shakli. Savol va testlar yordamida amalga oshiriladi.

Annotatsiya – (lotincha *annotatio* – qayd) - qisqacha ta'rif bo'lib, u kitob, qo'lyozma mundarijasini va boshqa jihatlarini ochib beradi.

Axborotli modul – bu ta'lim maqsadini beligalash va rejalashtirilgan natijalar bilan chegaralangan, fanlararo va fan ichidagi bog'liqlikni hisobga olib tuzilgan va yakuniy nazoratlarning darajali tizimini qamrab oluvchi, o'quv fani mazmunini muntazam va tugallangan qismi.

Axborot texnologiyalari (AT) – bu tizim masalalarni echimini topish maqsadida axborotlarni yig'ish, qayta tiklash, saqlash, ifodalash, tizimlash, uzatish va uni iste'molchiga foydalanishga qulay holga keltirish jarayonini kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yordamida amalga oshiriladigan, tartibga solingan va tashkillashtirilgan tizim va amaliy dasturlar majmuasidir.

Axloq - jamiyatda qabul qilingan jamoatchilik fikri bilan maqullangan jarayondir.

Axloq - kishilarning bir-birlariga, oilaga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulq-atvorlari, odoblari majmui. Huquqdan farqli ravishda axloq talablarini bajarish-bajarmaslik ma'naviy ta'sir ko'rsatish shakllari (jamoatchilik tomonidan baho berish, qilingan ishni ma'qullash yoki qoralash) bilan belgilanadi. Axloqni etika fani o'rganadi.

Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma'naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri, deb qarashgan.

Axloqning shakllanishida va uning ijtimoiy o'rnida dinning ahamiyati katta. Dinning asosiy maqsadlaridan biri, insondagi yomonlikning zararlarini bayon qilish hamda yomon yo'lga kirib ketganlarni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. Zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda yaxshilik va ezgulik xudosi Axuramazda bilan yomonlik va yovuzlik xudosi Axrimaynu o'rtasidagi kurash abadiy davom etadi. Axloq bu kurashning ifodasidir, degan g'oya ilgari suriladi.

Islomda, uning muqaddas kitobi Qur'oni Karimda axloq masalasiga alohida e'tibor berilgan. Islomda olijanob axloqning eng muhim tushunchalari ta'riflanib, insoniyatni ularga amal qilish sari undaladi. Bular – ehson, kechirimli bo'lish, sabr-toqat, rostgo'ylik, shirinso'zlik, ota-onani, o'zidan katta Yoshdagilarni hurmat qilish, or-nomus, sadoqat va boshqalardir. Shu tarzda insoniyatning butun Amaliy faoliyati yaxshilik va yomonlikka ajraladi. Musulmonlar bir-birlarini yaxshilik va olijanob axloqqa chaqirishlari, nojo'ya ishlardan qaytarishlari Alloh tarafidan farz qilingan. Islom axloqining asosida halollik va taqvo yotadi. Kimki, jismoniy va ma'naviy pok bo'lsa, unday kimsa axloqsizlik yo'lga kirmaydi. (*O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. T., 2000, I, 530-bet*).

Axloq (arab. xulqning ko'pligi) – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek jamiyatda bo'lgan munosabatlarni tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi. Axloq normalari kishilarning xatti-harakatida o'z ifodasini topadi. Axloqning burch, vijdon, or-nomus kabi bir qator kategoriyalari mavjud.

Axloq jamiyatda turli funktsiyalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilar eng muhimi hisoblanadi:

- 1) kishilar orasida turli munosabatlarni muvofiqlashtirish;
- 2) kishilar faoliyatining insonparvar qadriyatlarini va mo'ljallarini belgilab berish;
- 3) shaxsni ijtimoiylashtirish.

Kishilar faoliyatini muvofiqlashtirar ekan, axloq ularni insonparvar, ezgu, halol, adolatli munosabatlarga undaydi. Umuman olganda esa, axloq jamiyat va shaxs taraqqiyotining umumijtimoiy qadriyatlarini asosida amalga oshiradi. (*«Falsafa» qomusiy lug'at. T., 2004, 40-41 betlar*).

Axloq - kishilarning bir-birida, Vatanga, jamiyatga bo'lgan munosabatlarida namoyon bo'ladigan xatti-harakatlari, xulqining norma va qoidalari yig'indisi. Axloq axloqiy ongni va axloqiy munosabatlarni o'z ichiga oladi. Axloqning yaxshilik, yomonlik, adolat, burch, baxt,

vijdon, shon-sharaf, kollektivizm kabi umumiy kategoriyalari mavjud. (*O'zbek sovet entsiklopediyasi*).

Axloq - ijtimoiy ong shakli bo'lib, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida insonning xulq-atvorini yo'lga solib turadigan tamoyillar talablar, me'yorlar va qoidalar yig'indidan iborat. Axloqiy tushunchalar: yaxshilik, sharaf, vijdon, e'tiqod, sadoqat va boshqalar baholanuvchi xarakterga ega. Axloq mazmuni muayyan qadriyat yo'l-yo'riqlarini, xulq-atvor me'yorlari motivlarini, insonlararo muomala shakllarini o'z ichiga oladi va ayni vaqtda ularni asoslaydi. (Po'latova M.P. Maxsus pedagogika. T., 2005, 139-142 betlar).

Axloqiy madaniyat – shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o'z ichiga oladi. Axloqiy madaniyat shaxs axloqiy taraqqiyotining belgichi hisoblanib, shaxsning o'zgaralar bilan o'zaro munosabatlarida namoyon bo'ladi. Shaxsning axloqiy madaniyati uning muomala odobi, etiket qoidalariga rioya etishi, kasbiy odobi hamda o'zgaralarga nisbatan munosabatning barcha turlarida ko'rinish mumkin.

Axloqiy tarbiya qanday xatti-harakat qilish kerakligini aytibgina qolmay, balki nima uchun boshqacha emas, bevosita shunday harakat qilish kerakligini tushuntirishga intiladi.

Axloqiy tarbiya deganda shakllanayotgan, rivojlanayotgan, o'sib kelayotgan avlodda xulq-odob me'yorlariga mos keluvchi sifatlarning shakllanishi tushuniladi. Axloqiy tarbiyalangan shaxslarsiz etuk kishilik jamiyati qurish mumkin emas. Axloqiy tarbiya shaxsning barkamol shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi.

Axloqiy tarbiya - insonni o'zgaralarga zarari tegmaydigan jamiyatda o'z o'rnini bo'libgina qolmay, balki o'zgaralarga nafi tegadigan qilib tarbiyalash.

## **B**

Burch – kishining biror shaxs, oila, jamoa, el-yurt, Vatan oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Burchda ob'ektiv munosabatlar ifodalanadi, ya'ni u jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va axloqiy negizlari bilan belgilanadi. Burchning o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lib, u insonning ichki kechinmalari, tashqaridan turib nazorat qilinmaydigan murakkab ruhiy holatini ifodalaydi. Burch imon-e'tiqod, onglilik, halollik, vijdon kabi tushunchalar bilan chambarchas bog'liq. Burcha qanday vazifa va kimning oldidagi majburiyat ekanligiga qarab turlicha bo'ladi. Ijtimoiy va shaxsiy burch, oilada ota-onalik burchi va farzandlik burchi va boshqalar. Burch nisbiy



tushuncha. U ijtimoiy taraqqiyot jarayonida mazmunan boyib, shaklan o'zgarib boradi. Hozirgi sharoitda insonning tabiat va avlodlar oldidagi burchi yangicha mazmun kasb etmoqda. Oilaviy burch esa jamiyat oldida turgan maqsadlar bilan yanada uyg'unlashmoqda. Ona Vatanga, xalqqa xizmat qilish eng ulug' va sharaflı burch hisoblanadi. (O'zME. T.: 2001, 2-tom, 261-bet).

#### Bataliyon- Harbiy qismning alohida bolimi

Bag'rikenglik – bu qadimiy qadriyat bo'lib, o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg'ulari, fikr mulohazalari, g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lishdir.

O'zbekistonda 7 tilda maktab ishlab turibdi. Ya'ni 8671 ta o'zbek maktablari; 762 ta rus maktablari; 581 ta qozoq maktablari; 318 ta tojik maktablari; 64 ta turkman maktablari va 56 ta qirg'iz maktablarida farzandlarimiz ta'lim-tarbiya olmoqdalar. (O'z.M.E)

Beruniy (973-1048). *To'liq ismi* – Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy. Amudaryo qirg'og'idagi Kot shahar yaqinida tug'ilib o'sadi. Shu erda boshlang'ich bilimni oladi. U ota-onasidan jrtta judo bo'lgan. Yoshligidanoq tabiiy va ijtimoiy fanlarni o'rganishga kirishdi. Til o'rganishga katta ahamiyat berdi. Yunon qo'shnisidan turli narsalarning nomlanishini so'rab yunon tilini o'rgangan.

Bilish – ob'ektiv borliqni inson ongida aks etishining oliy shakli, haqiqiy bilimlar hosil qilish jarayoni. Bilish quyidagicha darajalanadi: hissiy bilish-sezgilar, idrok, tasavvur orqali hosil qilishadi; ratsional bilish-tushunchalar, mulohazalar, aqliy xulosalardan o'tib nazariyalarda o'rin oladi.

Shu bilan bilishning kundalik, badiiy, ilmiy darajalari ham mavjud. Ilmiy bilash ham o'z navbatida tabiatni va jamiyatni bilishga ajralib, ularning ham mos ravishda yo'nalishlari va maqsad-vazifalari mavjud.

Bilish – inson tomonidan voqelikni aks ettirish protsessi. Agar bilish shaxsning o'ziga qaratilgan bo'lsa, u o'z-o'zini belgilash deb ataladi. Bilish protsessi sezgi, idrok, tasavvur, tafakkur kabi psixik protsesslarda ifodalanadi.

“Bumerang” texnologiyasi – dars jarayonida yangi mavzuni o'rganishda, darsdan tashqarida qo'shimcha qo'shimcha manbalar, matnlar va adabiyotlar bilan ishlaganda qo'llaniladigan texnologiyalardan biri bo'lib, bu texnologiya o'quvchining mustaqil bilim egallashi va shu egallangan bilimni boshqa o'quvchlarga o'rgatishga asoslanadi. Bunda o'quvchida o'z bilimini boshqalarga o'rgatish orqali eslab qolish qobiliyati va nutq madaniyati rivojlanadi.

Vatan (arabcha «vatan» - ona yurt ) deganda – kishilarning yashab turgan, ularning avlod va ajdodlari tug'ili-o'sgan joyi, hududi, ijtimoiy muhiti, mamlakati tushuniladi. Vatan, eng avvalo, ob'ektiv muhit, borliq, zamin bilan bog'liq bo'lgani uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shakllanadi.

Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Vatanga muhabbat tuyg'usi bolaga ona suti bilan, allasi bilan kiradi. Bu aziz tuyg'u bir umr unutilmaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik tarbiyasi hamma zamonlarda ulug'langan.

Vatanparvarlik – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir.

Vatanparvarlik – kishilarning ona yurtiga, o'z Vatanga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushuncha. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashagan hududning dahlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi. (O'zME. T.: 2001, 2-tom, 395-bet).

Vijdon - axloqiy tushuncha, yaxshilik nima-yu, yomonlik nimaligiga javob beradigan ichki ishonch, o'z xatti-harakatlari uchun axloqiy mas'uliyatni anglash. Vijdon shaxsning axloqiy jihatdan o'z-o'zini nazorat qila olish, o'zida axloqiy burchni mustaqil shakllantirish hamda o'zidan uni ado etishni talab qila shva o'z xatti-harakatlariga baho berish qobiliyatini ifodalaydi. Vijdon dastlabki axloqiy mayl bo'lib, tashqi ta'sir tufayli rivojlanishi yoki so'nishi mumkin. U ehtiros, hissiyot shaklida shaxsning o'z xatti-harakatlari uchun uyulish, pushaymon bo'lish yoki axloqiy qoniqish sifatida namoyon bo'ladi. Vijdon yaxshilik, burch, baxt, halollik kabi boshqa axloqiy tushunchalar bilan bog'liq. Jamiyatning rivojlanishi, ma'naviy, axloqiy yuksalishi bilan vijdon tushunchasining mazmuni va mohiyati boyib boradi. Uning mohiyati ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. (O'zME. T.: 2001, 2-tom, 448-bet).

Vijdon – bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fe'l-atvori uchun oila, jamoat, jamiyat va vatan, millat oldida ma'naviy mas'ullikni his etishdir.

Vijdon tug'ma hislat deguvchilar ham bor. Vijdonli kishilarning yashab turgan sharoitiga , olgan ta'lim tarbiyasiga bog'liq deb hisoblovchilar ham mavjud.

Vijdon ko'p yoki oz bilishlikka, boy yoki kambag'al bo'lishlikka, oddiylik yoki mashhurlik bilangina bog'lik emas.

## G

Global ta'lim – bu bir vaqtning o'zida o'quvchilarning intellektual, hissiy, jismoniy, axloqiy va ruhiy xususiyatlarini rivojlantirish yordamida ularni tez o'zgaruvchan, juda murakkab, ko'p millatli va o'zaro aloqador hayotga birmuncha sifatliroq tayyorlashga yo'naltirilgan majmuaviy yondashuvdir.

Guruhli ta'lim – bir o'qituvchi bir necha o'qituvchini o'qitadigan ta'lim shakli. Guruhlar o'quvchilar soniga qarab: kichik (3-6 o'quvchi), o'rta (7-15 o'quvchi), katta (15 dan ortiq o'quvchi, guruhlar) ga ajratiladi. Shuningdek, har bir guruhdagi ta'lim oluvchilarning Yoshiga, ta'lim yo'nalishigga va shu kabilarga qarab ham guruhlarga ajratiladi. Bu shaklni qo'llash jarayonida yakka ta'lim shakllari ham amalga oshiriladi.

## D

Davlat va jamiyat – ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafillari.

Davlat standartlari – ta'limning zarur, etarli darajasi va o'quv yuklamalar hajmiga qo'yiladigan asosiy davlat talablarini belgilab beruvchi mezon.

Dars - o'z oldiga qo'ygan aniq maqsadi va tugal mazmundan iborat jarayon.

Darslik - har bir o'quv predmetining mazmunini darslikda ko'rsatilgan hajmda didaktik talablar asosida kitob yoziladi.

Darslik – bu pedagogik tizimning axborotli modelidir. Chunki har bir o'quv darsligida o'quvchi (talaba)lar bajarishi kerak bo'lgan o'quv jarayonining ma'lum bosqichlari ko'rsatilgan bo'lib, o'quvchilar undan mavzularni o'qib, undagi topshiriqlarni ma'lum harakatlar ko'rinishida bajarishadi: tekshiradi, echadi, javob beradi va hokazo. Bu harakatlar darslik matnlarida ochiq yoki yashirin shaklda berilishi mumkin.

Darslik – DTS, o'quv dasturi, uslubiyati va didaktik talablari asosida belgilangan milliy istiqloq g'oyasi singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan

asoslarini mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr.

Dastur – oldindan tayyorlangan algoritm va hisoblash texnikasi vositalariga asoslangan holda bajariladigan ishning shart-sharoiti, maqsadi va vazifasini e'tiborga olib, uning biror bir formal (shartli) algoritmik tildagi aniq va to'liq ifodalanishi.

Dasturning maqsadi: muayyan algoritm yordamida amallarni, harakat faoliyatini kompyuter vositasida amalga oshirish bo'lsa, vazifasi esa algoritmni biror algoritmik til vositasi EHM tiliga ko'chirishdan iborat.

Talabalarga ta'lim-tarbiya berishda o'quv rejasi va dasturlarini og'ishmay amalga oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Dastur algoritmlash va dasturlash asosida jarayonlar kechishini tavsiflashini ko'rgazmaliligini ta'minlash sohalarida foydalaniladi.

Dastur, dasturlash algoritmlarini hayotga keng joriy etishning asosini tashkil etadi. Dastur – ishni samarali rejalashtirishni ham o'rgatadi.

Dastur – bajariladigan ish yoki biror faoliyat rejasi. Dastur – biror masalani echishda kompyuter bajarishi lozim bo'lgan amallarning izchil tartibi.

Dasturlashtirilgan ta'lim (DT) – o'quv jarayonini muayyan tartib (dastur) asosida tashkil etish. DT kibernetika, informatika, matematik logika va hisoblash texnikasining samarali tamoyillari va murakkab tizimlaridagi boshqarish vositalarining pedagogikada joriy etilishi natijasi bo'lib, u XX asrning 50-yillarida paydo bo'ldi. DT o'quv materialini kichik-kichik qismlarga bo'lish, uni muayyan tartibda bayon etish, ushbu qismlarning biridan ikkinchisiga o'tish tartibi (qoidalari)ni belgilash, xususan, har bir qismni o'zlashtirish yuzasidan aniq ko'rsatmalar, topshiriqlar berish, o'z-o'zini nazorat qilishni ta'minlash kabi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

DT ning dasturi, ya'ni o'rgatuvchi dastur (o'rgatuvchi algoritm) maxsus o'rgatuvchi qurilmalar (mashinali DT) yoki dasturlashtirilgan darsliklarga (elektron darslik, elektron o'quv qo'llanma va h.k.) kiritiladi. Bugungi kunda ba'zi holatlarda DT ni goh o'rgatuvchi va o'rganuvchi mehnatni ilmiy asosda tashkil etish tizimi sifatida qaralsa, gohida an'anaviy ta'limning o'rnini egallaydigan pedagogik tizim, ba'zan qandaydir kibernetik didaktika, ta'limning yangi metodi yoki mustaqil ishlashning alohida turi, deb qaralmoqda. Lekin bundan

qat'i nazar, DT ning maqsadi ta'lim oluvchining bilimlarini o'zlashtirish jarayonini boshqarishni optimallashtirishdan iboratdir.

Didaktika – pedagogikaning mustaqil tarmog'i. Ta'lim-tarbiya nazariyasi, ya'ni maqsadlari, mazmuni, qonuniyatlari, tamoyillarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi.

Didaktika ta'lim jarayonining umumiy qonuniyatlarini o'rganuvchi qismidir. Didaktika grekcha so'z bo'lib, «didasko» -o'qitish, «didaskol» - o'rgatuvchi degan so'zlardan kelib chiqqan. «Didaktika»ning so'zma-so'z tarjimai ta'lim nazariyasini anglatadi.

Didaktika pedagogikaning «nimaga o'qitish», «nimani o'qitish» va «qanday o'qitish» kabi savollariga javob izlaydi. Umumiy didaktika esa o'z navbatida ayrim fanlarga oid usullar bilan juda mustahkam bog'lanadi. Shu usullar ma'lumotiga tayanib o'qitishning umumiy qonuniyatlarini ochib beradi va ayni vaqtda har bir o'quv fanini o'qitish usullari uchun umumiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Didaktika o'z oldiga o'qitishning o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash maqsadlariga javob beruvchi umumiy qonuniyatlarni bilib olish vazifasini qo'yadi. Didaktikaning asosiy vazifasi Yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurolantirishdan iborat.

## J

Jasurlik – har qanday foliyat jarayonida, mayli, u mehnat jarayoni, jangu jadal yoki boshqa ezgu niyatlarni amalga oshirishi jarayonida bo'lsin, kishi bir qator qiyinchiliklar, to'siqLar, goho xavf-hatarlarga uchraydi. Shunda ularning qo'rqmay o'z yo'lida maqsadi tomon mardonavor harakat qiluvchi odam jasur hisoblanadi. Bu fazilat boshqalarda zavq uyg'otishi bilan birgalikda, har qanday faoliyatni yakuniga etkazishning asosiy omili hamdir va eng asosiysi, kishida jasurlik bo'lmasa boshqa barcha fazilatlar deyarli ish bermaydi va ijtimoiy muhit holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatmaydi. (Ziyomuhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T.: «Turon iqbol» 2006, 119-b).

Jismoniy madaniyat – bu insonning barcha tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, uni tobora insoniylashtirib, ham jismoniy, ham ma'naviy chiniqtirib, yuksaltirib boruvchi jarayondir.

Joriy nazorat (JN) – bu auditoriya mashg'uloti davomida mustaqil bajarilgan topshiriqlarni tekshirish, testlash, kollokviumlar, seminarlar, so'rov va boshqalar orqali amalga oshiriladi. Nazoratning davriyligini o'qituvchi belgilaydi. Joriy nazoratga qo'yilgan bu vazifa, uni bilimni nazorat qilish bosqichlari ichida shakllantiruvchi ekanligini ko'rsatadi. U o'qitishning

asoslanishini, faol o'qitishga rag'batlantirishni ta'minlaydi, shu bilan bir paytda yakuniy nazorat asosini qayd etib, baholash xarakteriga ega bo'ladi.

## Z

Zamonaviy o'quv adabiyotlari – (ZAT) asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lgan manba.

Zarba- Raqibga nisbatan qollaniladigan usul

## I

Ibtidoiy davrda tarbiya asosan oilada, jamoa va mehnat maskanlarida kishilar orttirgan tajribalarni bolalarga o'rgatishdan iborat bo'lgan. Bolalarga o'rgatilgan mehnat malakalari ularni yashash uchun kurashishga tayyorlar, aql-idrokli, odobli bo'lib o'sishlariga xizmat qilardi. Ming yillar mobaynida hamkorlikda qilingan mehnat kishilar o'rtasidagi odob-axloq munosabatlarining me'yorini keltirib chiqargan.

[Hasanboeva O., Hasanboev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. T.: 2004, 10- bet].

Ijod – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon bo'ladi.

Ijod dastlab inson tasavurida tug'iladi, keyin ijodga taalluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi.

Ijod – fan va texnikani, madaniyatni boyitadi, rivojlantiradi.

Ijodiy yondashuv – bu pedagogikada zamonaviy yo'nalish bo'lib, u ta'lim oluvchilarning muammolarini hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, mustaqil ravishda qaralayotgan faoliyatning yangi yo'nalishlarini topishga undash jarayonidir.

Bunda o'quvchi-talabalarning faoliyatiga demokratik asosda rahbarlik qiladi va ularning shaxsiy tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlaydi, ular bilan hamkorlikda ishlaydi.

Ijod komponentlari: muammolarni hal qilish; o'quv ishlariga oid izlanishlar olib borish; fanlararo bog'lanish; ilmiy taxmini olg'a surish va uni tekshirish; ma'lumotlar yig'ish; moddellash-

tajriba o'tkazish; ijodiy va tanqidiy fikr yurgazish; to'g'ri qarorlar qabul qilish; shaxsiy fikr ma'nosini izlash.

Ijodning tarbiyaviy funksiyasi – bu shaxs sifatlarini maqsadli shakllantirish va rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, u ijodkorlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyatini, yaratuvchanlik xarakterini chuqur anglash, amaliy muammolarni hal qilishga ijodiy yondashish, ma'naviy va moddiy ishlab chiqarishning umumiy ilmiy asoslarini o'zlashtirish, tabiatning yashirin qonuniyatlarini va uning sirlarini ochib berishdagi haqiqiy ijodkor shaxslarning kuch-qudrati va tasavvur qilishlariga xizmat qiladi. Bularning hammasi tabiatga, ilm – fanga, ijodkor shaxslarga va ularning mehnatiga talabalarda huquqiy muhabbat uyg'otadi, o'z kasbiy faoliyati umumiy ilmiy asoslarini chinakam tushunishga yordam beradi. Bu o'z navbatida bo'lajak mutaxassislarning texnika – texnologiya sohasidagi faoliyatlariga ongli, ijodiy yondashishni rivojlantiradi, ularning ijtimoiy munosabatlari doirasini va faoliyat vositalarini kengaytiradi, ongli xulq - atrof me'yorlarini va kasbiy bilimlarining chuqur bo'lishini ta'minlaydi. Bularning hammasi talabalarga o'z qobiliyatiga yarasha o'z o'rnini belgilashda yordam beradi. Bular esa har tomonlama kamol topgan shaxsni shakllantirishning asosiy shartlaridan biridir.

Imom Buxoriy (810-870). *To'liq ismi* – Abu Abdulloh Muhammab ibn Ismoil al-Buxoriy. Buxoroda tavallud topgan. 10 Yoshga to'lmasdan hadis ilmini o'rganishga kirishgan. 16 Yoshida onalari va akalari bilan birga hajga borib 4 yil Makkada yashaganlar. Payg'ambarimiz (sav) hadislarini to'plab, tartibga solish niyatida ko'plab islom mamlakatlarini kezib, shayxu ulamolardan ko'plab hadislar yozib olganlar.

*Ustozlari:* (manbalarda 90 ga yaqin deb ko'rsatilgan) Abdulloh ibn Muborak, Vake', Imom Ahmad ibn Hanbal al-Marvaziy, Muhammad ibn Yusuf al-G'artobiy, Ubaydulla ibn Mussa al—Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn az-Zubayr al-Hamidiy, Ishoq ibn Ibrohim, Ali ibn al-Madiyniy.

*Shogirdlari:* Muslim ibn Hajjoj, Iso at-Termiziy, an-Nasoiy, Abu Zur'a, Yusuf al-Farobiy, Abu Bakr ibn Huzayma, Amir ibn Fallos kabi minglab shogirdlar etishtirganlar.

*Asarlari:* 600 ming hadis to'plaganlar. «Al-Jomi' as-sahih» (4 jild), «Al-adab al-mufrad», «Kitob asmo' is-sahoba», «Kitob af'ol il-ibod», «Kitob bad' il-maxluqot», «Kitob birr il-volidayn», «Ta'rix us-siqot vaz-zu'afo min ruvot il-hadis», «Ta'rix Buxoro», «Kitob us-sulosiyyot», «Al-Jomi' as-sag'iyr», «Al-Jomi' al-kabiyr», «Kitob ul-favoid», «Kitob ul-qiroa xalfa-l-imom», «Kitob il-hiba», «Xulq af'ol il-ibod», «Kitob ul-musnad al-kabiyr» va boshqalar. Buyuk muhaddisning asarlarida axloqiy tarbiyaga alohida o'rin berilgan. Unda asosan oilada

farzand tarbiyasi ota-onani hurmat qilish, onani e'zozlash, mehr-oqibatli bo'lish, pok va iymonli bo'lish yaxshilik qilish kabi yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan fikrlar bayon etilgan. Ulardan dars jarayonida unumli foydalanish katta samara beradi.

Innovatsion ta'lim – bo'lajak mutaxassislarni yangicha joylarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u avval olgan bilimlar asosida ta'limni takomillashtirish va samarali yangicha yondashuv qilishdan iborat.

Unda ta'lim- tarbiyada yangicha sifat ko'rsatkichiga erishib, yuqori samaradorlikni qo'lga kiritish amalga oshiriladi va ijokorlikka yo'naltiriladi hamda ta'lim texnologiyalarini yangicha sifat bosqichiga ko'tarish, shuningdek, ta'lim-tarbiyada zamonaviy yondashuvlarni tashkil qilib borishni ta'minlaydi.

IT ta'limda zamon bilan hamnafas ta'lim texnologiyalarini yaratish bilan shug'ullanishga doimo imkoniyat yaratib boradi.

IT lar kishilik jamiyati taraqqiyoti bilan mos ravishdagi yangicha yondashuvlarni ijod qilishda muntazam ravishda faoliyat ko'rsatib boraveradilar.

Innovatsiya – yangilanishni, o'zgarishni amalga joriy etish jarayoni va faoliyati (inglizcha innovatsiya – kiritilgan yangilik, ixtiro).

Ilmiy texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asolangan texnika, texnologiya, boshqaruv va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek ularning turli sohalari va doiralarda qo'llanishini aks ettiradi.

Inson kamoloti – bu insonning keng ma'noda ichki va tashqi omilla ta'sirida shakllanish jarayonidir. Bu jarayonda tarbiyaning muhim ahamiyat kasb etishi tkidlanadi.

Insonparvarlik – odamzotning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashishi, insonning baxt-saodati, teng huquqligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoiyllari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi. Insonparvarlik o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatlaridir. (Zokirov M. Ma'rifiy saboqlar. J. 2001. 67-bet).

Insonparvarlik – kishiga g'amxo'rlik, odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, tenghuquqligi, adolatli



hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tomonlari yuzaga chiqishga shart-sharoitlar yaratish.

Insof – bu adolat va vijdon amri bilan ish tutish tuyg'usi va qobiliyati, ishda kishilarga munosabatda halollik, to'g'rilik, tenglik, sofdillik va haqiqatgo'ylikdir. O'zgani o'z o'rniga va shuningdek, o'z o'rniga o'zgani hayolan qo'yib ko'ra bilish ham insofga kiradi. To'q ochni, boy kambag'alni, baxtli baxtsizni, tolei baland tolei zabunni, omadli omadsizni, sog'lom bemorni o'z o'rniga qo'yib ko'ra olsa va aksincha, ham xuddi shunday bo'lsa, insoflilar safi kengayib boradi.

Insof tushunchasi Sharq falsafasida shunday talqin etiladi. Insof – bu kishining ijtimoiy ahloq me'yorini nuqtai – nazarida o'z hulq odobini tartibga solishi va ahloqiy baholashidir. Insof vijdonli odamning yoki ma'lum jamoatning jamiyatda yoki boshqa kishilarga nisbatan o'z hulq atvori uchun ma'naviy javobgarlik hissidir. Agar kishi biror ishni to'g'ri bajarsa unda ichki qoniqish paydo bo'ladi, atayin noto'g'ri bajarsa insofdan chiqqan bo'ladi. Insof kishini biror ishni qilishga undasa yoki qilishdan tortsa, bunda u qalb amri tarzida bo'ladi.

Interfaol mashg'ulot – o'qituvchi va o'quvchilar o'zaro faol ishtirok etadigan mashg'ulot. Bunda jarayon o'zaro hamkorlikda kechadi.

Interfaol usul – bu ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi faol hamkorlikdagi ta'lim usuli bo'lib, unda ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi bir-birini to'liq tushunishga erishiladi.

«Inter» so'zi lotincha bo'lib, o'zbek tilidagi «oraliq», «o'rtasi», «o'zaro» kabi ma'nolarni bildiradi. Shu sababli ham interfaol usullar ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi faollik asoslangan ta'lim uslubiyati deb ham atash mumkin.

Mazkur usulda ta'lim oluvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi va bu orqali ulardagi erkin fikrlashga keng yo'l ochiladi. Bu talaba–Yoshlarning mustaqil ravishda optimal qarorlar qabul qila olishga, ijodiy fikr yuritishga imkoniyat yaratadi.

Inerfaol usulning maqsad-vazifalarini quyidagicha ifodalash mumkin:

. ta'lim oluvchilarni erkin, mustaqil, tanqidiy, tahliliy, mantiqiy, ijodiy fikrlashga va ular asosida to'g'ri qarorlar qabul qilishga o'rgatish;

. ta'lim oluvchilarning muammoli vaziyatlardan qiynalmay chiqa olishga, nazariy va amaliy hamda kasbiy (hayotiy) topshiriqlarni bajarishni uddalashga o'rgatish.

. ta'lim oluvchilarni fikrlashga undash orqali, ularni izlanishga va ijodkorlika yo'naltirish;

. ta'lim oluvchidagi hamkorlikning samarali yo'llarini va kasbiy bilim, ko'nikma hamda malakalarini egallashga bo'lgan hatti-haraatlarini faollashtirish;

. ta'lim oluvchilarni tashkilotchilik, boshqaruvchanlik (rahbarlik) va yo'naltiruvchanlikka undash.

Interfaol usullardan foydalanish shakllari:

. mashg'ulot topshiriqlarini individuallashtirish;

. o'zaro faol va ijodiy hamkorlik qila oladigan mayda guruhlariga ajratish;

. guruhdagi talabalarni intellektual salohiyatlariga qarab tabaqalarga ajratish va ular orasidagi tafovutga e'tibor berish;

. ta'lim berish va o'rganish jarayonidagi erkin muloqat qila olish muhitini yaratish;

. ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi o'rtasida hamda kichik (ajratilgan) guruhlar o'rtasidagi erkin muloqat, ijodiy hamkorlik, foydali «bahs-munozaralar»ni tashkil etishga erishish va hakoza.

Interfaol usullardan foydalanish vositalari:

. kasbiy didaktik o'yinlar;

. rolli o'yinlar;

. kasbiy kompyuterli o'yinlar;

. interfaol o'quv adabiyotlari;

. interfaol texnika vositalari;

. metodik mahsulotlar;

. intellektual mahsulotlar.

Vositalarni ham asosan ikki guruhga ajratgan ma'qul. Ular: interfaol va interfaol bo'lmagan vositalar.

**Interfaol vositalar:**

- audio, video va elektron anjumanlar;
- ovozli va yozuvli ikki tomonlama muloqat qila oladigan oddiy va yo'ldoshli aloqalar;

- teleanjumanlar va shu kabilar.

#### **Interfaol bo'lmagan vositalar:**

- mashg'ulotga tegishli didaktik majmualar;
- audio va video tasmalar (disklar);
- bir tomonlama oddiy va yo'ldoshli aloqalar;
- televizion ko'rsatuvlar;
- radio eshittirishlar;
- kompakt disklar;
- «INTERNET» tarmoqlari va shu kabilar.

Interfaol usullardan foydalanish o'qitish jarayoniga samarali ta'sir ko'rsatib, o'quv jarayonini jonli tashkil etilishini ta'minlaydi. Shu bilan bir qatorda avvalgi bilimlar va yangi axborotlar o'rtasida bog'lanish hosil qilinib, materialni to'la tushunishga zamin yaratadi.

Ishchi o'quv dasturi – muayyan o'quv predmeti uchun namunaviy o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan va o'qitishning to'liq mazmunini ochib beruvchi hujjat.

Ishchi o'quv rejasi – muayyan ta'lim mussasasi uchun o'qitish jarayonining kalendar – taqvim tuzilmasini va bosqichlarini ifodalaydigan namunaviy o'quv rejasi asosida ishlab chiqilgan hujjat.

## **K**

Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash – kasb bilimlari va ko'nikmalarini chuqurlashtirish hamda yangilanishni ta'minlaydigan maxsus belgilangan jarayon.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli – uning asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub'ekti va ob'ekti ta'lim sohasidagi xizmatlarning iste'molchisi va ularni amalga oshiruvchi.

Davlat va jamiyat - ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimining faoliyatini tartibga solish va nazorat qilishni amalga oshiruvchi kadrlar tayyorlash va ularni qabul qilib olishning kafllari.

Uzluksiz ta'lim - malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlarini, davlat ta'lim standartlarini kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish muhitini o'z ichiga oladi.

Fan - yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi va ulardan foydalanuvchi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini ishlab chiquvchi.

Ishlab chiqarish - kadrlarga bo'lgan ehtiyojni, shuningdek, tayyorgarlik sifati va nisbatan qo'yiladigan talablarni belgilovchi asosiy buyutmachi, kadrlar tayyorlash tizimini moliya va moddiy-texnik jihatidan ta'minlash jarayonining qatnashchisi.

Kasbiy tarbiya – shaxsni kasbiy shakllantirishning ikki tomoni mavjud. Shaxsning o'z individual xususiyatlarga bog'liq bo'lgan ichki tomoni va muayyan jamiyatning muayyan ijtimoiy-iqtisodiy va tarixiy sharoilari va maqsadlari bilan aniqlaydigan tashqi tomonlari.

Bo'lajak mutaxassisni kasbiy mehnat faoliyatiga tayyorlash va mehnat bozorida raqobat qila olishga tayyorligi va qobiliyatini ta'minlash maqsadida ijtimoiy etuk shaxsni shakllantirish va rivojlantirish jarayoni. Bu individning talablari, qobiliyatlari, ruhiy-jismoniy imkoniyatlari hamda ijtimoiy va ijtimoiy etnik omillar ta'sirini hisobga olgan holda o'quv jarayoni va o'quv ishlab chiqarish faoliyati doirasida dasturlashtiriladi va amalga oshiriladi.

“Klaster” (Tarmoqlar) metodi – o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, umumiy fikr doirasini kengaytirishga, atamalar, tushunchalar va voqealarning bir – biri bilan bog'liqligini anglab olishga o'rgatuvchi metod hisoblanadi. Bu metoddan asosan darsning yakuniy qismida yoki bob yuzasidan takrorlash o'tkazilganda, umuman, avval egallagan bilimlarini takrorlash va mustahkamlash maqsadida foydalanish mumkin.

Kognitiv – U atrof olam haqidagi bilim doirasini kengaytirish, differentsiallovchi tafakkurni shakllantirish, bilish ehtiyojlarni rivojlantirish ta'limi.

Komil inson tarbiyasi – bu ta'lim-tarbiya jarayoni orqali yo'naltiriladi va pedagogika fani asosida unga ma'naviy-ma'rifiy asoslar yaratiladi.

Buning uchun quyidagi manbalarni chuqur o'rganish, tahlil qilish, o'zlashtirish va o'z turmush tarzimizda (kundalik faoliyatimizda) joriy etishimiz lozim:

- «Avesto» dagi «Ezgu uy, ezgu fikr, ezgu amal» tizimi bo'yicha fikr yurita olishlikni amalga oshirish va Yoshlar tarbiyasida ulardan samarali foydalanish;

- Qur'oni Karim, Hadisi Shariflardagi manbalar bo'yicha Yoshlar ongiga ma'naviy-ruhiy poklikni singdirish mezonlari va tamoyillarini yaratish;

- Abu Nasr Farobiyning fozil odamlar haqidagi ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya berish (TTB);

- Al-Beruniy, Al-Xorazmiy, AbuAli ibn Sino va Mirzo Ulug'beklarning pedagogik va falsafiy qarashlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Yusuf Xos Hojib va Ahmad Yugnakiy asarlarida tasvirlangan benuqson insonlar haqidagi ta'limotlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Abduholiq G'ijduvoni, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Boborahim Mashrab, Imom al-Buxoriy, At-Termiziy, Al-Marg'iloniy, Al-Motrudiy, So'fi Olloyor va boshqalarning komil inson haqidagi ta'limotlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Amir Temur «Tuzuklari» va Qozizodaning «Hukmdorga o'gitlar» ta'limotlari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Alisher Navoiyning adolatli jamiyat va komil inson ta'limoti asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Mirzo Boburning dinlararo bag'rikenglik, millatlararo totuvlik va bunyodkorlik g'oyalari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Xalq pedagogikasi namoyondalarining barkamol shaxs tarbiyasi haqidagi nazariyalari asosida ta'lim-tarbiya berish;

- Milliy uyg'onish davri pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya berish va h.k.

Komil inson g'oyasi (KIG').

KIG' - bu mohiyati jihatidan ham milliy, ham umumbashariy bo'lib, unda insonga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy mukammallikni o'zida mujassam etgan hamda shakllangan mukammallikni doimo ezgulikka undaydigan olijanob g'oyadir.

KIG' nafaqat alohida shaxslarni, balki butun-butun xalqlarni yuksak taraqqiyot sari etaklagan, ularni ma'naviyat va ma'rifat sohasida istiqbolli yutuqlarga ilhomlantirgan.

Komillikni orzu qilmagan, barkamol avlodlarni voyaga etazish haqida qayg'urmagan xalqning, millatning kelajagi yo'q. Bunday xalq va millat tanazzulga mahkum.

Kompyuterli ta'lim dasturlari – kompyuterli ta'lim dasturlari, odatda 2 xil, ya'ni axborot ma'lumotli va nazorat ta'limiy tartibda o'qitish imkoniyatiga ega bo'lgan turlarga bo'linadi.

Talabalarni masofadan turib o'qitish mobaynida o'z-o'zini bilimini sinab ham joriy yoki oraliq sinashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maxsus ishlab chiqariladigan uskunaviy vositalardan foydalanish kompyuterli ta'lim dasturlarini yaratish jarayonini anchagina engillashtiradi. Ular yordamida kompyuter texnologiyalaridan bexabar bo'lgan tarix, adabiyot, huquq va boshqa fan o'qituvchilari ham bemalol ta'lim dasturini yaratish mumkin.

Chop etilgan materiallar audio va video yozuvlar bilan birgalikda o'quv materialiga kirishni kengaytirish va soddalashtirish, o'quv materialini qulay va ko'rgazmali tarkiblash uchun, shuningdek, uning ustida oson harakatlanishi (navigatsiya) uchun foydalaniladi.

Kuzatish – bu ilmiy bilimga tegishli ijodiy faoliyat bo'lib, u ilmiy bilishdagi amaliy metodlardan biridir. Uning asosiy vazifasi nazariy tadqiqotlardan olingan natijalarni amaliy jihatdan asoslab berishdan iborat. Ilmiy bilishning kuzatish metodi qadimdan ma'lum bo'lib, u bugungi kunda ham o'z o'rnini (roli) va ahamiyatini yo'qotgan emas. Demak, kuzatish metodi doimo ilmiy tadqiqotchilarning asosiy tadqiqot quroli bo'lib kelgan. Kuzatish metodi yordamida quyidagi yo'nalishdagi muammolarni samarali hal etish mumkin:

1.Tabiat va jamiyat hodisalari hamda voqealarini o'rganish imkoniyatini yaratish yo'nalishidagi ijodiy faoliyatda;

2.Kishilardagi diqqat-e'tibor va his-tuyg'ularni o'rganish jarayonidagi ijodiy faoliyatda;

3.Asab tizimining tashqi ifodalari va ularning odam organizmiga ta'sirlari, shuningdek, organizmning turli tashqi muhitga ta'sirlarining modellarini tuzishdagi ijodiy faoliyatda;

4.Insonlardagihatti-harakatlar, sir-sinoatlar (sezgirlik, sinchikovlik, xulq-atvori, nutq faolligi va h.k.) ni o'rganish borasidagi ijodiy faoliyatda va shu kabilarda . Kuzatishning maqsadi: kuzatiluvchi vaziyatga ishonch hosil qilish.

Kuzatish ob'ektlari: gurux; tabiat; hayvonot olami; muomala jarayoni; shaxslarning turli faoliyatlari va shu kabilarda.

Kuzatuv metodi – bu hodisa va jarayonlar bilan faol tanishuvini amalga oshiruvchi metoddan iboratdir.

Kuzatuv metodi asosan quyidagi yo'nalishlarda o'z samarasini beradi:

Kuzatish; faoliyat mahsullari taxlili; o'lchash; korelyatsion kuztuvlar; ma'lumotlar yig'ish; tushuntirish metodini kuztuvga nisbatan qo'llash va shu kabilarda.

Kuzatish metodining asosiy afzalligi shundan iboratki, kuzatish rejalashtirilgan sharoitlarda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan hodisa va jarayonning mavjud holatini (xulq-atvorini) o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta odam ustida ham va bir guruh shaxslar ustida ham olib borish mumkin. Bu metod bolalar bog'chasi guruhlaridan tortib oliy ta'limdan keyingi ijtimoiy guruhlargacha bo'lgan jarayonlarda ham foydalanishga qulay.

Ko'nikma – ongli faoliyat (harakat)ni tez, tejamli, to'g'ri, kam jismoniy va aqliy kuch sarflangan holda bajarish jarayoni natijasi. U shaxsning bilimlari asosida tarkib topadi. Dastlabki shakllanish bosqichlarida bunday harakatlar jiddiy diqqat bilan bajariladi, keyingi bosqichda diqqat bilan nazorat qilish kamayib boradi va natijada avtomatlashgan harakatga aylanadi.

Harakat turlari bo'yicha uch turga: harakat ko'nikmalari, sensor ko'nikmalar, aqliy ko'nikmalarga bo'linadi. Ko'nikmalar muntazam mashq qilish (takrorlash) orqali zarur darajada saqlanadi. Ana shu sababli ham uning ta'lim –tarbiyadagi ahamiyati beqiyos.

Ma'lum vaqt takrorlanmaslik ko'nikma darajasining pasayishiga olib keladi. U katta mashqlar bajarish, malaka oshirish orqali tiklanadi.

Ko'nikma – insonning ilgarigi tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati.

Ko'nikma – bu shunday aqliy va jismoniy harakatlar, usullar va yo'l-yo'riqlardan iborat bo'lib, ular yordamida rejalashtirilgan maqsadga erishiladi yoki muayyan bir faoliyat amalga oshiriladi.

*Ko'nikma* – u yoki bu ishni bajarishning avtomatlashgan usuli bo'lib, ongli ishning bajarilishini nazorat qilishdan ozod qiladi va uni ishdan kutilgan maqsadga qaratadi.

Insonda ko'nikmalar ongli harakatlarning avtomatlashuvi tufayli yuzaga keladi.

Ko'nikmalar odamning o'z tajribasida avval egallab olgan malakalari asosida paydo bo'ladi va amal qiladi. Turmush tajribasida aksincha ham bo'ladi. Ba'zan ko'nikmalar shaxsda malaka hosil qiladi va uning malakali ishlashiga yordam beradi, ba'zilar, aksincha, shaxsdagi malakalilik sifatiga salbiy ta'sir etadi va uni o'zgartiradi. Bu hol malaka va ko'nikmalarning o'zaro ta'siri, deb yuritiladi.

Odam faoliyatida ko'nikmalar malaka tarzida ham namoyon bo'ladi. Har qanday malaka ko'nikma bo'la oladi, lekin har qanday ko'nikma malaka bo'la olmaydi. Ko'nikmalar

avtomatlashgan mohiyat kasb etsagina, malaka bo'ladi. Masalan, talabaniing turli harakatlarni shakllarni yozish jarayoni avtomatlashgan bo'lgani uchun ko'nikilgan harakat bo'lib qolgan. Shuning uchun talaba harflarni chiroyli va soz yoza oladi. Bu harakat talabaniing malakalashgan ko'nikmalaridir. Juda ko'p marta takrorlash tufayli talabalarning harflar shakllarini yozishlar bilan bog'liq harakatlari shu darajada avtomatlashgani, unda ong bevosita ishtirok etmaydi.

## L

Layoqat – bu qobiliyat taraqqiyotining dastlabki sharti sifatida namoyon bo'ladigan miya tuzilishining sezgi organlari va hrakatlarning morfologik hamda funktsional xususiyatlaridir. Layoqat qobiliyatning tabiiy zaminidir.

Layoqat ko'p qirralidir. Faoliyat tomonidan qo'yilgan talablarning xarakteriga bog'liq ravishda aynan bir xil layoqatlar har xil qobiliyatlar rivojlanishi mumkin. Shaxsning qobiliyati tug'ma layoqat asosida muhitga, ta'lim-tarbiyaga bog'liq holda o'sib boradi. Har bir odam bolasi “mudrab yotgan” layoqat (tug'ma imkoniyat) bilan dunyoga keladi. Undan so'ng u mansub bo'lgan ijtimoiy muhit bu layoqatni yuzaga chiqaradi. Layoqat ayniqsa Yoshlik chog'larida jadal rivojlanadi. Masalan, Seryoja Xalyapin (Moskva shahri), 14 Yoshida maktabnitamomlab, D.I.Mendeleev nomli Moskva ximiya – texnologiya institutining talabasi bo'ldi.

Amerikalik Mayk Grost 11 Yoshida Michigan universitetiga qabul qilindi. Angliyanik Maybelle 4 Yoshida 1 sinf o'quvchisi bo'ldi. Evropalik David Arutyunyan 12 Yoshida politexnika institutining kibernetika qakultetiga qabul qilindi. Olti Yoshli qirg'iz yigiti Asilbek Saydanov mashhur epso – “Manas”ni yoddan aytib, respublika ko'rigida birinchi darajali diplom bilan taqdirlangan. Meksikalik Antonio Xuares esa, bir vaqtning o'zida ispan tilida gaplashib turib, ingliz tilidagi tekstni bemalol yoza oladi.

Lafz – halollik, o'tkir aqlilik, qat'iylik, mardlik, mehr, muruvvat kabi xislatlar yig'indisidir. Lafzi halollik, o'z lafzida turish xalqimizga xos fazilat, u doimo kishiga husn bag'ishlab kelgan. Lafz egasi bo'lgan kishilarda insoniylik kuchli bo'ladi. Bunday insonlar odob-axloqli bo'lib, odamlarni yaxshilik sari etaklaydi, yaxshiliklarni sharaf bilan bajaradi. (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. T.: «Cho'lpon» 2004, 39-bet).



## M

Madaniyat – insonning egallagan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, boshqalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisadir.

Madaniyat – dunyo to'g'risidagi tasavvurlar boyliklari va muayyan turmush tarzining umumiyliigi bilan bog'liq bo'lgan odamlar uchun umumiy axloq qoidalari tizimi. Madaniyatni o'zlashtirish, o'rgatish yoki o'qitish yordamida amalga oshiriladi. Shaxsning (axloqiy, siyosiy, kasbiy va hokazo) madaniyati bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, axloqiy qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro muloqatlarining usullari va shakllari, shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga oshiriladigan insoniy kuchlar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsning madaniyat darajasi uning umumlashgan madaniy merosga erishganligi, o'ziga xos qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Malaka – bu shaxs xarakatining amalga oshirilishi va boshqarilishining avtomatlashgan shaklidir. Shaxsning malakalari shu bilan xarakterlanadiki, uning harakatlari oson va tez, guyo o'z-o'zidan bajarilayotganday bo'ladi. Shu tufayli ham bir hajmdagi ishni malakali va malakasiz shaxs turli muddat va turli sifat bilan bajaradi. Shaxsning malakalari uning faoliyatining barcha sohalari uchun xosdir. Faoliyatning biror sohasi uchun hosil qilingan malaka shaxsning faqat shu sohadagi mehnatni osonlashtiribgina qolmasdan, faoliyatning boshqa sohalaridagi harakatning ham tezligi va samarali bo'lishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Turli sohalarga nisbatan bo'lgan malakalar shaxsda birdaniga, qisqa muddatda vujudga kelmaydi. Shaxs malaka orttirishi uchun muayyan sohani sistemali ravishda takrorlab turish talab qilinadi.

Malaka – muayyan mehnat faoliyatini bajarish uchun lozim bo'lgan nazariy va amaliy umumta'lim va kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalar majmuasining mavjudligi.

Malaka – ongli xatti-harakatning avtomatlashtirilgan tarkibiy qismi. Malaka bir xatti – harakatning o'zini bir xil sharoitlarning o'zida ko'p marta takrorlash natijasida hosil qilinadi. Masalan, ustaxonalarda o'tkaziladigan mehnat mashg'ulotlarida bolg'a yordamida temir qismi malakasi qo'l bilan qilinadigan bir xil harakatlarni ko'p marta takrorlash vaqtida hosil bo'ladi, bunda faoliyatning qisman avtomatlashuvi yuz beradi. Lekin harakatning batamom

avtomatlashgan narsa deb tasavvur etish yaramaydi. Chunki, hatto durustgina tarkib topgan malakani ham ong ma'lum darajada nazorat qilib turadi. Malaka qanchalik puxta bo'lsa, odam ishni shunchalik tez va to'g'ri bajaradi. Ko'nikma va malakalarning umumiy hamda farq qiluvchi tomonlari bor. Umumiylik shundaki ko'nikmalar ham malakalar ham o'quvchilarning olgan bilimlari asosida qiladigan faoliyatlari usullarini tashkil etadi. Farq shundaki o'quvchilarning faoliyati har xil xarakterda bo'ladi.

Malaka – xodimning kasbiy tayyorgarligi darajasi, undagi ma'lum ishni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning mavjudligi. U xodimning malakasini belgilovchi ko'rsatkich bo'lib, kategoriya yoki diplomning mavjudligi bilan belgilanadi.

Mardlik – insonning oliy fazilati bo'lib, unda botirlik, qahramonlik, sadoqat, vafo mujasaamlashgandir. Hayotda mard, saxiy odamlar bilan birga nomard, qo'rqqoq, sotqin, ziqnalar ham uchrab turadi. Ular mardlik husniga dog' tushiradilar. Mardlik qiyin ahvolga tushib qolgan odamlarga yordam va madad berish, ularni qo'llab-quvvatlashdir. Mard kishi so'zida turadi, birgan va'dasining ustidan chiqadi. Mardlik fazilatiga ega bo'lgan insonlar har qanday vaziyatda ham odamlar uchun jonini berishdan toymaydilar. Ular ma'g'naviy jihatdan yuksak bo'lib, vafodor, sadoqatli, yaxshilik qiluvchi insonlardir. (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. T.: «Cho'lpon» 2004, 39-bet).

Masofaviy ta'lim — masofaviy ta'lim uslublariga asoslangan holda aholining keng qatlamlariga taqdim etiluvchi zamonaviy ta'lim xizmatlari majmuasi.

Masofaviy ta'lim – o'quv adabiyotlari almashinish vositalari (er sun'iy yo'ldoshi, televidenie, radio, kompyuter aloqa va boshqalar) ga tayanib, ixtisoslashtirilgan axborot muhiti yordamida masofadan mamlakat aholisining keng qatlamiga va xorijiy davlatlarga taqdim etiladigan ta'lim xizmatlari majmuidir.

Masofaviy ta'lim tizimida o'qituvchilarni tayyorlashni samaradorligini oshirish. Masofaviy ta'limda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi shaxsning muntazam aloqasini ta'minlash asosiy vazifa hisoblanadi.

1. Masofaviy ta'limda o'qishga ijobiy yondashuvni ta'minlaydi. 2. Pedagogik jarayon maqsadi sifatida ta'lim oluvchiga yo'nalish berish imkoniyati bor. 3. Metodologik, nazariy, uslubiy bilimlarini egallashga imkon yaratadi. 4. Bilish faoliyatini mustaqil tashkil etish imkonini beradi. 5. Ta'limning turli axborotlarini topish va o'zlashtirish imkonini beradi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya asosida tashkil etiladigan bilish faoliyatini tashkil etish borasida samarali qo'llaniladi. Axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishda, axborot olish va undan foydalanish samaralarini hosil qilish borasidagi ishlanmalarni tayyorlashda ishlatiladi.

Pedagogik faoliyatining ijodiy xarakterini oshiradi, ya'ni zaruriy axborotlarni izlay bilish, tanlangan axborotlar bilan ishlay bilish va informatika vositalari yordamida odamlar bilan muloqatni samarali amalga oshira bilish yo'nalishlarda yanada optimallashtirib boradi.

Mashq - biror faoliyatni puxta egallash maqsadida qilingan harakatlar ketma-ketligi. Shuningdek, biror faoliyat sifatini yuksaltirish borasidagi faoliyatlar ham mashqqa taluqli.

Odatda ta'limda bilim, ko'nikma va malakalarni egallashdagi harakatlarni ko'plab takrorlanishi ham mashq natijasida amalga oshiriladi.

Ta'lim va tarbiya berilgan nazariy ma'lumotlarni mustahkamlash borasida ham amaliy mashq va topshiriqlar beriladi.

Mashqlar ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlashga, ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga yordam beradi hamda olgan nazariy bilimlarini amaliyotda joriy etishga yordam beradi.

Mashq bulardan tashqarii Musiqada va jismoniy tarbiyada, shuningdek, harbiy mashg'ulotlar va shu kabilarda ham bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy madaniyat – O'zbekiston xalqining an'analari, tili va madaniyatini bilish va hurmat qilish, milliy fahr tuyg'usini, o'qimishlilik va aql zakovatlilik, axloqiy namunalarining mavjudligi va kundalik hayotida ularga o'xshashga intilishi, bo'sh vaqtlardan foydalanishning ijtimoiy qimmatli usullaridan foydalanishni bilishi, o'zining shaxsiy salohiyati ustida milliy boylik sifatida qayg'urish va boshqalar.

Ma'naviy-axloqiy madaniyat xilma-xil munosabatlar jarayonlarida bilim olish, ijodiy va mehnat faoliyati jarayonida namoyon bo'ladi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya – Yosh avlodni xalqning boy milliy-madaniy tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.

Ma'naviyat – (arabcha – ma'nolar majmui) kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui.

Ma'naviyat – kishining ichki, ruhiy, axloqiy qiyofasi tushunchasi bo'lib, ma'lum bir axloq me'yorlari, maromlari asosida yashash tarzi, umuman hayotdir.

O'rta Osiyo xalqining xalqining eng qadimgi «Avesto» diniy kitobining og'zaki vujudga kela boshlashi natijasida, ya'ni miloddan 3000 yillar muqaddam shakllanib kelgan G'arb va jahondagi boshqa mamlakatlarda yashovchi xalqlar ma'naviyatiga zid o'laroq uyat, andisha, sharm-hayo, ibo, or-nomus, iffat, g'urur, izzat-nafs, qadr, insonparvarlik, muruvvat kabi axloq me'yorlariga asoslangan insonning ruhiy, axloqiy qiyofasi bo'lib, shular asosida tashkil topgan urf-odatlar, milliy an'analar va turmush kechirish tarzi hisoblandi.

(Abdurahmonov A. Qadriyat – ma'naviy merosdir G'G' «Ma'rifat gulshani» g. – 12 (77) 2007y. – 7-bet).

Ma'rifat – (arabcha – bilmoq) ta'lim-tarbiya, iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, diniy g'oyalar majmui asosida kishilarning ong – bilimini, madaniyatini o'stirishga qaratilgan faoliyat.

Ma'rifat – kishi ongi, bilimining insonparvarlik, ezgulik g'oyalariga asoslangan madaniyatini oshirishga qaratilgan faoliyat haqidagi tushuncha.

Ma'rifat – diniy va dunyoviy ilmlarni va ezgu g'oyalarni egallash va tarqatish, ijtimoiy illatlarga hamda shaxsning savodsizligiga qarshi yuritiladigan faoliyat turi.

Ma'rifat – kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan talim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma'lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma'rifat tushunchasi madaniyat, ma'naviyat tushunchasi bilan bog'liq. Ma'rifat ma'naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuk ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo'lishiga yordam beradi. Ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Ma'rifat bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

(O'zME. 5-tom, 540-541 bet).

Ma'ruza – o'quv material, biror masala, ilmiy, siyosiy mavzularning izchil tartibli og'zaki bayoni. O'quv ma'ruzasi o'quv jarayonining asosiy shakli; oliy o'quv yurtlarida dars berish usullaridan biri. Ma'ruza shuningdek, o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi tizimida, umumiy o'rta ta'lim maktablarining yuqori sinflarida ham qo'llaniladi. Ommaviy ma'ruza madaniy-ma'rifiy ishlar tizimida siyosiy va ilmiy bilimlarni tarqatish hamda tashviqot qilish shakllaridan biri.

(O'zME. 5-tom, 541-542 bet).

Ma'ruza – omma oldidagi biror materialni bayon qilish uchun tayyorlangan axborotlar majmui. Yoki o'quv materialini rejalashtirilgan tizim asosida izchil ifada qilingan, og'zaki bayon qilishga mo'ljallangan biror ilmiy, siyosiy masala mavzularning bayoni uchun tayyorlangan axborotlar majmui.

O'quv muassasalaridagi ma'ruzalar asosan Yoshlarga ta'lim-tarbiya berishga mo'ljallangan bo'lib, u o'quv jarayonining asosiy shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Ma'ruzalar matni – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha, undagi ayrim mavzularning asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan, doimiy ravishda ilmiy tadqiqot izlanishlari asosida yangilanib turiladigan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi bo'yicha chiqariladigan kichik adadli tarqatma material.

Ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha, undagi barcha mavzularning asosiy mazmunini qisqa yoritilgan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratilgan, foydalaniladigan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ko'rsatilgan, o'z-o'zini nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltirilgan nashr.

Ma'ruza-maslahat – bu amaliy yo'nalishga ega bo'lgan mavzularni o'rganishga mo'ljallangan ma'ruza turi bo'lib, unda munozara ustivor faoliyatni tashkil etadi.

Bunda ma'ruzani turli variantlarda amlag oshirish mumkin. Ular quyidagilar:

1. Mashg'ulot kirish ma'ruzasi bilan boshlanib, o'qituvchi talabalar diqqatini mavzuning amaliyotda qo'llanilishi bilan bog'liq qator muammolarga qaratadi. Keyin talabalara savollar beriladi.

2. Mashg'ulotning asosiy vaqti (o'quv vaqtining 50 % gacha) savollar javbiga qaratiladi. Mashg'ulot so'ngida kichik munozara, erkin fikr almashish o'tkazilib, o'qituvchining yakuniy so'zi bilan tugallanadi.

3. Elon qilingan mashg'ulotlardan bir necha kun oldin o'qituvchi talabalardan yozma ravishda savollar yig'ib oladi. Mashg'ulotning birinchi qismi ma'ruza kurinishida o'tkazilib, o'qituvchi o'z imkoniyatiga qarab yig'ilgan savollarga to'ldirgan va rivojlantirilgan holda javob beradi. Ikkinchi qismi esa talabalarning qo'shimcha savollariga javob berish, erkin fikr almashish shaklida o'tadi.

4. Talabalar mashg'ulot materiallarini oldindan olishadi. qoidaga ko'ra, ular instruktiv (yo'riqnoma) ko'rinishida bo'ladi. Talabalar materialni o'rganish va notiq-maslahatchiga o'z savollarini tayyorlashi zarur. Mashg'ulot savollariga javoblar, erkin fikr almashish shaklida o'tkaziladi. O'qituvchi mashg'ulotni, maslahat yakunini oddiy xulosalash yoki jarayonni umumlashtiruvchi yakuniy so'z bilan tugallaydi.

5. Darsning birinchi qismi muayyan lovozimli shaxs yoki jamoaning ilg'or tajribasi haqidagi qisqacha axborot, kinofilm, videofilm, diafilm ko'rish shaklida olib boriladi. Talabalar bu tajribani yorituvchi bir muncha to'laroq materiallarni (kitob, risola, tarqatma, mavzuga mos didaktik materiallar – T.X.A) oldindan olishlari mumkin. Mashg'ulotning ikkinchi qismi ta'lim oluvchilarning savollariga javob shaklida quriladi.

6. Dars jamoaviy maslahat shaklida olib boriladi, bunda birinchi o'qituvchi emas, balki o'rganilayotgan soha bo'yicha yuqori malakali mutaxassilarning ishtiroki ham zarur bo'ladi.

7. Ma'ruza maslahat shaklida ma'ruza samaradorligi talabalar berayotgan savollarning ko'pligi va ular predmetli mazmunning kengligiga bog'liq.

Ma'ruza-matbuot konferentsiya (MMK) – bu talabalar bilimidagi nuqsonlarni yo'qotish va ulapr tayyorgarligi darajasini tashxislashga mos ma'ruzadan iborat.

Bunda o'qituvchi dars mavzusini e'lon qilib, talabalardan ko'rilayotgan muammo yuzasidan yozma ravishda savollar berishni so'raydi. 2-3 daqiqa davomida talabalar savol tuzib o'qituvchiga beradi. O'qituvchi 3-5 daqiqa davomida savollarni ularning mazmuniga qarab tizimlashtiradi va ma'ruzani boshlaydi.

Ma'ruza qo'yilgan savollarga javoblar majmuasi va ketma-ketligi sifatida yoki bayon qilish jarayonida shakllanadigan javoblar matni bilan bog'liq tarzda o'qilish mumkin. Ma'ruza so'ngida o'qituvchi talabalar qiziqishi va bilimlari javoblarida nechog'lik aks etganligini tahlil qiladi. Agar ba'zi javoblar qanoatlantirmasa, unda o'qituvchi buning uchun maxsus qoldirilgan vaqtda batarafsil javob beradi.

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma'ruza nega tanqid qilinmoqda»]. «Ma'rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Ma'ruza-munozara (MM) – bu o'qituvchini ma'ruza materialini bayon qilishda o'z savollariga talabalarning bergan javoblari asosida o'zaro mantiqiy ketma-ket bilimlar yordamida erkin ekrin fikr almashishni tashkil etishdir. Bu o'quv jarayonini jonlashtiradi, auditoriyaning bilish faoliyatini oshiradi va ba'zi talabalarning salbiy fikrlarini yo'qotish maqsadida o'qituvchiga rejussuradan foydalangan holda guruhning jamoaviy fikrini boshqarish imkonini beradi.

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma’uza nega tanqid qilinmoqda»]. «Ma’rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Ma’ruza-suhbat (MS) – bu o’quv jarayoniga talabalarni faol jalb etishga qaratilgan bo’lib, talabalarni o’qituvchi bilan samarali suhbatga kirishishini ta’minlovchi ma’ruza shaklidir.

Bunda faollashtirish vositalari sifatida auditoriyaga beriladigan savollar, asta-sekin munozarani takshil etish uchun sharoit yaratish kabilarni kiritish mumkin. Unnig bir necha ko’rinishi mavjud: ma’ruza-munozara, ma’ruza-ochiq tortishuv, ma’ruza-seminar (polilog).

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma’uza nega tanqid qilinmoqda»]. «Ma’rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Ma’ruza-tadqiqot (MT) – bu umumiy muammo mavzuning asosiy yo’nalishlari bo’yicha xususiy biluv topshiriqlari yordamida aniqlanishiga mo’ljallangan ma’ruza shaklidir.

Bunda ma’ruzaning tugunli bosqichlarida qoida ko’ra 4-6 ta muammoli savollardan, 7-9 va undan ko’proq muammoli topshiriqlardan foydalaniladi, ularning har biri asosiy muammoni echishda eng asosiy holatlarini aniqlashtirishda jiddiy aloqa va munosabatlarni oydinlashtirishda alohida bog’ona hisoblanadi.

Bu bilan o’zlashtirish darajasi va mavzuga guruh mustaqil ishlov berish hamda talabalarda tadqiqotchilik faoliyatini takomillashtirish uchun muammo bilan ishlash ko’nikmasi topshirib ko’riladi.

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma’uza nega tanqid qilinmoqda»]. «Ma’rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Ma’ruza teskari aloqa texnikasini qo’llash (MTATQ) – bu kompyuter dasturlari asosida o’qitish texnologiyasiga asoslangan ma’ruza turi bo’lib, u maxsus jihozlangan kompyuter sinfxonalarida o’tkaziladi.

Savollar ma’ruzaning har bir bo’limini bayon qilishdan oldin yoki keyin va oxirida beriladi. Birinchi holda talabalar muammoni nechog’lik ilg’ab olganligini bilish zarur. Agar auditoriya asosan kirish savollariga to’g’ri javob bersa, o’qituvchi qisqacha tezis bayon bilan chegaralanishi va ma’ruzani keyingi bo’limiga o’tishi mumkin. Agar to’g’ri javoblar soni kutilayotgan darajadan past bo’lsa, u ma’ruzaning zarur bo’limini o’qiydi, so’ng talabalarga hozir bayon qilingan materialni egallaganlik darajasini aniqlashga mo’ljallangan yangi savollar beradi.

Nazorat so'rovi natijalari qoniqarsiz bo'lgan taqdirda o'qituvchi materialni uzatish metodikasini almashtiradi va o'qilgan bo'limga qaytadi.

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma'uzo nega tanqid qilinmoqda»]. «Ma'rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Mahmud Qoshg'ariy (XI asr). *To'liq ismi* – Mahmud ibn ul-Xusayn Muhammadil Qoshg'ariy. U bolasog'unda tug'ilgan va shu erda tahsil ko'rgan. U ilmlarning turli sohalari, xususan arab va turk tillari, fors adabiyoti bilan shug'ullanib, ularni puxta egallagan. Turli til va shevalarni o'rganishida material to'plash maqsadida bir qancha shaharlarni kezib chiqqan.

*Asarlari:* «Devoni lug'otit turk» («Turkiy so'zlar devoni») va «Javohirun nahv fi lug'otit turk» («Turkiy tillarning sintaksis qoidalarini»). Ikkinchi asari bizgacha etib kelmagan. «Devoni lug'otit turk» asarida ta'lim-tarbiya, xulq-odob, ilm-fan to'g'risidagi fikrlar mavjud. Olim doimo kishilarni mehnat, qilishga, yaxshilikka undaydi, yomonlikni qoralaydi. Asardagi ta'limiy-axloqiy g'oyalarni dars jarayonida talabalarga tanishtirib borilsa, talabalarda xushxulqlik, mehnatsevarlik, mardlik, jasurlik kabi ijobiy fazilatlar yuksalishiga yordam beradi.

Mahorat – faqat tegishli tayyor ko'nikma va malakalarning yig'indisidagina ochilib qolmay, balki paydo bo'lgan masalani ijodiy tarzda echish uchun zarur bo'lgan har qanday mehnat operatsiyasini amalga oshirish uchun psixologik tayyorgarlikdan iboratdir. Adolatli ravishda shunday deb yuritiladi: mahorat – bu shunday bir holki bunda qilish kerak va qanday qilish kerak degan muammo ayni bir vaqtning o'zida birdaniga hal qilinadi va shuning bilan birga, yana shu narsa ta'kidlanadiki, mahorat ijodiy masalaning mohiyatini anglash bilan uning engish usullarini topish o'rtasidagi tafovutni yo'qotadi.

Agar talant – imkoniyat bo'lsa, unday paytda mahorat – haqiqatga aylangan imkoniyatdir. Haqiqiy mahorat inson talantligining faoliyatida namoyosh bo'lishidir.

Mahorat – shaxsning tajriba orqali orttirgan xususiyati. Biror sohadagi moslashuvchan ko'nikma va ijodkorlik asosida hosil bo'lgan kasbiy ko'nikmalarining yuqori darajasi, kasbiy mohirlik.

Biror faoliyat sohasidagi yuqori darajada egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda yuqori sifat va samaradorlik bilan qo'llash.

Mahorat Yoshlarimizni kasbga yo'naltirish va tayyorlashda hamda kasbga nisbatan hurmat uyg'otish jarayonidagi kasbiy g'ururni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Mahorat kasbga nisbatan tavsifnoma berishda, ta'lim jarayonidagi o'zlashtirish saviyasini egallashda, tarbiya jarayonida muayyan vazifani bajarishdagi ijobiy xislatlarni ta'riflashda qo'llaniladi.

Mahoratga bog'liq xislatlar ta'lim-tarbiya sohasini takomillashtirishdagi jarayonlar bahosini ifodalashda va ayniqsa bo'lajak mutaxassislarni «mehnat bozori»ga tavsiya etishda yanada kengroq foydalaniladi.

Kasbiy mahorat darajalari (toifa)ni belgilashda, mutaxassislarga ustama ish haqlari to'lashda va eng asosiysi bo'lishligini belgilashda «mahorat»ning roli va o'rni beqiyos.

Menejment (inglizcha manadshent-boshqarish, tashkil etish) – maxsus boshqarish faoliyati, boshqarish to'g'risidagi fan.

Menejment fanining mazmun-mohiyati boshqaruv tizimi va boshqaruv ob'ekti orasidagi o'zaro uzviy munosabat bo'lib, uning asosiy vazifasi boshqaruvning zamonaviy usullarini, rahbarlik san'ati sirlarini o'rginishdan iborat.

Boshqaruv – tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat etish jarayonidir.

Menejment fani ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-huquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan uzviy aloqadorlikda rivojlanadi va zamon talabi asosida takomillashib boraveradi.

Diyorimizda menejmentning nazariy asoslari va uning asosiy tamoyillari XIV-XV-acplardan boshlab, ya'ni Amir Temur va Temuriylar davridan boshlab shakllana boshlagan. Buni «Temur tuzuklari»-dan sezish mumkin. Ya'ni unda davlat va qo'shin boshqarish san'ati hamda boshqa boshqaruv faoliyati to'g'risidagi qarashlar o'z ifodasini topgan.

O'zbekistonda 1950-yillarga kelib menejment fani rivoji alohida sur'atda ro'y bera boshladi. Respublikamizda O'zbekiston Fanlar Akademiyasiga qarashli Kibernetika institutining 1966-yilda tashkil etilishi bilan bu soha yanada rivoj topa boshladi. Bu borada akademik V.Q. Qobulov boshchiligidagi ishlar mazkur fanning amaliyotga keng joriy etilishiga yo'l ochilishiga imkoniyat yaratildi. Natijada hozirda menejment fani maxsus fan sifatida oliy o'quv yurtlarida o'qitilish yo'lga qo'yildi. Menejment faniga doir tadqiqotlarga katta e'tibor berilmoqda va bu bo'yyicha qator o'quv adabiyotlari yaratilmoqda.

Mentalitet (lot. mentalis- aqliy) – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruxga xos aqliy qobiliyat darajasi, millat yoki shaxsning Mentaliteti ularning o'ziga xos tarixiy an'analari, urf-odatlari, diniy

e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart-sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi.

O'zME.-T.:O'zME-5j-595b.

Metod (yunoncha *metodos* – bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot) – voqelikni amaliy va nazariy egallash, o'zlashtirish, o'rganish, bilish uchun yo'l-yo'riqlar, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

O'zME-5j-613b

Metodlar haqidagi fan metodologiya deb ataladi. Fanda nazariy va amaliy (empirik) metodlar mavjud.

Metod – metod (yunoncha – aynan nimagadir yo'l) maqsadga erishish yo'lini bildiradi. Muayyan ma'noda tartibga solinadigan faoliyat. Grekcha so'z bo'lib, yo'l, axloq ma'nolarini bildiradi. Odatda, keng ma'noda qo'llaniladigan «metod» terminini kishilarning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'ektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlari usullarini anglatadi.

Ta'lim jarayonidagi ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan faoliyatning turlicha bo'lishi yangidan –yangi usullarni metodlarni keltirib chiqaradi.

Metod tanlashda albatta ayrim o'quv predmetlarini o'ziga xos xususiyatlariga amal qilinmog'i lozim. Shu bilan birga ta'lim jarayonida ko'pchilik o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan umumiy o'qitish metodlari bilan birga ayrim o'quv predmetlarini o'qitishda qo'llanilgan o'ziga xos xususiy metodlar va metodik yondashuvlar ham bor. Ayrim predmetlarni o'qitishda qo'llaniladigan xususiy metodlar umumiy o'qitish metodlari bilan mustahkam bog'liqdir.

Metodika – metodikaga tegishli, qa'tiy ketma-ketlikka (algoritmik xarakterga), tizimga, ilgaridan o'rnatilgan reja (qoida), tizimga aniq rioya qilish. Metodika-biror ishni maqsadga muvofiq o'tkazish metodlari, yo'llari majmuasi.

Pedagogika fani sohasida ma'lum o'quv fanini o'qitish qonuniyatlarini tadqiq qiladi. Masalan, tillar metodikasi, matematika metodikasi, tarbiyaviy ishlar metodikasi va shu kabilar.

Metodik (uslubiy) ko'rsama – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya mashg'ulotlari va amaliy ishlarni bajarish tartibi aniq ko'rsatilgan va

batafsil ifodalangan hamda ushbu fan bo'yicha talabalarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallangan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida nashr etiladigan kichik adadli tarqatma material.

Metodik qo'llanma – professor-o'qituvchilar va boshqa bilim oluvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foyalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan ta'lim muassasasining ilmiy kengashi tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Metodologiya – 1. Tadqiqot usullari majmuasi. 2. Muayyan fan (soha yo'nalish) da qo'llaniladigan tadqiqot usullari majmui. 3. Ilmiy bilish va dunyo taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatish haqidagi ta'limot.

Metodologiya – bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot. Biror fanda yoki muayyan yo'nalishda yoki sohada qo'llaniladigan metodlar majmuasi.

Metodologik metodlarga umuman voqelikka qanday yondashish yo'lini o'rgatadi.

Metodologiya

Ma'lumki, ilmiy bilish jarayonida har bir fan o'zining tadqiqot ob'ektiga ega bo'lib, o'sha ob'ektni har tomonlama tadqiqot etish uchun umummetadalogik tadqiqot usullari asosida o'zining maxsus tadqiqot usullarini yaaratish zarur bo'ladi. Bunda usullar ta'sir doirasiga ko'ra umumiy va xususiy holdagi variantlarda uchrashi mumkin.

Umumiy usul – bu ko'pchilik fanlar yo'nalishlari bo'yicha tadqiqot o'tkazishga yaroqli bo'lgan usuldir. Ammo u o'z qo'llanilish doirasiga ko'ra umumiy bo'lib, uning ham maxsus (chegaralangan) vazifasi (funktsiyasi) bor. Bu vazifalar quydagilardir:tahlil, sintez, umumlashtirish, mavhumlashtirish, induetsya, deduktsya, qiyoslash, modellashtirish va h.k.

Demak, xususiy, umumiy va eng umumiy usullar bor va ular bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Mehnat tarbiyasi (MT) – tarbiyaning muhim turi, shaxsni shakllantirishning zarur shartlaridan biri bo'lgan pedagogik jarayon.

Mehnat tarbiyasi kishidan ijtimoiy foydali mehnatga ichkiehtiyoj, intizom, batartiblik, tashkilotchilik, tashabbuskorlik, ishchanlik, ishning ko'zini bilish singari sifatlarni qaror

toptirishga xizmat qiladi. Mehnat inson ehtiyojlarini qondirishning birinchi va asosiy vositasi bo'lganligi uchun ham mehnat tarbiyasi tarbiyaning boshqa hamma turlaridan oldin paydo bo'lgan.

### ME-5j-635

Mehnat tarbiyasi turlari: «mehnat ta'limi; «kasbga yo'naltirish»; «politexnik ta'lim»; «kasb ta'limi» va h.k.

Mehnat tarbiyasi kasbga yo'naltirish va kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir.

Millat – uzoq davom etgan ijtimoiy, siyosiy va etno-ma'daniy jarayonda, aniq hududiy doirada, til va o'zlikni anglash birligi asosida shakillangan xalq etnik tarixining eng yuksak cho'qqisi, o'ziga xos ma'daniyat, ong va menalitet zaminida tarkib topgan ijtimoiy birlik shakli.

Millat kishilarning jips tarixiy birligi, umumiqtisodiy turmush, til, xudud birligi, madaniyat, ong, ruhiyat uyg'unligi va mushtarakligi demakdir.» (O'zME-5j-659b)

Millatlararo totuvlik g'oyasi (MTG').

MTG' - bu umumbashariy qadriyat bo'lib, turli xil xalqlar birgalikda istiqomat qiladigan mintaq va davlatlar milliy taraqqiyotini tarannum qiladigan va shu hududdagi tinchlik hamda barqarorlikni kafolatga xizmat qiladigan g'oyadir.

MTG' - muayyan jamiyatda yashovchi, bunyodkorlik sari yagona maqsad yo'lida faoliyat ko'rsatayotgan turli millat va elatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik va hamjihatlikning mustaham ma'naviy asosidir.

MTG' ning asosiy maqsad-muddaosi har bir millat vakilining iste'dod va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratish va uni Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etish. (*Bunyodkor g'oyalar: tuzuvchilar Z.Islomov, B.Isoqov, O.Yusupov, D.Muhammadiev, S.MInavvarov. T...: Ijod dunyosi 2002y. 22-23 betlar.*)

Milliy dasturning maqsadi – Ta'lim sohasini tubdan isloh qilish uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash milliy tizimini yaratish.

Milliy dasturni ro'yobga chiqarish bosqichlari – dasturning maqsad va vazifalarini bosqichma-bosqich ro'yobga chiqarish quyidagi uch bosqichda ko'zda tutilgan:

Birinchi bosqich (1997-2001) – mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish uchun huquqiy kadrlar jihatidan, ilmiy-uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish.

Ikkinchi bosqich – 2001-2005 yillarni o'z ichiga oladi. Bunda milliy dasturni keng miqiyosda to'liq amalga oshirishga erishish darkor. Tabiiyki, tizim faoliyatining samaradorligini, mehnat bozorini inobatga olib, ijtimoiy-iqtisodiy sharoitdan kelib chiqib, dastur g'oyalari va qoidalariga kerakli o'zgartirishlar kiritiladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar) – to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish.

Milliy g'urur – shaxs, ishtimoiy guruxning milliy o'zligini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlari qoldirgan moddiy, ma'naviy merosdan, o'z xalqining jahon tsivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, o'zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro'-etiborini faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tuyg'u quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: millatning yutuqlari, obro'-e'tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o'z eliga, millatiga jonkuyar bo'lish; o'z millatining moddiy, ma'naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an'analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o'z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatda namoyon qilish.

Mustaqillik kishilar milliy g'ururini oshirish, uni xalq, Vatan, ajdodlar xotirasi oldidagi ma'suliyatini his qilishdek mazmun bilan boyitmoqda.

(Farzandga meros qil g'ururni – 19. 07.06y Dosanov N, Sultonov T)

Milliy g'urur – har qanday adamda insoniy g'urur bo'lid. Bu kishi o'zini ongli mavjudod sifatida his qilishidan kelib chiqib, har bir mustaqil bajargan harakatidan, ishidan, faoliyatidan mamnun bo'lishi orqali namoyon bo'ladi. Buni insoniy g'urur deyilsa, o'zining ma'lum bir xalqqa, millatga taalluqli ekanligidan qoniqish his etish, mamnun bo'lishi milliy g'urur deyiladi. Bu ijtimoiy sifat kishi faolligini oshiruvchi asosiy omil bo'lib, insonni ezgulikka, yaxshiliklar qilishga undaydi. Shuning uchun ham har bir kishida uning insoniy g'ururi asosida milliy g'ururni shakllantirish buyuk kelajak sari intiltiruvchi asosiy kuchlardan to'g'ri foydalanish. (Ziyomhammadov B. Komillikka eltuvchi kitob. T.: «Turon iqbol» 2006, 117-b).

Modelli dars bosqichlari – bu interfaol ta’lim usullari jumlasiga kiradi va asosan quyidagi bosqichlar asosidagi jarayondan iboratdir:

1. Chiqarish- avvalgi bilimlarni esga solish. Bunda oldingi o’rganilgan bilim, ko’nikma va malakalar bilan yangi mavzuga tegishli ma’lumotlar orasidagi uzluksizlik va uzviylikni ta’minlashga erishishga harakat qilinadi.

2. Anglash- yangi axborotlarni o’rganish. Bunda oldingi o’rganilgan ma’lumotlar axborotlarga aylantiriladi va ular negizida yangi axborotlarni o’zlashtiradi.

3. Fikrlash – yangi g’oyalar va axborotlarni aytib berish va muhokama qilishdan iborat. Modul – pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo’laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo’laklar, ya’ni modullar eng kichik bo’laklardan hamda ularning turli miqdordagi to’plamlaridan iborat bo’ladi.

Moduldagi eng kichik tarkibiy bo’lakni eng kichik modulga, boshqalarini esa o’z ichiga qancha modullarni olishiga qarab tegishlicha darajadagi modullarga ajratishdan iborat.

Modul – modulli ta’lim texnologiyasini joriy etishning asosini tashkil etadi. O’zlashtirishi lozim bo’lgan manbani bo’laklarga bo’lib o’rganish imkonini beradi.

Modulli ta’lim texnologiyasiga tegishli ishlanmalar yaratish va ularni amaliy faoliyatga joriy etish sohasidagi ishlarda keng qo’llaniladi.

Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini yaratish va joriy etish sohasidagi innovatsion ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo’yicha muntazam qo’llanilishga erishish mumkin.

Modul - pedagogik texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo’laklarni ifodalovchi tushuncha. Bu tarkibiy bo’laklar ya’ni modullar eng kichik bo’laklardan hamda ularning turli miqdordagi to’plamlaridan iborat bo’ladi. Bunda eng kichik tarkibiy bo’lakni eng kichik modul boshqalarini esa o’z ichiga qancha shunday modulni oshishiga qarab, tegishlicha darajadagi modullar deyiladi.

Pedagogik texnologiyaning eng kichik modullari eng asosiy tushuncha bo’lib, ular go’yoki pedagogik texnologiyani hosil qiluvchi bo’lakchalar vazifasini bajarishi bilan asosiy ahamiyatga ega. Bunda kichik modul, modul to’plami, birlamchi modul va modul darajasi degan tushunchalardan foydalaniladi.

Muammoli ma’ruza (MM) – bu muammoli savollarni qo’yish yoki muammoli masalalarni ko’rsatish yo’li bilan ketma-ket modellashtiriladigan muammoli vaziyatlar mantiqiga tayangan holda olib boriladigan ma’ruza.

Muammoli savol o'zida dialektik ziddiyatni mujassam etadi va echimi uchun ma'lum bilimlarni qayta tiklashni emas, balki fikrlashni taqqoslashni, qidirishni, yangi bilimlarni egallashni yoki oldin egallanganlarini ijodiy qo'llashni talab etadi.....

MM da talaba notiq bilan birga fikrlaydi. Oxir-oqibat muammoli masalalarga oydinlik kiritiladi. Bu esa yaxshi natijalarga olib keladi.

Birinchidan, shu tarzda egallangan bilimlar talabalarning mulkiga aylanadi, ikkinchidan, o'zlashtirilganlar chuqur yodda saqlanadi, engil faollashadi (ta'limiy samara), yangi vaziyatlarga oson ko'chish xususiyatiga ega bo'ladi (ijodiy fikrlashning rivojlanish samarsi), uchinchidan, muammoli masalalarni echish zakovati rivojlantirishning o'ziga hos trenajyori sifatida ko'rinadi (rivojlanish samarasi), to'rtinchidan, bunda ma'ruza kurs mazmuniga qiziqishni orttiradi va kasbiy tayyorgarlikni kuchaytiradi (bo'lajak faoliyatga psixologik tayyorlash samarasi).

[N.Sayidaxmedov, S.Bozorova. «Ma'uza nega tanqid qilinmoqda». «Ma'rifat» gazetasi – T.: (21.06.06 y.) – 17 bet.

Murabbiy – muayyan fan, ilmiy yo'nalish bo'yicha etuk pedagog – tarbiyachi bo'lib, zamon talabi darajasida pedagogik mahorat va ko'nikmalarga ega, Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga, ularni ilg'or fan yutuqlarini astoydil o'rganishga o'rgatadigan, Yoshlarni yot g'oyalar ta'siridan ogohlantiruvchi inson.

Mustaqil ta'lim – olingan bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumot yoki materialni mustaqil o'rganish maqsadidagi o'quv shakli.

Mutaxassislik – biror kasb doirasida ma'lum bir faoliyat turi uchun maxsus tayyorgarlik va ish tajribalari orqali erishilgan zaruriy bilimlr, ko'nikma va malakalar majmuasi.

## N

Nazariy metod – bu pedagogik texnologiyani modellashtirish, tahlil qilish, sintezlash, qiyoslash, umumlashtirish, tabaqalashtirish, uning tizimlarini integratsiyalashtirish va boshqa jarayonlardan iborat.

Nazariya - nazariya –amaliyot sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, ma'lum bir tizimga kiritilgan ilmiy qarashlar majmui; tushunchalar va hukmlar kabi voqelikning inson ongidagi in'ikosi.

Turli axborotlarni bilim darajasiga ko'tarish; yangi g'oyalar hosil qilish; yangi nazariya hosil qilish.

Bilimning turli usullari-kuzatish, o'lchash, taqqoslash, eksperiment, modellashtirish va kabilardan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalaniladi.

Hosil qilingan bilimlar asosida (analiz va sintez, induksiya va deduksiya, gipoteza)lar asosida yangi g'oya va nazariyalarni shakllantirishda foydalaniladi.

Yangi fikr, g'oyalar ma'lum bir tizimga keltirilgach (ideallashtirish, formallashtirish, reduksiya va aksiomashtirish), ular asosida nazariy va ta'limotlarni shakllantirishda yanada rivojlanadi.

Nazariya – umumlashtirilgan bilim, voqelikning u yoki boshqa tomonlarini izohlash tizimi. Nazariya amaliyot bilan chambarchas bog'liq. Amaliyot va uning natijalari umumlashgan tarzda har qanday nazariyaga uzviy element bo'lib kiradi.

Nazariya – bu haqiqatligi amaliy yoki nazariy jihatdan isbotlangan, borliqning biror bir sohasiga oid ma'lum g'oyalar, qarashlar, -onunlar, -oidalalar va tamoyillarning muayyan tizimidir.

«Nazariya biror fan sohasiga oid bo'lib, u ma'lum bilimlarning umumlashtirilishi asosida paydo bo'ladi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi amaliyot bergan yangi dalillarni izohlash, o'rganilayotgan predmet va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirish, ro'y beradigan voqea xodisalarini oldindan ko'ra olishdan iborat.

Har bir nazariya ma'lum sohadagi ilmiy bilimlarning so'nggi natijasi sifatidagi bilim shaklidir. Lekin uni hech qachon tugallangan, o'zgarmas absolyut bilim, deb qaramaslik kerak. Chunki har bir nazariya faqat u yoki bu faraz asosidagi isboti bo'lmay, balki uzluksiz o'rin almashib, chinligi aniqlanib boruvchi juda ko'p va cheksiz taxminlarning natijasidir. Shu sababli nazariya ham doimo rivojlanib borib, uning mazmuni absolyut va nisbiy haqiqatlarning birligidan iborat bo'ladi».

*(Nishonova Z.T. Qarshieva D.S. Eksperimental psixologiya. –T.: 2006y. -69 bet.)*

Nazorat qilish dastur vositalari – ma'lumotlar omboridagi o'qituvchi tomonidan tuzilgan topshiriqlar, savollar, test-savollari va shu kabilardan foydalanish dasturlarini joriy etish vositalari.

Namunaviy o'quv dasturi – muayyan predmetlar bo'yicha ta'lim mazmunining zaruriy minimumini va o'quv materialini o'zlashtirish darajalarini batafsil ochib beruvchi hujjat.



Namunaviy o'quv rejasi – o'qitish muddatini hisobga olib, kasbga (mutaxassislikka) muvofiq ravishda tsikllar, fanlar ro'yxati va hajmining davlat miqiyosini belgilovchi hujjat. U o'quv darslarining maksimal hajmini va ishchi o'quv hujjatlarini ishlab chiqishda o'quv muassasalarining mustaqillik darajasini aniq belgilaydi.

Nomus – bu iffat, bokiralik ma'nolaridan tashqari kishining o'z mavqeini saqlash, ulug'lash va ardoqlash, xijolat tortish tuyg'ularini, oila va ajdodlar sha'niga dog' tushirmaslik ma'nosini ifodalaydi. Odatda nomusli odam ma'naviy qadriyatni moddiy boylikka almashishni o'ziga ep ko'rmaydi. Qonun taqiqlay olmagan narsani goho nomus ta'qiqlay oladi degan naql bor xalqimizda.

Nomus – kishining o'z obro'sini ulug'lash va ardoqlash tuyg'usi; kishining qadr-qimmatiga, o'z xatti-harakatlari oldidagi axloqiy mas'uliyatiga bo'lgan qarashlarni ifodalovchi tushuncha. Boshqa shaxslarga nisbatan sharm-hayo bilan munosabatda bo'lishga undovchi his. (O'zME. T.: 2003, 6-tom, 385-bet).

## O

Ob'ekt – tadqiqot etilishi lozim bo'lgan narsa (predmet) va hodisalar (jarayonlar)dan iborat bo'lib, ular o'ziga o'xshash narsa va hodisalardan alohidaligi bilan farq qiladi.

Oliy ta'lim – turli oliy maktablarga xo'jalik, fan, texnika va madaniyat tarmoqlari uchun yuqori oliy malakali mutaxassislar tayyorlash oliy ta'lim jarayonida oliy ma'lumot olinadi. «Oliy ma'lumot» tushunchasi esa muayyan iqtisodlikdan nazariy va amaliy vazifalarni hal etish imkoniyatini beradigan bilim va malakalar majmuini ifodalaydi. Oliy ta'lim haqidagi hozirgi tushunchalar birinchi marta G'arb mamlakatalarida XV – XII asrlarda dunyoviy oliy maktablar, keyinroq universitetlar paydo bo'lishi bilan vujudga keldi. O'rta asr oliy ta'limida sxolastika hukmronlik qilib, dini fan bilan keltirishga harakat qilinardi.

Oliy ta'lim – malakali mutaxassislar tayyorlashni ta'minlaydigan ta'lim. Bu ta'lim 18, 19 Yoshdan boshlanib, 4 yildan kam bo'lmagan muddatda davom etadi. Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash oliy o'quv yurtlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar va oliy maktabning boshqa ta'lim muassasalarida) o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi asosida amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim ikki bosqichga: davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatlar bilan dalillovchi bakalavriat va magistraturaga ega.

Oliy ta'limning DTS – ta'limning bakalavriat muayyan yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligiga qo'yiladigan malaka talablari, ta'lim mazmuni, bakalavr yoki magistr tayyorgarligining zaruriy va etarli darajasini, kadrlar tayyorlash sifatini baholash darajalarini belgilaydigan etalon daraja.

Or – bu nomunosib yoki ep ko'rilmagan ishdan, narsadan xijolat tortish, uyalish, uyat va nomus qilish tuyg'usidir. Bundan tashqari o'z o'rnida xazar qilish yoki bo'lmasa obro'-e'tibor, faxrlanish ma'nolarini ham bildirishi mumkin.

Oraliq nazorat (ON) – (oraliq baholash) predmetli sohalarini o'zlashtirish darajasini yangi reyting tizimi asosida baholash (test, imtihon, savol-javob, yozma ishlar va boshqalar).

Oraliq nazorat – bunda dasturning muayyan qismini o'rganishni nazorat qilish va baholashni o'ziga maqsad qilib qo'yadi. Shuning bilan birga dasturning muayyan qismini bosqichma-bosqich nazorat qilishni amalga oshiradi. Kurs ishlari, malakaviy bitiruv ishlarining tayyorgarlik darajasini ham tekshirishga yordam beradi. Odatda, ON va uning davriyligini DTS, o'quv rejasi va dasturini e'tiborga olgan holda kafedra yig'ilishida, uslubiy uyushmaning taklifini inobatga olib belgilab chiqadi. Bularni oliy o'quv yurti o'quv jarayoni jadvali va nazorat tadbirlari jadvaliga kiritiladi. Bunda ham nazoratni xolisligi va haqqoniyligini ta'minlashning turli mezonlarini tanlash o'qituvchidan o'qitishning faol usullari va uni talabalarda qo'llashdagi ahamiyatini baholay bilishni talab etadi.

Oriyat – bu or-nomusdan tashqari izzat-nafs, qadr tuyg'usidir. Odatda oriyatli odamlar o'zlari va oilalarining izzat-nafslarini, qadrlarini yuksak tutadilar, shuningdek, o'zgalarni ham qadrlay biladilar. (Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Ibragimova G., To'raqulov X.A., Alibekova R. T.: «Cho'lpon» 2004, 44-bet).

## **P**

Pedagogika – «Pedagogika (yunoncha, pais- bola, agagos – rahbar) – tarbiya haqidagi ta'limot, tarbiyalash san'ati, tarbiya haqidagi fan.

Pedagogika ta'lim-tarbiyaning maqsad va vazifalari, ularning mazmuni, usullari hamda tashkil etish shakllari haqida ma'lumot beruvchi fan. Ijtimoiy hayotning turli sohalarida kishilar orttirgan tajriba hamda tabiat va ijtimoiy hayot haqidagi bilimlarning boyib borishi bilan mehnatda orttirilgan tajribalarni Yosh avlodga o'rgatish jarayoni ham murakkablasha bordi.

Pedagogika tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, jamiyatda Yosh avlodni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash hamda o'qitishning mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadigan fan.

Pedagogika tarbiyaning mohiyatini va shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda tarbiyaning rolini ochib beradi, tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari uni tashkil etishdagi formalar o'rtasidagi bog'lanishlarni ko'rsatadi. Shuningdek, pedagogika o'z taraqqiyoti davomida ta'lim va tarbiya sohasidagi tajribalarni umumlashtiradi, tajribaning kelgusida rivojlanish istiqbollari yo'llarini yoritib beradi, tarbiyaviy ishning formalarini ko'rsatadi. Ayniqsa, pedagogika tarbiya maqsadini jamiyat talablariga va bolaning Yosh xususiyatlariga qarab mazmunan o'zgarib borishini o'rgatadi, tarbiyaning tarkibiy qismlari va ular o'rtasidagi mustahkam aloqa va bog'lanishlarni ochib beradi.

Pedagogika – falsafa, psixologiya, odam anatomiyasi va fiziologiyasi kabi fanlar bilan uzviy aloqadorlikda faoliyat yuritadi.

Pedagogik innovatsiya (PI) – bu bo'lajak mutaxassislarni yangicha sharoitlarda ishlashga tayyorlovchi jarayon bo'lib, u oldingi egallagan bilimlar asosida ijobiy pedagogik samaralarni beruvchi yangicha yondashuv texnologiyasini yaratish va joriy etishdan iboratdir. Bunda ta'limning maqsadi, mazmun-mohiyati, belgilarini, tamoyillarining innovatsion usullarini tanlash, to'plash, qo'llash usullarini va ulardan foydalanishga uslubiy tavsiyalar tizimini yaratish tushuniladi. Bular orqali bo'lajak mutaxassislarda shakllanadigan xislatlarni hosil qilish jarayonini ifodalovchi ta'lim-tarbiya jarayonining sifat jihatlarini takomillashtirib, bu sohada yuqori samaradorlikka erishishni tushunish mumkin. Pedagogik innovatsiyalar keng qamrovli, ko'p qirrali, murakkab va ijodiy tashkiliy-pedagogik faoliyat bo'lib, uning yordamida ta'lim-tarbiya jarayonining istiqbolli va samarali uslubiyatini yaratish mumkin.

Pedagogik mahorat (PM)-bu kursantning ustoz-murabbiylik fazilatlarini, o'qituvchilik kasbining sirlarini cho'qir egalanmaganligi, insoniylik va iste'dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilari asosida undagi kasbiy bilim, tushincha, ko'nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

PMdan ko'zlangan maqsad darsning sifati va samaradorligini oshirishdan iborat bo'lib, u o'qituvchining kasbiy-ijodiy faoliyatidir. Bunda o'qituvchining mahorati ta'lim oluvchilar ichidan kimga nimadir tushinarsiz bo'lganligini tezda (O'z vaqtida) ilg'ay olish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

PMni o'qituvchida kamida quyidagi qobiliyatlar mujassam bo'lmog'i lozim:

- o'qituvchi dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi kerak;
- o'qituvchi o'z ta'lim oluvchilarini iloji boricha o'rganilayotgan mavzu bo'yicha bir xil fikrga keltira olishi kerak;
- o'qituvchi mavzu mohiyatini to'la ochib bera olishi kerak va kerak bo'lganda ularga bu mavzuning ular kasbiy faoliyatidagi o'rni va roli haqida ham tushincha bera olish kerak;
- dars davomida befarq holda qatnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o'rganishga jalb qila olish kerak;
- o'qituvchining darsini yana davom ettirishini xohlovchi ta'lim oluvchilar soni avditoriyadagi jami ta'lim oluvchilarning qancha qismini taashkil etishini ham baholab borish va bu orqali o'z dars o'tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo'lish;
- o'qituvchining dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyati va shu kabilar.

Pedagogik modellashtirish – pedagogik tizim, jarayon yoki vaziyatlarni, ularga erishishning asosiy yo'llarini ishlab chiqish va yaratish modellari bo'lib, unda bilish ob'ekti emas, balki uning tasviriy modeli o'rganiladi, tadqiqot natijalari esa modeldan ob'ektga ko'chiriladi. Modellar irognostik, nazariy, matematik yoki loyihaviy bo'lishi mumkin.

Pedagogik texnologiya (PT) – pedagogik (ijtimoiy) va texnologik (ishlab chiqarishdagi muhandislik) yondashuvlar integratsiyasidir. PT ga YuNESKO ta'rifi: «PT ta'lim berish va o'zlashtirish usullarini yaratish, qo'llash, ularni yagona tizimga keltirish yo'li bilan inson salohiyati va texnik vositalarining barcha imkoniyalaridan muvofiq foydalanib, bilimlar o'zlashtirilishining eng maqbul jarayonidir».

PT ning bosh muammosi talaba (o'quvchi) shaxsini rivojlantirish yo'li bilan o'qitishga qo'yilgan maqsadga erishishdan iborat.

PT doirasida yangi o'quuv materialini o'zlashtirishning boshlang'ich, algoritmik, ijodiy, evristik xarakterdagi darajalari mavjud.

PT umumiy maqsadi bir darajalarda oydinlashadi: birinchisi – ta'lim muassasasi (jarayoni) ning maqsadi hamda pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiasi; ikkinchisi – o'quv perdmoti (bo'lim) ning maqsadi pedagog va uning metodik faoliyati identifikatsiasi; uchinchisi

– ushbu model (o'quv elementi) ning maqsadi va uning o'quvchi – talabalar faoliyatidagi identifikatsiyasi.

## R

Reyting – bu inglizcha so'z bo'lib, uning ma'nosi «individual koeffitsient» yoki «baho» demakdir.

Reyting tizimi (RT) – bu talabalarni faol o'quv faoliyatiga rag'batlantiruvchi va muhim asosli kuchga ega bo'lgan talabalar bilimni nazorat qilish va baholash tizimi.

RT pedagogik nazoratning diagnostik, o'rgatuvchi, tashkil etuvchi va tarbiyalovchi funksiyalarini yaxshiroq amalga oshirishga yordam beradi.

RT nafaqat o'quv ishlariga tegishli, balki undan ta'lim – tarbiya jarayonining barcha jabhalarini baholash, nazorat qilish va boshqarishda foydalanish mumkin. Unda talabaning semestr, o'quv kursi davomida (fanni, mavzuni o'zlashtirish yoki butun OO'Yu ni tugatish davomida) to'plangan ballar yig'indisi orqali, ularni taqqoslash imkoni tug'iladi, ya'ni talabaning guruhidagi safi aniqlanadi, DTS dagi egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni egallanganligi aniqlanadi. Bu esa talabaning tayyorgarlik darajasini his etish, musobaqalashish ko'nikmalarini ta'lim – tarbiya jarayoniga kiritish, bilimni o'zlashtirishdagi o'z tezlik darajasini tanlash, kasbiy faoliyatni egalashda qanday o'rinda borayotganligini aniqlash, o'qishdagi ijobiy tuyg'usini sinab ko'rish imkoniyatini beradi.

## S

Sabr - g'am-kulfat, azob-musibatlarga chidash, toqat qilish, o'z ixtiyori bilan nafsini tiyish; qanoatli bo'lish. Islomda to'g'ri yo'ldan adashmasdan borish uchun kishi o'z mayllarini so'ndirishi lozimligi ta'kidlanadi. Sabrli bo'lish musulmonlarning asosiy fazilatlaridan biri hisoblanadi. Qur'onning bir necha oyatlarida musulmonlarning sabrli bo'lishiga da'vat bor. Hadislarda inson uchun sabrdan yaxshiroq va aulug'roq ne'mat ato etilmagani bayon etilan. Kishi og'ir paytda bardosh bilan, ne'mat etganida shukr va yaxshilik bilan sabr qilishi kerak. (O'zME. T.: 2004, 7-tom, 407-bet).

Savollar – bu ta’lim – tarbiya jarayonida asosan o’zlashtirganlikni aniqlash uchun talaba – Yoshlarga qilinadigan bo’lib, uning yordamida ular faolligini ta’minlovchi omil (jihat) hosil qilinadi. Savollar oddiy, aniqlovchi, tushuntiruvchi, baholovchi, ijodiy vash u kabilar ko’rinishida uchraydi.

Oddiy savollar – bular yordamida ta’lim – tarbiya jarayoniga tegishli dalillarni anglash, ulardan yangi (keyingi) ta’lim-tarbiya jarayonida foydalanishga tayyorlash jarayonlarini amalga oshiradi.

Aniqlovchi savollar –ushbu savollar orqali biror kishi fikri qayta mulo-at or-ali aniqlanib, tasdiqlanib olinadi. Bunda shunday emasmi? kabi savollar yoki ..... demoqchimisiz kabi murojatlar orqali maqsad amalga oshiriladi.

Tushuntirish savollari – bunda mavzuda bayon etilayotgan ma’lumotlar axborot ko’rinishiga keltiriladi. Bunda necha?, nima uchun? kabi savollarga javob berishlikni e’tiborga olib ta’lim-tarbiya berishi ma’qul bo’ladi.

Baholovchi savollar – bu asosan talaba – Yoshlarning o’zlashtirganligi mezonlari asosidagi savollar beriladi. Bunda mavzu yuzasidan tayanch iboralar va mavzuni bayoni rejasiga taalluqli ma’lumotlarni o’zlashtirilganligini baholashga qaratilgan bilimlar aniqlanadi.

Ijodiy savollar – bu asosan ilmiy farazga va bashoratga taalluqli savollar bo’lib, ular talaba – Yoshlarni ijodiy fikrlashga undaydi.

Bu borada oxirgi 3 ta turdagi savollar ta’lim-tarbiya interfaol usullardan foydalanishda talaba-Yoshlarning faolligini, mustaqil fikrlash ishlash ko’nikmalarini va eng asosiysi ularning innovatsion jarayonlarga kirib borishiga katta yordam beradi.

Siyosiy madaniyat – ijtimoiy faoliyatda namoyon bo’ladi. Madaniyatning bu qismini o’zlashtirish ko’rsatkichlari va natijalari – siyosiy xabardorlik; shaxsning huquqlari va erklarini himoyalashni ta’minlovchi davlat kasaba uyushmalari tuzulmalarini bilish; siyosiy partiyalar, xarakterlar, asosiy davlat va jamoat Yoshlar tashkilotlarining dasturi va harakatlari to’g’risida xabardorligi va baholovchi fikrlarga ega bo’lish; ijtimoiy folligi ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni isloh qilishga, boshqaruvda ishtirok etishga tayyorgarligi davlat va dunyo taqdiriga mas’uliyat hissi.

Sparta tarbiya tizimi - quldor ota-onalar rahbarligida tarbiyalangan sog’lom bolalar 7 Yoshdan maktabga qabul qilingan. Afina tarbiya tizimidan farqli o’laroq Sparta davlatida jismoniy

kamolotga katta e'tibor berilib, ayollar ham bu ishga jalb etilgan. Chunki sog'lom baquvvat ayollargina sog'lom avlodni vujudga keltirishi mumkin edi. Qizlar 18 Yoshgacha oilada jismoniy va harbiy bilimlar olganlar. [Hasanboeva O., Hasanboev J., Hamidov H. Pedagogika tarixi. T.: 2004, 12 bet]. Maktablarda besh asosiy harakat o'rgatilgan: besh kurash; ashula va diniy raqs, musiqa, harbiy o'yinlar, jismoniy tayyorlik berilgan. Besh kurash turlari – yugurish va sakrash, disk va nayza uloqtirish, kurashish, qo'l jangi, suvda suzish o'rgatilgan. Qullarning bolalariga esa ota-onalarining kasb-hunarlarini o'rgatilgan.

Standart – ko'pchilik manfaatdor tomonlar kelishuvi asosida ishlab chiqilgan va ma'lum sohalarida eng maqbul darajali tartiblashtirishga yo'naltirilgan hamda faoliyatning har bir turlariga yoki natijalariga tegishli bo'lgan umumiy va takror qo'llaniladigan qoidalar, tavsiyalar, talablar va usullar belgilangan va tan olingan idora tomonidan tasdiqlangan me'yoriy hujjat.

Suhbat metodi – tadqiqotning turli ko'pgina bosqichlarida qo'llaniladi. Ular: dastlabki tanish bosqichida; ta'lim tarbiyani to'g'ri olib borilayotganini rostlab borish maqsadida oraliqbosqichida;

Natijaning tadqiqot ob'ektiga nisbatan ahamiyatini aniqlashda va shu soha bo'yicha tavsiya ishlab chiqishda oxirgi bosqichda ham;

Ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda va shu kabilar.

Suhbat metodida samarali foydalanish ijobiy pedagogik natijalarga ershishni kafolatlaydi.

So'nggi nazorat (SN) – bu yakuniy nazoratlar natijalari to'g'risidagi qarorni jamoaviy bo'lib qabul qilish kerak bo'lgan komissiya tarkibida an'anaviy tarzda o'tkaziladi. Talabalarga nafaqa belgilash va ularni kursdan-kursga o'tkazish hamda yakuniy davlat attestatsiyasi SN ga tegishli.

## T

Tabaqalashgan ta'lim texnologiyasi – bu texnologiyada ta'lim oluvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda guruhlariga bo'linishi hisobga olinadi. Ayniqsa ularning guruhlariga bo'lishga ularning mazkur fanni o'rganishga bo'lgan shaxsiy qizishi yoki shaxsiy munosabatlari yoki o'sha soha muammolari echimlariga munosabatlari yoki o'sha sohaning boshqa amaliy va istiqbolli ahamiyatlarini baholay olishligi va shu kabilar asosiy mezon sifatida qaraladi.

Bunda o'rganilayotgan manbaning (mavzuning, bobning, fanning, kursning, sohaning va shu kabilar) mazmuni, hajmi, murakkabligi bilan bir-biridan farqlanadigan turli darajadagi o'quv

dasturlari va rejaları, didaktik va innovatsion kommunikativ didaktik materiallar tayyorlanadi. Ularni bajarish va ulardan foydalanish metodologiyasi ham tayyorlanadi.

Tajriba – voqelikni amaliy jihatdan hissiy-emperik bilish jarayoni. Tajriba keng ma'noda o'quv, malaka va bilimlarning birligidan iborat. Shungdek, falsafada bilishning empirik usullaridan biri – eksperiment usuli ham tajriba deb ataladi. Tajriba qadimda falsafa tarixida muhim rol o'ynagan vat adqiqot ob'ekti bo'lib kelgan. Sharq falsafasida biror narsadagi muayyan xossa yoki xususiyatni tekshirib ko'rish maqsadida o'tkaziladigan sinov ham tajriba deb ataladi. Hozirgi davrda pedagogik tadqiqotlar olib borish (ilmiy gipoteza asosidagi) ilmiy ishlanmalarni ham tajriba sinov ishlari asosida ilmiy tadqiqotchining olgan natijasini nechog'lik amaliy faoliyatni aks ettirishini va pedagogik samaradorliklarni tekshirib ko'riladi.

Tarbiya – keng ma'noda u yoki bu sifatlarning yoki ijtimoiy guruhlarining maqsadlariga muvofiq odamlarning yangi avlodlariga avval avlodlarning ijtimoiy – tarixiy tajribasini uzatish vositasi bilan jamiyatning rivojlanishini ta'minlovchi vazifasi.

Tarbiyalashning tor ma'nosi – ijtimoiy institutlar doirasida va ta'sirida ijtimoiy amaliyotning har bir doirasidagi hayotiy faoliyatiga, ijtimoiy vazifalarni va rollarni bajarishga tayyorlash maqsadida shaxsni ongli, maqsadga yo'naltirilgan, muntazam shakllantirish jarayoni. Tarbiyalash ijtimoiylashtirishning asosiy halqasi bo'lib, u o'qitish bilan uzviy ravishda bog'liqdir hamda ta'lim tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Tarbiya – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro ommaviy va nazariy muloqotidir.

Tarbiya vazifasi – ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutilgan holda o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyaning qanday metodidan foydalanishga bog'liq.

Tarbiya jarayoni – tarbiya jarayonining mohiyati va jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim.

Tarbiya maqsadi – talaba-Yoshlarda milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantirishda ilmiy pedagogik tadqiqot metodlari qo'llaniladi.



Tarbiya metodlari – metod lotincha metodoc – yo'l so'zidan olingan. Metod tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot deb tarjima qilinadi. Ilmiy tushuncha sifatida «metod» so'zi keng ma'noda muayyan maqsadga erishish yo'li tushuniladi.

Tarbiyaning xususiyatlari – tarbiya insonni komillikka etaklaydi. Komil inson bo'lish uchun bolani tug'ilgan kundan boshlab tarbiyalash lozim. Tarbiya jarayonida ota-ona, atrof-muhit muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ota-onalar farzandlari oldida namunali xulqli bo'lishlari shart.

Tarbiyachi: «eskini o'zlashtirgan va yangini tushunishga qodir insongina tarbiyachi bo'la oladi»

(Konfutsiy)

Tarbiya qoidasi (TQ) – bu pedagog ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshiroq tashkil etish maqsadida foydalanadigan boshlang'ich holat, rahbarlik asosidir. TQlari deganda o'qituvchi va tarbiyachilarga yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi qoidalar hisoblanadi. TQ Sharq va Markaziy Osiyo donishmandlarining fikrlari va milliy pedagogika erishgan yutuqlariga asoslanadi.

TQlariga quyidagilar kiradi:

- tarbiyaning ma'lum maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning insonparvarlik va demokratiya qoidasi;
- tarbiyaning hayot va mehnat bilan bog'liqlik qoidasi;
- tarbiyada milliy-madaniy va umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi qoidasi;
- tarbiyada o'quvchilarning yo shva individual xususiyatlarini hisobga olish qoidasi;
- izchillik, tizimlilik, tarbiyaviy ta'sirlarning birligi va uzluksizligi qoidasi.

(Pedagogika. O'quv qo'llanma. Munavvarov A. tahriri ostida. – T.: «O'qituvchi», 1996. – 119-120 betlar).

Tasavvur – bu oldin idrok qilingan narsalarning ko'z oldimizga kelgan obrazlaridir. Tasavvullarning turlari odamlarning kasblariga, qiziqishlariga, xavaslariga, xarakter va qobiliyatlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Turli kishilarda tasavvur obrazlarining yaqqolliigi va ravshanligi turli xil bo'ladi.

Tasavvur – bo'lgan va bo'lmagan voqea va hodisalarni inson ko'z ochiq va yopiq holda ham o'z tasavvurida bo'ladigan jarayon hisoblanadi.

Ta'lim – shaxsning jismoniy va ma'naviy kamol topish jarayoni uning ongli ravishda ayrim ibratli faoliyatlarga yo'nalishi va tarixan maydonga kelib, ijtimoiy namuna bo'lishga har tomonlama barkamollikka intilish jarayoni tushuniladi. Ta'lim butun jamiyat va shaxslar hayotining ajralmas jihati sifatida namoyon bo'ladi.

Ta'lim – bu ta'lim oluvchiga maxsus tayyorlangan mutaxassislar yordamida bilim berish va ulardagi ko'nikma hamda malakalarni shakllantirish jarayoni bo'lib, u kishining shaxs sifatida hayotga va mehnatga ongli ravishda tayyorlash vositasi.

Ta'limning boshlang'ich (dastlabki) vazifasi ta'lim oluvchini o'qitishdan iborat. Shuning bilan birga u oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarga ma'lumot berish vazifasini ham bajaradi.

Ta'lim dasturi – o'quv fanlarining bakalavriat yo'nalishlari yoki magistratura mutaxassisliklariga qo'yiladigan malaka talablariga muvofiq kadrlarning zaruriy va etarli darajadagi tayyorgarligini ta'minlovchi bloklarga jamlangan ro'yxati.

Ta'lim jarayonini tashkil etish shakllari – ta'lim jarayoni bo'lgan tizimdir. Ta'lim jarayoni sifatida bilimlar, ko'nikmalar va malakalarning yig'indisini faoliyat va munosabatlarning tegishli tajribalarini o'tkazishga qaratilgan maxsus ishlarning tashkil qilinishidir.

Ta'limiy-axloqiy yo'nalish bu sohada qomusiy olimlar o'z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki axloqiy asarlarida bayon etsalar, adib va tarbiyashunos olimlar ta'limiy-didaktik asarlarida ifodalaganlar. Ma'lumki, Sharq Uyg'onish davrida inson muammosi ma'naviyat sohasidagi asosiy masala bo'lgan. Shuning uchun ham ta'lim-tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan, yaratilgan asarlarda Sharqqa xos bo'lgan insoning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug'lash etakchi o'rin tutgan.

(O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Tuzuvchilar. S.Ochil, K.Hoshimov. T.: «O'qituvchi», 1999, 3-27 betlar).

Ta'lim mazmuni – inson o'qitish jarayonida egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar hajmi va xarakteri.

Ta'lim mazmuni – belgilangan maqsadga muvofiq yo'nalish va hajmiga ega bo'ladi. U tegishli me'yoriy hujjatlar: ta'lim standartlari, o'quv reja, dasturlar shaklida rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda tasdiqlanadi.

Ta'lim mazmuni to'g'ri belgilanishi hamda unga zarur o'zgartishlar kiritish, yangilanib borish imkoniyatlari nazarda tutilishi lozim. Belgilangan mazmun asosida o'quv fanlari, o'quv soatlari, mashg'ulot turlari va shu kabilar aniqlanadi.

Ta'lim maqsadi – bu har bir pedagogik texnologiyani yaratishda asos bo'lib hisoblanadi. Maqsadning zamonaviy ta'lim va tarbiya muammolarini yuqori samaradorlik bilan hal qilishga qaratilgan bo'lishi zarur asos hisoblanadi.

Biror pedagogik texnologiyani yaratish uchun eng zarur shart shunday dolzarb maqsadni aniqlay olishdan iborat. Bunday maqsadni zarur tadqiqotlar, ijodiy izlanishlar olib borish, o'zining va boshqa mutaxassislarining ish tajribalarini chuqur tahlil qilish orqali aniqlanadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan aytganda, u o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi.

Bunday maqsadlar yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik har bir pedagogik texnologiyaning maqsadga muvofiqligini, bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan aytganda, u o'z vazifalarini ijtimoiy ehtiyojlarga muvofiq bajarayotganligi darajasini belgilaydi.

Bunday maqsadlar yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga yo'naltirilishi hozirgi talablardan kelib chiqadi.

Raqobatbardoshlik pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlari uchun eng zarur shart bo'lib, bunda yakuniy natijani bevosita tayyorlovchilar bo'lgan o'qituvchi va o'quvchining raqobatbardoshligiga erishish asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu esa unga bo'lgan talab yuqori bo'lishini ta'minlash uchun muntazam takomillashtirib borish zaruratini keltirib chiqaradi.

Ta'lim menejmenti va marketingi – pedagogik texnologiyaning zamonaviy ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talabalarga muvofiqligini aniqlagan holda uni loyihalash, ishlab chiqarish, amaliyotga tadbiq qilish masalalarini hal etadi.

U dolzarb yo'nalishlarni aniqlab, mutaxassislar uchun takliflar tayyorlaydi. Tegishli tartibda biznesrejalarni tuzish va ularni amalga oshirishni hal etadi. Bu masalalarni muvaffaqiyatli hal qila

olish uchun ta'lim menejmenti va marketingi sohalariga chuqur va puxta bilimga ega hamda tajribali mutaxassislar jalb qilinadi.

Ta'lim menejmenti va marketingida tegishli dolzarb yo'nalishlar aniqlanib, mutaxassislar uchun takliflar tayyorlaydi, tegishli tartibda biznes rejalari tuzish va ularni amalga oshirish bilan shug'ullanadi.

Bunday muammolar echimlarini topishning optimal variantini topish uchun ta'lim menejmenti va marketingi bo'yicha chuqur va puxta bilimga ega hamda tajribali mutaxassislar jalb etiladi.

Ta'lim metodlari – metod yunoncha atama bo'lib, aynan nimagadir yo'l, usul orqali maqsadga erishish yo'lini bildiradi, u 4 guruhga bo'linadi: 1) so'z orqali ifodalash; 2) ko'rgazmalilik usullari; 3) amaliy namuna usuli; 4) rag'batlantirish va jazo usuli.

Ta'lim sifati (TS) – ta'lim jarayonining turli qatnashchilarini o'quv muassasasi tomonidan ko'rsatilgan ta'lim xizmatlaridan qoniqish darajasi yoki ta'limda qo'yilgan maqsad va vazifalarga erishganlik darajasi.

TS – o'quv muassasasining muvaffaqiyatli faoliyatini muhim ko'rsatkichi, o'quv muassasasini ichki boshqaruvi vazifalarining tizim hosil qiluvchisi hisoblanadi.

TS – ta'lim oluvchilarning o'zlarini, jamiyatni, ta'lim buyurtmachilari talablarini qondirishga qodir bo'lgan ta'lim natijalarining muhim jihat va xususiyatlari majmuasidir.

Sifat kategoriyasi insonning ob'ektiv reallikni bilishdagi ma'lum bosqichni ifodalaydi. Bilish jarayonining dastlabki bosqichida ob'ekt sub'ekt oldida o'zining ayrim yoki bir necha xossasi bilan namoyon bo'ladi. Bevosita hissiy idrokda sifat ko'plab xossalarning majmui tarzida ko'rinish beradi.

Talab etilgan darajadagi TSga ma'lum ijtimoiy-pedagogik tizim orqali erishish mumkin. Bu tizim quyidagi qism tizimlaridan tashkil topadi: DTS; bo'lajak mutaxassislar me'yoriy modeli; TS ni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari hamda monitoringi.

Maxsus ma'noda «Ta'lim oluvchi→ta'lim beruvchi» darajasida TS- bu muntazam ravishdagi o'lchamlar asosida ta'lim beruvchi va oluvchilarning o'zaro munosabatini, ta'lim oluvchilar faoliyati, ta'lim natijalarining ta'lim tarbiyasiga mosligini belgilovchi darajadadir.

Umumiy ma'noda «Tahsil oluvchi - ta'lim muassasasi» darajasida TS- bu tizimli va kvalimetrik ko'rinishlarda muntazam o'lchamlar asosida aniqlanadigan ta'lim – tarbiya natijalarning moslik darajasidir.

Ta'lim standarti – standart tekshirish usullariga muvofiq keladigan va o'qitish sifatining standart ko'rsatkichlari bilan ifodalangan mazkur ta'lim turida o'quvchini o'qitish va tarbiyalashda qo'yiladigan talablar ko'rsatkichlarning mazmuni.

Ta'lim texnologiyasi – tizimiy tamoyil bo'lib, o'quv jarayonini ifodalovchi va tashkillashtiruvchi hamda ta'limda qo'yilgan maqsadga etish uchun ko'rsatmadir. Dars mashg'ulotlari davrida o'qituvchining mahoratini tashkillashtirishni ham ta'lim texnologiyasi o'z ichiga oladi.

Ta'lim texnologiyasi bir paytning o'zida rejalashtirilgan natijaga erishishga mo'ljallangan o'quv jarayonini texnologiyalashtirishni va ta'lim jarayonining metod va vositalari majmuasitni o'z ichiga oladi.

Ta'lim texnologiyasi quyidagilarda tuzilgan: ta'limning rejalashtirilgan natijasini ifodalay olish; ta'lim joriy holatini tashxis qilishning vosita metod va metodologiyasi; ta'lim modellari majmuasi; ta'lim jarayoni muammo va shartlarning aniq echimlarini topishning optimal modellarni tanlashning mezonlari tizimi.

Ta'lim tizimi – O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'lim standartlariga muvofiq ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim muassasalari;

- ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalar;

- ta'lim sohasidagi davlat boshqaruv organlari, shuningdek, ularga qarashli korxonalar, muassasalar va tashkilotlar.

Ta'lim turlari – O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshiriladi: maktabgacha ta'lim, umumo'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim.

«Ta'lim to'g'risida» gi Qonunning maqsadi – fuqarolarga ta'lim, tarbiya berish, kasb-hunar o'rgatishning huquqiy asoslarini belgilash hamda har kimning bilim olishdan iborat konstitutsion huquqini ta'minlash.

Test – (inglizcha – sinash) biror-bir faoliyatni bajarish uchun ma'lum darajadagi bilimni egallashga qaratilgan topshiriqlar. Test to'g'ri bajarilganligini o'lchash va baholash maqsadida har bir testga ekspert metodi yordamida etalon ishlab chiqiladi.

Testlar metodi – bu testlar iloji boricha birxillikka keltirilgan shaxs intellektual salohiyatini yoki uning muayyan bir sohasi (yo'nalish)ni tezkorlik bilan sinash usulidir.

Nazariy asoslangan va empirik jihatdan taxlil qilingan testlar va tadqiqotchi uchun ilmiy yuksak amaliy jihatidan ahamiyat kasb etadi.

Tushuntirish – ilm-fan va ta'lim-tarbiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Tushuntirishning shakllari quyidagilar: ilmiy tushuntirish; ratsional tushuntirish.

## U

Uzluksiz ta'lim – milliy modelning asosiy qismi bo'lib, u quyidagi ta'lim turlarini o'z ichiga oladi: maktabgacha ta'lim; umumiy o'rta ta'lim; o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi; oliy ta'lim; oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim; kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash; maktabdan tashqari ta'lim.

Uzluksiz ta'lim – malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning asosi bo'lib, ta'limning barcha turlari, DTS ni, kadrlar tayyorlash tizimi tuzilmasi va uning faoliyat ko'rsatish tizimini o'z ichiga oladi. O'zaro mantiqiy izchillik asosida bog'langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqozo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta'lim tizimi. O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlash tizimining asosi, ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri 1997 yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asosida tamoyil sifatida qayd etilgan. Umumiy ta'lim milliy modelining asosiy tarkibiy qismlardan biri (qism ta'limning milliy modeli), O'zbekiston Respublikasining ijimoiy- iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlovchi jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Umumiy ta'limning faoliyat ko'rsatish tamoyillari quyidagilardan iborat;

1. Ta'limning ustuvorligi.
2. Ta'limning demakratlashuvi.

3. Ta'limning insonparvarlashuvi.
4. Ta'limning ijtimoiylashuvi.
5. Ta'limning milliy yo'naltirilganligi.

Umumpedagogik texnologiya – turli darajada tizmlarni ifodalaydi. U ayrim ta'lim muassasasidagi (ta'limning bosqichidagi) barcha ta'lim-tarbiya sohalariga tegishli bo'ladi.

Umumpedagogik texnologiya o'z ta'lim muassasasidagi ta'lim-tarbiyaviy maqsadlar, mazmun-mohiyat, vositalar, boshqaruv shakllari va usullari, o'quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari faoliyatining algoritmlarini belgilaydi.

Umumpedagogik texnologiyaning maqsadi barkamol insonni shakllantirish va rivojlantirish bo'lib, asosan quyidagilarda tarkib topadi: ta'lim tarbiya berish; axborotlarni avlod-dan-avlodga o'tkazish; mustaqil fikrlashga o'rgatish; bilim, ko'nikma va malakalarni o'rgatish va o'zlashtirishiga erishish; turli metodikalarni qo'llash va takomillashtirish; diagnostika, monitoring olib borish; ta'lim-tarbiya jarayonida mafkuraviy tamoyillarga asoslanish; ta'lim menejmenti, marketingi talablari va xulosalarini, ijtimoiy motivlarni hisobga olish.

Pedagogika texnologiyaning harakatga kelishi va undan rejalashtirgan natijaga erishish faqat pedagogik faoliyat jarayonida amalga oshiriladi. Chunki pedagogik texnologiya va pedagogik faoliyat bir – biri bilan uzviy bog'liq tushunchalar hisoblanadi va ularning biri ikkinchisiz o'z ma'nosini va ahamiyatini yo'qotadi.

Pedagogik texnologiya barcha o'quv fanlari bilan bog'liq bo'lib, ularning hamda o'zining muntazam rivojlanib borishini kadrlar tayyorlash orqali ta'minlab boradi. Shuningdek, pedagogik texnologiyaning keng ko'lamli ijtimoiy hodisa bo'lib, u ko'p fanlarning tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Bunda har bir fan o'z maqsad va vazifalariga muvofiq yo'nalishlarda pedagogik texnologiyani chuqur o'rganishi natijasida uni takomillashtirish yo'l-yo'riqlarini belgilab boradi.

Uslub – narsa, hodisa yoki biror jarayonni o'rganish va amalga oshirish uchun foydalaniladigan usullar tizimi.

Kishilar faoliyatining barcha sohalarida aloqa qilish jarayonida tildagi leksik, frazeologik, grammatik, fonetik vositalarni tanlash va ishlatishda bir-biridan ma'lum darajada farq qiladi.

Adabiy tilning quyidagi vazifaviy usullari mavjud: so'zlashuv; rasmiy; ilmiy; publitsistik; badiiy uslublar.

Usul – narsa, hodisa yoki biror jarayonni o'rganish va amalga oshirish ketma-ketligi. Keng ma'noda qo'laniladigan «usul» o'qitishning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish, ma'lum ob'ektni o'zlashtirish borasidagi nazariy va amaliy faoliyatlarni anglatadi.

Ustoz – muayyan fan, bilim, sohada betakror olim, pedagog, mutaxassis, u o'z yo'nalishi bo'yicha barcha yangiliklardan boxabar, hayotda o'z o'rnini topgan, mavqei, salohiyati va maktabiga ega.

Olim-fuzalo, oqil, komil, o'rnak bo'ladigan, o'zining ilg'or tajribasiga ega va kelajakni ilmiy tasavvur qiladigan, ilmi, bilimli, hamma tomondan tan olingan maslahatgo'y inson.

## **Sh**

Shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sube'kti va obe'kti, ta'lim sohasidagi xizmatlarning istemolchisi va ularni amalga oshiruvchi. Shaxs deganda muayyan jamiyatning a'zosi tushuniladi. Odam shaxs bo'lmog'i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan, o'z xususiyatlari va sifatleri bilan boshqalardan farq qilishi mumkin.

Odamni ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olish uchun ijtimoiy-iqtisodiy hayot va tarbiya kerak.

Shaxsning kamol topishida va uning xulqida ijtimoiy va biologik omilar ta'sir kuchi hamisha ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning xulqiga, munosabatlariga, aloqalariga, Yoshi bilimi, odatlari, tajribasi va nihoyat vaziyat ham ta'sir etadi. Shaxsning kamolga etishida nasl – irsiyat, ijtimoiy muhit ham maqsadga muvofiq amalga oshiriladigan ta'lim-tarbiya va nihoyat o'zining mustaqil faoliyati ham muhim ahamiyatga ega. Shaxs qaysi jamiyatda yashasa, o'sha jamiyat hayotida qonun -qoidalariga asosan kamol topadi.

Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo'ladi. U o'zining xarakteri, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, ana shu ruhiy xususiyatlari rivojlanib, ma'lum bir bosqichga etsagina uni mukammal kamol topgan inson deyiladi.

Shaxsning huquqiy madaniyati – bu umum e'tirof etilgan ijtimoiy qadriyatlar nuqtai nazaridan qaraganda individual qarashlar, baholar, sabablar, huquqiy yo'l-yo'riqlar bo'lib, ular huquq va majburiyatlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan qonuniy hamda ijtimoiy faol harakatga asos bo'ladi.



Shaxs g'ururi – bu faxrdir. Har bir shaxs o'zining yutuqlaridan mamnuniyat hissini tuyadi. Ota-ona qobul farzandlaridan, ustoz iste'dodli shogirdlaridan, yozuvchi yaxshi asarlaridan, bog'bon so'lim bog'idan, millat o'z merosi, iste'dodli farzandlaridan faxrlanadi.

## E

Ekologik madaniyat – kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasi sohasidagi bilimlarga egaligi, jahon va hududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligi va boshqalar.

Eksperiment – fan va bilish sohasida favqulotda holatdan chiqish, muammoli vaziyatni hal qilish jarayonlari, shaxsning his – tuyg'ulari, xarakteri, qobiliyati, aql-zakovatini o'rganishda qo'llaniladigan usul. (Falsafa. Qomusiy lug'at-456b)

Eksperiment tabiiy usulda va laboratoriya usulida olib borilishi mumkin bo'lib, ulardan tabiiy usulda sotsialogik, pedagogik, psixologik, masalalrni hal qilish masalasi qaraladi. Shuningdek, laboratoriya usullari yordamida diqqatning sifatlari (sezgi, idrok, xotira va tafakkur) ning xususiyatlari, emotsional, ifodaviy va aqliy zo'riqish singari psixik holatlar tekshiriladi. Bulardan tashqari uchuvchi, haydovchi, operator, elektronchilar va shu kabilar qobiliyatlari ham eksperiment yordamida tekshiriladi.

Eksperiment metodi – bu hodisa va jarayonlardan rejalashtirilgan ishchi faraz asosidagi dalil –isbotlarni ro'yobga chiqarish va ularning tashqi sharoitga bog'liqligini asoslashga yo'naltirilgan yo'l.

Eksperiment metodining afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z hoxishi bilan muayyan jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib, hodisaning tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rish mumkin.

Empirik, ya'ni tajriba yo'li bilan qo'lga kiritilgan – isbotlarning asosiylari pedagogika va psixologiya sohasidagi tadqiqotlarda eksperiment olib borish yo'li bilan olib boriladi.

Elektron darslik an'anaviy darslikdan farqli o'laroq, fanga oid tegishli materiallarni dinamik talqinda, ya'ni foydalanuvchi e'tiborini jalb qiluvchi turli ranglardan, multimedia, audio va video animatsiyalar, gipermurojaatlardan o'rinli foydalangan holda tuzilgan yoxud dasturlashtirilgan darslikdir. U kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallari, ilmiy adabiyotlarning har tomonlama samarali o'zlashtirishiga mo'ljallangan adabiyot.

## Ya

Yakuniy nazorat – bu umumiy natijalar baholarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi. Bu bosqichdagi nazorat natijalari talabaning fanni o'zlashtirishni, o'qituvchining kasbiy faoliyati bo'yicha ishini baholash imkonini beradi. Bu orqali qaralayotganda ta'lim – tarbiya jarayoniga xulosa yasashga ham imkoniyat yaratiladi va ular asosida talabaga ta'limning keyingi bosqichiga o'tishga daraja beriladi, o'qituvchiga esa ta'lim – tarbiya olib borishda qaysi holatlarga ko'proq e'tibor berish lozimligi haqidagi xulosalarni chiqarishga asos bo'ladi.

Yangi pedagogik texnologiya (YaPT) – ta'lim maqsadlarini aniqlab, o'quv jarayoni rejasini tuzib, ularni joriy etish yordamida ta'lim samaradorligini oshiruvini ta'minlovchi o'quv jarayonining optimal boshqaruvini o'z ichiga olgan yagona tizimdir.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ijodiy yondashuvni ta'minlash.

YaPTni o'quv jarayoniga qo'llashning quyidagi afzalliklari bor:

- professor-o'qituvchi ham, kursant ham qulay vaziyatlardan foydalanib, tushuntirish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- kursantlarning bilim ko'nikmalarini egallash samarasi oshadi;
- darsni yuqori saviyada sifatli olib borish uchun sharoit yaratiladi;
- o'qitishning eng progressiv usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratiladi;
- pedagog va kursantlar hamkorligida nafaqat o'zi uchun yangi bilimlar o'zlashtiriladi, balki bunda talaba o'zgacha kashfiyotlar qiladi. Bunday faoliyat talaba uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va shu sababli uning o'rganish ishtiyoqini orttiradi;
- mavzu mazmunini to'liq o'zlashtirishga imkon yaratiladi.

YaPT ning afzalliklari:

- professor – o'qituvchi ham, kursant ham qulay vaziyatlardan foydalanib, tushuntirish va tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi;
- kursantlarning bilim ko'nikmalarini egallash samarasi oshadi;
- darsni yuqori saviyada – sifatli olib borish uchun sharoit yaratiladi;
- o'qitishning eng progressiv usullaridan foydalanishga imkoniyat yaratiladi;

- o'qituvchi va kursantlarning hamkorligida nafaqat o'zi uchun yangi bilimlar o'zlashtiriladi, balki bunda talaba o'zgacha kashfiyotlar qiladi. Bunday faoliyat talaba uchun alohida shaxsiy qadriyatga ega va shu sababli uning o'rganish ishtiyoqini orttiradi;

- mavzu mazmunini to'liq o'zlashtirishga imkon yaratiladi.

YaPTning muhim xususiyatlari – ijtimoiy muhandislik tafakkurining mahsuli;

Texnokratik ilmiy fikrning ta'lim sohasidagi loyihasi, ta'lim jarayonini ma'lum darajada standartlashtirish takrorlanadigan pedagogik jarayonga aylantirishdir.

Bu faollik ongli, maqsadli va irodaviy yo'nalishda boshqariladi va bunda muntazam ravishda diagnostika (tashxislash) prognostika (bashoratlash) korrektsiyalash (tuzatish kiritish) qaror qabul qilish kabi jarayonlar hukm so'radi hamda ushbu jarayonda o'qituvchi har bir ta'lim oluvchida aqliy, intellektual, kasbiy jihatdan ro'y berayotgan o'zgartirishlarning tizimli monitoringini olib boradi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda YaPT qator muhim xususiyatlarga ega bo'ladi. Ular quyidagilar:

1. Tizimli yondashuv asosida ta'lim oluvchining o'qish-bilish faoliyatini tasvirlaydigan ta'lim jarayoni loyihasini tuzish.

2. O'qituvchi tomonidan o'z psixologik bilimlarini, pedagogik maqsadni hayotga tadbiiq etishga erishish malaka va ko'nikmalariga ega bo'lish.

3. Ta'lim jarayonini oldindan loyihalash va o'qituvchi, talabalar bilan qayta ishlab chiqish.

4. Ta'lim oluvchilar imkoniyatlaridan qoniqish, motivatsiyasida har darsda, har tomonlama foydalanish.

5. Mustaqil o'rganilayotgan bilimlar, tushunchalar, shakllanayotgan malakalar paytida o'qituvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning rohatlanishi, o'yinlarni ishlay bilishi.

6. Ta'lim maqsadining real bo'lishi va uning tuzilishi, mazmunini yaxlitligi, o'zaro bog'liqligiga erishish.

7. Ta'lim jarayonida texnik vositalar, ko'rgazmali ish qurollari hamda inson salohiyatining o'zaro ta'sirini hisobga olish.

8. Ta'lim maqsadini etalon asosida ta'lim oluvchilarning kuzatiladigan, o'lchanadigan harakatlari shaklida oydinlashtirish.

9. Ta'lim oluvchining faolligini oshirishga erishish.

10. O'qish jarayonida ro'y beradigan hatolarni aniqlab, tuzata borish (imkoniyat boricha ta'lim oluvchilar o'zlari o'z xatolarini individual bilib, o'zlari korrektsiya ishlari olib borishga erishish).

11. Ta'lim oluvchilar mavaffaqiyatlarini belgilangan mezonlarga binoan test vazifalarini berib diagnostikalash.

12. Ta'limning rejalashtirilgan natijasiga erishishning kafolatlanganligi va samaradorligining yuqoriligi.

## O'

O'zlashtirish darajasi – o'quv elementlarida aks ettirilgan axborotlarni o'zlashtirish darajasi. Ta'lim standartlarida quyidagi o'zlashtirish darajalari qo'llaniladi:

1-daraja: avval o'rganilgan ob'ektlar, xususiyatlar jarayonlarini tanish yordamga tayangan holda amallarni bajara olishi.

2-daraja: namunaviy amallarni mustaqil ravishda yodda bajara olish.

3-daraja: avvaldan o'rganilgan namunali amallar asosida bajarilishi lozim bo'lgan yangi faoliyat algoritmini yarata olishi, mahsuliy faoliyat ko'rsatishi.

O'zlashtirish sifati – anglashuvchanlik, inson tomonidan faoliyatni sifatli boshqarish shartlaridan biri – uni tushunib etish anglash darajasi hisoblanadi.

O'z – o'zini kuzatish metodi (O'O'KM) – bu kishining aqliy faoliyati bo'lib, o'zining intellektual salohiyati va kasbi bilan bog'liq bo'lgan sermahsul ishlarni amalga oshirish yo'li.

Suhbat va so'roq - chiziqcha metodlarini O'O'KM orqali olingan ma'lumotlarni qo'llab bo'lmaydi. Buni suhbat va individual savol – javob o'tkazish uchun savollar tuzishda hisobga olish kerak.

O'qitish - bu insonlar orasida yashash, hayotda turmush kechirish va faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nima va malakalar yig'indisini o'zlashtirishga qaratilgan ongli faoliyat ifodasidir.

O'qitish natijasida shaxs zaruriy bilimlar bilan ta'minlanib, kelguvsida turli darajadagi maxsus ma'lumotni olish imkoniga ega bo'ladi.

O'qitish vositalari – axborotni uzatish va o'zlashtirish hamda aqliy va jismoniy mehnat bo'yicha malaka va ko'nikmalarni egallash uchun o'qitish jarayonida qo'llaniladigan o'quv jihozlari va vositalari.

O'qitish vositalari – ma'lum o'qitish usulini muvaffaqiyatli amalga oshirmoq uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallari – asbob, qurol, apparat va shu kabilardan foydalanishdir.

Dars jarayonida tabiiy yoki tasviriy ko'rgazmali materiallar laboratoriya yoki namoyish qismi mashg'ulotlarida qo'llaniladigan qurol va asboblari o'quv, kino uskunalari, proektsion fonar, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek mavzuga oid boshqa o'quv materialaridan keltirilgan dalillar (ma'lumotlar, isbotlar, ta'rif, qoida)ning ishlatilishidir.

O'qitishda xususiyatlarni tarbiyalash – fanlarni o'qitish o'qituvchilarda ilmiy munosabatni, quyidagilarni xususiyatlaydigan munosabatlarni tarbiyalash maqsadini ko'zlaydi:

- qiziqish (bilish xohishi) va faoliyat (biror narsani aniqlash uchun biror narsa qilish xohishi);
- skeptitsizm (tez-tez uchraydigan fikrlarni sinchiklab ko'rib chiqish xohishi);
- dalillar (bilim olishda isbotlash mantiqi va qoidalaridan foydalanish mahoratlari);
- xabardorlik (uning yordamida o'ylash mumkin bo'lishi uchun olam haqida axborotlar fondining mavjudligi);
- strategiyalar (izlash uchun qoidalar mavjudligi va ulardan foydalanish xohishi);
- molyillik (yangi bilimlarni olish natijasida talaba o'zini olam haqidagi fikrlash usulini qayta qurishni boshlashi uchun oshqalarning fikr va tushunchalarini bir qonuniyat asosida bir chiziqqa joylashi).

O'qitishning asosiy vositalari – asosiy o'quv mazmuniga ega bo'lgan rejalar, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar.

O'qitishning qo'shimcha vositalari – o'quvchilardagi bilim, malaka va ko'nikmalarni shakllantiruvchi masalalar, mashqlar to'plami, ma'lumotnomalar, tarqatma materiallar, ko'rsatmali va ko'rgazmali vositalar, disketlar, EHM va boshqalardir.

O'quv dasturi – bu hujjat hisoblanib, bo'lajak mutaxassis shaxsiga qo'yilgan talablarga mos holda ta'lim mazmunini va uni o'quvchi (talaba)lar tomonidan o'zlashtirishni tashkil etish

usullarini o'zida aks ettiradi. O'quv dasturlarida umuminsoniy tajriba, shuningdek, ta'lim va tarbiya tajribasi ma'lum ko'rinishda (yoki shaklda) saqlanadi. Bu tajriba bo'lajak mutaxassis o'zlashtirishi kerak bo'lgan turli xil axborotlar va bu tajriba o'qitish jarayonida qanday uzatilishi kerakligi to'g'risida ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

O'quv jarayonining didaktik ta'minoti – ta'lim-tarbiya jarayonini to'liq va sifatli ta'minlash uchun zarur bo'lgan o'quv dasturiy hujjatlar va o'qitish vositalarini ishlab chiqish.

O'quv predmeti – o'quv muassasasida o'qitish uchun faning muvofiq sohalaridan tanlab olingan bilimlari malakalar ko'nikmalar, me'yorlar va qadriyatlarning didaktik asoslangan tizimi.

O'quv rejasi – o'quv shakllarini, o'quv predmetlarining ro'yxati va hajmini, ularning o'quv haftalari, yarim yilliklari bo'yicha taqsimlanishini belgilaydigan, bo'lajak mutaxassislarni o'quv predmetlari, kasbiy va umumta'lim tayyorgarligi orasida o'zaro bog'liqlikni ta'minlovchi me'yoriy hujjat.

O'quv rejasi – oliy ta'limning muayyan yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi va soatlardagi hajmini belgilaydigan normativ hujjat.

O'quv rejasining moduli – uzluksiz ta'lim mazmunining asosiy invariant tarkibiy komponentlarini aks ettiruvchi o'quv rejasini taqdim etish shakli.

O'quv-uslubiy majmua – muayyan fan yoki kasbni to'liq va sifatli o'rganish uchun zarur bo'lgan o'quv-uslubiy hujjatlar va o'qitish vositalari majmui.

O'quv fani – ta'lim muassasasida o'rganish uchun fan, texnika, san'at, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilimlar, o'quv va ko'nikmalar tizimi.

O'quv fani dasturi – ta'lim mazmuni, uning talabalar tomonidan o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan normativ hujjatlar.

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va fan asoslarining chuqur o'zlashtirishini ta'minlovchi ayrim bob va bo'limlarni keng tarzda yoritishga yoki mashq va mashg'ulotlar olib borishga mo'ljallangan nashr.

## Q

Qadriyatlar faqat o'tmish uchun qadrlil bo'lmasdan, balki hozirda ham kelajak taraqqiyotida ham qadrlil bo'lib, ular jamiyat taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qiladi hamda kishilar ongiga singib

ijtimoiy ahamiyat kasb etadigan moddiy, ma'naviy, tabiiy, diniy, axloqiy, falsafiy va h.k.lar majmui tushuniladi.

Qadriyat turlari quyidagilar:

- tabiiy qadriyatlar;
- moddiy qadriyatlar;
- ma'naviy qadriyatlar;
- estetik qadriyatlar;
- milliy qadriyatlar;
- umuminsoniy qadriyatlar.

Bular ham o'z navbatida shajaraviy xususiyatga ega.

*Tabiiy qadriyatlar* – bu insonning yashashi va rivojlanishi uchun zarur bo'lgan resurslar, ya'ni er va er osti boyliklari, suv, havo, o'rmonlar, o'simliklar, hayvonot dunyosi va boshqalar.

*Moddiy qadriyatlar* – bu insonlarning moddiy ehtiyojlarini qondirishda qadrlil bo'lgan narsa (predmet, buyum)lardir. Ular: ishlab chiqarish vositalari va qurollari, mehnat predmetlari, moddiy ne'matlarlar, kishi faoliyati jarayonini amlga oshirishdagi buyumlar.

*Ma'naviy qadriyatlar* – bu siyosiy, huquqiy, badiiy, diniy, estetik, falsafiy, axloqiy, ma'rifiy, madaniy qadriyatlar majmuasidir.

*Estetik qadriyatlar* – bu barcha ham shaklan, ham mazmunan go'zalliklardir (barcha tabiiy va ijtimoiy go'zalliklar).

*Milliy qadriyatlar* – bu muayyan xalq va millatlarning uzoq tarixiy davrlar asosida rivojlanib kelgan va ma'lum shakl va mazmunga ega bo'lgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuasidir.

*Umuminsoniy qadriyatlar* – bu umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan va uning tsivilizatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuasidir. Umuminsoniy qadriyatlarining asosini kurrai zamindagi ilm-fanni taraqqiy ettirish, dunyo bo'yicha tinchlik va barqarorlikni saqlash, ekologik muammolar echiini izlash, yadroviy qurollar poygasini to'xtatish, turli xalqaro xavflarni oldini olish, turli kasalliklarning oldini olish, tabiatni muhofaza qilish, qashshoqlik va savodsizlikka barham berish, sanoat xom ashyosi, energiya manbalarini yaxshilash, koinot va jahon okeani resurslarini o'zlashtirish va shu kabilar bilan bog'liq bo'lgan muammolar tashkil etadi.

Qiyoslash metodi – bu qiyoslash ob’ektlarini aniqlash; qiyoslashning asosiy belgi va parametrlarini ajratish, solishtirish, qiyoslash, qarama-qarshi qo’yish, o’xshashlik yoki farqlashni aniqlash (uchinchi ob’ektni kiritish, qarshi obrazni yaratish); qiyoslash natijalarini belgili rasmiylashtirish (qiyosiy xarakteristika, reja, chizma, model, algoritm ko’rinishida va h.k) lar orqali mujassamlashadi.

Qiziqish – bu insonning bilish jarayoni bilan bog’liq bo’lgan ehtiyojlarning hissiy namoyon bo’lishidir. Bizda qiziqish tug’dirgan narsa tezroq va mustahkamroq esda qoladi.

## H

Harbiy tarix - bu, urushlarning mazmuni, sabablari, xarakterlarini, ularni olib borish usul va vositalarini jamiyat xayotining ijtimoiy- iqtisodiy, siyosiy va moddiy-texnikaviy sharoitlari o’zgarishi bilan bog’liqlikda o’rganadigan fan.

«Harbiy san’at va urushlar tarixi» - insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiy san’atning mazmuni va xarakterini va ular rivojlanishining asosiy tendensiyalarini ochib beradi.

Davlatlararo, milliy va irqchilik to’qnaShuvlarini xalq etishda qurolning kuchi bosh argument bo’lib qoldi. Olimlarning ta’kidlashlaricha, oxirgi besh yarim ming yil ichida sayyoramizda 14 mingdan ortiq urushlar bo’lib o’tgan, ularda 4 milliarddan ortiq kishi xalok bo’lgan. Faqat XX asrning birinchi yarmida bo’lib o’tgan ikkita jaxon urushida 60 milliondan ortiq kishi qurbon bo’ldi, katta moddiy va ma’naviy boyliklar vayronaga aylandi.

Urushning ilmiy ta’rifi birinchi bo’lib nemis harbiy nazariyachisi Karl fon Klauzevits (1780-1831 y.) tomonidan berilgan. O’zining «Urush xaqida» asarida, «Urush nafaqat siyosiy akt, balki siyosatning xaqiqiy quroli xamdir, u siyosiy munosabatlarning davomi, bu munosabatlarni boshqa vositalar bilan olib borishdir»-deb yozgan edi u.

Hamkorlik pedagogikasi – bu hamkorlik pedagogik texnologiyasi. Ta’lim beruvchilar va oluvchilarning o’zaro muloqatiga asoslangan shaklda ta’lim berishga asoslangan tizim.

Halollik – axloqshunoslikning tushunchasi bo’lib, jamiyat a’zolari zimmasiga yuklatilgan axloqiy-huquqiy talablarni vijdonan bajarilishini anglatadi.

Harbiy ta’lim – bu qurolli kuchlar va qo’hin turlari uchun kadrlar tayyorlash jarayonini vujudga kelishi harbiy fan va harbiy san’at bilan bog’liq holda ro’y bergan.



Muayyan o'quv dasturini to'liq o'zlashtirgan va yakuniy davlat attestatsiyasini muvaffaqiyatli topshirgan kursantlarga «leytenant» ofitserlik unvoni hamdasohasiga tegishli oliy ma'lumotlarni tasdiqlovchidavleht namunasidagi diplom topshiriladi.

Harbiy o'quv yurti – bu harbiy ta'limni amalga oshiruvchi o'quv muassasasi bo'lib, unga qurolli kuchlarning barcha turlari, qo'shin turlari va maxsus qo'shinlar uchun kadrlar tayyorlovchi o'quv muassasalari kiradi.

Huquqiy madaniyat – keng tushuncha bo'lib, u huquqiy ongni o'zida qamragan holda, odamlarning qonunga munosabatlarini ifodalovchi qarashlari va e'tiqodlarida, ularning huquq haqidagi tasavvurlaridan intilishlari va tuyg'ularidan iboratdir.

Mehnat va ijtimoiy faoliyatda namoyon bo'ladigan bu xususiyatni o'zlashtirish, o'z burchi majburiyatlarini bilish mutaxassis va shaxs sifatidan ijtimoiy himoyalanihini ta'minlash, ishga joylashtirish va ish beruvchi bilan o'zaro munosabatlarini bo'lajak kasbiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qonunchilik asosida amalga oshirish demakdir.

Huquqiy ong – huquqiy anglash demakdir. Odamlarning ham amaldagi huquqiga hamda ularning o'zlari istagan huquqqa munosabatini ifoda etadigan tasavvur va his-tuyg'ularning mujassamidir. U tabiatan huquq bilan mushtarakdir va shu sababli mavjud iqtisodiy munosabatlarga nisbatan ikkilamchidir. Huquqiy ong jamiyatning, turli iqtisodiy va ijtimoiy guruhlarning ob'ektiv ravishda kelib chiqqan ehtiyojlari va manfaatlarining bevosita ta'sirida shakllanadi, o'zgarib turadigan ob'ektiv sharoitlar va jarayonlar ta'siri ostida doimiy rivojlanib boradi. Huquqiy ong ijtimoiy ongning bir qiqsmidir va shu sababli unga falsafiy mafkuraviy va siyosiy qarashlar ta'sir etib turadi.

**FANNI O‘ZLASHTIRISHDA QO‘LLANILADIGAN PEDAGOGIC  
 TEXNOLOGIYALAR  
 “Bumerang” metodi**

<b>Mavzular mazmuni (gimnastikaningqisqachatarixi) reja asosida asosiy ma’lumotlar kiritiladi</b>			
1	2	3	4

**Izoh:** Bu metod texnologiyasi tanqidiy fikrlash, mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi, xotirani g‘oyalarni, fikrlarni, dalillarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarni shakllantiradi.

**“SWOT-tahlil” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

**S – (strength)** – kuchli tomonlari

**W – (vveakness)** – zaif, kuchsiz tomonlari

**O – (opportunitu)** – imkoniyatlari

**T – (tnreat)** – to‘siqlar

S	Fanni o‘zlashtirishda uning samarali tomonlari	
W	Fanni o‘zlashtirishda uning kuchsiz tomonlari	
O	Fanni o‘qitishda uning imkoniyatlari (ichki)	
T	To‘siqlar (tashqi)	

## **“FSMU” metodi.**

**Texnologiyaning maqsadi:** Mazkur texnologiya ishtirokchilardagi umumiy fikrlardan xususiy xulosalar chiqarish, taqqoslash, qiyoslash orqali ma'lumotni o'zlashtirish, xulosalash, shuningdek, mustaqil ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyadan ma'ruza mashg'ulotlarida, mustahkamlashda, o'tilgan mavzuni so'rashda, uyga vazifa berishda hamda amaliy mashg'ulot natijalarini tahlil etishda foydalanish tavsiya etiladi.

### **Texnologiyani amalga oshirish tartibi:**

- qatnashchilarga mavzuga oid bo'lgan yakuniy xulosa yoki g'oya taklif etiladi;
- har bir ishtirokchiga FSMU texnologiyasining bosqichlari yozilgan qog'ozlarni tarqatiladi:

F – fikringizni bayon eting.

S – fikringizni bayoniga sabab ko'rsating.

M – ko'rsatgan sababingizni isbotlab misol keltiring.

U – fikringizni umumlashtiring.

- ishtirokchilarning munosabatlari individual yoki guruhiy tartibda taqdimot qilinadi.

FSMU tahlili qatnashchilarda kasbiy-nazariy bilimlarni amaliy mashqlar va mavjud tajribalar asosida tezroq va muvaffaqiyatli o'zlashtirilishiga asos bo'ladi.

## **Xulosalash» (Rezyume, Veyer) metodi.**

**Metodning maqsadi:** Bu metod murakkab, ko'ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo'yicha o'rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda talabalarning mustaqil g'oyalari, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Xulosalash” metodidan ma'ruza mashg'ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida, amaliy va seminar

mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

*Metodni amalga oshirish tartibi:*

- trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlariga ajratadi;
- trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammoni tahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;
- har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;
- navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, o‘qituvchi tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy ma‘lumotlar bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

### **“Assesment” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

“Assesment” lardan ma’ruza mashg‘ulotlarida tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma‘lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa, mavzu yoki ma‘lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

Test:	Qiyosiy tahlil:
-------	-----------------

Simptom:	Amaliy ko‘nikma:
----------	------------------

### “Insert” metodi.

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

#### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda tinglovchilar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma’lumot.			
“?” –mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“+” bu ma’lumot men uchun yangilik.			
“– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

## “Tushunchalar tahlili” metodi.

**Metodning maqsadi:** mazkur metod tinglovchilar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan o‘zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

**Namuna:** ..... ma’ruzasi uchun.

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma’noni anglatadi?	Qo‘shimcha ma’lumot
.....		

**Izoh:** Ikkinchi ustunchaga qatnashchilar tomonidan fikr bildiriladi. Mazkur tushunchalar haqida qo‘shimcha ma’lumot glossariyda keltirilgan.

### Venn Diagrammasi (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan).

**Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

### **Metodni amalga oshirish tartibi:**

- ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

- navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a‘zolarini tanishtiradilar;

- juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### **“Sinkveyn” metodi**

**Metodning maqsadi** – mazkur metod nafaqat matnning mazmunini o‘rganishga, matn mazmunini o‘zining shaxsiy tajribasi bilan bog‘lashga va o‘zlashtirgan axborot, g‘oya, yoki fikrlarga nisbatan o‘z munosabatini yozma ifoda etishga imkon beruvchi oddiy va samarali usul bo‘lib, talabalardagi shaxsiy pozitsiyani shakllantirishga yordam beradi.

### **Metodni o‘tkazish tartibi:**

- ish daftari vertikal chiziq bo‘yicha ikkiga bo‘linadi.

- chap tomonga talabalar mavzu yuzasidan unda taassurot uyg‘otgan, yoqqan yoki savol tug‘dirgan sitata, g‘oya yoki fikrlarini yozadi (masalan, juda aqlli ta‘rif, dalil yoki sabab va boshqalar).

- o‘ng tomonda keltirilgan sitata yoki fikrga o‘zining sharhlarini yozadi, ya‘ni o‘z munosabatini quyidagi yo‘nalishlarda bildiradi: Uni bu fikr yoki g‘oyaning nimasi qiziqitirdi va yozib olishga undadi? Bu nima haqda o‘ylashga majbur etdi? Bu fikr bo‘yicha u qanday savollarni o‘yladi?

- matnni o‘qiyotganida talabalar kerakli qo‘shimcha fikrlarni aniqlab, kundalikka yozib boradi.

- ish yakunlagandan so‘ng talabalar juftliklarda ishlashlari, tahlillarini almashishlari, o‘rtoqlari tahlilida ularga yoqqan fikrni muhokama etishlari va ko‘rsatishlari mumkin.

## Trenerga tavsiyalar

- Siz oldindan sitatalar yoki g‘oyalar sonini belgilab olishingiz mumkin (misol uchun, 2 ta, 4 yoki 5 tadan), - sitatalar mazmuni va yo‘nalishi mutaxassislik, fan yoki mavzuga mos bo‘lishi, kerak.

- Agarda siz ijtimoiy-tarbiyaviy mavzuda bu treningni o‘tkazmoqchi bo‘lsangiz g‘oyalar yoki sitatalar hayotiy-ijtimoiy mavzularda tanlanishi mumkin bo‘ladi. Bularning barchasi siz o‘z oldingizga qo‘ygan maqsadga va sizning pedagogik uslubingizga bog‘liq bo‘ladi.

- Ish shakllari:

- uchliklarda ishlash;

- kichik guruhlarda ishlash;

- blits-so‘rov – siz bir qator alabalardan faqat bitta sitatani va faqat birgina sharhni o‘qib berishni so‘raysiz;

- Fidbeyk.

Yakunlar munozara tayyorlash yoki o‘tkazish, insho yozish yoki asoslangan esse yozish uchun xizmat qilishi mumkin.

<b>FIKR (g‘oya, sitata, munosabat, xulosa va boshqa)</b>	<b>SHARH</b>

## “Brifing” metodi.

“Brifing”-(ing. briefing-qisqa) biror-bir masala yoki savolning muhokamasiga bag‘ishlangan qisqa press-konferensiya.

### O‘tkazish bosqichlari:

1. Taqdimot qismi.

2. Muhokama jarayoni (savol-javoblar asosida).



Brifinglardan trening yakunlarini tahlil qilishda foydalanish mumkin. Shuningdek, amaliy o'yinlarning bir shakli sifatida qatnashchilar bilan birga dolzarb mavzu yoki muammo muhokamasiga bag'ishlangan brifinglar tashkil etish mumkin bo'ladi.

### **“Zanjir” metodi**

Bu metod o'ragnilayotgan mavzuga taalluqliy so'zlarni o'z ichiga olib talabalarni fikrlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini mashg'ulot jarayonlarigayetaklaydi. Talabalarning bilimini baholanishi o'qituvchi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

#### **Na'muna:**

1. Taktika- avtomat- tank- kamandir- rota – .....
2. Taktik tayorgarlik – .....
3. Jihozlarda bajariladigan mashqlar – qo'shpoyada – .....

**Izoh:** Bu metod umumrivojlantiruvchi mashqlarga taalluqliy so'zlarni o'z ichiga olib talabalarni fikrlash faoliyatini tezlashtiradi, intellektual aqliy salohiyatini, taffakurini ishga soladi. Bevosita talabalar fikrini mashg'ulot jarayoniga hamda sport zallariga yetaklaydi.

### **«Agarda Men .....» metodi**

Agarda men .....

**Izox:** Bu metod interfaol texnologiya bo'lib, tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashning muvaffaqiyatlik rivojlantirishga hamda o'z g'oyalarini, fikrlarini yozma va og'zaki shaklda ixcham bayon etishiga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, har bir qatnashuvchining o'z fikrlari, o'zgalardan kutadigan tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi.

# TALABALAR BILIMINI MUSTAHKAMLASH UCHUN

## TEST SAVOLLARI

1. Harbiy tarix nechta davrga bo'linadi?

A. 2 davrga

B. 3 davrga

V.4 davrga

G. 5 davrga

D. 6 davrga

2. Quldorlik jamiyati sinfini kimlar tashkil qilgan?

A.Armiya

B.Qullar

V.Davlatlar

G.Hukmron sinflar

D. Hamma javoblar t'yg`ri

3. Quldorlik jamiyati armiyasini tuzishda qanday sistemadan foydalangan?

A.Doimiy bo'linmalardan

B.Ko'ngililardan

V.Qullardan

G.Xamma javob to'g`ri

D.\* Hamma javoblar t'yg`ri

4. Quldorlik jamiyati kimlar tashkil qilgan?

A.Nasl-nasabli urug`lar

B.Doimiy otryadlar

V.Nasl-nasabli urug`ning vakillari

G.Hamma javob to'g`ri

D.Hamma javoblar t'yg`ri

5. Quldorlik jamiyati davrida tabaqalardan tashkil topgan armiyalar qayerda rivojlangan?

A.\*Vavilon va Xindiston

B.Angliya va Frantsiya

V.Ispaniya va Italiya

G.Misr va Arabiston

D. Hamma javoblar t'yg`ri

6. Militsion sistemali quldorlik tizimida davlatining har bir fuqorasi armiya safida necha yil xizmat qilgan?

A.18 dan 60 Yoshgacha

B.17 dan 50 Yoshgacha

V.19 dan 55 Yoshgacha

G.Yoshligidan - qariguncha

D. Hamma javoblar t'yg`ri

7. YOllanma turdagi armiya qaysi mamlakatda birinchilardan bo`lib tashkil etilgan?

A.Gretsiya

B.Italiya

V.Misr

G.Vavilon

D. Hamma javoblar t'yg`ri

8. YOllanma armiya qismini kimlar tashkil qilgan?

A.Kambag`allar

B.Boshqa xalqlar

V.Zadagonlar

G.A va B javob to`g`ri

D. Hamma javoblar t'yg`ri

9. Quldorlik jamiyatida qanday qurollardan foydalanilgan?

A.Nayza, qilich;

B.Bolta, xanjar;

V.Otish nayzasi;

G. Kamon.

D.Hamma javoblar t'g'ri

10. Himoya vositasida nimalardan foydalangan?

A.Taxta

B.CHarm

V.Metall

G.Hamma javob to'g'ri

D.Hamma javoblar t'g'ri

11. Qurshovga olishda quldorchilik tizimida qanday qurollardan foydalangan?

A.Kamon

B.Taran

V.Nayza

G.Sopqon

D. Hamma javoblar t'g'ri

12. Shaharni dushmandan himoya qilishda quldorlik tizimida qanday to'siqdan foydanilgan?

A.Xandak qazilgan

B.Uyum bilan to'silgan

V.CHuqur qazilgan

G.Xamla ishlatilgan

D.Hamma javob to'g'ri

13. Quldorlik davrida qaysi davlat mustahkam himoyaga ega bo'lgan?

A.Misrliklar

B.Greklar

V.Makedonlar

G.Rimliklar

D.Hamma javob to'g'ri

14. Quldorlik tizimi davrida Rimlik ritsarlar yorib o'tishda qanday taktikadan foydalangan?

A.Taran

B.Ballist

V.Toshbaqa

G.Katapulta

D.Hamma javob to'g'ri

15. Quldorlik tizimida greklar armiyasining asosiy birligi qanday ko'rinishda bo'lgan?

A.Toshbaqa

B.O'rgimchak

V.CHayon

G.Ilon

D.Hamma javob to'g'ri

16. Qadimgi Gretsiyada nayzaning uzunligi necha metr bo'lgan?

A.2 metr

B.4 metr

V.6 metr

G. 5 metr

D.Hamma javob to'g'ri

17. Qadimgi Gretsiyada o'rgimchak qo'shini nechta lashkardan iborat edi?

A.6000 lashkardan

B.7000 lashkardan

V.8000 lashkardan

G. 9000 lashkardan

D.Hamma javob to'g'ri

18. Feodal davrida erga kimlar egallik qilgan?

A.Knyaz

B.Gertsog

V.Boyar

G.Graf

D.Hamma javob to'g'ri

19. Feodallar o'zlarining erlarini kimga ishonib topshirgan?

A.Vasallarga

B.Dvoryanlarga

V.Seniorlarga

G.Hamma javob to'g'ri

20. Feodallar sinfi kimning hisobiga yashagan?

A.Seniorlar va vasallar

B.Hunarmandlar

V.Dexqonlar

G.Dvoryanlar

D.Hamma javob to'g'ri

21. Feodalizm da ekspluatatsiya quroli nima xisoblangan?

A.Qullar

B.Armiya

V.Vasallar

G.Hamma javob to'g'ri

22. Feodal davlatlarning o'zaro urushi nima uchun olib borilgan?

A.Erlarni bosib olish

B.Xalqni ekspluatatsiya qilish

V.Xalqni talon-taroj qilish

G.Hamma javob to'g'ri

23. Feodallar armiyalarining tashkiliy shakllari o'zgarishiga nima omil bo'ldi?

A.Qurollarning takomillashishi

B.Harbiy harakat olib borish usuli

V.Moddiy texnika bazasi o'zgarishi

G.Hamma javob to'g'ri

24. Feodalizm davrida Rossiyada nechanchi asrdan doimiy qushinlar paydo bo'lgan?

A.15 asrdan

B.16 asrdan

V.17 asrdan

G.18 asrdan

25. Feodalizm davrida birinchi o'q otuvchi miltiqning og'irligi necha kg bo'lgan?

A.10kg

B.12kg

V.15kg

G.20kg

26. Feodalizm davrida birinchi o'q otar qurolining kalibri necha mm bo'lgan?

A.20 mm

B.25 mm

V.30 mm

G.40 mm

27. Feodalizm davlatlari armiyasi qanday qo'shinga ega bo'lgan?

A.Quriqlikdagi qo'shinlari

B.Harbiy dengiz floti

V.Piyoda va otliqlar

G.Hamma javob to'g'ri

28. Feodalizm davrida armiyaning tashkiliy tuzilishi qanday bo'lgan?

A.O'nliklar

B.Yuzboshi

V.Mingboshi

G.Hamma javob to'g'ri

29. Nemis-SHvedlar feodallariga qarshi Aleksandr Nevskiy qachon kurashgan?

A.1212 yil

B.1222 yil

V.1232 yil

G.1242 yil

30. Feodalizm davridan kapitalizm davriga o'tish nechanchi asrdan boshlangan?

A.17 asrdan

B.17 asr yarmidan

V.17 asr oxiridan

G.18 asrdan

31. Feodal jamiyatiga nima qatiq ta'sir ko'rsatgan?

A.1789-1794 yil Frantsuz burjuaziya inqilobi

B.18 asr oxiri Evropa mamlakati

V.18 asr yarmi krepostnoylik tizimi

G.Hamma javob to'g'ri

32. Krepostnoylik burjuaziya qachon yo'q qilingan?

A.17asr o'rtasi

B.11 asr oxiri

V.18 asr oxiri, 19 asr boshlari

G.18 asr yarmi



33. Kapitalizm davrida asosiy qarama-qarshi sinf kimlar bo'lgan?

A.Burjuaziya va proletariat

B.Feodalizm va kapitalizm

V.Ishchi va dexqon

G.Hamma javob to'g'ri

34. Burjuaziyaning rivojlanishiga nima omil bo'lgan ?

A.O'zgaralar erini tortib olish

B.YAngi bozor qurish

V.Xom ashyo bazasiga aylantirish

G.Hamma javob to'g'ri

35. Rossiyada va SHvetsiyada armiya tizimi kimlardan iborat edi?

A.Dexqon va shaxarliklardan

B.Dvoryan va Gertsoglardan

V.Burjuaziya va ishchilardan

G.Hamma javob to'g'ri

36. Rossiyada va SHvetsiya mamlakatlarida jamlangan armiya necha yil xizmat qilgan?

A.Umr bo'y

B.60 Yoshgacha

V.55Yoshgacha

G.45Yoshgacha

37. Armiya tizimi ishlab chiqilgan loyhaga asosan kapitalizm davrida necha yillik edi?

A.5-7 yilik

B.7-10 yilik

V.10-12 yilik

G.12-15 yilik

38. Kapitalizm davrida umumharbiy xizmat qanday tashkil qilingan barchani ommaviy armiyaga majbur etilgan

A.Umumiy xarbiy majburiyat asosida

B.Xohlovchilar

V.YOllanmachilar

G.Hamma javob to'g'ri

39.Burjuaziya doimiy amaldagi armiyasida, doimiy ravishda nimalarga ega bo'lgan?

A.Oddiy askar va yagona kiyim-kechak

B.Qo'mondonlik tarkibi

V.YAagona shtatli tuzilma

G.Hamma javob to'g'ri

40. Kapitalizm davrida Qurolli kuchlar tarkibida qanday qo'shinlar bor edi?

A.Quruqlikdagi qo'shinlar

B.Harbiy dengiz floti

V.Kavaleriya va artilleriya qo'shinlar

G.Hamma javob to'g'ri

41. Kapitalizm davrida polklarda qancha askar bor edi?

A.1200-1500 ta askar

B.1500-2000 ta askar

V.2000-2500 ta askar

G.3000 ta askar

42. Kapitalizm davrida piyoda askarlar polki nimalardan iborat edi?

A.Batalondan

B.Rota va vzvoddan

V.Kavaleriya va eskadronidan

G.Hamma javob to'g'ri

43. Urush davrida piyoda askarlar polklari 18 asr oxirida qanday bo'lingan?

A.Brigada

B.Diviziya

V.Eskadron

G.Hamma javob to'g'ri

44. Kapitalizm davrida jangovar kemalar turlarini ko'rsating?

A.Razvedka kema

B.Soqchilik kema

V.Tezyurar elkanli kema

G.Hamma javob to'g'ri

45. 18 asr oxirida o'q otar qurol qanchagacha otgan?

A.500m

B.600m

V.800m

G.1000m

46. Petr I kim bo'lgan?

A.Podshox

B.Knyaz

V.Imperator

G.Qirol

47. Buyuk sarkarda Suvorov generallisumis unvonini nima uchun olgan?

A.Shvetsiyani bosib olgani uchun

B.Qrimni ozod qilgani uchun

V.Alp tog'idan o'tib 8000 askar bilan 32 ming askarni taslim qilganligi uchun

G.Hamma javob to'g'ri

48. Kutuzov generallisumis unvonini kimlar bilan jang qilganda olgan?

A.Frantsiya

B.Italiya

V.Napoleon

G.SHvetsiya

49. Amir Temur qachon tug`ilgan?

A.09.04.1336 y

B.12.04.1336 y

V.16.04.1336 y

G.26.04.1336 y

50. Amir Temur kim bilan birikib Mo'g`illarga qarshi jang qilgan?

A.Amir Xusain

B.Said Baraka

V.Tug`luq Temur

G.Ilyosxo'ja

51. Amir Temur necha Yoshida taxtga o'tiradi?

A.30 Yoshida

B.33 Yoshida

V.34 Yoshida

G.35 Yoshida

52. Amir Temurning o'g`illari nechta?

A.3 ta

B.4 ta

V.5 ta

G.2 ta

53. Amir Temur nechta davlatni bosib olgan?

A.25 ta davlatni

B.30 ta davlatni

V.27 ta davlatni

G.32 ta davlatni

54. Mo'g'il bosqinchilari CHingizxon boshchiligida O'rta Osiyoga qachon bostirib kirdi?

A.1212 y

B.1216 y

V.1219 y

G.1221 y

55. Ikkinchi jahon urushi qachon boshlandi?

A.1.09.1939y

B.22.06.1941y

V.01.10.1939y

G.21.06.1941y

56. Ikkinchi jahon urushi sababchilari qaysi davlat?

A.Germaniya

B.Italiya

V.YAponiya

G.Hamma javob to'g'ri

57. Ikkinchi jahon urushi nechta davrga bo'linadi?

A.2 davrga

B.5 davrga

V.3 davrga

G.4 davrga

58. Ulug` Vatan urushi qachon boshlandi?

A.22 iyun 1941 yil

B.21 iyun 1941 yil

V.1 sentyabr 1939 yil

G.1 sentyabr 1941 yil

59. Ikkinchi jahon urushi qachon tugagan?

A.08.05.1945 y

B.09.05.1945 y

V.11.05.1945 y

G.02.09.1945 y

60. Ikkinchi jahon urushining asosiy tarkibini qaysa davlatlar urushi tashkil qilgan?

A.Germaniya-SSSR

B.Germaniya-Polsha

V.Germaniya-AQSH, Angliya va Frantsiya

G.Germaniya-YAponiya, SSSR

61. Germaniya Sobiq Ittifoqga qarshi qanday reja ishlab chiqqan?

A.Gitler

B.Barbarossa

V.Fantserfauz

G.Tigr

62. Fashistlar urush boshlanishida Sobiq Ittifoqga nechta diviziya jalb qildi?

A.190 ta diviziya

B.150 ta diviziya

V.200 ta diviziya

G.180 ta diviziya

63. Fashistlar nechta tank diviziyasi urish boshlanishida Sobiq Ittifoqga xujum qildi?

A.10ta tank diviziyasi

B.20ta tank diviziyasi

V.19ta tank diviziyasi

G.30 ta tank diviziyasi

64. Fashistlar nechta Sobiq Ittifoqga xujum qilganda motorlashtirilgan diviziya jalb etilgan?

A.10 ta motorlashtirilgan diviziya

B.12 ta motorlashtirilgan diviziya

V.13 ta motorlashtirilgan diviziya

G.14 ta motorlashtirilgan diviziya

65. Fashistlarning Sobiq Ittifoqga xujum qilganda nechta jangchisi bor edi?

A.5 500 000ta jangchi

B.5 000 000ta jangchi

V.4 000 000ta jangchi

G.6 000 000ta jangchi

66. Fashistlarning Sobiq Ittifoqga xujum qilgan vaqti, nechta qurol va minemyoti bor edi?

A.45 000 ta qurol va minemyot

B.46 000 ta qurol va minemyot

V.47 000 ta qurol va minemyot

G.48 000 ta qurol va minemyot

67.Sobiq Ittifoqga xujum qilgan vaqtda fashistlarning nechta samolyoti bor edi?

A.4 900ta samolyot

B.4 980ta samolyot

V.5 000ta samolyot

G.4 950ta samolyot

68. Sobiq Ittifoqga xujum qilgan vaqtda fashistlarning nechta tanki bor edi?

A.4 000ta tank

B.4 100ta tank

V.4 200ta tank

G.4 300ta tank

69. Fashizm Germaniya tomonidan Sobiq Ittifoqga ya`ni kimlar birikib xujum qildi?

A.Vengriya, Italiya

B.Ruminiya

V.Finlyandiya

G.Hamma javob to'g'ri

70. Sobiq Ittifoq birinchi qaxramoni kim bo'lgan?

A.Gasstelo

B.Matrosov

V.Eryigitov

G.Поктышкин

71. Moskva ostonasida jang qachon bo'lgan?

A.Sentyabr 1941y

B.Oktyabr 1941y

V.Avgust 1941y

G.Iyul 1941y

72. Sobiq Ittifoqning qaxromon qalasining nomi nima?

A.Kiev

B.Minsk

V.Brest

G.Stalingrad

73. Sobiq Ittifoqning birinchi qaxromon shaxarlari qaysi shaxar?

A.Kiev



B.Odessa

V.Minsk

G.Hamma javob to'g'ri

74. Ikkinchi jahon urushida nemislar qaerda katta talofatga uchragan?

A.Moskva ostonasi

B.Brest qa`lasi

V.Stalingrad

G.Hamma javob to'g'ri

75. Dushman Moskva ostonasi jangida nechta diviziyasidan ayrilgan?

A.40ta diviziyasidan ayrilgan

B.50ta diviziyasidan ayrilgan

V.60ta diviziyasidan ayrilgan

G.70ta diviziyasidan ayrilgan

76. Gitlerchilar Moskva ostonasi jangida nechta jangchi yo'qotdi?

A.530 000ta jangchi

B.630 000ta jangchi

V.730 000ta jangchi

G.830 000ta jangchi

77. Germaniya qo'mondonligi 1941yil dekabrda 1942yil maygacha janubiy frontga nechta qo'shin o'tkazdi?

A.39 diviziya

B.6 qo'shilma

V.800mingta askar

G.Hamma javob to'g'ri

78. Fashistlar bilan urushda o'zining ko'ragini birinchi bo'lib dzodga qo'ygan kishi qaysi qaxramon jangchi edi?

A.To'ychi Eryigitov

B.Aleksandr Matrosov

V.Aleksey Kojedub

G.Aleksey Meraseev

79. Nemislarga «Ittifoqchilar» ya`ni qarshi bo`lgan davlatlar qaysi qatorda to`g`ri ko`rsatilgan?

A.AQSH

B.Angliya

V.Sobiq Ittifoq

G.Hamma javob to`g`ri

80. Urush vaqtida AQSH prizidenti kim edi?

A.Abraam Linkoln

B.Djek London

V.Teodor Ruzveld

G.Jon Kenedi

81. Angliya bosh vaziri 2-Jahon urushi davrida kim edi?

A.Toni Bler

B.Elton Jon

V.Frank Jekson

G.Uinniston CHerchil

82. Ikkinchi jahon urushida Sobiq Ittifoqning Qurolli Kuchlar qo`mondoni kim edi?

A.Voroshilov

B.Stalin

V.Jukov

G.Vasilevskiy

83. General Panfilovning 28 kishidan iborat divizioni nemislarning nechta tankini yakson qilgan?

A.30ta tankini

B.35ta tankini

V.40ta tankini

G.50ta tankini

84. Germaniya tepasiga Fashistlar nechanchi yilda kelgan?

A) 1930 y

B) 1933 y

V) 1937 y

G) 1939 y

85. Fashistlarning niyati nima edi?

A. Birinchi Jaxon urushidagi mag'lubiyatdan o'ch olish

B. Dunyoda yagona irq yaratish

V. O'zining azaliy raqiblarini tor-mor etish

G. Hamma javob to'g'ri

86. Ikkinchi jahon urushi necha yil davom etdi?

A. 6 yil

B. 5 yil

V. 4 yil

G. 7 yil

87. Ikkinchi jahon urushida nechta mamlakat urushda qatnashgan?

A. 40ta mamlakat

B. 50ta mamlakat

V. 60ta mamlakat

G. 45ta mamlakat

88. Fashistlar Italiyasini taslim qilishda bosh rolni kim bajardi va nechanchi yili?

A. 1943 y AQSH va Angliya

B. 1944 y Sobiq Ittifoq

V. 1944 y Frantsiya

G. Hamma javob to'g'ri

89. Ikkinchi jahon urushida qancha O'zbekistonlik jangchi ishtirok edi?

A.1 000 000 ta jangchi

B.1 200 000 ta jangchi

V.1 400 000 ta jangchi

G.1 500 000 ta jangchi

90. Ikkinchi jahon urushida qancha O'zbekistonlik jangchi qaxramon unvonini olgan?

A.318 ta jangchi

B.328 ta jangchi

V.350 ta jangchi

G.338 ta jangchi

91. Ikkinchi jahon urushida qancha O'zbekistonlik jangchi xalok bo'ldi?

A.400 000 ta jangchi

B.500 000 ta jangchi

V.550 000 ta jangchi

G.600 000 ta jangchi

92. Ikkinchi jahon urushida nechta O'zbekistonlik jangchi nogiron bo'lgan?

A.40 000 ta jangchi

B.50 000 ta jangchi

V.60 000 ta jangchi

G.70 000 ta jangchi

93. Ikkinchi jahon urushi yillari nechta O'zbekistonlik jangchi orden va jangovar medallar bilan taqdirlangan?

A.100 000 ta jangchi

B.110 000 ta jangchi

V.120 000 ta jangchi

G.130 000 ta jangchi

94. Ikkinchi jahon urushida qaxramon unvonini olgan o'zbek generalini ko'rsating?

A.S.Raximov

B.A.Botirov

V.Q.Zokirov

G.V.Maxmudov

95. Ikkinchi jahon urushida eng ahamiyatli jang qaysi jang xisoblanadi?

A.Moskva ostanasidagi

B.Stalingrad jangi

V.Kursk jangi

G.Hamma javob to'g'ri

96. Ikkinchi jahon urushi vaqtida 1942 yil noyabr oyida fashistlar nechta diviziyaga ega edi?

A.200 ta

B.190 ta

V.266 ta

G.250 ta

97. Noyabr oyida fashistlarning nechta jangchisi bor edi?

A.6 000 000 ta jangchi

B.6 200 000 ta jangchi

V.6 600 000 ta jangchi

G.5 500 000 ta jangchi

98. 1942 yili nemislarda qancha zambarak va minomyot bor edi?

A.50 800 ta zambarak va minomyot

B.51 800 ta zambarak va minomyot

V.51 680 ta zambarak va minomyot

G.51 780 ta zambarak va minomyot

99. 1942 yili nemislarda qancha tanki bor edi?

A.4500 tanki

B.5080 tanki

V.5000 tanki

G.5500 tanki

100. 1942 yili nemislarda qancha jangovar samolyot bor edi?

A.3000 samolyot

B.3200 samolyot

V.3300 samolyot

G.3500 samolyot

101. 1942 yili Sobiq Ittifoqning nechta jangchisi bor edi?

A.6 000 000 ta jangchi

\B.6 200 000 ta jangchi

V.6 500 000 ta jangchi

G.6 600 000 ta jangchi

102. 1942 yili Sobiq Ittifoq armiyasining nechta zambarak va minamyotlari bor edi?

A.77 000 ta zambarak va minamyot

B.77 500 ta zambarak va minamyot

V.77 850 ta zambarak va minamyot

G.77 800 ta zambarak va minamyot

103. 1942 yili Sobiq Ittifoq armiyasining nechta tanki bor edi?

A.7 000 ta tanki

B.7 200 ta tank

V.7 300 ta tank

G.7 350 ta tank

104. 1942 yili Sobiq Ittifoq armiyasining nechta jangovar samolyoti bor edi?

A.4 500 ta jangovar samolyot

B.4 544 ta jangovar samolyot

V.4 550 ta jangovar samolyot

G.4 554 ta jangovar samolyot

#### JAVOBLAR

1.A	21. B	41.A	61.B	81.G	101.G
2.G	22.G	42.G	62.A	82.B	102.G
3.D	23.G	43.G	63.V	83.G	103. G
4.D	24.B	44.V	64.G	84.B	104.B
5.V	25.V.	45.V	65.A	85.G	
6.G	26.G	46.V	66.V	86.A	
7.A	27.G	47.V	67.B	87. V	
8.G	28.G	48.V	68. G	88.A	
9.D	29.G	49.A	69.G	89.B	
10.D	30.B	50.A	70.A	91.A	
11.B.	31.A	51.V	71.B	92. V	
12.D	32.V	52.B	72. V	93. V	
13.G	33.A	53.V	73.V	94. A	
14.V	34.G	54.V	74.V	95.G	
15.B	35.A	55.A	75.B	96. G	
16.D	36.A	56.G	76. G	97.V	
17.D	37.A	57.B	77.G	98.B	
18.D	38.A	58.A	78.B	99. B	
19.G	39.G	59.G	79. G	100. G	
20.D	40.G	60.A	80.V	101.G	

# XULOSA



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 76 b.
2. O‘zbekiston Respublikasining Ta'lim to‘g‘risida Qonuni G‘G’ Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 2-29.
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida G‘G’ Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 31-61.
4. Karimov I. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B. 261.
5. Karimov I.A. O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B.76.
6. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 1996. – B.39.
7. Karimov I. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 326 b.
8. Karimov I. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. G‘G’ Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida. T. 6. – Toshkent: O‘zbekiston, 1998. – 325 b.
9. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q G’ Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T. 7. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – 393 b. – B. 130-141.
10. Karimov I. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. T.7. –Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 84-85.
11. Karimov I. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni –xalq, millatni millat qilishga xizmat qilsin. T. 7. – Toshkent: O‘zbekiston, 1999. – B. 80-96.
12. Karimov I. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
13. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
14. Karimov I.A Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2015. – 304 b.
15. Mirziyoev Sh. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birga barpo etamiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2016. – 56 b.

- 16.** Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo’lishi kerak. (Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo’ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo’nalishlariga bag’ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza. 2017 yil 14 yanvar). – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – 104 b.
- 17.** Mirziyoev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O’zbekiston, 2017. – 488 b.
- 18.** Mirziyoev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan soha vakillariga tabrigi. (26.07.2017) Elektron resurs: [http://uza.uz/oz/politics/matbuot va ommaviy akhborot vositalari khodimlariga 27-06 2017](http://uza.uz/oz/politics/matbuot_va_ommaviy_akhborot_vositalari_khodimlariga_27-06_2017) Murojaat qilingan sana: 28.07.2017.
- 19.** Mirziyoev Sh. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo’lida yanada hamjihat bo’lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzusidagi anjumanda so’zlagan nutqi // Xalq so’zi. – Toshkent, 2017. – № 119(6813) – B.2.
- 20.** Mirziyoev Sh. Qurolli Kuchlarimiz – mamlakatimiz barqarorligi va taraqqiyotining mustahkam kafolatidir / O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Xavfsizlik kengashining kengaytirilgan tarkibdagi majlisidagi nutqi – Elektron resurs: [http://uza.uz/oz/politics/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-bar-arorligi-va-tara-iyetini-11-01-2018?sphrase\\_idq4108356](http://uza.uz/oz/politics/urolli-kuchlarimiz-mamlakatimiz-bar-arorligi-va-tara-iyetini-11-01-2018?sphrase_idq4108356). Murojaat qilingan sana: 12.01.2018.
- 21.** O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmoniga sharh // Xalq so’zi. – Toshkent, 2017. № 28(6722). – B.2.
- 22.** Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash kontseptsiyasini tasdiqlash to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi 140-son qarori. Elektron resurs: [http:// lex.uz](http://lex.uz) Murojaat qilingan sana: 12.05.2018.

- 23.** O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy ta'lim muassasalariga tanlash tartibi va qabul qilish qoidalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 141-son Qarori. 2014 yil 3 iyun.
- 24.** Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-406-son Qonuni. 2016 yil 14 sentyabr // Xalq so'zi. – Toshkent, 2016. – № 182 (6617). – B. 1-2.
- 25.** Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining O'RQ-419-son Qonuni. 2017 yil 3 yanvar // Xalq so'zi.–Toshkent, 2017. –№ 2 (6696). – B. 1-2.
- 26.** “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyun N PQ-3775-son Qarori // Elektron resurs: qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)) 2018 yil 6 iyun // Xalq so'zi, 2018 yil 6 iyun
- 27.** Arifxodjaeva. I.X. Ichki ishlar idoralari xodimlari faoliyati psixologiyasi. Toshkent-2008 y.
- 28.** Akramova Sh.A. Harbiy pedagogika -Harbiy pedagogika. Oliy harbiy ta'lim muassasalari kursantlari uchun darslik. - Toshkent: O'zR MG HTI, 2018 y. - 311 b.
- 29.** Barabanhikov.A.V, Deryugin.P.P. Voyenno-pedagogicheskaya diagnostika: (teoriya, opo't, prblema).-M.: GAVS, 1995.108 s.
- 30.** Loginov I. Refleksivnaya kultura voennogo rukovoditelya.-M.,2001 Pedagogika (qo'llanma A.Munavvarov taxriri ostida) T. “O'qituvchi”. 1996.
- 31.** Ikramov. Voennaya istoriya. – T.: «TGPU», 2001, 23.
- 32.** M.Yu.Sa'dullaev va boshqalar. Harbiy tarix. T.: 2005. 118 bet.
- 33.** Q.Usmonov O'zbekiston tarixi. I qism T.:“O`AJBNT” 2002. – 280 b.
- 34.** Harbiy tarix ( O'quv qo'llanma) «TGPU», 2017
- 35.** N.Oblomurodov “O'zbekiston tarixi” TDPU. O'quv qo'llanma T.:2011.
- 36.** R.X.Murtazaeva “O'zbekiston tarixi” O'quv qo'llanma I qism. T.: 2003.
- 37.** Kochkarov.A.K., Sotvoldiev. A.YU., Durmenov.SH.N. O'quv qo'llanma Harbiy tarix T.: 2017

- 38.**Quronov M. Milliy tarbiya. Monografiya. – Toshkent: Ma'naviyat, 2007. – 240b.
- 39.**Babanskiy Yu.K. Pedagogika: Ucheb. posobie. – M.: Prosvehenie, 1999. – 356 s.
- 40.** Muslimov.N.A. Harbiy ta'lim o'qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Ped. fanl. dokt. ... diss. T.: 2007. – 349 b.
- 41.**Ochildiev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. – Toshkent: Muharrir, 2009. – 95 b.
- 42.**Rayimov Sh.K. Oliy o'quv yurti talabalarida ogohlik va fidoiylilik madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari.: Ped. f. n. ... diss. avtoref. – Toshkent: O'zMU, 2007. – 19 b.
- 43.**Rean A.A., Kolominskiy Ya.L. Sotsialnaya pedagogicheskaya psixologiya. – Sankt-Peterburg: Piter, 1999. – 216 s.
- 44.**Xasanboev J., To'raqulov X., Xaydarov M.E., Xasanbaeva O.U. Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: Fan, 2006. – 238 b.
- 45.**Xoshimov K. Nishonova S. Pedagogika tarixi. Darslik. – Toshkent: O'qituvchi, 2005. – 374 b.
- 46.**Erkaev A. Milliy g'oya va ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2002. – 240 b.
- 47.**Qurbonov Sh., Seytxalilov E. va boshq. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondashuvlar (Kadrlar tayyorlash milliy dasturi vazifalari doirasida). – Toshkent: Akademiya, 2002. – 279 b.
- 48.**Quronov M., Akramova Sh., To'raev Sh. Bozorov O. Milliy tarbiya va Yoshlar. Monografiya. – Toshkent: Kamalak, 2016. – 112 b.
- 49.**Maxmudov R.M. Beknazarov A.A. Ichki ishlar idoralarida boshqaruv psixologiyasi. T., 2013 y
- 50.**O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Konimex. T. 5. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2003. – 704 b.
- 51.**O'zbek pedagogikasi tarixi (qo'llanma prof. A.Zunnunov taxriri ostida). T. "O'qituvchi". 1997.

## MUNDARIJA

1.	KIRISH	5
2.	I BOB. HARBIY TARIX O‘QUV FAN SIFATIDA	7
3.	1.1. Insoniyat tarixining turli xil davrlaridagi urushlar va harbiy san’atning mazmuni va xarakteri.	7
4.	1.2. Materiarxat (onalik) urug‘chilik davrida ilk harbiy tayyorgarlikni rivojlanish xususiyatlari.	33
5.	1.3. Patriarxat ( otalik urug‘chilik) davrida harbiy tayyorgarlikni rivojlanish xususiyatlari.	36
6.	II BOB. QADIMGI DUNYO XALQLARINING HARBIY SAN’ATI TARIXI QULDORLIK VA FEODALIZM JAMIYATI URUSHLARI	44
7.	2.1. Qadimgi Sharq davlatlarining harbiy san’ati	44
8.	2.2. Urug‘chilik tuzumining yemirilishi va quldorlik munosabatlarining tug‘ilib kelishida qadimgi Gretsiyada harbiy san’ati	47
9.	2.3. Sparta tizimida harbiy tayyorgarlikni rivojlanishi	48
10.	2.4. Afina tizimida harbiy quldorlik polislari	50
11.	2.5. Qadimgi Yunoniston harbiy tayyorgarlikni rivojlanishi	52
12.	2.6. Marafon jangi	58
13.	2.7. Peloponnes urushida harbiy san’atning rivojlanishi (Miloddan avvalgi 431-404 y.).	62
14.	2.8. Levktra jangi	65
15.	2.9. Qadimgi Misrning harbiy san’ati	66
16.	2.10. Qadimgi Xitoy va uning birlashuvi	80
17.	2.11. Makedoniya armiyasining tarkibi	87
18.	2.12. Miloddan avvalgi 334 yildagi Granik daryosi buyidagi jang	89
19.	2.13. Miloddan avvalgi 333 yildagi Issa yaqinidagi jang	91
20.	2.14. Miloddan avvalgi 331 yildagi Gavgamela jangi	92
21.	2.15. Makedoniyalik Iskandarning O‘rta Osiyo va Hindistonga qilgan yurishi.	93
22.	2.16. Miloddan avvalgi 326 yildagi Gidasp daryosi bo‘yidagi jang	95
23.	III BOB. QADIMGI RIMDA HARBIY TAYORGARLIK	100
24.	3.1. Qadimgi Rimning harbiy san’atini rivojlanishi	100
25.	3.2. Mariya islohati davrida harbiy va jismoniy tayyorgarlik	101
26.	3.3. Glad qatorlar maktablarining tashkil etilishi	103
27.	3.4. Imperatorlik davri	104
28.	3.5. Rim lagerining rejasi	111
29.	3.6. Miloddan avvalgi 218-201 yillardagi Ikkinchi Puni urushi	113
30.	3.7. Miloddan avvalgi 217 yildagi Trazimen ko‘li bo‘yidagi jang	115
31.	3.8. Miloddan avvalgi 216 yildagi Kanna jangi	117
32.	3.9. Parfiya miloddan avvalgi III asrdan-milodiy III asrgacha	123
33.	3.10. Mark Krassning Parfiyaga yurishi va Miloddan avvalgi 53 yildagi Karri jangi	125
34.	IV BOB. QADIMGI O‘RTA OSIYO XALQLARINING HARBIY TARIXI	136
35.	4.1. Qadimgi O‘rta Osiyo xalqlarining qurol-yarog‘lari va jang olib	136

	borish taktikasi	
36.	4.2. Miloddan avvalgi I asr Orlat, Samarqand viloyati	148
37.	4.3. Turk xoqonligi va ilk o'rta asrlar davridagi O'rta Osiyo davlatlarining harbiy ishlarida o'tkazilgan islohotlar.	153
38.	4.4. So'g'd jangchilarining yakkama-yakka kurashi. Kulagish qishlog'idan topilgan kumush lagan, VII asr.	156
39.	V BOB. O'RTA ASRLARDA HARBIY MADANIYATNI RIVOJLANISHI	158
40.	5.1. Ilk taraqqiy etgan feodalizm davrida harbiy madaniyatni rivojlanishi.	158
41.	5.2. Ilk feodalizm davrida harbiy va jismoniy tayyorgarlik.	159
42.	5.3. Taraqqiy etgan feodalizm davrida harbiy janglar.	162
43.	5.4. Feodallar harbiy-jismoniy madaniyati.	163
44.	VI-BOB. XALQ QO'SHINLARINING HARBIY JISMONIY TAYYORGARLIGI	171
45.	6.1. Jaloliddin Manguberding harbiy yurishlari	171
46.	6.2. Zaxiriddin Muhammad Bobur, (1453-1530-yillar)	174
47.	6.3. Amir Temurning harbiy san'ati(1336.9.04-1405.18.02)	178
48.	6.4. Amir Temur davlati, armiyasining yaratilishi va tashkiliy tizimi.	183
49.	6.5. Amir Temur qo'shini jangovar tartibining tuzilish chizmasi	196
50.	6.6. Amir Temurning asosiy harbiy yurishlarida harbiy san'atning rivojlanishi. Sohibqironning sarkardalik san'ati	207
51.	VII- BOB BIRINCHI JAHON URUSHI	231
52.	7.1. Urushning boshlanishi. 1914 yil kampaniyasi. Germaniyaning yashindek tez urush olib borish rejasining barbod bo'lishi. Birinchi jahon urushining sabablari.	231
53.	7.2. Germaniya korpusining tashkiliy tarkibi	234
54.	7.3. Birinchi jahon urushi boshida mudofaa qurilishi chizmasi.	237
55.	7.4. Sharqiy frontdagi operatsiyalar.	242
56.	7.5. 1914 yil kampaniyasida harbiy san'at rivojlanishining asosiy xususiyatlari.	246
57.	7.6. 1915 yil kampaniyasi. Germaniyaning Sharqdagi hujumi.	248
58.	7.7. 1915 yil kampaniyasida harbiy san'at rivojlanishining asosiy o'ziga xos belgilari.	256
59.	7.8. 1916 yil kampaniyasi. Pozitsion urushda tomonlarning o'zaro kuchsizlanishi.	258
60.	7.9. 1916 yil 21 fevraldan-18 dekabrgacha bo'lib o'tgan Verden operatsiyasi	260
61.	7.10. 1916 yil 1 iyuldan-18 noyabrgacha davom etgan Somma operatsiyasi	263
62.	7.11. 1916 yil yozida Janubiy-G'arbiy front tomonidan Avstriya-Germaniya pozitsiyalarining yorib o'tilishi	268
63.	7.12. 1917 yil kampaniyasidagi harbiy san'at rivojlanishining asosiy o'ziga xos belgilari.	270
64.	7.13. Germaniya batalonining jangovar tartibi	271

65.	7.14. Birinchi jahon urushining 1917-1918 yillar kampaniyasi. Germaniyaning magʻlubiyati va urushning tugashi.	272
66.	7.15. Gʻarbiy Yevropa urush teatridagi 1917 yil kampaniyasi.	277
67.	7.16. 1917 yil kampaniyasida harbiy sanʻat rivojlanishining asosiy oʻziga xos belgilari.	283
68.	7.17. 1918 yil kampaniyasi. Germaniyaning magʻlubiyati va birinchi jahon urushining tugashi	287
69.	VIII BOB. BIRINCHI JAHON URUSHI DAVRIDA HARBIY SANʻATNI RIVOJLANISHI	303
70.	8.1. Birinchi jahon urushi davrida harbiy sanʻat rivojining asosiy oʻziga xos belgilari.	303
71.	8.2. Yangi jangovar vositalarning yaratilishi	309
72.	XIX – BOB IKKINCHI JAHON URUSHI HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR (1939-1945yy.)	311
73.	9.1. Ikkinchi jahon urushining boshlanishi. Fashistlar tajovuzini qaytarish va urushdagi vaziyatni tubdan oʻzgarishga sharoit yaratilishi(iyun 1941y. – noyabr 1942-y.).	311
74.	9.2. Ikkinchi jahon urushining birinchi davridagi jangovar harakatlarning olib borilishi.	312
75.	9.3. Ikkinchi jahon urushining davrlarga boʻlinishi	313
76.	9.4. Urushdagi vaziyatni tubdan oʻzgarishga sharoit yaratilishi..	315
77.	9.5. Ittifoq Armiyasining Moskva ostonalaridagi qarshi hujumi (1941-5- dekabr – 1942- y. 7- yanvar)	318
78.	9.6. 1940-yil may-iyun oylaridagi gʻarbiy Yevropadagi jangovar harakatlar, ularning natijalari va xulosalar.	320
79.	9.7. Germaniyaning Gʻarbiy Yevropa davlatlariga bostirib kirishi	320
80.	9.8. Germaniyaning Angliyaga qarshi kurashi.	323
81.	9.9. Germaniyaning Bolqonga bostirib kirishi.	324
82.	9.10. Germaniyaning sobiq ittifoqga qarshi urush rejasi, qoʻshinlarning strategik joylashishi. Ittifoq qoʻshinlarining urushgacha holati va guruhlari.	326
83.	9.11. Germaniyaning Sobiq ittifoqga bostirib kirishi. Urushning birinchi davrida harbiy harakatlarning olib borilishi.	328
84.	9.12. 1941 yilning yozida ittifoq armiyasining mudofaa janglari.	330
85.	9.13. Moskva ostonalaridagi janglar (1941- y. sentyabr-1941- y.5 dekabr)	335
86.	9.14. Sobiq ittifoq qoʻshinlarining umumiy hujumlari (1942- y.8.01.-20.04.)	339
87.	9.15. Sobiq ittifoq qoʻshinlarining Stalingrad ostonalaridagi qarshi hujumi.	342
88.	9.16. Kursk jangi. Kuchlar gruppirovkalari va tomonlar rejasi. Sobiq ittifoq qoʻshinlarining Kursk yoʻnalishidag imudofaa janglari.	344
89.	9.17. Sobiq ittifoq qoʻshinlarining Kursk ostonalaridagi qarshi hujumi.	346
90.	9.18. Fashist bosqinchilarini sobiq ittifoqini hududlaridan quvib chiqarilishi.	349
91.	9.19. Oʻzbekiston xalqining fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan	363

	g'alabaga qo'shgan xissasi.	
92.	9.20. Ittifoqchilarning O'rta Yer dengizi harbiy xarakterli harakatlar teatridagi harbiy harakatlar (1940-1943 y.)	366
93.	9.21. «TORCH» operatsiyasi va Shimoliy Afrikada jangovar harakatlarning tugatilishi.	370
94.	9.22. G'arbiy Yevropa harbiy harakatlar teatridagi jangovar harakatlar (1944-1945 y.).	372
95.	9.23. Ittifoqchilar armiyalarining Fransiya ichkarisidagi hujumlari.	374
96.	9.24. Sobiq ittifoqning Yaponiyaga qarshi urush boshlashining sabablari.	381
97.	X – BOB. MUDOFAA JANGI, UNING IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	397
98.	10.1. Mudofaaga o'tish shartlari.	397
99.	10.2. Bo'linmalarning jangovar vazifalari.	398
100.	10.3. Jangovar tartibi haqida	399
101.	10.4. O't ochish tizimining rivojlanishi	402
102.	10.5. Tankka qarshi mudofaasining rivojlanishi	405
103.	10.6. Mudofaani tashkil etish	407
104.	XI.BOB. HARBIY BOSHQARUVNI TASHKIL ETISH	409
105.	11.1 Mudofaa jangining olib borishi	409
106.	XII – BOB HAJUMKOR JANG, UNING IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRIDAGI MUAMMOLARI VA ULARNI HAL ETISH YO'LLARI	414
107.	12.1. 1941-1945 yillardagi urush yillarida va arafasida hujumkor jang jangning asosiy turi ekanligi.	414
108.	12.2. Bo'linmalar Jangovar vazifalarining o'zgarishi, jangavor tartiblarning rivojlanishi va taktik zichlikning oshirishi.	414
109.	12.3. Piyodalarni bevosita qo'llab- quvvatlash.	418
110.	12.4. Hujumni tayyorlanishi	419
111.	12.5. Dushman mudofaasini yorib o'tishda yuqori sur'atlarga erishish.	426
112.	12.6. Dushmanni taqib etish.	428
113.	12.7. Erishilgan marrada mustahkamlanish	429
114.	XIII– BOB MAHALLIY URUSHLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHALAR	431
115.	13.1. Mahalliy (lokal) urushlarning harbiy-siyosiy harakteristikasi.	431
116.	13.2. Yirik mahalliy urushlarning sharhi 1956-yildagi Misrdagi urush.	432
117.	13.3. Arab davlatlariga qarshi Isroil agressiyasi (1967 y.)	433
118.	13.4. Arab-Isroil urushi (1973 yil 6-25 oktyabr).	434
119.	13.5. Mahalliy (lokal) urushlardagi taktik harakatlarni harakteristikasi: Sobiq ittifoq-Afg'oniston 1979-1989yy	436
120.	XIV – BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLI KUCHLARINING YARATILISHI	438
121.	14.1. Mustaqillikdan so'ng O'zbekistonda Qurolli Kuchlarni	439



	rivojlanishi	
122.	14.2. Qurolli kuchlarni tashkiliy-shtat tizimidagi o`zgarishlar	440
123.	14.3. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarda o`tkaziladigan islohatlarning davrlarga bo`linishi.	443
124.	14.4. Quruqlikdagi qo'shinlar	444
125.	14.5. Qurolli Kuchlar yaratilishining qonuniy negizlari.	450
126.	ILOVALAR	452
127.	XULOSA	544
128.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	545

## Содержание

1.	Введение	5
2.	Раздел. Военная история в качестве учебного предмета	7
3.	1.1. Характер и суть военного искусство и войн в разные периоды истории человечества	7
4.	1.2. Свойство развития начальной военной подготовки в период матриархата	33
5.	1.3 Свойства развития военной подготовки в период патриархата	36
6.	Раздел. История военного искусства древних народов мира и войны рабовладельческих и формальных общин	44
7.	2.1. Военное искусство древних Восточных стран	44
8.	2.2. Распад системы посева и рождения рабовладельческой отношений в Древней Греции боевое искусство	47
9.	2.3. Развитие военной подготовки в системе Спарты	48
10.	2.4. Полисы военной рабовладельческой системы Афины	50
11.	2.5. Развитие военной подготовки в Древней Греции	52
12.	2.6. Битва Марафона	58
13.	2.7. Развитие военной подготовки в войне Пелопоннес	62
14.	2.8. Война Левктры	65
15.	2.9. Военное искусство древнего Египта	66
16.	2.10. Древний Китай и его объединение	80
17.	2.11. Состав армии Македонии	87
18.	2.12. Битва у реки Граник в 334 г до н.э.	89
19.	2.13. Битва при Иссе в 333 г до н.э.	91
20.	2.14. Битва при Гавгамеле в 331 г до н.э.	92
21.	2.15. Поход Александра Македонского в Центральную Азию и Индию	93
22.	2.16. Битва возле реки Гидасп в 326 г до н.э.	95
23.	Раздел. Военная подготовка в Древнем Риме	100
24.	3.1. Развитие военного искусства Древнего Рима	100
25.	3.2. Военная и физическая подготовка в период реформы Марии	101
26.	3.3. Образование школ Гладских рядов	103
27.	3.4. Период императорства	104
28.	3.5. План Римского лагеря	111
29.	3.6. Вторая война Пуни в 218-201гг. до н. э.	113
30.	3.7. Битва возле озера Тиризимен в 217 г до н.э.	115
31.	3.8. Битва Канны в 216 г до н. э.	117
32.	3.9. Парфия в III до н. э. – III н. э. вв	123
33.	3.10. Поход Марка Красса в Парфию и битва Карри в 53 г. до н.э.	125
34.	IV. Раздел. Военная история Древних Среднеазиатских народов	136
35.	4.1. Тактика ведения войны и армия Древних Среднеазиатских стран	136
36.	4.2. Самаркандская область, Орлат в I в. до н.э.	148
37.	4.3. Тюркское ханство и реформы, проведенные в военных делах в странах Средней Азии в период начала средневековья	153

38.	4.4. Одиночная борьба Согдийских воинов. Серебряное Блюдце, найденное в деревне Кулагиш в VII в.	156
39.	V. Раздел. Развитие военной культуры в Средние века.	158
40.	5.1. Развитие военной культуры в период первоначального Феодализма.	158
41.	5.2. Военная и физическая подготовка в период первоначального Феодализма.	159
42.	5.3. Военные действия в период развитого феодализма	162
43.	5.4. Военно-физическая культура феодалов	163
44.	VI. Раздел. Военно-физическая подготовка народных войск	171
45.	6.1. Военные походы Джалалиддина Мангуберди	171
46.	6.2. Захриддин Муххаммад Бобур (1453 – 1530 гг)	174
47.	6.3. Военное искусство Амира Темура	178
48.	6.4. Государство Амира Темура, создание армии и система организации	183
49.	6.5. Схема создания боевого строя войска Амира Темура	196
50.	6.6. Развитие военного искусства в основных военных походах Амира Темура. Искусство полководства Сакибкирана	207
51.	VII. Раздел. Первая Мировая война	231
52.	7.1. Начало Войны. Кампания 1914 года. Провал немецкого плана быстрого нападения. Причины Первой Мировой Войны	231
53.	7.2. Чертеж строительства обороны в начале Первой Мировой Войне	234
54.	7.3. Организационный состав корпуса Германии	237
55.	7.4. Операции на Восточном фронте	242
56.	7.5. Основные свойства развития военного искусства в компании 1914 года	246
57.	7.6. Компания 1915 года. Нападение Германии на Восток	248
58.	7.7. Основные особенности развития военного искусства в компании 1915 года	256
59.	7.8. Компания 1916 года. Взаимодействие сил в позиционной войне.	258
60.	7.9. Операции Вердена, совершенные с 21 февраля по 18 декабря 1916 года	260
61.	7.10. Операция Сомма продолжавшаяся с 1 июня по 18 ноября 1916 года	263
62.	7.11. Разрушение Австрийско-Германской позиции со стороны Юго-Западного фронта летом 1916 года	268
63.	7.12. Основные особенности развития военного искусства в компании 1917 года	270
64.	7.13. Боевой строй батальона Германии	271
65.	7.14. Компания 1917-1918 гг Первой Мировой Войны. Поражение Германии и конец войны	272
66.	7.15. Компания 1917 года Театра войны Западной Европы	277
67.	7.16. Основные особенности развития военного искусства в	283

	компании 1917 года	
68.	7.17. Кампания 1918 года. Поражение Германии и конец Первой Мировой Войны	287
69.	VIII. Раздел. Развитие военного искусства в период Первой Мировой Войны	303
70.	8.1. Основные особенности развития военного искусства в период Первой Мировой Войны	303
71.	8.2. Создание новых военных средств	309
72.	IX. Раздел. Основные понятия о Второй Мировой Войне	311
73.	9.1. Начало Второй Мировой Войны. Создание условий для полного изменения положения в войне и сопротивления нападениям фашистов	311
74.	9.2. Ведение боевых действий в период Второй Мировой Войны	312
75.	9.3. Подразделение на периоды второй мировой войны	313
76.	9.4. Создание условий для полного изменения положения в войне	315
77.	9.5. Сопротивление советской армии нападению на порогах Москвы (5 декабря 1941 – 7 января 1942)	318
78.	9.6. Боевые действия в Западной Европе в мае – июне месяцах 1940 года, их результате и выводы	320
79.	9.7. Вторжение Германии в страны Западной Европы	320
80.	9.8. Борьба Германии против Англии	323
81.	9.9. Вторжение Германии в Балканы	324
82.	9.10. Боевой план Германии против Советского Союза, стратегическое расположение войск. Группы и положение войск Советского Союза	326
83.	9.11. Вторжение Германии в Советский Союз. Ведение боевых действий в первый период Войны	328
84.	9.12. Оборонные битвы Советской армии летом 1941 года	330
85.	9.13. Битва на порогах Москвы (сентябрь – 5 декабря 1941 г)	335
86.	9.14. Сопротивление войск Советского Союза на порогах Сталинграда	339
87.	9.15. Битва в Курске. Группировки сил и планы сторон. Оборонные битвы войск Советского Союза в направлении Курска	342
88.	9.16. Сопротивление войск Советского Союза на порогах Курска	344
89.	9.17. Изгнание фашистов из Советского Союза	346
90.	9.18. Вклад Узбекского народа в победу над фашистами Германии	349
91.	9.19. Военные действия Советского Союза в Средиземном Море в театре военных действий	363
92.	9.20. Операция «ТОРЦ» и конец военных действий в Южной Африке	366
93.	9.21. Военные действия в театре военных действий в Западной Европе (1944 – 1945 гг)	370

94.	9.22. Причины начала войны Советского Союза против Японии	372
95.	9.23. Нападение внутри Франции армии союзников.	374
96.	9.24. Причины начало войны против Японии с бывшими союзниками.	381
97.	X. Раздел. Оборонные битвы, их проблемы в период Второй Мировой Войны и их решения	397
98.	10.1. Условия перехода на оборону	397
99.	10.2. Боевые задания операций	398
100.	10.3. О боевом строе	399
101.	10.4. Развитие системы пожаротушения	402
102.	10.5. Развитие обороны против танка	405
103.	10.6. Образование обороны	407
104.	XI. Раздел. Образование военного управления	409
105.	11.1. Ведение оборонной битвы	409
106.	XII. Раздел. Битвы нападения, их проблемы в период Второй Мировой Войны и их решения	414
107.	12.1. О битве нападения, которая является основным видом битв на кануне и в период Второй Мировой Войны (1941 – 1945 гг)	414
108.	12.2. Изменения боевых заданий отделений, развитие боевых порядков и повышение тактической плотности	414
109.	12.3. Непосредственная поддержка пеших воинов	418
110.	12.4. Подготовка к нападению	419
111.	12.5. Достижение высоких картин в разрушении обороны врага	426
112.	12.6. Прослеживание врага	428
113.	12.7. Подкрепление на достигнутой цели	429
114.	XIII. Раздел. Общие понятия о местных войнах	431
115.	13.1. Военно-политическая характеристика локальных войн	431
116.	13.2. Описание крупная локальных войн, Война в Египте в 1956 году	432
117.	13.3. Агрессия Израиля против Арабских стран (1967 год)	433
118.	13.4. Война между Израилем и Арабами (6 – 25 октября 1973 год)	434
119.	13.5. Характеристика тактических действий в локальной войне: СССР – Афганистан 1979 – 1989 гг	436
120.	XIV. Раздел. Создание Вооруженных Сил в Узбекистане после Независимости	438
121.	14.1. Развитие Вооруженных Сил в Узбекистане после независимости	439
122.	14.2. Изменение в организационно-штатской системе вооруженных сил	440
123.	14.3. Подразделение на периоды реформ, проведенных в Вооруженных Силах РУз	443
124.	14.4. Сухопутные войска	444
125.	14.5. Законные основы создания Вооруженных Сил	450
126.	Приложения	452

127.	Выводы	544
128.	Использованная литература	545

## Contents

1.	INTRODUCTION	5
2.	Part I. Military history as a school subject	7
3.	Nature and core of military art and wars during different periods of human history	7
4.	1.2. Characteristics of development of initial military preparation during matriarchy	33
5.	1.3 Characteristics of development of initial military preparation during patriarchy	36
6.	Part II. History of ancients' military art and slave-owning and feudal communities' wars	44
7.	Military art of ancient Eastern countries	44
8.	The collapse of the system of sowing and the birth of slaveholding relations in ancient Greece	47
9.	2.3. Development of military preparation in Sparta's system	48
10.	2.4. City states of military slave-owning system in Athens	50
11.	2.5. Development of military preparation in ancient Greece	52
12.	2.6. Marathon's battle	58
13.	2.7. Development of military preparation in war of Peloponnesus (431-404 BC)	62
14.	2.8. War in Leuctra	65
15.	2.9. Military art of ancient Egypt	66
16.	2.10. Ancient China and its union	80
17.	2.11. Composition of army of Macedonia	87
18.	2.12. Battle of Issus in 333 BC	89
19.	2.13. Battle of Gaugamela in 331 BC	91
20.	2.14. Alexander the Great's military campaign in Central Asia and India	92
21.	2.15. Battle of the Hydaspes in 326 BC	93
22.	Part III. Military preparation in ancient Rome	95
23.	3.1. Development of military art of ancient Rome	100
24.	3.2. Military and physical preparation during the reforms of Maria	100
25.	3.3. Education in schools of Glad's rows	101
26.	3.4. Period of emperors	103
27.	3.5. Plan of Rome camp	104
28.	3.6. The Second Punic war in 218-201 BC	111
29.	3.7. Battle of the Lake Trasimeno in 217 BC	113
30.	3.8. Battle of Cannes in 216 BC	115
31.	3.9. Parthia during the period from III century BC to III century AD	117
32.	3.10. Marcus Crassus' military campaign to Parthia and the battle of Carrie in 53 BC	123
33.	Part IV. Military history of ancient nations of Central Asia	125
34.	Tactics of war and weapon conduction in ancient countries of Central	136

	Asia	
35.	Samarqand region, Orlat in I century BC	136
36.	Hostilities during the developed feudalism	148
37.	Turkic Khanate and reforms conducted in military system in countries of Central Asia in the beginning of the Middle Ages	153
38.	One-men battle of Sogdiana soldiers	156
39.	Part V. Development of military culture in the Middle Ages	158
40.	Development of military culture during the original feudalism	158
41.	Military and physical preparation during the original feudalism	159
42.	Hostilities during the developed feudalism	162
43.	Military and physical culture of feudal	163
44.	Part VI. Military and physical preparation of nation's forces	171
45.	Jalal ad-Din Mingburnu's military campaigns	171
46.	Zahiruddin Muhammad Babur (1453-1530)	174
47.	Amir Temur's art of war (1336.9.04 – 1405.18.02)	178
48.	Amir Temur's state, army creation, system of organization	183
49.	Scheme of creating battle formation in Amir Temur's army	196
50.	Development of military art in the main military campaigns of Amir Temur. Captainship of Sakhirkiran	207
51.	Part VII. First World War	231
52.	Organizational content of German corps	231
53.	Draft of defense building in the beginning of First World War	234
54.	The main features of development of military art in 1916 campaign	237
55.	Operations in the Eastern battle-front	242
56.	The main characteristics of development of military art in the 1915 campaign	246
57.	1915 campaign. German attack on the east	248
58.	The main features of development of military art in the 1915 campaign	256
59.	1916 campaign. Mutual weakening of parties in trench battles	258
60.	Verdun operation conducted from February 21th to December 18th 1916	260
61.	Operation continued from June 1st to November 18th	263
62.	Demolition of Austrian and German positions from south-western battle-front in summer 1916	268
63.	The main features of development of military art in 1916 campaign	270
64.	Battle-formation of German battalion	271
65.	1917-1918 campaign of First World war. German defeat and end of the war	272
66.	1917 campaign and the theatre of hostilities in Western Europe	277
67.	The main features of development of military art in 1917 campaign	283
68.	Creating conditions for total war status change	287
69.	1918 campaign. German defeat and end of the war	303



70.	Part VIII. Military art development during First World war	303
71.	The main features of development of military art during First World war	309
72.	New military resources creation	311
73.	Part IX. Main concepts about Second World War	311
74.	Beginning of the Second World War. Creating conditions for total change of war status and resistance of fascist's attack (june 1941 – November 1942)	312
75.	Conducting military operations during the Second World War	313
76.	Division of time periods of the Second World War	315
77.	Creating conditions for total war status change	318
78.	Soviet army's' resistance of the attack near the Moscow borders (December 5th 1941 – January 7th 1942)	320
79.	Military operations in Western Europe from May to June 1940, its results and conclusions	320
80.	9.7. Germany's invasion of Western Europe	323
81.	9.8. Germany's fight against England	324
82.	9.9. Germany's invasion of Cormorant	326
83.	9.10. The battle plan of Germany against the Soviet Union, the strategic location of the troops. Groups and position of Soviet troops before the war	328
84.	9.11. Germany's invasion of the Soviet Union. The conduct of hostilities during the first period of the war.	330
85.	9.12. Defensive battle of the Soviet army in the summer of 1941	335
86.	9.13. Battle of the threshold of Moscow (September-December 1941)	339
87.	9.13. General attacks by the troops of the Soviet Union (8.01-20.04 1942)	342
88.	9.14. Resistance of Soviet troops on the threshold of Stalingrad	344
89.	9.15. Battle in Kursk. Grouping forces and plans of the parties. Defensive battles of Soviet troops in the direction of Kursk	346
90.	9.16. Resistance of the Soviet Union troops on the threshold of Kursk	349
91.	9.17. Exile of the fascists from the Soviet Union	363
92.	9.18. Contribution of the Uzbek people in the victory over the Germany's fascists	366
93.	9.19. Military action of the Soviet Union in the Mediterranean at the theatre of operations	370
94.	9.20. Operation «TORCH» and the end of hostilities in South Africa	372
95.	9.21. Hostilities at the theatre of operations in Western Europe (1944-1945)	374
96.	9.22. The attack of the Soviet troops on the territory of France	381
97.	Part X. Defense battles, related problems during the Second World War and their solutions	397
98.	10.1 Transition conditions	397
99.	10.2 Departments combat missions	398

100.	10.3 Battle Formation	399
101.	10.4 The development of firefighting system	402
102.	10.5 The reinforcement of defense against the tank	405
103.	10.6 Defense formation	407
104.	Part XI. Military Management Education	409
105.	11.1 Introducing Defense Battle	409
106.	XII. Battle of attack, related problems during the Second World War and their solutions	414
107.	12.1 Battle of attacks, which was the basic type of attack before and during the Second World War (1941-1945)	414
108.	12.2 The reformations of departments combat missions and an increase of tactical density	414
109.	12.3 Direct support of warriors	418
110.	12.4 Preparation for attacks	419
111.	12.5 Achieve high paintings in destroying enemy defenses	426
112.	12.6 Tracking the enemy	428
113.	12.7 Reinforcement of the achieved goals	429
114.	XIII. General concepts of local warriors	431
115.	13.1 Military and political attributes of wars	431
116.	13.2 The description of local wars, War in Egypt in 1956	432
117.	13.3 Israills aggression towards Arabian countries in 1967	433
118.	13.4 War between Israil and Arabs	434
119.	13.5 The attributes of tactical actions in a local war – USSR against Afganistan 1979-1989	436
120.	XIII. The establishment of armed force of Uzbekistan	438
121.	14.1 The development of armed force in Uzbekistan after Independence	439
122.	14.2 Changes in the organizational and civilian system of armed force	440
123.	14.3 Division for periods of reform carried out in the armed force of Uzbekistan	443
124.	14.4 Ground forces	444
125.	14.5 Legal basis for the establishment of armed force	450
126.	Applications	452
127.	Findings	544
128.	References	545